



68.69 233  
A13 ✓

ABDURASHID ABDURAHMONOV

# TURKIY ADABIYOTNING QADIMGI DAVRI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND  
DAVLAT UNIVERSITETI

**ABDURASHID ABDURAHMONOV**

# **TURKIY ADABIYOTNING QADIMGI DAVRI**

**(Eng qadimdan islomgacha bo'lgan davr)**

*Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari  
bakalavr hamda magistrлari uchun qo'llanma*

*Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan bakalavriat (ta'lif  
yo'nalishi: 5220100 – filologiya (o'zbek filologiyasi) hamda  
magistriat (mutaxassisligi: 5A 220101 – adabiyotshunoslik (o'zbek)lar  
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



Toshkent

«Yangi asr avlodи»

2005

Turkiy xalqlar adabiyotining tarixi juda qadimiy davrlardan boshlanadi. Lekin islomdan avvalgi turkiy adabiyotning tarixi maxsus darslik-qo'llanma sifatida yaratilmagan. Hozirgacha mavjud darsliklarda esa bu davr to'g'risida ayrim rivoyat va afsonalar, shuningdek, toshbitiklarni keltirish bilan cheklaniladi, xolos. Turkiy xalqlar og'zaki ijodining ilk davrini barcha turkiy xalqlarning qadimgi madaniyati bilan mushtarak holatda o'rghanish masalaning mohiyatini birmuncha oydinlashtiradi. Mazkur qo'llanmada ana shu masala e'tiborga olingan bo'lib, u islomdan avvalgi turkiy xalqlar og'zaki ijodi tarixini o'rghanishda yangi ma'lumotlar beradi.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarining bakalavr, magistrleri, shuningdek, o'rta maxsus ta'lim maktablarining adabiyot o'qituvchilariga mo'ljallangan.

*Mas'ul muharrir:  
Botirxon VALIXO'JAYEV, akademik*

*Taqrizchilar:  
Nasimxon RAHMONOV,  
O'zbekiston Milliy universitetining professori, filologiya fanlari doktori*

*Rahmonqul ORZIBEKOV,  
Samarqand Davlat universitetining professori, filologiya fanlari doktori*

ISBN 5-633-01823-0

© Abdurashid Abdurahmonov. «Turkiy adabiyotning qadimgi davri». «Yangi asr avlodii», 2005-yil

## **TURKIY ADABIYOTNING QADIMIY QATLAMLARI**

*Mustaqilligimiz sharofati bilan xalq va Vatan tarixi, adabiy, ilmiy va madaniy merosning qadim-qadim zamonalarga borib taqaladigan ildizlarini chuqur va xolisona o'rganish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Shuning natijasida turkiy xalqlarning qadimgi davrlarda yaratgan adabiy-badiiy yodgorliklarini izlash, ularning namunalarini aniqlash, tahlil va talqin qilish ishlari ham jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda.*

*Ma'lumki, turkiy xalqlarning qadimgi tarixi va madaniyati jahon turkiyshunos olimlarni anchadan beri qiziqtirib kelmoqda. Bu sohada turli tillarda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, mavjud bo'lgan, aniqlangan yodgorliklar nashr etirilgan, tarjima ham qilingan. Shuning bilan bir qatorda turkiy xalqlar og'zaki ijodining go'zal namunalari bo'lgan nihoyat, afsona, doston va boshqa janrlardagi asarlari ham umumlashtirishni taqozo etadi.*

*Shunisi ham borki, turkiy xalqlarning qadimiy tarixiy va adabiy yodnomalarining ko'p qismi saqlanib qolmagan bo'lsada, ularning ayrimlari yunon, xitoy, arab, fors, german, rus, slavyan xalqlari tillariida bitilgan tarixiy-adabiy yodgorliklarda o'ziga xos tarzda ifodalangan holda saqlangan. Utlarning hammasini o'rganish, tartibga solish, ma'lum bir xulosalarga kelish esa nihoyatda ko'p mehnat va uzluksiz*

*izlanishlarni talab etadi. Bunday ishni amalga oshirish esa turkiy xalqlar qadimgi adabiyoti tarixini yaratishga qo'yilgan jiddiy qadam sanaladi. Ana shunday mas'uliyatlari vazifani anglab, uni amalga oshirishga bel bog'lagan adabiyotshunos Abdurashid Abdurahmonov ko'p yillik izlanishlari natijasi bo'l mish «Turkiy adabiyotning qadimgi davri» deb nomlangan o'quv qo'llanmasini yaratdi.*

*Mazkur qo'llanmada mumtoz adabiyotshunoslikdagi tazkira-bayoz tuzish an'anasi davom ettirilganday bo'lib tuyuladi. Chunki unda, bir tomonidan, qadimgi turkiy adabiyot to'g'risida ma'lumot berish mayjud bo'lsa, ikkinchi tomonidan, bu ma'lumotni tasdiqlovchi adabiy matnlar ancha musassal tarzda keltiriladi. Bu matnlar esa muallif tomonidan turli manbalardan to'plangan bo'lib, hatto ayrimlarini muallifning o'zi o'zbek tiliga ham tarjima qilgan. Natijada turkiy xalqlarning qadimgi davrlardan tortib milodning VIII asrgacha yaratilgan boy adabiy meros matnlari bir joyda jamlangan. Bu esa, o'z navbatida, shu davr adabiyoti tarixini o'rganuvchi bakalavr, magistrlar uchun ham, maktab, litsey, kollejlarning o'qituvchilari uchun ham va umuman olganda, turkiy xalqlarning qadimgi adabiyoti tarixi bilan qiziquvchilar uchun ham ancha qulaylik tug'diradi. Chunki o'quvchi u yoki bu yodgorlik-adabiy matnni o'qish va tahlil qilish uchun turli manbalar, nashrlarni axtarib yurmeydi. Ana shu jihatdan qo'llanmada tarixiy-adabiy matnlarni keltirishga ko'p o'rinnajratilganini ma'qullash mumkin.*

*Mazkur qo'llanmani ko'zdan kechirish shundan guvohlik beradiki, qadimgi turkiy adabiyot o'z qatlamlari, janrlar rang-barangligi, mavzularning turli-tumanligi, tarixiy-badiiy obrazlarining o'ziga xosligi bilan diqqatni jalb etadi. Ularda turkiy xalqlarning qadimiy diniy va badiiy tafakkuri jarayoni o'ziga xos tarzda ifodalangan. Shuning bilan birga bunday diniy va badiiy tafakkurning boshqa qavm va xalqlar diniy hamda badiiy tafakkuri, adabiy merosi bilan mushtarak jihatlari va farqlari ham namoyon bo'lib turadi, badiiy muammolaridan ham mulohazalar yuritiladi.*

*Umuman olganda, Abdurashid Abdurahmonovning «Turkiy adabiyotning qadimgi davri» qo'llanmasi islam*

*taraqqiyotiga qadar bo'lgan davrdagi turkiy xalqlar badiiy ijodining rang-barang mahsuli bo'lmish yodgorliklar bilan tanishish, ularning umumiy adabiy jarayon tarixida tutgan mavqeini belgilashda o'z hissasini qo'sha oladi.*

*Albatta, mazkur qo'llanma bu sohadagi ilk qadamlardan biri bo'lgani uchun undan hamma muammolar yechimini axtarish qiyin. Shunday bo'lsa-da, qo'llanma qadimgi turkiy adabiyot haqida ma'lum ma'noda ma'lumotnomasi vazifasini o'taydi. Agar muhtaram o'quvchi o'z xohish-istiklalarini bildirib, uni yanada mukammallashtirish uchun muallifga ko'mak bersa, nuran a'lo nur bo'lajak, deb o'layman.*

***Botirxon VALIXO'JAYEV,  
akademik***

## **KIRISH**

«*Tarix – xalq ma’naviyatining asosidir*». *Xalqimiz ma’naviyatining shakllanishida tariximizning uzoq o’tmishida yaratilgan badiiy adabiyot alohida qadr-qimmatga ega.* *Jahondagi ko’plab xalqlarda o’zining antik (lotincha «qadimiy») davr adabiyoti mavjud. Qadimshunos olimlar «antik» so’zini yunon va rim adabiyotiga nisbatan qo’llasalar-da, aslida Misr, Eron, Xitoy, Hindiston, Bobil (Vavilon) kabi mamlakatlarning madaniyati ham yunonlardan oldinroq (2700-2800-yillar muqaddam) yuzaga kelgan. Turkiy adabiyotning ham antik davri bo’lganmi?*

*Islomgacha bo’lgan turkiy adabiyot ham o’zining qadimiy ildizlariga ega. Bu davrda adabiyot asosan og’zaki shaklda paydo bo’lgan va rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu adabiyot tarixini o’rganish juda muhim masala bo’lsa-da, o’ziga xos murakkab jihatlari bor. Abu Rayhon Beruniy arab bosqinchilari qadimiy Xorazmni egallab bo’lgandan so’ng amalga oshirgan harakatlari to’g’risida quyidagicha qayg’urib yozadi: «Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o’rgangan va bilimini boshqalarga o’rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo’q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo’lmaydigan darajada yashirin qoldi». Buyuk mutasakkirning bu fikri faqat Xorazmdagina emas, arablar Markaziy Osiyoning, umuman, bosib olgan barcha mamlakatlarning madaniyatini, tarixini, yozuvi, adabiyotini yo’q qildi. Shuning asorati bois, islomgacha bo’lgan davrda turkiy xalqlar o’rtasida qanday ijtimoiy tuzum bo’lganligi, ularning adabiyoti, madaniyati va*

hatto diniy e'tiqodlari xususida aniq sikrlar bayon etilmaydi, ziddiyatli qarashlar yuzaga keladi.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodi tarixinining ilk davrlari o'r ganilganda turkiylar nomi bilan shuhrat qozongan ko'plab xalqlarning madaniyatiga murojaat qilish o'rni lidir. Chunki bugungi kunda mustaqil millat sisatida shakllangan o'zbek, qozoq, qirg'iz, boshqird, qoraqalpoq, turkman, uyg'ur, ozarbayjon, gagauz, usmonli turk, tatar, yoqut va boshqa xalqlar qadimgi turkiylarning avlodlaridir.

Qadimgi turkiylarning yuzaga kelishi muqaddas kitoblardan biri «Bibliya»da, shuningdek, ko'plab afsonalarda Nuh payg'ambarning farzandi Yofas nomi bilan bog'lanadi. «Bibliya»da Yofasning Go'mer, Ma'juj, Go'merning esa Ashkanoz ismli o'g'illari bo'lganligi ko'rsatiladi. Fanda Go'mer turkiylarning kimmer, Ma'juj – Gog va Mago'g, Ashkanoz – skif qavmlarining paydo bo'lishiga asos bo'lgani aytilgan. Tarix otasi Gerodot (miloddan avvalgi V asr) «Tarix» asarining to'rtinchchi kitobida skiflar va ularga yaqin qavmlarning turmush tarzi, hayoti bilan bog'langan rivoyat hamda afsonalarni keltiradi, skiflarning forslar bilan urushlarini ko'rsatadi. Bu davr tarixchilarining asarlarida turkiy qavmlar skif, kimmer, sak, massaget kabi nomlar bilan yuritilgan. Qadimgi turkiylarning hayoti Kteziy (miloddan avvalgi V-IV asr), Xares Mitilenskiy (miloddan avvalgi IV asr), Polien (miloddan avvalgi II asr), Strabon (miloddan avvalgi I asr), Diodor (miloddan avvalgi I asr) va boshqa antik tarixchilarining kitoblarida yoritilgan, rivoyat hamda afsonalari keltirilgan.

Tarixda «turk» so'zi bir qavmga mansub ko'plab xalqlarning umumiy nomi sisatida shakllandı. V asrga doir xitoy manbalarida «turk» so'zi turonliklar, turklar ma'nolarida qo'llanilgan. Bu so'z ot ma'nosida kelsa «kuch-quvvat», sisat vazifasida kelsa «kuchli, quvvatli» ma'nosini bergen. Bundan tashqari, u «yetuk», «bilimdon», «dono» kabi tushunchalarni ham ifodalaydi. Eramizgacha Turk xoqonligi katta hududda hukmronlik qilgan. VII-II asrlarda Janubiy Sibiri, Enasoy (Enasoy) va Irtish daryosi bo'yłari, hozirgi Mojariston, (Vengriya), Chexiya va Slovakiya, Hazar dengizi bo'yłari, Eron, Iroq, Suriya va Turkiya davlatlari

*o'rnida sak-iskit imperiyasi barpo bo 'lgan. Qadimgi turkiylar yashaydigan hududlar Sharq manbalarida Turon, yunon tarixchilarining kitoblarida esa Skifiya mamlakati deb yuritilgan.*

*Turkiy xalqlar og 'zaki ijodining qadimgi davrlarini tiklash va o'rganish uchun yetarli asoslar bor.*

*I. Ijtimoiy-siyosiy aloqalar, tildagi so 'z, ibora va atamalar, diniy tushuncha, tafakkurlarning yaqinligi hamda bir xilligi jihatidan antik davrdagi ayrim xalqlarning madaniyati va adabiyotida turkiylarga xos umumiyligi tipologik yaqinliklar bor. Shu nuqtai nazardan qaraganda, miloddan avvalgi uch minginchi yillarda Kichik Osiyoda yashagan shumerlarning diniy tasavvurlari, tili va adabiy qarashlarida mushtaraklik seziladi. Yoki hozirgi O'zbekiston hududida islomga qadar mesopatamiyaliklarning qishloqlari bo 'lganligi to 'g 'risida arab tarixchilari yozib qoldirgan ma'lumotlar ham qimmatlidir.*

*II. Eng qadimgi davrlardan islomgacha yashagan tarixchilarning asarlarida turkiylarning ajdodlari – iskit, kimmer, sak, massaget va boshqa qavmlarning tarix maydoniga kelishi, orzu-umidlari, qahramonligi va turli xil turmush urinishlari haqida saqlangan barcha asotirlar, afsona va rivoyatlar turkiylarga mansub millatlar uchun teng darajada xizmat qiladigan adabiy yodgorliklardir.*

*III. Antik davr adabiyoti, jumladan, yunon adabiyotida turkiy xalqlar hayoti yoritilgan asarlar ham mavjud. Shuningdek, bu adabiyotda turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan rivoyat hamda afsonalardan ham foydalanish yoki turkiy adabiy syujetlarning ko 'chib o 'tishi an 'analari seziladi. Hatto yirik eposlarning bir xil syujetga («Odisseya» va «Algomish») egaligi yoki turkiy qavmlar o 'rtasida Prometey to 'g 'risida mavjud adabiy syujetlar yunon adabiyotida turli adabiy janrlardagi asarlar yaratilishiga asos bo 'lishi qadimgi xalqlar adabiyotini qiyosiy o 'rganish masalasini o 'rtaga qo 'yadi.*

*IV. Har bir xalqning o 'ziga xos shakllanish jarayoni mavjud. Turkiy qavmlarning ham bir necha millat sifatida shakllanishi aynan shunday xususiyatga ega. Qadimgi Xitoy yilnomalari, O 'rxun yodgorliklari, Rashididdinning «Jome'*

*ut-tavorix» (XIII asr), Mirzo Ulug'bekning «To 'rt ulus tarixi», Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajara turk», «Shajara tarokima», Hasan Ato Abushiyuning «Turkiy qavmlar tarixi» kabi asarlarida bu masala tarixiy nuqtai nazardan chuqur yoritilgan. Turkiy xalqlarning ibtidoiy shakllanish davrlari – qavmlarga nom qo'yish, ularga dono urug'boshlig'inining otalik qilishi ko'plab badiiy asarlarda o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda «O'g'uznom», «Qo'rqu ota kitobi», «Turk xoqoni Shu va Iskandar» (Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobida saqlangan syujet asosida) kabi dostonlar turkiy xalqlar og'zaki ijodining qadimgi davrlarini yoritishda muhim adabiy manba sanaladi.*

*V. Miloddan avvalgi VII asrlarda skif-kimmerlarning hukmdorlaridan biri Prototey, otasi Paritiy bo'lgan. Paritiy ossuriy tarixchilarining ma'lumotiga ko'ra Go'g (Gog)ning o'g'lidir. Go'g va Mago'g – Ya'juj-Ma'jujar turkiy qavmlarning eng jangovar urug'laridan sanalib, shimoldagi davlatda hukmronlik qilishgan va VIII-VII asrlarda Kichik Osiyodagi deyarli barcha davlatlarni izmlariga bo'ysundirishgan. Yunon va ossuriy tarixchilari skiflarning ulkan sarkardasi sisfatida tan olingan Madini Prototeyning o'g'li deb bilishadi. Madi esa uzoq asrlar davomida turkiy adabiyotda Alp Er To'nga, forsiy adabiyotda Afrosiyob nomi bilan tasvirlangan qahramonning tarixdagi prototipidir. Demak, bu qahramon faoliyati bilan bog'langan turkum rivoyatlar, afsonalar va dostonlar turkiy adabiyotning qadimgi davrlarini tiklashda boy yodgorlik hisoblanadi.*

*VI. O'rxun-Enasoy toshbitiklarining topilishi qadimgi turkiy yozma adabiyot mavjud bo'lganligining beqiyos namunasidir. Bu bitklarda aks etgan badiiy tasvir, g'oya xalq og'zaki ijodida yaratilgan asarlar bilan hamohang turadi. Osmonni muqaddas Tangri deb tushunish turkiylar uchun hamma davrlarga xos xususiyat bo'lgan va islomgacha bu ta'limot o'z qimmatini yo'qotmagan.*

*VII. Milodimizning III asridan boshlab moniylik, VIII asrning ikkinchi yarmidan buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyotning yuzaga kelishi yozma adabiyot shakllanishiga ham asos bo'ldi. Turk olimi Reshid Rahmet Aratning tasnifiga ko'ra, qadimgi turkiy yozma adabiyotga asos solgan*

*shoirlarning hayoti va ijodi to 'g 'risida quyidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan.*

1. *Aprinchur Tegin* (ikki she'ri bilan taniqlidir). 2. *Kul Tarxon* (yolg'iz nomigina saqlangan). 3. *Singku Seli Tutung* (*Turk o'lkalari va ularning ko'lami kengligidan bahs yuritgan mashhur Chin sayyohi Husn-Tsangning sayohatnomasini o'ninchi asrning birinchi yarmida turkchaga ustalik bilan tarjima qilgan shoirdir. Bu tarjima Parij milliy kutubxonasida saqlanadi).*

4. *Ki-ki* (*Burxan-Budda muhitida yetishgan bu shoirning ikki she'ri saqlangan*). 5. *Pratyay-Shiri* (*Sanskritchadan tarjima qilgan, lekin shoirning turkcha ismi saqlanmagan*). 6. *Asig Tutung* (*birgina to'rtlikning ichida nomi keltirilib o'tiladi*). 7. *Chusuya Tutung* (*Burxon muhitida yetishgan bu shoirning «Gevezelik Bo'yasi» bir she'ri mavjuddir*). 8. *Kalim Keysi* (*Burxon rahbarlari avlodidan sanalgan bu shoirning birgina she'ri saqlangan*). 9. *Chuchu* (*«Devonu lug'otit turk»da nomi keltirilgan bu shoirning hech qanday asari saqlanib qolmagan. Balki koshq'arliklar tilidan yozib olingan ajoyib o'git va o'rnatklarning bir qismi bu shoirga tegishlidir*).

*O'zbek adabiyotshunosligida turkiy adabiyotning antik davrini belgilash masalasiga birinchilardan bo'lib professor Abdurauf Fitrat kirishgan edi. U «O'zbek adabiyoti namunalari» kitobida o'zbek adabiyotining dastlabki davrini «Qabilaviy adabiyot» deb hisoblaydi. Uning fikricha, qabilaviy adabiyotning eng muhim ko'rinishi doston adabiyotidir. Bu o'rinda u «Chistoni Eligbek hikoyasi», «Alpomish» dostoni, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobidan «Yoz o'yinlari» (6 ta to'rtlik), «Ovdan urushqa» (12 ta to'rtlik)ni ko'rsatadi. Ikkinci davrni esa «Feodallik davri adabiyoti» deb nomlaydi va unga VIII asrdan islomiy adabiyotgacha bo'lgan davrni asos qilib oladi. Ikkinci davr adabiyoti namunalari qatoriga esa O'rxon yozuvlaridagi adabiy parchalar, «Alp Er To'nga» marsiyasi (8 ta to'rtlik), «Yoz haqida» (5 ta to'rtlik) hamda «Qo'rqu ota kitobi» dostoni, shuningdek, «Devonu lug'otit turk»dan axloqiy-ta'limiy xususiyatga ega bo'lgan she'riy parchalar kiritilgan. Fitrat o'zbek adabiyoti tarixining uchinchi davrini «Savdo sarmoyasi davri adabiyoti» deb ataydi hamda uning namunasi sifatida*

*Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq» va o'zbek mumtoz adabiyotida so'nggi asrlarda yaratilgan o'nlab asarlardan parchalar beradi.*

*Islomgacha bo'lган turkiy xalqlar og'zaki ijodini alohida davr sifatida o'rghanish dolzarb masaladir. Chunki bu davrda turkiylar o'rtasida diniy e'tiqodlar boshqachaligi, qavmlar shakllanish davrini o'taganligi, mifologik tasavvurlarda jahon xalqlari bilan umumiy o'xshashlik holatlari mavjudligi badiiy adabiyotdagi g'oyaviy yo'nalish o'ziga xos tarzda ro'y bergenligini ko'rsatadi. Turk olimi Ahmed Qabogli islomgacha bo'lган turk adabiyotini to'rt davrga bo'lib o'rghanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. U davrlashtirish tamoyiliga turk qavmlari va davlatlarining tarixda tutgan o'rni nuqtai nazaridan yondashadi:*

1. *Saka turklar davri (miloddan avvalgi VII-II asrlar).*
2. *Xun (Kun) turklari davri (miloddan avvalgi III va milodimizning II asri).*
3. *Ko'k turklar davri (552-745-yillar).*
4. *Uyg'urlar davri (745-840-yillar).*

*Bizning nazarimizda, turkiy adabiyotni bunday davrlashtirish, birinchidan, uning tarixiy qatlamlarini unutishga sabab bo'ladi, ikkinchidan, qadimgi davrlarda turkiylarning jahon xalqlari madaniyati, adabiyoti bilan mushtaraklik tomonlarini ochib berishga monelik qiladi.*

*Qadimgi turkiy adabiyot davri haqida fikr yuritilganda, albatta, Markaziy Osiyoda turkiy xalqlar bilan yonma-yon yashagan, bu hududdagi madaniyatni yaratishda birga xizmat qilgan boshqa xalqlarning turmush tarzi va adabiyotiga ham murojaat etish kerak. Masalan, «Avesto» zardushtiylik nuqtai nazaridan ko'p xalqlarga bir o'lchamda xizmat qiladi.*

*Fanda adabiyotlar tarixi ijtimoiy-siyosiy hayot va adabiy jarayondagi o'zgarishlarga tayanilgan holda turli davrlarga bo'lib o'rghanigan. Albatta, turkiy adabiyot tarixinining qadimgi davrlari bo'yicha to'plangan adabiy manbalar ham uni turlichcha davrlashtirish imkonini beradi. Uni shartli tarzda uch davrga bo'lish mumkin:*

1. *Turkiy qavmlarning shakllanish davri adabiyoti (miloddan avvalgi VII asrlardan toshbitiklarga) bo'lган davr.*

2. Turkiy xalqlar og 'zaki ijodining jahon xalqlari adabiyoti bilan mushtaraklik, ya'ni miloddan avvalgi uch minginchi yillardan VIII asrlargacha bo 'lgan davr.

3. Turkiy adabiyotda yangi, ya'ni O 'rxun-Enasoy yodgorliklari yoki «qabr toshlari» davri adabiyoti.

Mazkur qo 'llanma yaratilishiga ana shu uch davr asos bo 'ldi va bu davlarga tegishli adabiy matnlar 6 qismga bo 'lib o 'rganildi. «Turkiy adabiyotning qadimgi davri»da adabiy matnlar ko 'proq keltirildi. Chunki bu matnlarning ko 'pchiligi shu paytgacha mavjud darslik-qo 'llanmalarda uchramaydi. Ba 'zilari esa to 'ldirildi va yangicha tahlil etildi. Shuningdek, kitobda berilgan ayrim adabiy matnlar kam nusxada yoki jurnal variantida chop etilgani bois talabalar to 'la darajada xabardor emaslar. Shu jihatdan qaraganda, kitob o 'ziga xos o 'quv-xrestomatiya vazifasini ham o 'taydi.

Turkiy xalqlar og 'zaki ijodida yaratilgan asarlar orasida umumiy turkiy, shu bilan birga ma 'lum bir turkiy xalqlar qahramonligi, orzu-umidlari natijasida yuzaga kelgan yetuk eposlar mavjud. Mazkur qo 'llanma filologiya fakultetlarida «O 'zbek adabiyoti tarixi» yo 'nalishi bo 'yicha olib boriladigan ixtisos kursi hamda tanlanma fanlar mashg 'ulotlariga mo 'ljallangan. Dars soatlari hamda qo 'llanma hajmidan kelib chiqib, barcha turkiy xalqlar og 'zaki ijodi to 'g 'risida keng ma 'lumot berish imkon bo 'lmadi. Masalan, qozoqlarning «Er targ 'in», xakaslarning «Oltin arig '», oltoylarning «Ay kuchin» dostonlari ham g 'oyaviy-badiiy qimmatiga ko 'ra yetuk asarlardir. Shu sababli qo 'llanmaga tahlili yoki matni kiritilmagan boshqa eposlar ham mustaqil mashg 'ulotlarda o 'rganilishi ko 'zda tutilgan.

Qo 'llanma yuzaga kelishida o 'zining xolisona maslahatlarini, ayamagan akademik B. Valixo 'jayev, professorlar N.Rahmonov, B.To 'xliyev, I.K.Mirzayevlarga muallif o 'zining samimi minnatdorchiliginibildiradi.

## *BIRINCHI QISM*

### *QADIMGI TURKIYLARNING DINIY MAROSIMLARI VA ULARNING BADIY ADABIYOTDAGI IFODASI*

Miloddan avvalgi 2000-yildan oldinroq turkiy xalqlar Markaziy Osiyoda Oltoy-Ural tog‘laridan Mo‘g‘ulistongacha bo‘lgan kengliklarda yashashgan. Hozirgacha turkiy qavmlarning bosh bo‘g‘ini va o‘z davlatchilik tarixiga ega bo‘lgani skif – «iskit»lardir. Ularning davlati miloddan avvalgi VII asrlarda katta mavqe egallagan. Forsiy zabon xalqlar ularni «sak»lar deb atashgan. Skiflardan so‘ng eramizning beshinchi yuz yilliklari orasida Arshakiylar davlati yuzaga keldi. Arshak – er sakning o‘zgargan shakli bo‘lib, jasur, mard, bahodir saklar ma’nosini beradi. Yevropa tarixchilar ularni kimmerlar deb atashgan. Arshakiylar davlati Eronning Sharqiy qismi, Turkmaniston, Anatoliya (Turkiya)ni o‘z ichiga oladi.

Skiflar bilan bir davrda miloddan avvalgi VII asrlarda Kengaras davlati ham yuzaga kelgan. Bu davlat Samarqand, Kesh, Kushon, Toshkent, Buxoro, Xorazmni o‘z ichiga olgan bo‘lib, eramizning V asrlarigacha yashagan.

G‘arbiy Yevropada esa turkiylarning xun imperatorligi yuzaga keldi. U tarixda Attila xunlari deb ham yuritiladi (374-yildan boshlangan). Uning birinchi hukmdori Balamirdir. Imperatorlikning so‘nggi hukmdori Attilla (434-453-yillar) hisoblanadi. 367-560-yillarda Oq xun imperatorligi yuzaga keldi. Uning asoschisi Kun xon edi. Bu davlat tarkibiga Hindistonning yarmi, Afg‘oniston va Turkistonning katta qismi kirgan. 386-557-yillarda esa Tabg‘ach davlati paydo bo‘ldi. Uning asoschisi Shamoxon bo‘lib, davlatining hududiga Markaziy Osiyodagi Qoshg‘ar,

Turfon viloyatlari, O'rxun vodiysidagi jo'jan davlatining sharqiy bir qismi kirgan. Shundan so'ng islomgacha Eltarish xoqon, Bilga xoqon kabi turkiy hukmdorlar yashaganligi toshbitiklar orqali ma'lum. Turk xoqonligining Oltoy, Janubiy Sibir va O'rta Osiyoning bir qismidagi hukmronligi VIII asrgacha davom etdi.

Turkiylar ulkan hududlarda yoyilib yashadilar. Islom dinini qabul qilgunlarigacha ular turli diniy shakllar va oqimlarga amal qilishgan.

## TOTEMIZM

**Totemizm** (*Shimoliy Amerika hindularining ojibve qabilasi tilidagi «totem» – «uning urug'i» so'zidan olingan*) dinning insoniyat tarixida bundan 30–40 ming yil, balki bundan ham avvalroq yuzaga kelgan ilk shaklidir. Totemizmga sig'inuvchi xalqlar o'zlarini biror-bir hayvon, o'simlik yoki jonsiz narsadan paydo bo'lgan deb tushunadilar. Turkiy xalqlar o'zlarining ota-bobolari ho'kiz, ot, ilon, bo'ri, it, bug'u kabi hayvonlardan kelib chiqqan deb tushunishgan va ularga e'tiqod qo'yishgan.

Gerodotning «Tarix» kitobida skiflarning birinchi ajdodlari dunyoga kelishi bilan bog'langan afsonalar totemizmning yorqin namunasidir.

*Targ'itoy afsonasi. Ma'budlar ma'budi Zevs bilan Borisfenesa daryosining yarmi ilon, yarmi ayol qizidan bиринчи odam tug'ildi. Kimsasiz cho'lda paydo bo'lgan bu odamning ismi Targ'itoy edi. Undan Lipoqsay, Arpaqsay, Qoloqsay degan uch o'g'il dunyoga keladi. Bir kuni osmondan omoch, arqon, bolta va tovoq yog'iladi. Ular oltindan yasalgan edi. Katta va o'rtancha o'g'il ularni olishga yaqinlasholmaydilar. Faqat kichik o'g'il kelganida ulardan tarqalgan nur to'xtaydi va u oltinlarni uyiga olib ketadi. Shundan so'ng Qoloqsayga shohlik in'om etiladi. Bu skiflarning birinchi shohidir. Skiflar Targ'itoyning ana shu uch farzandidan tarqalishgan.*

Gerodot yozishicha, Lipoqsayning avlodlari «Axvatovlar», Arpaqsayniki «Katiaram» va «Trasinam», Qoloqsayniki «Paralatam» nomi bilan shuhrat qozongan. Qoloqsaydan shoh-jangchilar, Lipoqsaydan kohin va din vakillari, Arpaqsaydan dehqon va chorvadorlar tarqalishgan ekan.

*Skifning tug‘ilish afsonasi. Gerakl Gelion buqalarini haydab, o’sha zamonlarda kimsasiz yurt bo‘lgan, keyinchalik skiflar egallagan joylarga kelib qoladi. Gerakl sovuqdan o’zini saqlash uchun yo‘lbars terisini yopinib olgan edi. Kunlardan bir kuni u qattiq uyquga ketganida, oti g‘oyibona yo‘qolib qoladi.*

Gerakl otini qidirib ko‘pelarga boradi. So‘ngra Galeyey degan joyga keladi. Bu yerda u odamsifat Ilon qizga yo‘liqadi. Ilon qizning yuqori qismi ayol zotiga o‘xshassa, quyi qismi ilonga o‘xshaydi. Taajjubga tushgan Gerakl undan «Begona otga ko‘zing tushmadimi?» deb so‘raydi. Ilon qiz Gerakl agar o‘zi bilan qovushsa, otini berajagini aytadi.

Chorasiz qolgan Gerakl Ilon qizning bu taklifiga rozi bo‘ladi. Biroq Ilon qiz otini tezda qaytarib bermaydi. U Gerakl bilan yana tanmahramlikni davom ettirishni xohlaydi. Gerakl undan otini qaytarib olib, tezroq o‘z yurtiga ketish uchun qizning hamma shartlarini bajarishga rozi bo‘ladi.

Nihoyat, qiz Geraklga otini qaytarib berar ekan, shunday deydi: «Sening oting biz tomonlarga kelganda, men uni ehtiyot qilib yashirib qo‘ygandim. Evaziga sen meni mukofotlading. Endi men sendan uch o‘g‘il tug‘aman. Aytchi, ular ulg‘aygandan so‘ng nima qilishi kerak?» Ilon qizning savoliga Gerakl shunday javob beradi: «Sen o‘g‘illaringga shunday shart qo‘ysan, ularidan qaysi birisi bu yoyni men kabi kuch bilan torta olsa, unga mening qayishim bilan o‘z yeringni berasan. Qolgan ikkisini bu

yerlardan haydab yuborasan». Shunday qilib, Gerakl o'zining yoyi bilan oltin tovoqsimon to'qali qayishini Ilon qizga qoldiradi.

*Kunlardan bir kuni Ilon qiz uchta o'g'il tug'adi. Ulardan biriga Agofir deb nom qo'yadi, ikkinchisini Gelon deb ataydi. Uchinchisi, eng keyin tug'ilganiga Skif deb nom beradi. Uch o'g'lidan ikkitasi, ya'ni Agofir va Gelon otasi Gerakl qo'ygan shartni bajara olmagani uchun Ilon qiz ularni mamlakatdan quvib yuboradi. Eng keyin tug'ilgan kichik o'g'il Skif otasi Gerakl shartlarini bajargani uchun Ilon qiz unga tovoqsimon oltin to'qali qayish bilan bepoyon yerlarini beradi. Shundan buyon skiflar bu ellarda paydo bo'ladilar (prof. F. Boynazarov tarjimasi).*

Har ikki afsonada ham skiflarning dunyoga kelishi Ilon bilan bog'langan «Skifning tug'ilishi» afsonasida Skifga katta ishonch va hurmat bildirilgan. Geraklning o'g'illari orasida bahodiri, mergani, ya'ni otasidek pahlavoni Skifdir. Bu afsona asosida skiflar yunonlar bilan qarindosh degan qarashlar ham mavjud. Bu o'rinda Gerakl shaxsiyati haqida to'xtalib o'tish o'rinnlidir. Yunonlarning afsonaviy qahramoni Gerakl tug'iladigan paytda xudolar Olimp tog'ida bazm qurib o'tirganlar. Dunyo hokimi Zevs yerda, odamlar orasida bir farzand tug'ilishi, u kelajakda buyuk ishlarni bajarib qahramon bo'lishi va butun Yunonistonga hukmronlik qilishini bashorat etadi. Bu bola Fiva malikasi Alkmena va shohi Anditionning farzandi edi. Gerakl yunoncha «Gera (Zevsning xotini) maqtagan» degan ma'noni beradi. Zevs Alkmenani buyuk qahramonga ona qilib tayinlaydi. Biz Alkm - yonida turkiycha «Ena» so'zini his qilamiz. Gerakl nomi mazmun nuqtai nazaridan qaraganda, **Ger** – o'g'li ma'nosini beradi. Qadimgi lotin mifologiyasidagi **Ger** – **kules**, xristian mifologiyasidagi **Geor-giy**, turkiy mifologiyadagi **Kor** – o'g'li, **Geor** – o'g'li, **Go'r** – o'g'lining ma'nosini ham shunday xususiyatga ega.

Gerakl pahlavon bo'lib yetishar ekan, arslon terisini yopinib yurishi To'ng ibn Turk ibn Yofas alayhissalom davrida vahshiy hayvonlarning terisini libos qilib kiyish odat tusiga kirib qolganligini eslatadi. Geraklning yo'lbars terisini yopinishi yo'lbarsdek kuchliliginining ramzi bo'lib, bu skif-turkiylarning o'z qahramonlaridagi bahodirlilikni kuchli hayvonlar bilan tenglashtirish belgisiga yaqin turadi. Gerakl chaqaloqligida uning tagiga qo'chqor terisini – po'stakni to'shab qo'yadilar. Bu belgi ham chorvador skiflarga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir. Geraklning birinchi qahramonligi arslonni o'ldirishdan boshlanadi. Arslon juda katta va og'ir bo'lgani uchun Gerakl uni olishayotgan mahali ko'tarolmaydi. Shunda arslonning terisini boshi bilan shilib oladi va o'zining ustiga yopadi. Geraklning bunday qahramonligi go'yo Alp Er To'nga – arslondan ham kuchli bahodir laqabiga sazovordek ko'rindi. Gerakl qilich, kamon va yoy bilan jangga otlanishida O'g'uz xoqonning o'rmonda paydo bo'lgan odamxo'r, bayaybat yirtqichni yo'qotish uchun yo'lga tushishi yoki Alpomish bahodirligini ko'ramiz. Hayot haqiqatiga asoslanadigan bo'lsak, Geraklning kamonsozligi kimmeriy va skif mernanlarining umumlashgan obrazini ham eslatadi. Mirzo Ulugbekning «To'rt ulus tarixi» kitobida O'g'uzxonning o'z o'g'illariga kamon va o'q taqsimlashi voqeasi ham keltirilgan.

**Bo'ri totemi** turkiy xalqlar og'zaki ijodida urug' boshi, balo-ofatlardan saqlovchi madadkor kuch sifatida ulug'langan. Masalan, «O'g'uznama»da bo'ri asar syujetini rivojlantiruvchi asosiy obrazdir. U qabilaga madadkor, g'amxo'r, ularni o'z panohida asrovchi kuch sifatida ko'ringan. Bunday tasvir o'zlarini bo'ridan kelib chiqqan deb hisoblovchi ashin urug'i bilan bog'lanadi. Hozirgacha xalqimiz o'rtasida aytilib kelingan «Cho'loq bo'ri», «Bo'ri qiz», «Bo'ri» kabi afsonalar va ertaklarda ezgulik g'oyalari ifodalangan.

O‘z ajdodlarini hayvonlardan kelib chiqqan deb hisoblash yoki pahlavonlarini bolaligida kuchli hayvonlar tarbiyasiga olib, onalik qilishini tasvirlash skiflar mifologiyasiga xos bo‘lgan xususiyatlardan hisoblanadi. Bunday mifologik tushuncha qadimshunoslikda skif-hayvonot uslubi deb e’tirof etilgan. Skiflar hayotiga tegishli qadimiylar obidalarda ham hayvonlar tasviri kuzatilgan. Turkiy qabila va urug‘lar tarixiga nazar tashlanadigan bo‘lsa, tibetlar ota-bobolarimiz erkak maymundan va ayol o‘rmon ruhidan, mo‘g‘ullar kulrang bo‘ri va bug‘udan, tulislar bo‘ri va xun amaldorlarining qizidan, ashin urug‘i xun shahzodasi va urg‘ochi bo‘ridan kelib chiqqanmiz, deb aytganlar. Enasoy afsonalarida yosh bolalarga bug‘u onalik qilgan.

**Bo‘ri urug‘lari afsonasi.** G‘arbiy dengiz qirg‘og‘ida yashagan turkiylarning ota-bobolari qo‘shti qabilalar tomonidan qirib tashlandi. Faqat o’n yoshli bola yashirinib tirik qoldi. O’sha yerlarda yashaydigan urg‘ochi bo‘ri unga xotin bo‘ldi. Ochlikdan qutqarish, dushmanlardan yashirinish uchun bo‘ri o’sha bolani olib Turfon tog‘lariga qo‘chib ketdi. Tog‘da bir g‘or bor edi. U yerda urg‘ochi bo‘ri o‘nta bola tug‘di. Bolalarning otasi o’sha qutqarilgan turk edi. Bo‘ri bolalari Turfondagi ayollarga uylandi. Har bir boladan bir urug‘ kelib chiqdi. O‘g‘illaridan birining ismi Ashin edi. Uning nomi hamma qabila nomini anglatadigan bo‘ldi. Ashin boshqa aka-ukalariga qaraganda qobiliyatliroq, ham aqlliyoq edi. Shu sababli Ashin yangi qabilaning dohiysi bo‘lib qoldi. Urug‘ soni asta-sekin bir necha yuz kishiga yetdi. Ashinning merosxo‘rlaridan biri, qabila dohiysi Asya shad bo‘ri avlodlarini Turfondan Oltoy yerlariga olib keldi. Bo‘ri avlodlari bu yerda jujanlarning fuqarosiga aylanib, ularga temir qazib berar edilar. Oltoyda ular turk nomini oldilar.

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida **ot totemiga** ham alohida ahamiyat berilgan. Arxeologik qazishmalar davrida yarmi

ot va yarmi odam shaklidagi tasviriy asarlarning topilishi ham otga e'tiqodning qadimiy ramzidir. «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarda G'irot, «Alpomish»da Boychibor, qirg'iz eposi «Manas»da Oqla, oltoy turkiylarining eposi «Maaday Qora»da Karish Quloq kabi otlar obraziga katta e'tibor berilishi totemistik qarashlar natijasidir. Masalan, «Manas»da ot tasviriga («Manasning bug'doy berib Oqlani olgani») maxsus fasl bag'ishlanadi. No'yg'ut xoni Qaracha Manasga otini sotar ekan, uning fazilatini shunday ulug'laydi:

*Qula tegsa qo'lingga,  
Xayoling o'sar, quyular.  
Badbaxtlik bari yo'yilar,  
Baxt to'shalar yo'lingga.*

Otda inson boshiga tushadigan baxtsizlikning yo'qolishi hamda baxtning kelishiga ishonish totemistik tushunchalardir. Quyidagi tasvirlarda esa otning qudrati jangda insonga uning o'zidan ham ko'proq matonat va jasorat ko'rsatishi ulug'lanadi. Dostonda Oqlanining tug'ilishi ham ilohiylikka bog'lanadi.

*Tortiq tulpor, zap tulpor,  
Quyrug'i soz, yoli soz,  
O'zi gijing, bo'yni g'oz,  
Shundog'am suluv jonivor...  
Nayza ushlab, to'p buzib,  
Duv-duvga minar ot – shu ot.  
Yov kelsa suron turg'izib,  
Shov-shuvga minar ot – shu ot.  
Askar olib sakson lak,  
Dovga minar ot – shu ot.  
Lashkar olib to'qson lak,*

*Yovga minar ot – shu ot.  
Popukli nayza sanchgani,  
Yakkama-yakka yanchgani,  
Maydonga minar ot – shu ot.  
Qo 'ltiqda qo 'shqanot bor,  
G'oyib tuqqan zot tulpor,  
Qironga minar ot – shu ot!*

Ot totemi oltoy eposlarida ham mavjud. «Ay kuchin» afsonasida saman ot va qulunning dafn etilishi shunday xususiyatga ega.

Totemistik tushunchalar ifodalangan afsonalarni qozoq xalq og'zaki ijodida ham ko'plab uchratamiz. Bunday ruhdagi afsonalarning bir nechtasini rus etnografi G.N.Potanin to'plab nashr etgan («Казак-киргизская и алтайская придания, легенды и сказки», Петроград, 1917).

**Tabiatdagi ulkan narsa.** Tirik jonivorlar orasida eng kattasi – baliq, jonsizlar orasida – qamish; jonlida baliq ulkan, jonsizda qamish yo'g'on.

Dunyodagi eng katta tog‘ – Kap-tau, eng katta suv Muhit, eng katta daraxt – qamish, hayvonlar shohi – sher, arslon, qushlardan semurg‘dir. Semurg‘ning ikki boshi bor. Bir boshi odamlarga xos gapiradi, ikkinchisi qushlardek kuylaydi. Eng katta ilon – ajdaho, eng katta baliq – jayin.

**Qo‘rqmas sigir.** Qadim zamonalarda Surayyo o'n ikki yulduzdan iborat ekan. U paytlarda bahor, yoz bo'lмаган, faqat boqiy qish hukmronlik qilgan. Shunda hayvonlar Surayyoni tutish va uni yo'qotishga qaror qilishibdi. Ot to'rtta, tuya esa ikkita yulduzni ushlabdi va uni oyog'ining ostiga olib, majaqlab tashlabdi. Oltitasi esa sigirning tuyoqlari ostiga tushibdi. Ammo sigir yulduzlarni ezg'ilamabdi, oltovi ham sog'-omon qolibdi. Shundan beri qish olti oy davom etadigan bo'libdi. Shunda barcha hayvonlar ajablanishib, sigirdan so'rashibdi.

- Nega yulduzlarni qo‘yib yubording?  
Sigir shunday javob beribdi:
- Issiqda qovjiragandan ko‘ra, saharlab sovuqda yurgan yaxshi.

Shundan beri sigirlar sovuqdan qo‘rqishmas ekan.

## ANIMIZM

**Animizm** (*lat. Anima – jon, ruh*) odamlarning tabiatga sig‘inishi va unga itoat etishi asosida yuzaga kelgan din shakli hisoblanadi. *Anima* («jon» va «ruh») odam vafot etganidan so‘ng uning joni tabiatdagi jonsiz narsalarga ko‘chishiga inonishdir. Animistik tushunchaga ko‘ra, inson tabiatdagi narsa-hodisalar bilan o‘zini mushtarak holda tasavvur etadi, tabiat inson qiyanganida, u ojizlikka tushib qolganida unga jonli odamdek yordam beradi. Turkiy xalqlar o‘rtasida saqlangan ko‘plab afsonalarda animizm tushunchasi o‘z ifodasini topgan. Masalan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi «Oq bilakxon» ertagida yigit toshga aylanishi, «Ochil-ochil qamishlar», «Yoriltosh»da qizlarning iltijolari, yolvorishlari natijasida mo‘jizalar ro‘y berishi buning yorqin misolidir.

Qadimgi turkiylar tabiat kuchlarida pinhoniy kuch va ruhning borligiga ishonishgan. Ularning fikricha, oy, quyosh, momaqaldiroq va chaqmoqlarning ham o‘z ruhi mavjud. Go‘yo ruhlar erkaklik va ayollik jinsiga mansub edi. Ayol ruh malikasi «O‘may» deb atalgan. Mahmud Koshg‘ariy ona qornidagi bolalarni O‘may muhofaza qiladi, deb hisoblashi ham uning ruhlarga bo‘lgan ishonchini ko‘rsatadi. Yer va suvni, ayniqsa, kuchli ruhga ega deb hisoblashgan. Bular turkiy qavmlar o‘rtasida turlicha nomda «Yer-Su», «Yer-Sub», «Yer-Suv», «Suv-Yer», «Yir-Sub», «Sub-Yer» ) aytilgan. Qadimda turkiy qavmlar istiqomat qilgan Sibir (Sibir) vodiysining nomi ham ana shu muqaddas tushunchalar hosilasi bo‘lgan degan farazlar mavjud.

Qadimgi turkiy xalqlarga mansub «Odamning yaratilishi» afsonasi ham animizm mahsulidir.

**Odamning yaratilishi.** Qadim zamonda yomg'irdan hosil bo'lgan sellar Qoratog'chi degan bir tog'dagi g'orga loyni surib keltirdi va bu loylarni odam shakliga o'xshagan yoriqlarga to'kdi. Suv bilan tuproq bir muddat bu yoriqlarda qoldi. Quyosh saraton burjida edi, issiqligi juda ham kuchli edi. Quyosh, suv va tuproq o'sha narsani qizdirib pishirdi. Bu g'or xotinning qorni vazifasini bajardi. Suv, tuproq va quyoshning harorati unsurlaridan iborat bo'lgan bu uyumning ustidan to'qqiz oy muttasil shamol esdi. Shundan keyin to'rt unsur birlashdi. To'qqiz oydan keyin bu yaratilgandan inson shaklida bir maxluq chiqdi. Bu insonga turk tilida «Ay Atam» deb ism berildiki, bu «Oy ota» demakdir. Bu «Oy ota» degan kishi toza havoli, shirin suvli yerga tushdi. Kuchi kundan-kunga ortdi, o'sha joyda qirq yil qoldi. So'ngra sellar bir qancha vaqt oqdi, g'ordagi yoriqlarga yana loy to'ldi. Quyosh Sunbula burjida edi. Quyosh bu tuproqni pishirdi, buning oqibatida tuproqdan yaratilgan inson xotin kishi bo'ldi. Bu xotin kishiga «Ayva» oti berildi. Bu «Oy yuzli» demakdir. Oy ota bilan Ayva turmush qurdilar. Ulardan qirq bola dunyoga keldi. Yarmi erkak, yarmi ayol edi. Bolalar ham bir-birlari bilan turmush qurdilar. Ona va otalari vasot etganlaridan keyin ularning jasadlarini g'orga ko'mib, og'zini oltin eshik bilan yopdilar va eshikning yoniga gullar qo'ydilar.

Beruniy «Hindiston» asarida qadimgi turkiy shohlardan biri Barhategin tabiatdagi jonsiz narsadan mo'jiza topganligi haqidagi animistik afsonani keltiradi.

**Barhategin afsonasi.** Hindlarning Qobulda turklardan podsholari bo'lgan. Aslida ular tibetliklar bo'lgan deyishadi. Ulardan birinchi bo'lib kelgan Barhategin edi. U hech kim kirishi mumkin bo'lmagan bir g'orga chalqancha yotib, surilib kirgan va uning ichida suv bor bo'lib, u bir necha kunlarga

*yetadigan taomni ham shu joyga g‘amlagan. Bu g‘or hozirgacha ham ma‘lum bo‘lib, Var deb ataladi. Uni tabarruk deb ishongan kishi u yerga kirib, qiynalib bo‘lsa ham, o‘zi bilan birga o‘sha suvdan olib chiqadi. G‘or og‘zida bir to‘da dehqonlar ishlar edi. Chunki bunday ishlar, agar biron kishi bilan kelishilmasa va u kishi o‘sha joyni odamsiz qolmasligi uchun odamlarga kecha-kunduz navbat bilan ishni davom ettirishni yuklamasa, bu mumkin ham bo‘lmaydi. Ish yurishmaydi ham.*

*Barhategin g‘orga kirganidan bir qancha vaqt o‘tgandan keyin odamlar to‘planishib turgan chog‘da xuddi onadan yangi tug‘ilgandek, g‘ordan birov chiqib keladi va uni hamma ko‘radi. U turklarga o‘xshab egnida to‘n, boshida do‘ppi, oyog‘ida mahsi kiygan va yarog‘ taqib olgan edi. U kishi bir ixtirochi va podsholik uchun yaratilgan inson uchraydigan ta‘zimga sazovor bo‘ldi. Keyin o‘sha yerlarni o‘ziga qaratib, o‘zini Qobul shohi deb atadi. Podsholik ancha vaqtgacha, oltmish yillar chamasi uning avlodи qo‘lida turgan.*

## KO‘K TANGRI DINI

Ko‘k Tangri turkiy qavmlarning eng qadimiy dinidir. Ularning fikricha, ko‘k yuzi Tangri bo‘lib, u falakning, yerning hukmdoridir. Quyosh, oy va yulduzlar Tangrining atrofidagi ko‘kning yuziga joylashgan muqaddas tushunchalardir. Ko‘k Tangri zaminga hayot, odamlarga jon beradi, istasa qaytarib oladi. Hatto turk xoqonlari ham Ko‘k Tangrining xohishi bilan taxtga o‘tiradilar. Kul tegin toshbitiklarida shunday satrlar bitilgan:

1. *Tangri toq. Tangridan bo‘lgan  
Turk Bilga xoqon bu yerga o‘lturdim.*
2. *Yuzada Ko‘k Tangri  
Ostda qora yer qilindi.  
Ikkisi aro kishi o‘g‘li qilindi.*

Birinchi parchada turkiylar Tangrining yagonaligiga ishonch bildirishi ularning milliy ongi yuqoriligini ko'rsatadi. Chunki qadimda shumer, yunon, rum va boshqa qavmlar ko'pxudolikni tasavvur etganlar. «Turk Bilga xoqon Tangridan bo'ldi» iborasida xoqonlar ham hokimiyatni Tangridan olishiga inonishdir. Turkiy qavmlar Tangri so'zini ko'k-osmon hamda Tangri, Xudo ma'nosida qo'llaganlar. Ikkinci parchada shunday ma'no ifodalangan bo'lib, inson farzandi osmon va yer o'rtasida Tangri tomonidan yaratilganiga ishora etilgan.

O'rxun-Enasoy yodgorliklarida «Tangri-tek-Tangri» birikmasi uchraydi, uning ma'nosi ham Tangrining tanholigini e'tirof etishdir. Tangri – tek-Tangri – osmondek Tangri yoki Ollohhedek Ollohh, Ollohhga o'xshaydigan Ollohh deyilishida Tangrining qiyofasi uchun hech bir sifat, o'xshatish yo'q, u faqat Tangrining o'ziga o'xshaydi, degan qarash ifodalangan. Ko'kning Tangri sifatida qabul qilinishi, ko'k qobig'idagi osmoniy jismlarning ham muqaddasligini belgilaydi. Shu sababli ham turkiylar osmon jismlarida ilohiylikni sezadilar. Gerodotning yozib qoldirishicha, turkiylarning antik davrlarda yashagan qavmlaridan biri massagetlar Quyoshni yagona Tangri deb bilganlar. Quyosh sharafiga otlarni qurbanlik qilishgan. Ularning tushunchasiga ko'ra, Tangriga qanchalik tez qurbanlik qilinsa, u borliqqa nurini shunchalik tez sochadi.

Osmon jismlariga Tangri sifatida sig'inish milodimizning III asrida alohida din sifatida ko'ringan. U Xitoyda 215-yilda tug'ilgan Moniy nomi bilan bog'langandir. Moniy «Shopurqon» asarida o'z diniy ta'limotining tamoyillarini bayon etgan. Beruniy «Hindiston» asarida keltirishicha, Moniy yozgan edi: «Boshqa xalqlar bizni Oyga va Quyoshga sajda qilib, bu ikkovini sanam o'rnida tutishimizni ayblaydilar. Oy va Quyosh bo'lsa bu olamga chiqishimizning yo'li va eshidir. Iso ham shunday fikrda bo'lган».

Ko'k Tangri dini moniylikdan mutloq farq qiladi. Moniylikning osmon jismlariga sig'inishi, ularni Xudo darajasida anglashi yangilik bo'lmay, bunday qarashlar qadimgi davrdagi Kichik Osiyo xalqlari, jumladan, shumerlar hayotida, xususan, adabiyotida o'z ifodasini topgan. Hatto turkiylarning massaget qavmi ham quyoshni yagona Xudo deb tan olishi ta'kidlandi. Ko'k Tangri dini esa butun osmon yuzini Xudo deb tushunadi. Tangrining osmonda ekanligiga ishonch bildiradi. Osmon Tangri hisoblangani uchun shu osmonda joylashgan Quyosh, Oy va Yulduzlar muqaddas sanaladi.

Turkiy qavmlarning Ko'k Tangri diniga e'tiqodi «O'g'uznomalar» dostonida yorqin ifodasini topgan:

### *Kunlardan bir kun*

*O'g'uz xoqon bir yerda Tangriga yolvorar  
edi. Qorong'u tushdi. Ko'kdan  
bir ko'k nur tushdi. Quyoshdan yorug',  
oydan yorqinroq*

*edi. O'g'uz xoqon u tomonga yurdi, ko'rdiki,  
o'sha yerning orasida bir qiz  
bor edi. Yolg'iz o'tirar edi.*

*Yaxshi, chiroyli bir qiz edi. Uning boshida otashga  
o'xshash yorug' bir xoli bor edi, xuddi  
oltin qoziq yulduziga o'xshar edi. U qiz shunday  
chiroyli ediki, kulsa, ko'm-ko'k  
osmon kuladi, yig'lasa ko'm-ko'k osmon  
yig'laydi.*

Bu parchada Ko'k Tangrining obrazi turkiy qavmlar tasavvuri darajasida chizilgan. O'g'uz xoqon Tangriga yolvorganda ko'kdan tushgan nur Tangrining mehri edi. Bu nur oldida Quyosh va Oy nuri ojizdir. Demak, turkiylar uchun ko'k mavjud ekan, Quyosh va Oy Tangri bo'la

olmaydi. Badiiy adabiyotda Tangrini yor, ma'shuqa timsolida tasavvur etish an'analari mavjud. O'g'uz xoqonga nur orasida ko'ringan chiroyli qiz – bu Tangri edi. U shu qadar qudratli kuchki, kulsa osmonni (o'z makonini) kuldiradi, yig'lasa yig'latadi.

Dostonda O'g'uz xoqon o'ziga hamroh tutingan nurdan uch farzand ko'radi. Ularga Kun, Oy, Yulduz ismlari beriladi. Demak, bunday nomlanishda ham osmon jismlari Tangri emas, aksincha ular Osmon – Tangrining mehridan yuzaga kelgan muqaddas farzandlardir.

Professor N.Rahmonov «Ko'hna bitiktoshlar» kitobida keltirishicha, «Sibirdagi turkiy va boshqa xalqlar tilida ham Tangrining ilohiy mazmuni va osmon ma'nosi saqlangan. Masalan, evenklar tangara deb osmon va xudoni aytadilar. Mordvalar esa Tangri deganda faqat osmonni tushunadilar. Mo'g'ullarda ham Tangrining faqat osmon ma'nosi bor, ilohiy mazmuni yo'q. Yoqturlarda ilk mifik ko'rinishi – keyingi davrdagi turli afgona qoldiqlari singdirilgan holda saqlangan.

Qadimgi turkiy muhitdagi Tangri obrazi qorachoy-bolqor folklorida ham uchraydi. Qorachoy-bolqorlar qadimgi turkiy madaniyatga asoslangan mifologik tasavvurlarning katta qatlamini saqlagan. Qorachoy-bolqorlar mifologiyasidan bizgacha turk-mo'g'ul panteoni Tangriga bag'ishlangan uchta gimn-qo'shiq saqlangan. Ularning har biri o'ziga xos kuya va ijro xususiyatiga ega. Tangri bu qo'shiqlarda yer, osmonni yaratuvchi, yerdagi barcha jonzotlarning homiysi sifatida kuylanadi».

Qadimgi yunon va turkiylar tafakkurida xudo osmonda tasavvur etilishiga ko'ra mushtaraklik, shu bilan birga farqli tomonlar ham mavjud. Turkiylarda Ko'k deyilganda ikki ma'no – Tangri (ramziy) va osmon (asl) tushunilgan. Beruniy «Hindiston» asarida ko'rsatishicha, yunonlar ham Zevsni ramziy va tabiiy ma'noda tushunganlar. Miloddan

oldingi V asrda yashagan yunon shoiri Kratos falakni Zevs deb atagan. Bu ramziy ma'nosidir. Zevs xudolar xudosi ekanligi uning tabiiy ma'nosi hisoblanadi. Turkiylarda Ko'k misolida Tangrining yagonaligi tan olinadi va ulug'lanadi. Yunon mifologiyasida esa ko'p xudolik targ'ib etiladi hamda xudolar odam shaklida tasavvur etiladi. Har bir xudoning o'z vazifasi bor. Ular o'lmasligi bilan odamlardan farq qiladi. Lekin xudolar odamlar ko'zidan uzoqda, hamisha bulutlar bilan qoplangan Olimp tog'ida yashaydilar. Qadimgi turkiylar ham Zevsni o'zlariga Tangri deb tushunishi va boshqa ma'budalarga ham sig'inishi ular ham diniy e'tiqodlarining ilk shaklida ko'p xudolikni tan olganligini ko'rsatadi. Tangrining yagonaligiga ishonish esa turkiylardagi diniy qarashlar asrlar davomida shakllanib borganligidan nishonadir.

Gerodot skif mifologiyasiga asoslanib, Gestiya, Zevs, Geya, ulardan keyin Apollon va Falak Afrotidasi, Gerakl va Aris, Poseydonlarni skiflar sig'inadigan xudolar deb ko'rsatadi. Tarixchi qadimgi yunon tilidagi xudolar nomining skifcha nomlanishini ham keltiradi: Gestiya – Tabiti, Zevs – Papay, Geya – api, Appolon – Toytosir, Falak Afrotidasi – Argimpasa, Poseydon – Fagimasad. Tabiti oila, olov xudosi nomi bilan ulug'lanadi va Zevsning xotini Geya bilan tenglashtiriladi. Unga «skiflar malikasi» nomi beriladi. Antik davr bilimdonlaridan biri D.S.Rayevskiy skif shohi Qoloqsay o'z hukmdorligini mustahkamlash maqsadida ma'buda Tabitika uylangan, degan fikrni bayon etgan. F.Sulaymonovaning skif tilida Zevs Papay, Geya – Api deb nomlanishiga Papay turkiy tilda boboy, ota, Api – opa, ona deb izoh berishi ham e'tiborga loyiqidir. Bu so'zlarning hozirgi turkiy lug'atlarda o'rni saqlanib qolgan va iste'molda bor. Skiflar Gestiya – Tabitini xudolarning eng birinchisi deb bilishi va sig'inishi ehtimol otashparastlikning ta'siridir. Yunon mifologiyasida otash ma'budi – Gefest ikkinchi darajali ma'budlar qatorida turadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining muqaddas yodgorligi «Avesto» ham yunon va Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasining ma’budlari o’rtasida yaqinlik borligini ko’rsatadi. Masalan, butun ma’budlar ma’budi Zevs vazifasini oliv shoh Ahura Mazda bajaradi. Olov ma’budi Gefest Zevsning, olov ilohi Arta esa Ahura Mazdaning o’g‘li. Yunonlarda qonli urushlar ma’budi Ares, zardushtiylarda yovuz kuchlar ilohi Angra Manyu, Quyosh ma’budi yunonlarda Gelios, Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasida esa Mitra, yunonlarda barcha ma’bud va ma’budalar Olimp, Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasida Xara tog‘larida turib, olamni boshqaradilar.

**Gelios va mitra.** Quyosh ma’budlari Gelios va Mitranning ilohiy qudratidagi yaqinliklar bu ikki ma’budning yaratilish ildizi bitta degan xulosani beradi. Gelios va Mitra ham otash aravada osmonda uchadilar. Yunon mifologiyasida Geliosning hayoti bilan bog‘liq bir tasvir berilgan. Gerakl Qizil orolga kelib, Gerion podasini haydab ketishi kerak edi. U O’rta yer dengizi sohiliga kelib, narigi qirg‘oqqa o’tishga qiynalib qoladi. Shu payt osmonda quyosh xudosi Gelios o’t aravasi bilan tushib kelayotganligini ko’radi. Gelios har kuni o’t aravasini shu yerda qoldirib, oltin qayiqda narigi qirg‘oqqa suzib o’tar edi. Gelios Geraklning maqsadini anglab yetgach, uni qayig‘iga o’tqazib oladi. O’t aravasini qirg‘oqda qoldirishi bilan yerni qorong‘ulik qoplaydi. Ertasi kuni yana o’t aravasida osmonga chiqadi. Kechqurun oltin qayiqda yana dengizning narigi qirg‘og‘iga suzib o’tadi. Gelios Geraklning iltimosiga ko’ra podasini yerga olib chiqish uchun unga oltin qayig‘ini beradi. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasida ham Mitra aravasiadolat, e’tiqod, haqiqat sari yo‘l ochib boradi. Mitranning Geliosga yana bir yaqinlik tomoni shundaki, Mitra ham hududsiz yaylovda podalarga, sigirlarga yordam beruvchi ma’bud sifatida ko’rinadi. «Avesto»da Mitranning bu fazilatini yorituvchi shunday satrlar keltirilgan:

*Qo'li kushod holatida kim  
Eltar esa sho'rlik sigirni.  
U podasin yodga oladir  
Va madadga chorlar Mitrani:  
«Qachon bizni olisda qolgan  
Podamizga qaytarar Mitra.  
Hududsizdir yaylovi uning,  
Qachon bizni yolg'on hukmdan  
Xalos etib qaytaradir u  
Haqiqat tomon».*

Ma'bud va ma'budalar ilk daf'a qaysi xalqning tafakkurida paydo bo'lganligini isbotlash qiyin. Lekin aytish kerakki, yaratilgan mislarda ma'budalarning ma'budi osmon bilan bog'lanadi, ularning turadigan joyi yerdan balandda – tog'da, osmonda ko'rsatiladi.

Miloddan oldingi ikki minginchi yillarda Kichik Osiyo xalqlari, chunonchi hatti, xett, akkad, palay kabi xalqlarning yozuvlarida momaqaldiroq, quyosh, oy xudolari to'g'risida misflar keltirilgan. Bu xalqlarning adabiyoti ko'proq shumer xalqining mif va afsonalarga boy hamda osmon jismlarini xudo deb tushungan diniy ta'limoti asosida yaratilgandir. Quyosh qadimgi turkiy qabilalar orasida massagetlarning yagona xudosi hisoblangan. Xett va xurrit tillari orqali bizgacha yetib kelgan «Quyosh gimnida» massagetlarning ovozini eshitish mumkin. Gimnda Quyosh xudolar orasida eng muqaddasi bo'lib, unga ulug' hokimiyat berilganligi kuyylanadi. Quyoshga sig'ingan xalq o'zini qul deb hisoblaydi, Quyosh uchun qurbanlik qilishni zarurat deb biladi.

## SHOMONIYLIK

**Shomoniylıq** (*Eyenk tilida shaman – ruhoniy*) qadimgi turkiylarning diniy e’tiqod shakllaridan hisoblanadi. Uning asosini yovuz va ezgu ruhlarning inson hayotiga ta’sir etishiga ishonish tashkil etadi. Shomoniy ruhoniylar – shamanlar odamlar huzurida ruh bilan aloqaga kirishganlar va bo‘lajak voqealarni oldindan aytib bergenlar. Gerodotning ko‘rsatishicha, shomonlikning tarixi miloddan avvalgi XI asrlarga borib taqaladi.

Arab tarixchisi Juvayniy shunday yozadi: «Mo‘tabar mo‘g‘ullardan eshitdimki, qora qishda yalangoyoq bo‘lib, tog‘larga chiqib ketgan bir kishi bor edi. U: «Tangri bilan gaplashdim. Buyurdiki, yer yuzini Timuchin va o‘g‘illariga berdim, aslini Chingizzxon qo‘ydim», deydi. Bu odamga Tab Tangri deyishardi». Tab Tangri – shomon bo‘lib, u kelajakdan xabar beruvchidir. «Qo‘rqt ota kitobi»da Qo‘rqt ota turkiylar qavmini jipslashtirish, ularning turmush tarzini yaxshilashga rahnamolik ko‘rsatgan ulug‘ siymodir. Shu bilan birga u o‘z qavmining kelajagini ayta olish qobiliyatiga ko‘ra shomonlikning vakili sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Shomoniylıq turkiy qavmlar o‘rtasida qom deb yuritilgan. Qomlar bola dunyoga kelishi bilan uning qismatidagi voqealardan xabar bergen. Qo‘rqt ota o‘z qavmida tug‘ilgan bolaga «ismini men berdim, umrini Tangri bersin» deb, duo qilishi shomonlik vazifasini o‘tashidir. Eron tarixchisi Juvayniy keltirishicha, qom ilmidan xabardor uyg‘urlar shaytonlarga ham hukmini o‘tkazishga harakat qilganlar.

Qomlar qor va yomg‘ir yog‘dirish sehrini ham egallahsgan. Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘otit turk» kitobida bu voqeaga shohid bo‘lganligini eslaydi: «Bir tosh (yat-yada) bilan kohinlik qilinadi, shamol va yomg‘ir

chaqiriladi. Bu hol turklarda juda keng tarqalgan bo‘lib, men ham uning shohidi bo‘ldim. Yozda katta bir yong‘in chiqqan edi. Uni o‘chirish maqsadida Ollohnning izni bilan qor chaqirildi va u yog‘ib, yong‘in so‘ndi».

Qomlar yada toshlari sehri bilan yomg‘ir yoki qor yog‘dirishi to‘g‘risida ko‘plab rivoyat, afsona, tarixchi olimlarning esa hayotiy kuzatishlari bitilgan xotiralar yetib kelgan. Yada toshlarining paydo bo‘lishi Nuh payg‘ambarga bog‘lanar ekan. Turk olimi Usmon Turon shunday rivoyatni keltiradi: Nuh payg‘ambar Turkistonni o‘g‘li Yofasga bergenida, u bu suvsiz o‘lkada nima qilishini so‘raydi. Ota unga yomg‘ir yog‘dirish qudratini baxsh etib, ustiga duo (ismi a’zam) yozilgan bir tosh (tilsim) beradi. Ya’ni ehtiyoj bo‘lganda, shu tosh bilan Ollohgaga duo etib, yomg‘ir yog‘dirilar edi. Toshni «yada, toshi» (yada – jada, jodugarlik demakdir – A.A.) deyishardi. Rivoyatlarga ko‘ra, tosh o‘g‘uzlar qo‘liga o‘tgani uchun unga ega bo‘lish maqsadida qorluq, hazar va boshqa turklar o‘rtasida urushlar bo‘lgan. Turklarning ajdodiga Olloh yomg‘ir yog‘dirish qobiliyatini bergani haqidagi rivoyatlar Xitoy, islom va nasroniy manbalarda ham ko‘p marta zikr etilgan.

Ahmad bin Yusuf al-Tifoshiy Ahmad bin Abu Xolidning «Kitob ul-Axjar» asari asosida yada toshlari bilan bog‘liq rivoyatni keltiradi: «Xorazmshoh (Alouddin Muhammad)ning qo‘shtida bir turk istagan paytda yomg‘ir yog‘dirgan. Yog‘ingarchilik vaqtida Surxob nomli bir qush paydo bo‘lib, tuxumdek keladigan toshlar tashlagan. Ular to‘planib, hukmdor xazinasida saqlangan va kerak bo‘lganida ulardan yomg‘ir yog‘dirish, dushmanqa qarshi bo‘ron turdirish maqsadida foydalanilgan…

Keksa bir turk chodir ichida yomg‘ir yog‘dirishga kirishganda, biz ham xazina boshchilar bilan birga usti ochiq bo‘lgan o‘zga bir chodirda edik. U oldiga suv to‘la bir idish

qo'ydi. Keyin uch dona qalin qamishni suvning o'ngu so'liga tiqib, oxirgisini ko'ndalang qilib qo'ydi. Ingichka va qizil yada toshi rangidagi ilon dumini ko'ndalang yotgan qamishga yonma-yon yotqizib, boshini suvning tepasida tutdi. Keyin ikkita yada toshini suvga solib, bir-biriga ishqadi. Bu ishni yetti marta takrorlar ekan, unga shogirdlari yordam berib turdi. Nihoyat, yadachi boshi ochiq, sochlari to'zg'igan, yuzi asabiy va ko'pchigan holda boshini ko'kka qaratdi-da, ikki soat davomida yomg'ir duosini o'qidi, nihoyat, osmonni bulut qopladi va qattiq jala quydi».

Shomonlar yaxshi turmush tarzini orzu qilganlarida ezgu ruhlardan madad olganlar. Oltoy turkiylari ezgulik ruhini tog' timsolida ko'radilar va u bilan muloqotga kirishadilar.

*Quyosh aylanmas po 'lat tog',*

*Oy aylanmas po 'lat tog',*

*Ona o 'rmonlarining yopinchig 'i*

*Muqaddas buyuk tog'.*

*Otalarimiz, buyuklarimiz senga topindilar.*

*Bu biror yaxshilik keltiradimi?*

*Abadiy yashayajak urug 'imizga foyda beradimi?*

*Qo 'limizdan tutib yetaklaydimi?*

*Ey, beshik ruhini yaratgan,*

*Suruvlarimizga barokat ber! .*

*Yurtimizga yashash baxsh etgin!*

Shomonlar turkiylarning kelajakdag'i hayotini bashorat qilganlar. Turk olimi A. Qabqolli «Turk adabiyoti» kitobida shomoniyliking bu xil vazifasi aks etgan ikki she'riy parchani keltiradi. Telenget shomonlari oxirzamon ko'rinishini shunday bashorat qilganlar:

*Oxirzamon kelganda,  
Osmon temir bo 'lib qolur.  
Yer bokir bo 'lib qolur,  
Xoqon xoqonga yopishar.  
Qattiq tosh maydalanur.  
Ota o 'g 'ilni tanimas,  
O 'g 'il otani tanimas.  
Pogir o 'ti qimmatlanur.  
Ot boshidek katta oltin,  
Bir tovoq oshga arzimas.  
Oyoq ostidan oltin chiqar,  
Uni oluvchi yo 'q bo 'lur.  
Qora yerga o 't yog 'ilar.  
Qayra xonla Xuday ota (Tangrilar)  
Bunga tutar qulog 'in.  
Bu hangomadan dunyo buzilar.  
Dengizlar chayqalar.*

Oltoy shomonlari ham oxirzamon belgilarini quyidagicha anlar:

*Qora suv qon bo 'lib oqadi,  
Yer guldirar, tog 'lar o 'rnidan siljir.  
Ko 'k qimirlar, parchalanar,  
Dengizlar oqar tagi ko 'rinib.  
Dengiz tubida to 'qqiz qo 'lli qora tosh,  
To 'qqiz yeridan parcha-parcha bo 'lur.  
U yerdan to 'qqiz temir otli kishi chiqar,  
Ular mingan otlar,  
Yirik, sariq, urushqoqdir.  
Daraxtlarga tegsa uni sindirar,  
Jonivorga tegsa tilka-pora qiladi.  
(O 'sha lahzada) oyning yorug 'i yo 'q bo 'ladi,  
Daraxtlar tomiri bilan sug 'iriladi.*

**Magiya** yoki so‘zning sehr-jodu kuchiga ishonish shomonlikning shakli hisoblanadi. Ibtidoiy davrlardan boshlab odamlar tabiatdagi narsalardan qo‘rqib yashaganlar. Tabiiyki, qo‘rqish va murakkab turmush sharoiti ularning turli xil kasalliklarga chalinishiga sabab bo‘lgan. Qadimgi xalqlar bu hodisalarни yomon ruhlarning inson taniga o‘rnashib olishi bilan bog‘laganlar. Shu sababli ularni inson tanidan quvib chiqarish zarur deb o‘ylaganlar. Shu bois, ezgulik ruhlari yomon ruhlarni yo‘qotish uchun odamlar orasidan iqtidorli shaxslarni tanlaganlar va homiylik qilganlar.

Turkiy qavmlar o‘rtasida kasallangan odamlarni qadim zamonlardan boshlab so‘zning sehr-jodu qudrati orqali davolash bilan maxsus shug‘ullanuvchi shaxslar bo‘lgan. Gerodot «Tarix» asarida skiflar qavmi o‘rtasida sehrgarlik bilan shug‘ullanuvchilar ko‘p bo‘lganligini ta’kidlaydi. Ayrim manbalarda, masalan, Narshaxiyining «Buxoro tarixi» kitobida Turon mamlakati hukmdori Afrosiyobga ta’rif berilar ekan, «u jodugar Nuh podshoning bolalaridan» deb ko‘rsatiladi. Sehrgarlik Nuhga va Afrosiyobga bog‘lanishi turkiy qavmlarning bosh bo‘g‘iniga mansub hukmdorlar ham sehr-jodu ishlarini bilishiga ishoradir. Tabariyning «Tarixiy Tabariy» asarida esa Afrosiyobning o‘g‘li Shad sehrgar bo‘lgani va Eron lashkarlariga xavf tug‘dirganligi keltirilgan.

So‘z sehri bilan yomon ruhlarga qarshi kurashish jarayonida yuzaga kelgan matnlar sekin-asta janr xususiyatini ola boshlagan. Turkiy xalqlar o‘rtasida islomdan so‘ng ham so‘z magiyasi rivojlangan, ular afsunlar (arabcha sehr-jodu) deb yuritilgan. Bu afsunlar hozir ham mavjud bo‘lib, ular mullalar tomonidan o‘qiladi. Afsunlarning matnlari asosan islom dini ta’limotiga aloqadordir. Shu sababli ular turkiy adabiyotning namunasi hisoblanmaydi.

So‘z magiyasi matnlari orasida qadimgi turkiylar tomonidan yaratilganlari ham saqlangan. Markaziy Osiyoda yashovchi o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq xalqlari o‘rtasida badik marosimlari mavjud. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida «badik» so‘zi «titroq», «darza» ma’nosi bilan izohlanadi. Bu so‘zning «bezgak» ma’nosi ham mavjud. Badik inson tanida suvchechak, qizilcha, eshak yemi kabi toshmalar chiqsa, unga qarshi so‘z kuchi orqali kurashiladigan marosimlardir. Badik matnlari yomon ruhlarni quvishga qaratilgan. Professor B.Sarimsoqov o‘z tadqiqotlarida bu matnlarning turkiy xalqlar o‘rtasida saqlangan parchalarini keltiradi.

O‘zbeklarda:

*Ko ‘ch-ko ‘ch ko ‘chasan,  
Ko ‘char yering men aytsam.  
Qizib yotgan go ‘rga ko ‘ch,  
O’lik yotgan mozorga ko ‘ch.  
O ‘li bilan mo ‘liga ko ‘ch,  
Bor, javobing beraman.  
Tegirmoning do ‘liga ko ‘ch,  
Iyiq bilan biyikka ko ‘ch.  
Tovda yurgan kiyikka ko ‘ch,  
Qizil egar naqshiga ko ‘ch,  
Boqolmagan baxshiga ko ‘ch.*

Qoraqalpoqlarda:

*Ko ‘sher bolsang, ko ‘sh bedik,  
Taylarga ko ‘sh,  
Tayding artin jaylagan  
Baylarg ‘a ko ‘sh.  
Onnan jaylay toppasang  
Men aytayin,  
Qara basin oylag ‘an  
Xanlarga ko ‘sh.  
Ko ‘sh, ko ‘sh.*

Qozoqlarda:

*Badik, badik degende bastay keldik,  
Barsha shapa basina jastay keldik,  
Osi auilda bir badik bar degenge,  
Yetin alip, suyegin tastak keldik.  
Ko 'sh! Ko 'sh! Ko 'sh!  
Degenge burma badik, burma badik,  
Buralip bosag 'ada turma, badik,  
Buralip bosag 'ada turma, badik,  
Keledi uyisine ulken kadik,  
Ko 'sh! Ko 'sh! Ko 'sh!*

So‘zning magik qudratidan kinnachi (suq, hasad, kek, o‘ch, xusumatni qaytarishga kurashuvchi)lar ham foydalanishgan. Ular aytgan matnlar ham yomon ruhlarni quvish ruhida yaratilgan. Badikchilar va kinnachilarning sehr-joduli so‘zlarida buyruq ohangi birinchi o‘rinda turadi. So‘zning butun kuchi, ezgulik ruhi homiylik qilayotgan kishining qahr-g‘azabi yomon ruhni inson tanasidan haydashga qaratiladi.

## BUDDIZM YOKI BURHONLIK

**Buddizm yoki burhonlik** (*Buddha nomidan olingan. Sanskritcha buddha – nurlangan*) miloddan avvalgi VI-V asrlarda paydo bo‘lgan va jahon xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan dinlardan biridir. Buddizmning asoschisi Siddhartta Gautama (623-544)dir. Bu din ta’limotiga ko‘ra ruh ko‘chib yuradi, u qayta tug‘iladi, jonli va jonsiz narsalar shakliga kiradi. Qadimgi turkiylar ham budda dini aqidalariga ishonishgan. Hozirgacha buryat, qalmoq, tuva va Sibirda yashaydigan boshqa turkiy qavmlar o‘rtasida buddaga e’tiqod qo‘yanlar bor.

Budda (burhonlik) dinining ta'limoti turkiylarning badiiy adabiyotida ham aks etgan. A.Qaboqli «Turk adabiyoti» kitobida burhonlik ifodalangan she'rlardan birini keltiradi:

*Taqdirda ochlik va qahatchilik bo'lgani uchun  
uch-to'rt ofat kelur.*

*Shu onda yomonlik ketib, sukunat bo'lur.*

*Boshqa besh dunyodagi maxluqlar ham,*

*Istisnosiz, hammasi birdan-bir joyga qovushadi.*

*Onam va otam boshqa bo'lganligi uchun  
barcha jonlilar,*

*Har vaqt dunyoga kelish ne'matidan bahramand bo'lur.*

*Butun avlodlar abadiy emasligini bilib,*

*Burhon saodatini unutmasinlar.*

*Ushbu ezgulik va ezgu amal qarshisida,*

*Burhon saodatini topdim, men Kamala Anantashira,*

*Oyoqda yurgan kishilarning o'g'illariga*

*Ruh ko'chganda huzur-halovatga erishtirayin.*

Ananta buddizm tarixidagi muqaddas ibodatxonadir. Unda oltin va bronzadan yasalgan budda haykallari bo'lgan. Shu sababli ham burhonlik ruhi sug'orilgan asarlarda Anantaga murojaat etish ruhi kuchlidir. Turkiylar budda butlarini «Burhon», ibodatxonalarini esa «Burhon uyi» deb atashgan. «Oltin yoruq» asari ham burhoniylik ta'limotining nodir namunalaridan biri hisoblanadi.

Budda dinining paydo bo'lishi miloddan avvalgi 623-544-yillarda yashagan Siddhartha Gautama nomi bilan bog'langan. Budda - sanskritcha nurlangan degan ma'noni beradi. Uning asl mohiyati insoniyatni azob-uqubatlardan qutqazishdan iboratdir. «Oltin yoruq»dagi Mag'astvi o'z jonini qurban qilishdan maqsad ham ana shu ta'limotga, bu dunyodagi azob-uqubatlardan qutulishga qaratilgan. «Oltin yoruq» turkiy tilga xitoychadan tarjima qilingan.

Buning boisi, budda ta'limoti Osiyo mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib Xitoyga, milodimizning I asrlarida, kirib kelgan. IV-VI asrlarda esa Xitoy orqali Koreya, so'ngra Yaponiyaga o'tgan.

Demak, budda ta'limotining Markaziy Osiyoga kirib kelishi, unga e'tiqod qo'ygan kishilar o'rtasida budda g'oyalari singdirilgan badiiy asarlarni o'qishiga ehtiyoj tug'dirgan. «Oltin yoruq»da budda ta'limotiga asos bo'lgan to'rt dunyoqarash – «haqiqat» singdirilgan: 1) turmush azob-uqubatlardan iborat; 2) azob-uqubatlar yuzaga kelishining sababi – odamlarning istak va nafslari; 3) bu azob-uqubatlardan qutulish uchun odamlar o'z istak va nafslarini tiyishi kerak; 4) budda kashf etgan aqidalarga amal qilish azob-uqubatlardan ozod qiladi.

Mag'astvi – hayotda o'z istak va nafsiga erkinlik bergen, ammo o'z xatosini anglagan kishilarning umumlashma obrazidir. U faqat bir davrda yashagan odamlarning emas, balki, insoniyat nomidan gapirar ekan, yuz ming yillar davomida yaxshi turmush kechirib, gunohga botgan shaxslarning umumlashmasidir. Mag'astvi o'zlikni yo'qotib, lazzatli umr kechirish, mol-mulk toplashga berilishni keskin qoralaydi. Mag'astvi bunday hayotni kechirilmas gunoh, azob-uqubat, tanning chirkin holatga tushishi deb tushunadi va o'z jonini qurban qilish bilan undan xalos bo'ladi. O'z akalari ham azob-uqubatdan qutulishning bunday yo'lini tushunishlarini istaydi («Oltin yoruq» asari haqida qo'llanmaning «Turkiy adabiyotda badiiy tarjima» faslida batafsil ma'lumot berilgan).

## MONIYLIK

Moniylik ta'limoti xitoylik Moniy ibn Fatak (216-276) nomi bilan bog'lanadi. Uning ta'limoti koinotda nur bilan zulmat o'rtasida kurash bo'lishiga asoslanadi. Shu sababli

ham nur – Quyosh, Oy, ya’ni nur taratuvchi osmon jismlari muqaddas sanaladi va ularga Tangri nomi bilan sig‘iniladi. Nur va zulmat o‘z mantig‘ini yaxshilik va yomonlik kurashida topadi. Moniylik VIII asrda uyg‘urlar o‘rtasida asosiy din sifatida tarqalgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Buguxon 762-yilda Chin (Xitoy)ga safar qiladi. U yerda Moniy rohiblari bilan tanishadi, mamlakatiga qaytishida rohiblarni o‘zi bilan birga Qorabolg‘asun shahriga olib keladi. Moniylik turkiy adabiyot rivojiga ta’sir ko‘rsatgan dinlardan biridir. Bu oqimning ta’sirida turkiy adabiyotda «Xuastuanift» («Moniylar tavbanomasi») asari yuzaga kelgan. Uning qadimgi turkiy tildagi uchta nusxasi ma’lum. Ulardan London va Berlin nusxasi moniy, Sankt-Peterburg nusxasi esa eski uyg‘ur yozuvida bitilgan. Asarning yaratilish davri V.V.Radlov fikricha, taxminan V asr, S.E.Malov xulosasiga ko‘ra VII asrga to‘g‘ri keladi. O‘zbek olimlaridan professor N.Rahmonov tadqiqotlarida «Xuastuanift»ning g‘oyasi, tuzilishi, ahamiyati keng o‘rganilgan. Asar moniy jamoasi a’zolarining madhiyasi, ayni paytda nizomi ham hisoblanadi. «Xuastuanift» 15 bo‘limdan iborat. Kitobning ikkinchi bo‘limida Kun va Oy Tangrilarning moniylikdagi vazifalari ko‘rsatiladi hamda ularning haqiqiyligini tan olishga chaqiriladi. S.E.Malovning «Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar» kitobida ham moniylarning Tangriga tavba-tazarrulari bitilgan ibodatlaridan parchalar keltirilgan.

*«Moniylar tavbanomasi».* Besh turli tirik mavjudotga nisbatan, birinchidan, ikki oyoqli insonlarga, ikkinchidan, to‘rt oyoqli tirik mavjudotlarga, uchinchidan osmonda parvoz etadigan mavjudotlarga, to‘rtinchidan suv ostidagi tirik mavjudotlarga, beshinchidan, sudralib yuruvchi tirik mavjudotlarga nisbatan gunohlarga botib, ushbu besh turli tirik mavjudotlarni buyugidan to‘kichigigacha xo‘rladik, nobud qildik, ozor yetkazdik. O‘zimiz gunohli bo‘la turib, ey,

*xudo, endi gunohlarimizdan ozod qilishingni, bizni kechirishingni sendan iltijo qilamiz.*

*Ey, xudo, biz so 'zda va amalda o 'n turli gunoh sodir etdik, biz gunohsizlarga tuhmat qildik, yolg 'on qasamyodlar aytdik, yolg 'onlar to 'qib, insonlarni qail ettirdik, jodu ishlari bilan shug 'ullandik, nochorlarning bizga ishonib topshirgan omonatlarini o 'zimizniki qilib oldik, jonzotlarni o 'ldirdik, qatl etdik va ko 'pgina Oy va Quyosh xudolariga yoqmaydigan ishlar qildik va, umuman, yashash hayotimizda ko 'pgina xatolar sodir etdik, ayollarnikiga o 'xshash uzun liboslar kiydik, yoshligimizda yovuzlikka qo 'l urib, ushbu gunohlarni sodir etdik. Endilikda gunohimizdan o 'tishingni, bizni kechirishingni iltijo qilamiz...*

*Har kuni Oy xudosiga, muqaddas bitik va payg 'ambarlarga gunohlarimizdan kechishini so 'rab ibodat qilishimiz kerak edi. Mana endi o 'zimiz bilgan va bilmagan holda, turli sabablarga ko 'ra, ushbu aytiganchalarini bajara olmadik. Gunohlarimizdan kechirishingni so 'rab, sendan yolvoramiz, gunohlarimizni kech!*

*Yilda yetti marta qurbanlik keltirish qonuni mavjud edi. Yana ibodatxonada o 'tirib, har bir qurbanlik uchun ro 'za tutish kerak edi va yana har bir iloh oldida sidqidildan ibodat qilib, gunohimizdan o 'tishini iltijo qilishimiz kerak edi. Ey, xudo, ushbu aytganlariningga rioya qilmaganimiz uchun kechirishingni iltimos qilamiz!*

Qanchalik yomon xayollarga borishimiz bilan, qanchalik madaniyatsiz va yomon so 'zlarni aytishimiz bilan, qanchalik biz qilish kerak bo 'limgan ishlarni qilganimiz bilan o 'z mavjudligimizni yanada qiyinlashtirishimiz, yana besh ilohning nuri bilan oziqlanib, o 'z tanimiz va ruhimiz bilan iblisni sevamiz va o 'zimizni pastga, yer (do 'zax)ga tortamiz. Shuning uchun ey, xudo, bizning gunohlarimizdan o 'tishingni so 'rab iltijo qilamiz va bu gunohlarimizdan qutulish uchun ibodat qilamiz, bizning gunohlarimizni kechirgin!

Moniylik she'rlari orasida muallifi noma'lum ehtimol xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblangan «Tong Tangrisi» alohida ahamiyatga ega. Uning tuzilishida naqoratning mavjudligi ushbu she'r moniylar o'rtasida keng tarqalgan va ommaviy tarzda aytiladigan madhiya darajasiga ko'tarilgan bo'lishi mumkin, degan xulosani beradi. Madhiyaning asosiy mazmuni Kun va Oy Tangrilarga murojaat etish orqali ularni ulug'lashga qaratilgan.

*Tong Tangri(si) keldi,  
Tong Tangrisining o'zi keldi.  
Tong Tangri keldi,  
Tong Tangrisining o'zi keldi.  
Turinglar, barcha beklar, qarindoshlar,  
Tong Tangrisini madh etaylik.  
Ko'ringan Quyosh Tangrisi,  
Siz bizni asrang,  
Ko'ringan Oy Tangrisi,  
Siz bizni qutqaring.*

*Tong Tangrisi  
Go'zal hidli, xushbo'y hidli,  
Porlagan, yaltiragan.  
Tong Tangrisi,  
Tong Tangrisi.*

Jahondagi ko'pgina xalqlarning diniy e'tiqodlari va maskurasi muqaddas kitoblar «Avesto» va «Bibliya»da umumlashgan. Qadimgi turkiy xalqlarning diniy e'tiqodi va maskurasi ham bundan mustasno emas.

## ZARDUSHTIYLIK

Zardushtiylik dini miloddan avvalgi VI-V asrlarda yuzaga kelgan. Bu din Zaratushtira (ba'zi manbalarda Zardusht yoki Zardo'st) nomi bilan bog'liqdir. Zardushtning shaxsiyati to'g'risida ikki xil qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar Zardushtni miloddan avvalgi 589-512-yillarda yashagan ilohiyatchi faylasuf, tabiatshunos va shoir deb hisoblaydilar. U ehtimol, Eronda yashagandir. Bunday fikr tarafidolari zardushtiylik qadimgi Eronda keng tarqalgani va bu dinning muqaddas kitobi «Avesto» eron-pahlaviy tilida yaratilganligini asos qilib oladilar. Boshqa olimlar esa Xorazmni zardushtiylikning vatani deb uqtiradilar. Ularning fikricha, birinchi marta muqaddas olov «Atarxurra» yongan joyning jo'g'rofiy o'rni va iqlimining tavsifi Xorazmga to'g'ri keladi.

**Avesto.** «Avesto» eramizdan oldingi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan. Uning qadimgi qismlari miloddan avvalgi 2000-1000-yillarga taalluqli, deb qaraladi. «Avesto»ning bizgacha yetib kelgan nusxalarida Eron shohi Kayxisrav va Turon shohi Franhrasyan (Afrosiyob) o'rtasidagi munosabatlar ifodasini topgan. Bunday tarixiy voqelik miloddan avvalgi 620-yillarga to'g'ri keladi.

«Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobidir. Uning yaratilish vatani – Markaziy Osiyo. Shu sababli bu kitob Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligidir. Avesto o'z davrining tarixi, fani, madaniyati, urf-odatlari, adabiyoti, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti to'g'risida ma'lumot beruvchi qomusiy asardir. «Avesto» yaratilgan vaqtida 30 nask-kitob (qismdan) iborat bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Markaziy Osiyoga turli bosqinchilarning kirib kelishi, zardushtiylik diniga sig'inuvchilarning ta'qib qilinishi natijasida kitobning ko'p qismi yo'qolib, oz qismi saqlanib qolgan. Bu xususda Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida shunday yozadi: «Podshoh Doro ibn

Doro xazinasida «Avesto»ning o'n ikki ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtida uni yondirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri «Avesto»ning beshdan uch qismi yo'qolib ketdi. «Avesto» o'ttiz nask edi. Ma'jusiyalar qo'lida o'n ikki nask chamasida qolgan».

«Avesto»ning qisqargan shakli «Zand Avesto» deb nomlangan. U pahlaviy, sanskrit (qadimgi hind) tiliga tarjima qilingan va sharhlar bitilgan. U bir necha marta Yevropa tillariga, jumladan, rus tiliga ham ag'darilgan. «Avesto»ni o'zbek kitobxonlari A.Mahkam, M.Isoqov va boshqalar tarjimasida o'qishmoqda.

Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash «Avesto»ning bosh g'oyasidir. Yaxshilik ramzi – yakka xudo Axura Mazda, yomonlik ramzi – Ahramandir. Hozirgacha «Avesto»ning ikki varianti mavjud. Birinchisi faqat «Avesto»ning o'zidan iborat. Ikkinchisi esa pahlaviy tilidagi sharhli tarjimadan tashkil topgan bo'lib, u bir necha qismlarga ajratilgan. Ular quyidagilar: **1. Vendidot**. Axura Mazda bilan Zardushtning savol-javobi tarzida bitilgan. Jami 22 bob. **2. Visparad**. Ibodat qo'shiqlari berilgan. Jami 24 bob. **3. Yasna**. Qurbonlik qo'shiqlari, xudolar madhiyasi hamda diniy marosimlar tavsifi berilgan. U 72 bobdan iborat bo'lib, 17 bobni gotlar – madhiyalar deb atalgan. **4. Yasht**. 22 qo'shiqdan iborat. Qo'shiqlarda zardushtiylik xudolari va ma'budalari madh etilgan. **5. Kichik Avesto**. Quyosh, Oy, Ardisura, Varxra kabi xudo va ma'budalar madh etilgan ibodat qo'shiqlari beriladi.

«Avesto» o'zbek ilm-fanida, xususan, N.Mallayev, F.Sulaymonova, B.To'xliyev, T.Mahmudov, N.Norqulovlarning tadqiqotlarida tahlil etilgan.

«Avesto» diniy kitob bo'lish bilan birga, eng avvalo, u nodir adabiy yodgorlikdir. Asar she'riy yo'l bilan yozilgan.

Qadimda yashagan xalqlarning og‘zaki adabiy merosi berilgan. Kayumars, Yima, Gershasp, Arjasp, Mitra haqidagi asotir hamda afsonalar qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklardir.

«Avesto»da osmon jismlarida ilohiylik belgilarining ko‘rsatilishi turkiy xalqlarning diniy e’tiqodlariga yaqin turadi. Jumladan, quyosh xudosi Mitra haqidagi tasavvurlar shunday xususiyatga ega. «Avesto»da qadimgi turkiy qavmlar va ularning hukmdorlari, qahramonlarining badiiy tasvirlari ham ifodasini topgan. Unda turkiylar tur nomi bilan beriladi. Turkiy va forsiy xalqlar adabiyotida Afrosiyob, Siyovush, Kayxisrav haqida yaratilgan turkum rivoyat va afsonalarning dastlabki namunalari «Avesto»da yaratilgan.

«Avesto»dagi mifologik obrazlar o‘zbek xalq og‘zaki ijodi taraqqiyotiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan. Buni o‘zbek xalq og‘zaki ijodida mavjud ayrim obrazlarning tug‘ilishi zardushtiylik bilan bog‘langanligi misolida ko‘rish mumkin.

**Gaya Marta.** «Avesto»da ilk foni odam – Gaya Marta haqida rivoyatlar keltirilgan. U zardushtiylikda yer yuzida yashagan birinchi odam sifatida tasavvur etiladi. O‘rta asr manbalarida uning nomi Gavomard, Gayomat, Gopat shoh, Qo‘bodshoh, Kayumars tarzida bitilgan. Gaya Marta ikki vujudli, ho‘kiz va odamdan tashkil topgan. Uni ezgulik xudosi Axura Mazda Dantiya daryosining bo‘yidagi Ar’yana Vejada yetmish kun mobaynida yaratgan. Daryoning chap sohilida odam, o‘ng qirg‘og‘ida ho‘kiz turgan. Gaya Marta insoniyat dushmani Aximan tomonidan o‘ldirilgan.

Gavomard – Buqaodam yoki sigir, echki, qo‘yga xos ayrim tuyoqli odamlar haqidagi afsonalar o‘zbek xalqi o‘rtasida keng tarqalgan. Gerodot «Tarix» kitobida qadimgi turkiylar qavmi issidonlar haqida yozar ekan, unga tog‘da echki tuyoqli odamlar yashashi haqida hikoya qilganligini aytadi.

«Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarning qahramonlaridan Rayhon arab ayri tuyoq deb ta'riflanadi. Turk olimi Abdulqodir Inon XIII asrda mo'g'ullar o'lkasida sayohatda bo'lган Plano Karpini o'z xotiralarida it boshli, sigir oyoqli qavmlarni ko'rganligini yozgan. Xorazm ertaklaridan «Gul uzuk»da yarmisi odamga, yarmisi qo'tosga o'xshaydigan odamlar haqida hikoya qilinadi.

O'zbek xalqi o'rtasida Jo'mard qassob, Jonmardi qassob, Gavmard nomi bilan bog'langan rivoyatlar ham «Avesto»dagi Gaya Marta obraziga bog'lanadi. Rivoyat qilishlaricha, odamlarga go'sht yeishni birinchi marta o'rgatgan kishi Jo'marddir. U Anushirvon davrida yashagan bo'lib, kunduzi qassoblik, kechasi podshohlik vazifasida o'tirgan va yomon odamlarni jazolagan. Jo'mard Ho'shamshohning o'n yettinchi avlodidan hisoblangan. Ho'shamshoh mol terisidan kiyim tikish, jundan mato to'qish, egar yasash kabi hunarlarga ega bo'lган. Devlar unga ho'kiz terisini yopib, abadiy qolishni buyurgan.

Folklorshunos M. Jo'rayev Jo'mard qassob nomining kelib chiqishini mifologik afsonalar asosida shunday izohlaydi: «Qadim zamonalarda Gavmard ismli kishi bo'lган ekan. Uning Baqar (Ho'kiz) degan do'sti ham bor ekan. U bir kuni ertalab uyqudan uyg'onib qarasa, hamma yerlar ko'm-ko'k ekan. Shunda u qari kishilardan: «Bu qanday hol?» deb so'rabdi. Qariyalar: «Bu – navro'z, u qish fasli tugaganidan darak berayapti», – debdilar. Shu payt shayton kelib vasvasaga solibdi, Gavmard o'z do'stini o'ldirib, go'shtini pishirib, dasturxonga tortibdi. Boshqa odamlar bo'lsa, yerda ko'kargan o'tlardan ovqat tayyorlab, dasturxonga qo'yibdilar. Gavmardning qilgan ishidan xabar topgan odamlar: «Illoyo juvonmarg bo'l!» – deb qarg'abdilar. Shundan so'ng uning nomi Juvonmarg bo'lib, keyinchalik Jo'mard deb atala boshlangan ekan. Navro'z bayramini nishonlash, dasturxonni ko'katlardan

tayyorlangan taomlar bilan bezash va go'shtni iste'mol qilish o'sha vaqtidan qolgan deydilar. Jo'mardni bo'lsa, qassoblar o'zlariga pir deb bilishar ekan».

Bu afsona o'zbek xalq og'zaki ijodi mahsulidir. Lekin unda «Avesto»da Angro Maynyu boshchiligidagi yovuz kuchlar Dantiya daryosining chap sohilidagi odam Gaya Marta va o'ng qirg'og'idagi Buqaga qilgan xuruji ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Bu voqeа zardushtiylik taqvimi bo'yicha ilk bahor kunlariga to'g'ri keladi.

Odam boshli, ho'kiz qiyofasidagi haykalchalar O'zbekiston (jumladan, Samarqand shahri yaqinidagi Tali Barzu tepaligi, Xorazm viloyatining Shovot tumani hududi)dan topilgan.

**Tishtar.** «Avesto»dagi mifologiyaga ko'ra, yerdagi barcha suvlarning manbai Tishtar yulduzida saqlanadi. Yovuz kuch Axraman suvli yulduzlarni egallash uchun ularga qarshi parilarni yo'naltiradi. Lekin Tishtar parilarga shikast berib, Farog'kart daryosi bo'yigacha quvib yuboradi. Zardushtiylik mifologiyasida Tishtar zaminni suv bilan ta'minlaydi. «Avesto»da Tishtar qasidasi (Tiyr yasht) keltirilgan. Qurg'oqchilik yillarida odamlar Tishtarga yomg'ir yog'dirishni so'rab, iltijolar qilishgan, balki maxsus marosimlar ham o'tkazilgan bo'lishi mumkin. Chunki bu marosimlar zardushtiylikning muqaddas an'anasi sifatida o'zbek xalqi o'rtasida hozirgi kunlargacha yetib kelgan.

**Tisht** – xalq o'rtasida asrlar o'tishi davomida «**Sust**» nomi bilan o'zgargan. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi «Sust xotin» qo'shiqlarida Tishtar obraqi yaratilgan. Qurg'oqchilik kelgan yillarida dehqonchilik bilan shug'ullanadigan odamlar Tishtar – yomg'ir Tangrisidan yordam so'raganlar. Bu marosim o'ziga xos ko'rinishda o'tkazilgan: dehqonchilik bilan shug'ullaniladigan joylardagi ayollar to'planishib, odam shaklidagi qo'g'irchoqqa kampirning ko'ylagini kiygizishib, «Sust xotin» qo'shig'ini aytishgan va o'z qo'ni-qo'shnilarinikiga

kirishgan. Uy egalari qo'g'irchoqqa suv sepishgan, «Sust xotin» qo'shilgini aytganlarga xayr-sadaqa berishgan. Quyidagi parchada yaratilgan Sust xotin obrazı «Avesto»dagi suv xudosi Tishtar mifologiyasiga bog'lanadi.

*Sust xotin-o, Sust xotin,  
Ko'lankasi maydon xotin, Sust xotin.  
Dehqonlarni g'am bosdi, Sust xotin,  
Omochini chang bosdi, Sust xotin.  
Havo yog 'sin sevalab, Sust xotin,  
Bo'ri qochsin tebalab, Sust xotin,  
Bug'doy bo'lzin zarchalab, Sust xotin,  
Sag'ir-sug'ir qolganlar, Sust xotin,  
Nonni yesin parchalab, Sust xotin,  
Sust xotin-o, Sust xotin,  
Ko'lankasi maydon xotin, Šust xotin.*

Turkiylarning o'ziga xos suvgaga topinish mifologiyasi bo'lgan. Bu mifologiya ularning boshqa xalqlardan farq qiluvchi maskurasi mahsulidir. Turkiylar o'zlariga Tangri tomonidan sehr-jodu amali berilgan deb hisoblaydilar va ulardagi bunday qobiliyatni tarix ham e'tirof etadi. Turkiylar sehr yo'li bilan yomg'ir yoki qor yog'dirish quvvatiga ega bo'lganligi to'g'risida o'nlab rivoyatlar mavjud.

O'zbek mifologiyasida suv xudosi haqida bitilgan afsonalarning boshqa namunalari ham mavjud. Adabiyotshunos N. Mallayev «O'zbek adabiyoti tarixi» darsligida suv xudosi va kishilarni halokatdan qutqaruvchi qahramon Xubbi obrazı yaratilgan quyidagi mazmundagi afsonani keltiradi:

Juda qadim zamonalarda Farudin va hatto Jamshid zamonasidan burun Amudaryoda Xubbi degan bir yigit bo'lgan ekan. U bir qo'li bilan baliq tutar, ikkinchi qo'li

bilan uni quyoshga tutib turar, baliq bir zumda pishar ekan. Xubbi shu xilda baliq yeb, Amudatyoda yetti yuz yil yashabdi, daryoni qo'riqlabdi, biroq yomon ruh, hattoki chivin ham daryoga yaqin yo'lashga botina olmabdi. Xalq suvga ma'mur bo'lib, shod-xurram yashar ekan. Biroq Jamshid zamonasiga kelib Xubbi g'oyib bo'libdi. Kishilar uni osmon suvlarining hukmroni bo'lgan qiz o'g'irlab ketgan, deb faraz qilibdilar. Xubbi g'oyib bo'lganidan keyin Amudaryoga uning onasi kelibdi. U birinchi bo'lib qayiq yasabdi, kishilarni qayiqda suzish va dushmanga qarshi suvda jang qilishga o'rgatibdi. Biroq kunlardan bir kun Xubbining onasi ham g'oyib bo'libdi. Lekin kishilar o'z homiyalarini, Xubbi va uning onasini unutmabdilar. Ular qayiqlarda Xubbining onasi qiyofasini tasvirlabdilar.

Demak, «Avesto» faqat diniy kitob emas. U turkiy xalqlarning ham adabiy yodgorliklari va e'tiqodlari ifodalangan, qadimgi o'zbek xalq og'zaki ijodi shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan nodir yozma asar hamdir.

## XRISTIANLIK

Xristianlik dini milodimizning boshlarida paydo bo'lgan. Iso Maseh (Iisus Xristos) bu dinning asoschisidir. Isoga Maseh so'zini qo'shib aytadilar. Maseh yahudiy tilidan olingan bo'lib, «silangan, siylangan» ma'nolarini beradi. Yunonlarda esa bu ma'no «Xristos» so'zi bilan ifodalangan. Sharq adabiyotida Maseh, Masih, Masiho Iso payg'ambarning laqabi sifatida qo'llaniladi va Iso o'z nafasi bilan o'likni ham tiriltirish qudratiga egaligi aytiladi. Shu sababli xristianlik ba'zan Masihiylik, ham deb yuritiladi. Nasroniylik deyilishiga sabab, Iso Nazaret (Nazroniyya) qishlog'ida tug'ilganligidir.

Xristianlik ta'limoti Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasiga III asrlardan boshlab kirib kelgan. Tolos, Samarqand,

Ma'ruf, Hirot, Xorazmda xristianlarning ibodatxonalari, bu ta'limotni targ'ib etuvchi diniy – hududiy jamoalar bo'lgan. X asrda yashagan arab tarixchisi Xovqal Samarqand, Jizzax, Toshkent atroflarida xristianlarning qishloqlari bo'lganligini yozadi.

IV-VIII asrlarda xristianlik Qofqazdagagi xalqlar, xususan, Ozarbayjon va Janubiy Dog'istonnda hukmron din hisoblangan. Xristianlik ta'limoti uyg'urlar o'rtasida ham keng tarqalgan. Xristianlik mazmuni qadimgi uyg'ur tilidagi matnlarda ham ifodalangan. Ularning ayrim parchalari S.Ye.Malovning «Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar» kitobida keltiriladi.

«**Bibliya**» xristianlikning muqaddas kitobidir. Bibliyaning asosiy mavzusi – yagona Xudoning fazilatlari va odamzod bilan aloqasi haqidadir. Bibliya ikki qismga – Qadimgi Ahd va Yangi Ahdga bo'linadi. «Ahd» – yagona Xudovandning insonlar bilan aloqasini bildiradigan tushunchadir. Qadimgi Ahd – «Tavrot» va «Zabur» miloddan avvalgi davrlarda, ya'ni Iso Masih tug'ilishidan oldin yaratilgan. Yangi ahd – «Bibliya» – eramizning birinchi asrida, ya'ni Iso Masih tug'ilganidan keyin yaratilgan. Qadimgi Ahd ibriy va aramiy (eski yahudiy), Yangi Ahd esa yunon (qadimgi grek) tilida yozilgan. Bibliyani tuzishda bir yarim ming yil mobaynida qirqqa yaqin muallif ishtirok etgan.

«**Vahiy**» Bibliyaning oxirgi kitobidir. U aziz Pir Yuhannoga Xudo yo'llagan bashoratdir. «Vahiy»da oxirzamonda yuz beradigan musibatlar, Iso Masihning olamga qaytishi, Ya'juj-Ma'juj, Dajjal, Qiyomat, Jannah va Jahannam haqidagi tushunchalar ifodalanadi. «Vahiy»da xudoning osmon sultanati tasvirlangan. Osmon sultanati tasvirida turkiylarning Ko'k Tangri dini ifodasining umumiy o'xshashlik tomonlari bor: Osmonda bir Taxt – Arshi a'llo. Unda olmos va la'lga o'xshash yaltiroq bir siymo o'tiradi.

Uning tevaragida yana yigirma to‘rtta taxt bor. Bu taxtlarda boshlarida oltin toj va oq kiyim kiygan yigirma to‘rt oqsoqol o‘tiradi. Arshi a’lo oldida xudoning yetti ruhi bo‘lgan yettita mash’al yonib turadi. Uning o‘rta qismi va atroflarida to‘rtta jonzot ham bor edi. Birinchi jonzot arslonga, ikkinchisi buzoqqa o‘xshar edi, uchinchi jonzotning yuzi odamsimon, to‘rtinchisini esa uchayotgan burgutga o‘xshar edi. Yigirma to‘rt oqsoqol ham, jonzotlar ham barhayot siymo – Tangriga shukronalar qiladi.

Muqaddas kitobdagagi bu tasvirni turkiylar turmush tarzi nuqtai nazaridan ham izohlash mumkin: Arshi a’lodagi barhayot siymo – turkiylarning Ko‘k Tangrisi. Yigirma to‘rt oqsoqol – turkiylarning yigirma to‘rt qavm boshliqlari ruhi. Yigirma to‘rt oqsoqol turkiylar hayotida, davlat tuzumida alohida o‘rin tutgan. Umuman, yigirma to‘rt soni turkiylar uchun o‘ziga xos ahamiyatga ega. Turkiylarning Xung-nu eli yigirma to‘rt urug‘dan kelib chiqqan. Yigirma to‘rt oqsoqol xunlarning siyosiy hayotida, davlatni boshqarishida katta mavqega ega bo‘lgan. Yigirma to‘rt oqsoqolning davlatni boshqarishi To‘xtamishxon davrlarida ham saqlanib qolgan. Sharqiy xunlar, ya’ni Xung-nular miloddan oldingi ikkinchi asrlardayoq mustahkam mamlakatga ega bo‘lgan turkiy qavmlardan hisoblanadi. Ular Markaziy Osiyoda ilk davlatlarini qurbanlarida mamlakatni yigirma to‘rt qo‘mondon idora etgan.

Yetti mash’al turkiylarning yetti bahodiri ruhi. Qofqaz turkiylari mifologiyasiga ko‘ra Tangri yerga to‘fon yuborishidan oldin faqat bir qari cholni ogohlantiradi. Chol sandiqsimon qayiqda o‘z oilasini saqlab qoladi. Qayiq Qazbek cho‘qqisiga ko‘tarilgach, to‘fon to‘xtaydi. Cholning farzandlari dunyo bo‘ylab tarqaladi. U yana yetti o‘g‘il ko‘radi. Ular bir kuni ovga chiqishadi, ammo ularni yashin urib o‘ldiradi. Tangri yetti bahodir ruhini ko‘kka olib chiqadi. Bu ruh yetti yulduz bo‘lib porlaydi.

Tangri atrofidagi hayvon va qushlarga monand tasvirlar ham diqqatga sazovordir. Ulardan birinchisi arslonsifat shohning ruhidir. Arslon va sher turkiylarning mudofaa, shuningdek, harbiy sarkardalari timsolidir. Turkiylar miloddan oldingi VII asrda yashagan xoqonlari Alp Er To‘nga timsolida arslondan ham kuchli bahodir kishi siymosini ko‘rishadi. «Vahiy»da arslonsifat ruhga hurmat bilan qaraladi. Tangrining qo‘lida yetti muhr bilan muhrlangan bir kitob bo‘lib, uni ochish va yechishga qodir kishilardan biri arslon ismli odamdir. Muhrlarning buzilishi bilan Tangrining yonida o‘tirgan to‘rt jondor – to‘rt shohning qiyofasi ochiladi. Birinchi muhrning buzilishi bilan arslonsifat shohning ruhi jonlanadi va hayotga qaytadi. U oq otga minib, boshida toj, g‘oliblik uchun yo‘lga otlanadi va unga g‘alaba buyuriladi.

Muqaddas kitobda Ya’juj-Ma’jujlar haqida ham so‘z ketadi. Shayton Iso Masehning tirilish kuni ularni aldab, zindondan chiqaradi va xudoning aziz xalqiga qarshi jangga otlantiradi. Tangri o‘t yog‘dirib, ularni qirib tashlaydi. Ya’juj-Ma’juj turkiylarning jangovar urug‘laridan hisoblanishi haqida tarix xabar beradi. Beruniy Iskandar Zulqarnaynning tarixiy faoliyati haqida so‘z yuritar ekan, u qo‘shni xalqlarni Ya’juj-ma’jujlar hujumidan himoya qilish uchun devor qudirganligini uqtiradi. Ya’juj-ma’jujlar beshinchi va oltinchi iqlimda yashovchi sharq turklarining bir sinfi deb ta’riflangan. Tarixchi Muhammad ibn Jarir at – Ta‘bariy esa ozarbayjon hukmdori Ya’juj-ma’jujlar yerini fath etganini yozadi.

«Tavrot»da jahondagi barcha millatlarga mansub xalqlarning mushtarak tuyg‘ulari, e’tiqod va tushunchalarini ifodalovchi rivoyat hamda afsonalar mavjud. Shulardan biri Olloh tomonidan yerga to‘fon jo‘natilishi hodisasiga bag‘ishlangan. Bu voqeя muqaddas diniy kitoblardan tashqari, ko‘plab tarixiy – badiiy,

jumladan, Rabg‘uziyning «Qissasi Rabg‘uziy», Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» kabi asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. «Bibliya»da to‘fon hodisasi haqida quyidagi rivoyat keltirilgan.

*To‘fon. Xudovand Nuhga:* «*Sen butun xonadoning bilan kemaga kiringlar. Chunki bu nasl orasidan, Mening nazarimda, solih bo‘lgan yolg‘iz seni topdim, – dedi. – Halol bo‘lgan har bir chorva tuyog‘ining erkak va urg‘ochi jinsidan yettitadan, harom bo‘lgan chorvaning erkak va urg‘ochi jinsidan esa ikkitadan olib, o‘zing bilan kemaga kirgizgin. Osmondagи parrandalarning ham erkak va urg‘ochi jinsidan yettitadan olib kirgizgin, toki butun yer yuzida yashovchi har xil jonivorlardan tirik qolganlar bo‘lsin. Chunki yetti kundan keyin Men yerga qirq kechayu qirq kunduz davom etadigan yomg‘ir yog‘diraman. O‘zim buniyod etgan barcha mavjudotni yer yuzidan qirib tashlayman».*

*Nuh esa Xudovand keltirgan hamma narsani bajo keltirdi.*

*Nuh umrining olti yuzinchi yili, ikkinchi oyining naq o‘n yettinchi kunida ulkan tubsizlik buloqlari bari qaynay boshlab, osmon qopqalari ochilib ketdi. Ketidan yer yuziga qirq kechayu qirq kunduz yomg‘ir yog‘di.*

*Ana shu kunning o‘zida Nuh va uning o‘g‘illari Som, Xom va Yofit (Yofas), Nuhning xotini bilan uchta kelini hammasi birga kemaga tushdilar. Ular bilan birga barcha yovvoyi hayvon, chorva va yerda qimirlovchi mayda jonivorlar turlari, shuningdek, barcha parranda turlaridan xilma-xil patli qushlar kemaga kirdilar. Hayot ruhiga ega bo‘lgan har bir maxluqdan just-just bo‘lib, Nuhning oldiga, kemaga o‘tdilar. Xudo Nuhga buyurganidek, kemaga kirgan har bir maxluqning erkak va urg‘ochi jinsidan bor edi. Oxirida Xudovand Nuhning ortidan eshikni yopib qo‘ydi.*

*Qirq kun davomida yer yuzini to‘fon bosib, suvlar toshib, kemani yerdan yuqoriga ko‘tardi. Yer yuzini bosayotgan suv toshqini tobora kuchayib borar ekan, kema suv yuzida suzib*

*yurar edi. Yer yuzidagi suv toshqini behad kuchayib, osmonu falak ostidagi baland tog 'larning hammasini qoplab oldi. Suv toshqini tog 'u tepalikdan o 'n besh gaz yuqoriroq ko 'tarilib, hammayoqni ko 'mib tashladi. Yer yuzida harakat qiluvchi har bir maxluq – parranda ham, chorva ham, yovvoyi hayvonlar ham, yerda qimirlovchi mayda jonivorlar ham, odamlar ham birdan halok bo 'ldilar. Quruqlikda yashovchi dimog 'ida hayot nafasi bor bo 'lgan har bir jonzot o 'lib ketdi. Yerda bor bo 'lgan butun mavjudot qirildi.*

*Odamdan tortib chorvagacha, yerda qimirlovchi maxluqdan tortib, ko 'kda uchuvchi qushgacha bari yer yuzidan qirildi. Faqat Nuh va u bilan birga kemada bo 'lganlar tirik qoldilar. Yer yuzidagi suv toshqini bir yuz ellik kun davom etdi.*

Demak, «Tavrot» qadimgi turkiylarning ham e'tiqodi, tasavvurlari hamda tarixini o'rganishda muqaddas yodgorliklardan sanaladi. Shu bilan birga qadimgi turkiy xalqlar ijodida ham to'fon mavzusiga oid rivoyatlar yaratilgan.

**To'fon.** To'fondan avval yer yuzining hukmdori Dengiz xon bor edi. U zamonda Nama ismli mashhur bir odam bor edi. Tangri Ulgen bu odamga dunyo to'foni bo'lajagini, inson bolalarini va hayvonlarni qutqarish uchun sinalgan sandal daraxtidan kema yasashni buyurdi. Namaning Suzunul, Sarul va Baliqcha ismli uchta o'g'li bor edi. Nama bu o'g'illariga, tog' tepasida kema yasanglar, deb buyurdi. Kema Ulgen o'rgatganiday va ko 'rsatganiday yassaldi. Nama Ulgennenning buyrug'i bilan insonlarni va hayvonlarni kemaga oldi. Namaning ko 'zları yaxshi ko 'rmas edi. Kemadagilardan so'radi: «Biror narsa ko 'ryapsizlarmi?» Ular «Yer yuzini tuman qopladi, mudhish qorong'ulik bosdi», – deb javob berdilar. Shu payt yerning ostidan, daryolardan, dengizlardan quruqlikka suvlar pishqirib chiqa boshladi. Osmondan yomg'ir yog'a boshladi. Kema suza

boshladi. Osmon va suvdan boshqa biror narsa ko‘rinmasdi. Nihoyat, suvlar pasaya boshladi. Tog‘ cho‘qqilari ko‘rina boshladi. Kema Ko‘mguday va Tulutti tog‘laridagi quruqlikka o‘tirdi. Suvning chuqurligini bilish uchun Nama quzg‘unni jo‘natdi. Quzg‘un qaytib kelmadi. Qarg‘ani jo‘natdi, u ham qaytib kelmadi. Zag‘izg‘onni jo‘natdi, u ham qaytib kelmadi. Nihoyat, kaptarni jo‘natdi. Kaptar tumshug‘ida bir shoxni olib orqaga qaytdi. Nama kaptardan «Quzg‘un, qarg‘a bilan zag‘izg‘onni ko‘rdingmi?» – deb so‘radi. Kaptar: «Ularni ko‘rdim, uchovi ham o‘limtikka qo‘nib, cho‘qilab yuribdi», – dedi. Nama «Ular qiyomatgacha o‘limtiklar bilan kun kechirsin, sen mening sadoqatli xizmatkorim bo‘lding, qiyomatgacha mening himoyam ostida yasha», – dedi. To‘fondan keyin Nama Yaratuvchi va Yoyiq (To‘fon)xon ismi bilan Tangrilar qatorida yashadi. Keyingi nasllar unga qurbanlik keltirdilar.

«To‘fon»ning «Tavrot» va turkiy xalqlar og‘zaki ijodida yaratilgan variantlari syujeti hamda g‘oyasida yaqinliklar bor. Dunyoda to‘fon bo‘lish, shu sababli inson farzandi va jonli narsalarni saqlab qolish har ikki rivoyatdagi bosh ezgu maqsaddir. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodidagi to‘fon tasviri bilan bog‘langan obrazlar o‘zining juda qadimiy qatlamlariga ega. Tangri Ulgen pok ruhlar xudosi bo‘lib, uning obrazi qadimgi Oltoy turkiylari og‘zaki ijodida Qurbo‘ston nomi bilan tasvirlangan. Ikki rivoyatdagi xaloskor kuchlar: Nuh – Nama, ularning farzandlari: Som, Xom, Yofas – So‘zunul, Sarul, Baliqchadir. Turkiylar afsonasida Nama yanada ilohiyashtiriladi, u buyuk xizmatlari uchun Tangrilar qatoridan joy oladi. To‘fonning og‘zaki shakli juda qadimiy diniy tasavvurlar mahsulidir. Chunki undagi ko‘p Tangrilik tushunchalari, insonning Tangri darajasiga ko‘tarilishi shundan dalolat beradi.

Sak turklari davrida boshqa qavmlarning diniy urf-odatlari, marosimlarini o‘zlashtirish qoralangan, hatto,

o'lim jazosi bilan cheklangan. Gerodotning «Tarix» kitobida saqlangan rivoyatda elga, uning urf-odatlariga hurmat va aksincha, unga xiyonatning tarixiy namunasi tasvirlanadi.

*Anaxors va skilning jazolanishi. Skiflar o'z urf-odatlarini qattiq hurmat qilishardi. Boshqa xalqlarning urf-odatlarini o'zlashtirishdan o'zlarini chetga tortishar, xususan, ellenlarning tamoyillaridan uzoq yurishardi. Bu Anaxors va Skil taqdirida yaqqol ko'rindi. Anaxors ko'pgina mamlakatlarni ko'rgan va u yerda o'zining buyuk donoligini namoyish etgan ilmli kishi edi. U orqaga – skiflar mamlakatiga qaytishida Geliskoli orqali suzib o'tib, Kizikka to'xtaydi. Kiziklar xuddi shu paytda Ma'budlar bayramini tantanali o'tkazishayotgan edilar. Anaxors ma'buda qoshida shunday niyat qildi:*

– Agar yurtimga sog '-salomat qaytib borsam, kiziklarda ko'rganim kabi sening sharafingga qurbanlik qilaman, bayramlar o'tkazaman.

*Anaxors Skifiyaga qaytgach, yashirin tarzda Gileyaga jo'nadi va Kizikda ko'rgan urf-odatlarning barchasini o'tkazdi. Anaxors bino peshtoqiga ma'budaning kichik tasviri tushirilgan haykalchani ham osdirdi. Skiflardan biri bu tantananing o'tkazilayotganligini kuzatib turdi va bu haqda o'z hukmdori Savliya xabar berdi. Shoh voqeа joyiga o'zi yetib keldi. Anaxors nishonlayotgan bayramni o'z ko'zi bilan ko'rди va uni kamон o'qi bilan otib o'ldirdi. Anaxors Elladada bo'lib, ularning urf-odatlarini skiflar hayotiga joriy etishga uringani uchun qurban bo'ldi (Hasan Ato Abushiy ta'kidlashicha, Anaxors Afinaga borib, yunonlarning mashhur yetti faylasuf-hakimlaridan biri Sulun (mil.av. 640-yilda tug'ilgan) dan ta'lim oladi. Afinadagi qonunlarni skiflarga o'rgatmoqchi bo'ladi, lekin maqsadiga erisha olmaydi). Tarix guvohligiga ko'ra Savliy Anaxorsning tug'ishgan akasi edi. Ular skif shohi Idarferning o'g'illaridir.*

Ajnabiy xalqning urf-odatini qabut qilgan va ellinlar bilan munosabatda bo 'lgan Skilning hayoti ham sojiali tugadi. Skif shohi Ariapifning bir necha o 'g 'illari bor edi. Ulardan biri Skil shohning skif ayolidan emas, balki ajnabiy xotinidan tug 'ilgan edi. Onasi uni ellin tilida gapirishga va yozishga o 'rgatdi. Bir necha vaqt o 'tgandan so 'ng Ariapif agafirslar shohi Spargapif tomonidan makkorona o 'ldirildi. Taxtga uning o 'g 'li Skil vorislik qildi. Shu bilan birga o 'ldirilgan otaning xotinlaridan biri ham unga xotinlikka berildi. Ayolning ismi Opiya edi. Uskif ayollaridan bo 'lib, Ariapifdan Orik ismli o 'g 'li bor edi. Skil skiflarga shohlik qilsa-da, ammo bu xalqning turmush tarzini sira yoqtirmas edi. Yoshligida kuchli tarbiya topganligi uchun ellinlar urf-odati oldida tiz cho 'kardi. Kunlardan bir kun shunday voqeа yuz berdi:

Borisfeniylar shahridan skif shohnining qo 'shinida xizmat qilish uchun vakillar kelishdi. Shoh mulozimlarini shahar darvozasining oldida qoldirdi va bir o 'zi shaharga qaytib kelib, darvozani qulflashni buyurdi. So 'ngra Skil o 'zining skifcha kiyimlarini yechib, ellinlarning urf-odatiga xos liboslarini kiydi. Shoh ushbu sarpo bilan tan qo 'riqchilarisiz va boshqa hamrohlarisiz bozor maydoniga bordi (darvoza skiflardan biror kishi shohni bunday libosda ko 'rmasligi uchun mahkamlangan edi). Shoh ellinlar urf-odatini qo 'llabgina qolmay, shu bilan birga ellinlar odatiga ko 'ra qurbanlik ham qilgan edi. Bir oy, balki ko 'proq, u shaharda qoldi, so 'ngra yana skiflar kiyimini kiydi va shaharni tark etdi. Bunday holat bir necha bor takrorlandi. Skil hatto Borisfenda o 'ziga qasr qurdirdi va mahalliy ayollardan biriga uylanib, uni shu uyga ko 'chirib keldi.

Achinarlisi shundaki, Skilning achchiq qismati gap-so 'zga sabab bo 'ldi. Bunga quyidagi munosabat orqali yuz berdi: shoh yunon ma 'budlaridan biri Dionis Vakxaga bag 'ishlab tadbir o 'tkazishga xohish bildirdi. Shunday qilib, bu tadbirni maxfiy tarzda o 'tkazishga kirishayotganda ulkan hodisa ro 'y berdi. Shohning borisfeniylar shahrida katta hashamatli devorlar

*bilan o 'ralgan saroyi borligi ma 'lum bo 'ldi. Saroyning aylana devorlari oq marmardan yasalgan, sfinks – odam boshli sherlar va grifon-tuklari uzun ovchi it haykallari bilan o 'ralgan edi. Tangri bu saroyni qulatdi va u yerdagi odamlar alanga ichida halok bo 'ldilar. Shunga qaramasdan, Skil bag 'ishlov marosimini o 'tkazdi. Skiflar ellinlarni Vakxa jazavadorliklari uchun qoraladilar. Shoh vakxa marosimini o 'tkazayotganida qaysidir borisfeniy skifga masxaraomuz tarzda gap otdi:*

*– Siz skiflar bizning ustimizdan vakxaga sig 'inadi, deb kulasizlar. Shu paytda bizni ilohiy jazava bag 'riga tortadi. Endi esa sizning shohingizni ham shu Tangri qurshab olganini bilasizmi? Unafaqat vakxaga yashirin sig 'inadi, balki Tangri yo 'lidagi telbaga, aqlsiz odamga aylangan. Agar siz bunga ishonmasangiz, orqamdan yuringlar, men sizlarga shohlaringizni ko 'rsataman!*

*Skif boshlig 'i borisfeniying orqasidan yurdi. U skiflarni yashirin tarzda shahar devorlaridan o 'tkazdi va minoraga chiqardi. Skiflar o 'z shohlarini vakxa jazavasini bajarayotgan olomon ichida ko 'rib g 'azablandilar. Minoradan tushib, o 'z qo 'shinlarining oldilariga kelishar ekan, ko 'rganlarini aytib berdilar.*

*Shundan so 'ng Skil yurtiga qaytar ekan, skiflar unga qarshi qo 'zg 'olon ko 'tardilar, o 'zlariga Teriyaning o 'g 'li Oktamasadni shoh deb e 'lon qildilar. Skil skiflarning qo 'zg 'oloni va uning boisini eshitarkan, Frakiyaga qochadi. Oktamasad uning qo chganligini sezib, Frakiyaga yurish qiladi, qo 'shin hujumga tayyor turgan paytda Sitalk Oktamasadga chopar jo 'natib, shunday deydi:*

*– Do 'st do 'stiga hujum qilishining sababi nima? Axir sen mening opamning o 'g 'li bo 'lasan-ku?! Sening qo 'lingda mening ukam ham bor. Uni menga ber, senga esa Skilni qaytaraman. Jangchilarimizni xayf-xatarga solmaylik.*

*Oktamasad Sitalkning taklifini qabul qildi va unga o 'z tog 'asini qaytarib berdi va Skilni ham qaytarib oldi. Sitalk*

*qo'shini bilan uzoqlashib ketdi. Oktamasad esa shu yerning o'zida Skilning boshini tanidan judo qildi.*

*Shunday qilib, skiflar o'z urf-odatlarini qattiq hurmat qilishgan, oralarida ajnabiy xalqlarning diniy urf-odatlariga sig'inadiganlar topilsa, ular shoh yoki gado bo'lishidan qat'i nazar shafqatsiz munosabatda bo'lishgan.*

Qadimgi turkiylarning diniy e'tiqodlari va ularning badiiy adabiyotdagi ifodasini tahlil etish jarayonida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Qadimgi turkiy xalqlar uzoq tarixiy o'tmishida ko'p diniy aqida va ta'limotlarga e'tiqod qo'ydilar. Shu sababli ham ularning islomgacha bo'lgan davrdagi diniy e'tiqodlarini faqat bir din ta'siri yoki qobig'ida tasavvur etib bo'lmaydi. Ahamiyatli tomoni shundaki, turkiy xalqlarning har bir diniy e'tiqodi hamda marosimlari ularning og'zaki, keyinchalik yozma adabiyotida ham o'z ifodasini topdi. Zotan, bunday tamoyil jahon xalqlari turmush madaniyatida ham chuqur ildiz otgan bo'lib, har bir diniy ta'limotning ifoda vositasi so'z, ifoda shakli badiiy ijodning ma'lum bir janri hisoblangan. Shu jihatdan qaraganda, qadimgi turkiy xalqlarning diniy tasavvurlari aks etgan har qanday og'zaki yoki yozma shakldagi asarlar ularning adabiy yodgorligi hamdir. Bunday tamoyil islom davri adabiyotida ham shakllangan. Shu bois Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor kabi faqat diniy-tasavvufiy g'oyalarni targ'ib qilgan shoirlarning asarlari, shuningdek, o'zbek adabiyoti tarixidagi Yusuf Xos Hojibdan hozirgi davrgacha (masalan, A.Oripovning «Haj daftari») badiiy adabiyotda namoyon bo'lgan diniy tasavvurlar ham xalqimizning ma'naviy boyligi sifatida o'z qadr-qimmatiga ega.

2. Diniy shakl va aqidalar barcha davrlarda insonning ma'naviy-axloqiy dunyosini shakllantirishga xizmat qilgan. Qadimgi turkiylar e'tiqod qo'ygan dinlar ham bundan

mustasno emas. Masalan, totemizm insonni faqat biror hayvondan paydo bo‘lishini eslatish va shu asosda unga e’tiqod qo‘yish ruhini shakllantiribgina qolmaydi. Ushbu asarlarda inson ta’rif etilgan hayvondagi kuch-qudrat, mehribonlik, sadoqatdan ibrat olishga chaqiriladi. Animizm ruhidagi asarlar insonda tabiatga, borliqqa mehr uyg‘otadi. Yoki moniylik tavbanomalari inson tirikligida gunoh ishlardan o‘zini saqlashga chaqirilishi uni komilikka, insoniylikka zid fazilatlardan qochishga o‘rgatadi. Insonning o‘z imkoniyatlarini ishga sola bilishi, ertangi kun mas’uliyatini sezishi va kelajakni anglay olishi shomoniylig ruhidagi asarlarning bosh g‘oyasi sanaladi. Demak, har bir diniy asar inson ma’naviy dunyosi, borliq haqidagi kechinmalari aks-sadosidir.

3. Badiiy adabiyotda mavzu doirasi cheklanilmaydi. Ijodkor xalq nima haqida mushohada yurita olsa, masalan, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy-ma’naviy, intim, shu jumladan, diniy tasavvurlar adabiyotda ishlangan mavzulardir. Adabiyot – so‘z san’ati. Shu sababli ham diniy ruhdagi asarlar yaratishda badiiy adabiyotga xos barcha tamoyillar, masalan, badiiy tasvir vositasi, janr imkoniyati, obraz yaratish usullaridan keng foydalilanladi. Shu jihatdan qaraganda, turkiy xalqlar adabiyotida diniy e’tiqodlar ta’sirida yuzaga kelgan asarlarni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan mukammal o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tadqiqot dastlabki izlanishlar bo‘lganligi bois unda asosiy e’tibor islomgacha bo‘lgan dinlar ta’sirida yuzaga kelgan turkiy adabiyotning manbalarini aniqlashga qaratildi, xolos.

## *IKKINCHI QISM*

### ***TURKIY QAVMLARNING SHAKLLANISH DAVRI ADABIYOTI***

#### **SKIFLAR TARIXI VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTI BILAN BOG'LANGAN RIVOYATLAR**

Tarixiy manbalarga asoslanib, turkiy qabilalarning qadimda eng rivojlangani va jahon tarixida sezilarli iz qoldirganlarini kimmer va skiflar deb atashga asos bor. Kimmer va skiflarning turmush tarzi antik yunon manbalarida qalamga olingan. Gerodot «Tarix»ining to'rtinchi kitobi to'la skiflarga bag'ishlangan. Gomerning «Iliada» va «Odisseya» dostonlarida kimmerlar tasviri uchraydi. «Odisseya»ning rus tilidagi nashrlaridan birida yozilgan izohda «kimmeriyalar greklarning tasavvuriga ko'ra uzoq Shimolda yashaydigan afsonaviy xalq. Odisseyanining kemasi Okean daryosi bo'ylab shu joyga tushib qoladi. Mamlakatning joylashgan o'rni ma'lum emas», deb ta'kidlanishi noto'g'ridir. Kimmerlar Amudaryoning quyi bo'ylarida yashagan, keyinchalik Qora dengizning shimoliy sohillariga ko'chishganligi tarixiy manbalardan ma'lum.

Kimmer va skiflar tarixini o'rganishga jahon olimlari katta qiziqish bilan qaraganlar. Bu xalqlarning jahon sahnasida paydo bo'lishi, ijtimoiy-siyosiy turmushi, ular tarixda qaysi xalqlarga yaqinligi haqida yaratilgan tadqiqotlar soni hisobsizdir. Birgina rus olimlarining faoliyatiga nazar tashlanadigan bo'lsa, bu mavzuni XVIII asrdan boshlab o'rganishga kirishganlar. Masalan, A.Lizlovnning 1776-yilda nashr etilgan «Skiflar tarixi» kitobi shulardan biridir. XX asrda

varatilgan ishlar orasida A.N. Teronoshkin, L.N.Gumilev, A.P.Smirnov, I.M.Dyakonov, A.A.Neyxard kabilarning usarlari kimmer va skiflar haqida boy ma'lumot berishi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda o'zbek qadimshunoslari ham bu mavzuga alohida qiziqish bilan qaramoqdalar. F.Sulaymonova, N.Rahmonov, F.Boynazarovlarning adqiqotlarida kimmer va skiflar turkiylarning qadimiy ajdodi ifatida tahlil etildi.

Yuqoridagi manbalarning hammasida kimmeriylar arixda qachon paydo bo'lganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Yunon va troya urushlari davri voqealari bilan bog'lab qaraladigan bo'lsa, kimmerlar miloddan avvalga XII–XI asrlarda dengiz sohilidagi namlakatda yashaganlar. Kimmerlar shumerlarning avlodini va ularning tarixi miloddan avvalgi to'rt minginchi yillardan boshlanadi, degan farazlar bor. Antik yunon tarixchilari kimmeriylar miloddan avvalgi VIII asrda Kichik Osiyoga postirib kirib, Ossuriya, Midiya va boshqa davlatlar ustidan hukmronlik qilishganligini yozib qoldirishgan. 705-yilda kimmeriylar bilan bo'lgan jangda Ossuriya shohi Sargon II malok bo'lgan. Kimmeriylarning jangovarligi, merganligi, kamondan o'q otish mahoratini aks ettiruvchi tasvirlar bo'sha davr idish-buyumlariga tushirilgan. Keyingi asrlarda kimmeriylar sultanati va qabilalari tili, madaniyati, urf-odati vaqin bo'lgan skiflarga qo'shilib ketgan. Skiflar Sharq manbalarida – asguz, vavilonlarda ishkuz, yahudiylarda ashkuz shakllaridagi nomlar bilan uchraydi. Yunonlar esa ularni skiflar deb atashgan. **Asguz, ishkuz, ashkuz** – o'zlarining kelib chiqish o'zagi bitta. Ular **ish – uguz, ich – g'uz** so'zlaridan olingan. «Qo'rqt ota kitobi»da icho'g'uz (ichki urug') va tasho'g'uz (tashqi urug')lar haqida tasvirlar mavjud.

Kimmeriylar davlatining tugashi va skif qabilalariga qo'shilib ketishi Madi davlatining jahon bo'y lab hukmronlik

mavqeい kuchayib borishi bilan bog'liqdir. Gerodot yozganidek, Madi kimmeriyarlari Yevropadan quvib chiqarib, Osiyo mamlakatlarida o'z ta'qibini kuchaytirdi.

Kimmer va skiflarning yashash tarzi yaqin bo'lgan. Agar Gomer «Iliada»da kimmeriyalar biya sutini ichishini ta'kidlasa, ossuriylar tarixiga oid manbalarda ham skiflar epchil chavandoz va mohir mergan bo'lishib, ot go'shti yeb, sutini ichib tirikchilik qilishgan, deb yozilgan. Yoki shu manbada skiflarning qo'qqisidan hujum qilib, boshqa xalqlarni yengib qaytishlari kimmeriyalarga o'xshatiladi. Tarixda kimmer va skiflarni bir qabila deb atovchilar ham bo'lgan. Masalan, Ossuriya madhiyasida kimmeriyalar shohi Ligdamas skiflar – saklar shohi deb ta'kidlanadi. Vavilonlar esa saklarni «gimir» – kimmer deb atashgan. Yunon tarixchisi Strabon Madini ba'zan skif, ba'zan kimmeriyalar xoqoni deb biladi. Arxeologik topilmalar esa kimmer va skiflarning urf-odati yaqinligini isbotlaydi.

Miloddan avvalgi ikki minginchchi yillikda jahon tarixiga kirgan turk qabilalaridan yana biri iskitlardir. Iskitlar Ovropada «skif», forsiylar o'rtasida «sak» nomi bilan yuritilgan. «Skif» va «sak» atamalari bir xalq nomini bildirishi hamda bu atamalarning paydo bo'lishi F.Sulaymonova tadqiqotlarida batafsil isbotlangan. Yana aytish mumkinki, yunonlar «sak» so'zini skif shohining ismi sifatida yoki yunoncha «sako» (qalqon) so'zidan olingen deb hisoblaydilar. Miloddan avvalgi VII asrlarda skiflar saqo turklar, deb nomlanishi shundan bo'lishi ham mumkin, Chunonchi, Madi asos solgan davlat Saqo turklar davlati deb nomlangan edi. Gerodot ma'lumot bergenidek, skiflar Osiyoda 28 yil hukmronlik qilishgan. Ular Midiya, Ossuriya, Vavilon, Misrda qattik zulm o'tkazishgan. Skiflar tabiatan chaqqon, mergan, chavandoz, ayni paytda jahldor bo'lishgan. «Skiflarga hujum qilgan biror kimsa tirik qaytmaydi» (Gerodot).

Gerodotning «Tarix»ida keltirilgan «Ko‘r qullar rivoyati»da skiflarning turmush tarzi va ularning shafqatsizligi o‘z ifodasini topgan.

**Ko‘r qullar rivoyati.** *Skiflar o‘z ixtiyoridagi barcha qullarining ko‘zlarini ko‘r qilishar ekan. Buning o‘ziga xos sabablari ham bo‘lgan. Ular biya sutini ichishni xush ko‘rishgan. Sutni o‘zlariga xos tarzda sog‘arkanlar, avval nayga o‘xshash suyakni baytalning qiniga o‘rnatishadi, so‘ngra biri og‘iz bilan puflab, u yerga havo jo‘natadi, ikkinchisi esa biyani sog‘ib oladi. Elindagi tomirlar shishganidan so‘ng biyadan sut osongina sog‘ilar ekan. Biyadan sog‘ib olingan sut yog‘ochdan yasalgan tog‘oraga solinadi. So‘ngra yog‘och tog‘ora atrofiga ko‘r qullar o‘tirishadi. Skiflar qullariga sutni chayqashni buyuradi. Sutning tindirilgan (qaymoqlangan) ustki qatlamini yig‘ishtirib oladilar. Sababi, qaymoqlangan qismi juda yuqori baholangan. Skiflar qo‘lga tushgan asirlarining ko‘zini ko‘r qilishlarining boisi mana shu.*

O‘tmish va hozirgi zamон tarixchilari skiflarni turli xil qabilalar bilan bog‘lashadi. Antik tarixchilardan Gekatey skiflarni hindlar yeridagi Qobul shahri atrofida joylashgan deb hisoblaydi. Arrian va Strabon skifni ko‘plab qabilalarning umumlashgan nomi deb biladi. Qadimgi rim adiblari parfiliklarni urf-odati va qurol-aslahasi bir xilligiga ko‘ra skiflar, deb yozishadi. Pompey Trog esa Parfiya davlatini skiflar yaratgan, degan fikrni ilgari suradi. X asrda yashagan Rim olimi Pliniy şkifni bir necha qabilalarning nomi, deb tushunadi. Bu qabilalar orasida sak, massaget, day, issedon, arimasplar mashhurlaridan, deb ta’kidlaydi. A.B.Ditmar skiflarning tilini sak va massaget qabilalari bilan urug‘dosh deb ta’kidlaydi. F.Sulaymonova «skif» degan nom bir qabila, elat yoki xalqning nomi emas, balki bir qancha qabila, elat va xalqlarning birlashmasi yoki siyosiy umumlashma, deb aytilgan fikrlarga qo‘shiladi.

N.Rahmonov ham «skif» atamasi siyosiy umumlashmagan, nisbatan qo'llanilgan bo'lishi kerak», degan xulosaga keladi.

Skiflar ko'p qabila va xalqlarning umumlashgan nomi bo'lishiga tarafdarlik qilish mumkindir. Lekin, haqiqiy skiflar ham mayjud bo'lganlar. Bu albatta bizning nuqtai nazarimiz. Tarixshunoslar skiflar kimmeriyarlari mag'lubiyatga uchratgach manbalarda kimmeriyalar nomi ko'rinmasdan qolganligini yozishadi. Bu o'z-o'zidan ravshanki, skiflar kimmeriyarlari o'zlariga qo'shib olganlar va ular ham skif nomi bilan yuritila boshlangan. Demak, skif umumlashma atama sifatida bir davlat, bir xoqonlikning nomidir. Bu davlatda yuzlab qabila va millat xalqlari yashagan.

Gerodot skiflar mamlakatiga Eron shohi Doro bostirib kelganligi haqida keltirgan rivoyatda bu mavzu o'zining yorqin ifodasini topgan.

*Doroning skifyaga yurishi va skiflar qahramonligi qissasi.* Skifiya bir necha qavmlarni birlashtirgan davlat edi. Skiflar esa shu davlatning yetakchi qavmlari hisoblanishgan. Qavmlarning birlashgan kengashida juda muhim masala muhokama etiladigan bo'ldi. Skif shohining vakili ham Skifiyadagi barcha qavm hukmdorlarining kengashiga yetib keldi. Skiflar vakili fors shohi Doro dunyoning ko'pgina qismini zabit etib, Bospar daryosining Qora dengizga quyiladigan qismiga ko'rik o'rnatib, bu tomonga yurish qilishga tayyorlarlik ko'rayotganidan xabar berdi.

– Eron shohi butun mamlakatni egallashni xohlamoqda, – dedi skiflar vakili, – endi bizga bir chekkada turish yarashmaydi. Qurbon bo'lishimizga yo'l qo'ymaylik. Kelinglar, dushmanga ahillik bilan qarshi chiqamiz. Agar biz shunday qilmasak, mamlakatni tashlab ketishimizga to'g'ri keladi yoki shu yerda qolib, bosqinchilarga ixtiyoriy tarzda bo'yin egishga majbur bo'lamiz. Agar siz yordamlashishni xohlamasalaringiz, bilmadik, biz nima qilishimiz kerak? Sizga

*ham bu urush yengil kechmaydi. Chunki Eron shohi bizga yurish qilibdi, bilingki, sizga ham qarshidir. Bizni bosib olgach, ular tinch turmaydilar, sizlarni ham ayab o'tirmaydilar. Biz sizlarga so'zimizning muhim isbotini keltiramiz. Agar Eron shohi faqat bizga qarshi oyoqqa turib, oldingi qulliklar uchun o'ch olishni istaganda edi, u boshqa xalqlarga tinchlik berib, to 'g'ri bizning mamlakatga yurish qilgan bo'lardi. U holda, Eron shohi skiflarga qarshi kelayotgani hammaga ayon bo'lardi. Afsuski, shoh hammamiz yashaydigan qit'aga suzib o'tmoqda, o'z yo'lidagi barcha xalqlarni bo'ysundirishni niyat qilmoqda. Ko'pgina ittifoqchi qavmlar uning qo'liga o'tib bo'ldi. Shu jumladan, bizga qo'shni bo'lgan getlar ham.*

*Skiflar vakilining ushbu ma'lumotidan so'ng ittifoqchi qavm boshliqlarining vakillari kengashishga kirishdilar, fikrlari bilan o'rtoqlashdilar: gelonlar, budinlar va savromatlarning hukmdorlari skiflarga yordam berishga va'da berdilar. Agafirlar, nevrlar, androfaklar, shuningdek, melanxlenlar va tavrlarning hukmdorlari skif vakiliga shunday javob berishdi:*

*— Agar siz o'tmishda forsiylarni xafa qilmaganlaringizda va ular bilan urushmaganlaringizda edi, biz sizning taklisingizni to 'g'ri tushungan va bajoni dil qabul qilgan bo'lardik. Lekin siz bizning maslahatlarimizsiz forslar yeriga bostirib kirdingiz, unga egalik qildingiz, u paytda Tangri sizlarga yo'l bergen edi. Endi esa o'sha Tangri ular tomonadadir va forsiylar sizlardan o'ch olish niyatidadirlar. Biz u paytda ularni xafa qilmagan edik va endi ham hech qachon ular bilan jang qilmaymiz. Agar forsiylar bizning mamlakatga hujum qilmoqchi bo'lsa, bunga yo'l qo'yaymiz. Lekin biz hozircha bu xavfni ko'rmayapmiz, shu sababli o'z yurtimizda qolamiz. Bizningcha, forsiylar bizga emas, balki o'z dilozorlariga qarshi kelganlar.*

*Bunday javobni olgan skiflar forsiylar bilan ochiqchasiga jang qilmaslikka ahd qildilar. Skiflar sekin-asta orqaga*

*chekindilar, mollarini haydadilar, quduq va buloqlarini ko'mdilar, o't-o'lanlarni nest-nobud qildilar. Ular o'z qo'shinlarini ikki qismga bo'lishdi. Skopas rahbarlik qilgan birinchi qismga savromatlar qo'shildilar. Bu harbiy qism forslar hujum qilgan holda Meotida ko'li yoqalab, Tana (Don) daryosigacha chekinishi, agar forsiylar orqaga burilishsa, u holda ularni kuzatishi lozim edi. Bu qo'shin uch skif shohligining birinchisi bo'lib, ko'rsatilgan yo'lidan borish to'g'risida buyruq oldi. Ikkinchi shohlikka Idansir, uchinchisiga Taksak hukmdorlik qilardi. Ularga Gelon va budinlarning qo'shinlari qo'shilgan bo'lib, ular sekin-asta chekinishi, forsiylardan kunduzgi ko'chish masofasini saqlab turishi, shu asosda harbiy rejani bajarishga kelishilgan edi. Eng avvalo, skislar o'z ittifoqida bo'lib, lekin bo'yin tovlagan qavmlar yeriga forsiylarni aldab kiritish, ularni eroniylar bilan urushtirishni juda muhim masala deb hisobladilar. Agar ular forsiylar bilan jang qilishni o'z ixtiyorlari bilan xohlasmagan bo'lsa, endi ularni dushmanqa qarshi jang qilishga majburlash kerak edi. Chindan ham agar bu aqli tadbir bo'lsa, ittifoqdan bo'yin tovlagan forsiylar bilan kurashib, o'zlariga falokat yog'dirishadi.*

*Ushbu qarorga kelgan skislar Doro qo'shiniga qarshi jangga otlandilar. Oldinda eng yaxshi chavandozlardan tashkil topgan harbiy qism borar edi. Ayollar va bolalar o'tirgan to'rt g'ildirakli soyabon aravalari, shuningdek, oziq-ovqat uchun saqlanganlaridan tashqari barcha mollar Shimol tomonga jo'natib yuborildi. Shundan so'ng harbiy aravalari karvoni oldinga siljidi. Skiflarning bosh harbiy qismi Istr (Dunay) daryosidan uch kunlik masofada forsiylar bilan uchrashdilar. Skislar o'z dushmanlarini kunduzgi yurish vaqtida aniqladilar va o't-o'lanlarni yulib, chodirlarini o'rnatdilar. Forsiyalar skif otliq qo'shinlari paydo bo'lganligini sezib qolishdi va doimiy ravishda chekinib yurgan skif sipohlari izidan tushdilar. Shundan so'ng forsiylar skif jangchilarining bir qismini Don*

daryosining sharqiy oqimi bo 'ylab kuzatib bordilar. Skiflar yana Don daryosidan o 'tdilar, forsiylar ham to 'ppa-to 'g 'ri ularning orqasidan suzib, kuzatishni davom ettirdilar.

Forsiylarning yo 'li Skifiya va Savromatiya orgali davom etardi. Ular joylarni vayron qila olmadilar, chunki bu behuda yurishlar edi. Skiflarda qad ko 'targan qishloq va shaharlar yo 'q edi. Budinlarning yeriga kirib borilgani sari forsiylar atrofi yog 'och devorlar bilan o 'ralgan shaharga duch keldilar. Budinlar qochishdi, shahar bo 'shab qoldi, forslar unga o 't qo 'ydilar. Shundan so 'ng forsiylar yana chekinib, yurgan skiflarni kuzatishni davom ettirdilar va ular sahroga duch kelishdi, bu mutlaqo odam oyog 'i yetmagan cho 'l bo 'lib, bu budinlar mamlakatining shimolida joyleshgan, uzunligi yetti kunlik yo 'l edi. Shimoldagi bu sahroda fissagetlar yashashardi. Ularning yeridan Meotida ko 'liga quyiluvchi to 'rtta daryo: Lik, Oar, Tana va Sirg oqib o 'tardi.

Sahroda mo 'l yo 'l bosib, horigan Doro o 'z qo 'shini bilan Oar daryosi bo 'yida to 'xtadi. Shoh har qaysisining o 'rtasidagi masofa 60 metr chamasi bo 'lgan sakkizta istehkom qurishni buyurdi. Shoh binoni qurish bilan ovora bo 'lgan paytda ular ta 'qib etayotgan skiflar Doro qarorgohining shimol tomonidan o 'tib, yana Skiflya tomon ketdilar. Skiflarning favqulodda paydo bo 'lganligini sezgan Doro qurilishni to 'xtatdi, lekin skiflar qayta ko 'rinmadilar. Doro uning qarshisiga skiflarning barcha qo 'shini keldi va ular g 'arbga qochdilar, deb o 'yladi.

Doro qo 'shini bilan tezda Skifiyaga yetib kelar ekan, bu yerda ham skiflarning ikki qo 'shinini ko 'rdi. Shoh ular bilan to 'qnashdi. Lekin skiflar undan bir kunlik yo 'l ilgari o 'tib ketganligidan hayratda edi. Doro tazyiqni davom ettirdi. Skiflar esa o 'z harbiy rejalariga ko 'ra jangda yordam berishni xohlamagan qavmlar, eng avvalo – melanxlenlar mamlakatiga chekindilar. Forsiylar va skiflarning bostirib kelishidan melanxlenlar qo 'rqib ketishdi. So 'ngra skiflar o 'z dashmanlarini androsaglar yashaydigan viloyat tomon

*yetakladilar. Yana qo 'rqinch va vahima ichida nevrlar yeriga chekindilar. Shundan so 'ng skiflar agafenlar yeriga qochishdi. Agafirlar o 'z qo 'shinlari vahima ichida qolib, skiflar oldiga tushib chopayotganini ko 'rishar ekan, o 'zlarini himoya etishga kirishdilar va skiflarga chopar yuborishdi. Skiflar o 'z mamlakatlariga bostirib kirishga jur 'at etishsa, ular bilan qahramonlarcha kurashishga tayyor ekanligini bildirdilar.*

*Shundan so 'ng agafirlar dushman hujumini qaytarish uchun o 'z chegaralariga qo 'shin chiqardilar. Melanxlenlar, androsaglar va nevrlar forsiy hamda skiflarning hujumiga bardosh bera olmadilar. Ular qo 'rquv ichida shimoliy sahrolarga qochishdi. Skiflar agafirlar mamlakatiga borishmadi, ularni ham qochirib qo 'yishni istashmadi. Lekin forsiylarni nevrlar mamlakatidan o 'z yerlariga aldab, chaqira oldilar.*

*Urush kundan-kun taranglashib borar edi. Oxiri sira ko 'rinmasdi. Shu sababli Doro o 'z suvoriyisini skif shohi Idanfir huzuriga xat bilan jo 'natdi.*

*- Ahmoq! Nega sen hamma vaqt qochib yurasan, hatto senga imkoniyat berilganda ham foydalanmaysan. Agar sen o 'zingni mening kuch-qudratimga bardosh beraman deb o 'ylasang, u holda to 'xta, darbadarlarcha yurishni bas qil, men bilan jangga tush! Agar sen o 'zingning juda kuchsizligingni tan olsang, u holda ham qochishingni to 'xtatishingga to 'g 'ri keladi. Egallab turgan yer va suvlaringning taqdiri uchun ham biz bilan muzokaraga kirishishing kerak.*

*Bu so 'zlarga skiflar shohi Idanfir shunday javob qaytardi:*

*- Mening tutgan yo 'lim shunday, hurmatli shoh! Men hech qachon qo 'rqinchdan qochgan emasman va hozir ham sendan qochayotganim yo 'q. Hozir ham o 'zimni tinchlik davridagidek xotirjam sezmoqdaman. Men sen bilan nega jangga kirishmayapman, buni ham tushuntiraman. Bizda shaharlar hamda ishlov beriladigan yerlar yo 'q. Biz ularning vayron*

*bo'lishi va xarobalanishidan qo'rqlaymiz. Shu sababli sen bilan jang qilishga shoshilmayapmiz. Agar sen biz bilan urusha olmayapman desang, bizning otalarimizning qabrlari mavjud. Ularni topinglar, buzishga urinib ko'ringlar, shundagina biz qabrlar uchun jang qilamiz. Ungacha, bizga ma'qul topilmaguncha, biz siz bilan jangga kirishmaymiz, jang qilish haqidagi bu fikr mening qat'i qarorimdir. Biz hukmdor deb saqat skiflar xudosi Zevs va Gestiyani tan olamiz. Sen o'lpon sifatida yer va suvimidni kutayapsan. Men esa senga boshqa ehson jo'nataman. Chunki sen unga loyiqsan. Sen o'zingni menga hukmron sanaganliging uchun hali menga qimmatli tovon to'laysan.*

*Eron chopari ushbu javobni olib, Doro huzuriga jo'nadi. Skif shohlari Skopas boshchilik qilayotgan savromatlardan iborat qo'shinlarining bir qismini Dunay daryosidagi ko'priklari qo'riqlash uchun ionyanlar bilan muzokara qilishga jo'natdilar. Boshqalari esa forsiylarni endi aldab, chalg'itmaslik, ammo oziq-ovqat axtarib chiqqanlarida hujum qilishga ahd qildilar. Skiflar ushbu rejani amalga oshira borib, Doro jangchilaridan bir nechtasini ovqat izlashga chiqqanlarida o'qqa tutdilar. Skif suvoriyarlari dushman suvoriyarini muntazam ravishda ta'qib qildilar. Forsiyarning qochoq suvoriyariga yordam berish uchun piyodalari ham hujumga otlanishdi. Skiflar piyodalarga ham qarshi kurashdilar. Bunday hujumlar kechalari ham uyushtirildi.*

*Forsiylar va skiflarning jangi paytida kulgili hodisalar ham yuz berib turdi. Doro suvoriyarlari eshak va xachirlarni ham urushga jalg' etgan edi. Eshaklarning hangrashiyu xachirlarning ko'rinishi skiflar Doroning qarorgohiga hujum qilishgan paytda forslarga qulaylik tug'dirsa, aksincha, skiflarga xalaqit herdi. Skiflar mamlakati sovuq bo'lganligi sababli eshak va xachirlar bu yurtda bo'lmash edi. Eshak nima ekanligini bilmagan skiflar ularning baqiriqli ovozlarini eshitib, esankirab qoldilar. Otlar esa eshakning ovozidan*

*qo'rqib, orqaga tislanishi ham kamdan-kam, lekin uchraydigan hodisadir.*

*Otlar eshaklarning hangrashidan quloglarini dikkaytirishdi, ehtimol, ular avval bu xil hayvonning tovushini biror marta eshitishmagan, uni ko'rishmagan edi. Shunday qilib, eshak va xachir hangomasi forsylarga jangda qisqa muddat yordam berdi, xolos.*

*Skiflar forsylar o'rtasida sarosima va parokandalik yuz berayotganini ko'rib, ularni o'z yurtlarida ushlab turish va azoblash, zaruriy narsalardan mahrum etish yo'llarini izladilar. Skiflar o'zlarining bir qism podalarini cho'ponlar bilan birga qoldirdilar, o'zlari esa boshqa joyga ketdilar. Forsylar mollarini qo'lga kiritishar ekan, o'z muvaffaqiyatlaridan faxrlanishar edi.*

*Bu hodisa tez-tez takrorlandi. Natijada Doro qiyin ahvolga tushmadi. Bu voqeadan xabardor bo'lgan skiflar shohi Doroga sovg'a jo'natdi. Sovg'a qush, sichqon, qurbaqa va beshta kamon o'qidan iborat edi. Forsylar sovg'ani olib kelgan chopardan bu narsalarning qanday ma'no berishini so'radilar:*

– *Menga faqat sovg'alarni topshirish va tezda orqaga qaytish buyurilgan, – deb javob berdi chopar va o'z so'ziga qo'shib qo'ydi. – Agar forslar dono bo'lishsa, bu sovg'alarning mazmunini o'zlari anglab yetishlari kerak.*

*Forsylar skiflar jo'natgan sovg'aning mazmunini ochishga kirishdilar. Doro sovg'ani shunday izohladi:*

– *Skiflar menga hokimiyatni, yer hamda suvini topshirishmoqchi. Sichqon yerda yashaydi, insondek yerning mahsulotidan oziqlanadi. Qurbaqa suvda yashaydi. Qush chaqqonligi bilan otga o'xshaydi, kamon o'qlarini topshirishlari esa skiflarning bizga qarshilik ko'rsatmasliklarining belgisidir.*

*Doro qo'shinlari orasida Gobriy ismli dono kishi bor edi. U Doroning so'zlariga qarshi o'laroq sovg'ani boshqacharoq izohladi.*

*Agar siz, forslar, qushdek osmonga parvoz etmasalaringiz yoki sichqondek yerostiga yo'qolmasalaringiz, yoki qurbaqadek botqoqqa sakrab tushmasalaringiz, ushbu kamon o'qlaridan halok bo'lasizlar, vatanlaringizga qayta olmaysizlar.*

*Shunday qilib, forsiylar sovg'aning ma'nosini topishga erishdilar. Shu paytda skiflarning bir qo'shini Dunay tomondan ionyanlar (ionyanlar grek qavmlaridan biri. Ehtimol, bu paytda ular forsiylar tutqunida bo'lishgan. – A.A.) bilan muzokara olib borishga jo'nadi. Ionyanlar Meotid ko'li yonida qorovullikda turishgan edi. Dunay daryosi ko'prigiga yaqinlashar ekan, skiflar ionyanlarga shunday murojaat qildilar:*

– *Ey ionyanlar, biz sizga ozodlik keltirdik. Faqat buning uchun bizga bajonidil quloq solinglar. Bilishimizcha, Doro 60 kundan keyin ko'priksi buzishga amr etdi. Agar u shu muddat orasida kelmasa, siz o'z vatanlaringizga qaytishlarining mumkin. Agar siz ko'priksi himoya qilsalaringiz, u holda shoh oldida va bizning oldimizda ham aybdor sanalmaysizlar. Ko'rsatilgan muddatni kutinglar, undan so'ng vatanlaringga jo'nanglar.*

*Ionyanlar skiflarning iltimosini bajarishga va'da berdilar.*

*Eron shohiga sovg'a jo'natilganidan so'ng skiflarning piyoda va otliq qo'shnlari forsiylar bilan jang qilishga shay turdilar. Skiflar jangovar holatda edi. Shu payt ularning yonidan quyon o'tib qoldi. Skiflar quyonni tutish payiga tushdilar, jangchilar o'rtaida tartibsizlik boshlandi, qiy-chuv ko'tarildi.*

– *Skiflar tomonida nima shovqin-suron? – ajablanib so'radi Doro.*

*Unga skiflar quyonning orqasidan quvishayotganligini aytishdi. Shundan so'ng Doro o'z yaqinlariga dardini yordi.*

*Skiflar bizni haddan tashqari pisand qilmayaptilar. Govriy skiflarning sovg'asini to'g'ri tahlil qilgani endi menga ayon*

*bo 'ldi. Ahvolimiz qay tarzda ekanligini ko 'rib turibman. Qanday qilib yurtimizga eson-omon yetib olamiz. Biror yaxshi maslahat aytinlar-chi?*

– *Shohim! – Govriy Doroga murojaat etdi. – Men qachonlardir bu qavmga bas kelib bo 'lmasligi haqida eshitgan edim. Bu yerga kelib yanada kuchliroq ishonch hosil qildim. Ko 'rib turibmizki, ular bizning ustimizdan masxaraomuz kulmoqdalar. Shu sababli sizga shunday maslahat beraman: qorong 'i tushishi bilan, odatimizga ko 'ra, olov yoqaylik, kuchsiz jangchilarimiz va barcha eshaklarimizni bog 'lab shu yerda qoldiraylik, so 'ngra orqaga chekinib, skiflar Dunayga yetmasdan, ionyanlar biz uchun biror halokatli qarorini o 'ylab topmasdan ko 'prikni buzaylik.*

*Qorong 'i tusha boshlagach, Doro Govriyning maslahatini bajarishga kirishdi. Kuchsiz jangchilar, barcha eshaklar harbiy qarorgohda qoldirildi. Olov yoqildi, Doro Dunay tomon shoshildi. Eshaklar yanada kuchli ovoz bilan hangradilar. Skiflar esa eshaklarning tovushini eshitishib, forslar o 'z qarorgohlarida deb mutlaqo ishondilar.*

*Ertasi kuni harbiy qarorgohda qolgan forsiylar shoh Doro bizlarni tashlab, o 'z yurtiga jo 'nab ketdi deb tushundilar. Ular skiflarning qo 'liga asir tushar ekanlar, rahm-shafqat tiladilar va bo 'lgan voqealarning hammasini aytib berdilar. Buni eshitgan skiflar tezda o 'z kuchlarini to 'pladilar, ularning ikki qo 'shini (bittasi savromatlar bilan birgalikda, ikkinchisi budin va gelonlar bilan birgalikda) tayyor edi. Qo 'shinlar Dunay daryosi tomon forsiylar izidan tushdilar. Eron askarlarining katta qismi piyodalardan iborat edi. Buning ustiga ular yo 'lni yaxshi bilishmas edi. Skiflar esa otda bo 'lib, Dunayga boradigan yaqin yo 'lni bilishardi. Shu sababli ikki qo 'shin ikki tomonga ketdi, skiflar ko 'prikka forsiylardan oldin yetib kelishdi, ular hali forsiylar yetib kelmaganligini ko 'rishar ekan, o 'z kemalariga o 'tirib olgan ionyanlarga shunday murojaat etdilar:*

– Ey, ionyanlar, sizlarga kutish uchun belgilangan kunlarning soni tugadi. Agar bu yerda qolsalaringiz endi xato qilasizlar. Chunki sizlarni bu yerda faqat qo'rqinch ushlab turgan edi. Endi Tangri va skiflar sharofati bilan ozodlikka chiqdingizlar va tezda huquqlaringizni tiklaysizlar. Biz sizning sultoningizni shu darajada jazoladikki, endi unga hech bir xalqqa qarshi qo'shin tortish sira nasib qilmaydi.

Skiflarning qadimgi tasviriy san'atlarida ot, arslon, sher, bo'ri, echki, kiyik, quyon kabi hayvonlarning turli xil ko'rinishdagi suratlari uchraydi. Qadimda skiflar o'z pahlavonlari, xoqonlari jangda qahramonlik ko'rsatishsa, bahodirligi, kuch-qudratini ulug'lash maqsadida ularni hayvonlar nomi bilan atash yoki o'zlarini biror kuchli hayvondan taralgan deb hisoblash an'anasiga ega edi. Sher qadimgi turkiylarning qahramonlik timsolidir. Ehtimolki, qadimi davlatlarning ramziy belgisi bo'lsa, skiflarniki shersifat kuchli hayvondir. Chunki qadimgi turkiy xoqonlar saroylarining darvozalari yoniga sher haykali o'rnatilgan. Bu kuchlilikning ramziy belgisini ifodalagan.

Shumerlarning «Bilgamish» dostoniga chizilgan tasvirlar orasida ho'kiz qiyofasidagi odamlarni ko'ramiz. Ular osmon xudosi tomonidan Bilgamishga qarshi jo'natilgan kuch. Ikkinci tasvirda ho'kiz odam bilan sherning kurashi berilgan. Eposda Bilgamish ho'kiz qiyofasidagi odamlarga qarshi kurashadi. Aytish mumkinki, bu tasvirdagi shersifat odam qadimgi turkiylar timsoliga ham mantiqan yaqin turadi. Qadimgi turkiylar turmush tarzi sher bilan bog'langanini, arslon va sher ularning xoqoni timsoli ekanini «Alpomish» dostonida ham sezish mumkin. Alpomish qalmoqlar zindonidan qaytib kelgach, o'zini hech kimga tanitmeydi. Ammo uni tanigan ayol «Elga yo'lbars oraladi», «Yo'lbars kelib yurtiga oraladi», deydi. Bu o'rinda yo'lbars – yurt xoqoni, begi Alpomishni bildiradi. Turkiy xalqlarning afsonaviy qahramoni darajasiga ko'tarilgan Alp

Er To'nga nomi ham «yo'lbarsdan kuchli bahodir odam» mazmunini ifodalaydi.

Bizgacha skif qavmining dunyoga kelishi, boshqa qavmlarga o'z ta'sirini o'tkazishi va ittifoqchi qavmlarning yetakchisi darajasiga aylanishi, xususan, Kichik Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatishi to'g'risidagi bir necha rivoyatlar yetib kelgan. Gerodot «Targ'itoy», «Skifning tug'ilishi» afsonalarini keltirar ekan, bulardan tashqari, yana uchinchi rivoyat ham mavjud, men hammadan ko'ra shunga ko'proq ishonaman, deb yozadi.

**Shohga bo'y sunmagan kimmerlar afsonasi.** Skiflarning ko'chmanchi qabilalari Osiyoda makon topdilar. Massagetlar harbiy kuch bilan skiflarni siqib chiqarganlaridan so'ng ular Arak daryosi bo'yiga o'tdilar va kimmeriyalar yeriga keldilar (hozir skiflar yashaydigan mamlakat, aytishlaricha, azaldan kimmeriyalarga tegishli bo'lgan). Skiflarning kimmeriyalarga yaqinlashuvi kengashishga sabab bo'ldi.

— Ko 'p sonli skiflar qo'shinini nima qilish kerak?

*Kengashda har xil fikrlar tug'ildi. Tomonlar o'z fikrlarini himoya qilsalar-da, lekin shohning taklifi g'olib keldi. Xalq ko'p sonli skiflar bilan kurashish kerak emas, deb hisobladi. Shoh esa bu fikrga qarshi o'laroq, ona yerini bosqinchilardan himoya qilishni zarur deb bildi. Shunday qilib, xalq shohning maslahatiga quloq solmadidi. Shoh esa xalqqa bo'yin egishni istamadi. Xalq vatandan chiqib ketish va bosqinchilarga o'z yerlarini jangsiz topshirishga ahd qildi. Nihoyat, shoh ham ona tuproqda suyagi cho'zilib qolganidan ko'ra xalq bilan birga qochib, jonini qutqarib qolishni afzal ko'rди. Chunki shoh kimmeriyalar ona tuproqlarida qanday ulug' baxtni boshdan kechirishdiyu vatandan quvg'in qilingan hamda haydalganlarni qanday g'am-g'ussalar kutayotganini tushungan edi. Kimmeriyalar teng ikkiga bo'lindilar va o'rtada kurash boshlandi. Kimmeriyalar birodarkushlik urushida halok*

*bo'lganlarning barchasi Tirasa (Dnestr) daryosining ostiga (shohning qabrini ham) ko'mdilar. Shundan so'ng kimmeriyalar o'z yerlarini tark etdilar. Skiflar esa odamsiz mamlakatni egallab oldilar.*

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, skif xoqoni Protofey (ayrim manbalarda Prototey), so'ngra uning o'g'li Madi 652-625-yillarda Kichik Osiyo mamlakatlariga hukmronlik qilishgan. Skiflarning Midiyaga bostirib kirishi voqealaridan biri shunday bo'lgan: Midiya shohi Fraort ossuriyaliklar bilan bo'lgan jangda yengiladi. O'g'li Kiaksar (Kayxisrav) qo'shinni qayta tuzib, urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Gerodot bu haqda shunday yozadi: «Kiaksar o'z hukmi ostidagi barcha xalqlar bilan otasi uchun qasos olish va vayron qilish maqsadida Nin shahriga yurish qildi. U ossuriyaliklarni yengib, Nin shahrini qamal qilgan paytda uning davlati hududiga skiflarning ulkan qo'shini bostirib kirdi. Ularning yo'lboschchisi Madi bo'lib, u Protofeyning o'g'li edi. Skiflar kimmeriyalarni Yevropadan quvib chiqarib, Osiyoda ta'qibni davom ettirdilar va shu tariqa Midiya yerlariga bostirib kirdilar». Ular kimmeriyalarga o'xshab, qo'qqisdan hujum qilish usulini egallahsgan. Skif va kimmeriylardagi epchillik, chavandozlik, merganlik, dushmanqa qo'qqisdan hujum qilish turkiy xoqonlardan Temuriylarga ham xos bo'lgan. Bu «turktoz» usuli deb nomlangan.

Skifiya (Turon) va Midiya (Eron) urushlari mavzusi jahon adabiyotida katta sahifani tashkil etadi. Bu ikki mamlakat o'rtaсидаги urushlar qayta-qayta sodir bo'lganidek, bu voqealarning ta'sirida yuzaga kelgan rivoyat va afsonalar, hatto yirik dostonlarda ham Eron va Turon shohlari, qo'shin boshliqlarining rang-barang obrazlari yaratilgan. Midyaning Skifiyaga qarshi boshlangan urushlarining biriga skiflarning jahldorligi, shafqatsizligi sabab bo'lgan ekan.

*Skiflar «ov»i afsonasi. Qasoskor skiflarning to'dasi Midiya yeriga ko'chib o'tdilar. Bu paytda midiyaliklar shohi Deiokning neverasi, Fraortning o'g'li Kiaksar edi. Boshpana so'ragan skiflarni Midiya shohi dastlab do'stona qabul qildi. Ularga ishonganidan o'z o'g'illarini topshirdi, kamondan o'q otish sirlarini o'rgatishni so'radi. Skiflar ovchilik bilan shug'ullanishar, turli qushlar va jonivorlarni ushlab kelishar va uni Kiaksarga tuhfa etishar edi. Lekin kunlardan bir kun skiflar ovdan hech narsa olib qaytisholmadi. Buning uchun Kiaksar qo'llari bo'sh kelgan skiflarni yomon so'zlar bilan haqoratladi. Midiya shohidan nohaq so'kishlarni eshitgan skiflar juda xasa bo'ldilar va shohning shogirdlikka bergen o'g'illaridan birini chopib, bo'laklab, ov mahsuloti sifatida Kiaksarga sovg'a qilishga qasam ichdilar. Shundan so'ng oddiy ovdek bolaning ichak-chovog'ini tozalashdi va uning go'shtini pishirishib, Kiaksarning dasturxoniga qo'yishdi. Bu voqeadan keyin skiflar o'z sirlari oshkor bo'lib qolishidan cho'chishib, tezda Sardi shahriga, Lidiya shohi Aliatt huzuriga qochishdi. Kiaksar esa go'shtni mehmonlari bilan birgalikda tanovul etdi. Kiaksar tanovul etilgan go'sht o'g'liniki ekanligini bilib, skiflardan o'ch olishga ont ichdi. Lekin Kiaksar har qancha talab qo'ymasin, Aliatt skiflarni unga qaytarib berishni istamadi. Midiyaliklar va lidiyaliklar o'rtasida urushning boshlanishiga skiflar «ov»i sabab bo'lgan ekan.*

## **ALP ER TO'NGA SHAXSIYATI VA U HAQDA YARATILGAN ASARLAR**

Qadimgi yunon va ossuriya tarixiga oid kitoblarda Kayxisrav va skif hukmdorlari o'rtasidagi janglarga alohida o'rin ajratilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Kayxisrav skiflarni Midiyadan haydab chiqarishga muvaffaq bo'lmaydi va hiyla yo'liga o'tadi. Ularning yo'lboshchisi Madini yarashish ziyofatiga taklif etib, zaharlab o'ldiradi.

Skiflarning orasini buzib, bir qismini o'ziga ag'darib oladi. Ulardan tan qo'riqchilar tanlaydi. Ular zodagon midiyalik yoshlarni kamondan o'q uzish va ovga o'rgatadilar.

Rus turkiyshunos olim S.Yu. Neklyudov asoslashicha, turkiy xalqlar til boyligidagi er, erlik, xon, bagatur, maadir, bootur, paxatur, madur, olşıp, alp, kuchu, bagu, mergen, bo'ko' kabi so'zlarning barchasi kuchlilik, bahodirlik va qahramonlikka nisbatan qo'llaniladi.

Turkiylarning afsonaviy qahramoni timsoliga aylangan Alp Er To'nga tarixiy shaxs Madining umumlashgan badiiy obrazidir. Alp Er bilan Madi bir xil ma'nodagi ismlardir. Madi – Maadirning qisqargan shakli bo'lib, u bahodir (alp er) mazmunini beradi. Hozir bu so'z tuva tilida qo'llaniladi va u Ma:adir shaklida yoziladi. Turkiylarda M va B tovushlari almashuvchandir (bayram – mayram, bo'yinchoq – munchoq kabi). Demak, Ma: adir – Bahodir – Alp Er miloddan oldingi VII asrda yashagan turk xoqonining nomidir. Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib Alp Er To'nga forsiy adabiyotda Afrosiyob nomi bilan tasvirlanishini ko'rsatishadi. «Devonu lug'otit turk»da Alp Er To'nga obrazi yaratilgan xalq dostonining parchalari ham saqlangan. Alp Er dono, zukko, tadbirkor xoqon bo'lgan. U aytgan hikmatli so'zlar o'z qavmlari o'rtasida mashhur edi. «Qutadg'u bilig»da bu hikmatlardan o'rinnli foydalanilgan. Dostondagi «Alp Er To'nga», «Alp Er», «To'nga Alp Er», «Jahongir kishi», «Dono elbegi», «Elchi boshi», «Beklar begi», «Botir kishi» nomi bilan keltirilgan hikmatlar turkiylarning qadimiy xoqonlariga daxldordir. Quyidagi matnlar buning yorqin misoli bo'la oladi.

*Neku ter eshitgil To'nga Alp Erig,  
Bilib so'zlamish ko'r bu o't sav irig.  
(Nima der eshitgil, Alp Erig To'nga,  
Bilib aytmiss o'git, nasihat senga).*

*Et-ul bu kishi ko 'ngli artar yidir,  
Eti kad kadazgu e qilqi qadir.  
(Kishi ko 'ngli go 'shtdir, hidla buzilur,  
Go 'shtni avaylagin, ey fe 'li qodir).*

*Necha kad er ersa yung 'ag ' tinglamas,  
Uzunchi ara kirsa sernu umas.  
(Yaxshi odam g 'iybat tinglamas bo 'lsa,  
G 'iybatchi ora kirsa o 'zni tutolmas).*

*Necha kad bek ersa o 'qushlug ' udug ',  
Yung 'ag 'chi yaqin bo 'lsa tegrur yudug '.  
(Qanchalik yaxshidir, zakovatli bek,  
Chaqimchi yaqin bo 'lsa ketar ulug 'lik).*

*Ko 'ngul beg turur bu et o 'z qul asir,  
Ara so 'zka tumlir arala isir.  
(Ko 'ngil beg, tanu jon unga qul, asir,  
Goho so 'zga sovur, gohida isir).*

*Kishi tab 'i to 'rt ul qarishma yag 'i,  
Biri kuldurur bir qilur un cho 'g 'i.  
(Kishi ta 'bi turli, aralash dushman,  
Biri kuldirar, g 'avg 'o qiladi biri).*

*Biri evsa biri amulluq tilar,  
Biri kulsa biri sig 'itqi ular.  
(Biri shoshsa, biri sokinlik tilar,  
Biri kulsa, biri yig 'i ulashar).*

*Sevinchlig ' tedukta saqinch keldurur,  
Saqinchlig ' tesa bu sevinch kuldurur.  
(Sevin topganda alam keltirar,  
Alam kelganda sevinch kuldirar).*

Midiya hukmdorining skiflar xoqoni Madini zaharlab o'ldirishiga oid tarixiy voqeа keyinchalik turkiy xalqlar og'zaki ijodida yuzaga kelgan yirik eposlarda ham o'z ifodasini topdi. O'zbeklarning «Alpomish», qирг'излarning «Manas» dostonlarida, turkiy xalqlar о'rtasida Alp Er To'nga nomi bilan bog'langan rivoyat va afsonalarda, anatoliya (hozirgi Turkiya) turklari orqali bizgacha yetib kelgan «Alp Er To'nga» dostonida, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobida saqlangan marsiyada ushbu voqelik ta'siri mavjud. Shuningdek, fors-tojik adabiyotidagi Kayxisrav va Afrosiyob turkumiga oid o'nlab afsonalar, hatto Firdavsiyning «Shohnoma»si ham qadimgi midiya va skif hukmdorlarining ziddiyatli kurashlaridan badiiy oziq olgandir.

Turkiy qahramonlarni yengishning midiyacha usuli «Alpomish» dostoni syujetida to'la saqlangan. Alpomish qalmoqshoh lashkarlariga qирг'in soladi va qalmoqlar vahima ichida qoladi. Alpomishni yo'qotish katta kuchni talab etadi. Aytish mumkinki, unga teng keladigan bahodir yo'q edi. Kayxisrav Madini ayyorlik bilan yakson qilganidek, u ham ayyorlik yo'lni topadi. O'zbeklar va qalmoqlar urushida o'g'llarini yo'qotgan, Alpomishning do'sti Qorajonning onasi Surxayl bu vazifani ijro etadi. Uning rejasi bilan Alpomishning qaynotasi Boysarining mol-mulki talanadi. Bu voqeani eshitgan Alpomish qaynotasini olib kelish uchun qalmoqlar yurtiga jo'naydi. Tuzilgan rejaga ko'ra, Alpomishni Chilbir cho'lida turli xil ichimliklar, behush qiladigan dorilar va o'ziga oro bergen qizlar kutayotgan edi. Alpomish va uning yigitlarining ziyoфat qilinishi Kayxisravning mehmondorchiligini eslatadi. Alpomish sharafiga uyuشتirilgan ziyoфatda ham sharobxo'rlik avjiga chiqadi. Qizlar o'z nag'malari, sharobga qo'shilgan dorilari bilan yigitlarning aqlini olishib, hushidan ketkazishadi.

*Er yigitlar sherdai bo 'lib,  
Berganin qaytarmay olib,  
Bu beklarning ko 'nglin xushlab  
O 'yin qilar zulfak tashlab.  
Nechovlari kosa berar,  
Noz bilan belini ushlab.  
Bu beklarning yo 'li bo 'lar,  
Juda bekni izzat qilar.  
Behush dorilardan solib,  
Uzmay quyib berar qizlar.*

Turk qadimshunos olimi Rafiq O'zdek «Turklarning oltin kitobi» asarida xilma-xil og'zaki va yozma manbalar asosida «Alp Er To'nga» dostonini tiklaydi.

### **«ALP ER TO'NGA» DOSTONI**

*Alp Er To'nga degan xoqon bor edi,  
Unga zaminu ko 'k yuzi tor edi.  
Tug 'aylagandi u quyoshni ko 'kka,  
Donolikda tengsiz, jahonda yakka.  
Ko 'k turklar, uyg 'ur, qarluq va qoraxonli,  
Tag 'in qancha turklar insof-iymonli.  
Uni o 'zlariga ota deydilar,  
Zafar shuhratini har yon yoydilar.  
Bandalikni bajo keltirgach xoqon,  
El-yurt ko 'k libosga burkandi shu on.  
Izzat-ikrom ila nomin yo 'qlashib,  
Qoldi yoshlar to 'kib, chekdilar afg 'on.*

Turon bilan Eron – ikki qo'shni davlat bir-biriga dushman edi. Eron mamlakatining taxtida Manuchehr, Turon o'lkasining taxtida esa Alp Er To'nganing otasi Pesheng hukmron edi. Eron hukmdori Manuchehr o'lgach,

xoqon Pesheng o‘g‘li Alp Er To‘ngaga shunday dedi: «Forslar bizga juda ko‘p yomonlik qildi. Endi turkning o‘ch olar payti keldi!»

Alp Er To‘nga zotan shunday bo‘lishini istar edi. «Arslon bilan ham kurashishga tayyorman, Erondan, albatta, qasos olaman», deydi u. Peshengning ikkinchi o‘g‘li Alp Ariz forslar bilan urushning tarafdori emas edi. Alp Er To‘nga jangga tayyorgarlik ko‘rishga qaror qildi.

Alp Er To‘nga arslon yanglig‘ yollı, sarvdek qomatga molik edi. O‘z yoviga timsohdek tashlanar, shikor chog‘i arslondek epchil, savash onida esa jangga kirgan fildek baquvvat edi. Yurgan zahoti yer larzaga kelardi. Birin-ketin otgan o‘qlari yerusi ko‘kni ingratardi. U g‘azablanib jangga kirgudek bo‘lsa, qadam bosgan joyida chuqurlik, to‘kkan qonidan irmoq paydo bo‘lardi. Do‘sstlariga umid va saodat baxsh etuvchi tili dushmanlari uchun o‘tkir qilichdek zaharli edi. Donolikda undan ustun keladigan kishi yo‘q edi. Ko‘ngli daryoday keng, qo‘li esa yomg‘ir keltiruvchi bulutdek ochiq edi. Otasingning ismi Pesheng, otasingning qavmidek, uning qavmi ham Turk edi. Alp Er To‘nganining o‘g‘illari va qizlari ham bo‘lgan. Qizlaridan biri Qoz (g‘oz)dek chiroyli bo‘lganligi sababli unga Qoz (Qoz) deya ot qo‘yishgan ekan. Otasi unga atab Ila dengiziga qo‘yiladigan katta bir daryo qirg‘og‘ida qal‘a-qasr qurdirgan edi. Qoz (G‘oz) bu yerda yayrab suzib yurardi. Shu boisdan turklar «Qoz suvi» deydigan bo‘lishdi. Keyinchalik esa Qoz yashagan, yayrab o‘sgan u maskan shaharga aylandi. Bu shaharga «Qoz o‘yini» nomi berildi (hozirgi Qazvin shahri)...

Alp Er To‘nga o‘z qo‘shini bilan Eron sari ravona bo‘ldi. Ikki qo‘shin Dehiston tumanida to‘qnashdi. Shu yerda turk qo‘shinidan Bormon ismli yigit otini olg‘a surarkan, forslardan yakkama-yakka kurashga chiqadigan yigitni talab qildi. Bormon bilan bellashuvga fors qo‘mondonining

inisi Qubod chiqdi. Ikkijangchi ertadan kechgacha savashdi. Bormon Qubodni nayza bilan yerga qulatdi va Alp Er To'nga huzuriga g'olib sifatida qaytib keldi.

Shundan keyin ikkala mamlakat qo'shinlari bir-biriga qorishib ketdi. O'sha kuni shunday shiddatli jang bo'ldiki, uni ta'riflashga qalam ojizdir. Bu jangda Alp Er To'nga zafar quchdi. Jang maydoni forslarning jasadi bilan to'lib ketdi. Eron podshosi orqaga chekinishga majbur bo'lib, Dehiston qal'asi tomon yo'l oldi. Alp Er To'nga qal'ani qurshab oldi va Eron podshosini asirga tushirdi. Shundan so'ng Eron bilan yonma-yon bo'lgan Qobul davlatining o'z qahramonligi bilan dovrug'i ketgan podshosi Zol forslarga yordamga otlandi. U turk qo'shinlarini o'sha hujumdayoq tor-mor keltirdi. Undan g'azablangan Alp Er To'nga asirlikdagi Eron shohini qatl ettirdi. Boshqa asirlarini o'ldirishga esa ukasi Alp Ariz qarshilik qildi. Asirlarni Sori shahriga jo'natib yuborishdi. Ko'p o'tmay o'sha asirlarning qochib ketishiga qarshilik qilmagan yoxud, umuman, ahamiyat bermagani uchun Alp Er To'nga ukasi Alp Arizni ham qatl qildirdi.

Alp Er To'nga tag'in g'oliblikni qo'lga kiritib, Ray shahriga yo'l olar ekan, Eron shohi tojini boshiga kiyib olgandi. Forslar esa o'ldirilgan podsholari o'rniga Zev nomli kishini o'tqazishgan edi. Ikkala qo'shin qaytadan jang boshladи. Urush jarayonida katta qahatchilik vujudga keldi. Buning ustiga, «urush va qahatchilik odamlarni nobud qilmasin» deya har ikkala tomon ham sulh tuzishga rozilik berdi. Eronning shimoliy tarafidagi viloyatlari Turonga tegdi.

Eron podshosi Zev o'lgach, sulh yana buziladi, shuning uchun Alp Er To'nga takroran hujumga o'tishga majbur bo'ldi. Forslar tag'in Zoldan yordam so'rashadi. Zol keksayib qolganligi tufayli jasoratda o'zidan ham o'zib ketgan o'g'li Rustamni yuboradi. Rustam Zol o'g'li

turklarni mag'lubiyatga uchratadi. Kayqubodni esa Eron taxtiga o'tqazadi.

Rustam bir hujumdayoq 1160 nafar bahodir yigitni o'ldirgani uchun turklar chekinib, sulu imzoladilar.

Oradan ancha vaqt o'tgach, Eron taxtiga Kaykovus o'tirdi. O'sha davrda Eron homiyligidagi arablar isyon ko'tardi. Bu to's-to' polondan soydalangan Alp Er To'nga Eronning ichkarisigacha kirib borishga muvaffaq bo'ldi va juda ko'p kishini asirga tushirdi, ammo Qobul podshosi tag'in Eronga yordam berdiyu turklar yengildi. Jangdan keyin Zol o'g'li Rustam o'z ittifoqchilari bilan maxfiy ravishda urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Shu sababdan Alp Er To'nga ham o'z qo'shinlarini qaytadan harakatga keltirishga qaror qildi. Lekin u shu paytda mash'um tush ko'rди. Uning ta'birini bilib olgach, o'z beklari bilan fikrlashib, Eron bilan sulu tuzdi. O'sha shartga ko'ra, Samarqand, Buxoro va Choch shaharlari forslar qo'liga o'tishi kerak edi.

Ushbu sulhni xohlamagan Kaykovus Rustam va o'g'li Siyovushga telba-teskari muomala qilib, ularni qattiq xafa etdi. Rustam o'z yurtiga qaytib ketdi. Siyovush esa turklarning poytaxti Gang shahriga borib, Alp Er To'ngadan o'ziga panoh so'radi.

Siyovush o'zini turklarga g'oyatda yaqin qilib ko'rsatdi. Dastlabki paytlarda u o'zini haqiqiy turk singari namoyon etdi. Bu yerda u turk bahodiridan Pironning qiziga uylandi. U o'g'il ko'radi, unga Kayxisrav degan ism beradilar. Bir muddatdan so'ng Siyovush Alp Er To'nganing sohibjamol qizi Farangizga uylanadi. Ammo ma'lum vaqt o'tganidan so'ng u turk udumlarini mensimay qo'ygani uchun va ayrim siyosiy tashabbuslarni boshlagani sababli Alp Er To'nga uni o'limga mahkum etadi.

Siyovushning o'limidan keyin Rustam qo'shin yig'ib, yana hujumga o'tadi, ammo bu gal turklarni katta

mag'lubiyatga uchratadi. Janglar davomida Alp Er To'nganining o'g'illaridan biri Sarka halok bo'ladi. Turonning bir qancha shaharlari yondirib yuboriladi.

Alp Er To'nga qonli ko'z yoshlarini to'kdi va Turon uchun qasos olishga qasamyod etdi. U darg'azab holda Eronga hujum qilar ekan, ekinzorlarga o't qo'ydirdi, son-sanoqsiz kishilarni asir qilib oldi. Yetti yil hukm surgan qahatchilik oqibatida forslarning ko'pi qirilib ketdi.

Alp Er To'nga bilan Rustam o'rtasidagi ahyon-ahyonda urushlar bo'lib turardi, ularda goh turklar, goh forslar ustun kelardi. O'sha janglarning birida qo'shini bilan Alp Er To'ngaga yordamga kelgan Chin (Xitoy) xoqoni ham asirga tushdi. Alp Er To'nga keyingi jangda yengilgach, chekinishga qaror qildi. O'sha paytda Eron taxtini Turondan olib qochib ketilgan Kayxisrav egallagan edi. Turklarning mag'lubiyati Kayxisravga vaqtincha o'zini jahongirdek his etish imkonini berdi. Buning ustiga, u Eronning nomdor bahodirlaridan biri bo'lgan Bijamni Turonga yubordi. Bijam Turon chegarasidan o'tgach, o'rmonda nash'u namoga berilib, kayfu safo qilib o'tirgan bir guruh qizlarni ko'rib qoladi. Ular Alp Er To'nganining erka qizi Manijani ovuntirishardi. Bijan Manijani bir ko'rishda sevib qoladi va uni Turondagi o'z saroyiga olib keladi. Bu voqeadan xabardor bo'lgan Alp Er To'nga g'azablanadi, Bijanni zindonga tashlaydi, qizini esa uydan quvib yuboradi.

Eron podshosi o'z yurtiga qaytib kelmagan qo'mondonini topib kelishni Rustamning gardaniga yuklaydi. U shu asnoda savdogar sifatida Alp Er To'nga saroyiga keladi. Rustam hiyla-nayrang ishlatib, Bijanni xalos etadi va Manija bilan birgalikda Eronga qochirib yuborishga erishadi.

Rustam bu hiylasi bilan tag'in bir g'olib kelgan edi. G'amga botib, vaqtincha o'zini uzlatga tortgan Alp Er To'nga beklarni yig'ib, shunday deydi:

«Men dunyoga hukmronlik qiluvchi xoqoningiz edim. Shu paytgacha Eron Turonga bas kelmagan edi. Lekin endi forslar saroyimgacha kirib kelyapti. Ming karra ming kishidan iborat bo‘lgan turk va chin askarlari bilan Eronga yurish qilib, intiqom olmoqchiman!»

Alp Er To‘nga mo‘ljallagan ming karra ming nafar navkarning uchdan ikki qismini to‘plagan. U qarorgohi Boykent (hozirgi Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida xarobalari saqlanib qolgan shahar)dagi oltin va turfa zabarjadlar bilan muzayyan etilgan taxtida o‘tirar edi. Biroq u hiyla keksaygandi, jangga jo‘natgan qo‘sining yengilganidan voqif bo‘lgach, g‘am daryosiga cho‘mgan edi. Ayniqsa, yakkama-yakka bir savashda navnihol o‘g‘lining o‘limi uning qalbiga bedavo jarohat solgandi. Shuning uchun ham u xoqonlik ixtiyorida bo‘lgan barcha kuchlarni to‘plab, yana yurish boshladi. U na’ra tortgan arslonday hujumga o‘tardi. O‘ta qartayganiga qaramasdan, Eronning manman degan pahlavonlaridan bir nechasini yakkama-yakka kurashda yer tishlatardi. Nihoyat, Kayxisrav bilan yakkama-yakka savashish maqsadida otini olg‘a surdi. Ammo Turon bahodirlari uning Eron podshosi bilan jang qilishini xohlamasdilar, shu boisdan ular uning oti tizginidan ushlab, ortga qaytarishdi. Kayxisrav o‘zining eng kuchga to‘lgan payti bo‘lishiga qaramasdan, Alp Er To‘nga bilan jang qilishga botina olmadi, zotan keksaygan va yaralangan sherdek g‘azabga to‘lgan Alp Er To‘nga bilan jang qilishga ijozat berishmadi.

Bunday vaziyat Alp Er To‘ngaga juda og‘ir botdi. U qo‘sini bilan birga Jayhunning narigi sohiliga o‘tdi. Bu yerda u Qoraxonning qo‘sini bilan birlashib, Buxoroga, keyinchalik esa Boshkent – poytaxt Qangga kelishdi.

Qang jannatmakon shahar edi. Tuprog‘idan mushku anbar hidi taralar, g‘ishtlari bamisoli oltindek porlardi. Qal‘alari shu qadar baland ediki, ustidan burgut ham uchib

o‘tolmasdi. Uning har tomonida g‘aroyib buloqlar, suv bilan limmo-lim to‘la hovuzlar bor edi. Hovuzlar g‘oyat keng bo‘lib, bepoyon sardobani eslatardi. Ana shu rohatbaxsh maskanda istirohat qilarkan, Alp Er To‘nga Chin xoqoniga maktub bitdi, undan yordam olmoq istardi.

Kayxisrav va Rustam avvaliga o‘zlarini orqaga chekinayotgandek ko‘rsatishdi, so‘ngra esa Turon tuprog‘iga bostirib kirishdi. Ular Qang shahrini qurshab oldilar. Qal’aning atrofida xandaklar qazdilar. O‘tin yig‘ib, shaharga o‘t qo‘yishdi. Alp Er To‘nga ikki nafar bekni o‘zi bilan birga olib, xufiyona ravishda shahardan chiqib ketdi. Shu yo‘l bilan xalos bo‘ldi va yordam so‘rash uchun Chin xoqoni sari yo‘lga tushdi. Chin xoqoni katta qo‘shin tayyorlab qo‘ygandi. Bundan xabardor bo‘lgan barcha turk elatlari Alp Er To‘nganing huzuriga yetib kelmoq uchun yo‘lga ravona bo‘lishgan edi.

Alp Er To‘nga qaytadan o‘zini qo‘lga oldi, ammo Chin xoqoni o‘z so‘zida turmadi va Kayxisrav bilan til topishib, shartnoma imzoladi. Shu o‘rtada Alp Er To‘nga Kayxisravga maktub yozar ekan, odamlardan ovloq bir joyda, o‘zi xohlamagan yakkama-yakka kurashga taklif etdi. Shunisi borki, Kayxisrav o‘zining shunday kuch-quvvatga to‘lgan, jo‘shqin bir chog‘ida arslon Alp Er To‘nga bilan yakkama-yakka olishuvga jur‘at eta olmadi.

Qo‘shinidan judo bo‘lgan Alp Er To‘nga boshi gangigan holda Zara dengizi bo‘yiga keldi. Ushbu chuqur dengizdan suzib o‘tar ekan, Gangidizi shahriga yetdi. Kayxisrav o‘zining behisob qo‘shini bilan uni ta‘qib etmoqda edi. Alp Er To‘nga kimsasiz, yolg‘iz qolgandi. Na ichishga, na yejishga bir narsasi bor edi. U ulkan qoyali bir tog‘dag‘i g‘orda o‘tirib, shum qismatidan nolirdi. Tangri taolodan kuch-quvvat so‘rab, unga iltijo qilardi. Xum ismli kimsa iltijo etayotgan zotning Alp Er To‘nga ekanini payqagan edi, chunki u aytganchalik bu taxlit turkcha so‘zlarni,

bunday iltijoyu munojotni faqat Alp Er To‘ngagina ifoda qila olardi. Shuning uchun Xum unga hamla qildiyu asir oldi. Ammo Alp Er To‘nga uning qo‘lidan xalos bo‘lar ekan, o‘zini darhol suvga tashladi. Narigi qirg‘oqda turganlar esa o‘zlarini unga, dastavval, xaloskor deya ko‘rsatdilar. Alp Er To‘nga suvdan chiqqan zahotiyog uni halok etishdi. Ammo tarix Kayxisravning Alp Er To‘ngani shu zayl ziyoftaga taklif etib, uni hiyla bilan o‘ldirgani haqida guvohlik beradi.

Bu mash’um xabar ko‘p o‘tmay butun Turon mamlakatiga tarqalib, barchani chuqur qayg‘uga soldi. Barcha turklar qonli yosh to‘kib, faryod solib, yoqa yirtib, marsiyalar aytib Alp Er To‘ngani yo‘qlashdi. Dafn marosimi chog‘ida qo‘biz chalgan mug‘anniylar shu marsiyani kuylashgan... (turkchadan P.Usmon tarjimasi)

## ALP ER TO‘NGA MARSIYASI

*Alp Er To‘nga o‘ldimu,  
Esiz ajun qaldimu,  
O‘zlak o‘chin aldimu,  
Emdi yurak yirtihur,*

*Ulishib eran burlayu,  
Yirtin yaqa urlayu,  
Siqrib uni yurlayu,  
Sixtab ko‘zi urtulur.*

*O‘zlak yarag ‘kuzatti,  
O‘g‘ri tuzaq uzaitti,  
Beglar begin azitti,  
Qachsa qali qurtulur.*

*Alp Er To‘nga o‘ldimi,  
Yomon dunyo qoldimi,  
Zamon o‘chin oldimi,  
Endi yurak yirtilur.*

*Bo‘ri bo‘lib uldilar,  
Yirtib yoqa turdilar,  
Yig‘lab-sixtab yurdilar,  
Ko‘z yoshlari mo‘l bo‘ldi.*

*Dunyo fursat ko‘zladi,  
O‘g‘ri tuzoq sozladi.  
Beklar begin izladi,  
Qanday qochib qutular.*

*Ugruyuri mundag 'o 'q,  
Mundan azin tendag 'o 'q,  
Atsa ajun o 'g 'rab o 'q,  
Tag 'lar bashi kertilur.*

*Beglar atin arg 'urub,  
Qayg 'u ani turg 'urub,  
Mengzi yuzi sarg 'arib,  
Ko 'rkum angar turtulur.*

*Yag 'i utin uchurgan,  
To 'ydin ani kuchurgan,  
Ishlar uzub kechurgan,  
Tegdi o 'qi o 'ldirur.*

*Atsa o 'qin kez kerib,  
Kim tur ani yig 'dachi.  
Tag 'ig ' atip o 'g 'rasa,  
O 'zi quyi yirtulur.*

*Ko 'nglum ichun o 'rtadi,  
Yetmish yashig ' qartadi,  
Kechmish uzuk irtadi,  
Tun-kun kechib irtalur.*

*Tun-kun turub yig 'layu,  
Yashim mening savrulur.*

*Odatdan zo 'r narsa yo 'q,  
Boshqa bahona ham ko 'p.  
Otsa zamon poylab o 'q,  
Tog 'lar boshi yanchilur.*

*Beklar oti charchadi,  
G 'am beklarni yanchadi.  
Yuzga za 'far sanchadi,  
Chehralari sarg 'ayur.*

*Dushman o 'tin o 'chirgan,  
O 'z joyidan ko 'chirgan.  
Ko 'p ishlarni bajargan,  
Tegdi o 'limning o 'qi.*

*Otsa o 'qin zamona,  
Unga ne bas keladi.  
Tog 'ni olsa nishonga,  
Belidan yoriladi.*

*Ko 'nglimni chok-chok qildi,  
Bitgan yaramni tildi.  
Kechmish xotirga keldi.  
Tun-kun uni istarman.*

*Tun-kun turib yig 'layman,  
Ko 'z yoshlarim sovrilur.*

## MASSAGETLAR VA ULAR TO'G'RISIDA YARATILGAN AFSONALAR

Antik davr tarixchilarining kitoblarida skiflarning keyingi qavmlari hayotiga oid bir necha rivoyat va afsonalar saqlanib qolgan. Masalan, «Tomir» («To'maris») Gerodotning «Tarix», «Shiroq» («Sirak») Polienning «Harbiy hiylalar» kitobida, «Zarina va Striangey» esa

sitsiliyalik Diodorning «Kutubxona» asarida Kteziy kitobidagi bayon asosida saqlangan. Bu asarlarning matni hozirgacha mavjud darslik va qo'llanmalarda bir necha bor keltirilgan. Albatta, bu adabiy yodgorliklar hajm jihatidan katta eposlar qatorida turgan bo'lishi mumkin. Chunki voqealarning keskinligi, qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchliligi va ularning fojiali taqdiri shundan darak beradi. Lekin bundan qat'i nazar ana shu kichik mazmun turkiy adabiyotning antik davri borligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Tomir va Zarina haqidagi eposlar yunon hamda ossuriya tarixchilarining asarlarida keltirilgan skif hukmdori Madining taqdiri bilan mantiqan bog'lanadi. Bu ikki ayolning erlari shoh bo'lgan, erlari o'lganidan so'ng taxtga o'zлari o'tirishadi va midiyalik bosqinchilarga qarshi mardlarcha kurash olib borishadi. Tomir turkiylarning massaget, Zarina esa shak(sak) qabilalarining beva malikasi. Midiya shohlari beva malikalarning avval o'ziga, so'ngra mamlakatiga egalik qilishni orzu qiladi.

**Malikai Tomir haqida qissa.** Eron shohi Kir sharqdagi ko'pgina mamlakatlarni bosib olgach, massagetlar yurtini ham o'ziga bo'ysundirishni o'yladi. Massagetlar jasur qavmlardan hisoblanib, ular ko'p sonli edi. Sharqda, Arak daryosining orqasida, kun chiqar tomonda, issedonlarga yonma-yon yashar edilar. Ular skiflarga mansub qavm edi.

Arak Dunaydan katta daryodir. Ayrimlar uni kichik deb hisoblaydilar. Arakda hajm jihatidan Egiy dengizidagi orol – Lesbos bilan tenglashadigan bir necha orollar mavjud. Bu orollarda yashaydigan odamlar yoz oylarida yerdan turli xil tomirlarni kavlab olishadi va qaynatib ichishadi. Daraxtlardan pishgan mevalarni terishadi va ularni saqlab qo'yishadi. Bu yerda yana boshqa bir mevali daraxt ham bo'ladi. Umeyaning alohida navi hisoblanardi. Massagetlar bu joyga to'planishib, gulxan yoqishadi, atrofiga o'tirishadi,

bu mevalarni olovga tashlashadi. Gulxanda yonayotgan meva ajoyib hid taratadi va u odamlarni sarxush etadi, xuddi ellinlar musallas ichib, mast bo‘lganlariga o‘xshaydi. Massagetlar mevani gulxanga qanchalik ko‘p tashlashsa, kayflari shunchalik oshadi. Mast bo‘lishsa-da, o‘rinlaridan turib ketishmaydi, aksincha, raqsga tushadilar va qo‘sishqlar aytadilar. Bu massagetlarning o‘ziga xos turmush tarzidir.

Arak egri-bugri oqadigan daryo, qirq irmoqdan hosil bo‘ladi. Irmoqlarning bittasidan boshqa hammasi botqoqliklar tomon oqadi va singishib ketadi. Aytishlaricha, bu botqoqliklar atrofida baliqlarni xom yeydigan va tulenlarning terisini kiyim qilib kiyadigan odamlar yashashadi. (Ayrim qarashlarga qaraganda, massagetlarning nomi forsiy tildagi «Masya» – baliq so‘zidan olingan, shu sababli «baliq ovchilar», «baliqxo‘rlar» ma’nosini berishi mumkin). Faqat Arakning ochiq irmog‘i Kaspiy dengiziga quyiladi.

Kaspiy dengizi g‘arbdan Qofqaz cho‘qqilari bilan chegaralangan. Qofqazda turli xil qavmlar yashashadi. Ularning ko‘pchiligi yovvoyi daraxtlarning mevalarini yeishadi. Aytishlaricha, bu mamlakatda ajoyib bargli daraxt bor ekan. Bu bargdan rang tayyorlanadi. Rang suvgaga aralashtiriladi, so‘ngra kiyimlarga chizilib, naqshlar solinadi. Naqshlar yuvilmaydi, faqat jundan to‘qilgan mato bilan artiladi.

Shunday qilib, Kaspiy dengizini g‘arbdan Qofqaz tog‘lari, sharqdan, kunchiqar tomondan esa ko‘z ilg‘amas cheksiz tekisliklar chegaralab turadi. Bu kengliklarning katta qismida Kir bosib olishni orzu etgan massagetlar yashaydilar. Kirni harbiy yurishga majbur etadigan bir necha sabablar bor edi. Eng avvalo, uning tug‘ma xususiyati, o‘zini barcha odamlardan ustun chog‘lashi bo‘lsa, so‘ngra omadi, barcha janglarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgani edi. Kir hujum qilgan hech bir qavm uning yovuz changalidan qochib qutula olmagan edi.

Massagetlar malikasi marhum shohning xotini edi. Uni Tomir (Gerodot «Tarix»ida bu nom Tomir (is) shaklida berilgan. «Is»qadimgi yunon tilida ism va narsa nomlaridan keyin qo'shiladigan grammatik xususiyatdir. Shu sababli bu nomni Tomir shaklida ishlatdik va massagetlar haqidagi rivoyatning boshlanishidanoq bu qavm har xil o'simliklar tomiri-ildizi bilan oziqlanishi hikoya qilinadi. Massagetlar malikasi ismi ham ushbu hayotiy ne'mat bilan bog'langan bo'lishi mumkin – A.A.) deb atashardi. Kir uni xotinlikka olish taklifi bilan elchilar yubordi. Lekin Tomir Kirning uylanishdan maqsadi massagetlar yurtiga ham hukmronlik qilish ekanligini tushundi, shu sababli unga rad javobini berdi. Kir o'z maqsadiga hiyla yo'li bilan erisha olmagach, massagetlar mamlakatiga ochiqchasiga hujum qilishga kirishdi. Arak daryosidan suzib o'tish uchun pontom (suzib yuradigan) yog'och-ko'priklar qurishga buyruq berdi. Kirning qo'shnlari ko'priq qurayotganligini sezgan Tomir Eron shohiga elchi orqali quyidagi mazmundagi xatni jo'natdi.

– Ey, Eron shohi! G'arazli maqsadingdan voz kech. Bu ko'priklarni qurish senga yaxshilik keltiradimi, yoki yo'qmi, sen buni hali oldindan bilmaysan. Shu sababli bu ishingni to'xtat-da, o'z mamlakatingga shohlik qilaver, biz ham mamlakatimizni o'zimiz idora etishimizga hasading kelmasin. Albatta, sen bu maslahatga amal qilishni xohlamaysan. Sen tinchlikni saqlash emas, balki qanday bo'lmasin, urushni afzal ko'rasan. Agar sen massagetlarga hujum qilishni zo'r havas bilan xohlayotgan bo'lsang, u holda ko'priq qurish ishlarini to'xtat. Qo'shiningni xotirjamlik va bexavotirlik bilan bizning mamlakatimizga olib o't, biz daryodan mamlakat ichkarisiga uch kunlik yo'l yurib, chekinamiz. Agar sen bizni o'z yeringga kiritishni istasang, bu haqda ham xabar qilki, bunga ham rozimiz.

Shundan so'ng Kir Eron amaldorlarini huzuriga kengashish uchun chaqirdi. Voqeani tushuntirdi va bu

haqda ularning fikrini so‘radi. Kengashga qatnashganlar bir ovozdan Tomir o‘z qo‘smini bilan aytgan yeriga chekinishini ma’qulladilar. Lekin kengashda qatnashayotgan lidiy qavmiga mansub Krez ularning fikrini inkor etdi.

– Shoh! Men ancha yillar (Zebs sening qo‘lingni menga tutqazgan)dan beri sening xonadoningga yog‘iladigan ko‘plab falokat va yovuzliklardan xabar berib kelmoqdaman. Mening maslahatlarim og‘ir musibatlarni ham daf etishga xizmat qildi. Agar sen o‘zingni boqiy yashayman, qo‘shinga abadiy boshliq bo‘laman deb o‘ylasang, u holda mening fikrim sen uchun foydasizdir. Agar sen o‘zingni faqir inson, faqat o‘limga tik boqadigan odamlar ustidan hukmron shoh ekanligingni tan olsang, u holda, eng avvalo, shuni yodingda tut: inson faoliyati hamisha o‘zgarib turadi, inson doimo baxtli bo‘lishi uchun yo‘l yo‘qdir. Hozirgi masala yuzasidan men amaldorlaringning maslahatiga qarshiman, boshqacha fikrdaman. Agar dushman o‘z yerimizga o‘tishiga yo‘l qo‘ysang, unda dahshatli xavf tug‘iladi: mag‘lubiyatga uchrasang, o‘z mamlakatingni ham nobud qilasan. Chunki massagetlar sening ustingdan g‘alaba qozonishsa, albatta, mamlakatlari tomon chopmaydilar, aksincha, sening taxtingni egallash uchun bostirib boradilar. Agar g‘alaba sen tomonda bo‘lganida ham, o‘ylaymanki, bu unchalik sharafli ish emas. Agar massagetlarni o‘z tuprog‘ida yengsang, ularni dadil ta‘qib qila boshlaysan. Sening va ularning ustunlik tomonlarini taqqoslashga ruxsat ber. Dushmanni parchalasang, hech to‘siksiz Tomirning taxti tomon bostirib borasan. Agar massagetlar o‘z mamlakatingga kirishlari uchun ruxsat bersang-u mag‘lub bo‘lsang, ayol kishiga bo‘ysunish Kir va uning o‘g‘li Kambis uchun uyat va chidab bo‘lmas haqorat hisoblanadi. Menimcha, daryodan o‘tish va mamlakat ichkarisiga kirish, dushman qancha joyga chekinsa, uni shu yerda tor-mor etish kerak. Anglashimcha,

massagetlar forslarning hashamatli turmush tarzidan mutlaq bexabar, ularning noz-ne'matlari beradigan rohat-farog'atni bilishmaydi. Shu sababli qarorgohingda massagetlar sharafiga dabdabali ziyofat uyuştiraylik. Ko'plab qo'ylarni so'yaylik, katta idishlarda sharoblarni va har xil taomlarni mo'l-ko'l qo'yaylik. Bu ishlarning hammasini tayyorlab bo'lganidan so'ng qo'shiningning yaroqsiz qismini qarorgohda qoldirib, o'zimiz yana ko'prik tomon qaytaylik. Agar adashmasam, dushmanlar mo'l-ko'l taomlarni ko'rib, unga tashlanadilar va bizga ulug' g'alabani yakunlash uchun imkoniyat tug'iladi.

Maslahatchilar kengashi tarqaldi. Kir birinchi fikridan qaytdi va Krezning maslahatini qabul qildi. U Tomirdan chekinishni so'radi. Malika qo'shini bilan o'zi va'da qilgan joyga chekindi. Kir o'g'li Kambisni o'ziga merosxo'r deb tayinladi va uni Krezga ishonib topshirdi. Agar massagetlar mamlakatida mag'lubiyatga uchrasa, o'g'li Krezning maslahati va homiyligida davlatni boshqarishini uqtirdi. Kir shunday topshiriqlar bilan Kambis va Krezni Eronga jo'natdi, o'zi esa qo'shini bilan massagetlar mamlakati tomon yurdi.

Kir Arak daryosidan massagetlar yurtiga o'tgan kechasi qo'rqinchli tush ko'rdi. Tushida Gistaspning katta o'g'lining yelkasida ikki qanoti bor emish. Qanotlaridan biri Osiyoga, ikkinchisi Yevropaga soya solib turganmish. Gistasp axmoniyalar sulolasidan bo'lgan Arsamning o'g'li edi. Gistaspning katta o'g'li Doro edi. Kir massagetlar yurtiga qo'shin tortgan vaqtida Doro 20 yoshda edi. Harbiy xizmatga yoshi yetmaganligi uchun Eronda qoldirilgan edi.

Kir uyqudan turar ekan, ko'rgan tushining ma'nosini chaqa boshladidi, chunki shoh bu tushni katta ahamiyatga molik deb hisobladi, u tezda yoniga Gistaspni chaqirdi va xilvatda unga shunday dedi:

- Gistasp sening o'g'ling Doro menga va davlatimga qarshi fitna uyuştirmoqda. Bu fitna rostligini aniq bilib

turibman. Chunki Tangri menga dahshatli ko'rguliklarni oldindan ma'lum qiladi. Kechasi men o'g'ling Doroni tush ko'rdir. Uning yelkasida ikki qanoti bor emish. Ulardan biri Osiyoga, ikkinchisi Yevropaga soya tashlab turibdi. Ko'rgan tushimdan shu narsa mutlaq rostligiga ishonamanki, o'g'ling mening hayotimga suiqasd uyushtirmoqchi. Shu sababli Eronga tezda jo'na va o'g'lingni mening huzurimga qilgan jinoyatlari uchun javob berishga olib kel. Shundan so'nggina men bu mamlakatni zabit etaman va o'z yurtimga g'alaba bilan qaytaman.

Kir Doro unga nisbatan yovuz niyatini amalgalashirayapti, deb o'ylagan edi. Ammo u Tangri bu tush bilan boshqacha xohish bildirganligini anglamadi. Tushning ta'biri Kir massagetlar yurtida o'lishi, uning taxti Doro qo'liga o'tishi bilan izohlanardi.

Gistasp Kirga shunday javob berdi:

– Ey, shoh! Sening hayotingga suiqasd uyushtiradiganlar hali forslar o'rtasida tug'ilmagan. Agar shundaylar bo'lsa, aminmanki, ular tez orada halok bo'ladilar. Axir, sen forslarni qullikdan ozod etding. Hukmronligingdagi barcha xalqlarning soliqlarini bekor qilding. Agar mening o'g'lim senga qarshi tushingda isyon ko'tarayotganligi ayon bo'lган ekan, men uni sening qo'lingga topshiraman, qanday jazoga tortish sening ixtiyoringga.

Shundan so'ng Gistasp o'g'lini tutish uchun Arakdan o'tib, Eronga qaytdi.

Eron shohi Kir Krezning maslahatini bajarishga kirishdi. Kuchsiz jangchilarini qarorgohida qoldirib, o'zi esa qo'shining sara qismi bilan orqaga chekindi. Massagetlarning qo'shini Kir qoldirgan askarlari bilan jangga kirishdi va ularni mag'lubiyatga uchratdi. Massagetlar g'alabadan keyin forslarning qarorgohini egallar ekan, bu yerdagi noz-ne'matlarni ko'rib, aysh-ishrat qilishga kirishdilar. Jangchilar sharoblardan to'yanicha

ichishib, mast bo'lishib, uyquga ketishdi. Voqeа shunday tugashini kutib turgan fors jangchilarining asosiy qismi yetib keldi, massagetlarning katta qismini o'ldirdi va asirga oldi. Asirga олингандар орасида malika Tomirning o'g'li, massagetlar lashkarboshisi Spargap ham bor edi.

Malika Tomirga o'z qo'shini va o'g'lining taqdiri haqidagi xabar yetib keldi. Malika Kirga elchi yuborib, o'z munosabatini bildirdi:

– Qonxo'r Kir! Sen bu jasorating bilan faxrlanma. Uzumning suvi sening aqlingni ham yo'qotadi. Sharob ichganingda sen ham yaramas gaplarni aytib, sayray boshlaysan. Demakki, sen mening o'g'limni odil jangda qurol kuchi bilan emas, zahar makri bilan yengding. Endi mening yaxshi maslahatimni eshit: o'g'limni qaytarib berda, xushu xushvaqt mening yurtimdan chiqib ket. Ketmasang, massagetlarning jasur askarlari seni sharmandalarcha halok qiladi. Agar sen bunga ko'nmasang, massagetlar Tangrisi Quyosh nomi bilan qasam ichamanki, men sen mechkayni qonga to'ydiraman.

Kir Tomirning elchi orqali bildirgan so'zlariga hech bir ahamiyat bermadi. Malikaning o'g'li Spargap esa kayfi tarqalgach, musibatli ahvolni tushundi. Kirdan kishanni echishni so'radi. Faqat shahzodani ozod qildilar, lekin Spargap oriyati kuchlilik qilib, o'zini-o'zi o'ldirdi.

Tomir Eron shohi uning maslahatini e'tiborga olmaganini eshitib, hamma qo'shinini to'pladi va Kirga qarshi hujum boshladidi. Bu jang vahsiy odamlar o'rtasida bo'ladigan urushlarning ham eng dahshatlisi edi.

Dastlab ular bir-birlariga kamondan o'q uzdilar. O'qlar tugagach, xanjar va nayza bilan tashlanishdi. Jang uzoq davom etdi, muxoliflarning hech biri chekinishni xohlamas edi. Nihoyat, massagetlar g'alaba qozonishdi. Barcha forsiy askarlar jang maydonida jon berdi. Kir ham halok bo'ldi. Uning shohligi 29 yil davom etdi. Tomir sharob solinadigan

meshni odam qoni bilan to‘ldirdi va so‘ngra forsiylarning uyulib yotgan jasadlari orasidan Kirning jonsiz tanasini izlab topdi. Malika uning boshini meshga soldi, so‘ngra marhumning ustidan masxaraomuz tarzda hukm qildi:

— Men seni jangda adolat bilan yengib, sog‘-omon qolgan bo‘lsam-da, baribir sen meni halok qilding, g‘am-g‘ussaga botirding, chunki sen mening o‘g‘limni hiyla bilan asir olding. Shu sababli men endi seni qonga botiraman.

Kirning o‘limi to‘g‘risida ko‘plab rivoyatlar mavjud, deb yozadi Gerodot. Lekin hammasidan ham ko‘proq ishonchlisi ushbu rivoyatdir.

## QADIMGI TURKIY QAHRAMONLIK AFSONA VA RIVOYATLARI

«Zarina va Striangey» eposida ham shak(sak) qabilalarining Midiya bosqinchilariga qarshi kurashi aks etgan. Zarina eri ham o‘lib, qabilani boshqarayotgan malika. Bu epos mazmuni dastlab Ktsey (430-354) kitobida bayon etilgan. So‘ngra uning parchalari sitsiyalik tarixchi Diodor (miloddan avvalgi birinchi asr)ning «Kutubxona» asarida keltiriladi. Ikki antik tarixchining kitoblarida ham «Zarina va Striangey» qissasining tugal mazmuni ifodalangan emas. Sharqshunos I.V Pyankov ushbu tarixiy manbalar asosida bu eposning ikki qisqa shaklini tiklaydi.

*Malika Zarina. Saklar mamlakatiga malika Zarinaning akasi Kidrey shohlik qildi. Kidrey olamdan o‘tdi. Bu paytda Zarinaning eri ham o‘ldi. Shundan so‘ng Zarina parilar sulolasidan bo‘lgan Marmareyga turmushga chiqdi. Zarina jangda toblangan ayollardan sanalardi. Eron shohi saklarga qarshi urush boshladi. Zarina ham urushga otlandi. Jangda shahzoda Striangey bilan kurashib, uning ta‘qibiga uchradi, asirga tushdi va undan rahm-shafqat qilishni so‘radi. Striangey*

*uni ozod etdi. Jangda Zarinaning eri Marmarey ham asirga tushdi. Striangey uni o'limga buyurdi. Zarina undan erini o'ldirmaslikni o'tinib so'radi. Afsuski, u bunga rozi bo'ljadi. Bir necha asirlarni ozod etdi, ammo Marmarey qatl ettirdi.*

*Saklarda ayollar ham xuddi amazonkalardek jang qilishar edi. Striangey jangda go'zal, balog 'at yoshidagi sak ayolini ko'rар ekan, uni sevib qoladi. Otdan tushib, Zarinaning yoniga keladi va unga muhabbatini izhor etadi. Lekin rad javobini oladi. Bunga chiday olmagan Striangey o'zini o'ldirish uchun ochlik e'lon qiladi. Striangey o'limi oldidan Zarinaga achchiq iztiroblari bitilgan quyidagi mazmunli xatni bitadi: «Jangda men seni qutqazgan edim. Mening sharofatim bilan o'limdan ozod bo'lding, men esa sen uchun o'zimni o'ldirmoqdaman».*

**Zarina qissasi.** Arteyning o'limidan so'ng midiyaliklarga yigirma yil Artin, qirq yil Astibar podsholik qildi. Shu sababli Parsiya ularning tasarrufidan chetda qoldi va uning viloyat hamda shaharlari saklar qo'lida edi. Shu voqeа sabab bo'ldiyu saklar va midiyaliklar o'rtasida ixtilos chiqdi, bir necha yil urush bo'ldi. Nihoyat, ancha talosatlardan so'ng tomonlar quyidagi mazmundagi sulhni tuzishdi: Parsiya midiyaliklar tasarrufiga o'tadi, lekin qaysi hokim qaysi hududga hukmronlik qilgan bo'lsa, shu hududda faoliyatini davom ettiradi. Harbiy aloqalar va birodarlik abadiy davom etadi.

*Sak mamlakatiga bu paytda Zarina ismli ayol hukmronlik qilar edi. U sak ayollari o'rtasida harbiy jangovarlikni bilishi va jasurlikda tanqli edi. Xalq Zarinaning erkaklar bilan matonatli kurashishini ta'riflash bilan birga, uning go'zalligini ham maqtashar edi. Zarina sak xalqlarini qul qilib, o'zlarining harakatlari bilan gerdayadigan bosqinchilarni mamlakatdan quvib chiqardi. Yurtni obod qildi, yerlarni ekinzorga aylantirdi, shaharlar qurdi, umuman, xalqiga baxtli turmushni yaratdi. Shu sababli sak xalqi Zarinaning vafotidan so'ng uning hurmatini joyiga qo'yishdi. Nomini abadiylashtirish uchun boshqalarnikidan farq qiladigan maqbara qurdilar.*

*Maqbara uchburchakli piramida shaklida qad ko 'tardi. Uning har bir tomoni uch stadiy, balandligi esa bir stadiy edi. Maqbara juda o 'tkir burchaklardan iborat edi. Uning tepasiga oltindan hashamatli haykalcha o 'rnatildi. Oltin haykal Zarinaning qahramonligini ulug 'lovchi, uning o 'z ajdodlariga ko 'rsatgan yaxshiliklarini ifodalovchi ramziy belgi edi.*

«Zarina va Striangey» qissasidagi syujetlar N.Mallayevning «O'zbek adabiyoti tarixi» kitobida ham berilgan. Akademik A.Qayumov esa Zarina qahramonligi bilan bog'liq boshqa bir rivoyatni ham keltiradi.

*Striangey va Zarina qissasi. Bu saklar shohi Marmarey o 'ldirilganidan so 'ng yuz bergen voqeadir. Striangey Zarinani allaqachondan beri sevib kelar edi. Kunlardan bir kuni Striangey Rok Sanaki shahri yaqinida, saklar saroyi joylashgan yerdan o 'tayotganida Zarina uni quvonch bilan kutib oladi va hammaning ko 'zi oldida qo 'lidan olib, bиргаликда shoh saroyiga boradi. Zarina ular ketidan kelayotgan qo 'shinni ham yaxshi kutib oladi. Shundan so 'ng sevgi iztirobidagi Striangey o 'ziga ajratilgan xonaga boradi. O'zini qiyayotgan his-tuyg 'ularni yashira olmay gapni xizmatchilaridan biriga aytadi. Xizmatchi unga tortinchoqlikni tashlab, hamma gapni Zarinaga aytishni maslahat beradi.*

*Striangey turib Zarinaning oldiga boradi. Zarina uni xursandchilik bilan kutib oladi. Striangey uzoq jumlidan so 'ng hayajonlanib, o 'z sevgisini izhor etadi. Zarina esa yumshoqlik bilan uning taklifini rad qiladi va bu sevgi ularning har ikkisi uchun ham uyat ekanligini, chunki Striangeyning Astiblarning qizi go 'zallikda tanho Reteya degan xotini borligini bilajagini aytadi.*

– *Striangey, faqat dushmanlarga qarshi kurashdagina emas, mana shunday holatlarda ham mardlik qila bilish kerak. Qisqa, o 'tkinchi bir hissiyot uchun Reteya oldida bir umr azob chekish kerak emas. Shuning uchun men bu taklifingni qabul*

*qila olmayman, mendan boshqa xohlagan narsani so'ra, - deydi Zarina.*

*Shundan so'ng yigit jim qoladi, so'ng qiz bilan xayrlashib ketadi, borib voqeani xizmatchisiga aytadi. Keyin xat yozib, u o'lgach xatni hech narsa demasdan Zarinaga topshirishni so'raydi. Xatda quyidagilar yozilgan edi:*

*«Striangey Zarinaga mana nimalarни aytmoqchi: men seni qutqarib, hozir kechirayotgan baxtli hayotga erishtirdim. Sen bo'lsa meni halok etding va hammadan keraksiz odamga aylantirding. Agar sen odilona ish qilgan bo'lsang, u holda yana ham baxtli va omadli bo'l. Agar aksincha,adolatsiz ish tutgan bo'lsang, u holda mendek iztiroblarni kechir, chunki sen meni shu ahvolga solding».*

*Striangey xatni yozib bo'lib, uni yostig'i ostida qo'yadi, ichkariga keta turib, xizmatkoridan qilich so'raydi.*

Eron shohlariga qarshi kurashlarda malikalarning jasorati turkiylarning eng qadimdan bizning davrimizgacha bo'lgan xalq og'zaki ijodida yetakchi mavzulardan hisoblangan. XX asr o'zbek xalq og'zaki ijodining mashhur baxshisi Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Oysuluv» dostoni bunga misol bo'la oladi. Bu doston turkiy xalqlarning qadimgi adabiyotida mavjud qahramonlik syujetlari asrlar davomida kuylanib kelinganidan dalolat beradi. «Oysuluv»ning syujeti «Tomir» qissasi, shuningdek, «Alpomish» dostonidagi ayrim tasvirlarni umumlashtiradi.

**«Oysuluv» dostonining bayoni.** Eron shohi Doro Turon mamlakatiga bostirib keldi. Bu paytda Turonga Oysuluv ismli alp xotin shohlik qilardi. Uning alp o'g'li bo'lib, uni Kunbotir atashar edi. Doroning lashkariga pahlavon Qaysar boshchilik qilar, uning Oftobpari degan qizi bor edi.

Pahlavon Qaysar Turondan haydab kelingan odamlardan Oysuluvning tarifini eshitib, unga oshiq bo'ldi. Kunbotir ham Erondagi ko'plab polvonlarni yiqitib, o'ljalarni olib keldi. Bu gap Doroga yetdi. Doro pahlavon

Qaysarni chaqirib, Kunbotir Eronga kelib ketganiga qaramaganlikda aybladi va o'zi Turonga qo'shin tortib, Oysuluvni o'ldirib, Kunbotirni asir qilayin dedi. Doro «Oysuluvni o'ldiraman» deganini eshitib, Qaysar qo'rqib ketdi, Oysuluvni o'ldirsa, nima bo'ladi deb o'yladi. Doroga, Turon zaminga o'zim boraman, Oysuluv bilan Kunbotirning boshiga og'ir kunlar solaman, dedi.

Qaysar Turonga jo'nashidan oldin ayyor maston bilan maslahat o'tkazdi. Mastonlarning shaytoni Ko'sa edi, u Kunbotirni asirga tushirishning hiylasini o'rgatdi. Ko'sa Doro Eram bog'idan keltirgan qirq pari, qirqta maston, qirqta ayyor, to'rt yuz merganni olib, Asqar tog'inining g'orida ko'hna sharoblarni, noz-ne'matlarni, taomlarni g'amlab, Kunbotirni poylab yotadigan bo'ldi. Qirq kundan so'ng Qaysar uning orqasidan boradigan bo'ldi.

Kunbotir ham lashkari bilan Tajan (Afg'oniston, Eron, Turkmaniston hududida oqadi) daryosidan o'tib, Asqar tog'iga yetdi. Ovga chiqib, bir takani otdi. Taka oqsaganicha tog'ning Eron tomoniga o'tdi. Kunbotir ovning orqasidan quvar ekan, yo'lda ayyor Ko'sa unga peshvoz chiqdi. O'zini Doro va Qaysardan jabr chekkan kishi deb ko'rsatdi. Kunbotir o'zini Oysuluvning o'g'li deb tanishtirdi va onasi Dorodan jabr ko'rganlarga mehr ko'rsatishini aytdi. Ko'sa Kunbotir va uning yigitlarini g'orga mehmondorchilikka taklif etdi. Shundan so'ng Ko'sa Kunbotirni Eronga jo'natajigan, o'zları esa Oysuluv huzuriga boshpana so'rab boradigan bo'ldi.

Ayyor Ko'sa Kunbotir bilan qirq yigitini mehmon qildi. Qizlar may to'la kosalar uzatdi. Ular mast bo'lishdi. Ayyor ko'sa Kunbotirning tulporini minib, lashkar tortib kelayotgan Qaysarga peshvoz chiqdi. Ular Kunbotir va uning qirq yigitini bandi qilishdi.

Tog'da qolgan lashkarlar Kunbotir va qirq yigitni «ovga boramiz», deb daraksiz ketganligidan xavotir oldilar va

ularni izlab toqqa chiqdilar. Tog'da mo'ri-malaxday bostirib kelayotgan lashkarni ko'rib, kayflari uchdi. Kunbotir va yigitlari bandi bo'lgamni sezishdi. Qaysar va Kunbotir lashkarlari o'rtasida jang bo'ldi. Kunbotirning qo'shini yengildi. Qaysar Kunbotir va uning qirq yigitini, boshqa bandi askarlarni haydab, Eronga keldi. Doro Kunbotirni zindonga soldi. Qirq yigitini dorga osdi, so'ngra pahlavon Qaysarga Turonga borib, Oysuluvni o'ldirib, mamlakatini Eronga tobe qilib kelishni buyurdi.

Oysuluv Qaysardan qochib, Turonga sog'-omon kelgan odamlardan Kunbotir asir bo'lganini eshitdi. Oysuluv Doroga qarshi qo'shin to'playotgan edi. Eron elchisi xat keltirdi. Xatda Turon Eronga tobe bo'lishi talab qilingan edi. Agar Oysuluv bunga rozi bo'lmasa, zindondagi o'g'lini o'ldirish, Oysuluvni bandi qilishi ham aytilgandi. Nomaning bir chetiga Qaysar Oysuluv menga tegsa, zindondan o'g'lini chiqaraman, ham o'zi, ham o'g'li o'limdan omon qoladi. deb bitilgan edi.

Xatni o'qib, Oysuluvning qahri keldi, elchilarga mamlakatimni Eronga bermayman, Doro bilan Qaysarni o'ldirib, Kunbotirning o'chini olaman, deb javob berdi.

Bu paytda Oysuluvning o'g'li Kunbotir Doroga bandi bo'lGANI va zindonga tushgani Qaysarning qizi Ostoboyning qulog'iga yetdi. Ostoboy unga g'oyibona oshiq bo'ldi. Zindon qorovuliga tanga berib, uning visoliga yetdi. Ostoboy Doro va otasi Qaysar Oysuluvga elchi yuborgani va ular qaytib kelganligi haqidagi xabarni aytdi. Qaysar yana qo'shin to'plab, Turonga jo'nadi. Bu haqda Ostoboy yana Kunbotirga xabar berdi. Kunbotir Ostoboya bir tutatqi berdi. Uni oti saqlanayotgan joyda tutatishni aytdi. Ot jonivor Kunbotirni zindondan ozod qildi. Kunbotir Ostoboy bilan va'dani bir qildi va Dorodan o'ch olish uchun jangga jo'nab ketdi.

Asqar tog' etagida Eron va Turon lashkarlari to'qnashdilar. Oysuluv erkak libosida jang qildi. O'z

merganchi bilan Qaysarning devlariyu lak-lak lashkarlari bilan urushdi. Kunbotir ham tulporni qistab jangga yetib keldi. Oysuluv qarasa, Eron podsholarining kiyimini kiygan, bir alp yigit Qaysarning qo'shiniga bo'riday tashlanib, hujum qilmoqda. Oysuluv urushda Qaysarni yengdi, bir qilich soldi, boshi otdan dumalab ketdi. Jangda Turon lashkarlari g'olib keldi. Kunbotir onasiga o'zini tanitdi. Ona va o'g'il lashkarga bosh bo'lib, Eronga yurish qildi. Ular Doroning shahriga kirib bordilar. Doro saroydan chiqib qochdi. Kunbotir uning izidan quvib, Doroning kallasini oldi.

Oftoboy go'zal qizlari bilan Oysuluv va Kunbotirni kutib oldi. Oysuluv Oftoboyni o'g'li Kunbotirga nikoh qilib berdi.

«Oysuluv» dostonida qadimiylar qatlama asos bo'lgani holda, yangi syujetlar ham kiritilgan. Qadimiylar Eron shohi Doro, turkiy malika Oysuluv va uning o'g'li munosabatlarida ko'rindi. Dostonda «Alpomish» eposiga xos tasvirlar (Kunbotirning hiyla – mast holda qo'lga olinishi) ham mavjud. Turkiy malikalarning qahramonligi, jasorati, shuningdek, sevgida sadoqati «Malika Sparetra», «Zariadr va Odatida» qissalarida ham badiiy ifodasini topgan.

**Malika Sparetra.** Saklar mamlakatiga Amorg hukmronlik qilardi. Eron podshosi Kir ularning yurtiga bostirib kirdi. Jangda saklarni mag'lub etib, ular shohi Amorgni asir oldi. Bu sovuq xabar Amorgning xotini malika Sparetraga yetib bordi. Malika g'azablandi va Kirga qarshi kurashish uchun qo'shin to'pladi. Saklarning ayollari ham jangovarlikda erkaklardan qolishmas edi. Jangda saklar tomonidan uch yuz ming erkak va ikki yuz ming ayol qatnashdi. Sparetra to'plagan qo'shin Kir ustidan g'alaba qozondi. U o'z navbatida Sparetra ham Kirning yaqin kishilari, jumladan, Parmis va uning uch o'g'lini asirlikka oldi. So'ngra asirlar ayira boshlandi. Amorg saklarga qaytarib berildi.

Yuqorida keltirilgan rivoyatlarda o‘zlarining xoqon erlari sevgisiga sodiq qolgan malikalarning obrazi yaratilgan. Mamlakat shohi bo‘lgan erlari o‘lib, ularning o‘rniga taxtga o‘tirgan turk malikalari tarixiy yoki afsonaviy shaxs bo‘lishi mumkin. Lekin Midiya shohlari bilan kurashgan turk malikalarining hayoti jahon adabiyotidagi katta asarlarga mavzu bo‘lganligi g‘oyat faxrlidir. Xususan, To‘maris va Kir o‘rtasidagi ziddiyatlar Alneri Dantening jahon adabiyotining durdonasiga aylangan «Ilohiy komediya», U.Shekspirning Genrix VI ga bag‘ishlangan hujatli asari, fransuz dramaturgi F.Kino (1635-1688)ning «Kirning vafoti» fojiasida tasvirlangan.

Qadimgi sevgi qissalari orasida Odatidaning sof muhabbati va unga erishishi yo‘lidagi tadbirkorligi ulug‘langan asarlar ahamiyatlidir.

**Zariadr va Odatida.** Midiya shohi Gishtaspning kichik ukasi Zarriadr Kaspiy dengizidan Tana (Don)gacha bo‘lgan o‘lkada hukmronlik qilardi. Tananing narigi qirg‘og‘ida esa Omarg podshohlik qilar edi. Bu shohning Odatida ismli go‘zal bir qizi bor edi.

Odatida bir kun tushida Zariadrni ko‘rib, sevib qoladi va doim shu sevgi iztirobida qiynaladi. Zariadr Omargga qizini so‘ratib, sovchilar yuboradi. Lekin Omarg boshqa farzandi bo‘lmagani tufayli qizi Odatidani begona yurtga uzatishni xohlamaydi va uni o‘z yaqinlaridan biriga bermoqchi bo‘ladi. Bir kuni Omarg qizini kimga berishini sir tutgan holda, o‘z saroyida to‘y bazmi uyshtiradi. Bazm avjiga chiqqanida, qizini chaqirib, unga «Qizim, biz sening to‘yingni qilayapmiz, shu yerda o‘tirganlardan qaysi birini yoqtirsang, o‘shanga oltin qadahda may tutgin. Seni o‘shanga beramiz» deydi. Odatida atrofiga qarab, yig‘ilganlar orasidan sevgani Zariadrni axtaradi, uni ko‘rmagach, yig‘laydi, chunki qiz yigitga xabar yuborib, uni ogohlantirib qo‘ygan edi. Zariadr bu vaqt bir kemachini yollab, uning yordamida daryodan o‘tadi va skif kiyimida bazm bo‘layotgan yerga boradi. U

ko‘zлari yoshga to‘la, qo‘lida qadah tutib turgan Odatidani ko‘radi-da, unga yaqinlashib:

– Odatida, men Zariadrman, mana men yoningdaman, – deydi. Qiz qo‘lidagi qadahini yigitga tutadi. Zariadr Odatidani yetaklab, yashirinchа kemachi turgan yerga olib keladi va ular birgalashib, Zariadr yurtiga ketadilar. Omarg qizining g‘oyib bo‘lganidan ogoh bo‘lgach, xizmatkorlarini bir-bir so‘roq qiladi. Qiz sevgisidan xabardor xizmatchilar: «Biz hech narsa bilmaymiz» deb javob qiladilar.

Skif shohi Madi taqdiri bilan bog‘langan tarixiy voqeada midiyalik shohlar o‘z raqiblarini yengishining hiyla yo‘li qo‘shin boshlig‘ini aldab, ziyofatga taklif etish, dori qo‘shilgan sharoblar ichirib, behushlantirib qo‘lga tushirish hodisalari bu davrda yaratilgan rivoyat va qissalarda keng tasvirlandi. Shiroq esa midiyaliklarni boshqacha yo‘l, ya’ni midiyyacha usul bilan emas, balki qahramonlik tuyg‘usi bilan mag‘lub etadi. Saklar qo‘llagan hiyla chinakamiga jasorat, bir jonni qurban qilib, butun el va mamlakatni asrab qolish xususiyatiga egadir. Shiroq quloq-burnini kesib, taniga jarohat yetkazib, o‘zini saklardan jabr ko‘rgan kishiday ko‘rsatib va Midiya shohi Doroni butun boshliq qo‘shini bilan mag‘lub etishi qahramonlikka xos hiyladir. Uning bu jasoratida turkiylarning xoqon va qo‘shin boshliqlarini halok etgan bosqinchilardan o‘ch olish ruhi seziladi.

Asar qahramonining nomi, ehtimol, Sak cho‘poni katta bir qo‘shinni talofatga yetkazgandan so‘ng, fors askarlari tomonidan berilgan bo‘lishi kerak. Chunki sherak - sher bola, dovyurak, qo‘rqmas ma’nosini beradi. Hozirgacha barcha adabiy tarixiy manbalardagi «Shiroq», «Sirak» afsonalari hamda ulardagi shunday nomli qahramonni Sherak deb atash maqsadga muvofiqidir.

**Sherak qissasi.** Doro qo‘shini bilan saklar o‘rtasida urush borar edi. Sak podachilaridan Sherak o‘z podsholaridan Saksfar, Omarg va Tomirlar huzuriga keladi. U Eron

qo'shinini hiyla bilan halok etajagini aytadi, ammo podshohlar Sherakning oilasiga, bolalariga, avlodiga g'amxo'rlik qilishlari shart edi. Ularga qasam ichdirib, shu va'dani olgachi, Sherak o'sha yerdoyoq o'zining quloq-burnini kesadi, boshqa a'zolariga ham jarohat yetkazadi, so'ngra saklardan Eron qo'shini tomon qochib o'tgan kishi sifatida forsiylar turgan joyga keladi.

Sherak Doroga arz qilib, o'zini saklardan alam ko'rgan kishi qilib ko'rsatadi. U Eron qo'shinini saklarning eng chekka yerlariga olib borajagini, u yerda turib, sak qo'shinya to'satdan hujum qilib, g'alaba qozonishlarini aytadi.

Eron qo'shini bir haftalik oziq-ovqat olib yo'lga tushadi. Qo'shin uzoq yo'l yuradi. Oziq-ovqat tamom bo'ladi. Atrof quruq qum va sahrodan iborat edi. Eron qo'shini aldanganini anglaydi. Eron sarkardalaridan biri Sherakdan:

– Shunday ulug' podshoni aldab, katta qo'shinni biror quduq bo'limgan, biror qush uchmaydigan, biror jonivor ko'zga ko'rinxaydigan, na olg'a yurish, na ortga qaytish mumkin bo'lmaydigan sahroga boshlab kelishdan muroding nima edi? – deb so'raydi.

Sherak, o'z vatandoshlarimni saqlab qoldim va Eron qo'shinini halok etaman, deb javob beradi.

Botir cho'pon qatl etiladi. Forsiylar arang Amudaryo sohiliga yetib oladilar.

Doro sak cho'poni Sherakning o'chini uning qavmlaridan oladi. Diodor «Kutubxonasi» asarida ko'rsatishicha, Aleksandr Makedonskiy Amudaryodan o'tar ekan, dahshatli voqeaga duch keladi. Eron shohi Doro sakkiz yuzga yaqin odamni Sherakning qiyofasi darajasida jazolagan edi. Aleksandr ko'rgan odamlardan ko'pchiligining qo'li, ayimlarining oyoqlari, birining burni, boshqasining qulog'i kesilgan edi. Amudaryo qirg'oqlariga haylab yuborilganlarning hammasi qiyanoq-azoblarga solingan majruhlar edi.

O‘z ona yeri va xalqi uchun jon berish qahramonlikning yuksak namunasidir. Sherak shunday qahramonlikni bajardi. Tarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha, saklar Aleksandr Makedonskiy bostirib kelgan davrda ham o‘limga tik boqishgan. Grek sarkardasi jangda bir qancha saklarni asirga oladi. Asirga tushgan yigitlarning jismoniy jihatdan baquvvatlarini o‘limga buyuradi. O‘limga mahkum etilganlar o‘limdan sira qo‘rqmasdan, aksincha, xursand bo‘lishib, xalq qo‘shiqlarini baralla aytib borar edilar, deb yozadi yunon tarixchisi Kvint Kursiya Ruf.

Xalq uchun jonini fido qilgan Sherakka monand obrazlar boshqa xalqlar adabiyotida ham uchraydi. Masalan, rus xalq og‘zaki ijodidagi Susanin va Danko obrazlari shunday xususiyatga ega. Beruniyning «Hindiston» asarida ham Sherakka xos tadbirkorlik va harbiy hiylaning yana bir shakli «Shoh Kanik va Roja Kanjaning vaziri afsonasi»da o‘z ifodasini topgan.

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodining shakllanish davri rivoyat va afsonalarning boyligi bilan ajralib turadi. Bu asarlar ko‘proq tarixiy-badiiy mazmunga ega bo‘lib, ularda qadimgi skif, massaget, sak va boshqa turkiy qavmlarning qahramonlik tuyg‘ulari o‘z ifodasini topgan. Turkiylarning antik adabiyoti yodgorligi hisoblangan afsona-rivoyatlar keyinchalik katta hajmli dostonlar yaratilishiga asos bo‘ldi.

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodining shakllanish davri rivoyat va afsonalarning boyligi bilan ajralib turadi. Bu asarlar ko‘proq tarixiy-badiiy mazmunga ega bo‘lib, ularda qadimgi skif, massaget, sak va boshqa turkiy qavmlarning qahramonlik tuyg‘ulari o‘z ifodasini topgan. Turkiylarning antik adabiyoti yodgorligi hisoblangan afsona-rivoyatlar keyinchalik katta hajmli dostonlar yaratilishiga asos bo‘ldi. Shu sababli ham bu davrning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida quyidagi xulosalarni bayon etish mumkin:

1. Antik davr tarixchilarining ma‘humotlariga tayanib, miloddan oldingi VII asrlarni turkiy qavmlar shakllanishi

davri deb atashga asoslar bor. Chunki bu davrda yashagan skiflар hukmdori Madi Skifiyadagina emas, balki Kichik Osiyo mamlakatlari va Yevropada ham o‘z mavqeini tiklagan. Turkiy qavmlarni, hatto bu qavmlarning shakllanganlaridan biri hisoblangan kimmerlarni ham o‘z davlati tarkibiga qo‘sib olishga erishgan. Demak, yagona turkiylar davlati – Skifiya tashkil topgan.

2. Ijtimoiy-tarixiy vaziyatdan kelib chiqib, Madining hukmronlik vaqtini «Turkiy qavmlarning shakllanish davri adabiyoti» deb atash maqsadga muvofiqdir. Bu davr adabiyotiga faqat miloddan avvalgi VII asrlarda yaratilgan adabiy meros namunalarigina emas, balki shu davrdagi ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar ta’sirida keyingi asrlarda ham yuzaga kelgan adabiy yodgorliklarni ham kiritish mumkin. Gerodotning «Tarix» kitobi orqali bizgacha yetib kelgan «Ko‘r qullar», «Shohga bo‘ysunmagan kimmerlar», «Skiflar «ov»i» hamda Madining badiiy adabiyotdagi muqobiliga aylangan Alp Er To‘nga – Afrosiyob haqidagi adabiy syujetlarda shu davr ruhi saqlangan. Tomir, Zarina, Sherak haqidagi qissalar esa g‘oyaviy mazmuni, qahramonlik ruhiga ko‘ra Madi shaxsiyatiga bog‘langan asarlar silsilasidan joy oladi.

3. «Turkiy qavmlarning shakllanish davri adabiyoti» o‘ziga xos mavzu yo‘nalishi va janr xususiyatiga ega. Skifiya (Turon) va Midiya (Eron) mamlakatlari o‘rtasidagi janglar tasviri bu davr adabiyotining bosh mavzusidir. Alp Er To‘nga – Afrosiyob Turon va Eron urushlari haqida yaratilgan asarlarning asosiy qahramoni hisoblandi. Ijodkor xalqning shu ulug‘ qahramon obrazini yaratishga intilishi qadimgi turkiy adabiyotning janr rang-barangligini ham yuzaga keltirgan. Sov (qissa), o‘tkunch (hikoya, bo‘lgan voqea), yig‘i-yo‘qlov (marsiya), doston bu davr adabiyotining yetakchi janrlaridandir. Adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biri, turkiy malika hukmdorlar

obrazini yaratishga e'tibor oshganligidir. Antik davrda turkiy ayollarning yurt boshlig'i darajasiga ko'tarilishi va og'zaki adabiyotda ularning mukammal obrazi yaratilishiga erishilishi jahon adabiyoti tarixida katta voqeadir. Turkiy malikalar, jumladan, Tomir qissasi jahon adabiyotidagi bir necha asarlar yaratilishiga asos bo'lishini shunday baholash mumkin. Shuningdek, Nizomiy Ganjaviy buyuk asari «Xamsa»da ham turkiy ayol hukmdorlar obrazini mahorat bilan yaratdi. Ulug' shoir «Xisrav va Shirin» dostonida Mehinbonu obrazini Afrosiyob avlodidan deb ta'riflaydi va uning qadimgi turkiy ayollarga xos donoligi, aql-zakovati, yurtni boshqarish qobiliyatini mahorat bilan tasvirlaydi.

**TURKIY ADABIYOTNING DOSTONLAR  
DAVRI**

**O‘G‘UZZON SHAXSIYATI VA U HAQDA  
YARATILGAN ASARLAR**

Turkiy urug‘lar va qabilalarning shakllanishi bir necha eposlarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, «Alpomish», «O‘g‘uznama», «Qo‘rqt ota kitobi», «Manas», «Maaday Qora» kabi eposlar shunday xususiyatga ega. Bu dostonlarda turkiylarning donishmand oqsoqoli yoki urug‘ boshlig‘i obrazi yaratilgan bo‘lib, ular urug‘larni birlashtirish, ahillagini ta’minalash, ruhlantirishdek ulug‘ maqsad bilan yashaydilar. Qabilalarning shakllanish davrini aks ettirgan eposlar bizning zamonamizda turli millat folklorshunoslari tomonidan tiklangan yoki ular turli xalqlar adabiyotiga nisbat berilishidan qat’i nazar barcha turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi hisoblanadi. Chunki, ularda turkiylarning hali turli millatga ajralib, shakllanmagan davrlaridagi hayot tarzi, urfodati, orzu-umidlari ifodalangan.

**O‘g‘uzxon shaxsiyati va badiiyati.** O‘g‘uzxon obrazining tarixiy va badiiy talqinlari mavjud. Rashididdin «Jome’ atavorix» kitobida turkiy qavmlarning yuzaga kelishi hamda 24 turk qavmiga nom berilishi bilan bog‘liq bir necha rivoyat hamda afsonalarini keltiradi. Bu asarda O‘g‘uzxon shaxsiyatiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi» asarida ham O‘g‘uzxonning turkiylar tarixidagi o‘rni keng yoritilgan. Har ikki kitobda O‘g‘uzxon haqida berilgan rivoyatlar o‘rtasida mantiqan yaqinlik bor. Bu mavzu Abulg‘oz Bahodirxonning «Shajarai turk» asarida ham yoritilgan.

Tarixiy asarlarda O'g'uzxon haqidagi rivoyat va afsonalar quyidagi syujetga ega.

**O'g'uzxon rivoyati.** Nuh payg'ambarning o'g'li Yofas turkiylar mamlakatiga hukmdorlik qilib, yoshi ulg'aygach, taxtga o'g'li Abuljahonni o'tqazdi. Abuljahon ham umri tugay boshlagach, sultanatni to'ng'ich o'g'li Dibatkuyga berdi. Shunday qilib, turkiylar mamlakatining hukmronligi Dibatkuyxon dan o'g'li Kuyukxonga, Kuyukxon dan to'ng'ich o'g'li Almujannaxonga, Almujannaxon esa qariganida mamlakatning yarmini o'g'li Totorga, yarmini esa ikkinchi o'g'li Mo'g'ulga topshirdi. Totor shohlikni o'g'li Buqoxonga berdi. Mo'g'ul to'rt farzand ko'rди. Ularni Qoraxon, Urxon, Ko'zxon, Avurdaxon deb atadi. Mo'g'ulxonning o'g'illari inoq yashashdi, mamlakatga katta akalari Qoraxonni xon qilib ko'tarishdi.

Qoraxon bir o'g'il ko'rди. U g'oyat chiroli bola edi. Lekin sira onasining sutini emmasdi. Bir kuni onasi tush ko'rди. Tushida go'dak onasiga shunday iltijo qilar edi:

– Ey, ona, to sen Xudoyi taollo yagonaligiga imon keltirmas ekansan, haqparast bo'lmas ekansan, men sening sutingni emmasman.

Ona go'dakning aytganini qildi. Xudoning yagonaligini tan oldi. Go'dak esa onasini ema boshladi. Bolaning dili Olloh mehri bilan to'lgan edi. Bir yoshida xushsurat farzandga aylandi. Qoraxon bola beshikda nur sochib yotganini ko'rib, shodlandi. O'sha davrdagi urf-odatga ko'ra farzandga ism bir yoshga to'lganida berilar edi. Qoraxon xotiniga «O'g'limiz bir yashar bo'ldi. Unga qanday ism qo'yamiz?» deb maslahat solgan edi, beshikdagi go'dak shirin ovozda tilga kirdi:

– Mening nomim O'g'uzdir.

Odamlar uning so'zini eshitishib, hayratlanishdi. Axir, ular bir yoshli bola gapirayotganini birinchi marta ko'rishlari edi-da.

Shundan keyin go'dakka O'g'uz nomini berdilar. O'g'uz balog'atga yetgach, Qoraxon uni ukasi Urxonning qiziga uylantirdi. Qiz qarindosh bo'lganligi uchun O'g'uzxon unga iltifot ko'rsatmadidi. Ov va sayr bahonasida undan uzoq yurdi.

O'g'uzning uylantirgan qiziga ko'ngli yo'qligini eshitgan Qoraxon qattiq ranjidi va ikkinchi ukasi Ko'zxonning qizini xotinlikka olib berdi. Bu qiz xudojo'y emas edi. Shu sababli O'g'uzxon bu qiz bilan ham irodat qilmadi. Qoraxon bu voqeani ham eshitib, xafa bo'ldi. Ammo uchinchi ukasi Urxonning qiziga O'g'uzxonning roziligesiz uylantirib qo'yishga jur'at etolmadidi.

O'g'uzxon bir kuni ovdan qaytishda amakisi Urxon yashaydigan qarorgohga tushib o'tdi. Xiromon arig'i bo'yida uning qizini ko'rib, oshiq bo'ldi. Ko'z qarashlari bilan muhabbatini izhor etdi. Qiz rozilik berdi. O'g'uzxon unga uylanish uchun otasining ham roziliginini oldi. Ular shu qadar ahil va do'st bo'ldilarki, O'g'uzxon o'z nikohidagi boshqa ikki xotini xonasiga kamdan-kam kiradigan bo'ldi. Qoraxon bu voqeani eshitib, yana xafa bo'ldi. Bir kuni O'g'uzxon ovga ketgan edi. U kelinlarini chaqirib, ularning dardini eshitdi. O'g'uzxonning ikki xotini ko'ziga yosh olib, erini aybladilar, u ota dinini tark etib, boshqasini tan olayotganini aytdilar. Qoraxon bu gapni eshitib, ilondek to'lg'andi, o'z o'g'li O'g'uzxonga qarshi lashkar to'plashni buyurdi. O'g'uzning kichik xotini Qoraxonning vajohatidan xabar topdi va shikorga borib, erini ogoh etdi. Ota va bola o'rtasida keskin jang bo'ldi. Urushda Qoraxon halok bo'ldi va shohlik O'g'uzxon qo'liga o'tdi.

O'g'uzxonning xoqonligi 73 yil davom etdi. U iymone'tiqodli davlat qurdi. Unga bo'yin tovlaganlar Turkiston sarhadidan chiqib, Chin tomonga, ko'pchiligi Totor shohi huzuriga ketdilar. O'g'uzxonning mo'g'ul va totor lashkarlari bilan dastlabki jangi bo'ldi. Qo'shin tarkibidagi odamlar mavqelariga qarab, yettiga bo'lindilar va jangga

kirishdilar. O‘g‘uzxon Chin va Xitoy, Turkiston, Saqlob mamlakatlariga hokim bo‘ldi. Talotin, Talosh, Salosi, Sayram shaharlaridan to Buxoro, Samarqand sarhadlarigacha yerlarni o‘z tasarrufiga kiritdi. O‘g‘uzxon Chin va Mochin mamlakatlaridan Rus dengizigacha, Oltoy va Qonqoydan Jayhun daryosigacha bo‘lgan mamlakatlarni egalladi. U turk va ajam shohlari orasida misli Jamshid («Avesto»da bayon etilishicha, adolatli hukmron, najotkor kuch) edi.

O‘g‘uzxon turklarning qavmlariga laqab qo‘ydi: uyg‘ur, qonqli, qipchoq, qorluq, xalaj, chiyug‘ va boshqalar. Har bir qavmga nom qo‘yilishining ma’nosи bor edi.

**Qipchoq.** Qipchoq qavmiga qabuq so‘zi asos bo‘lgan. Qabuq daraxtning nomi. Bu daraxtning ichi chirigan, kovak edi. Janglarning birida O‘g‘uzxonning lashkarlari yengildi, odamlarining ko‘pchiligi qatl etildi. O‘g‘uzxonda dushmanga qarshi kurashish uchun quvvat qolmadи. Chekinishga majbur bo‘ldi. Sahroda ular bir oz dam olish uchun to‘xtadilar. O‘g‘uzxonning lashkarlari orasida ayollar ham bor edi. Ulardan biri homilador edi. Bu ayolning eri va otasi jangda o‘ldirilgan edi. Xotinning dardi qo‘zg‘ab qoldi. U pana joy topolmay, bir daraxtning kovagiga kirdi. Ayoldan bir o‘g‘il tug‘ildi. Otasi va bobosi o‘ldirilganligi tufayli O‘g‘uzxon bolani o‘z farzandligiga oldi va unga Qipchoq deb nom qo‘ydi. Qipchoq qavmi shu o‘g‘il naslidan hisoblanadi.

O‘g‘uzxon Turonda qudratli davlatni qurdi. Arab va Eron mamlakatlarini ham o‘ziga bo‘ysundirdi. U olti nafar o‘g‘il ko‘rdi: uch nafar kattasiga Kun, Oy, Yulduz, uch nafar kichigiga Ko‘k, Tog‘, Dengiz nomlarini berdi.

O‘g‘uzxon bir kuni olti o‘g‘lini ham ovga olib chiqdi. O‘g‘illarining har biri ov ketidan quvdi. Ular ovda nogahonda bir joyda to‘qnashdilar va bir kamон bilan uch zarrin o‘qni topib oldilar. O‘g‘illar kamон va o‘qlarni

otasining huzuriga olib kelishdi. O'g'uzxon uch katta o'g'liga kamonni, uch kichik o'g'liga o'qlarni berdi. Katta o'g'illari kamonni uch qisninga bo'lib olishdi. Katta o'g'illar buzuq, kichiklari uch o'q deb ataladi. Kamon - podshoh, o'q - elchi bo'ldi. Shu voqeadan biroz o'tgach, O'g'uzxon vafot etdi. Ota vasiyatiga ko'ra, uning taxtiga Kunxon o'tirdi.

Turklar o'z odatlariga ko'ra, katta daryolar va suvlarni «o'g'uz» deyishardi. Qadimda Amudaryo «O'g'uz» deb atalgan. Yunonlar bu so'zni asos qilishib, uni «O'qs» deb nomlashgan. Shundan kelib chiqib, turkiylar bu daryo atrofida yashaganlarga ham ushbu nomni berishgan. O'g'uzxon ismiga daryo nomi asos bo'lgan deyish turkshunos Hasan ota Abushiyning farazlaridan biridir. Ehtimol, daryo O'g'uzxon nomi bilan atalgan bo'lishi mumkin. Unda bu nom kattalik, ulug'lik, kuch-qudratlilik ma'nosini beradi. Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Oltoy turklari, uyg'urlar, usmonli turklarning ham ko'pchiligi o'zlarini O'g'uz qavmlaridan deb hisoblashadi.

**«O'g'uznama» dostoni.** «O'g'uznama» XV asrda ko'chirilgan va Oltin O'rda xoqoni To'xtamishning kutubxonasida saqlangan asarlardan biridir. Lekin bu dostonning yaratilish vaqtini dostonning ko'chirilgan davri bilan bog'lab bo'lmaydi. Asardagi voqealar, qahramonlar qadimiylilik qatlamiga ega. Tadqiqotchiligidizda «O'g'uznama»ning qadimiyligi va asar yaratilishiga tarixdagi qaysi shaxsning hayoti asos bo'lganligi to'g'risida rang-barang qarash va munozaralar mavjud.

«O'g'uznama»ning yirik tadqiqotchilaridan biri xitoysunos, millati chuvash bo'lgan olim N. Ya. Bichurin (Iankinf) (1777-1853)dir. U o'zining «Qadimgi davrda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami» nomli uch qismdan iborat asarida qadimgi xitoy manbalariga tayanib, bu dostonning yaratilish davrini

eramizdan oldingi II asrlarda yashagan Modexon nomi bilan aloqasi bor, deb hisoblaydi. Chunonchi, olimning uchala kitobida Mode-Shan, Modo-Shan, Shan Mode, Mode, Maodun, Moduxon, kabi nomlar O'g'uz xoqonning nomi sifatida qo'llanilgan.

N. Ya. Bichurinning ma'lumot berishicha, Mode-Shan xunlari (**shan** so'zi xitoycha «bo'ri» demakdir. **Tyan-shan-Tangri** bo'ri degan ma'noni beradi. **Shan** xan – xon ma'nosini ham ifodalagan). U Shanxun shohining o'g'li. Mode o'gay ukasi merosxo'r bo'lib qolishidan cho'chib, ovda otasi Tuman, o'gay onasi, aka-ukalarini o'ldirib, o'zini xon deb e'lon qiladi. Mode juda ko'p mamlakatlarga qo'shin tortadi. Ulkan hududlarni egallab oladi. Katta hududni egallagan xun davlatini tiklaydi. U miloddan avvalgi 174-yilda vafot etgan.

Rus olimi V.V.Radlov esa Juvayniyning «Tarixi Jahonkushoy»idagi Buqutekin va Yuon Shi asarlaridagi Buqaxonni O'g'uzxon deb hisoblaydi va asarning yaratilishi masalasida N.Ya.Bichurin fikrlariga qo'shiladi. «O'g'uznomá» ning rus tilidagi noshiri A.M.Shcherbak boshqa olimlarning ham O'g'uz xoqonga nisbat berilgan tarixiy shaxslar haqidagi fikrlarini umumlashtiradi. Masalan, uning ta'kidlashicha, chet el olimlaridan I. Markvarta O'g'uzxonni Chingizzon bilan, Rizo Nosir Aleksandr Makedonskiy bilan bog'laydi. Yuqoridagi mualliflardan farqli o'laroq G.N.Potanin O'g'uz xoqonni mo'g'ullarning Van Kir va Uxir Bama xon hamda qirg'iz eposlaridagi Jonibek obrazi bilan tenglashtiradi.

A.M.Shcherbak O'g'uz xoqon obrazida Mode, Aleksandr Makedonskiy, Chingizzon shaxsiyati borligiga qo'shilmaydi. U eposda aniq tarixiy voqealar aks etmaganligiga asoslanadi. Shu sababli G.N.Potaninning fikrlari birmuncha to'g'ri ekanligini e'tirof etadi. Chunki bu tadqiqotchining qarashlarida tarixiy shaxs emas, balki epos qahramonlarining ta'siri borligi ko'rsatilgan. Qadimshunos A.N.Bernshtam

O‘g‘uz xoqonning onasi Oy xoqonni shumer misflaridagi xudo Ishtarga qiyos etadi. Demak, bunday qiyos dostonning yaratilishi tarixini yanada uzoq asrlarga bog‘laydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilaridan S.Yu.Neklyudov xunlar yaratgan eposlarning Yevropa og‘zaki ijodiga ta’siri haqida fikr yuritar ekan, N.Ya.Bichurinning Modexon haqidagi fikrlariga tayanadi.

«O‘g‘uznom» qadimiy misflarga asoslangan doston. Oy xoqon shumerlarning Ishtar xudosiga nisbat berilganidek, asarning syujeti uzoq asrlardan oziqlanadi. O‘g‘uz xoqon – O‘kuz, Ho‘kuz xoqon degan ma’noni ham beradi. O‘g‘uz xoqon tug‘ilgandan so‘ng qirq kun orasida oyog‘i ho‘kiznikiday bo‘lishi bizga qadimgi misflardagi beligacha ho‘kiz bo‘lgan Ho‘kiz odam obrazini, bellari bo‘rining bellariga o‘xhashi o‘zini bo‘ri avlodidan hisoblagan turkiylarni eslatadi. Demak, «O‘g‘uznom» turkiylarning eng qadimgi davrlardan milodimizgacha bo‘lgan hayotining turli belgilari umumlashgan asardir. Dostonning boshlanma qismlarida – Oy, Quyosh, Yulduz nomi bilan bog‘langan tasvirlar, O‘g‘uz xoqonning oltin qoziq yulduziday qizga uylanishi-yu, Kun, Oy, Yulduz otliq farzandlar ko‘rishida shumer adabiyotiga xos mushtaraklik va Ko‘k Tangri dini ta’limotidan oziqlanganligiga shubha yo‘q. Qadimgi adabiyotda ho‘kiz-odam obrazi F.Sulaymonova, M.Jo‘rayev tadqiqotlarida umumlashtirib berilgan. F.Sulaymonova qadimshunos K.V.Treverning ma’lumotlariga suyanib, afsonaviy ho‘kiz odam Gopadshoh haqida fikr yuritar ekan, u hamisha Amudaryo sohillarida o‘tirishi va xudolarga nazr-niyoq qilishini aytadi. «Bilgamish» dostonidagi samoviy ho‘kiz ham suv bilan bog‘langan. U shunchalik qudratliki, Frot daryosini bir sipqorishda quritib qo‘yadi.

«O‘g‘uznom»da O‘g‘uz xoqonning pahlavonligi har qanday vahshiy yirtqichdan ham kuchli, bahodir – alp

pahlavonlarga tenglashtiriladi. Dostonda tasvirlanishicha, o‘rmonda bahaybat bir yirtqich paydo bo‘ladi. U otlarni, odamlarni yer edi. O‘g‘uz xoqon o‘sha yirtqichni qo‘lga tushirishga, uni o‘ldirishga ahd qiladi. Nayza, kamon, qilich qalqonlarini ko‘tarib yo‘lga tushadi. O‘zi bilan bir bug‘uni ham oladi va bahaybat yirtqich uya qurgan o‘rmondagi bir tolga bog‘lab ketadi. Agar yirtqich ojizroq bo‘lsa, bug‘u uni shoxlab o‘ldirishi kerak edi. O‘g‘uz xoqon ertalab borsa, yirtqich bug‘uni yeb ketibdi. Ertasi kuni o‘sha daraxtga ayiqni bog‘lab keladi. Agar yirtqich ayiqdan ojiz bo‘lsa undan yengilishi kerak edi. Lekin O‘g‘uz xoqon ertalab kelsa, yirtqich ayiqni ham yeb ketibdi. Demak, u o‘rmondagi eng kuchli hayvonlardan biridir.

«O‘g‘uznama»da Bo‘ri asar syujetini rivojlantiruvchi asosiy obrazdir. U qabilaga madadkor, g‘amxo‘r, ularni o‘z panohida asrovchi kuch sifatida ko‘ringan. Bunday tasvir o‘zlarini bo‘ridan kelib chiqqan deb hisoblovchi Ashin urug‘i bilan bog‘lanadi.

«O‘g‘uznama» O‘g‘uz xoqonning tug‘ilishidan keksaygan so‘nggi davrigacha bo‘lgan voqealarni qisqa syujetlarda tasvirlab beradigan dostondir. Shunga ko‘ra, bu asarni katta bir eposning bo‘laklari yoki bir necha qahramonlik eposlaridan olingan parchalar O‘g‘uz xoqon nomi bilan bog‘langan deyish mumkin.

«O‘g‘uznama»da turkiy qavmlarga nom qo‘yish masalasining aks etishi doston syujetining juda qadimiy davrlarda paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi.

**Qang‘li** turkiy xalqlarning miloddan avvalgi asrlarda shakllangan qabilalaridan biridir. Bu qabila nomining kelib chiqishi haqida tarixda affsonalar bo‘lgan. Rashid-id-din kitoblarida uning nomi O‘g‘uzxon bilan bog‘langan. Aytishlaricha, O‘g‘uzxon urushlarda qo‘lga kiritgan narsalarini ortib ketish uchun arava yasatgan. Turkiy tilda u «qang‘li» deb atalgan. Shu sababli qang‘li urug‘i o‘zlarini

O‘g‘uzxon avlodidan deb hisoblashgan. Bunday mazmundagi ta’kidlar «Tarixi Nusratnama» hamda Abulg‘ozining asarlarida ham qayd etilgan. K.Shoniyofov o‘z tadqiqotlarida **Qanqa**, **Qang‘** nomlarini ham qang‘li urug‘i bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Chunki turkshunos S.M.Malov ta’kidlaganidek, **qan**, **qanli** so‘zлari «arava» degan ma’noni beradi. Yuqoridagi so‘zлar ham shu o‘zakdan kelib chiqqandir. Beruniyning «Hindiston» kitobida keltirilgan afsonalardan birida Afrosiyob Qang‘ diz qo‘rg‘onini o‘z qarorgohiga aylantiradi. «Shohnoma»da esa Qanqa Turon mamlakatidagi markaziy shaharlardan biri sifatida ko‘rsatilgan.

«O‘g‘uznomda qangli urug‘iga nom berilishi tasviri: ...Jurjit xoqonining xalqi O‘g‘uz xoqonga qarshi turdilar. Urush boshlandi, o‘qlar bilan, qilichlar bilan urushdilar. O‘g‘uz xoqon g‘alaba qildi. Jurjit xoqonni tor-mor qildi, o‘ldirdi, boshini oldi, jurjit elini o‘ziga bo‘ysundirdi. Jangdan so‘ng O‘g‘uz xoqonning qo‘s Shiniga, navkarlarigayu xalqiga shunday katta o‘lja keldiki, ularni yuklashga, olib ketishga ot, xachir, ho‘kiz kamlik qildi. O‘g‘uz xoqonning qo‘s Shinida chaqqon, gavdali bir yaxshi odam bor edi. Uning oti Barmoqliq Jusun Billig edi. Bu chaqqon odam bir qang‘a chopti. Qang‘a ustiga mol-mulklarini yukladi, qang‘a boshiga tirik boyliklarni yukladi, jo‘nab ketdilar. Navkarlarning, xalqning hammasi buni ko‘rdilar, shoshdilar. Qang‘alar yana choptilar. Qang‘alar yurib borayotib «qang‘a, qang‘a» deb so‘z aytib borar edilar. Shuning uchun ularga qang‘a deb ot qo‘ydilar. O‘g‘uz xoqon qang‘alarni ko‘rdi, kuldi. Yana aytdiki, qang‘a-qang‘a bilan boylikni ezgulik tortib borsin. Qang‘alar senga ot bo‘lganligini «Qang‘a» so‘zi bildirsin.

«O‘g‘uznomda hozirgacha o‘zbek tilida kitob holida nashr etilmagan. Asarning quyidagi jurnal variantini Nasimxon Rahmon tarjima qilgan.

*Shunday bo 'lsin, dedilar. Buning bayoni  
shundaydir. Yana undan so 'ng sevindilar.  
Kunlardan bir kun Oy xoqonning  
ko 'zi yorib bolaladi, o 'g 'il tug 'di.  
O 'sha o 'g 'ilning yuzi ko 'k  
edi, og 'zi otashday qizil edi, ko 'zlar ol, sochlari,  
qoshlari qora edi. Yaxshi farishtalardan ham  
chiroyliroq edi. O 'sha o 'g 'il onasining  
ko 'ksidan sut emib, undan so 'ng boshqa ichmadi, yaxshi  
go 'sht, ovqat, ichimlik  
so 'radi, tilga kira boshladi. Qirq kundan so 'ng  
ulg 'aydi, yurdi, o 'ynadi. Oyog 'i ho 'kiz oyog 'idek, bellari  
bo 'rining bellaridek, yag 'rini burgut yag 'riniday,  
ko 'kragi  
ayiq ko 'kragiday edi. Butun badani  
qalin tuk bilan qoplangan edi, yilqilar ko 'tara  
olar edi, otlarga mina olar edi, kiyik  
oviga ham borar edi, ko 'p kunlar, ko 'p tunlardan  
so 'ng yigit bo 'ldi. Bu  
paytda o 'sha yerda katta bir o 'rmon bor edi.  
Ko 'p dengizlar, ko 'p daryolar bor edi. Bu yerga  
ko 'p kiyiklar kelar, ko 'p qushlar uchib kelar edilar.  
O 'sha o 'rmonda bahaybat bir yirtqich bor  
edi, otlarni, odamlarni yer edi. Juda bahaybat  
maxluq edi. Bunday katta mashaqqat xalqni  
ezib kelar edi. O 'sha yirtqichni qo 'lga tushirishga  
qasd qildi. Kunlardan bir kun ovga chiqmoqchi bo 'ldi.  
Nayza, kamonu o 'qlarni, qilichu qalqonlarni  
olib yo 'lga tushdi. Bir bug 'uni o 'zi bilan  
birga oldi. Bug 'uni tolning chivig 'i bilan daraxtga  
bog 'ladi, o 'zi ketdi. Tong otdi. O 'g 'uz xoqon erta  
tongda keldi, ko 'rdiki, yirtqich hayvon bug 'uni olib  
ketibdi. Ertasiga bir ayiqni olib borib, oltin  
kamari bilan o 'sha daraxtga bog 'ladi, o 'zi ketdi.*

*Tong otdi. O'g'uz xoqon erta tongda keldi. Ko 'rdiki, yirtqich ayiqni ham olib ketgan edi.*

*Keyin o'zi o'sha daraxtning ostida turdi. Yirtqich kelib O'g'uzning qalqoniga boshini urdi. O'g'uz nayza bilan yirtqichning boshiga urdi, uni o'ldirdi. Qilichi bilan boshini kesdi, oldi, ketdi, keyin kelib ko 'rdiki, bir shunqor yirtqichning ichak-chovog 'ini yemoqda. Kamonu o'qi bilan shunqorni o'ldirdi, boshini kesdi. Undan so 'ng aytdiki, shunqorning qiyofasi shundaydir. Bug 'uni yedi, ayiqni yedi. Mening yoyim o'ldirdi uni, u temir bo 'lsa. Yirtqichni shunqor yedi. Yoyim shunqorni ham o'ldirdi, xuddi shamol kabi, dedi, ketdi. Yana yirtqichning qiyofasi shundaydir.*

*Kunlardan bir kun*

*O'g'uz xoqon bir yerda Tangriga yolvorar edi. Qorong 'i tushdi. Ko 'kdan bir ko 'k nur tushdi. Quyoshdan yorug ', oydan yorqinroq edi. O'g'uz xoqon u tomonga yurdi, ko 'rdiki, o'sha nurning orasida bir qiz bor edi. Yolg 'iz o'tirar edi.*

*Yaxshi, chiroyli bir qiz edi. Uning boshida otashga o'xshash yorug ' bir xoli bor edi, xuddi oltin qoziq yulduziga o'xshar edi. U qiz shunday chiroyli ediki, kulsa, ko 'm-ko 'k osmon kuladi, yig 'lasa ko 'm-ko 'k osmon yig 'laydi. O'g'uz xoqon uni ko 'rib o'zidan ketdi, sevib qoldi, oldi, u bilan yotdi, tilagini qondirdi. Homilador bo 'ldi. Kunlar o'tib, kechalar o'tib, ko 'zi yoridi, uch o'g'il tug 'di. Birinchisiga Kun otin qo 'ydilar, ikkinchisiga Oy otin qo 'ydilar, uchinchisiga*

*Yulduz otin qo 'ydilar. Kunlardan bir kun  
O'g'uz xoqon ovga ketdi. Bir  
ko 'lning o 'rtasida, o 'z qarshisida bir daraxt  
ko 'rdi. Bu daraxtning ostida  
bir qiz bor edi, yolg 'iz o 'tirar edi.  
Chiroyli bir qiz edi. Uning  
ko 'zi ko 'm-ko 'k edi, uning  
sochi daryoning oqimidek, uning  
tishi inju kabi edi. Shunday chiroyli  
ediki, uni yerda yashovchi odamzod ko 'rganda,  
ey, ey, oh, oh, o 'lamан deb, sutni  
qimizga aylantirardilar. O'g'uz xoqon  
uni ko 'riboq o 'zidan ketdi, yuragiga otash  
tushdi, uni sevib qoldi, uylandi, u bilan qovushdi,  
visolga yetdi, qiz homilador bo 'ldi, kunlar  
o 'tib, tunlar o 'tib, ko 'zi  
yoridi, uchta o 'g 'il tug 'di. Birinchisiga  
Ko 'k otin qo 'ydilar, ikkinchisiga  
Tog ' otin qo 'ydilar, uchinchisiga  
Dengiz otin qo 'ydilar.  
Undan so 'ng O'g'uz xoqon katta  
to 'y berdi. El kun – xalqqa yorliq  
jo 'natdi, El kun keldi.  
Qirq chorpoya, qirq kursi yasashga buyurdi,  
turli oshlar, turli  
go 'shtli taomlar yedilar, qimizlar  
ichdilar. To 'ydan so 'ng O'g'uz  
xoqon beklarga, el-kunlarga yorliq berdi.  
Yana aytdiki, men senlarga  
bo 'ldim xoqon, olaylik yoyu  
qalqon, tamg 'a bizga bo 'lsin buyan –  
farovonlik, ko 'k bo 'ri bo 'lsin belgi, temir yoyslar  
bilan bo 'l o 'rmonda, ov bo 'ladigan yerda yursin qulan,  
yana dengiz, yana muran (daryo), kun tug ' bo 'lsin,*

*ko'k qarorgoh dedi. Shundan so'ng  
O'g'uz xoqon io'rt tarafga yorliq  
jo'natdi. Bildurgulik biidi, elchilarga  
berib jo'natdi. Ushbu bildurgulikda bitilgan  
ediki, men uyg'urning xoqoni bo'laman,  
yerning to'rt tarafining xoqoni bo'lsam  
kerak, senlardan bo'y sunishni  
istab qolaman. Kimki mening  
og'zimga qarab tursa, sovg'a  
keltirsa, do'st tutarman, dedi. Kimki mening  
farmoyishimga qulq solmasa, xavf  
solib, qo'shin tortib, dushman hisoblayman,  
o'sha zahoti bosib, ostirib, yo'q bo'lsin  
deb buyruq qilurman, dedi. Bu paytda  
o'ng tomonda Oltin xoqon  
degan bir xoqon bor edi. O'sha Oltin  
xoqon O'g'uz xoqonga elchi jo'natdi.  
Ko'p miqdorda oltin, kumush tortib, ko'p miqdorda  
kamyob yoqut toshlar olib, ko'p miqdorda xazinalar  
yuborib, yumshab, O'g'uz xoqonga ixlos  
qo'ydi, farmoyishiga qulq tutdi. Yaxshi begi bilan  
do'st tutindi, u bilan murosada  
bo'ldi. Chap tarasda Urum degan  
bir xoqon bor edi. O'sha xoqonning  
qo'shini juda ko'p edi. O'sha  
Urum xoqon O'g'uz xoqonning  
yorlig'ini e'tirof etmas edi, qo'shilishga  
bormas edi. Uning so'zini so'z  
demasman, deb yorliqqa e'tibor  
bermadi. O'g'uz xoqon xavf  
solib, unga qarshi otlanmoqchi bo'ldi, qo'shini-la  
otlanib, tug'larini ko'tarib, jo'nadi. Qirq  
kundan keyin Muz tog'ning  
adog'iga yetdi. Lashkarlarini*

*tushirdi, charchab, to 'xtadi. Ertalab bo 'lganda  
O'g 'uz xoqonning  
qarorgohiga qushday bir  
nur kirdi. U nurdan ko 'k  
tukli, ko 'k yolli katta  
bir erkak bo 'ri chiqdi. O 'sha bo 'ri O'g 'uz  
xoqonga shunday xabar berdi:  
Dediki, ey, ey, O 'g 'uz, Urum  
ustiga sen jo 'namoqchi bo 'layapsan.  
Ey, ey, O 'g 'uz, xizmatingga men ham  
boraman, dedi. Shundan keyin  
O'g 'uz xoqon qarorgohni  
turg 'azdi, jo 'nadi,  
ko 'rdiki, qo 'shinring xizmatida  
ko 'k tukli, ko 'k yolli  
katta bir erkak bo 'ri yurib  
bormoqda. U bo 'rining ortidan  
butun qo 'shin tizilishib borar edi. Bir  
necha kunlardan so 'ng ko 'k tukli, ko 'k yolli bu katta  
erkak bo 'ri to 'xtadi. O 'g 'uz ham qo 'shini  
bilan to 'xtadi. Bu yerda Itil daryosi  
oqib o 'tar edi. Itil daryosining qirg 'og 'ida  
bir qora tog ' yonida  
urushga kirishdilar. O 'q bilan ham, yoy  
bilan ham, qilich bilan ham urushdilar.  
Qo 'shinlarning orasida ko 'p janglar bo 'lib o 'tdi.  
Odamlarning yuragida  
ko 'p qayg 'ular toshdi. Olishuvlar, janglar  
shunday yomon bo 'ldiki, Itil daryosining  
suvi qip-qizil qon singari bo 'ldi,  
O'g 'uz xoqon yengdi. Urum xoqon  
qochdi. O'g 'uz xoqon Urum xoqonning  
xoqonligini (ya 'ni, tasarrufidagi joylarni) oldi,  
xalqni ham oldi. O'g 'uz xoqonning o 'r dasiga ko 'p,*

*katta o'lik, ko'p tirik  
mol-mulk kelib tushdi. Urum xoqonning  
bir inisi bor edi. Urus bek degan  
edi. Urus bek o'g'lini tog 'boshidagi  
Terang daryosi o'rtasidagi  
yaxshi, berk (ya'ni, mustahkam) shaharga jo'natdi.  
Yana  
aytdiki, shaharni himoya qilish kerak.  
Sen yana jangdan keyin shaharni  
menga saqlab (berib, o'zing qaytib) kelgin, dedi. O'g'uz  
xoqon o'sha shaharga otlandi. Urus  
bekning o'g'li unga ko'p oltin  
kumush yubordi. Yana aytdiki, ey, O'g'uz, sen  
mening xoqonimsan. Menga otam bu  
shaharni berdi. Yana aytdiki, shaharni  
himoya qilish kerak. Sen yana  
jangdan keyin shaharni menga  
saklab (ber, o'zing qaytib) kelgin, dedi. Otam  
g'azablansa mening erkim bo'ladimi? Sendan  
yorliq, boylik, hukmronlik bilaman.  
Bizning baxtimiz sening  
baxting ekan, bizning urug'imiz  
sening daraxtingning  
urug'i bo'lgan ekan. Tangri senga  
katta yer berib, xoqon bo'lsin, deb buyurgan.  
Men senga boshimni, baxtimni beraman.  
Soliq berib, do'stlikdan chiqmayman, dedi.  
O'g'uz xoqon yigitning  
so'zini yaxshi ko'rди, sevindi, kului, yana  
aytdiki, menga ko'p oltin jo'natibsan,  
shaharni yaxshi saqlabsan, dedi. Shuning  
uchun unga Saqlab otini qo'ydi, do'st  
tutindi, keyin qo'shini bilan O'g'uz xoqon  
Itil daryosiga keldi. Itil*

*katta bir daryodir. O'g'uz xoqon uni  
ko'rди, yana dediki, Itilning oqimidan  
qanday kechib o'tamiz. Qo'shinda bir  
yaxshi bek bor edi. Uning oti Ulug' O'rda  
bek edi. Mulohazali, uquvli bir yigit edi.  
Ko'rdiki, daryo qирг'оғ'иду ко'п tollар, ко'п  
daraxtlar bor edi. Bek o'sha daraxtlarni  
kesdi. Yog'ochlarni yotqizib,  
kechib o'tdi. O'g'uz xoqon xursand bo'lib ketdi, kuldii.  
Yana aytdiki, ey Ulug' O'rda, sen, sen bu yerda bek  
bo'lib qolasan. Qipchoq bek degan bek bo'l.  
Yana ilgari ketdi...*

*Shundan so'ng O'g'uz xoqon, shundan keyin  
ko'k tukli, ko'k yolli erkak bo'rini ko'rди.  
O'sha ko'k bo'ri O'g'uz xoqonga aytdi:  
endi qo'shining bilan bu yerdan jo'na,  
O'g'uz. Otlanib, xalqni, beklarni olib ket.*

*Men senga yo'l ko'rsataman, dedi.*

*Tong otganda O'g'uz xoqon ko'rди:  
erkak bo'ri qo'shining oldida yurib boryapti.  
O'g'uz xoqon sevindi, oldinga ketdi.  
O'g'uz xoqon bir chubir otga minayotgan edi.  
O'sha ayg'ir otni juda sevar edi.*

*Yo'lda o'sha ayg'ir ot ko'zdan yo'qolib qochib ketdi.  
Bu yerda katta bir tog 'bor edi.  
O'sha tog 'ning ustida muzlik bor edi.*

*Tog 'ning boshi sovuqdan oppoq edi.*

*Shuning uchun bu tog 'ning oti Muz tog ' edi.  
O'g'uz xoqonning oti Muz tog ' ichiga qochib ketdi.  
O'g'uz xoqon bundan ko'p vaqt g'am chekib yurdi.  
Qo'shinda bir jasur, mard bek bor edi.*

*Hech narsadan qo'rmas  
edi. Jangda ham, sovuqda ham hech narsadan  
qo'rqlaydigan mard edi. O'sha bek tog ' ichiga kirdi,*

*uzoq yurdi. To'qqiz kundan so'ng O'g'uz  
xoqonga ayg'ir otni keltirdi. Muz  
tog'da ko'p sovuq yeganligidan u bekning usti  
qor bilan qoplangan edi, oppoq edi. O'g'uz  
xoqon xursandlik bilan kuldi, aytdiki,  
ey yigit, bundan keyin sen beklarga bo'lgin boshliq,  
abadiy senga nom bo'lsin Qorliq,  
dedi. Ko'p sovg'alar berdi, oldinga ketdi.  
Keyin yo'lda katta bir uy ko'rди. Bu uyning  
tomi oltindan edi. Oynalari  
kumushdan, eshiklari temirdan edi.  
Berk edi. Kaliti yo'q edi.  
Qo'shinda bir yaxshi ajoyib odam bor edi, uning  
oti Timurdu kagul edi. Unga  
buyurdiki, sen bu yerda qol, (eshikni) och. Eshikni  
ochgandan so'ng kel O'rdaga, dedi.  
Bundan keyin unga Qalach (deb) ot qo'ydi, (o'zi)  
ilgari ketdi.  
Keyin bir kuni ko'k tukli,  
ko'k yolli erkak bo'ri yurmasdan  
turib qoldi. O'g'uz xoqon (ham) to'xtadi, qo'shinni  
ham tushirdi. Atrof cho'lu biyobon,  
tep-tekis yer edi. Bu joyni Jurjit deb atardilar.  
Qudratli bir davlat edi, ko'p xalqi bor edi. Yilqilari  
ko'p, ho'kiz, buzoqlari ko'p, oltin, kumushlari ko'p,  
qimmatbaho buyumlari ko'p edi. Bu yerda Jurjit  
xoqonining xalqi Q'g'uz xoqonga qarshi  
turdilar. Urush boshlandi, o'qlar bilan,  
qilichlar bilan urushdilar. O'g'uz xoqon g'alaba qildi.  
Jurjit xoqonni tor-mor qildi, o'ldirdi, boshini oldi.  
Jurjit elini o'ziga  
bo'ysundirdi. Jangdan so'ng O'g'uz xoqonning  
qo'shiniga, navkarlarigayu xalqiga  
shanday katta o'lja keldiki,*

*ularni yuklashga, olib ketishga ot, xachir, ho 'kiz kamlik qildi. O'g'uz xoqonning qo'shinida chaqqon, gavdali bir yaxshi odam bor edi. Uning*

*oti Barmoqlik Jusun Billig edi. Bu chaqqon odam bir qang'a chopti. Qang'a ustiga mol-mulkarni yukladi, qang'a boshiga tirik boyliklarni yukladi, jo'nab ketdilar.*

*Navkarlarning, xalqning hammasi buni ko'rdilar, shoshdilar.*

*Qang'alarni yana chopdilar. Qang'alar yurib borayotib «qang'a, qang'a», deb so'z aytib borar edilar. Shuning uchun ularga*

*qang'a deb ot qo'ydilar. O'g'uz xoqon qang'alarni ko'rdi, kului. Yana aytdiki, qang'a, qang'a bilan boylikni ezgulik tortib borsin.*

*Qang'alug' senga ot bo'lganligini «qang'a» so'zi bildirsin, deb o'z yo'liga ketdi.*

*Shundan keyin*

*o'sha ko'k tukli, ko'k yollি erkak bo'ri bilan Hind, yana Tibet, yana Shag'am taraflarga jo'nab ketdi.*

*Ko'p janglardan, ko'p olishuvlardan keyin u mamlakatlarni qo'lga kiritdi, o'z yurtiga birlashtirdi, yengdi, bosib oldi. Keyin tashqari qolmasin, ma'lum bo'lsinki, kun yurib (janub) tarasda Baraka degan bir yer bordir. Katta,*

*boyligi ko'p bir yurtdir, ko'p issiq bir joydir.*

*Bu yerda ko'p kiyiklar, ko'p qushlar bordir, oltini ko'p, kumushi ko'p, qimmataho buyumlari ko'p, xalqining yuzi, ko'zi qop-qoradir.*

*O'sha yerning xoqoni Masar degan bir xoqon edi.*

*O'g'uz xoqon uning ustiga otlandi. Juda yomon jang bo'ldi. O'g'uz*

*xoqon yengdi, Masar xoqon qochdi.*  
*O'g'uz xoqon bosib oldi, yurtini oldi, ketdi. Uning*  
*do'stlari ko'p xursand edilar, uning dushmanlari ko'p*  
*qayg'uga botdilar. O'g'uz xoqon son-sanoqsiz*  
*boyliklar, yilqilar*  
*oldi. Vataniga jo'nadi.*  
*Ammo yoddan ko'tarilmasinki,*  
*ma'lum bo'lsinki, O'g'uz xoqonning*  
*yonida oq soqollig', oq sochlig'*  
*uzun bo'ylig', epchil bir keksa kishi bor edi,*  
*uquvli dono bir odam edi, afsungar*  
*edi. Uning oti Ulug' Turuk edi.*  
*Kunlardan bir kun uyqusida bir oltin*  
*yoy ko'rди, yana uch kumush o'q ko'rди. Bu oltin*  
*yoy kun chiqishdan kun*  
*botishgacha tortilgan edi, yana bu uch*  
*kumush o'q qorong'ilik tarafga ketar*  
*edi. Uyqudan so'ng Ulug' Turuk tushida*  
*ko'rganini O'g'uz xoqonga bildirdi.*  
*Yana aytdiki, ey xoqonim, senga*  
*davlating buyursin abadiy, ko'k*  
*Tangri berdi menga tushimda ayon, ezgulik keltirsin,*  
*qo'lga kiritilgan yerlarni urug'iga bo'lib bersin,*  
*dedi. O'g'uz xoqon Ulug' Turukning*  
*so'zini ma'qul ko'rди, maslahat*  
*qilmoqchi bo'ldi, maslahatga kirishdi. Shundan*  
*so'ng ertalab kattayu kichik*  
*o'g'illarini chorlab keltirdi, yana aytdiki, ey mening*  
*o'g'illarimi, ko'nglim ov qilmoqni istaydi, keksayganim*  
*uchun quvvatim yo'qdir. Kun,*  
*Oy, Yulduz, tong sariga sizlar boringlar.*  
*Ko'k, Tog', Dengiz, tun sariga*  
*sizlar boringlar, dedi. Shundan keyin*  
*uchovi tong sariga ketdilar, yana uchovi*

*tun sariga ketdilar. Kun, Oy,  
Yulduz ko 'p kiyiklar, ko 'p qushlar  
ovlaganlaridan so 'ng, yo 'lda bir oltin yoyni  
topdilar, oldilar, otasiga berdilar.*

*O'g'uz xoqon sevindi, kuldi, yana uni  
uchga bo 'ldi, yana aytdiki, ey o 'g'illarim,  
yoy bo 'lsin sizlarniki yoydan  
o 'qlarni ko 'kka otinglar, dedi.*

*Keyin, shundan so 'ng ovdan keyin Ko 'k, Tog',  
Dengiz ko 'p kiyiklar, ko 'p qushlar ovlaganlaridan  
so 'ng, yo 'lda uch kumush o 'qni topdilar, oldilar, otasiga  
olib keldilar. O'g'uz xoqon sevindi, kuldi, yana o 'qlarni  
uchoviga bo 'lib berdi, yana aytdiki,  
ey o 'g'illarim, o 'qlar bo 'lsin sizlarniki,  
yoy otqi o 'qni. O'qlarday sizlar bo 'ling, dedi.*

*Keyin, shundan so 'ng O'g'uz xoqon katta qurultoy  
chaqirdi, navkarlarini, xalqini  
chorladi. Ular kelib kengashib o 'tirdilar. O'g'uz  
xoqon katta o 'rtada... o 'ng yoqda  
qirq quloch yog 'ochni tikka qildirdi. Uning  
boshiga bir oltin tovuqni qo 'ydi, oxiriga  
bir oq qo 'yni bog 'ladi. Chap  
tarafiga ham qirq quloch yog 'ochni tikka  
qildirdi. Uning boshiga bir kumush tovuq qo 'ydi,  
oxiriga bir qora qo 'yni bog 'ladi.*

*O 'ng tarafda Buzuklar o 'tirdi.  
Chap tarafda Uchuklar o 'tirdi.  
Qirq kun, qirq kecha edilar,  
ichdilar, xursandchilik qildilar. Shundan so 'ng O'g'uz  
xoqon o 'g'illariga mamlakatni bo 'lib berdi. Yana aytdiki,  
ey o 'g'illarim, men ko 'p yashadim, janglarni ko 'p  
ko 'rdim.*

*Yoy bilan ko 'p o 'q ottdim, ayg 'irim bilan ko 'p yurdim,  
dushmanlarni yig 'latdim, do 'stlarimni men*

*ko'p xursand qildim. Ko'k Tangri oldida men o'z  
burchimni  
o'tadim, sizlarga beraman yurtimni, dedi.*

«O‘g‘uznoma»da xoqonning Hindiston, Tibet, Suriya kabi mamlakatlarga yurish qilishi ko‘plab turkiy xoqonlarning janglarini umumlashtiradi. O‘g‘uz xoqon o‘zi egallagan hududlarda beklarini qoldirib, ularga berilgan joylarni Qipchoq, Qorliq, Qalach, Qang‘a kabi nomlar bilan atashi sak (soqo) turklar tomonidan yaratilgan «Shu» dostonidagi voqealarga ancha yaqin turadi.

## **«TURK XOQONI SHU VA ISKANDAR» DOSTONI**

Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlar o‘rtasida bo‘lib, ularning urf-odati, til va adabiy boyliklarini o‘rganib yurar ekan, unga Muhammad Jaqir To‘nqaxonning o‘g‘li Isrofil To‘g‘antegin otasidan eshitgan turk xoqoni Shu haqidagi bir rivoyatni aytib beradi. Bu rivoyatda Iskandar turkiylar mamlakatiga bostirib kelganida Shu ismli xoqon unga qarshi kurashganligi voqealari aks etgan. Rivoyat yoki doston parchalari devonning I va III kitoblarida o‘rin olgan. Parchalar mazmunan bir-biriga bog‘langanida ulardan tugal bir syujetga ega bo‘lgan asar yuzaga keladi. Bu asarni syujetni rivojlantiruvchi qahramonlar nomi bilan shartli tarzda «Turk xoqoni Shu va Iskandar» dostoni deb atash mumkin.

Iskandar Zulqarnayn turkiylarning shahar va qishloqlarini bosib ola boshladi. U Samarqanddan o‘tib, turkiylarning boshqa shaharlari tomon yo‘l olgan vaqtarda turklar shohi Shu degan yosh bir yigit edi. Xoqon Shu katta va qudratli qo‘sish egasi edi. Balasog‘un yaqnidagi Shu shahrini bu shoh fath qilgach, qurdirdi. Bu shaharda har kuni beklar uchun uch yuz oltmish marta dovul chalinar edi.

Turklar Iskandar bostirib kelayotganligini eshitib, vahimaga tushib qoldilar. Shuning yaqinlaridan biri jur'at etib, unga shunday dedi:

— Iskandar yaqin kelib qolibdi. Bizlar u bilan urushamizmi? Nima chora buyurasiz?

Shu yosh bo'lsa-da, tadbirkor, harbiy sirlarni ehtiyoj tutuvchi, lekin dushmanni mag'lubiyatga uchratishning juda ko'p usullarini biladigan kishi edi. Shu sababli bo'lsa kerak. Iskandarning yaqin kelib qolganidan vahimaga tushmadi. Xoqon allaqachonlar Iskandar lashkari yaqin qolganligini eshitgan, uning shahar atrofidan o'tib ketishini bilib, xabar berish uchun Xo'jand daryosi qirg'og'iga bir guruh ayg'oqchilarni yuborgan edi. Lekin ayg'oqchilar yashirinchalik ketishgan edi. Shuning uchun ham xoqonning yaqin kishilaridan birortasi ayg'oqchilarning ketganini bilmas edi. Xoqonning ko'ngli bu borada tinch edi.

Shu «Iskandar bilan kurashamizmi?» deb savol bergan kishilarga o'zining kumush hovuzini ko'rsatib, shunday dedi:

— G'oz, o'rdaklarga qaranglar, ular suvgaga qanday sho'ng'ishadi!

Shuning kumushdan yasalgan hovuzi bor edi. U safarga chiqqanda uni ham o'zi bilan birga olib ketardi. Hovuzga suv to'ldirilgach g'oz, o'rdaklar unga sho'ng'ishar edi.

«Iskandar bilan urushamizmi, nima buyurasiz?» degan savolga Shuning bergan javobi odamlarni o'ylatib qo'ydi. Ular bu gapdan: «Xoqon Iskandar bilan urushmoqchi ham, biror yoqqa chekinmoqchi ham emas», deb hayron qoldilar.

Iskandar turklarning shahri yonidan o'tdi. Ayg'oqchilar uning o'tib ketganini Shuga kechasi kelib aytdilar. Turk xoqoni o'sha kechasiyoq dovul chaldirdi va Sharq tomonga yo'l oldi. Shoh hech bir tayyorgarliksiz yo'lga chiqqanini ko'rgan xalq orasida «Biror ko'ngilsizlik yuz bermasa edi», degan xavotir paydo bo'ldi. Ulov topganlar shoshilgancha uning ustiga tashlanib, xoqon

orqasidan ergashdilar. Shoshganlaridan unisi bunisining ulovini, bunisi unisining ulovini minib olgan edi. Tong otguncha lashkargoh baland yet shakliga kirdi. U vaqtarda Tiroz, Islijob, Balasog'un va boshqa shaharlar bino qilinmagan edi. Xalq hali ko'chmanchiligi bois chodir-o'tovlarda yashardi. Xoqon va uning qo'shirlari bilan ketish uchun ulov topolmay yigirma ikki kishi oilasi, bola-chaqalari bilan o'sha yerlarda qolib ketdi.

Shu qo'shirlariga ergasha olmasdan qolib ketgan oila boshliqlarining nomi shunday: Qiniq, Qayig', Bayun, Iva Solg'ur, Ofshor, Begtili, Buktuz, Boyot, Yozg'ir, Eymur Qorabo'luk, Olabo'luk, Igdar, Urakir, Tutirqa, Ulayundlug'. To'gar, Bajanak, Juvoldor, Japni, Jarug'luq.

Ana shu yigirma ikki xonadon vakillari Shu orqasidan «Yayov boramizmi yoki shu joyda turaveramizmi», deb maslahat qilayotgan edilar, ularning yoniga yana ikki kishi kelib qo'shildi. Bola-chaqasi ham o'zları bilan birga edi. Ular yuklarini orqalariga ortib olgan holda qo'shin orqasidan borayotgan edilar. Bechoralar charchab qiyngangan, og'ir yuk ostida qora terga botgan edilar. Ikkala oila qolib ketgan yigirma ikki oilaga duch kelgach, ular bilan gaplashib qoldilar. Qo'shin ketidan borishmaslik to'g'risida kengashib oldilar.

Ikkala oila ularga:

Ey odamlar, Iskandar yo'lovchi odamdir. U bir yerda turmaydi. Bizning yerlarda qolib ketmay, o'tib ketadi. O'z yerimizda o'zimiz qolamiz.

Yigirma ikki oila ikki oilaga aytdilar:

- Qal, ach! Shu yerda turinglar!

Ularning bu so'zi «Och qolinglar» ma'nosida edi. Ana shu ikki oiladan turkiylarning xalach qabilasi yuzaga keldi. Xalachlar ikki qabiladir.

Yigirma ikki oiladan esa turk o'g'uzlarining 22 qabilasi yuzaga keldi va qabila oila boshliqlarining nomi bilan ataldi.

Iskandar yigirma ikki qabila shoh Shuning orqasidan keta olmasdan to‘planib turgan joyga yetib keldi. To‘plangan kishilar Iskandarga idrokli odamlar bo‘lib ko‘rindi. Ularda turkiy qabilalarning nishonasi bor edi. Iskandar bu odamlarning kimligini so‘ramasdan «turkmonand» dedi. Bu so‘z «turklarga o‘xshashdir», degani edi. Shundan so‘ng bu nom «turkman» nomi ularga nisbatan aytildigan bo‘ldi. Aslida ular yigirma to‘rt qabiladir. Lekin xalachlardan ikki qabila ba’zi sabablardan o‘zlarini ulardan ayiradilar. Shuning uchun ular o‘g‘uzlardan hisoblanadi.

Shu Chin shahriga yetib keldi. U Iskandarning orqasidan tushgan edi. Uyg‘urlarga yaqin bir joyda shoh Shu Iskandarga qarshi qo‘sishin yubordi. Avval shoh Shu yosh yigitlardan iborat askarlarni yo‘llagan edi. Vazir shohga aytди:

Siz butunlay yoshlarni chiqardingiz. Aslida katta yoshli, urush ishlarida tajribasi bor odamlarni yuborish kerak edi.

Shu aybini tan oldi. Urushga katta yoshli kishilarni yo‘lladi. Iskandarga qarshi urushga to‘rt ming odam jo‘natildi. Turk askarlarining boshlaridagi baland qalpoq parlari xuddi lochin qanotiday edi. Turk askarlari o‘qni oldindan qanday mohirlik bilan otsalar, orqadan ham shunday ustalik bilan otar edilar. Bularga Iskandar hayron qoldi va forsiy tilda «inan xud xo‘rand» - bular o‘zi topib yeguvchilar, boshqalarga muhtoj bo‘lmovchilar, ya’ni, bulardan ov qochib qutulmaydi, qachon xohlasalar otib yeydilar, dedi. Shundan so‘ng bu viloyat Xudxo‘r deb nom oldi.

Turk askarlari kechasi Iskandarning oldingi qo‘sishinlariga hujum qildi va ularni yengdi. Urush juda dahshatli bo‘lgan edi. Xoqon Shuning yigitlaridan biri Iskandar askarlaridan birini qilich bilan urib, kindigigacha ikkiga ajratib yubordi. O‘lgan askarning belbog‘ida oltin hamyonи bor ekan. Hamyonga qilich tegib, kesilib ketdi. Undan qonga bo‘yalgan oltinlar sochilib ketdi. Ertasi kuni turk askarlari qonga

bo‘yalgan oltinlarni ko‘rib, bir-birlariga «bu nima? deyishat» va «altun qan» – «qonli oltin» deb aytishar edi. Bu joydag‘i olin tog‘ shu nom bilan ataladigan bo‘ldi. Uyg‘urlar yaqinidagi bu tog‘ atrofida ko‘pgina sahroyi turklar yashaf edilar.

Iskandar arg‘ular shahriga yetganda qattiq yomg‘ir yog‘ib, yerlar ley, botqoq bo‘ldi. Iskandar loydan yutolmasdan qoldi. U xafa bo‘lib, forsiyda «in chi gil ast?» - bu qanday loyki, qutulolmaymiz deb g‘azablandi. Iskandar bu joyda bir bino qurishni buyurdi. Keyingi davrda bu joyda Chigil deb atahuvchi bir qo‘rg‘on ham qurildi. yerda yashovchi turkiy qabilalar ham shu nom bilan chigil deb ataladigan bo‘ldi. Shundan so‘ng bu nom har tomonga tarqaldi. O‘g‘uzlar chigillar bilan har vaqt urishar edilar.

Og‘ir urushlardan so‘ng Iskandarning askarlari toliq a boshladilar. Ularning oziqlari ham kamayib qolgan edi. Askarlar ochlikdan qo‘rqib, Iskandarga «och qo‘yma, och tutma» mazmunida «bizni tutma ach» qo‘yib yubor, yurtimizga ketaylik, dedi. Iskandar bilimdonlar bilan kengashdi va ular to‘yimli bir ovqatni tayyorlashni maslahat berdilar. Bu ovqat hazim bo‘lgach, suvidan ham ichilar edi. Turklar bu ovqatni «tutmach» deb atadilar. Aslida, «tutma ach», ya’ni «och tutma» demakdir.

Dahshatli urushdan askarlar qiynalib ketganlaridan so‘ng Iskandar turk xoqoni Shu bilan sulk tuzishga majbur bo‘ldi. Iskandar kelishuvga binoan uyg‘ur shaharlarini bino qildi. Bir necha vaqt shu yerda yashab turdi. Iskandar turk xoqoni bilan tuzgan bitimga ko‘ra beshta shaharni qurdi. Ular quyidagilar: So‘lmi, Ko‘ju, Janbaliq, Beshbaliq, Yangi baliq. Beshta shaharni birlashtirgan viloyatning nomi Uyg‘urdir.

Iskandar turklar mamlakatidan o‘z yurtiga qaytib ketgach, shoh Shu Balasog‘unga qadar bo‘lgan joylarini o‘ziga tobe qildi. O‘zining nomi bilan ataladigan Shu

shahrini qurdi. U yerda bir tilsim yasashni buyurdi. Bu tilsim yurtga bostirib kelayotgan dushman qo'shinlarini qaytaruvchi qalqon timsolida edi. Aytishlaricha, hozirgacha hatto uchib kelayotgan laylaklar ham shu tilsimli shahar tepasiga kelganida to'xtab qolishar, undan o'ta olmas ekan. Bu tilsim hozir ham bor emish.

## ERGUNA KUN

Qadimgi turkiy qavmlarga nom berilishi to'g'risida ko'plab rivoyatlar yaratilgan. Ulardan yana biri «Erguna kun» deb nomlanadi.

...Boshqa qabilalar mo'g'ullar ustidan g'olib kelib, ularni shunchalik qirib tashladilarki, faqat ikki erkak va ayol tirik qoldi, xolos. Bu ikki oila qochib, bir joyga borib qoldilar. Bu joyning gir atrofi tog'u o'rmonlardan iborat bo'lib, tor, yurish qiyin bo'lgan so'qmoqlardan boshqa bironta yo'l yo'q edi. Bu tog'larning o'rtasi kattakon yaylov, havosi musaffo cho'l edi. Bu joyning nomi Erguna kun edi. *Kun* – tepe, yonbag'ir, *epguna* – tik degan ma'noni bildiradi, boshqacha aytganda, «tik qoya» demakdir. O'sha odamlardan birining ismi Nukuz, ikkinchisiniqi Qiyot edi. Bu ikkala oila bu yerda uzoq vaqt qolib ketdilar va ko'paydilar.

– Ularning har bir tarmog'i alohida nom oldi va maxsus aymoq bo'ldi. Aymoq – ma'lum urug' va suyakka mansublikni bildiradi. Bu aymoqlar yana ham tarmoq otdilar. Hozirgi paytda mo'g'ul qabilalarida shunday qoida o'rnatilgan: o'sha tarmoqlardan kelib chiqqanlar aksariyat holatlarda o'zaro qarindoshdirlar, mo'g'uldurulganlar bularning tub asosidir. *Mo'g'ul* so'zi dastlab *mungol*, ya'ni «zaif» va «ochiq ko'ngil» ma'nolarini ifodalagan. *Qiyon* mo'g'ulchada pastdan quyiga oqib tushayotgan «katta oqim», «jo'shqin, shiddatli, kuchli» ma'nosini bildiradi.

Chunki qiyon urug‘i jasur, qo‘rqmas bo‘lgan edilar, bu so‘z ularning nomiga asos bo‘ldi. *Qiyot* – qiyonning ko‘pligidir. Qadimda bu urug‘ning ibtidosini qiyot deb ataganlar.

Bu tog‘ va o‘rmonning o‘rtasida xalq ko‘payib, yer torlik qilib qoldi. Endi ular «Qanday qilib bu daradan, tor so‘qmoqdan osonlikcha chiqib olsak bo‘lar ekan», deb bir-birlari bilan maslahat qildilar. Nihoyat, ular ilgari temir koni bo‘lgan joyni topdilar. Ilgari bu yerda temir eritilar edi. Hammalari to‘planishib, o‘rmonda o‘tin va ko‘mir yig‘dilar, yetmishta ho‘kiz va otni so‘yib, terisini shildilar va temirchilarning bosqonini yasadilar. So‘ngra o‘tin va ko‘mirlarni qiyalikning ostiga qo‘yib, yetmishta bosqon bilan olovni puflab yondirdilar. Oxiri qiyalik erib tushdi. Natijada u yerdan juda ko‘p temir qazib oldilar va shu bilan birga o‘tish joyi ham ochildi. Hammalari birgalikda ko‘chib, bu tor joydan keng cho‘lga chiqdilar. Aytishlaricha, bosqon bosganlar qabilaning asosiy shoxobchasi bo‘lib, kiyon urug‘iga mansub edilar. Nukuz degan urug‘ va bu urug‘ning bir tarmog‘i bo‘lgan urunqut ham qiyon urug‘i kabi bosqon bosgan edilar.

Boshqa ba’zi qabilalar «Bosqon bosishda biz ham ishtirok etganmiz», deb da’vo qiladilar. Lekin yuqoridagi qabilalar ularni tan olmaydilar. Bir necha tarmoqlardan iborat bo‘lgan qo‘ng‘iroq qabilasi Erguna kunda Nukuz va Qiyondan paydo bo‘lgan bo‘lsalarda, boshqalardan oldin hech qanday maslahatsiz, boshqa qabilalarning o‘choqlarini bosib, daradan chiqib ketdilar. Yuqoridagi qabilalarning tasdiqlashlaricha, qo‘ng‘iroq qabilasi boshqalar bilan maslahatlashmay, hammadan oldin daradan chiqib, boshqalarning olovi va o‘choqlarini oyoq osti qilganlari uchun oyoq og‘rig‘iga duchor bo‘lganlar. Qo‘ng‘iroq qabilasini esa (boshqa qabilalar) xafa qilganlar...

## **QADIMGI QIRG'IZLAR VA «MANAS» DOSTONI**

Qirg'izlar tarixi miloddan avvalgi asrlardan boshlanadi. Fanda VII-III asrlarda Qirg'izistonning shimolida saklar yashaganligi isbotlangan. Qadimda Oltoy turklarining bir qavmi Boyko'lning sharq tarafiga, Enasoy daryosining bosh qismlariga ko'chib kelib yashaganlar. Miloddan avvalgi (202-yil) xitoy manbalarida qirg'iz qavmi haqida ma'lumotlar beriladi. Qirg'izlar o'zlarini o'g'uz qavmiga bog'laganlar. «Qirg'iz» nomi «qir-o'g'iz», ya'ni qirda, sahroda yashovchi o'g'uzlar degan ma'no berishi taxmin qilinadi.

«Manas» – qirg'iz xalqining juda qadimiy zamonlarda yuzaga kelgan adabiy merosi namunasidir. Akademik V.V.Radlov ham bu asarda yunon epopeyalariga xos xususiyatni ko'rgan edi. «Manas» – qirg'iz xalqi o'rtasida uzoq asrlar davomida aytilgan va shakllangan eposdir. Ch.Valixonov e'tirof etganidek, «Manas» barcha qirg'iz asotirlari, ertaklari, afsonalariga xos qahramonlik belgilarinini bir shaxs – Manas shaxsida umumlashtira olgan eposdir.

Tarixiy manbalarda «Manas» XVI asrlarda qirg'iz xalqi o'rtasida kuylanganligi e'tirof etiladi. Albatta, bu dostonning yaratilish davrini belgilamaydi. «Manas»da bu epos syujeti juda qadimiy davrlardan yuzaga kelganligini ko'rsatuvchi tasvirlar yetarli. Manasning onasi Chiyirdi o'lgan yo'lbarsning yuragini yeyishi Manasga yo'lbarsga xos jasurlik baxsh etadi. Bunday tasvir qozoq eposidagi bo'lg'usi qahramon Shorabotirga homilador ona obrazida ham berilgan. Sher yoki arslonning yuragini kuch-quvvatlilik ma'nosida iste'mol qilish voqealari qadimgi skandinav va boshqa xalqlarning eposlarida ham keltirilgan. Bunday tasvirlarning asosida magiya -- afsungarlik turadi.

Qadimiylik qatlamlari saqlangan eposlarda qahramonlar o'z kuch-qudratini bolaligida namoyon etadilar. Masalan, Alpomish birinchi qahramonlik jasoratini yetti, Nurali o'n.

Ravshan yetti, qozoq eposi «Orak va Mamay»da esa Qorasoy to‘qqiz, Qazi yetti yoshida ko‘rsatadilar. Bunday voqeal Manas taqdirida to‘qqiz yoshida sodir bo‘lgan. V.M.Jirmunskiy qahramonlar tarbiyasi cho‘ponlar oilasida kechishi haqidagi tasvirlar ham qadimgi turkiy adabiyotlarga xos hodisa deb hisoblaydi. Manasning bolaligi cho‘pon Oshkur oilasida o‘tadi. «Manas» qadimgi eposlar bilan mushtaraklik tasvirlariga ega.

«Manas» eposi obrazlar va g‘oya yo‘nalishi, syujetini rivojlantiruvchi o‘zak voqealariga ko‘ra turkiy xalqlarning boshqa eposlariga ham yaqin turadi. Taniqli olim V.M.Jirmunskiy oltoylarning «Alp Manash» qahramonlik eposi bilan «Alpomish»ning syujetida qarindoshlik borligini ta‘kidlab o‘tgan edi. Demak, Alpomish va Alp Manash so‘zlari bir ma’noli va o‘zaklidir. Shuningdek, «Manash» va «Manas» ham bitta nomdir. «Manas» dostoni ham «Alpomish»dek qadimiylilik qatlamiga ega va bu eposlar yaratilishiga asos bo‘lgan syujetning manbai bittadir.

«Manas»ning yaratilish davri haqida turlicha qarashlar mavjud. Eposni professor M.O.Avezov, prof. A.N.Bernshtam O‘rxun-Enasoy davri (VII-IX), prof. B.M.Yunusaliyev oltoy davri (IX-XI), prof. A.K.Borovkov, prof. I.L.Klimovich jung‘orlar (XVI-XVIII) davrida yaratilgan deb hisoblaydilar. Birinchi faraz tarafдорлари O‘rxun-Enasoy yozuvlarida qirg‘izlar bosqinchilik qilgan uyg‘urlarni yengib, katta davlat qurbanligini asos qilishgan. Ikkinci guruhdagi olimlar «Manas»ga etnografik, jo‘g‘rofiy va til boyliklari nuqtai nazaridan yondashadilar. Chunki, Manas Oltoyda tug‘ilgan. Shuningdek, asarda tilga olingan Tirk‘ovut, O‘rangqoy, O‘yrat kabi urug‘lar o‘rta asrlargacha Oltoy tomonda yashagan. Tarixda X asrlarda mo‘g‘ul tiliga yaqin tilda so‘zlagan qora-xitoy bosqinchilari qirg‘izlar mamlakatiga hujum qilgani ma’lum. Eposda «qora-xitoy» va «xitoy»liklar qirg‘izlarga dushman qilib

ko'rsatilgani ham buning dalilidir. Uchinchi guruh manasshunoslardan eposda keyingi asrlardagi voqealar, jumladan, unda jung'or hujumlari (XVI-XVIII) aks etganligini asos qilib oladilar.

«Manas»ni qadimiy epos sifatida o'rganish ishiga birinchi marta qozoq ma'rifatparvari Cho'qon Valixonov asos solgan edi. U 1856-yilda alohida topshiriq bilan Sintszyan viloyatiga bora turib, «Manas» eposidan parchalar eshitadi va unga «Cho'l Iliadasi» deb baho beradi. «Manas» ham barcha xalq eposlariga xos xususiyat – asrlar o'tishi davomida shakllanib, syujeti yangi voqealar bilan boyib kelgan asardir. Xususan, eposning birinchi bo'limi – Manasning tug'ilishidan o'limigacha bo'lgan voqealar syujeti miloddan avvalgi davrlar mahsulidir.

Miloddan avvalgi Eron va Turon urushlari turkiy xalqlar og'zaki ijodida ko'plab asarlar yaratilishiga asos bo'lgan. Turkiylar o'z qahramonlik eposlarida Midiya shohlarining zolimligini qoralashar ekan, ko'p asarlarida ularni dushmanni yengishdag'i bir makrli yo'li – turk xoqonlarini ziyo fatga chaqirib, zaharlashi tasvirini beradilar.

Qirg'iz urug'lari Manas boshchiligidan birlashib, yengilmas kuchga aylanishi qalmoq shohi Esonxonga xavf tug'dira boshlaydi. U qirq urug'lik qalmoq, manju oqsoqollarini to'plab, Manasni yo'qotish maslahatini oladi. Esenxon topshirig'i bilan Manasni yo'qotishga aslida qirg'iz urug'laridan bo'lgan, lekin asirga tushib ketgan Ko'kchako'z, Ko'zqaman, Yoltimas, Changdiyoq, O'razon degan ayg'oqchilar jo'natiladi. Ular Manasga o'zlarini ota-onasi bilan qarindosh, ammo Esenxon dan jabr-zulm chekkan jigardosh qilib ko'rsatadilar. Qalmoq ayg'oqchilarini yillar o'tishi davomida Manasning ishonchini oqlaydilar. Qo'zqamon uyida Manas sharafiga ziyo fat uyushtiradi va bir kosa qalmoq arog'iga bir qatrasi jon olg'uvchi qirq yillik zahardan qo'shib uzatadi. Manas

behush yiqiladi. Doston ijodkori o‘z xoqonining o‘limini, zolim dushmanlar qo‘lida qolib azob chekishini istamaydi. Voqeadan xabar topgan xotini Xonikey uni olib qochib, qirq kun pana joyda davolab o‘ziga keltiradi.

«Alpomish» dostonida Alpomishni arslon va yo‘lbars sifatlari bilan atash tasvirlari kuchli. Hatto arslon uning ikkinchi nomi sifatida qo‘llaniladigan o‘rnlari ham bor. «Manas» dostonida ham bunday tasvirlar saqlanib qolgan. Zaharlangan Manas behush yotibdi. Qalmoq ayg‘oqchilar va o‘g‘illari qirg‘iz elidan «qora ko‘kyol sher» ketdi deb quvonishadi. Uning boshini Esenxonga tortiq qilib, oltin toj va taxtga ega bo‘lishni o‘ylashadi. Lekin o‘lim to‘sagida yotgan bahodirdan arslon salobatini ko‘rib, uning yoniga yaqinlasha olmaydilar:

*«Shunday xayollarga borib, Ko ‘kchako ‘z bilan Ko ‘zqamonning o‘g‘illari Manasni o‘rashib, ko ‘zi yumuq yotsa ham yondashib kelisha olmay, bir nima qilisha olmay turishibdi. Manasning bir yonida xuddi qora chipor qoplon turganday, bir yonida cho ‘loq ko ‘kyol arslon turganday, behush yotsa ham yaqin kelisha olmas, bitta Manasko ‘zlariga ming botirday ko ‘rinib, ko ‘ngillari bo ‘linib turgan kez, Manas ko ‘zini yumsa, qo ‘llariga nayza, bolta olishib, qurshab kelishadi. Manas ko ‘zini ochsa tumtaraqay qochishadi».*

«Alpomish» va «Manas» qiyosiy tipologik jihatdan o‘rganiladigan bo‘lsa, ularda quyidagicha yaqinlik tomonlari borligini ko‘ramiz:

1. «Alpomish» va «Manas» eposlari turkiy xalqlarning qadimiylari qatlamlari mavjud yodgorligi bo‘lib, har ikki asarning mavzui bitta, xalqning va epos qahramonlarining dushmani bosqinchili qalmoqlar.

2. Ikki eposning ham g‘oyaviy yo‘nalishi bir masalaga qaratilgan: tarqoq turkiy qabila va urug‘larni birlashtirish, turkiylarning yagona mamlakatini tuzish, kuchni mustahkamlab, bosqinchilarни yurtdan haydab chiqarish.

3. «Alpomish» hamda «Manas» eposida qabila pahlavonlarining taqdirida ham yaqinlik bor. Alpomish va Manas ota-onasining yolg‘iz farzandlari. Ularning har ikkalasi ham olti-yetti yoshida bahodir, alp sifatida ko‘rina boshlaydi.

4. Alpomish va Manas otga mehr bilan qarashadi, otni yigitning ko‘rki deb bilishadi. Ular tug‘ilgan kuni Manasning Oqulasi va Alpomishning Boychibori zotdor biyalardan tug‘iladi. Bu otlar epos davomida qahramonlarning yaqin do‘stiga, og‘ir mushkullarni echishda madadkor kuchga aylanadi.

5. Alpomish va Manas aqlli, go‘zal, jasoratli ayollar bilan oila quradi. Barchin va Xonekey mardlikda yigitlardan qolishmaydigan obrazlardir.

6. Ikki eposda ham asar qahramonlarining kelishmovchiligi manzaralari yaratilgan. Agar «Alpomish»da Boybo‘ri va Boysari qalmoqlar yurtiga ko‘chib ketsa, «Manas»da ko‘zkamonlarning qarindoshlari Manas bilan arazlashib, qalmoqlar yurtiga ko‘chib boradi va uning dushmaniga aylanishadi. Turkiy qabilalar o‘rtasidagi bunday ixtiloslar asar syujetini rivojlantirishga xizmat qilgan hodisalardandir.

Demak, bu ikki epos badiiy obrazning yaratilishi bitta o‘zakka, bitta syujet manbalariga asoslangan. Turli xil bosqinchilik urushlari bir mamlakat ostiga uyushgan turkiy qabilalarni dunyoning uzoq qit’alariga bo‘lib yuborishi hamda ularning urug‘larga, so‘ngra xalqlarga ajralib ketishidan qat‘i nazar bir xil syujetga ega bo‘lgan eposlarni o‘z xotiralarida saqlaganlar, ikkinchidan bu syujetni o‘z taqdirlari bilan bog‘lab rivojlantirganlar.

## «QO'RQUT OTA KITOBİ» VA UNING TURKIY ADABIYOTDA TUTGAN O'RNI

Adabiyotshunoslikda «Kitobi dada Qo'rqut» – «Qo'rqui ota kitobi» ozarbayjon xalq og'zaki ijodiga nisbat berilgan. Asar 1950-yilda Bakuda nashr etildi. Bu asar ozarbayjonlar o'rtasida VII-VIII asrlarda, hali ozarbayjon tilida yozma adabiyot unchalik taraqqiy etmagan bir sharoitda «Kitobi dada Qo'rqui» nomi bilan mashhur bo'lган. Eposga jahon adabiyotshunosligi katta qiziqish bilan qarab kelgan. 1815-yilda nemis sharqshunosi Dits (1751-1817) o'g'uzlarning o'n ikki qismidan iborat «Qo'rqut ota kitobi» asarini nemis tilida nashr ettirdi. Bu eposning qo'lyozmasi Drezden shahrining kutubxonasidan topilgan edi. Tarjima katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Chunki bu eposda Gumerning «Odisseya» asaridagi Polifem obraziga o'xhash bir ko'zli odam obrazi mavjud edi.

Xo'sh, «Qo'rqut ota kitobi» eposi qachon yaratilgan?

Turkiylarning o'g'uz urug'i VI-VIII asrlarda Oltoy va Markaziy Osiyoda, keyinchalik Kichik Osiyo, Povolje, Qofqazorti hududida yashay boshlashgan. «Qo'rqut ota kitobi»ning qo'lyozmasi XVI asrga mansubdir. Albatta, bu qo'lyozma uning shakllangan, tugal asarga aylangan nusxasidir. Epos syujetining tug'ilishi «Odisseya» singari miloddan avvalgi asrlarga to'g'ri keladi. Doston XII qismidan iborat.

«Qo'rqut ota kitobi»ni o'rganishda V. V. Bartold, V. M. Jirmunskiy, A. Kononov, A.Yu. Yakubovskiy kabi turkiyshunoslarning xizmati katta. Bu asarda turkiy xalqlar dostonlarida mavjud qahramonlar obrazi alohida o'rin egallagan. Bu esa «Qo'rqut ota kitobi» turkiy dostonlar majmuasini eslatadi. V.M.Jirmunskiy epos variantlaridan birida Aruz (ayrim variantlarda Uruz) Afrosiyobning o'g'li deb ko'rsatilganligini ta'kidlaydi. Turk olimi R.O'zdek tiklagan «Alp Er To'nga» dostonida esa Alp Ariz

Afrosiyobning ukasi, Peshengning ikkinchi o‘g‘lidir. Aruz «Qo‘rqt ota kitobi»dagi markaziy obrazlardan hisoblanadi va u ulkan pahlavon sifatida tasvirlanadi: «**To‘qson qo‘yning terisidan tikilgan po‘stini to‘pig‘iga yetmaydi, o‘nlab qo‘yning terisidan tikilgan telpagi sochini ham yopmaydi.** Tushligiga o‘nlab qo‘ylar yetmaydi». Alp Aruz bu xususiyati bilan afsonaviy turkiy bahodirlarni – Alpomish va Manasni eslatadi.

Alp Aruz o‘g‘uzlarning asosiy pahlavoni va xoqoni Qozonbek (yoki Salar Qozon)ning o‘g‘lidir. Demak, V. M. Jirmunskiy ko‘rsatganidek, Aruz Afrosiyobning o‘g‘li bo‘lsa, u holda Qozonbek Afrosiyobning muqobil nomlaridan biridir. Zotan, eposda uning «qabila va urug‘lar sheri», «qora olomon yo‘lbarsi», «qora to‘riq xo‘jayini» deb ulug‘lanishi turkiy adabiyotdagi Alpomish, Alp Er To‘nga obrazini yodga soladi.

Qozonbekning xotini Burla xotun. U o‘z eriga sadoqatli va mard ayol. U g‘ayri dinlarga asir tushgan o‘g‘li Aruzbekni ozod qilishda eri qatorida turib jang qiladi. Pahlavon ota, ona va o‘g‘il haqidagi syujetlar eposning II, IV, XI, XII qo‘shiqlarida o‘rin olgan.

Professor X. Ko‘ro‘g‘li ham «Qo‘rqt ota kitobi»da Afrosiyob afsonalari bilan bog‘liq syujet tasvirlarini ko‘radi. Uning kuzatishicha, Firdavsiyning «Shohnoma»sidagi Bajan va Maniji (Afrosiyobning qizi) obraziga xos xususiyatlar Bamsi va Bonuchechak obrazlarida berilgan. Bonuchechak ham o‘z xizmatkor qizlari bilan cho‘lda ov qilib yurganida bo‘lg‘usi eri bilan uchrashadi. Yoki Qo‘rqtuning o‘limdan qochib yurishi Afrosiyob («Shohnoma»dagi tasvirlar bilan qiyoslaganda) taqdirini eslatadi.

«Qo‘rqt ota kitobi» turkiylarning juda qadimiy asarlaridandir. Shu sababli ham unda o‘g‘uz qabilasiga ham mansub bo‘limgan turkiylarning orzu-umidlari,

qahramonlik fazilatlari, xoqonlarini ulug'lash ruhi singishib ketgan. Professor A. Fitrat bu eposda boshqa qahramonlik eposlarining ham syujetlarini ko'rgan edi: «Alpomish» dostonining oxirgi qismi (ya'ni, Alpomishning qalmoq zindonidan qutulib eliga qaytishi) ham «Kitobi dada Qo'rqt»dagi uchinchi hikoya: «Boy Bo'ri o'g'li Berek» hikoyasiga juda o'xshashdir». Bu fikrni T. Mirzayev shunday davom ettiradi: «Yozma manbalar orqali bizgacha yetib kelgan «Kitobi dada Qo'rqt»ning uchinchi bo'yi (dostoni) «Bamsi Bayrak» syujet voqealari jihatidan «Alpomish» dostoniga yaqin turadi. Bu syujetdagi bir dostonning bir necha xalqlarda mavjudligi ularning milliy o'ziga xosligini inkor etmaydi. Chunki bu dostonlarning qadimiy tarixiy-hayotiy asoslari bir bo'lsa-da, ularning har biri keyingi taraqqiyotda o'zлari mansub bo'lgan xalqning epik an'analari doirasida rivojlandi, og'zaki ijro va ijod sharoitlarida yashashda davom etdi».

Doston quyidagi syujetga ega: Boy Bo'rabeckning farzandi yo'q edi. U o'g'il ko'radi. Unga Bamsi deb ism qo'yadilar. Bijonbek qiz farzand ko'rsa, uning o'g'liga berishga va'da qiladi. Uning xotini qiz tug'adi. Unga Bonuchechak deb ism qo'yishadi. Bamsi pahlavon yigit bo'lib ulg'ayadi. U bozirgon qabilasini dushmanidan ozod qilganligi uchun Qo'rqt ota unga Bayrak (bo'z ayg'ir) nomini beradi.

Bamsi Bayrak ovda Bonuchechak bilan uchrashadi. U Bonuchechakni ot choptirish, o'q otish musobaqasida yengadi. Bijonbek avvalgi va'dasini unutib, qizini Boyburt qal'asining begiga ataydi. Josuslar unga bo'z otli Bayrak Bonuchechakka uylanishi haqidagi xabarni yetkazishadi. Boyburt qal'asi begining odamlari tunda Bayrak o'toviga bostirib kirishadi va uni yigitlari bilan birgalikda asir olishadi. Bamsi 16 yil asirlikda qoladi va Bek qizining yordamida ozod bo'ladi. Yurtiga kelsa ukasi Yoltojiq akam

o'ldi, deb Bonuchechakka uylanish to'yini qilayotgan edi. Bamsi o'zini tanitmaydi, devona niqobida to'yga qatnashadi. To'yda kamondan o'q otish musobaqasi bo'ladi. Nishon kuyovning uzugini urish edi. Devonasifat kishi Yoltojiqning yoyi bilan nishonni mo'ljalga oladi. Ammo u sinib ketadi. So'ngra Bamsining yoyini keltirishadi. Devona g'olib keladi. Kuyovning uzugi parchalanadi. Bamsi Bayrak tirik ekanligiga hamma ishonadi.

## **BOYBO'RABEK O'G'LI BAMSI BAYRAK HAQIDA QO'SHIQ (PARCHA)**

Xonim, hey! Kam Gan o'g'li Boyinturxon o'rnidan qo'zg'alib, chodirlarni tayyorlashni amr etdi. Ko'plab chodirlarni qurishni, yerga minglab ipak gilaqlarni to'shashni buyurdi. Ichki va tashqi o'g'uz beklari Boyinturxonning ziyofatiga to'plandilar. Boyinturxonning ziyofatiga Boybo'rabek ham keldi. Qora Quyunning o'g'li Qora Bo'dak kamoniga suyanganicha, Boyinturxonga yuzma-yuz o'tirdi. O'ng tomondan Qozonning o'g'li O'ruz, chap tomonda Qazilik Ko'ji o'g'li Iekenk joy oldi. Ularni ko'rgan Boybo'rabek ovoz chiqarib, og'ir xo'rsindi. Uning boshidan es-hushi yo'qolgan edi. Shu sababli qo'liga ro'molchasini olar ekan, qattiq tovush bilan ho'ngrab yig'lab yubordi. Uning holatini ko'rgan o'g'uz beklari hayratga tushdilar. Boyinturxonning kuyovi Solor Qozon Boybo'rabekning yuziga tikilar ekan, shunday dedi:

«Boybo'rabek! Nega yig'laysan, ko'z yoshi qilasan?»

Boybo'rabek javob berdi: «Xon, Qozon, nega yig'lamayin, nega ko'z yoshi to'kmayin? Mening o'g'lim yo'q, tojדורим yo'q, aka-ukam yo'q, madadkorim yo'q! Ulug' Tangrim meni jazoladi. Beklar men o'z tojдорим uchun, o'z taxtim

uchun yig‘layman. Shunday kun keladi, men jonsiz yiqilaman, lekin mening o‘rnimga, mening mol-mulkimga hech kim egalik qila olmaydi».

Qozon aytadi: «Sening orzuing shumi?»

Boybo‘rabek aytadi: «Ha, shunday? Qani edi, menda o‘g‘il farzand bo‘lsa, qani edi u Boyinturxon yonida bo‘lib, unga xizmat qilsa, men esa unga qarab shodlansam, quvonsam, faxrlansam».

Boybo‘rabek shu so‘zlarni aytganidan so‘ng boshqa o‘g‘uz beklari quyoshga qaradilar, qo‘llarini ko‘tarishib, duo qildilar: «Ulug‘ Tangri, senga o‘g‘il bersin», – deyishdi ular. Bu davrlarda beklarning sidqidildan aytilgan duolari, qayta-qayta o‘qilgan fotihalarini Tangri eshitardi. Boybijanbek ham o‘rnidan turib, shunday dedi:

«Beklar mening haqqimga ham duo qilinglar. Ulug‘ Tangri menga ham qiz bersin»

O‘g‘uzlarning qolgan beklari qo‘llarini ko‘tarishdi, duo o‘qishdilar: «Ulug‘ Tangri senga ham qiz bersin», – deyishdi ular.

Boybijanbek aytdi: «Beklar, agar ulug‘ Tangri menga qiz bersa. Sizlar guvohsizlar! Qizimni beshikda paytidayoq Boybo‘rabeckning o‘g‘liga kelinlikka aytib qo‘yanim bo‘lsin!»

Birmuncha vaqtlar o‘tdi. Ulug‘ Tangri Boybo‘rabecka o‘g‘il, Boybijanbekka esa qiz berdi. Bu haqda o‘g‘uzlarning barcha beklari eshitishib, xursand bo‘lishdi, quvonishdi. Boybo‘rabek o‘z savdogarlarini chaqirib, ularga topshiriq berdi: «Quлоq solinglar, savdogarlar! Ulug‘ Tangri menga o‘g‘il berdi. Sizlar yunon mamlakatiga boringlar, mening o‘g‘lim ulg‘aygunga qadar unga munosib sovg‘a keltirilgalar!»

Savdogarlar yo‘lga chiqdilar. Kechasiyu kunduzi yo‘l bosdilar. Ular Stambulga yetib kelishdi. Noyob va qimmatli mollardan xarid qildilar. Boybo‘raning o‘g‘li uchun bo‘z ayg‘ir, mustahkam yoy, olti cho‘qmorli gurzi oldilar.

Shundan so'ng yana vatanlariga qaytish uchun yo'lga otlandilar. Boybo'raning o'g'li besh yoshga to'ldi. Besh yoshdan o'nga, o'ndan o'n beshga o'tdi. U go'zal va botir yigit bo'ldi. Yugurishda burgut va kalxatlarni quvib yetardi. Bu davrda yoshlар qahramonlik ko'rsatib, biror dushmanning boshini kesmasa, qonini to'kmasa, unga ism qo'yilmas edi.

Boybo'rabeckning o'g'li otga minib, ovga jo'nadi. U yovvoyi qushlar izidan quvib, otasining yilqi to'dalariga to'g'ri kelib qoldi. Bosh yilqiboqar unga peshvoz chiqib, otdan tushirdi va ziyofat qildi. Shu paytda vataniga qaytayotgan savdogarlar ularning yonidagi darada qo'nishgandi. Onik qal'asining yovuz kishilari ularni kuzatdilar. Savdogarlar uxlaganidan so'ng besh yuz talonchi ularga hujum qildi va yuklarini taladi. Savdogarlarning kattalari asir olindi, yoshlari esa qochib, o'g'uzlar yoniga keldilar. Ular o'g'uzlar yerida chedir o'rnatilgani, unda o'zidan nur sochib turgan go'zal yigit o'tirganligini ko'rishdi. Uning o'ng va chap tomonida qirq yigitni bor edi. «Bu – o'g'uzlarning olijanob yigit. Uning oldiga boramiz, yordam so'raymiz» – deyishdi va unga murojaat etishdi:

«Yigit, yigit, bek yigit! Bizning arzimizni tingla, so'zlarimizga quloq sol! Biz o'g'uzlar mamlakatidan chiqib ketganimizga o'n olti yil o'tdi. Biz o'g'uzlarning bekiga boshqa mamlakatdan noyob va qimmatli mollar keltirdik. Biz Paseng darasida joylashgan edik. Bizga Onik qal'asidagi g'animgardan besh yuz kishi hujum qildi... Mollarimizni talon-taroj qildilar va qochib ketdilar. Bizning og'alarimiz asirga tushdilar. Biz senga boshimizni egib keldik. Yigit, bizning boshimizni qutqaz, bizga yordam ber!»

Bazmda o'tirgan alpqomat yigit may ichishdan to'xtadi. Oltin qadahini yerga uloqtirdi va savdogar yigitlarga yuzlandi: «Nima deding? Meni boshlab bor! Mening kiyimlarimni, tez chopar otimni keltiringlar. Menga safdosh bo'lishni xohlagan yigitlar otlariga minishsin!»

Savdogarlar oldinga tushishib, yo'l ko'rsatib borishdi. Talonchilar bir joyga to'xtashib, tortib olingan pullarni taqsimlashayotgan edi. Ularning yoniga sher yurakli, arslon kelbatli botir yigit yaqinlashdi. Bir so'z demasdan, yo'lto'sarlarga qilich soldi. Ulardan bosh ko'targanini o'ldirdi. Adolat uchun jasorat ko'rsatdi. Savdogarlarga mollarini olib berdi.

Savdogarlar shunday deyishdi: «Bek yigit, sen mardlik ko'rsatding, bizga yordam berding. Kel, bizning mollarimizdan nimani xohlasang, shuni ol!»

Yigitning ko'zi bo'z ayg'irga, olti cho'qmoqli gurziga va osin daraxtidan yasalgan kamonga tushdi. Ana shu uch buyum unga yoqib qolgan edi. Shu sababli u bunday dedi:

«Quloq solinglar, savdogarlar! Bu bo'z ayg'irni, kamonni va gurzini menga beringlar».

Bu so'zni eshitishib, ular ma'yus tortishdi. Yigit aytdi: «Savdogarlar, gapiringlar, men sizlardan ko'p narsa so'radimmi?»

Savdogarlar javob berishdi: «Ko'p narsa emas! Lekin bizning bekimizning bir o'g'li bor. Biz bu uch buyumni unga sovg'a qilishimiz kerak».

Yigit so'radi: «Beklaringizning o'g'li kim?»

Ular aytishdi: «Bu – Boybo'raning o'g'li, uning ismi Bamsi».

Savdogarlar shunday javob berishdi. Lekin Boybo'raning o'g'li ularning qarshisida turganini bilishmas edi. Yigit barmog'ini tishlab, xayolga cho'mdi: «Bu yerda hojatning evaziga olgandan ko'ra, yaxshisi otamning huzurida iltifotsiz olganim ma'qul». U otiga egar-jabdug'ini bosib, yo'lga tushdi. Savdogarlar uning izidan termilib qoldilar: «Xudo haqqi, olijanob yigit, mard yigit ekan», – deyishardi ular.

Yosh bahodir yigit uyiga, otasi huzuriga keldi va savdogarlar qaytishganligi haqidagi xabarni aytdi. Otasi

xursand bo'ldi, savdogarlar sharafiga chodir o'rnatish, ipak gilamlarni to'shashni aytdi. O'z o'g'liga o'ng tarafga o'tirishni buyurdi. Yigit savdogarlar bilan bo'lgan voqeani, yo'lto'sarlarning mag'lubiyati to'g'risida bir so'z demadi. Savdogarlar kelishdi, boshlarini egib, bekka ta'zim qilishdi, shu payt ko'zлари talonchilarning boshini olgan, qonini to'kkan yigitga tushdi. U Boybo'rabekning o'ng tomonida o'tirar edi. Savdogarlar kelib, yigitning qo'lidan o'pdilar, bu iltifotni ko'rGAN Boybo'rabek qahrlandi va savdogarlarga shunday dedi:

«Yaramaslar! Yaramasdan tug'ilganlar! Sizning qarshingizda otasi turgan paytda o'g'lining qo'lidan o'padilarmi?».

Ular shunday javob berdilar: «Xonim, hey! Bu yigit sening o'g'lingmi?!»

«Ha, bu mening o'g'lim bo'ladi», – dedi bek.

Ular aytdilar: «Agar shunday bo'lsa, biz uning qo'lini avvalroq o'pganimizdan sen qahrlanma, xonim! Agar sening o'g'ling bo'limganida, bizning mollarimiz Gurjistonda yo'qolardi. Biz hammamiz asirlikda qolardik». Boybo'rabek aytdi: «Chindan ham mening o'g'lim g'ayridinlarning boshini oldimi, qonini to'kdimi?!»

«Ha, u boshini oldi, qonini to'kdi, kurashda yerga yiqitdi», – dedi savdogarlar.

«Demak, bu o'spiringa nom berishning vaqt kelibdi-da?»

«Ha, mening sultonim, vaqt juda kelgan».

Boybo'rabek o'g'uzlarning boshqa beklarini yig'di, ularni ziyofat qildi. Ziyofatga Qo'rqu ota ham keldi, yigitga ism qo'ydi. U aytdi:

«Mening so'zlarimni tingla, Boybo'rabek! Ulug' Tangri senga o'g'il berdi, saqlaguvchi ham uning o'zidir. U qora kunlarda bizning suyanchig'imiz bo'ladi. U bizning oldimizdag'i qora qayg'ularni ko'taradi. Ulug' Tangri uning yuksalishiga yordam beradi, toshqin daryolarni iziga soladi.

Ulug‘ Tangri sening o‘g‘lingga kofir talovchilarga qarshi kurashda omad beradi, sen o‘g‘lingni Basam deb ataysan. Endi uning ismi Bamsi Bayrak, bo‘z ayg‘irning xo‘jayini bo‘lsin. Uning ismini men berdim. Uzoq umrini unga Tangri bersin!» O‘g‘uz beklari qo‘llarini ko‘tarishib, duolar qildilar: «Bu nom shu yigitga baxt keltirsin», – deyishdi ular.

Hamma beklar ovga ketishdi. Bayrak bo‘z ayg‘irini keltirishni buyurdi va unga o‘tirdi. Favqulodda o‘g‘uzlarning oldidan echkilar podasi o‘tib qoldi. Bamsi Bayrak ulardan birining orqasidan quvdi. Echki uzoq qochdi va nihoyat bir joyga kelib to‘xtadi. Bekimiz u yerda nimani ko‘rdi, deb o‘ylarsiz? Ko‘m-ko‘k maysalar bilan qoplangan o‘tloqqa qizil chodir o‘rnatilgandi. «Bu chodir kimniki bo‘lishi mumkin?» – deb o‘yladi Bamsi Bayrak ajablanib. U bu chodirda go‘zal qizlar borligini sira o‘ylamagan edi. Chodirga yaqinlashar ekan, avval hayajon bosdi, nihoyat shunday xulosaga keldi: «Nima bo‘lsa ham mayli, men o‘z ulushimni olaman». U chodirga kirdi, echkini so‘ydi va atrofga qaradi. Bu chodir beshikdayoq Bamsi Bayrakka atalgan Bonuchechakniki edi. Bonuchechak Bamsi Bayrak qilayotgan ishni ko‘rdi. «Qaranglar, qizlar! Qandaydir bir yaramasdan tug‘ilgan bizga bahodirligini namoyish qilmoqda. Boringlar, ovdan bizga ham ulush talab qilinglar-chi, nima der ekan?!» – dedi u.

Ayollardan biri, uni Qisircha checha deb aytishardi, Bamsi Bayrakning oldiga bordi, ulushni talab qildi: «Bek yigit, bizga ham echkining bir bo‘lagini ber», – dedi u.

Bayrak aytdi: «Hey, qiz! Arzimni eshit, men ovchi emasman, men bekning o‘g‘liman, hammasini olinglar, lekin savol bersam, xafa bo‘lmaysizlar. Bu chodir kimniki?»

Qisircha checha javob berdi: «Bek yigit, bu chodir Boybijanbekning qizi Bonuchechakniki».

Bu xabarni eshitgach, begimiz, Bayrakning qoni qaynadi, lekin odob bilan orqasiga qaytdi. Qizlar echkini olib

borishib, malika Bonuchechakning oldiga qo‘ydilar. U echkiga tikilar ekan, semiz, shohona ekanligini ko‘rdi. Bonuchechak aytdi: «Qizlar, u yigit kim ekan?».

Qizlar aytishdi: «Malikam, Tangri nomi bilan qasam ichamiz, yigitning yuzi parda bilan to‘silgan edi, lekin bu oljanob yigit, bek ekan, bekning o‘g‘li ekan».

Bonuchechak aytdi: «Qizlar, gapimga qulq solinglar, meni Bayrakka atashganligini aytishgan edi. Mabodo, yuzi yopiqlik yigit o‘sha emasmikin? Chaqiringlar, men undan so‘rab ko‘ray».

Bayrakni chaqirdilar. Bonuchechak yuziga parda solingan holda uni so‘roqqa tutdi: «Sen qayerdan kelmoqdasan, yigit?»

Bayrak aytdi: «O‘g‘uzlarning ichki mamlakatidanman».

«Ichki o‘g‘uzlardan kimsan, otang kim?» – dedi Bonuchechak.

«Mening otim Bamsi Bayrak, Boybo‘rabekning o‘g‘liman», – dedi u.

Malika aytdi: «Yigit, sen qanday orzu bilan biz tomonlarga kelding?»

Bayrak aytdi: «Boybijanbekning qizi bor. Men uning qizini ko‘rgani keldim».

Qiz aytdi: «U shundayki, senga ko‘rinishni sira xohlamaydi. Men Bonuchechakning xizmatkori bo‘laman. Kel, birga ovga chiqamiz. Agar sening oting mening otimdan o‘zib ketsa, bilgilki, uning otidan ham o‘zadi. Kamondan ham o‘q uzishamiz. Agar sen meni yutsang, bilgilki, uni ham yutasan. Keyin kurashga tushamiz. Agar sen meni yengsang, bilgilki, uni ham yengasan!»

Bayrak aytdi: «Roziman, otingga min!»

Ular o‘z otlariga o‘tirishdi. Ot choparga chiqdilar. Otlar tizginini qo‘yib yuborishdi. Bayrakning oti qizning otidan o‘zib ketdi. Kamondan o‘q uzdilar. Bayrak qizdan g‘olib keldi. O‘qi bo‘laklanib, parchalandi.

Qiz aytdi: «Yigit, gapimni eshit, shu paytgacha mening otimni hech kim quvib o'tolmagan, hech kim mening o'qimni bo'laklab tashlamagan edi. Endi esa kurashga tushamiz».

Bayrak otdan tushdi. Ular bir-birlarining belbog'idan ushlashib, ikki bahodirga o'xshab, kuch sinashga kirishdilar. Bayrak qizning oyog'ini yerdan uzib ko'tardi, yerga tashlashni o'yladi, qiz ham Bayrakni yuqoriga ko'tardi, lekin yerga urishni o'yladi. Bayrak biroz charchadi, o'zicha o'yladi: «Agar bu qiz meni yiqitsa, boshqa o'g'uzlar ichida uyatga qolaman, nomim kulgiga aylanadi».

Bayrak shu so'zlarni aytar ekan, kuch-qudratga to'lishdi, qizning belbog'idan ushlab, ko'targancha, avval ko'ksiga bosdi va so'ngra beli bilan yerga tashladi.

Qiz aytdi: «Yigit, Boybijanning qizi Bonuchechak men bo'laman!»

U shu so'zlarni aytganida Bayrak quvonganidan, uni uch marta o'pib va bir marta yuzlaridan tishlab oldi. «Xon qizi, endi bizga baxt to'yini o'tkazishning vaqtি keldi!», – dedi Bayrak va qo'lidagi oltin uzukni yechib, qizning qo'liga taqdi. Yana aytdi: «Bu uzuk tanishganimizning belgisi bo'ladi, xon qizi!»

Qiz aytdi: «Endi shunday voqeа bo'ldimi, orzuimizga yetishishimiz kerak, bek o'g'li!»

«Kim biladi, Tangri bizning peshonamizga nimalarni yozgan», – javob berdi Bayrak.

\* \* \*

«Qo'rquти ota kitobi»ning hamma dostonlarida Solor Qozon yetakchi obraz hisoblanadi. Chunki uning obrazida yurtboshining qiyofasi gavdalangan. Bayrak Boyburt qal'asida asirlikda yotganida o'tayotgan karvonlardan o'z yurtining egasi Solor Qozonni so'raydi. Solor Qozon to'ydagи musobaqani kuzatib turadi, Bayrakka qoyil qolib,

uni yoniga chaqiradi. Boyburtning qilmishini eshitib, uni mag'lub qiladi.

Qo'rqut ota xalqning quvonchli va tashvishli kunlarida ko'rinadigan, ularga maslahat va madad beradigan obrazdir. Shunday xususiyati bilan u bizga turkiy xalqlarning ilohiy maslahatchisi qiyofasidagi ulug' timsolni eslatadi. O'rni kelganda ta'kidlash kerakki, oltoy turkiylari osmon xudosini «Qo'r bo'ston» deb atashgan. Bizningcha, Qo'rqut – yaxshilik, baraka, baxt ulashuvchi, degan mazmunni ifodalaydi. Asar XV asrda yozib olingan. Bu uning hujjatlashtirilgan davridir. Aslida «Qo'rqut ota kitobi» Islom dini turkiy xalqlar hayotiga singishib ketmasdan ancha asrlar avval yaratilgan. Dostonning boshlanmasida Qo'rqut ota o'g'uzlar orasidagi eng birinchi odam deb ko'rsatilgan. Demak, Qo'rqut ota o'g'uzlar uchun tarixning boshlanishi, o'g'uz urug'lari undan tarqalganlar. Asardagi bunday dalil Qo'rqut ota haqidagi syujetlar miloddan avvalgi asrlarda tug'ilal boshtaganligini ko'rsatadi. Qo'rqut ota hamma narsani biluvchi, kelajakdan xabarlar beruvchi ulug' siymo sifatida tasvirlanadi. Uning bunday xususiyati miloddan avvalgi III minginchi yillarda yashagan Bilgamish xoqon haqidagi adabiy syujetlarni yodga soladi. Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarida Qo'rqut ota to'g'risida shunday fikrlar aytilgan: «Turk ulusi orosida shuhrati andin ortug'roqdurki, shuhratqa ihtiyoji bo'lg'ay. Mashhur mundoqdurki, necha yil o'zidan burunkini, necha yil so'nqini kelurni debtur. Ko'p mav'iza omiz mag'izliq so'zlar orada bor».

«Qo'rqut ota kitobi»dagi voqealar Qofqazorti hududlarida kechadi. O'g'uzlarning gruzinlar bilan jangi tasvirlariga keng o'rin berilgan. Tarixda miloddan oldingi VIII asrlardayoq gurjilar (Guriana) bilan kimmerlar (Gimirra) mamlakatlari o'rtasida keskin nizolar bo'lganligi haqida yetarlicha ma'lumotlar mavjud.

## OLTOY TURKIYLARI ADABIYOTI

Oltaylor qadimiy qahramonlik eposlariga boy turkiy xalqlardan biridir. Ularning yashash o'rni Janubiy Mo'g'uliston va Xitoydan G'arbiy Sibircacha bo'lgan kengliklardadir. Oltaylorning qahramonlik eposlari, ertak, qo'shiq, maqol va topishmoqlarida xitoy hamda jung'or bosqinchilariga qarshi kurash asosiy mavzu hisoblanadi. Fanda Oltoy kengliklarida odamlar juda qadim zamonlardan boshlab yashaganligi isbotlangan, paleolitga doir manzilgohlar topilgan. Turkiy qavmlardan xunlar, uyg'ular, Enasoy qirg'izlari, qoraxitoylar, mo'g'ullar yashaganlar. Miloddan avvalgi ikki ming yilliklarda qurilgan shahar qoldiqlaridan turli xil amaliy san'at namunalari qo'lga kiritilgan. Yaqin yillargacha (1948) oltoylilar oyrotlar nomi bilan atalgan. Qadimgi xitoy tarixchilari Oltoy turkiylarini to'-kyular deb nomlashgan va ularni «xyun-nu» – xunlarining bir qabilasi deb bilishgan. Mo'g'ulistonning O'rxun daryosi atroflaridan topilgan Kul tegin, Bilga xoqon va boshqa yodnomalar oltoy turkiylaridan qolgan yodgorlikdir.

Oltoy turkiylari boshqa, jumladan, Markaziy Osiyodagi turkiy qavmlar bilan yaqin aloqada bo'lishgan. Shu sababli ham ularning adabiyotida mushtaraklik tomonlari ham mavjud. Hozirgi turkiy qavmlar turli hududlarda yashashidan qat'i nazar, eng qadimgi dostonlarning syujetlari ularning har birining ijodida ma'lum darajada saqlangan. Masalan, «Alpomish» dostonining Markaziy Osiyodagi turkiylar (o'zbek, qozoq, qoraqalpoq)lardan tashqari, ozarbayjon va anatoliy turklari, boshqird va tatar, shuningdek, oltoy turkiylari o'rtasida aytilib kelinishi shundan dalolat beradi.

Professor V.M.Jirmunskiy oltoy turkiylarining «Alip Manash» qahramonlik eposini Alpomish haqida yaratilgan

dostonlarning eng qadimiy versiyalaridan biri deb hisoblaydi. Har ikki epos qiyosiy o'rganilganda, qahramonlar nomi (Alpomish – Alip Manash, otalari Boybo'ri – Boybo'rak) va syujetida (dostonlarning ikkinchi qismida Alpomish va Alip-Manash uzoq tutqinlikdan so'ng o'z yurtiga qaytadi hamda o'z xotinlarining «to'y»i ustidan chiqadilar) yaqinliklar bor.

Oltoy turkiylarning qahramonligi ulug'langan eposlar o'lkasi hisoblanadi. Bu asarlarning ko'pchiligidagi qadimgi turkiylarning diniy e'tiqodlari, rang-barang qahramonlik kurashlari aks etgan. «Xan-Pudey»da asar qahramoni osmon qizi – Tangrixonning qizi Teman – okoga uylanadi. «Ain-Shain-Shinshirga»da qahramon yerosti yovuzlik xudosi Erlik, «Altay buchay»da osmoniy dev Oqtoji bilan kurashadi. «Kelar Qush»da tabiatdagagi barcha jonli va jonsiz narsalar qahramon Kelar Qushga bo'ysunadi, uning g'alabalarini olqishlaydi. Quyoshli Oltoidagi barcha qushlar uning izidan uchadi, hayvonlar qo'shiq aytishib, uning orqasidan chopadi, tog'lar samo tomon bo'y cho'zadi, butun Oltoy unga qulq soladi.

«Olamning yaratilishi» va «Ku tay» afsonalari mazmun-mohiyati bilan juda qadimgi asarlardir. Ularda shomonlik va buddizm ta'limoti ruhi seziladi. Har ikki afsonada ham Erlik obrazi yaratilgan. Bu obraz Erlik, Erlik biy, Erlik xon, Erklik xon nomi bilan Oltoy turkiylari ijodida keng tasvirlangan. Erlik o'lim ma'budi bo'lib, Tangriga hasad qilgan va yer yaratishga uringan. Erlikning bu harakatidan Tangri g'azabga keladi va uni yer yuzida yashashdan mahrum etib, yerosti hokimligiga jo'natadi. Bu asarlarning syujeti qadimgi sanskrit adabiyotidan kirib kelgan deyishga asoslar bor. Chunki, «Olamning yaratilishi»dagi Mayto'ra nomi sanskrit tilida «do'stlik bilan aloqador» ma'nosini beradi. Ikkinchidan, «Ku tay» afsonasi sanskrit adabiyotining namunasi hisoblangan «Oltin yoruq» asari

tarkibida berilgan. Erlik haqidagi afsonalar Oltoy turkiylari o'rtasida keng tarqalgan va buddaviylik ta'limoti shakllanishida xizmat qilgan. Oltoy turkiylari mifologiyasida budda qahramonlari hamda yerosti dunyosining obrazlari mavzusi rus olimi A.M. Sagalayev tadqiqotlarida keng yoritilgan. «Ku tay» afsonasidagi qayta tug'ilish – vujudni yo'qotish, ya'ni hayvoniy jasaddan odam, odam jasadidan hayvon jasadiga aylanish animizm hamda buddaviylik ta'limoti belgisidir. Bu ikki afsonani qadimgi turkiylarning diniy-mifologik tasavvurlarini mujassamlashtirgan asar sifatida o'rghanish ahamiyatlidir.

## OLAMNIIG YARATILISHI

Azalda faqat suv bor edi. Yer, osmon, oy va quyosh yo'q edi. Yana Tangri (xudo) bilan yana bir «odam» bor edi. Ular qora g'oz shakliga kirib, suv ustida uchib yurar edilar. Tangri hali biron narsa yaratmagan edi. Birdan «odam» shamol paydo qilib, suvni to'lqinlantirdi va Tangrining yuziga suv sachrattdi. Bu «odam» o'zining Tangridan og'ir ekanini sezdi va suvgaga cho'kib, nafasi qayta boshladı. «Tangri, menga yordam ber!» deb baqirdi. Tangri unga «Yuqoriga chiq!» deb buyurdi, o'sha «odam» suvdan chiqdi. Tangri shundan keyin amr berdi: «Qattiq bir tosh bo'lsin». Suvning tubidan bir tosh chiqdi. Tangri bilan «odam» toshning ustiga o'tirdilar. Tangri «odam»ga «Suvga tushib, tuproq chiqar!» deb buyurdi. «Odam» suvning ostidan tuproq chiqarib, Tangriga berdi. Tangri bu tuproqni suvning ustiga otib yubordi va «Yer bo'lsin!» deb amr berdi. Shunday qilib, yer yaratildi. Shundan so'ng Tangri yana «odam»ga «Suvga tushib, tuproq chiqar!» deb buyurdi. «Odam» suvga tushdi va «O'zim uchun ham tuproq olayin», deb o'yaldi. Ikki qo'liga tuproq oldi, bir qo'lidagi tuproqni «O'zimga boshpana quraman» deb o'ylab og'ziga soldi. U

Tangridan yashirinchay yer yaratmoqchi bo'ldi. Bir qo'lidagi tuproqni Tangriga berdi. Tangri bu tuproqni sochib yubordi. Qattiq yer paydo bo'ldi. «Odam» og'ziga solgan tuproq esa kattalasha boshladi. Nafasi tiqilib, bo'g'ilib, o'ladigan bo'ldi. Tangridan qocha boshladi. Qayerga borsa, faqat Tangriga duch kelaverdi. Bo'g'ilayotgan paytda: «Ey Tangri, haqiqiy Tangri, menga yordam ber!» deb yolvordi. Tangri unga «Nega tuproqni mendan yashirding? Og'zingda tuproq saqlayman, deb o'ylandingmi?» deb so'radi. «Odam» javob berdi: «Yer yaratayin deb bu tuproqni og'zimga solgan edim», deya javob berdi. Tangri unga «Ol og'zingdagi tuproqni!» deb buyurdi. «Odam» tuproqni otvorgan edi, bu tuproqdan kichik-kichik tepalar maydonga keldi. Keyin Tangri unga shunday dedi: «Endi sen gunohkor bo'lding, menga qarshi yovuzlik o'ylab topding. Senga itoat qilgan xalqning fikrlari, niyatları yanada yomon bo'ladi. Senga itoat qilgan xalqning niyati toza, yaxshi bo'ladi. Menga itoat qilganlar quyosh ko'radilar, yorug'lik ko'radilar. Men haqiqiy Qurbiston nomini olaman. Sening noming esa Erlik bo'lsin. Gunohlarini mendan yashirganlar sening xalqing bo'lsin, gunohlarini sendan yashirganlar mening xalqim bo'lsin».

Shoxsiz, butoqsiz bir daraxt o'sgan edi. Bu daraxtni Tangri ko'rdi va «Shoxlarida meva bo'limgan daraxtga boqmoq yaxshi emas, bunga to'qqiz dona shox bitsin!» deb amr qildi. Daraxtda to'qqiz dona shox bitdi. Tangri yana shunday dedi: «To'qqiz shoxning ko'chatidan to'qqiz kishi paydo bo'lsin va bulardan to'qqizta xalq paydo bo'lsin!»

Shu payt Erlik bir to'da olomonning shovqinini eshitdi va «Nimaga shovqin bo'lyapti?» dedi. Tangri «Sen ham bir xoqonsan, men ham bir xoqonman, bu shovqin qilayotgan olomon mening xalqimdir», – deb javob berdi. Erlik «Bu qavmni menga ber», deb Tangridan iltimos qildi. Tangri unga «Xo'p, mayli, beraman, sen o'zing ham qara», – dedi.

Erlik «Turib, qarayin, Tangrining shu ulusini bir ko‘rayinchı», – dedi va olomonga qarab to‘g‘ri yurdi. Bir yerga keldi. Bu yerda insonlar, yovvoyi hayvonlar, qushlar va boshqa bir qancha jonli mavjudotlarni ko‘rdi. Erlik «Tangri bularni qanday yaratgan, bular nima bilan oziqlanar ekan?» – deb o‘yladi. Bu yerdagi odamlar bir daraxtning mevasi bilan ovqatlanar edilar. Daraxtning bir tarafidagi mevasidan yeyar edilar-u, boshqa tarafidagi mevadan og‘izlariga ham olmas edilar. Erlik buning sababini so‘radi. Insonlar unga javob berdilar: «Tangri bizga bu to‘rt butoqning mevasini yemoqni taqiqladi. Kun chiqish tarafidagi besh butoqning mevalaridan yemoqni buyurdi. Ilon bilan it bu daraxtning to‘rt butog‘idagi mevadan yemoqchi bo‘lsalar, ijozat berma, deb amr berdi. Shundan keyin Tangri ko‘kka chiqib ketdi. Beshta shoxning mevalari bizning ovqatimiz bo‘ldi».

Erlik Ko‘rmus (shayton) bu gaplarni eshitgandan keyin Turungey degan bir odamni uchratib qoldi va unga «Tangri yolg‘on so‘zlagan, sen bu to‘rttala shoxning mevasidan ham yeyaver», dedi. Qorovul ilon uyquga ketdi. Erlik ilonning og‘ziga kirdi. «Daraxtga chiq!» deb buyurdi. Ilon daraxtga chiqdi, man qilingan mevadan edi. Turungey bilan xotini Momo Havo birga yurar edilar. Erlik ularga «Bu mevalardan yenglar», dedi. Turungey istamadi. Lekin xotini yedi. Meva juda shirin edi. Xotini mevadan olib, erining og‘ziga soldi. O‘scha zahoti har ikkisining tuklari to‘kila boshladи, uyalib ketdilar. Daraxtlarning ostiga yashirindilar. Shu payt Tangri keldi. Butun xalq Tangridan yashirindi. Tangri hayqirdi: «Turungey, Turungey! Momo Havo, Momo Havo! Qayerdasizlar?» Ular «Daraxt ostidamiz, sening oldingga bora olmaymiz», deb javob qildilar. Ilon, it, Turungey, Momo Havo aybni bir-birlariga ag‘dardilar. Tangri ilonga dedi: «Endi sen Ko‘rmus bo‘lding. Odamlar senga dushman bo‘lsin, seni ursin, o‘ldirsin». Keyin Momo Havora «Taqiqlangan mevani yeding», Ko‘rmusning so‘ziga

uchding, endi sen homilador bo'lasan, o'g'il tug'asan, tug'ish azobini chekasan, so'ngra o'lasan», dedi. Turungeyga esa shunday dedi: «Ko'rmusning ovqatini yeding, menga qulq solmading, Ko'rmusning so'ziga kirding. Ko'rmusning so'ziga kirganlar uning o'lkasida yashaydilar, mening nurimdan mahrum bo'ladilar. Qorong'ulik dunyosidan joy oladilar. Ko'rmus menga dushman bo'ldi, sen ham unga dushman bo'lasan. Menga qulq solsang edi, men kabi bo'larding. Endi sening to'qqiz o'g'ling, to'qqiz qizing bo'lsin. Bundan keyin men odam yaratmayman. Odamlarni sen yaratasan». Tangri Erlikka «Insonlarimni nega aldading?» dedi. Ko'rmus dedi: «Men aldadim, sen bermading, men esa o'g'rinchal olmoqqa qapop qildim. Men oladiganim: Ot bilan qochsa, tushirib olib qolaman, aroq ichib sarxush bo'lsa, jang qilaman, suvga tushsa, daraxtga chiqsa, yana tortib olaman». Tangri Ko'rmusga shunday dedi: «Uch qavat yerning ostida, oy va quyosh bo'lmaydigan qopong'ulik bir dunyo bordir. Men seni o'sha joyga otib yuboraman». Insonlarga shunday dedi: «Bundan so'ng sizlarga yemish bermayman. O'z-o'zingiz qiyinchilik bilan mehnat qilib tirikchilik qiling. Sizlar bilan gaplashmayman. Sizlarga Mayto'rani jo'nataman».

Mayto'ra keldi, insonlarga bir qancha narsalar o'rgatdi. Arava yasadi. Ovqat tayyorlagani o't ildizlarini, isingani alangani yaratdi.

Erlik Mayto'raga yolvordi: «Ey, Mayto'ra, sen men uchun Tangriga yolvor, ijozat bersin, keyin men Tangrining yoniga chiqayin. Mayto'ra Erlikni qabul qilishi uchun Tangriga oltmis yil yolvordi.

Tangri Ko'rmusga shunday dedi: «Menga dushman bo'lmassan, insonlarga yovuzlik qilmassan, yonimga kel». Ko'rmus ko'kka Tangrining yoniga chiqdi. Tangriga sajda qilib, «Meni muborak qil, ijozat ber, keyin o'zim uchun ko'klar yaratayin», dedi. Tangri ijozat 6erdi. Erlik ko'klar

yaratdi. Erlikning sheriklari (malaylari) ko'klarga joylashib, ko'p xalq bo'ldi. Tangrining odami Mangdashira shunday o'yladi: «Bizning odamlarimiz yer yuzida, Erlikning odamlari ko'kda. Bu ko'p yomon bir ishdir». Mangdashira Tangriga g'azab qilib, Erlikka qarshi urush ochdi. Erlik qarshi keldi, o'q bilan urib, Mangdashirani qochirdi. Mangdashira Tangri huzuriga keldi. Tangri «Qayerdan kelyapsan?» deb so'radi. Mangdashira «Erlikning malaylari ko'klarda, bizning odamlarimiz esa yerda joylashganlar. Bu juda yomon bir ishdir. Men Erlikning sheriklarini yerga tushirmoq uchun jang qildim. Faqat kuchim yetmadi, tushirolmadim». Tangri «Mendan boshqa kimsa unga qarshi kelolmaydi, Erlikning kuchi sendan ko'pdir. Faqat bir zamon keladiki, senga «Bor» (ko'paygin ma'nosida) deyman. O'sha zamon sening kuching Erlikning kuchidan ustun bo'ladi». Bunga Mangdashira bajonidil rozi bo'ldi, keyin uxladi.

Bir kuni Mangdashira shunday o'yladi: «Tangrining «bor» degani shu bugunga o'xshaydi».

Tangri Mangdashiraga dedi: «Ey, Mangdashira! Bugun bor, Erlikni ko'kdan quvasan, maqsadingga yetasan, undan juda kuchli bo'lsan. Mening kuchim, qudratim, olqishim senga yetsin». Mangdashira sevindi, bir qahqaha otdi, «Miltig'im yo'q, yoyim, o'qim yo'q, nayzam yo'q, xanjarim yo'q... Faqat yolg'iz bilagim, qo'lim bor. Qanday qilib men Erlikka qarshi borayin», dedi. Tangri unga nayza berdi. Mangdashira nayzani olib, Erlikning osmoniga chiqdi. Erlikni yengdi, qochirdi. Uning osmonlarini qirib, parcha-parcha qilib tashladi, Erlikning osmoni parchalari yerga to'kildi. U zamonga qadar yer yuzi tep-tekis edi. Bu parchalardan tog'lar, qoyalar paydo bo'ldi. Mehribon Tangrining chiroyli ijodi tep-tekis yer bo'ylab egri-bugri bo'ldi. Erlikning hamma sheriklari yerga to'kildi, kimdir suvg'a tushdi, bo'g'ildi, kimdir daraxtga, kimdir toshga urildi, o'ldi, kimdir hayvonlarga urildi, o'ldi.

Endi Erlik Tangridan yer istadi: «Mening osmonimni qirding. Endi boradigan yerim yo‘q», dedi. Tangri uni yerning ostiga, qorong‘ulik dunyosiga jo‘natdi. Ustiga qavat-qavat qulflar qo‘ydi. «Yuqoringda so‘nmas otash bo‘lsin, quyosh va oy yorug‘ini ko‘rmagaysan. Yana aytaman: yaxshi bo‘lsang, yonimga chaqiraman, yomon bo‘lsang, yana tubsizlikka surib yuboraman. Erlik «Men o‘lgan odamlarning jonlarini olaman», dedi. Tangri «Men ularni senga bermayman, o‘zing yarat», dedi. Erlik qo‘liga bolg‘a, bosqon, sandon oldi. Bir urdi – qurbaqa chiqdi, bir urdi – ilon chiqdi, bir urdi – ayiq chiqdi, bir urdi – to‘ng‘iz chiqdi, bir urdi – ilbir (qora qush) chiqdi, bir urdi – sulmus chiqdi, bir urdi – tuyu chiqdi.

Tangri keldi. Erlikning bolg‘a, bosqon va sandonini olib o‘tga tashladi. Bosqon bir xotin, bolg‘a bir erkak bo‘ldi. Tangri bu xotinni ushlab, yuziga tupurdi. Xotin bir qush bo‘lib uchib ketdi. Bu qushning go‘shti yeb bo‘lmas, tuklari pat bo‘lмаган «qurday» degan qush edi. Tangri erkakni ushlab, yuziga tupurdi. U ham bir qush bo‘ldi, u «yatban» degan qush edi.

Hamma mashaqqatlardan keyin Tangri xalqqa xitob qildi:

– Men sizlarga boylik berdim, ovqat berdim, yer yuzida yaxshi, chiroyli va toza suvlar berdim, sizlarga yordam berdim. Sizlar yaxshilik qiling. Men osmonimga jo‘nab ketaman, tez kelmayman».

So‘ngra yordamchi ruhlariga xitob qildi:

– Shalyima! Sen aroq ichib, aqlini yo‘qotganlarni, yosh bolalarni, bo‘taloqlarni, sigir-buzoqlarini yaxshi saqla. Yaxshilik qilib, o‘lgan marhumlarning jonlarini yoningga ol. O‘zini-o‘zi o‘ldirganlarni olma. Boylarning moliga ko‘z tikkamlarni, o‘g‘rilarni, boshqalarga dushmanlik qilganlarni ham olma. Men uchun va xoqoni uchun jang qilib halok bo‘lganlarni ol, mening yönimga chiqar. Insonlar! Sizlarga yordam qildim, sizlarдан yomon ruhlarni uzoqlashtirdim,

fano ruhlar insonlarga yaqinlashsalar, ularga ovqat bersinlar. Shaytonlarning ovqatini yemang, yesangiz, ularday bo'lasiz. Mening otimni aytsangiz, himoyamda bo'lasiz. Endi men ketaman, lekin yana kelaman. Meni unutmanglar, meni, kelmaydi, desangiz, uzoqlarga ketaman. Qaytib kelganim zamon sizlarning yaxshilik va yomonliklaringizning hisobini qilaman. Hozircha mening o'mimda Yapqara, Mangdashira va Shalyima qoladilar. Ular sizlarga yordam beradilar.

– Yapqara! Sen yaxshi qara. Erlik sening qo'lingdan marhumlarning jonini o'g'irlamoqchi bo'lsa, Mangdashiraga ayt, u kuchli.

– Shalyima! Sen yaxshi qara! Yomon ruhlar yerning ostidan chiqmasinlar. Agar chiqsalar, darhol Mayto'raka xabar ber, u kuchli. Ularni quvsin. Nayza bilan oy va quyoshni qo'riqlasin. Mangdashiraga ayt: u yerni va osmonni qo'riqlasin. Mayto'ra yaxshilardan yomonlarni uzoqlashtirsin. Mangdashira, sen yomon ruhlar bilan jang qil. Senga qiyin bo'lsa, mening otimni chaqir. Insonlarga yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarni o'rgat. Qapmoq bilan baliq ovlashni, jun to'qishni, chorva boqish hunarlarini o'rgat.

Shularni aytgandan keyin Tangri ketdi. Mangdashira qarmoq yasadi, baliq ovladi, miltiq, o'q ijod qildi. Jun to'qidi. Tangri buyurganiday, insonlarga bir qancha narsalarni o'rgatdi.

Mangdashira bir kuni shunday dedi: «Bugun meni shamol uchiradi va ko'tarib ketadi». Shamol keldi. Mangdashirani olib, ko'tarib ketdi. Yapqara insonlarga shunday dedi: «Mangdashirani Tangri yoniga oldi. Endi uni uchratmaysizlar. Men Tangrining elchisiman, men ham ketaman. Tangri qayerda turg'izsa, o'sha joyda qolaman. Sizlar o'rganganlaringizni unutmanglar. Tangrining hukmi shundaydir». Insonlarni o'z vatanlarida qoldirib, u ham ketdi.

Qadim zamonda Inchyu nomli shaharda Chang toifasidan Ku Tay otliq bir bek bor edi. Inchyu o'sha shaharning begi bo'lib, juda ulutchi (jallod) bo'lgan edi, keyin bir marosimda – to'y bo'lganda, ho'kiz, qo'y, to'ng'iz, g'oz, o'rdak, tovuqni, boshqa ko'p yovvoyi hayvonlarni qurbon qilib, mo'l ovqat va ichimlik berdi. To'y tugab, oradan uch kun o'tgandan keyin u bek balindak (shol) bo'lib, og'ip kasalga chalindi. Kasallik tufayli fikr, so'zdan mahrum bo'lib, imo-ishora bilan tushuntirdi, nihoyat o'ldi. O'lib butun vujudi sovidi, yolg'iz yuragining tashqarisidagi bir parchasi butunlay muzlamadi. Uni ko'rib uyidagi odamlar katta yig'i-sig'i qildilar. O'likni ko'mgani eltmay, uch kun o'tkazdilar, to'rtinchchi kuni tongda ertalab, marhumning sezgilari qo'zg'alayotganini ko'rdilar. U bek tirilib kelib yuqoriga o'tirdi, ovqat, ichimlik so'radi. Uni ko'rib, hamma qarindosh-urug'lari bu marosimga to'plandi, ammo u kishilarning hammasi qo'rqb, qaltirib qocha boshladilar, uzoqlashdilar. Ularning qochganini ko'rib, Ku Tay bek ularni chaqirdi va shunday dedi: «Bu yoqqa kelinglar, ey yaxshilar. Men tirilganimga sizlar nega qochasizlar, qo'rqmanglar, men endi sizlarga tirilishim sababini so'zlab beraman. Burxonlar numi (muqaddas kitob, qonun – N.R.)ning ulug' tafsilotlarini ham eshitinglar», dedi. Keyin shunday so'zladi: «Men kasal bo'lganimda menga to'rt ruh, yaqin keldi. Biri katta qamchi tutgan, ikkinchisi o'roq tutgan, uchinchisi ombur tutgan, to'rtinchisi ko'k kiyimli bek ekan. Bir vaqt bu to'rt ruh, meni bir uy eshigiga olib keldi, keyin u ko'k bek otdan quyi tushib, meni chaqirdi. Men bekka yaqinlashganimda, u qo'ynidan bir qog'oz olib, menga o'qib berdi. O'qigach men bildimki, bitik o'sha kungi bizning to'yda so'yilgan ho'kiz, qo'y, to'ng'iz kabi marhumlarning so'zi ekan. U so'z shunday edi: «Biz, hamma yilqlilar, odamzodning yovuz

qilmishlari tufayli bu zamonda yana hayvonot dunyosida yashayotgan edik. Qarz va to'lovlarni to'lagulik yil, oy, zamonlarni tugatib, hozirgi vujudimizni yo'qotib, odamzod dunyosida tug'ilmasligimiz mumkin edi. Shunday qilib, bizning hayvonot dunyosidagi ozodlik zamonimiz, kunimiz yana tugamadi.

Inchu shahridagi Chang toifasidan Ku Tay otli bek bizni o'ldirdi. Shuning uchun biz hammamiz ikkinchi marta yana hayvonot dunyosida burchimizni bajarishga majburmiz. Shunday azobga duchor bo'lgan zamonda bizning ohimizni, azobimizni tushunadigan odam yo'q, so'zlagani kuchimiz, quvvatimiz yo'q. Uchinchi marta himoya qiladigan, qarshi turadigan kuchimiz bo'lgaymi? Bu ohimizga endi vijdon Tangrisi yetsin, deb yolvordilar, boshlig'imiz seni tutib keltirishni buyurdi». Bu shunday so'z edi.

Bitikdagi bu so'zlarni men tugal o'qib bitirdim. Keyin ko'kiyimli bek: «Tutib, yaqinroq olib kelinglar!» deb qichqirgan edi, uchta ruh menga yaqin kelib, biri arqon bilan bo'ynimni bog'ladi, biri azob berib nafasini bo'g'di. Biri qo'limni orqamga bog'lab, pastga yotqizib, katta qamchi bilan urdi. Keyin ruhlar shunday dedilar»: Ey odam, biz seni olib kelgani borganimizda, ular avvalo, taqdir kitobiga qaradilar. Taqdir kitobida shunday bitilgan: «Sening hayoting muddati hali tugamagan, sen qancha-qancha jonli mavjudotlarni o'ldirgansan, sening hayotingni o'sha o'lganlar olgani kelganlar. Buni sen bilishing kerak», – dedilar.

Bu so'zni eshitib, men ularga dedim: «Ey yaxshilarim, Tangrilarim kimki, u vaqtida zaiflarning olamida vujudi ko'zim bilan ko'rib-bilib yovuz ish qilgan bo'lsam. Yana shundan keyin qancha-qancha kishilarning son-sanoqsiz vujudlarni o'ldirganini ko'rdim. Hech bir kishining jazo olganini ko'rganim yo'q edi. Mening ustozim shunday qapor qildi, men azob-uqubatga duchor bo'ldim. Nima qilsam, qaytadan tirilgan bo'lar edim? O'zim ham

bilmayman, adashgan yovuz qilmishimga qanday tavba qilayin? – dedim.

Buni aytganimdan so‘ng u ruhlar menga shunday dedilar:

– Ey odam, o‘ttizta jonli mavjudotlar qabilasidan Isti qabilasi boshlig‘i bilan birga seni Erklig xonning saroyida kutadi. Qachon u yerga borsang, Erklig xonning kuchli, qahrli qonuni oldida bunday og‘ir azoblardan qutula olmaysan», – dedilar. Bu so‘zlarni eshitib, menda qo‘rqinch, azob kuchaydi, har tarafga qochdim. Men pastga tushsam, oldinga tortadi, keyinga itaradi, uradi, yana qochaman, yana quvadilar, keyin men ularga yolvorib yana shunday dedilar:

– Ey yaxshilarkim, men o‘zim aytay, bu azoblarimdan qutulmoq yo‘qdir. Endi men sizlarga o‘tinaman, yolvoraman, men o‘ldirganlardan yashirinib Erklig xon oldiga borganda, nima qilayin, shuni menga aytinglar, desam, ular menga shunday dedilar: «Ey sen, agar o‘lgan barcha mavjudotlar uchun qayg‘urib, ruhingni toza qilsang, olamning umid va ishonchlarini o‘zingga va’da qilib olsang, dono Tangri Tangrisi (budda) aytgan oltin yoruqlik bilan nur sochib turgan kitobni tugal bitirishga istak bildirsang, bu azoblardan ozod bo‘lib, qutulgay eding», – dedilar.

Bu so‘zni eshitib, men avvalo ruhimni toza qilib, u jonivorlarni o‘ldirgan yovuz o‘lutchidan pushaymon bo‘ldim. Keyin ostin yoruqlik bilan nur sochib turgan, hamma narsadan ustun turgan numni toza ruhimga keltirib, to‘liq, tugal bitishga va’da berdim. Yana bu num xazinani bitishga kuchli istak tufayli, yaxshi ishlarim kuch-qudrati tufayli hayvonot olamidagi mavjudotlar achchiq va qiyin azoblardan qutqarildilar. Shundan so‘ng toza ruh bilan baxt so‘rab, baland ovoz bilan qichqirdim: «Hamma narsadan ustun turgan num xazinani tugal bitib, Tangrili dunyoda xizmatkor bo‘lgayman, yovuz o‘litchilarimning yomon niyatlari yo‘qolsin», deb ovozimni juda ko‘tarib gapirdim.

Shunday deb yugurib, bir shahar darvozasini ko'rdim. Meni u shahar darvozasiga olib kelib bir qorong'ulik ichiga kiritdilar va tog' tomonga yuzlantirdilar. Tog'ning yuqorisiga qarasam, oldinda Erklig xon o'tiribdi. Borib ko'rdim. Cho'l joyda son-sanoqsiz odamlarning bo'yinlari bo'g'ilgan, qo'l-oyoqlari bog'langan, o'z so'zlarini aytib, gunohlarini bo'lishib turar edilar. U cho'lning ichi yana kuchli yolvorish, tavba, mungli ovozlar bilan to'la edi. Ruhlar Erklig xonga, Ku Tay otli odamni keltirdik, deb aytdilar. Otimni eshitishi bilanoq u: «Ey xizmatkorlar, u odamning yovuz qilmishlari juda ko'p, u katta gunohkor. Nega uni juda kech olib keldingizlar?! Endi uning homiyalarini olib kelinglar. Ularning so'zlarini eshitaylik», dedi. Erklig xonning bu yorlig'ini eshitib, meni olgani kelgan xizmatkorlar tashqariga chiqdilar, chaqirdilar, qichqirdilar, tilab, istab topmaganlaridan keyin, qaytib kelib, topmadik, dedilar. Keyin Erklig xon yana xizmatkor ruhlarni mening homiyalarimni bag (qabila nomi) mavjudotlari orasidan istashga jo'natdi. Keyin u xizmatkor ruhlar kelib, istab, hammadan so'rab, yana topmadilar. Erklig xon oldiga kelib topmadik, dedilar. Erklig xon uchinchi marta beshta yo'lga ruh jo'natdi. Ruh beshinchi yo'ldan qaytib keldi. U ruhning xizmatkori Erklig xonga bitik keltirib berdi. Erklig xon uni ochib o'qidi, bu bitikda shunday-shunday yozilgan edi: «Falon kuni odamzod olamidagi Chang toifasidan Ku Tay otliq odam jonli mavjudotlarni o'ldirgani uchun pushaymon bo'lib, oltin rangli yorug', yaltiroq, hammadan yuqori turadigan num kitobni butunlay yozib tugatishga istak tug'dirib, baxt so'radi. Shuning kuchi sababli Ku Tay otlig' jallod odamning jonli mavjudotlari avval hayvonot olamida bo'ldilar. Keyin hayvonot olamidan o'tib, odamlar olamida tug'ildilar».

Erklig xon bu tavbanomani o'qib, xursandlik bilan menga dedi: «Ey Ku Tay, sen garchi tiriklarni o'ldirgan bo'lsang ham, yana ularni qutqarishga, omon qoldirishga

amr etding. Sen shundaysanki, eng kuchli, qattiq va'da, haroratli ko'ngil bilan shoh kitob nomli bu qimmatli kitobni bitib, bu zamonda xizmatkor bo'lishga istak bildirding. Baxtli ruhning kuchi bilan o'zing o'ldirgan mavjudotlar hayvonot dunyosi azoblaridan qutulsinlar, deb baxt tilading. Shu sababdan ko'p mavjudotlar hayvonot dunyosidagi azoblardan qutulib, odamzod dunyosida tug'ildilar. Endi ey tiriklar, o'lma, olam baxt-saodatlari bilan ham o'zingni asoratga solma, yomon ishlar qilma, yaxshi ishning kema, ko'prigini qilgin, yaratgin, deb meni ozod qildilar. Men ozodlik varaqasini olib, u shahardan keldim. Bu xuddi o'yinday edi. Men tush ko'rdim va uyg'ondim, mening tirilishim shundaydir», – dedi Ku Tay.

Bu so'zlarni eshitib, u davrada yig'ilgan barcha kishilar hayron bo'ldilar, ajablandilar. Mukammal, dono Tangri tangrisi Burxon numining ulug' kuchiga ortiqroq toza, haroratli ko'ngil bog'lab, yuzdan ortiq kishi bu num xazinani topishga kirishmoqchi bo'ldilar. Ammo shahar xalqi bu numni istab topmadilar. Nihoyat Inchyu shaharidagi Suvasdiq Su otli sangram (ibodatxona)dan topishib, ko'chirishga oldilar. Ku Tay bekning oilasi, yaqinlari uydagi kattayu kichiklar bu dunyoda «o'zlik» (vujud o'lishi) so'zini butunlay tashlab, bu num xazinani o'rgandilar, ijro etdilar, bitdilar, ko'chirib yozdirdilar, o'qitdilar.

U yer yuzida yashashdan mahrum.

## «MAADAY QORA»

Oltoy turkiylari ijodida qahramonlik eposlari alohida o'rin egallaydi. «Maaday qora» shunday dostonlardan biri hisoblanadi. Bu eposning oltoyliklar o'rtasida «Kan Pyud», «Kan Tutay», «Eskyus Ool», «Temirbiy», «Kan Saru» va boshqa nomdagi variantlari ham mavjud. Oltoy

qahramonlik eposlarining tadqiqotchisi S.Suruzakovning ta'kidlashicha, «Maaday qora» nomi bilan tarqalgan syujet yuqoridagi dostonlarning ham-nasidan mukammaldir.

Qadimiyligi saqlangan oltoy eposlarida qahramonlarga rang sifatini berish an'anasi mavjud. Masalan, «Aq Bo'qu», «Qara Bo'qu» nomlari uchraydi. Oltoyliklar tog' atrofida (oq, qora, jigarrang) va daryo bo'yida (oq, qora, ko'k) yashaydigan kuchli ovchi yoki jangchilarga shunday laqablar qo'yishgan. Aytish joizki, oltoyliklarning Aq Bo'qu (Oq Buqa) va Qara Bo'qu (Qora Buqa) deb nomlangan qahramonlarining ismlarida kuchli odamlarni Buqa – Ho'kizga tenglashtirish ho'kiz odam haqidagi afsonalarga yaqindir. Demak, Maadayga qora sifatining berilishi ham jangovar va kuchlilik ramzidir.

Qahramonlarni rang sifatlari bilan atash qadimiylik belgisidir. Shuningdek, Maaday qoraning o'g'li Ko'gudey Mergenni ruh-parilar enagasi tarbiyalashi ham uning qadimiy qatlamlarini ochadi. Yoki Maaday qora o'g'liga yaqin qo'shnisining qiziga uylanishni maslahat bergenida, u «Osmon va Yerning o'rtasida yashovchi» Oy xoqonning qiziga uylanishini aytishi, o'z maqsadi yo'lida qahramonlik ko'rsatishi ham doston qadimgi misflardan oziq olganligini isbotlaydi.

«Maaday qora» to'rt qo'shiqdan tashkil topgan dostondir. Uning bosh qahramoni Ko'gudey Mergan. Lekin epos uning otasi nomi bilan atalgan. Birinchi qo'shiq Maaday qoraga bag'ishlangan. Bizga Maaday nomi antik davr tarixchilarining kitoblari orqali tanishdir. Ya'ni, VII asrda yashagan turk xoqoni, keyingi asrlar fors-tojik adabiyotida Afrosiyob, turkiy adabiyotda Alp Er To'nga nomi bilan tasvirlangan shaxsning nomi Madidir.

Oltoyliklarning qahramonlik eposi yaratilishiga skiflar xoqoni Madining ham shaxsiyati asos bo'lgan, deb aytish mumkin. Doston quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

*Akp o'z qizil olovday  
Ak chiraylu el – albatы  
Altay to 'rbin o 'dup o 'sko 'n.  
Yarash chechen tildo ' aymak.  
Yildiz cholmon ko 'stu aymak,  
Qo 'nnin ko 'zin bo 'ktup chikkan.  
Ko 'ren tayga bo rkey bergen,  
Ko 'ro 'regen to 'rbay kaytты.*

(Mazmuni: Alp bahodirning yuzi qip-qizil olovday. U el va urug‘lariga ega. U chiroyli bo‘lgan bepoyon Oltoyning tuprog‘ida o‘sdi. Eli gapga chechan, o‘tkir so‘zli. Ko‘zları xuddi yulduz, tumanni tarqatgan porloq quyoshga o‘xshaydi. Chiroyli o‘lkada to‘s-to‘polon hayot kechirishadi).

Bu misralarda Alp Maaday va u xoqonlik qilayotgan mamlakat xalqiga ҳos bo‘lgan xususiyatlar aks etgan. Doston muqaddimasi Alp Maadayningadolat bilan xoqonlik qilayotgani, uning xalqi, oti hamda xudolar (yerostiniki Aybiston va osmonniki Qo‘rbuston) sha’niga maqtovlar keltiriladi. Xoqonning oti Karish Quloqqa yuksak baho beriladi.

Maaday qora Oltoy va qo‘shni mamlakatlarda o‘z xalqini xavf-xatardan saqlab kelgan xoqon sisatida mashhur edi. Dostonda unga qarshi xoqon Qora Qula obrazi yaratilgan. U o‘zida barcha yomonliklarni umumlashtirgan hukmdor timsolidir. Uning nafasi shunchalik sovuqki, oqayotgan daryo ham muzlaydi. Qora Qula Maaday qoraning mamlakatini bosib olib, xalqini mol, xoqonini cho‘ponga aylantirmoqchi bo‘ladi. Lekin maqsadiga crisha olmaydi.

Maaday qora yoshi o‘tib, belidan quvvati ketayotganda yolg‘iz o‘g‘il ko‘radi. Bola pahlavon bo‘lib ulg‘ayadi. Uning sisatlari shunday: ko‘kragi oltin, yelkasi kumush rangda. Ikki kunda «Ona», olti kunda «Ota» so‘zlarini aytadi. U ayiq terisi po‘stagida uxlardi. Arslon terisi esa unga bolish

edi. Maaday qora o'g'lini Ko'gudek Mergan nomi bilan ataydi. Xoqon hayotdan yashash umidi so'na borar ekan, o'g'liga vasiyat qiladi: «Oltoy xalqi osuda, tinch yashadi. Bugun kuch-quvvatim ketayotgan paytda Qora Qula Oltoydagi yetmish urug'ni o'ziga bo'ysundirmoqchi. Xalq va ota nomusi uchun undan o'ch olishing kerak».

Ko'gudey Mergan pahlavonlikda Alpomish, Manas bilan teng turadigan qahramonlardandir. Uning ayiq terisining po'stagida uxlab, arslon terisini boshiga bolish qilishida pahlavonlik xususiyatlari yanada bo'rtib ko'ringan. Mergan uning nomiga ham munosib belgidir. Uning ismida botirlik, dushmani xato qilmasdan urib yiqitish sifatlari umumlashgan. Ko'gudey o'z xizmatkori Tastaraka (bunday xizmatkorlar, ya'ni pahlavonning yonidagi qul obrazi turkiylarning boshqa eposlarida ham bor) bilan Qora Qula mamlakatiga keladi va uni o'ldirib, xalqni ozodlikka chiqaradi.

«Maaday qora» dostonida oltoylarning yetmish urug'i butun turkiy qavm va qabilalarning umumlashgan belgisi darajasiga aylangan. Maaday qora esa ana shu qavmlarning otasi, xoqoni edi. U xoqonlik davrida Oltoyga biror-bir bosqinchi oyog'ini qo'yagan. U keksayib qolgani bilan elini bosqinchi xoqonlarga berishga, xalqi mol, o'zi cho'pon bo'lishga yo'l qo'ymaydi. Ko'gudey Mergan odil va pahlavon turk xoqonlarining yangi avlodи sifatida namoyon bo'ladi.

Qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodi boy merosga va mavzu rang-barangligiga ega. Qozoqlarning «Er Targ'in», «Alpamis», «Qambar botir», qoraqalpoqlarning «Qirq qiz», hakaslarning «Oltin arig'», Oltoy turkiylarining «Ay kuchin» va boshqa asarlarida ham qadimgi turkiy xalqlar hayotiga xos mushtarak xususiyatlar ifodalangan. Masalan, qoraqalpoqlarning «Qirq qiz» dostoni ham qahramonlik eposlaridan biridir. Doston syujetida massagetlar malikasi To'maris, saklar malikasi Zarina qahramonligi borasida xos

tasvirlar saqlangan. Epos qahramoni Guloyimdir. U dugonalari (antik davr yunon tarixchilarining kitoblarida keltirilgan amazonkalar kabi) va sevgilisi Arslon bilan birgalikda mamlakat dushmanlari Eron shohi Nodirshoh hamda Qalmoq xoni Surtoyshiga qarshi kurashadi.

Qadimgi turkiy adabiyotning dostonlar davri jahon xalqlari madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi. Shu sababli ham bu davr adabiyoti boy ilmiy xulosalar yaratish imkonini beradi:

1. Turkiy adabiyotlar tarixidagi «O‘g‘uznama», «Qo‘rqut ota kitobi», «Alpomish», «Manas», «Maaday qora» kabi dostonlar tasvirlangan voqeiylikning xususiyatlari va e’tiqodlar tamoyiliga ko‘ra o‘z qadimiyligi qatlamlariga ega. Bu eposlarda turkiy qavmlarning dunyoga kelishi va shakllanishidan tortib, jahondagi eng qudratli xalqlar darajasiga ko‘tarilishigacha bo‘lgan kurashli yo‘li o‘zining jonli ifodasini topgan. Bu dostonlar epik yo‘nalishi, qahramonlik ruhi, g‘oyaviy-badiiy qimmati bilan antik davr adabiyotining yuksak namunalari hisoblangan «Odisseya», «Iliada» kabi eposlar qatoridan joy oladi.

2. Turkiy xalqlar adabiyotining qadimgi eposlari ikki xususiyati bilan ahamiyatlidir. Birinchisi, bu asarlar turkiy adabiyot o‘z antik davriga ega bo‘lganligini asoslashga, ikkinchisi, qadimgi turkiylarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, turmush tarziga oid etnografik ma’lumotlar hamda ularning ahilligi, jipslashishi, qudratli mamlakatni barpo etishga qaratilgan ezgu niyatlarini ochishga xizmat qiladi. Jahan adabiyotshunosligi turkiy xalqlar adabiyotiga katta qiziqish bilan qarayotganligining asosiy sabablaridan bir ham ana shu ikki tamoyilga bog‘lanadi. O‘g‘uzzonga xos bahodirlik va qavmlarga mehribonlik, Qo‘rqut otadagi donolik, payg‘ambarlarga xos ilohiy fazilatlar, Alpomish, Manas, Maaday qoraning mardligi bu eposlarning boqiyligi, ma’rifiy-estetik ahamiyatini belgilovchi yetakchi xususiyatdir.

## *TO'RTINCHI QISM*

### **TURKIY ADABIYOTNING JAHON XALQLARI ADABIYOTI BILAN USHTARAKLIK DAVRI**

Skif-kimmerlar yashagan davr adabiyoti va madaniyati shakllanganligi bilan jahon xalqlari tarixida alohida o'rinn egallaydi. Ular yaratgan adabiy syujetlar antik davrdagi ko'plab xalqlarning adabiyotiga ko'chib o'tgani, ayrim syujetlarda tipologik o'xshashliklar mavjudligi yoki ularning hukmdorlari, qahramonlari haqida boshqa xalqlar adabiyotida ham bir necha, hatto turkum asarlar yaratilgani shundan dalolat beradi.

#### **SHUMER ADABIYOTI**

Turkiy xalqlar og'zaki ijodi bilan miloddan avvalgi 2800-yillarda yashagan Bilgamishxon va uning sharafiga sopol lavhalarda bitilgan dostonlar davrining ma'lum jihatdan o'xshashlik tomonlari bor. O'tgan asrning 40-yillarida ingliz arxeologi Leyard Ossuriya poytaxti Nineviya xarobalarini o'rgana boshladi. Tekshirish natijasida Ossuriya podshosi Ashshurbanipal saroyi qoldiqlaridan mixxat belgilari bilan qoplangan 20 ming sopol kitobga ega bo'lgan kutubxona qo'liga kiritildi.

Ashshurbanipal Ossuriyaning eng ilmsevar, ma'rifatparvar shohlaridan biridir. Uning shohlik davri (miloddan avvalgi 669-630-yillar) jahonda kimmer hamda skiflar katta mavqeni egallagan vaqtga to'g'ri keladi. Ashshurbanipal davlatni mustahkamlash uchun o'z mamlakati atrofidagi Misr, Bobil, O'rartu, Lidiya kabi mamlakatlar bilan ittifoq tuzgan. Lekin Shimol tomondan

kimme va shi qavimlarining Kichik Osiyo tomon yurishi qilishlari Ashshurbanipalni tashvishga sola boshlaydi. Ossuriya shohi Lidiya davlatidan ham xavfsirar edi. Kichik Osiyoning keng dalalarida hukmronligini o'tkazib, Egey va O'rta dengizga chiqishga urinayotgan kimmeriyalar Lidiya davlatining kuchi zaiflashishiga sabab bo'ldi. Bu esa birmuncha vaqt Ashshurbanipalning o'z mavqeini saqlab turishiga yordam berdi.

Ashshurbanipal podsholigining so'nggi yillarida Kichik Osiyoga kimmeriyalar orqasidan skiflar bostirib kelishdi. Ular dastlab Suriya va Falastin mamlakatlarini ishg'ol etishib, Ossuriya va Misr chegaralariga yetib keladilar. Sais davlatining hukmdori Psammetik skiflarga sovg'a berib, jon saqlaydi. Barcha jabrni Ossuriya davlati tortadi. 612-yilda Midiya podshosi Kayxisrav va Bobil hukmdori Nabupalasar kelishgan holda Ossuriyaga hujum qilishadi. Ular mamlakat poytaxti Nineviyani ishg'ol qilishib, shoh saroyiga o't qo'yadilar. Ashshurbanipal asos solgan kutubxona vayron etilib, sopol kitoblar parchalanadi, lekin yong'indan zarar ko'rmaydi. Ingliz arxeologi Leyard ikki yarim ming yil yerostida yotib chirimagan sopol kitoblarni qo'lga kiritmaganida, ehtimol, biz jahon madaniyatining nodir xazinasidan balki hali bahramand bo'lmas edik.

Midiyalik va bobillik johillar tomonidan yondirilgan kutubxona xazinasida qadimgi ajdodlarimiz yaratgan adabiy yodgorliklar borligini tan olish g'oyat sharaflidir. Bu sopol kitoblar eramizdan oldingi 2000-yillarda so'zlashuvdan qolgan shumer (sumer) tilida bitilgan deb hisoblanadi. Amerikalik shumershunos S.N.Kramerning isbotlashicha, shumeriyalar yaratgan adabiy syujetlar va ilmiy kashfiyotlarni boshqa xalqlar, jumladan, bobilliklar o'zlashtirganlar. Shumeriyalar Mesopotamiyada – Dajla va Frot (turkiylar buni O'kuz deb atashgan) daryosi oralig'ida yashashgan.

Ashshurbanipal kutubxonasidan topilgan sopol kitoblar orasidan ikki daryo oralig‘i – Mesopatamiyaning ulug‘ tarixiy-afsonaviy qahramoni Bilgamish haqidagi she’rlar turkumi ham uchraydi. Bu she’rlarni keyinchalik akkadlar o‘zlashtirib olishgan va o‘z tillarida 12 qismdan iborat tugal doston yaratishgan. Shumer tilidagi sopol kitoblar topilgunga qadar bu doston akkadlarning adabiy merosi sifatida mashhur bo‘lgan. Zotan, doston ijodkorlari shumerlardan yetib kelgan adabiy parchalarni ma’lum bir tizimga solishgan, qahramonlarning asl nomlarini o‘z tillari va urf-odatlariiga moslab o‘zlashtirishgan, qo‘srimcha voqealar kiritishgan. Akkadlar dostoni «Gilgamish» deb atalgan. Qadimshunoslar bu asarning mukammaligini asos qilishib, ko‘proq akkad shakllariga murojaat etishgan. Chunonchi, shumer va akkadshunos I.M.Dyakonov ham dostonni rus tiliga akkadchadan tarjima qilgan.

Shumer tilidagi sopol hujjatlar doston qahramoni tarixiy shaxs bo‘lganligini ko‘rsatadi. I.M.Dyakonov ma’lumot berishicha, miloddan avvalgi XXVII asr yozuvlarida Bilgames yoki Belgemes shaklidagi shumer xudolarining nomlari uchraydi. 2800-2700-yillarda esa Unug shahrining qoxini va qo‘sish boshlig‘i Bilgamish (yoki Bilgames) bo‘lgan. Bu shaharning nomi qadimgi yahudiy tilida Ere, akkadlarda Uruk, yunonlarda Orxoy, hozirda esa Varka nomi bilan aytilgan. Arxeologlar Unug shahri tarixda bo‘lgan va qalin devorlar bilan ko‘tarilganligini isbotlashgan.

## «BILGAMISH» DOSTONI

«Bilgamish» dostonining shumer tilida saqlangan syujeti bilan akkad nusxasi syujeti o‘rtasida farq bor. Masalan, shumer tilidagi nusxada birinchi qo‘sish «Bilgamish va Akka» deb nomlangan. Unda Bilgamish hukmronlik qilgan shahar Kish shahrining hukmdori Akkaga buysungan.

Bilgamish o‘z do‘sti Enkidu, xalq yig‘ini va oqsoqollari maslahati bilan Akkad zulmidan qutulish uchun kurashga otlanadi. Jang Bilgamishning g‘alabasi bilan tugaydi. Akkadlar yaratgan dostonda shumeriyalar qo‘shig‘ida aks etgan tasvir berilmagan. Akkad dostonining syujetida Bilgamish birmuncha zulmkor shoh sifatida ko‘rsatilgan. Bilgamish erkaklarni shahar devorlarini qurishga majbur etib, xotin-qizlarni haramiga olib boradigan hukmdorga aylangan. Bilgamish do‘sti Enkidu bilan bir qancha qahramonliklar ko‘rsatadi. Masalan, Kedr o‘rmonida yashovchi pahlavon Xumbaboni kurashda halok etadi. Bilgamishning pahlavonligiga qoyil qolgan ma’buda Ishtar (shumerlarda Innin) unga sevgi izhor etadi. Bilgamishdan rad javobini oladi. Ishtar bundan g‘azablanadi va otasidan yordam so‘raydi. Otasi xudo Anu unga qarshi samoviy ho‘kizni yuboradi. U shunchalik bahaybat ediki, Frot daryosining suvini bir simirishda ichib qo‘yadi (Mahmud Koshg‘ariy turkiylarning o‘g‘uz qabilasi Frot daryosini Oko‘z – Ho‘kiz nomi bilan ataganligini yozadi. Qarang: I, 91-bet). Dami bilan yerni yoradi. Bilgamish Enkidu bilan birgalikda samoviy ho‘kizni o‘ldiradi.

Bilgamish xudolarga bas kelolmasligini anglab yetadi. Shu sababli u o‘lmaslik – boqiy yashash sirini axtarib, kemada Okeandan suzib o‘tadi va O‘tnapishtim yashayotgan orolga yetib keladi. Uning maslahati bilan dengiz tubiga tushib, qari odamlarni yashartiradigan sehrli o‘tni olib chiqadi. Lekin qarshisida ilon paydo bo‘lib, o‘tni olib qochadi.

«Bilgamish»ning mantiqiy hukmi kuchli pahlavonlar ham abadiy yashay olmaydi, xudoga itoat et, hamma ish uning roziligi bilan bo‘ladi, degan g‘oya asosida qurilgan.

**Dostonning turkiylar bilan yaqinlik tomoni.** Qadimshunoslar «Bilgamish» yaratilgan shumer tilini biror til oilasiga kiritish qiyin, deb hisoblaydilar. Shu sababli ham

bu tilni ba'zan turkiylar, ba'zan hindlarning qadimgi mund tiliga taqqoslashlar bo'lgan. Xo'sh, «Bilgamish»ning qadimgi turkiylarga aloqador tomoni bormi? Kuzatishlar dostonning turkiylar bilan aloqador tomonlari ham borligini ko'rsatadi.

1. «Bilgamish» yaratilgan tilni qadimshunoslar o'lik til deb hisoblashadi. Shumer tili miloddan avvalgi to'rt minginchi yillikning oxirlaridan birinchi ming yilliklarga gacha amalda bo'lgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, shumerlar miloddan avvalgi ikki minginchi yillikning birinchi yarmida akkadlar, keyinchalik Bobil davlati tarkibiga qo'shilgan. Natijada, ularning tili bu xalqlar tili bilan chatishib ketgan.

Shumer xalqining ijtimoiy-siyosiy tarixi nuqtai nazaridan bu fikrlar to'g'ri. Lekin uch ming yil davomida fan, madaniyat, adabiyot, din va turli xil davlat hujjatlari yaratilgan tilning tarix sahnasiga kirib kelishi va yo'qolib ketishini ertaklardagi voqealardek tushunish ajablanarlidir. Uch ming yil davomida yaratilgan madaniyatni hozirgi davrda yashayotgan aniq bir xalqning ota-bobolari nomi bilan bog'lash jahonda ulug' sanalgan biror xalqning madaniyatini kamsitmaydi. Shumer tilining grammatik va leksik tarkibi turkiy tilga mos tushishini aytishga uringan olimlarni, ikkinchi guruhlari fantaziyachi, deb tanqid qilishdi. Masalan, F. Xommel birinchilardan bo'lib, shumer tilini turkiy tilga nisbat bergan. Bizning zamonamizga kelib qozoq shoiri O'. Sulaymonov bu tilni ural-oltoy tillari oilasiga kiritishga harakat kilgan. Polyak olimi Ya. Braun tibet, M. Seretelli gruzin tillari oilasiga mansub deb hisoblaydi. Shumershunos I. M. Dyakonov esa bu fikrlarni faraz deb tushunadi va ularning taqqoslarini inkor etadi. O'rni kelganda aytish kerakki, bu olim Olma-otadan 50 kilometr uzoqlikda Issiq daryosi bo'yidagi qo'rg'onidan topilgan yozuvni ko'pgina turkiyshunoslар sak turklariga nisbat bergenida va o'qib asoslashganida ham tan olishni istamagan edi.

Shumer tilini hozirgi qaysi tillar oilasiga kiritish mumkin deb aytishdan ko'ra, masalaga hozirgi qaysi tillarni shumer tili oilasiga kiritish mumkinligi nuqtai nazaridan yondashish to'g'ridir. Chunki, shumer tili 4 ming yil oldin muomalada bo'lgan. Bu tilda gaplashuvchi jamoa ming yillar davomida jahonning turli qit'alariga ko'chgan, turli qabilalar bilan qo'shilib ketgani, tabiiy. Zotan, qadimshunoslar ham shundan guvohlik berishadi. Shumer tilini hozirgi bir xalq tili bilan grammatick va leksik jihatdan qiyosan o'rghanish masalani oydinlashtirmaydi. Chunki, ba'zi tillarning rivojlanib ketishi, taraqqiyoti o'zining qadimiyligini saqlab qolgan emas. Agar hozirgi turkiy tillarning kelib chiqish oilasi shumer tilidan deb olinadigan bo'lsa, u holda barcha turkiy tillar tadqiqot doirasiga tortilmog'i kerak.

Masalan, shumer tilida ama – ona. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, qaysidir o'lkalardan turkiylar mamlakatiga ko'chib kelgan tubutliklar onani uma deb atashadi. Turkiy qavmlarning ayollardan tashkil topgan jangovar guruhi Ama – zonkadır. Ada – otadir. Bu so'z turkiylar uchun tushunarli. Kisikil – qiz, ayol. Qadimgi turkiylarda bu ma'no kis, kishi so'zлari orqali ifodalangan. Shumerlarga xos «s» va «sh»ning almashinuvi e'tiborga olinsa, uning turkiycha bilan yaqinligi bor. Bizning tilimizdagi egar so'zi shumerlarning eger – bel orqani ifodalaydigan so'ziga yaqin turadi. Kusa – kursidir. Turkiylarning «r» harfini aytolmaydigan (masalan, kursi – kussi, mardon – maddon, to'rt – to't kabi) lahjalari mavjud. Shumerlarda ug' – xalq, ken – kengash ma'nosini beradi. Ug'ken – xalq yig'ilib kengashadigan joy. Demak, ken – kengash, ayni paytda turli joylardan keladigan xalqlarning to'planib, maslahat o'tkazadigan markazi ma'nosini ham anglatadi. Bu, albatta, turkiylarda ken (kent) shahar (Toshkent kabi) mazmuniga ham mosdir.

Shumer va turkiy tillar o'rtasidagi yaqinlikni qiyosan o'rghanish ishiga O'. Sulaymanov birinchilardan bo'lib

kirishgan, shumer tilidagi oltmishdan ortiq so‘zning hozirgi turkiy tillarda qo‘llanilishi hamda bu tillardagi so‘zlar bilan o‘zakdosh ekanligini isbotlagan edi. Olim shumer atamasining ma’nosи haqida ham fikr yuritar ekan, bu so‘zni «sub – yer», «sibir», «yer – sub» so‘zлari bilan o‘zakdosh deb tushunadi hamda yer-suv mazmunini beradi, degan farazga keladi. Chindan ham turkiylarga xos tovush o‘zgarish hodisalari («sh» – «s», «m» – «b») shumerni «sub – yer» deb o‘qishga imkon beradi.

Badiiy asarni ma’lum bir xalq adabiyotiga nisbat berish uchun faqat tilni asos qilib olish yetarli emas. Bunday muammoli masalalar tug‘ilganida badiiy asarda aks etgan diniy e’tiqodlar, qabila yoki xalqlarning urf-odatlari, obrazlarning xarakteri va qahramonligi so‘nggi asrlardagi qaysi xalqning turmushida saqlanganligi nuqtai nazaridan ham yondashish kerak. «Bilgamish» dostonini turkiy xalqlar adabiy merosiga nisbat berishda o‘zaro mushtarak qadimiylilik belgilari saqlanib qolgani asos bo‘lib xizmat qiladi.

Turkiy qabilalarning eng qadimgi qavmi gumer hisoblanadi. Bu qavm o‘zlarini Nuh to‘fonidan so‘ng dunyoda paydo bo‘lgan birinchi xalqlardan deb tushunishgan. Qadimshunoslar turkiylarning kimmer qabilasini gumer qavmining nomi sifatida e’tirof etishadi. Antik yunon va ossuriy tarixchilarining kitoblarida kimmerlar haqida boy ma’lumotlar berilgan. Tarixiy asarlarda bu turkiy qabilaning nomi gimmer, kimmer shaklida, shumer esa ba’zan sumer shaklida ham yozilgan. Shumer va kimmer nomlarida mantiqan bog‘lanish hamda ohangdorlik bor. Qolaversa, gumerlar ham shumerlardek dunyodagi eng qadimgi qabilalardan biridir.

2. Antik davr yunon va ossuriy tilida yaratilgan tarixiy kitoblarda kimmerylarning vatani Shimolda Qrim atroflarida deb ko‘rsatilgan. Shumerlar esa Mesopotamiyada yashaganlar. Xo‘s, uzoq Mesopotamiya

bilan kimmerlar o'rtasida yaqinlik bo'lganmi? Shumer va kimmer xalqini bir-biriga bog'laydigan asoslar nimada?

«Bibliya»da ko'rsatilgan gumerning o'g'illaridan biri Ashkanoz. Bu qavm tarixda skiflar nomi bilan yuritiladi. Gumerning yana bir o'g'li Tugarma deb atalgan. Undan Mesopatamiyada yashagan xalqlar tarqalishgan. Demak, kimmer va skiflar Kichik Osiyo mamlakatlariiga tez-tez hujum qilishi hamda o'z hukmronligini o'tkazishga urinishining mantiqiy zamini mavjud. Axir, Ossuriya shohi Ashshurbanipal o'z kutubxonasida shumeriyarlarning sopol kitoblarini bekorga saqlamagan. Skif-kimmerlar hukmdori Prototeyga ossuriylar shohi tinchlik ittifoqini mustahkamlash uchun o'z qizini xotinlikka bergen edi. Shu kundan boshlab Prototey ossuriylarning shohi sifatida ham tan olingan. Yoki I.M.Dyakonov Midiya tarixiga bag'ishlangan kitobida skiflar sarkardasi Madi ham Ashshurbanipalning kuyovi bo'lganligini qayd etadi. Midiya shohi Kiaksar Madini o'ldirib, Ossuriya kutubxonasini yoqib yuborishga tashkilotchilik qilishida katta mantiq bor. Kiaksar Ossuriya kutubxonasida kimmeriy va skiflar madaniyati, tarixi va adabiyoti bitilgan xazina borligini sezgan bo'lishi kerak.

Shumer va qadimgi mesopatamiyaliklar turkiylar bilan yaqinligini asoslovchi yana bir necha dalillarni keltirish mumkin. Chuvashlar turkiylarning qadimgi qavmlaridan biridir. Chuvashiya jumhuriyatida Shumeriya deb ataluvchi shahar mavjud. X asrda yashagan arab tarixchisi ibn Xovqal ma'lumot berishicha, Samarqand atrofida mesopatamiyalik – iroqliklarning qishloqlari bo'lgan. Ular o'zlarini doimiy yashaydigan xalq sifatida ko'rsatishgan. Aytish kerakki, Shumer viloyati hozir Janubiy Mesopatamiya – Iroqda. Arab tarixchilari iroqliklarning Jizzax, Toshkent atroflarida ham qishloqlari bo'lishganini yozishadi. Iroqliklarning Urgutdag'i qishlog'i Vazkerd, Jizzaxdagisi Vinkerd, Toshkent atrofdagisi

Binkent deb atalgan. Arxeolog V.L.Vyatkin mesopatamiyaliklarning Urgutdag'i manzili bo'ylab kuzatish ishlari olib borib, ular yashagan joyni Qing'ir qishlog'ida deb ko'rsatadi. **Qing'irni** kimmer, gimmer, qimberning o'zgargan shakli deb hisoblash mumkin. 1920-yilda akademik V.V.Bartold Urgut tog'larining Gulbog' soyidagi qoyadan Suriya tilidagi yozuvlarni ham ko'rgan. Ajabmaski, arablargacha Markaziy Osiyo shaharlарida yashay boshlagan va o'zini iroqlik deb hisoblagan xalqlar shumerlar avlodidan bo'lishsa.

Shumeriyalar tarixi haqidagi izlanishlar Urgut nomining yangicha talqinini ham beradi. Bu esa qadimgi mesopatamiyaliklarning Urgutda yashaganligidan yana bir dalildir. Miloddan avvalgi uch minginchi yillarning o'rtalarida akkad va shumer davlatlari birlashtirilgan. Akkad davlati taxminan 120 yil yashagan. Miloddan avvalgi 2200-yilda Sharq tomonidan kelgan tog'li gutiylar deb nomlangan urushqoq xalqlar akkadlar hukumatini ag'darishgan. Bunday qahramonlikka shumerlarning Lagash shahri aholisi katta yordam bergen. XXII asrga kelib, Ur sulolosidan bo'lган qavm ulardan hokimiyatni qaytarib oladi va gutiylar bilan lagashliklar mamlakatdan quvib chiqariladi. Bu o'rinda yana bir qarashni ham eslatib o'tish kerak. Ko'pchilik shumershunoslар shumerlar Mesopatamiyaga tog'li o'lkalardan, ehtimol Eron va Markaziy Osiyodan kelib qolishgan, degan fikrni ham olg'a surishadi.

3. Shumer shahar-davlatiga asos solgan xonlardan biri Bilgamishdir. Uning hokimi Bilgamish Kish hokimi ustidan g'alaba qozonib, afsonaviy qahramonga aylanadi. Bilgamish akkad tilidagi eposda Gilgamish deb nomlangan. Uni Bilgamish deb nomlash to'g'ridir. Bu turkiy tilga yaqinlashtirish maqsadida emas, albatta, «Bilgamish» so'zining o'zagi turkiycha «bilmoq» ma'nosini ifodalaydi. Dostonning mazmuni ham asar qahramonining nomiga

«bilish» so‘zi asos bo‘lganligini isbotlaydi. Dostonda Gilgamish ta’rifi shunday:

*Ey, dunyodagi har narsani bilguvchi,  
Ey, dengizlarni anglovchi, tog ‘lardan o ‘ta olguvchi.  
Ey, yovlarni yenguvchi do ‘stlari bilan,  
Ey, aql-zakovat, bilimi bilan  
Siru asrirlarni ko ‘ra bilguvchi!  
Bizga to ‘fongacha bo ‘lgan kunlardan xabarni berdi,  
Uzoq safarga chiqди, lekin xorib qaytdi u.  
Turmush mashaqqatin yozdi toshlarga.  
Unugni devorlar bilan o ‘radi.  
Muqaddas Ennaning nurli ombori  
Devor qo ‘ng ‘iralarin ko ‘r, misdan yasalgan go ‘yo.  
Ko ‘tarmaga qara tenggi yo ‘q uning...  
...Hamma insonlardan buyuk inson u.*

Bu ta’rif qahramon chindan bilguvchi – Bilgamish ekanligiga shubha tug‘dirmaydi.

4. Doston qahramonining asl ismi Bilgadir. **Mish** esa o‘sha davrdagi bobil, xett, ossuriy xalqi o‘rtasida taniqli kishilar va afsonaviy qahramonlarga nisbatan keng qo‘llanilgan bir belgi. **Mish** ko‘proq turli janglarda g‘olib kelgan, umuman, bahodir, pahlavon kishilarning nomidan keyin ishlatilgan. **Mish** turkiy xalqlar o‘rtasida yaratilgan ayrim qahramonlik eposlarida, masalan, «Alpomish», «Kuntug‘mish» dostonlarida yoki Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida o‘z qadimiyligini to‘la saqlagan (O‘gdilmish, O‘zg‘urmish). Bizning milodda ham turk xoqonlari orasida Bilga va mish nomi bilan atalgalnari bor. Masalan, VII-VIII asrlarda yashagan turk xoqonlaridan birining nomi Bilgadir. U 732-yilda vafot etgan va turkiylarning mamlakatiga 20 yil xoqonlik qilgan. Yoki Oltin O‘rda xoni To‘xtamish nomida shunday belgi mavjud.

5. Doston qahramonining nomi Bilgamish hamda Bilgamis shaklida qo'llanilgan. «S» va «sh» harflarining almashinuvi turkiy xalqlar tilida saqlangan. Masalan, qirg'izlarning «Manas» eposi «Manash» deb ham yuritilgan. «s» va «sh» almashinuvi, xususan, hozirgi qozoq tilida keng ishlataladigan hodisadir.

6. «Bilgamish» dostonida xudolar obrazi yaratilgan. Bilgamish madad so'raydigan Quyosh xudosining nomi O'tu. Bilgamish o'rmonga jo'nash oldidan osmonga qo'llarini cho'zib, unga iltijo qiladi:

O'tu, men toqqa ketyapman, sen mening yordamchim bo'l!

Toqqa ketr kesmoqqa boryapman, sen mening yordamchim bo'l!

Dostonning akkad nusxasida Quyosh xodosi Shamash nomi bilan berilgan. O'tuning turkiy tilga yaqin tomonlari bor. Birinchidan, O'tu ma'lum ma'noda o'tni, issiqlikni, haroratni anglatadi. Quyosh shunday xususiyatga ega. Ikkinchidan, turkiylar islom diniga qadar ko'kka, osmon jismlariga sig'inishgan. Ya'ni, Ko'k Tangri turkiylarning muqaddas dinidir yoki massagetlarning yagona xodosi quyoshdir. Shu sababli Quyosh turkiylar uchun muqaddasdir. Eng qadimgi davrlardan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarigacha Quyosh turkiy xalqlarning adabiyotida (so'nggi davr adabiyotlarida ham) yaxshilik, ezgulikning muqaddas obrazi sifatida aks etdi.

Ko'kni ulug'lash, ko'kni Tangri deb tushunish barcha turkiy xalqlarga xos xususiyatdir. Masalan, qadimgi buryat va mo'g'ul mifologiyasida ham boqiy Ko'k osmon – Xuxe Munxen tengri insonni qo'riqlaydigan kuch sifatida tasvirlangan. Bu esa shumer mifologiyasidagi osmon xodosi An, Oy xodosi Nannar va boshqa sayyoralar to'g'risida berilgan tasvirlarga mushtarakdir.

«Bilgamish» dostonida va shumer mifologiyasida O'tnapishtim obrazi uchraydi. Rivoyat qilishlaricha, dunyoniga to'fon bosganida faqat diyonatli O'tnapishtimdan boshqa odamlar halok bo'ladi. U xudo Enkining maslahati asosida hamma joyi berkitilgan quti yasab, oilasi va xizmatkorlari bilan omon qoladi (bu rivoyat turkiylar otasi Nuhning kemasini ham eslatadi). Dunyoda bir kishi ham sog'-salomat qolmagan to'fondan jon saqlash balo-qazolardan toblanish belgisidir. Bunday odamlarga nisbatan hozirda ham «o'tda yonmas», «olovda pishgan» iboralari qo'llaniladi. O'tda pishdim nomi o'zbek tilidagi «o'tda pishmoq»ning ma'nosiga yaqin anglashiladiki, bu qahramon harakatiga mos tushadi.

Shumerlar osmon davlatida yashaydigan xudolarni sut, non, kiyim-bosh bilan ta'minlash zarur, deb tushunadi. Shu sababli donishmandlik xudosi Enki loydan odam yasaydi. Bu shumerlar edi. Bilgamish ham loydan yasalgan. Odamlar osmondagagi o'z rahnamolariga sig'inishi, ularga zaruriy narsalarni tayyorlab berishi va buning uchun mehnat qilishi kerak edi. Shumer xalqining mifologiyasidagi bu ta'limot Ko'k Tangri dini haqidagi tushunchadan uzoq emas.

Shumerlarning «Bilgamish» ruhidagi yana bir qahramonlik eposi Etana nomi bilan bog'lanadi. Etana ham Bilgamish singari inson umrini yashartiradiga mo'jizaviy o'tni qidiradi. U o'tni axtarib, burgutning bo'yniga minadi, osmonning o'n to'rtinchi qavatiga ko'tariladi. Etana pastga qaraydiyu, yuragi uvushib ketadi. Yer sira ko'rinas edi. Shunda vahimaga tushib, qo'lini burgutning bo'ynidan olib yuboradi va yerga qulaganicha halok bo'ladi. O'zbek tilida «etana polvon», «etanasi chiqib» kabi birikmalar, kinoyali gaplar yo'q emas. Bu so'zlarning ma'nosini shumeriyalar qahramoni Etana polvon harakatiga yaqinligi bilan e'tiborni tortadi.

Etana haqidagi dostonning asosiy voqeasi insonning burgutga minib uchishidir. Qushlar yordamida osmonga

parvoz etish voqeaları qadimgı turkiy eposlarda, jumladan, «Go'ro'g'li» türkumidagi dostonlarda, «Semurg» afsonasida yoki Nosiriddin Rabg'uziyning «Qissai Rabg'uziy» asarida tasvirlangan.

Shumer xalqi jahon antik adabiyotining ilk asoschisidir. Bu xalqdan bizgacha ko'plab lirik she'rlar, masallar, xudolar sha'niga bitilgan qasidalar yetib kelgan.

Shunday qilib, shumer adabiyoti tilini, asarlarida aks etgan diniy ta'limot, urf-odatlarni keyingi asrlarda yashagan turkiy xalqlarga o'xshashlik tomonlari bor, deb hisoblash mumkin.

## **QADIMGI TURKIYLAR VA YUNON ADABIYOTI**

«Iliada» va «Odisseya» dostonlari yunon adabiyotining nodir namunalaridir. Bu asarlarda yunon va troya urushlari tasvirlangan. Troya Kichik Osiyoda joylashgan shahar. Arxeologlar uning o'rnnini hozirgi Turkiyaning Xisorlik qishlog'ida ekanligini aniqlashgan. Bu shaharni Il qurdirgan va otasining sharafiga Troya nomini qo'ygan. Shahar ba'zan ikkinchi nomda – Il nomi bilan Ilion deb yuritilgan. «Iliada» – «Ilнома», «Il qissasi» degan ma'noni beradi. Il qadimgi turkiylar tilida muomalada bo'lganligi uchun ham bu so'zga yangicha talqinda qarashga to'g'ri keladi. Turkiylar bir qancha davlat va qavmlarni o'z kuchlari bilan itoat ettirib, ulkan davlatga asos solishgan. Bunday davlat turkiylarning atamasida «Il» yoki «El»dir. Boshqacha aytganda, «Il» yoki «El» imperatorlik mavqeiga ega bo'lgan davlat ma'nosini ifodalagan.

Gomer shaxsiyati va uning dostonlari tahlili bilan jahondagi yuzlab olimlar qiziqishgan. Jumladan, gruzin olimi R.V. Gordeziani troya urushlarini taxminan miloddan avvalgi 1265-yillar atrofida bo'lgan, deb hisoblab, Troya

TRSH (Teresh yoki Tursha) mamlakati ekanligini ko'rsatadi. Albatta, tur – miloddan avvalgi asrlarda yashagan turkiy qabilalarning umumlashgan nomidir. Dostonda troyaning ko'plab pahlavonlari ishtirok etadi. Ularning eng bahodiri Hektordir. Hektor o'z xalqini qahramonlikka chaqirar ekan, «ko'kdagi Tangrilar», «samoviy Tangrilar»ga sig'inadi, ulardan madad so'raydi. Troya pahlavonlari sher va qoplonga, yunon qahramonlari esa ho'kizga o'xshatiladi. «Iliada»ning o'n uchinchi qo'shig'ida shunday satrlar keltirilgan:

*Zevs Hektoring lashkarini exeylarning qarorgohiga  
Boshlab kelib, ul mardlarga ravo ko'rди mudhish azobda,  
Zahmat chekib olishuvi, kemalarning ro'baro'sida.  
O'zi chashmi tobonini olislarga – botirlar eli  
Miziyaga, suvoriyalar hur diyori Frakiyaga  
Hamda faqat sut bilan kun kechirguvchi eng adolatli,  
Ammo qashshoq hippomolqlar zaminiga qaratdi shu choq.*

Tadqiqotchilar hippomolqlar – biya sog'uvchilarni skiflar qabilasidan, deb hisoblaydilar. «Odisseya»da kimmerlar mamlakati tasviri ham berilgan:

*Biz tezda Okean suvi chuqur oqadigan joylarga yetdik,  
Bu yer kimmereylar o'liasi, doim namli tumanlar,  
Qalin bulutlar bilan qoplangan, odamlari  
Geliosning nurlarini ko'rmaydi sira...*

«Iliada» dostonida Zevs Ko'k Tangrining timsoli darajasiga ko'tariladi. U yunonlarning emas, aksincha urushda troyaliklarga madadkor bo'ladi. Urush shu qadar qiziydiki, ma'budlar ham tarafakashlik yo'liga o'tib oладilar. Axillning onasi Fetida Zevsga o'g'lining nomini yomon qilganlarning jazosini berishni so'raydi. Zevs urushda

troyaliklar yengib chiqishini va'da beradi. U Axillning jangga kirishidan Troya lashkarlari va ularning shahari xarob bo'ladi, deb qo'rqib ketadi. Zevs Axill Hektordan ustunlik qilib, uni quvib borayotganligini ko'rib, bag'ri ezilganidan oh chekib yuboradi.

Zevs Ilion mamlakati va uning xalqiga mehr bilan qaraydi. Dostonda uning kechinmasi shunday ifodalangan:

*Zero porloq quyoshu oy va yulduzlar ostidagi bu,  
Barakatli yer sahnida bandalarim shahri qancha ko'p.  
Bo'lsa, men-chun ular aro eng azizi shu Iliondir,  
Uning shohi mard Priam va ul shohning fuqarosidir.*

Qahramon Hektorning o'limi yaqinlashar ekan, asar ijodkori yunonlarga g'azab bilan qaraydi:

*Zaqqum giyoh yeb, vujudi g'azab ila ajdaho,  
Tog'dagi bir g'or og'zida gajak bo'lib to'lg'anar ekan.  
Ko'zidan o't sochib har yon alangalaydi. Ov axtaradi –  
Hektor ham do'ng qalqonini tirab qo'yib devor poyiga,  
Xuddi shunday mardonavor turar edi raqibni kutib.*

Bu parchada yunon pahlavoni ajdahoga, Hektor uni yengish uchun shay turgan bahodirga tenglashtirilgan.

Skif-turkiylarning kuchli hayvonlarni ona deb sig'inishi odatlari «Iliada» qahramonlari hayotida ham o'z ifodasini topgan. Doston tasvirigacha bo'lgan syujetlarda Troya shohi Priamning o'g'li Parisni bir ona ayiq o'z suti bilan boqqanligi haqidagi rivoyat keltirilgan. Voqeа bunday bo'lgan edi:

Parisning onasi Hekuba homilador edi. Oy-kuni yaqinlashganda tush ko'radi. Tushida cho'g' tug'adi, natijada troya dahshatli yong'in ichida qoladi. Hekuba tushini eriga aytadi. Ta'birchi kohinlar Hekuba o'g'il

tug‘adi, lekin bu farzand Troyanining halokatiga sababchi bo‘ladi, deb aytishadi. Priam chaqaloq dunyoga kelgach o‘z quli Ageleyga uni baland Ida tog‘ining o‘rmoniga tashlab kelishini buyuradi. Bola o‘lmaydi. Bir ona ayiq o‘z suti bilan boqadi. Oradan yillar o‘tgach Ageley toqqa kelib, tasodifiy holatda bolani topadi. Unga Paris deb nom qo‘yadi va tarbiyalay boshlaydi. U cho‘ponlar orasida ulg‘ayib, go‘zal va jasur yigitga aylanadi. Skif-kimmerlar hukmdori Madining forsiy adabiyotdagi muqobili Afrosiyob haqidagi adabiy syujetlarda ham Priam, Paris, Ageley va cho‘ponlar obraziga yaqin voqealar mavjud. «Shohnoma»da tush va uning hayotiy rivoji Afrosiyob kechinmasi orqali berilgan.

Afrosiyob qo‘rqinchli tush ko‘radi va vahimali qichqirish bilan o‘rnidan turadi. Saroy xizmatkorlari uning ukasi Gersevazga xabar beradilar. Afrosiyob ukasiga tushida bir biyobon ko‘rganligi, unda g‘ij-g‘ij ilonlar, kalxatlar borligini aytadi. Atrof-qoyalar bilan o‘ralgan, butun borliq qovog‘ini solgandek vahimali. Afrosiyobning chodiri bir chetda turardi. Shu paytda shiddatli bo‘ron ko‘tarilib, mamlakat bayrog‘ini yulib ketadi. Atrofda daryo-daryo bo‘lib qonlar oqadi. Eron lashkarining qo‘llarida nayza, ularga boshlar osilgan, qo‘ltig‘ida ham bosh qisilgan. Eroniy suvoriylardan biri Afrosiyobning taxtiga hujum qiladi. Uni asir tushirib, qo‘lini bog‘lab sudrab ketishadi. U atrofga zor-zor tikiladi, hech kim madad bermaydi. Afrosiyobni Kaykovus huzuriga olib keladilar. Uning yonida 14 yoshli chamasidagi bola o‘tirardi. U avval Afrosiyobning bog‘liqligini ko‘rib hayron bo‘ladi, so‘ngra devdek na’ra tortadi, tig‘ bilan uning jasadini ikki bo‘lak qiladi.

Ta’birchilar Afrosiyobning tushini shunday sharhlaydilar: Ey podshoh, o‘ngingda Erondan boshlig‘i ajdardek ko‘p lashkar ko‘rasan. Uning boshlig‘i yosh shahzoda bo‘ladi. Yonida eksalar rahnamolik

ko'rsatishadi. Uning yulduzi porloq. U yurtingni chaqmoqdek kuydiradi. Turklardan bir kishi ham qolmaydi, jahonni qip-qizil qon qoplaydi. Shohimiz ularning qo'lida halok bo'ladi, turoniylar dili chok-chok bo'ladi. Bu janglarning sababi Siyovush bo'ladi.

Afrosiyob tush ko'rganida o'gay onasining tuhmatiga uchragan Siyovush otasi Kaykovus topshirig'i bilan Turon mamlakatiga qarshi jang qilayotgan edi. Afrosiyob o'z arboblari bilan maslahat qilib, Siyovush bilan yarashishga kelishadi. Lekin tushdagi voqealarda Afrosiyobning o'limi ko'ringan edi. Tushning hayotiy rivoji shunday kechadi: Siyovush Afrosiyob bilan sulh tuzishga norozilik bildiradi. Siyovush Eronga qaytib ketmaydi. Turonda qoladi va Afrosiyobning qiziga uylanadi. Afrosiyob fitnachi odamlarning so'ziga ishonib va o'z taxtining ketishidan cho'chib, Siyovushni o'ldiradi. Bu paytda qizi homilador edi. Afrosiyob qizi va tug'iladigan chaqaloq taqdirini vaziri Payrona topshiradi. Payron shohning ko'rsatmasi bilan bolani cho'ponlar o'rtasiga tashlab ketadi.

Troya shohi Priam mamlakat boshiga keladigan g'am-anduhdan qutulish uchun o'g'lini yo'qotishga urinmasin, Afrosiyob Siyovushni o'ldirib, nevarasi Kayxisravni cho'ponlar o'rtasiga tashlab, keltirmasin, baribir tushdagi voqealar hayotiy ifodasini topadi. Afrosiyobni tushda ko'rgan shahzoda Kaykovus va o'zining nevarasi Kayxisrav o'ldiradi. Turon mamlakati boshiga balo-ofatlar yog'iladi. Paris yunon malikasi Yelenani olib qochib kelishi Troyani o't ichida yoqadi.

«Iliada»da Hektorni dafn etish marosimi tasvirlari «Devonu lug'otit turk»da keltirilgan «Alp Er To'nga» marsiyasini yodga soladi. Hektor o'limi uchun shoh saroyida yig'ichilar chaqirilishi, jasad boshida avval xotini, so'ngra onasi, turli kishilar o'z dardini aytib yig'lashida yaqin o'xshashlik bor.

Yunon va Troya urushi o'n yil davom etadi. «Iliada»da o'ninch yil janglari tasvirlangan. Hektoring o'limi bilan urush tugamaydi. Yunonlar va troyaliklar o'rtasidagi urushning so'nggi voqealari antik adabiyotda ushbu voqeaga bag'ishlangan bir necha dostonlarda aks etgan. O'z qahramonlardan ajralgan troyaliklar yunonlar bilan jangga tushishdan cho'chib qoladilar. Shunday paytda Penfesilin boshchiligidagi suvoriy ayollar – amazonkalar yordamga kelishadi. Troya shahrida amazonkalar paydo bo'lishi bejiz emas. Amazonkalarning yordamga kelishi troyaliklar turkiy qavmlar ekanligiga yana bir bor ishonch uyg'otadi. Chunki amazonkalar – skiflar qabilasidandir. Ehtimol, ular o'z qavmlari jangda talafotga uchrayotganligi uchun yordamga kelgan edilar. Penfesilin o'z qizlari bilan yunonlarni kemalari turgan qirg'oqqacha quvadi.

Antik yunon mifologiyasi va tarixiy kitoblarda amazonkalar to'g'risida boy ma'lumotlar berilgan. Eramizdan oldingi XIII asrda amazonkalar shohi Penfesiliya, undan avvalgisi Antiopa bo'lgan. Miloddan avvalgi IV asrlarda esa jasur ayol Felestris shoh hisoblangan. Amazonkalar skif, ba'zan massaget qabilalariga nisbat beriladi. Tarixchilarining guvohlik berishicha, amazonkalarning chap siynasi kesib tashlangan. Buning sababi kamondan o'q otishda qulay bo'lishi e'tiborga olingan. Amazonkalarga xos bu odat tasviriy san'at asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Tarixchi Strabon Tomir (To'maris)ni Qofqaz amazonkalari malikasi deb ko'rsatgan. Aleksandr Makedonskiy Sirdaryo atrofida amazonka malikasi bilan uchrashganligi haqida ma'lumotlar bor. Yoki o'tmishda Qoraqalpog'iston hududida Samiram (Tamiram) nomli amazonkalar shahri bo'lgan. Xullas, amazonkalar qadimiylar turkiylar qavmiga mansub suvoriy ayollardir.

Gerodotning «Tarix» kitobida ham amazonkalar hayotiga keng o'rinn berilgan va ular skif qavmiga mansubligi

ko‘rsatilgan. Amazonkalar bilan bog‘langan rivoyatlarda qadimgi turkiy ayollarning alp yigitlardan qolishmas darajadagi bahodirligi, mardligi, sevgisiga vafodorligi, aqlli va donologи ulug‘lanadi.

*Eor Pata (erlardan kuchli)lar qissasi.* Ellinlar amazonkalar bilan jang qildilar (skiflar amazonkalarni «eor pata» deb ataydilar. Bu so‘z ellin tilida erlardan kuchli, erlarni o‘ldiruvchi degan ma‘noni beradi. Eor – er, pata – o‘ldirmoq). Ellinlar Fermadont (hozirgi Termi, Qora dengizga quyiladi) daryosi yonidagi g‘olibona dahshatli jangdan so‘ng uch kemaga o‘tirib, uylariga qaytdilar. O‘zlari bilan asirlarni ham olishgan edi, chunki omadi kelib, jangda ko‘pgina amazonkalarni tiriklayin qo‘lga tushirishgan edi. Ochiq dengizda amazonkalar ellinlarga hujum qildilar va erkaklarni qirib tashladilar. Lekin amazonkalar kemani boshqarishni bilishmas edi. Ular kemani to‘lqinlar harakati bo‘yicha qo‘ydilar. Nihoyat, kema shamol yo‘liga tushib, Meotida (hozirgi Azov dengizi) ko‘liga kelib to‘xtadi. Amazonkalar kemalardan tushdilar va gandiraklaganlaricha atrofga alang-jalang boqdilar. So‘ngra yilqilar to‘dasini ko‘rishdi va ularni tutib oldilar. Bu joylar skiflarniki edi. Amazonkalar otlarni minib olishar ekan, skiflar yeri bo‘ylab o‘z harakatlarini davom ettirdilar.

Amazonka qabilasining tili va kiyinishi skiflar uchun notanish edi. Shu sababli, ular amazonkalar kutilmaganda qayerdan paydo bo‘lishganiga hayron qolishdi. Skiflar notanish qavm bilan jangga kirishdilar. Jangdan so‘ng ularidan bir nechtasining jasadi skiflar qo‘liga tushdi. Shunday qilib, notanish qavmlar ayol ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Skiflar bu ayollarni o‘ldirmaslikka, soni qancha bo‘lsa, shuncha skif yigitlarini ularning huzuriga jo‘natishga qaror qildilar. Skif yigitlari amazonkalar qarorgohidan yaqinroqda o‘zlari uchun kulba qurdilar. Skif oqsoqollarining kelishuviga ko‘ra, agar amazonkalar ularning qarorgohiga borayotgan yoshlarni

*quvsə, yigitlər jangga kirishmaslığı, qochishi kerak edi. Amazonkalarning ta'qibi to'xtasa, yigitlər yana ularning qarorgohiga yaqinlashishi lozim edi. Skiflarning maqsadi amazonkalardan farzand ko'rish edi.*

*Skiflər jo'natgan yigitlər buyruqni bajarışga kirishdilar. Ayollar ham yigitlər dushmanlıq niyatida kelmaganligini angladilar, bu ularga osoyishtalik baxsh etdi. Kundan-kun ular bir-birləri bilan do'stlashib bordilar. Yigitlarda ham amazonkalarday qurol va otdan tashqari hech narsa yo'q edi. Ular bir xil turmush tarzini kechirdilar. Ovchilik va talonchilik bilan shug'ullandilar.*

*Bir kuni tush paytida amazonkalar shunday qilishdi: atrosga bitta yoki ikkitadan bo'lib tarqalishdi. Ularning harakatida go'yo zaruriy bir ehtiyoj kutilayotgandek edi. Bunday holatni ko'rib qolgan skiflər ham shunday qilishdi. Yigitlərdən biri amazonkalardan birining oldini to'sib, xohish bildirgan edi, u yigitni haydamadi, aksincha, o'zi bilan aloqa qilishga ruxsat berdi. O'zaro gaplashish ularga qiyin edi. Chunki ular bir-birlərinin tillarını tushunishmas edi. Amazonka ayoli skif yigitiga qo'l harakati bilan ertaga shu joyga do'stini ham olib kelishini, ular ham ikki kishi bo'lishini tushuntirdi. Yigit do'stlarining huzuriga qaytar ekan, voqeani boshqalarga ham aytdi. Ertasi kuni belgilangan joyga o'rtog'i bilan keldi va u yerda ikkita amazonka kutayotganligini ko'rди. Bu voqeani boshqa yigitlər ham bilishdi. Qolgan amazonkalarnı ham o'zlariga o'rgatib oldilar.*

*Shundan so'ng qarorgoh birlashtirildi. Ular birga yashay boshladilar. Har bir yigit o'zi birinchi marta aloqa qilgan ayolni xotinlikka oldi. Erlar xotinlarining tilini o'rganolmadilar, lekin ayollar erlarining tilini o'zlashtirib olishdi. Shunday qilib, bir-birlərinin tushunadigan bo'lishdi. Bir kuni erkaklar xotinlariga shunday dedi:*

*— Bizning ota-onalarımız, mol-davlatımız bor. Biz bunday hayotga boshqa toqat qilolmaymiz. O'z yurtimizga qaytishni,*

*yana qavmimiz bilan birga yashashni istaymiz, sizlarni ham olib ketamiz va ayollarimiz bilan birga yashaysizlar.*

*Amazonkalar erlariga shunday javob berishdi:*

*– Biz sizlarning ayollaringiz bilan birga yashay olmaymiz, chunki bizlarning urf-odatlarimiz boshqacha. Biz kamondan o'q otamiz, nayza irg'itamiz, otda sakraymiz, chavandozlik qilamiz. Afsuski, biz, ayollar qiladigan ishlarga o'rghanmagannamiz. Sizning ayollarining yuqorida eslatilganlarning birortasi bilan shug'ullanishmaydi, ular faqat ayollarining ishlarini bajaradilar, ov qilmaydilar, umuman, hech qayerga chiqmaydilar. Shu sababli, biz ular bilan chiqisha olmaymiz. Agar sizning xotiningiz bo'lishimizni istasangiz, o'zlarining sof vijdonli deb hisoblasangizlar, u holda ota-onalaringizning huzuriga boringizlar va tegishli meroslarining olib gaytingizlar. Shundan keyin birga yashaymiz.*

*Yigitlar xotinlarining so'zlariga quloq soldilar. Ota-onalaringizning huzuriga borib, tegishli merosni olib, amazonkalar oldiga qaytdilar. Bu voqeadan so'ng xotinlari erlariga shunday deyishdi:*

*– Aql bovar qilmas hodisadan qo'rqayapmiz. Endi bu o'lkada yashash juda og'ir. Chunki siz bizning baxtimiz uchun otalariningdan ajraldilar. Biz esa mamlakatingiz uchun ulkan gunohga botdik. Agar siz bizni xotinlikka olmoqchi bo'lsalariningiz, u holda birgalikda shunday qilaylik: bu mamlakatdan ko'chamiz va Don daryosining narigi tomonlariga o'tib yashaymiz.*

*Yigitlar bu taklifga ham rozi bo'lishdi. Ular Dondan suzib o'tishib, sharqqa uch kun – Azov dengizidan shimol tomonga yo'l oldilar va shu yerda yashab qoldilar. Savromat ayollari – amazonkalar o'zlarining qadimiylarini saqladilar: o'z erlari bilan, ba'zan ularsiz ham yolg'iz ovga chiqdilar, sayohat qildilar, erkaklarga xos kiyimlarni kiydilar.*

*Savromatlar skifcha gapiradilar. Ularning nikohdan o'tish odatlari mana shunday: qizlar dushmanlarini*

o'ldirmagunlaricha erga chiqmaydilar. Ayrimlari kampir bo'lib, o'lib ketsalar-da, bu odatlarini tark etmaydilar.

\* \* \*

«Iliada»da tasvirlangan yana bir muhim dalil turkiylarning maishiy turmush tarzi bilan bog'liq. Skif, massaget qabilalari, Gerodot yozganidek, chorvachilik bilan shug'ullanib, sutli ovqatlar bilan turmush kechirishgan. Yunon mifologiyasiga ko'ra, Troya shahrini Zevsning o'g'li Dardanning evarasi Il qurdirganligi haqida shunday afsona mavjud:

«Kunlardan bir kuni Il Frigiyada pahlavonlar musobaqasiga qatnashib, hamma qahramonlarni birma-bir yengadi. Ushbu muvaffaqiyati evaziga Frigiya shohi Ilga ellik nafar yigit va ellik nafar navnihol qiz tortiq qiladi. Bundan tashqari, shoh unga bir targ'il sigir ham beradi-da, Ilga shu sigir ketidan ergashib ketaverishni va u to'xtagan yerda shahar tiklashni amr etadi. Frigiya shohining aytishicha, sohibkaromat kohin, o'shal shahar ulkan shon-shavkatga tuyassar bo'lg'ay, deb bashorat qilgan mish. Il shoh buyurganidek, ish ko'rdi. U sigir ketidan ketaverdi. Il ham mana shu tepalikni manzil aylab, u yerda shahar tiklay boshladi. Shu shaharga, shoh Il sha'niga Ilion (Troya) deb ot qo'ydilar».

Troya-yunon urushidagi yunon bahodirlaridan biri Itaka shohi Odisseydir. Mana uch ming yildirki, Odissey yunonlarning sevimli qahramoni. Lekin «Iliada»da asar ijodkorining butun mehri troyaliklar tomonida bo'lganidek. «Odisseya»da bu ruh yanada bo'rtib ko'rindi. «Odisseya»ning turkiylarning antik qatlamga mansub asarlari bilan juda o'xshash tomonlari bor. Bunday yaqinlikni «Alpomish» va «Qo'rqt ota kitobi» eposlari misolida ko'ramiz.

«Odisseya» va «Alpomish» dostonlari syujetida yaqinlik ko'rinsa-da, lekin asardagi qahramonlik ideallari bir-birlaridan farq qiladi. Qadimshunos A.Alimuhammedov shunday yozgan edi: «Gomer asarlarini «Alpomish» asarlariga muqoyasa qilish, O'rta Osiyo xalqlarining mashhur qahramonnomasi «Iliada» va «Odisseya» poemalarining bevosa ta'siri ostida maydonga kelgandir, degan fikrni bildirmaydi. Bu asarlar o'rtasidagi yaqinlikni faqatgina Yunon va O'rta Osiyodagi ijtimoiy hayotning ma'lum tarixiy sharoitlarda bir-biriga yaqin bo'lganligi bilan izohlash mumkin, xolos».

«Alpomish» va «Odisseya» dostonlari o'rtasidagi yaqinlik syujet hamda badiiy tasvir vositalarida ko'rindi.

«Odisseya» 24 qo'shiqdan iborat. Asarning teng yarmi – 13 dan 24 gacha bo'lgan qo'shiqlar syujeti, hatto qahramonlar taqdiri «Alpomish»ga hamohangdir. Jangga ketgan Odissey va Alpomish uzoq vaqt vataniga qaytib kelmaydi. Alpomish yetti yil Qalmoq elida zindonda yotadi, Odissey urushdan so'ng yana o'n yil dengiz to'foni natijasida sarson-sargardonlikda yuradi. Har ikki dostonidagi yaqinlikning bosh o'zagi ko'p yillar yurtidan uzoqda yashagan qahramonlarning o'z xotinlari to'yiga yetib kelishidir.

Yigit uylanganidan so'ng jang, sayohat va boshqa tasodifiy voqealar sababli yosh xotinini tashlab ketib qolishi, xotini eri o'lganligi to'g'risida yolg'on xabarni eshitib, xushtoriga tegishga rozi bo'lishi, to'y belgilangan kuni arning yetib kelishi voqeasi jahon xalqlarining ko'pgina epos va ertaklarida o'z aksini topgan. Chunonchi, o'rta asrlar jahon xalq og'zaki ijodida yaratilgan frantsuzlarning Ulug' Karl haqidagi epopeyasida, inglizlarning «Shoh Gorn» dostonida, ruslarning «Dobrinya va Alyosha», «Churila va David Popovich» blinasida yigitlarning o'z xotinlari to'yiga yetib kelishi tasvirlari mavjud. V.M.Jirmunskiyning

«Alpomish» tadqiqiga bag‘ishlangan maqolasida bu mavzu keng o‘rganilgan. Shuningdek, «Alpomish» va «Odisseya»da qahramonlarning keksa otasi (Boybo‘ri va Laert), balog‘atga yetmagan o‘g‘illari (Yodgor va Telemax), sodiq qul cho‘ponlari (Qultoy va Evmiy) ham asar syujetidagi yaqinliklarni ko‘rsatuvchi omillardandir. Lekin ular o‘zlarini birdaniga tanishtirmaydilar. Qahramonlar taqdiridagi yaqinliklarni solishtirib ko‘raylik.

**«Alpomish» dostonida.** Alpomish karvonlar bilan qo‘silib, o‘z yurtining yayloviга yetib keladi. Yilqi boqib yurgan cho‘ponlardan, bu yilqilar kimniki, deb so‘raydi. Ular yilqilar Hakim (Alpomish) deganbekniki ekanligi, lekin u Qalmoq elida zindonda o‘lib ketganligini, hozir hamma davlat Ultontoz qo‘liga o‘tganligini aytishadi. Alpomish ko‘rgan tanishlarining hech biriga o‘zini tanitmaydi. Singlisi Qaldirg‘och oyim tuya boqib yurganini ko‘radi. Singlisi va boshqa cho‘ponlar ham boqib yurgan qo‘y hamda mollarini Ultonniki deb aytishadi. Bir mo‘ysafid cho‘pon «Armon bilan farzandimdan ayrildim», deb yig‘lab turganini ko‘radi. Bu chol o‘zining sodiq quli Qultoy edi. Alpomish faqat unga o‘zini tanishtiradi. Qultoy Alpomishga Ultontoz o‘ttiz kundan beri Barchinoyni xotinlikka olmoqchi bo‘lib, to‘y berayotganligini aytadi. Alpomish Qultoyning kiyimlarini kiyib, Ultontoznikiga jo‘naydi. Alpomish to‘yga yilqiboqar qiyofasida kirib keladi. Yo‘lda onasi, o‘g‘li, to‘yxonada otasi va xotinini ko‘radi, lekin hech biriga o‘zini tanitmaydi. To‘yxonada yoy otish musobaqasi bo‘ladi. Yoylarning hammasi Qultoy qiyofasidagi kishining qo‘lida sinadi. Alpomishning o‘n to‘rt botmonlik yoyini olib kelishni taklif etadi. Barchinoy otasining yoyini o‘g‘li Yodgor olib kelishini aytadi. Balog‘atga yetmagan Yodgor Arpali ko‘lida ajriq bosib yotgan yoyni olib kelishi qiyin edi. Qultoy qiyofasidagi Alpomish unga ko‘ngildan madad istab turadi. Alpomish

yoy otishda g'olib keladi. U otgan o'q zarbidan chinor shoxi sinib ketadi. Odamlar Qultoy niqobidagi kishini Alpomish gumon qiladilar. Lekin sir ochilmaydi. Alpomish bazmda Barchinoyni aytishuvda yengib chiqqandan so'ng o'zini tanishtiradi.

**«Odisseya» dostonida.** Odissey o'zi shohlik qilgan Itaka oroliga azob-uqubat bilan yetib keladi. Lekin u qayerga kelganini bilmas edi. Yana vahshiy yovvoyi odamlar qo'liga tushib qolishdan qo'rqib, ko'z yoshi ham qiladi. Shunday paytda ma'buda Afina paydo bo'lib, unga o'zini qanday tutishni o'rgatadi va qari gadoy qiyofasiga solib, sodiq quli Evmeyning chaylasiga yo'liqtiradi («O'n uchinchi qo'shiq»). O'zi esa Telemax (Telemax ham otasini izlab, sarsonlikda yurgan edi) tomon uchib ketadi. Odissey Evmeyning chaylasiga yetib keladi. Kechqurun barcha cho'ponlar to'planadilar. «Gadoy» Evmeyga o'z sarguzashtlari haqida har xil qiziqarli voqealarni hikoya qiladi. Odisseyni ko'rganligi va u qaytib kelishini aytadi («O'n to'rtinchı» qo'shiq»). Telemaxning tushiga Afina kiradi va unga tezroq Evmeyning chaylasiga yetib kelishini aytadi. Odisseyda shaharga, shoh saroyiga xizmatga borish niyati tug'iladi. Evmey begona yurda qiynalishi, o'zлari bilan shu yerda qolishini maslahat beradi («O'n beshinchi qo'shiq»). Telemax Evmey yashaydigan joyga yetib keladi. Evmeyni shaharga, onasi Penelopa huzuriga o'g'li yetib kelganligini aytish uchun jo'natadi. Odissey o'g'liga o'zini tanishtiradi. Ular Penelopaga xushtor bo'lganlar va to'y taraddudini ko'rayotganlardan o'ch olish yo'lini izlaydilar («O'n oltinchi qo'shiq»). Telemax shaharga jo'naydi va Evmeyni mehmon huzuriga qaytarib yuboradi. Telemax onasi va qarindoshlari bilan ko'rishadi. Shu paytda Evmey Odissey bilan shaharga jo'naydi. Odissey uyiga keladi, yigirma yil avval ko'rgan iti uni taniydi. Odissey Penelopaning xushtorlari bazm qilib o'tirgan saroyga kiradi. Ulardan sadaqa so'raydi. Xushtorlar

uni masxara qilishadi. Penelopaning xushtori Antinoy uni quvib yuborish uchun unga qarshi o'rindiqni uloqtiradi. Bu voqeani kuzatib turgan Penelopaning g'ashi keladi. Xonadonida begona kishi xafa bo'lganidan ranjiydi, juldur kiyimli gadoy bilan suhbatlashishni istaydi. Go'yo undan Odisseyning xabarini sezgandek bo'ladi («O'n yettinchi qo'shiq»). Xushtorlarning bazmi davom etadi. Xushtorlardan Evrimax Odisseyni haqoratlaydi va unga o'rindiqni uloqtirdi. Xushtorlar uylariga tarqalib ketishadi («O'n sakkizinch qo'shiq»). Odissey Penelopaga o'z taqdirini so'zlab beradi. Odissey yaqin kunlarda o'z uyiga qaytib keladi, deb aytadi. Shoh saroyidagi tarbiyachi Evrekley Odisseyni oyog'idagi belgidan tanib qoladi. Lekin sir fosh etilmaydi. Penelopa qalandar niqobidagi Odisseyga agar jazmanlaridan qaysi biri Odisseyning kamonidan o'q uzib, o'n ikki xalqadan o'tkaza olsa, shunga turmushga chiqishga rozilik berishini aytadi («O'n to'qqizinch qo'shiq»). Penelopa Odisseyning o'q va yoyini keltiradi. Xushtorlarning birortasi hatto kamonning o'qini tortolmaydi. Shunday paytda Odissey sodiq quli Evmey va boshqalarga o'zining kimligini tanishtiradi. Xushtorlardan kamondan o'q otish uchun ruxsat so'raydi. Ular qarshilik ko'rsatadilar. Telemax kamonni otasining qo'liga beradi. Odissey Penelopa qo'ygan shartlarni bajaradi («Yigirma birinchi qo'shiq»). So'ngra o'qlarni sevgilisining xushtorlariga qaratadi. Avval Antinoyni, so'ngra Evrimaxni qulatadi. Xushtorlarni jazolashda o'g'li Telemax, so'ngra quli Evmey yordam beradi. Odissey xushtorlarga ko'maklashgan qul va cho'rilarini ham jazolaydi. («Yigirma ikkinchi qo'shiq»). Xalq va Penelopa Odisseyning tirikligiga, u qaytib kelganiga ishonadi. Odissey va Penelopa topishib, o'zlarining boshidan o'tganlarini bir-birlariga aytib berishadi («Yigirma uchinchi qo'shiq»). Odissey erta tong turib, qarib qolgan otasi Laert huzuriga boradi («Yigirma to'rtinchi qo'shiq»).

«Odisseya» va «Alpomish»da qahramonlar taqdirining yaqinligiga Barchinoy va Penelopaning o‘z sevgisiga sadoqati asosiy vazifani bajaradi. E’tibor bersak, har ikkala asarda ham ularning erlari o‘lgan deb hisoblanadi. Lekin xotinlar erlarining kelishiga ishonishadi, shu sababli xushtorlariga shartlar qo‘yishib, visol daqiqalarini kechiktira boshlaydilar. Har ikki asarda ham shart kamondan o‘q otish bilan bajariladi, musobaqada esa ularning o‘ldi deb hisoblangan, boshqa bir qiyofadagi erlari g‘olib kelishadi va so‘ngra o‘zlarini tanishtirishadi. Kamondan o‘q otish voqeasi qahramonlar taqdirida hal qiluvchi detallardir. Ayni paytda bu detal ikki dostondagi syujet yaqinligining asl sababini ochib beruvchi vosita ham hisoblanadi. V.M.Jirmunskiy «Alpomish» va «Odisseya»da kamondan o‘q otish voqeasi yaqinligini Gerodot asarlarida berilgan skiflar affonasiga bog‘laydi.

Kamon majoziy mazmunga ega. «Alpomish»da kamon qabilaning qadimgi ota-bobolardan qolgan va so‘nggi avlodlarga ham meros bo‘lib kelayotgan bir belgisi sifatida ko‘rinadi. Kamon Alpomishning bobosi Alpinbiyniki, Hakim yetti yoshida kamondan o‘q uzib, odamlarni qoyil qoldirib, Alpomish nomini olgan edi. Bu kamon unga butun umr bo‘yi hamrohlik qiladi, taqdiridagi haqiqatni tiklash – Barchinoyga yetishishida ko‘maklashadi. Alpomish ham kamonni o‘g‘li Yodgorga meros qilib qoldiradi. Yetti yoshli Yodgor o‘n to‘rt botmonlik yoyni ko‘tarishda Alpomish unga ilohiy kuchdan madad so‘rab turishida bu mazmun aks etgan. Demak, kamon – to‘g‘rilik, bosqinchilarga shafqatsizlik, haqiqat qoshida egilmaslik ramzidir. Bunday ramziy ma’noni «Odisseya»dagi kamon voqeasida ham ko‘ramiz.

Kamon voqeasi dastlab turkiylar mifologiyasidagi Skif obrazi bilan bog‘lanadigan bo‘lsa, «Alpomish» ham jahon adabiyotida tamali juda erta qo‘yilgan asarlar qatoriga kiradi. Dostonda o‘n to‘rt botmonlik kamon egasi Alpinbiy

skiflар – qadimgi turkiy qabilalarining bobosi, Alpomish shu boboning qahramonligini davom ettirib, o‘z qabilasi uchun kurashib kelgan xoqonlari, Yodgor qavmning orzu etilgan so‘nggi qahramonidir.

Odisseyning taqdirida ham minglab jangchilarining hayoti umumlashtirilgan, deb aytish mumkin. Odissey o‘z xotini va yolg‘iz farzandini 20 yil ko‘ra olmaydi. Urush va qiyinchiliklar tufayli vatanidan uzoqda yuradi. Skif shohlari Protofey va uning o‘g‘li Madi 28 yil Kichik Osiyoga hukmdorlik qilar ekan, ular bilan jangu jadal yo‘llarini bosib o‘tgan skif yigitlar ham shuncha yil davomida o‘z xotinlaridan uzoqda yashaydilar. Gerodot «Tarix» kitobida bir voqeani keltiradi (albatta, bunga ishonish qiyin): uzoq yillar davomida erlarini ko‘rmagan skif ayollari o‘z qullariga erga chiqib ketadilar. Qullar esa skif jangchilari yurtiga qaytib kelishi, xotini va bolalarining oldiga yaqinlashishiga qurol olib qarshilik ko‘rsatishadi. Barchinoy va Penelopa uzoq yillar jangda ayriliqda yurgan jangchi yigitlarning xotinlaridagi sadoqatni umumlashtiruvchi obrazlardir.

## **YUNON VA TURKIYLAR ADABIYOTIDA TEPAKO‘ZLAR OBRAZI**

Yunon va qadimgi turkiy xalqlar og‘aki ijodidagi yana bir yaqinlik bir ko‘zli odamlar haqidagi syujetlardir. Akademik V.M.Jirmunskiy kuzatishicha, Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki ijodida bir ko‘zli maxluqlar haqidagi afsonalarning 12 xili uchraydi. «Odisseya» («To‘qqizinchi qo‘sish»)da bir ko‘zli odamxo‘r obrazi yaratilgan. Turkiylarning qadimiylik qatlami saqlangan «Qo‘rqut ota kitobi»da bunday obraz Tepa ko‘z nomi bilan beriladi. Savol tug‘iladi: bir ko‘zli odamsimon maxluqlar dastlab qaysi xalqlar adabiyotida paydo bo‘lgan. F.Sulaymonovaning fikricha, «Qadimiy yunon asarlari bilan bog‘liq bo‘lgan

afsonalar O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida tarqalishi uzoq tarixga ega». Og'zaki ijodning mahsuli bo'lgan mif va afsonalar Markaziy Osiyo xalqlariga ham yetib kelganiga, shubha yo'q. Lekin bir ko'zlilar haqidagi afsonalarning tug'ilish zamini qadimgi skif turkiylarning eposlariga bog'lanadi. VII asrda yashagan Aristey Markaziy Osiyoga sayohat qilib, issedonlardan bir ko'zli odamlar haqida eshitadi va «Arimaspe» dostonini yaratadi. Gerodot bu dostonni skiflar hayoti bilan bog'laydi. Uning yozishicha «arifa» skiflarda «bir», «spu» «ko'z» degan ma'noni beradi.

«Odisseya»da bir ko'zli odamlar haqidagi hikoyat quyidagi mazmunga ega:

Odissey Troya urushidan qaytar ekan, ularning kemasi bir ko'zli odamsimon devlar-tsikloplar yurtiga tushib qoladi. Odissey hamrohlaridan o'n ikki kishini olib, orolni aylangani ketadi va bir g'orga to'g'ri keladi. G'orda savatsavat pishloqlar, xumchalarda qatiq-qaymoqlar turar edi. Bir mahal g'orga qo'y va echkilar podasi kirib keladi. Uning orqasidan manglayida katta bir ko'z bitilgan bahaybat Polifem paydo bo'ladi. Odissey va uning sheriklari qo'rqib ketishadi. Polifem ularga baqirganicha ikkitasini bahaybat qo'llarida ko'taradi va yerga urib o'ldiradi. So'ngra ularni tilka-pora qilib, qozonga soladi. Ovqatlangach, g'orning og'ziga tosh qo'yib, uyquga ketadi.

Bu tosh shunchalik katta ediki, uni yigirma to'rt g'ildirakli arava ham ko'tarolmas edi. Odiscyey bir ko'zli maxluqni o'ldirishni cho'tlaydi, lekin toshni qo'zg'ata olmasligiga ishonadi. Ertasi kuni Polifem yana ikkita odamni o'ldirib, nonushta qiladi va g'orning og'ziga tosh qo'yib, mollarini boqqani olib ketadi. Odissey va uning sheriklari g'orda yotgan xodalarning uchini kuydirishib, nayza qilishadi va uni yashirib qo'yishadi. Polifem kechqurun yana ikkita odamni o'ldirib, ovqat tayyorlaydi. Shunda Odissey o'zi tayyorlagan sharobdan unga uzatadi. Sharob Polifemga ma'qul tushadi

va qayta-qayta ichadi hamda kayfi oshib, uyquga ketadi. Shunda Odisseyning ishorasi bilan sheriklari xodaning uchini o'tga tutishib, tsiklopni ko'ziga suqishadi. Odissey sharob tutganida Polifemga o'zining ismini Hech kim deb tanishtirgan edi. Ko'ziga kirgan og'riqdan faryod chekadi, bir ko'zli maxluqlar g'or og'ziga to'planadilar, kim xafa qilganligini so'rashganda «Hech kim!» deb javob beradi. Odissey va qolgan sheriklari qo'y-echkilarning qorniga osilishib, g'ordan chiqib ketadilar. Odissey kemaga joylashib olganidan so'ng o'zini tanishtiradi. Polifemning otasi Poseydon esa o'g'lining qasdi uchun uning dushmaniga aylanadi.

Bir ko'zli maxluq skif yoki yunon xalqlari o'rtasida yaratilgan bo'lmasin uning qiyofasida odamlar hayotiga chang soluvchi yovuz kishilarning obrazi umumlashtirilgan. Yunon shoiri Aristey Qofqaz tog'laridan oltoygacha sayohatda bo'lib, bir ko'zli odamlar – arimasplarni skiflar mamlakati bilan bog'laydi. Professor X.G.Ko'ro'g'li xalq og'zaki ijodida bir ko'zli odamsimon maxluqlar obraz tadqiqiga bag'ishlangan maqolasida Ural va Qofqaz tog'lari, Sibir va Qozog'iston cho'llarida yashaydigan turkiy xalqlar o'rtasida bir ko'zli bahaybat maxluqlar haqida katta material to'plaganligini bayon etadi. Turkiy qabilalar o'rtasida Tepa ko'z – ko'zi manglayida bitganlar haqida afsonalar ko'pligining adabiy manbalari mavjud. Tepa ko'z qahramonlar obrazi qadimgi o'g'uz qabilalari o'rtasida yaratilgandir. Yunon shoiri Aristey skiflar mamlakatida sayohatda bo'lganida ajabmaski, o'g'uzlar o'rtasida mavjud ana shunday syujetlarni eshitgan bo'lsa. Odissey bir ko'zlilar oroliga tushib qolgan joy ham Aristey bosib o'tgan yo'l – Qora dengiz atrofida bo'lishi, tabiiy.

O'g'uzlarning Tepa ko'zlar haqidagi hikoyatlari «Qo'rqu ota kitobi»da o'rin olgan. Uning asar sifatida tug'ilishi miloddan avvalgi VII asrga to'g'ri keladi. Bu

eposda Aruz (Afrosiyobning o‘g‘li deb atalgan)ning o‘g‘li Bisot Tepa ko‘zni o‘ldiradi. X.G.Ko‘ro‘g‘li ko‘rsatishicha, «Qo‘rqut ota kitobi»dan tashqari o‘g‘uzlar bahaybat bir ko‘zlilar haqida yana ikkita afsonaviy asar yaratishgan. «Qo‘rqut ota kitobi»ning VIII qo‘srig‘i «Bisot Tepa ko‘zni qanday qilib o‘ldirgani haqida» deb nomlanadi.

Aruz dushman bilan qattiq jang qilgan paytda o‘zi turadigan yurtdan butun qarindoshlari bilan ko‘chib ketadi. Shunday to‘s-to‘polon paytda o‘g‘lini yo‘qotib qo‘yadi. Vaqtlar o‘tishi bilan Aruz yana o‘z yurtiga qaytib, ko‘chib keladi. Aruzning xizmatkorlari bir kuni qamishlar orasida sher bir bolani emizayotganligini ko‘rib qolishadi. Bu xoqonning o‘g‘li edi.

Tepa ko‘zni esa Aruzning cho‘ponlari qo‘ylar orasidan topishadi. Uning ko‘rinishi odamga o‘xshar, lekin bir ko‘zli o‘g‘il bola edi. Aruz bir ko‘zli bolani o‘zi bilan uyiga olib ketadi, Bisot bilan birligida tarbiyalaydi. Tepa ko‘z inson bolasi nimani esa, shu bilan oziquantiriladi. Bisot qanday tarbiya ko‘rsa, shunday tarbiyalaydi. Tepa ko‘z ulg‘aygani sari bolalarning burnini qonatadi, xalqning tinchligini buza boshlaydi. O‘g‘uzlar undan zorlanadi. Aruz Tepa ko‘zni uydan quvib yuboradi. Tepa ko‘z o‘g‘uzlar orasidan chiqib ketar ekan, katta tog‘da makon quradi va o‘tgan odamning yo‘lini to‘sib, qaroqchiga aylanadi. Dalada birorta cho‘pon qolmaydi. Tepa ko‘z hammasini bir boshidan yeb tamom qiladi. U o‘g‘uzlarning boshlig‘idan har kuni 60 ta odamni yeyish uchun talab qiladi. Qurqut ota u bilan muzokaraga borib, unga odamlar o‘rtasida tarbiyalanganini eslatib, ikkita odam va besh qo‘y keltirishga kelishadi. Tepa ko‘zga qarshi kurashga kelgan pahlavonlarning hammasi yem bo‘lishgandi. Bu orada Bisot uzoq sayohatdan qaytib keladi. Jangda halok bo‘lishini sezgan Tepa ko‘z Bisotga yalinadi. Bisot sher bolasiga xos kuch-qudrat bilan uning boshini oladi va o‘g‘uzlarni yaxshilikni bilmay qonxo‘rlik qilgan Tepa ko‘z zulmidan qutqazadi.

«Odisseya» va «Qo‘rqt ota kitobi»da berilgan bahaybat bir ko‘zli maxluq hikoyati o‘ziga xos g‘oyaviy-estetik vazifani bajargan. Lekin Tepa ko‘z Polifemga nisbatan ancha mukammal chiqqan. Tepa ko‘zning yoshligidan o‘limigacha bo‘lgan hayotida ma’lum bir shaxsning – yaxshilikni yomonlik bilan qaytargan, sut bergen ota-onaga qarshi qonxo‘rlik qilgan, ona yurti va xalqi boshiga zulm o‘tkazgan yovuz kuchlarning obrazi umumlashgan. Tepa ko‘z obrazi o‘g‘uzlarni, ayni paytda qadimgi turkiy xalqlarni qoni qo‘silmagan boshqa yurt kishisini o‘z qabilasi ichkarisiga olib kirmaslikdan saboq bergen, uning qiyofasi odamga o‘xshaganligi, mehr-muhabbat ko‘rsatishga uringani bilan dushmanlik yo‘lidan qaytmasligi badiiy manzara orqali ko‘rsatilgan.

Akademik jug‘rofshunos L.S.Berg ham «Ko‘chuvchi etnograf syujetlar» maqolasida qozoq xalq og‘zaki ijodidagi bir ko‘zli odamsimonlar afsonasini keltiradi. Unda ifodalanishicha, qadim zamonalarda O‘tim botir oltita sherigi bilan hozirgi Orskdan o‘tib borar ekan, cho‘lda bahaybat odam qo‘y boqib yurganini ko‘rishadi. O‘tim sheriklari bilan uning oldiga yaqinlashadi. Cho‘pon bir ko‘zli dev bo‘lib, ulardan bittasini tutib yeydi va qolganlarini g‘orga qamab, chiqish joyini katta tosh bilan berkitadi. Bir ko‘zli dev uxbab qolganida O‘tim botir uning ko‘ziga qizdirilgan nayza bilan sanchadi va g‘ordan sheriklari bilan qo‘y terisini yopinib chiqib ketadi.

Bu afsonada O‘timbotir obrazi Odisseyning taqdiriga aynan monanddir.

Yunon tarixchilari barcha turkiy qavmlar to‘g‘risida to‘la tasavvurga ega bo‘lmaganlar, faqat Qora dengiz va Kaspiy dengizi atrofida yashagan skiflar hamda ularning qavmlarini yaxshi bilishgan. Markaziy Osiyoda yashaydigan (ularni forslar sak deb atashadi) yoki uzoq Shimoldagi skiflarning joylariga bormaganliklari sababli ular to‘g‘risida

ham yetarli ma'lumotlar berishmaydi. Masalan, Gerodot Xorasmiy (xorazmlik)larni tilga olgani holda ular haqida boshqa qavmlar (masalan, massagetlar)dek aniq ma'lumot keltirmaydi. Yunonlar uchun skif qavmlari afsonaviy, antiqa odamlar bo'lib ko'rindilar. Go'yo bu o'lkalarda rang-barang xususiyatli: bir ko'zli, qishda bo'riga aylanadigan, echki tuyoqli, tovuq tusli, burgut qanotli, tilla taqinchoqli, boshida sochi bo'lmaydigan odamlar, hatto oltin junli qo'chqorlar ham bor deb eshitadilar.

Endilikda bir ko'zli bahaybat odamlar haqidagi afsonalar Qofqaz va Ural tog'lari, Sibir kengliklari va Qozog'iston cho'llarida yashagan turkiy qavmlar o'rtasida ko'plab uchrashi aniqlandi. Qozoq etnografi va tarixchisi Ch. Valixonov (1835-1865) Tepako'zlar haqidagi afsonaning quyidagi variantini yozib olgan.

Qo'yliboy baks qavmining shuhratli kishilaridan biri edi. U barcha bakslarga xo'jayinlik qilardi. Bir kuni Nodir Cho'loq ismli bashoratchi, parilar boshlig'i Qo'yliboyga yaqin kunlarda bir xotin farzand ko'rishi, u albastilarning podshosi bo'lishi, u tomonga borish xavfli ekanligidan xabar beradi. Qo'yliboy ham o'z odamlariga yaqinda qo'rqinchli bir tug'ilish bo'lishini ma'lum qiladi. Chindan ham ikki kundan keyin Qo'yliboyga qaysi bir boydan yordam so'rab, otliq keldi. Hamma qirg'izlar Qo'yliboy bor ekan, o'limdan boshqa barcha xavflardan u himoya qilishidan ko'ngli to'q edi. Qo'yliboy yo'lga chiqdi. U yordam so'raganlar yurtiga yetib keldi. Shamshirini o'ynatib, albasti bilan jangga shaylandi. Shu payt shamshiriga nimadir kelib urildi. Qo'yliboy kuchli ovoz bilan qichqirdiyu otidan yiqildi, nafasi ichiga tushdi, qo'rqinchdan tomirlari tortishdi. Og'zi va qulog'idan qora qon keldi. Og'riq zo'ridan hushidan ketdi. Qo'yliboy o'ziga kelgach, albastilar shohiga ko'zi tushdi. U qora otda, qora kiyimda, oyog'idan boshigacha temir niqobda, lekin bir ko'zli edi. Uning ko'zi peshonasiga

bitgan bo‘lib, shu qadar katta ediki, go‘yo qimiz soladigan tovoqdek kelar edi.

Bu afsonadagi albasti obrazi ham o‘z qiyofasi bilan Polifemni eslatadi. Albasti – Alp bosdi o‘z ma’nosи bilan bahodirlarni yenguvchi, qahramonlarga qarshi kurashuvchi kuch sifatida yaratilgan obrazdir. Rus etnografi N.V.Ostroumov ham XIX asrda Qozog‘iston cho‘llarida yurib, bir ko‘zli odamlar haqidagi ikki afsonani yozib oladi.

### **Birinchi afsona:**

Chibindi tog‘ida qirg‘iz ovchisi yashab o‘tgan edi. Uni Bo‘ronbotir deb atashgan ekan. U har yili bahor boshlanishi bilan qurol-yarog‘ini olib, tog‘ning juda sokin joylariga ovga ketar va xotinining huzuriga kech kuzda, sovuq boshlangandan keyin qaytar edi. Bir kun Bo‘ronbotir tog‘da ona bug‘uni ko‘radi va uni otadi. O‘lgan bug‘uning yonida hozirgina tug‘ilgan bolasi bor ekan. U oyoqqa turadi-yu, o‘rmonga kirib ketadi. Bo‘ronbotir o‘z o‘ljasining terisini shilib oladi, go‘shtini burdalaydi va o‘t yoqib, kabob qiladi. Kutilmaganda tog‘ cho‘qqisida go‘zal yosh ayol paydo bo‘ladi va «sigir o‘ldi», deb baqiradi. Bo‘ronbotir shu paytgacha bunday xilvat joyga ovga kelib, ayol kishining ovozini birinchi marta eshitishi edi. Go‘sht qovurilib, Bo‘ronbotir uni tanovul qila boshlaganida kech tushib qolgan edi. Shu payt go‘zal ayol gulxan yoniga keldi va ovchining ro‘parasida o‘tirdi. Bo‘ronbotir ayoldan, ayol esa ovchidan ko‘zini uzmas edi. Ovchi pichog‘ining uchiga go‘shtning parchasini ilintirar ekan, notanish ayolga uzatdi. Ayol go‘sht parchasini qo‘li yopilgan yengi bilan ushladi. Bo‘ronbotir suyakni kemirayotgan edi, ayol xitob qildi: «Oh, olmos, o‘tkir tig‘li olmos». Bo‘ronbotir suyakni kemirib, qo‘lini o‘tlar bilan arta boshladi. Ayol bu holatni ko‘rib, ajablandi va shunday dedi: «Moyni moy bilan artadilar». Shundan so‘ng gulxan yonidan orqasi bilan tisarilgancha uzoqlashdi va bir zumda ovchining ko‘z

o'ngidan yo'qoldi. Bo'ronbotir bu oddiy ayol emas, deb o'yladi. Daraxtning shoxlaridan kesib joy tayyorladi, o'tlardan to'shak hozirladi, uning ustiga kiyim-kechaklarini qo'ydi va o'zi quroq-yarog'ini olib, daraxtning ustiga chiqdiyu, tonggacha kuzatdi. Tong otish paytida o'sha ayol keldi. Ovchining to'shagi ustiga uch sarjin o'tin, so'ng katta bir g'o'lani tashladi. Bu voqeani kuzatib turgan Bo'ronbotir ayolga o'q uzdi. Yaralangan ayol shunday dedi: «Bo'ron, sen bizning qo'limizdan qochib qutula olmaysan. Otam, onam yoki opam, qaysilaridan biri seni albatta. o'ldiradi». Ayol jon berdi. Bo'ron qo'rqqanidan daraxtning ustidan quyosh chiqqanida tushar ekan, ayolning jasadi oldiga keldi. Ma'lum bo'lishicha, uning panjalari misdan ekan. Bo'ronbotir ayol «jez tirnoq» ekanligini gumon qilgan edi. Ovchi ayolning ikki qo'lidagi panjalarini ham kesib, cho'ntagiga soldi va yo'lida davom etdi. Bo'ronbotir boshqa joyda o'sha ayolning akasini o'ldirdi. Kuzda uyiga qaytdi, xotini bilan qishni birga o'tkazdi va bahorda yana ovga jo'naydigan bo'ldi. Kesilgan mis panjalarni esa xotiniga bildirmagan holda sandiqqa soldi va uni qulflab qo'ydi. Ubu safar ovga do'sti bilan ketdi. Ular tog' bo'ylab kezib yurishar ekan, bir to'da mollarni va qo'liga tayoq ushlagan keksa cho'ponni ko'rishdi. Bo'ron cholga yaqinlashdi. Cho'ponning boshi engashgan holda edi. Ovchi cholga salom bergach, u boshini ko'tardi. Cholning ko'zi bitta bo'lib, u manglayiga bitgan edi. Bir ko'zli chol ovchidan kim ekanligini surishtirdi. Uning Bo'ronbotir ekanligini bilgach, chol shunday dedi: «Men seni qachonlardan beri kutayotgan edim. Ketdik, biznikiga boramiz». Chol ovchi va uning do'stini tog'dagi kulbasi – g'origa olib keldi. Podasini g'orga qamar ekan, uning og'ziga katta bir toshni qo'ydi. Cholning qat'i topshirig'iga ko'ra, mehmonlar quroq-yarog'larini g'orning tashqarisiga qoldirdilar. G'orning ichkarisida chol va mollar yotadigan joy chiy bilan

ajratilgan edi. Chol o‘rniga joylashib olar ekan, mehmonlarga shunday dedi: «Endi, hech birlaringiz mendan qochib-qutula olmaysizlar. Men uxlayman, sizlar esa o‘zlarining kelishgan holda bittalariningni o‘ldiringlar va go‘shtlarining mana bu qozonga solib qaynatinglar». Bo‘ronbotir o‘z do‘smini so‘yib, uning go‘shtini qozonga solgan edi, bir ko‘zli chol unga o‘tkir tig‘li temir nashtar berib, shunday dedi: «Sen qozonning ostiga olovni yoq, bu o‘tkir tig‘ bilan go‘shtni tekshirib tur, agar temir qizil tusga kirsa, shundan keyin meni uyg‘otasan». Go‘sht pisha boshladи. Chol esa uyquga ketdi. Bo‘ron o‘tkir tig‘li temir nashtarni olovga tobladi, u cho‘g‘ bo‘lgach, cholning manglayiga bitgan yagona ko‘zga suqdi. O‘zi esa chiydan oshib, mollarning orasiga yashirindi. Bir ko‘zli chol og‘riqning zo‘ridan uyg‘ondi va dod-faryod soldi: «Bo‘ron, baribir mendan qochib qutula olmaysan. Ertalab, mollarimni g‘ordan haydab chiqar ekanman, seni, albatta, topaman». Bo‘ron eng katta echkini tanlab, uning tomog‘ini kesdi, lekin boshi va oyog‘ini qoldirdi, go‘shtini ajratib, terining ichiga kirdi va o‘z qiyofasini yashirdi. Ertalab bir ko‘zli chol g‘orning og‘zidan toshni oldi, har bir molni putining orasidan o‘tkazdi. Bo‘ron echki terisida bir ko‘zli cholning ikki oyog‘i orasidan eson-omon o‘tib oldi. Mollarining hammasini g‘ordan chiqarib bo‘lgach, chol qichqirdi: «Qayerdasan, Bo‘ron! Chiq!» Bo‘ron esa g‘orning tashqarisida javob berdi: «Men bu yerdaman». Shundan so‘ng bir ko‘zli chol jahl bilan xitob qildi: «Endi men o‘lishim kerak, meni o‘ldir va mollarimni o‘zingga ol!» Shu so‘zlarni aytar ekan, chol ko‘kragini Bo‘ronning o‘qinishoniga qo‘ydi. Bo‘ron o‘q uzdi, chol o‘ldi, lekin uning mollarini olmadi. Chunki bu mollar yovvoyi, o‘rgatilmagan edi. Bir ko‘zli cholning o‘limidan so‘ng Bo‘ron uyiga qaytdi.

Afsona ikki qismidan iborat. Uning ikkinchi qismi Polifem haqidagi syujetga o‘xshaydi. Bu o‘xshashlik bir

ko‘zli cholning g‘orda yashashi, mollar to‘dasining bo‘lishi, qahramon uning bir ko‘zini ham ko‘r qilishi va hayvon terisini yopinib chiqib ketishi voqealarida ko‘rinadi. Qahramon bir ko‘zli maxluqni o‘ldirib, echki terisi bilan jon saqlashi osetin afsonalarida ham aks etgan. N.V.Ostromov yozib olgan ikkinchi afsonada ham qozoq xalqi orasida bir ko‘zli maxluqlar obrazi rang-barang syujetlarda yaratilganligini ko‘rsatadi.

### **Ikkinci afsona:**

Xon o‘zining qirq suvoriysi bilan ovga chiqdi. Ovda bir echkining orqasidan quvishib, g‘orga kelib qolishdi. G‘orda bahaybat bir maxluq yashar edi. Ovchilarning qorni och edi. Maxluqqa ham e’tibor bermasdan qozonda pishib turgan go‘shtlarni yeishga kirishdilar. Katta qozonda sut ham qaynab turar edi. Ovchilar sutdan ham to‘yanlaricha ichishdi. Qorinlari to‘yib, ko‘ngillari tinch bo‘lgach, atrofga nazar soldilar. O‘zlarini ulkan bir uy ichida ko‘rdilar. Uyning bir tomonida bir ko‘zli, xuddi kichik bir tog‘day keladigan maxluq, ikkinchi tomonida esa uning qo‘ylari turar edi. Bir ko‘zli maxluq bir o‘tirishda qirqta qo‘yni yer edi. Ovchilar g‘orga kelishganda u uxbab yotgan edi. Bir ko‘zli maxluq uyqudan turar ekan, qozonda hech narsa qolmaganligini ko‘rdi va qahrlandi. U ko‘zini ochar ekan, chaqirilmagan mehmonlarga nazari tushdi. Bir ko‘zli maxluq ovchilar g‘orga quvib kelishgan oltin shoxli echkining oyog‘idan tutdi va bir tosh bilan urib o‘ldirdi. So‘ngra uni ochofatday yeishga kirishdi. Shundan so‘ng ovchilarga qirqta qo‘yni so‘yish, qozonda qaynatishni buyurdi. Shu bilan birga ovchilardan ham bittasini yeishga ahd qildi. U ovchilarни uning oltin shoxli echkisini ancha vaqtadan beri otib olishga qasd qilib yurbanlikda ayblaydi. Ovchilar maxluqning buyrug‘idan qo‘rqib ketdilar va sarosimaga tushdilar. Dastlab qirqqta qo‘yni so‘ydilar va go‘shtini qozonga solib, pishirishga kirishdilar. Bir ko‘zli

maxluq yana uqlashga kirishdi. U ovchilar hech qayerga qo'cholmasligiga ishongan edi. U qattiq uyquga ketib, xurrakni ota boshlagach, Xon yigitlarini maslahatga chaqirdi. Qirq suvoriyning hech qaysisi bir ko'zli maxluqning g'oridan qutulib chiqib ketish yo'lini ayta olmadi. Shunda Xon yigitlariga bunday dedi: «Sizlarga nima bo'ldi? Sizning har biringiz bir davlatni boshqarish kuch-qudratiga egasizlar-ku! Yolg'iz bir ko'zli maxluqdan qutulish yo'lini, nahotki, bilmaysizlar. Do'stlar, avvalo, qanday bo'lmasin uni o'ldirish yo'lini topishimiz kerak. Men bu yerdan chiqib ketish uchun har birimiz so'yilgan qo'ylarning terisini yopinishimiz, maxluqning yagona ko'zini ko'r qilishimiz kerak, deb o'layman». Xonning fikrini yigitlar quvatlashdi va omadlarini sinab ko'rmoqchi bo'ldilar. Bir ko'zli maxluq hali uqlab yotardi. Xon temir sixlarni olovga qo'ysi. Sixlar cho'qqa aylangach, xon ularni maxluqning ko'ziga suqdi. Maxluq og'riqning zo'ridan qichqira boshladи. Qo'lini cho'zib, ovchilarni izlashga urindi. Lekin ulardan hech birini topa olmadi. Ovchilar xonning maslahati bilan qo'ylarning orasiga yashirinishgan edi. Bir ko'zli maxluq har qancha qidirsa-da, ularni topa olmaganidan so'ng shunday dedi: «Baribir, mendan qochib qutula olmaysanlar, bugun bo'lmasa, ertaga, albatta, qo'limga tushasanlar». Shundan so'ng u yana uyquga ketdi. Ovchilar esa gavdalarining kattakichikligiga qarab qo'y tanladilar, ularni so'yib, terisi ichiga kirdilar. Ertasi kuni ular qo'ylar bilan birga oyoqqa turishdi. Bir ko'zli maxluq ham uyg'ondi. Qo'ylarni yaylovga chiqarish uchun g'or eshigini ochdi, o'zi esa eshik oldiga turdi. Ovchilar chiqib ketmasligi uchun qo'ylarning har birini paypaslab turdi. Uning hisobidagi hamma qo'ylar yaylovga chiqib bo'lgan edi. Shundan so'ng bir ko'zli maxluq xitob etdi: «Ovchilar, qayerdasizlar? Bu yoqqa kelinglar!» Ovchilar g'ordan tashqarida javob berdilar: «Ey, ahmoq! Ablah! Biz bu yerdamiz!» Ovchilarning tadbirkorligidan lol qolgan bir

ko'zli maxluq dod-faryod soldi va boshini g'or devorlariga uring, alam bilan jon berdi. Ovchilar bir ko'zli maxluqning butun boyligini oldilar va uylariga qaytib, murod-maqsadlariga yetdilar.

Bir ko'zlilar haqidagi afsonalar turkiy xalqlar og'zaki ijodida katta turkumni tashkil etadi. Rus etnografi G.N.Potanin ham bu mavzudagi afsonalardan bir nechtasini yozib olgan va nashr ettirgan. Bir ko'zlilar afsonasi turkiylarda ko'proq uchrashi, yunon tarixchilari ham qadimgi turkiylar yashagan hududlarda Polifemlar borligiga ishonch bilan qarashi, ehtimol, bu mavzu qadimgi Gretsiyaga Sharqdan borgan bo'lsa kerak, degan fikr uyg'otadi.

## **PROMETEY OBRAZI YARATILISHINING TURKIY MANBALARI**

Prometeyning nomi jahon adabiyotida zulm vaadolatsizlikka qarshi kurashgan qahramonlarning umumlashma boqiy obraziga aylangan. Insonparvarlik va haqiqat yengilmasligining majozi bo'lgan bu obraz miloddan oldingi asrlarda yunon adabiyotida yaratilgan edi.

Gomerning «Iliada» va «Odisseya» kabi asarlari so'nggi asrlarda yashagan yunon shoirlari uchun an'ana maktabi hisoblangan. Gomerdan keyin yunon adabiyotida ushbu mavzuda yaratilgan epik dostonlar «Troya turkumi» deb atalgan. Gesiod va Esxilning Prometey haqida yaratgan asarlarini ham ushbu turkumga kiritish mumkin. Chunonchi, Esxil o'z asarlarini «Gomer bazmgohida to'kilib qolgan ushoqlar», deb atagan.

«Troya turkumi» yunon adabiyotidagi boshqa dostonlardan muhim bir xususiyati bilan ajralib turadi.

Unda yunonlarning Troyaga yurishlaridan tashqari, turkiylarning qadimgi qavmlari hisoblangan skiflar, kimmerlar, shuningdek, ularning jangovar ayollar guruhi – amazonkalarning yashash tarzi, mamlakati haqida ham tasvirlar berilgan.

Jahon adabiyotshunoslari Gesiod va Esxil Prometeyning obrazini yaratishda yunon mifologiyasida mavjud afsonalardan foydalanganini qayd etishadi. Prometey haqidagi rivoyat va afsonalar, xususan «Zanjirband Prometey»dagi tasvirlar skiflar mamlakati bilan bog‘langanligi nuqtai nazaridan bu obraz badiiyatini qadimgi turkiylar hayoti bilan qiyosiy o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Zotan, muammo yechimining ijtimoiy va adabiy manbalari mavjud.

Esxil fojiasidagi tasvirga ko‘ra Prometey Zevsning qahrli amri bilan skiflar mamlakatidagi osmono‘par qoyaga zanjirband etiladi. Yunonlar skiflar mamlakati deyilganda yer qit’asining katta qismi – hozirgi davr nazari bilan qaraydigan bo‘lsak, Qora dengizdan Russiya tomon cho‘zilgan shimoli-sharqiy kenglik, Qofqaz va Markaziy Osiyodagi hududlarni tushunganlar. Zotan, Esxil yaratgan Prometey skiflar mamlakatini ana shunday kengliklar bilan tasavvur etadi. Prometeyning zanjirband etilishi hamda qynoq-azoblarga solinishi unga e’tiqod qo‘yan kuchlar qalbida rahm-shafqat uyg‘otadi. Bahr ma’budi Okean uchar otda yetib kelar ekan, Prometey unga shunday murojaat qiladi:

*Va nihoyat sen ham kelding, bu nima, demak,  
Azobimga tomoshabin bo‘lganimi yo,  
Senga nomdosh bo‘lgan oqim – ulug‘ Okean,  
Ham qoyavor g‘or qa‘rining ilk bargohini,  
Tark aylabon temir-ma‘dan iqlimi sari,  
Kelmoqlikka qanday jur‘at qila olding- a?*

Bu parchadagi «temir ma'dan iqlimi» skiflar mamlakatini anglatadi. Qadimda yunonlar skiflar mamlakatini shunday nomda atashgan. Sababi bu hududda temir-ma'dan boyliklarining ko'pligi hamda skif qabilalari temirchilik ishlari bilan mashhur bo'lganligidir. Gerodot skiflarning massaget qabilasi yashaydigan joyda oltin va mis boyliklari behisobligini alohida ta'kidlaydi. Esxil yaratgan dramada Prometey skiflarning ana shunday boyliklarini ochuvchi va xalqqa yetkazuvchi qahramon sifatida ko'rindi. Bu haqda uning o'zi shunday deydi:

*Binobarin... Kim aytishga jur'at etadi,  
Menga qadar yerostida yashirin yotgan  
Temir, oltin, kumushlarni, rangin mislarni  
Odamlarning foydasiga yetkazganini,  
U kimdirki, mag 'rurlansin, albatta, hech kim.*

Bu misralarda bayon etilgan fikrlar Prometey taqdirini «temir-ma'dan iqlimi» – skiflar mamlakati bilan yanada yaqinroq bog'laydi. Ayni paytda bu obraz skiflar jahonda yerosti boyliklarini topish va uni ishlatishda mashhur bo'lishining asosi sifatida ham ko'rindi.

Prometeining qiynoq-azoblarga solinishi amazonkalarni yordamga otlanadiradi. Dramada shunday satrlar keltirilgan:

*Achinmoqda senga hatto  
Sher yurakli amazonkalar.  
Meotida ko 'rfazining chekkasida  
Asrlar osha yashab kelgan  
Skif qavmi – jangarilar ham.*

Demak, amazonkalar skiflar qabilasi. Ularning yashash joyi Meotida (hozirgi Azov dengizi) sohillarida bo'lgan.

Prometey dramada skiflar mamlakatining tabiatini, boyliklari, daryolari, bu hududda yashaydigan qavmlar, ularning yashash tarzi, urf-odatlari hamda o'zlariga xos ruhiy kechinmalari haqida to'la tasavvurga ega bo'lgan qahramon sifatida ko'rindi. Xususan, bu tasvir malika Ioga qilgan murojaatida o'z ifodasini topgan. Xo'sh, Prometey bu qadar skiflar turmushi bilan bog'lanishiga asos nima? Nega yunon misologiyasida Prometey obrazi keng o'rin olgan bo'lsa-da, u skiflar mamlakatida zanjirband etiladi?

Skiflar hayoti aks etgan tarixiy manbalar, ular asos solgan mamlakat hududida yashayotgan qavmlar o'rtasida saqlanib qolgan adabiy syujetlar Prometey aslan skiflarning qahramoni bo'lganiga ishonch uyg'otadi. Gerodot shunday afsonani keltiradi:

Prometey skiflarning shohi edi. Burgut nomidagi daryo toshib, ekinzorlarni bosgach, Prometey xalqini oziq-ovqat va boshqa zaruriy narsalar bilan ta'minlay olmadi. Shundan so'ng skiflar o'z shohlarini kishanlab tashladilar. Gerakl daryo bilan dengizni qo'sha oldi. Shuning uchun ham xalq o'rtasida go'yo Gerakl burgutni o'ldirgani hamda Prometeyni zanjirdan ozod qilgani to'g'risida olqishlar tarqalgan.

Gruzin olimi M.Ya.Chikovani ma'lumot berishicha, E.Kenfler (XVII-XVIII) qadimgi yunon manbalari asosida Prometey haqidagi afsonalarni batafsil o'rganar ekan, uning shaxsiyatini skif shohi Protosey nomi bilan bog'laydi. E.Kenfler tadqiqotlariga ko'ra, Protosey Mago'g avlodidan bo'lib, Yofasning o'g'lidi. U skif xalqining otasi deb tan olingan. Uning osmondan yerga olov olib kelishining mazmuni shundaki, u Qofqaz tog'laridan metall boyliklarini topish, qazish va olovda toblay olish qobiliyatiga ega bo'lgan.

Yuqoridagi dalillar tarixda Prometeyning o'z muqobili bo'lganligini ko'rsatadi. Demak, Prometey obrazi

yaratilishiga skiflar shohi Protoseyning shaxsiyati asos bo'lgan.

Jahon adabiyotshunosligi hozirgacha Prometey haqidagi afsonalar yunon mifologiyasi mahsuli deb tushunadi. Aslida bu afsonalar turkiylarning qadimgi avlodi skiflar og'zaki ijodida paydo bo'lgan hamda yunon yozma adabiyotiga ko'chgan, deb hisoblash haqiqatga yaqindir. Skiflar mamlakatining markaziy qismi hisoblangan Qofqaz va Qofqazorti respublikalari, Kaspiy va Qora dengiz atroflarida yashaydigan xalqlar og'zaki ijodida Prometey qahramonligini eslatuvchi rivoyat hamda afsonalarning namunalari ko'plab saqlangan.

Qofqazda yashaydigan xalqlarning og'zaki ijodida «Amiran» eposi keng tarqilgan. O'rni kelganda ta'kidlash lozimki, turkiylarning nodir eposlaridan biri «Qo'rqt ota kitobi»da Amiran haqida alohida doston berilgan (IX qo'shiq). Qofqaz xalqlari o'rtasidagi rivoyatlarga ko'ra, Amiran Elburs tog'ida zanjirband qilingan. Abxazlarning Abrskil, imeretlarning Rokapi, ajarlarning Rompapi, svanlarning Rokan, adigeylarning Nasrenjak kabi qahramonlari ham Prometeyning muqobil obrazni sifatida o'z qiyofasiga ega. Prometey haqidagi afsonalar mazmuni Alisher Navoiy she'rlarida ham ifodalangan. Shoir bir ruboysiida shunday yozadi:

*Zog'eki, cho 'qub oquzdi qon ko 'nglumdin,  
Tirnog 'ila uzdi notavon ko 'nglumdin.  
A'zosida ko 'r asar damin duduni  
Minqor ila changiga nishon ko 'nglumdin.*

Akademik B. Valixo'jayev bu ruboyni tahlil qilar ekan, avvalo, uni katta bir asotir mazmunini ifodalagan masal-ruboiy, mo'jaz hajmli majoziy she'r deb hisoblaydi. Ikkinchidan, olim bu ruboiyda zanjirband Prometeyning

ko'ksini cho'qigan burgutlar tasviriga hamohanglikni ko'radi, uchinchidan, bunday o'xshashlikni Alisher Navoiy yunon asotirlari bilan tanish bo'lganmi yoki tavorud (ikki shoirning bir-biridan xabarsiz holda bir mavzuda asar yaratish) hodisasimi deb hisoblaydi va masalaga aniqlik kiritishni adabiyotshunoslikning muhim vazifasi deb qaraydi.

## FORS-TOJIK ADABIYOTI VA AFROSIYOB HAQIDAGI AFSONALAR TURKUMI

Miloddan avvalgi VII asrlarda skif-kimmerlar xoqoni Madi Kichik Osiyo mamlakatlariga, jumladan, Midiya (Eron)ga qo'shin tortishi hamda ahmoniylar shohi Kayxisrav bilan jang qilishi fors-tojik adabiyotida alohida mavzu hisoblanadi. Lekin bu mavzudagi asarlarda tarixiylik tamoyili asos qilib olingan emas. Faqat tarixiy haqiqatning umumiyo yo'nalishi – tarixda turkiy va eroniy shohlar o'rtasida urush hamda nizolar tez-tez bo'lib turganligi voqeasi badiiy syujetga aylandi. Bu turkumdagisi asarlarning qahramoni Afrosiyobdir. Afrosiyob skiflar qahramoni Madining to'la darajadagi tarixiy obrazi bo'lmay, balki turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi Alp Er To'nganining muqobilidir. Qadimgi kitoblarda Afrosiyobning nomi va nasl-nasabi shunday ta'riflangan: «Franhrasyan» («Avesto»), «Frasyak» («Bundahishn»), «Frasiyab Fashan o'g'li, Rustam o'g'li, Turk o'g'li» (at-Tabariy), «Frasiyab o'g'li, Rustam o'g'li, Rishman o'g'li, Turk o'g'li» (al-Bashang o'g'li, Inat o'g'li, Rishman o'g'li, Turk o'g'li) (al-Beruniy), «Afrasiyab Ashk o'g'li», Rustam o'g'li, Turk o'g'li» (ibn Xaldun).

Afrosiyobni Turon mamlakatining pahlavoni, xoqoni sifatida tasvirlagan birinchi yozma yodgorlik «Avesto»dir. Shundan so'ng uning obrazi fors-tojik adabiyotidagi o'nlab og'zaki va yozma asarlarda ko'rina boshladi. Afsuski,

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug‘otit turk» asaridagi marsiyani e’tiborga olmaganda, u haqda turkiy adabiyotda yirik adabiy syujet mavjud emas edi. Fors-tojik adabiyoti Afrosiyob haqidagi adabiy syujetlarni saqlashi bilan turkiy xalqlar ijodiga xos yodgorlikni ham bizning davrlargacha yetkazib bera oldi. Ikkinchidan, qadimgi dariy, fors-tojik, arab tillarida bitilgan Afrosiyob haqidagi rivoyat va qissalar Markaziy Osiyoda yashayotgan xalqlarning badiiy tafakkuri mahsulidir. Shu jihatdan qaraganda, qadimgi turkiy adabiyotning yirik vakili Yusuf Xos Hojib quyidagi misralarni bitganida haq edi:

*Tajiklar ayur ani Afrasiyab,  
Bu Afrasiyab tutti ellar talab...  
Tajiklar bitikda bitimish muni,  
Bitikda yo‘q ersa kim o‘qg‘ay ani...*

Mazmuni:

*Tojiklar uni Afrosiyob deb ataydilar,  
Bu Afrosiyob ellarni o‘z tasarrufiga olib tutdi.  
Tojiklar uni kitobida yozib qoldirganlar,  
Kitobda bo‘lmasa, uni kim ham bilardi...*

Fors-tojik adabiyotida Afrosiyob obrazi rang-barang xususiyatlar bilan gavdalantirilgan. Uning badiiy obrazini mukammal tasavvur etish uchun rivoyat va afsonalarning matnini tiklash turkiy adabiyotning ham qadimgi davrlarini o‘rganishda amaliy ahamiyatga ega.

*Birinchi afsona:*

**Eron va Turon chegarasining belgilanishi.** Afrosiyob Eron shohi Manuchehrga bir necha marta zarba berdi. Manuchehr Zolni Afrosiyobni Jayhunning narigi tomonlariga quvib

yuborish uchun jangga yubordi. Lekin Afrosiyob ko‘p sonli qo‘smini bilan Tabaristonga kelib, Manuchehrni tiz cho‘ktirdi. Som va Zol jangda qatnashmagan edi. Nihoyat, ular sulk tuzishga ahd qildilar. Orsh Amul qal’asidan turib kamonda o‘q uzdi. Uning o‘qi Akab-Mazdavavran (Seraxs va Mervning o‘rtasi)ga kelib tushadi. Eron va Turonning chegarasi shu joydan belgilanadi («Mujmil at-tavarix al-qasas», Tehron, 1335-1956).

*Ikkinci afsona:*

**Afrosiyob va Xisravning qudrat ma'budi Ardisura-Anahitaga qurbanlik keltirishi.** Eron va Turon mamlakatidagi taniqli pahlavonlar qudrat hamda shafqatpesha ma'budi Ardisura – Anahita sharafiga yuzta ot, mingta navvos, o‘n mingta qo‘y qurbanlik keltiradilar va ularning istak-niyatlarini aytib, undan omad so‘raydilar. Yaratguvchi Ahura Mazda, ilk afsonaviy qonunshunos shoh Xush-shiyanka-Paradata, suv toshqini qahramoni Yima, mashhur bahodir Tretona, pahlavon Gersasplarning iltijolarini Ardisura – Anahita qabul qiladi va ularning ishi rivojlanishiga omad tilaydi. Shunda Turon shohi Franhrasyan ham yuzta ot, mingta novvos, o‘n mingta qo‘yni qurbanlikka keltirib, undan madad so‘raydi:

*«Baxshida qil menga shundayin omad,  
O, qudratli, shafqatpesha Ardisura.  
Kim Huvarno sultanatin sohibi bo‘lay,  
Boruqashning orasida porlagan mudom,  
Hozirda va keljakda.  
Qo ‘shilgandin oriylarning mamlakatiga  
Va ertaga e’tiqodli Spitam- Zardusht  
Unga hamrohdir.*

Ardisura-Anahita unga omad bermaydi. Shundan so‘ng qaviy urug‘ining hukmdorlaridan biri Qavan-Usan, qaviy

shohi Xisrav shuncha miqdordagi qurbonlik keltiradi. Ularning iltijolari qabul qilinadi. Xisravning maqsadi shunday edi:

*«Baxshida qil shundayin omad,  
O, qudratli, shafqatpesha Ardisura.  
Kim men hokim bo'layim mutlaq,  
Barcha kishvar-iqlimlarga.  
Barcha devlar va insonlar,  
Jodugarlar, afsungarlar.  
Qaviylik va qoroponlik,  
Hukmdorlar ustidan ham,  
Va jangovar aravani  
Boshqarayin barchadan avval,  
Jang arsasida.  
Ham xoinlar tuzog'idan omon qolayin,  
Suvoralar kurashida g'olib kelsa  
Yovuzlar ham»* («Avesto», 5-yasht).

*Uchinchi afsona:*

**Ma'buda Osha Afrosiyobni asirga olishga madad beradi.**

Tur shohi Franhrasyan (Afrosiyob) Siyovarshan (Siyovush)ni yovuzlarcha o'ldirgan edi. Shuningdek, narava urug'idan bo'lgan eron sipohi Ahrarat (sug'dlarning qadimgi «Bundaxishn» kitobida bu obraz Afrosiyobning ukasi deb berilgan) ham o'ldirilgandi. Qaviylar sulolasidan bo'lgan Xisrav otasining xunini olish uchun Afrosiyobga qarshi intiqom kurashiga otlanadi. Xisrav Mitranning singlisi ma'buda Oshaga Siyovarshan va Ahrarat uchun turonlik botir Franhrasyandan o'ch olishga madad so'raydi. Ma'buda Osha Xisravning iltijolarini qabul qiladi. Qaviylarning pahlavoni va sipohiyilar ham Oshaga kelib, Turon bahodiri azobidan qutqarishni iltijo qiladilar. Hamma Franhrasyanni asir qilish, qo'l oyog'ini boylab,

Xisrav qoshiga keltirish uchun kurashda omad so'raydi. Ma'buda Osha ularning iltijolarini qabul qiladi va kurashda omad tilaydi. («Avesto», 17-yasht).

*To 'rtinchi afsona:*

**Afrosiyob o'z ukasi Agreraspni o'ldirishining boisi.** Afrosiyob jangda Eron shohi Manoshchihra (Manuchehr)ni asirga oladi. Afrosiyobning ukasi Agrerasp uni ozod qiladi. Bundan jahli chiqqan Afrosiyob o'z ukasini o'ldiradi («Bundahshin»).

*Beshinchchi afsona:*

**Siyovushning Afrosiyobdan panoh so'rab kelishi.** Ajamning Sharqidagi Turkiston yeri Afrosiyob ixtiyorida edi. Ajam, uning g'arbidagi Xijoz, Yaman Kaykovusga qarashli bo'lgan. Eron va Turon o'rtasidagi chegara Amudaryo (Jayxun) orqali o'tar edi.

Kaykovus bir o'g'il ko'rdi. Uning nomini Siyovush qo'ydilar. Butun dunyoda bundan chiroyliroq o'g'il yo'q edi. Bola mashhur sarkarda Rustam qo'lida tarbiya topdi. 20 yoshga to'lgach, Siyovushni otasi qoshiga olib keldilar. Kaykovus uning yaxshi ishlarga va odobga o'rganganidan quvondi. Kaykovusning bir xotini bor edi. U Mozandaron shohining qizi edi. Bu xotin juda ko'zi sho'x, chiroyli bo'lgan. U Siyovushni ko'rib, unga oshiq bo'lib qolgan. Siyovush o'gay onasining so'ziga qulqoq solmadi. U men otamga bevafolik qila olmayman deb javob berdi. Bundan g'azablangan ayol ko'p hiylalar ishlatdi, yolg'on gapirib, Siyovushga tuhmat qildi. Natijada ota o'g'lini o'limga buyurmoqchi bo'ldi. Ammo Siyovushni Afrosiyobga qarshi urushga otlangan qo'shinga boshliq qilib yubordi.

Siyovush Turonga kelib urush qildi, yovning ko'p askarlarini o'ldirdi. Shundan so'ng Afrosiyob ikki kishini yuborib, sulh so'radi. Siyovush sulh tuzdi va bu haqda otasiga

xabar qildi. Otasi, men sulhni istamayman, deb javob berdi. Siyovush, men bevafolik qilmayman, o‘z ahdimdan qaytmayman, dedi. U endi otasining oldiga bora olmas, yo u yoqqa, yo bu yoqqa o‘tishi kerak edi. U Afrosiyob oldiga bordi. Afrosiyob uni yaxshi qarshi oldi va Siyovushga o‘z qizini berdi. Qo‘sish Eronga qaytdi. Afrosiyob Siyovushning odobi, mardligi, suvoriyligidan xavotirlana boshladi va bu haqda o‘z odamlari bilan maslahatlashdi. Nihoyat, Siyovushni o‘ldirdilar. Siyovushning xotini (Afrosiyobning qizi) homilador edi. Unga dori berib bolasini tushirmoqchi bo‘ldilar. Afrosiyobning Piyron degan bir vaziri bor edi. U Siyovush bilan Afrosiyob o‘rtasida tuzilgan sulhning tashabbuskori bo‘lgan edi. Piyron Afrosiyobning huzuriga keldi, uning qilgan ishini qoraladi. U, malikzoda sening yoningga keldi, senga xizmat qildi, u nima gunoh qilgan ediki, sen uni qatl ettirding. Endi Kaykovus va Rustam sendan uning xunini talab qiladilar, sen ulardan salomat qutulib ketolmaysan. Ular Turonni vayron qiladilar. Modomiki, sen Siyovushni o‘ldirding, endi qizingni menga topshir, agar u o‘g‘il tug‘sa, o‘sha o‘g‘ilni Kaykovus va Rustamga yuboraman, shu bilan ularning g‘azabini kamaytiraman, dedi.

Afrosiyob qizini Piyronga topshirdi. Ammo agar o‘g‘il tuqqan bo‘lsa, o‘sha bolani o‘ldirishni buyurdi. Piyron shoh qizini uyiga olib ketib saqladi. Bir oy o‘tmasdan Siyovushning xotini o‘g‘il ko‘rdi. U xuddi otasining o‘zi edi. Piyronning bolani o‘ldirishga ko‘ngli bo‘lmadi. Unga Kayxisrav deb nom qo‘yishdi va yashirincha tarbiyaladi. Afrosiyobga, qizing farzand ko‘rdi, deb xabar qildi. Ammo o‘g‘il ekanini bildirmadi. Bir qancha vaqt o‘tgach, Afrosiyob qizim nima bola tug‘di, deb so‘radi. O‘g‘il, deb javob berdi Piyron, ammo uni o‘ldirishga ko‘nglim bo‘lmadi, dedi u.

– Keltir, – dedi Afrosiyob, uni ko‘rayin. Piyron toza kiyimlar kiygizib Kayxisravni Afrosiyob qoshiga keltirdi. Afrosiyob uni ko‘rgan zahoti yig‘lab yubordi va Siyovushni

o'ldirganiga pushaymon edi. Kayxisravni o'z yoniga o'lting'izdi va uning yuzidan o'pdi. Piyronga bu bola cho'ponlar orasida bo'lsin, ulg'ayganda, kimning zotidan ekanini bilmashin, deb buyurdi. Bolani cho'ponlar qo'liga tarbiyalash uchun topshirdilar. Oradan yetti yil o'tgach, bir kuni Afrosiyob Piyrонни o'z huzuriga chaqirdi va unga:

Bugun hech uyqum kelmayapti. Hamon o'sha go'dakning andishasini qilmoqdamani. Qanday qilib podshohzoda cho'ponlar qo'lida bo'lishi mumkin, nima ravo bo'lsa, o'sha ravo bo'lsin, borgin, uni keltirgin, - dedi.

Piyrон ketdi. U cho'ponlar yoniga keldi va bolani ko'rdi. Kayxisrav chavgon o'ynar edi. Piyrон otdan tushib, piyoda uning yoniga keldi. Quchoqlab bag'riga bosdi. Qattiq o'pa boshladi va yig'lab yubordi. Kayxisrav undan o'zini olib qochar edi. U Piyronga, ey otliq, senda uyat yo'qmi, nega cho'pon bolasini bag'ringga bosib quchoqlaysan, dedi.

Piyrон tangdil bo'ldi. U aytdi: «Sen cho'pon bolasi emassan, podshohzodasan». U bolani otga o'lting'izib, yashirinchcha Afrosiyob qoshiga keltirdi. Yo'lda unga, Afrosiyob oldiga ketayotganligini aytdi, undan bobong nimani so'rasa shunday javob berish kerakki, u sendan qo'rqa digan bo'lmasin, deb tushuntirdi. Afrosiyob qoshiga yetib kelishdi. Afrosiyob bolaning komilligidan hayratda qoldi. Afrosiyob Piyronga, buni olib borib onasiga topshirginki, undan hech ajralmasin, men uning boshini so'rayman, deb o'ylab xavotir bo'lmasin, dedi. Piyrон uni olib borib, onasiga topshirdi.

Bir qancha vaqt o'tgach, Siyovushning o'ldirilganligi xabari Kaykovusga borib yetdi. U nihoyatda g'azablandi, yig'lab nola qildi. Barcha qora kiydi. Bir necha yil o'tdi. Lashkarboshilar ichida Gudarz degan odam bor edi. Bir kuni u tushida shunday holni ko'rdi: bir odam unga o'g'ling Gevni Turonga yubor. U borib Kayxisravni olib kelsin, dedi. Gudarz bu tushdan Kaykovusni xabardor qildi. Kaykovus

Gevga buyruq berib, uni Turonga jo'natdi. Gev yetti yil Turonda bo'ldi va Kayxisravni izlab topdi. U Kayxisravni va uning onasini qo'lga kiritib, Eron sari yo'l oldi.

Afrosiyob bo'lган ishlardan xabar topib, uch yuz mard va jasur yigitlarini Piyronga berdi va ularni qochoqlar ortidan jo'natdi. Gev ular bilan jang qildi. Ba'zilarini o'ldirdi, ba'zilarini qochishga majbur etdi. U Piyrонни tutib oldi va o'ldirishga qasd etdi. Kayxisrav Piyrонning unga ko'п yaxshiliklar qilganligini aytdi va o'ldirmaslikni so'radi.

Gev, men uning qonini to'каман, deb qasam ichganman, o'ldirmasam bo'lmaydi, dedi. Kayxisrav unday bo'lsa sal qulog'ini kesgin, shunda qasaming ham buzilmaydi, Piyrон ham omon qoladi, deb maslahat berdi. Gev Piyrонning qulog'ini sal kesdi va uni otiga bog'lab qo'ydi. Gev va Kayxisrav Eronga Kaykovus huzuriga yetib kelishdi. Kaykovusning buyrug'iga ko'ra, Rustam katta qо'shinga bosh bo'lib Turonga yurish qildi. Afrosiyobni yengib qochirdi, ko'п ellarni g'orat qildi, asir va o'ljalarni qo'lga kiritdi. Kaykovus bir yuz ellik yil yashab, so'ng vafot etdi.

Kaykovus vafotidan so'ng taxtga Kayxisrav bin Siyovush o'tirdi. U tojni kiygan zahoti odamlarini yig'di va Afrosiyobning ustiga yurish qilajagi va otasining qasdini olajagini bildirdi. Lashkarlari orasidan yuz ming kishini ajratib oldi va ularni Tusi Navdarga topshirdi. Ular Turonga yo'l oldilar.

Afrosiyob bu ishlardan xabar topgach, u ham lashkar tortdi. Piyrонни qо'shinga boshliq etib tayinladi. Qо'shinlar bir-biri bilan uchrashgach, qattiq urush boshlandi. Urushda Turon askari yengib chiqdi. Firibarz boshchiligidagi Eron qо'shini yengilib, bayroqni orqaga o'girib qochishga yuz tutdi. So'ng Kayxisrav yana butun Eron lashkarlarini yig'ib, Afrosiyobdan o'ch olishdan boshqa chora yo'q, deb e'lон qildi, sipohlar uning atrofida jipslashdilar.

Afrosiyob ham barcha turk qо'shini jam qilgan edi. Kayxisrav Eron va Turon o'rtasidagi chegaraga keldi. U

qo'shinni to'rt qismga bo'lib, Turonga kirish va g'anim lashkarlarini o'rab olishdan iborat rejasini e'lon qildi. Gudarzga Axtari koviyon deb atalgan katta bayroqni topshirdi, unga qo'shib amakisi Firibarzni ham yubordi. Yana bir qo'shinni Girgin milod nomli boshliq qo'l ostida boshqa tomonga jo'natdi. Qolgan lashkarlarni Rustamga berdi, yana Gushtahi nomli lashkarboshini ham u bilan jo'natdi. O'zi o'z manzilgohida qaror topdi. Agar biror lashkar yengilsa unga madad yuborar, yengsa ularni yana ruhlantirar edi. Bu xabarlar Afrosiyobga borib yetdi. Uning Garshiyuz nomli bir birodari bor edi. Siyovushni o'ldirgan shu edi. Kayxisrav shuni berishni talab qilar edi. Afrosiyob o'sha birodariga sonsiz-sanoqsiz lashkar berib, jangga jo'natdi.

Kayxisrav Turonga sipoh tortib kelgan bo'lsa ham, ularning eng ko'pi Gudarz qo'l ostidagi qo'shin edi. Koviyon tug'i ham o'shanda, sen o'sha tomonga yo'l tut, deb Afrosiyob unga topshiriq berdi.

Kayxisrav Turon qo'shining yaqinlashganini, uning boshlig'i Piyron o'zining tarbiyachisi ekanini bilib, uni o'ldirishni istamadi. Kayxisrav vakillar yuborib, Piyronga bunday xabar qildi:

— Sening menda haqing bor. Sen meni otam va onam o'mida tarbiya etding, menga ko'p yaxshiliklar qilding, sen qaytgin, mening qo'shimim bilan urush qilmagin, tokim g'alaba qozonsam sening haqingni oqlayman. Piyron uning elchilari va nomasini saqladi. Afrosiyob Piyronni o'z birodarlari va farzandlaridan ham ortiq qadrlar edi. Uni o'zidan keyin boshliq etishga mo'ljal qilgan edi. Piyron o'z lashkarlari bilan olg'a yurdi va Gudarz qo'shini bilan urush boshladи. Gudarz Piyron qo'shining zarba berdi. Piyron shu urushda o'ldirildi. Uning hamma birodarlari, Afrosiyobning yaqinlari, shular qatori Siyovushning qotili Garshiyuz ham asir qilindi.

Garshiyuzning qulog'ini kesib, ko'zini o'yib oldilar. U Siyovushga nima qilgan bo'lsa, unga ham shuni qildilar va

qatl etdilar. Kelgusi kuni Kayxisrav taxtga o'ltirdi, amakisi Namfiram o'ng qo'l tomonga o'ltirgandi, unga Kirmon va Makron hokimligini topshirdi. So'ngra Kayxisrav Gudarzga minnatdorchilik izhor etdi, ko'p sovg'alar berdi va uni Isfahon hamda Gurgon hokimligiga tayin qildi. Boshqa lashkarlardan ham xabar keldi. Ular Turon yerida Afrosiyobni o'rab olgan edilar. Jahon Afrosiyobga tor bo'lgan edi. Afrosiyob ham o'z lashkarlarining mag'lub bo'lgani, Piyronning o'ldirilgani, Garshiyuzning hamma a'zolari, badani pora-pora qilinganini eshitgan edi. Afrosiyobning hali ko'p askari bor edi.

Afrosiyob o'g'li Shaydaga ko'p qo'shin berib, Kayxisravga qarshi kurashga jo'natdi. Shayda jodu hunariga usta edi. Kayxisrav uning jodusidan qo'rqib, qo'shinini olib chiqib ketdi. Maydonda faqat Quruq ibn Harxon nomli kar lashkarboshi qo'l ostidagi bir qism askarni qoldirdi. U lashkar qo'shini bilan chorshanba kuni butun kun bo'yи jang qildi. Nihoyat, turk qo'shini chekindi va Kayxisrav lashkarboshisi ularni ta'qib etib bordi. Ular yetib borishib, Shaydani otdan qulatdilar va o'ldirdilar. Turk qo'shini yengilib qochdi. Kayxisrav lashkarlari ko'p asir va o'ljalar olib qaytdi.

Afrosiyob bu xabarni eshitib, lashkarboshilikni endi kimga topshirishni bilmay qoldi. Nihoyat katta qo'shin yig'ib, o'zi bosh bo'lgan holda jangga otlandi.

Kayxisrav ham qo'shinini yig'di. Uch lashkarboshisi oldinga chiqdilar. Hukmronlar va malikzodalar Kayxisravning atrofiga jam bo'ldilar, urush boshlandi. Bunday urushni hali jahonda hech kim ko'rмаган. Afrosiyob mag'lub bo'lib chekindi. Kayxisrav uni ta'qib etib, shaharma-shahar quvib yurdi. Ammo Afrosiyob hech bir joyda to'xtamadi. Nihoyat, u Turondan chiqib, Rumga o'tib ketdi. Afrosiyobning yonida lashkarlaridan hech kim qolmadi.

U bir marg‘zorga kelib qoldi. U yerda bir ko‘l bor edi. Afrosiyob o‘sha ko‘lda suv ichida yashirindi. Uni axtarib topdilar va tutib Kayxisrav oldiga keltirdilar. Kayxisrav uni bandi qilishni, qaytarib olib ketishni va uch kun tinchlikda saqlashni buyurdi. To‘rtinchi kuni u Afrosiyobni o‘z huzuriga chaqirdi va unga dedi: «Siyovushni nega o‘ldirding, sababini menga ayt». Afrosiyobning hech hujjati yo‘q edi. Kayxisrav uni o‘limga buyurdi. Gudarazga buyurdiki, bir tog‘ora olib kelsinlar. Afrosiyobni yotqizdilar, oyog‘i va qo‘lini kesdilar, bo‘g‘zini qo‘yga o‘xshatib, o‘sha tog‘ora ustida uzdilar. Siyovushning bo‘g‘zini ham u xuddi shunday uzgan edi.

So‘ngra Kayxisrav qo‘shinni qaytardi va o‘z yurtiga keldi. U barcha xalq va askarini yig‘ib bunday dedi: «Men jahondan nimaniki lozim bo‘lsa, topdim. Endi jahon ishini tark qilaman, mamlakatdan chiqib ketaman. Mamlakat va hukumatni boshqarishni kimni xohlasangiz o‘shanga bering». Ular hammalari g‘amgin bo‘ldilar. Qancha yolvordilar, foyda qilmadi. U yana dedi: «Menga o‘lim kelmoqda, o‘lganimdan so‘ng nimani qilmoqchi bo‘lsalaringiz, hozir shuni qilinglar».

Xaloyiq bildiki, hech narsa foyda bermaydi. Ular, bizga nomzodingni tayin qil, tokim hokimiyatni o‘shanga topshiraylik, dedilar. U yerda Luhrasp o‘ltirgan edi. U podshohzodalardan edi. Kayxisrav qo‘lini o‘sha tomonga uzatdi va jim bo‘ldi. O‘sha kecha Kayxisrav g‘oyib bo‘ldi. Keyin uni hech kim ko‘rmadi. Deydilarki, Kayxisrav tog‘larga chiqib ketgan va o‘sha yerda vafot etgan. («Tarixi Tabariy», akademik A.Qayumov tarjiması).

### *Oltinchi afsona:*

**Afrosiyobning Romiton shahrini qurishi.** Romtin (Romiton) bir ko‘handizga ega va mustahkam bir qishloq bo‘lib, Buxorodan qadimiyroqdir. Bu qishloqni Afrosiyob bino

qilgan. Afrosiyob har vaqt bu viloyatga kelganida shu qishloqdan boshqa joyga turmagan. Forsiyarning kitobida aytlishicha, Afrosiyob ikki ming yil yashagan. U jodugar bo'lib, Nuh podshohning bolalaridandir. U o'zining Siyovush nomli kuyovini o'ldirgan. Siyovushning Kayxisrav nomli o'g'li bo'lib, u otasining qonini talab qilib, ko'p lashkarlar bilan bu viloyatga kelganida Afrosiyob shu Romtin qishlog'ini hisor qilib turgan. Kayxisrav o'z lashkarlari bilan ikki yil shu hisor atrofimi o'rabi turdi va uning ro'baro'siga bir qishloq bino qilib, bu qishloqni Romush deb atadi. Uni yaxshiligidan Romush deganlar. Bu qishloq hozirgacha obodondir. Kayxisrav Romush qishlog'ida otashparastlar ibodatxonasini qurdi: otashparastlarning aytishlaricha, bu ibodatxona Buxorodagi otashparastlar ibodatxonalarining eng qadimiyisidir. Kayxisrav ikki yildan keyin Afrosiyobni tutib o'ldirdi. Afrosiyobning go'ri Buxoroda Ma'bad darvozasida rahmatli Xo'ja Imom Abu Hafs Kabir tepaligiga tutashgan katta tepalik ustidadir.

Buxoro aholisi Siyovushning o'ldirilishi to'g'risida ajoyib ashulalar to'qigan: kuychilar bu qo'shiqlarni «Kini Siyovush» – «Siyovush jangi» deb ataydilar.

Muhammad ibn Ja'far (an-Narshaxiy) o'sha vaqtidan buyon uch ming yil o'tgan deydi. (Narshaxiy. «Buxoro tarixi»).

### *Yettinchi afsona:*

**Afrosiyob tomonidan Siyovushning o'ldirilishi.** Buxoro arki hisorining bino etilishiga mana shu voqeа sabab bo'lган: Siyovush ibn Kaykovus o'z otasidan qochib, Jayxun daryosidan o'tib, Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o'z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o'ziga vaqtincha berib qo'yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday

qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko‘proq vaqt o‘sha joyda turar edi. (Kimlardir) u bilan Afrosiyob o‘rtasida yomon gap yurgizgandi va (natijada) Afrosiyob uni o‘ldirdi hamda shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishdagi «Darvozai g‘uriyon» deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili Navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan marsiyalari bo‘lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar uni «otashparastlar yig‘isi» deydilar. Bu gaplar bo‘lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o‘tdi.

Shunday qilib, mana shu rivoyatga ko‘ra bu hisorni Siyovush bino qilgan, ba’zilar esa Afrosiyob bino qilgan deganlar. So‘ng bu hisor buzilib ketib, ko‘p yillar vayronligicha qoldi (Narshaxiy. «Buxoro tarixi»).

### *Sakkizinchchi affsona:*

**Afrosiyob – mehribon ota.** Aytadilarki, Afrosiyobning bir qizi bo‘lib, uning doimo boshi og‘rir edi. Romtinga kelib turib qolganidan keyin bu yerning havosi muvofiq kelib, darddan xalos bo‘ldi va bu joyga «oromi tan» – «tan orom» deb nom qo‘ydi. Oddiy xalq esa buni «Romitin» deydilar (Narshaxiy. Buxoro tarixi).

### *To ‘qqizinchchi affsona:*

**Afrosiyobning qatl etilishi.** Kayquboddan so‘ng Kaykovus podshoh bo‘ldi.

Kaykovusning bir farzandi bor edi. Uni tarbiyasi uchun Rustami shadid bin Zol bin Parishon bin Juzang bin Gershaspqa topshirdi. Rustam Siiston va unga tobe viloyatlarga voliy erdi. Rustam bolaga juda yaxshi ta’lim-tarbiya berib, so‘ng otasi Kaykovus huzuriga yubordi. Afrosiyob juda mamnun bo‘ldi. U Afrosiyob qizi yoki

Yaman viloyati podshohining qiziga uylangan edi. U Jamilabonu Siyovahshning husni jamoli va fazlu kamolini ko'rib, unga giriftor bo'lib, ani muddaosi husuli uchun o'ziga targ'ib va ko'ngil xohishi bo'lgan amrga taklif etdi.

U xotin Siyovahsh bilan otasi Kaykovus o'rtasiga sovuqlik tushirdi. Siyovahsh bundan xabar topgach, Rustami shadiddan iltimos qilib, otasidan unga Turkistonga, Afrosiyob bilan urushga ketishga ruxsat olib berishini so'radi. Ruxsat bo'lgach, Siyovush Turon bilan urushga ketdi.

Qattiq urushlardan so'ng Siyovahsh Afrosiyob bilan sulh tuzishga keldi. Otasi unga qarshilik qildi. Ammo shahzoda o'z va'dasidan qaytmadi. U o'zining Afrosiyob xizmatiga o'tajagini bildirdi. So'ng shuni qildi. Afrosiyob Safo Farid degan parichehra qizini Siyovahshga erga berdi. Siyovahsh bilan hamsuhbat bo'lgan jamoaning unga moyil bo'lib qolishidan, shahzodaning fazli kamolidan xavotir bo'lgan Afrosiyob o'z taxtiga voris chiqib qolishidan qo'rqiidi. Uning ikki o'g'li va birodari hasad yuzasidan bu tahlikani kuchaytirdilar, natijada, Afrosiyob Siyovahshni o'ldirishga amr qildi va uni qatl ettirdi.

Siyovahshning rafiqasi Kayxisravga homilador edi. Sipohlardan Qiyron bin Kas'on uni saqlab qoldi. Bola tug'ildi. Uni Qiyron balog'atga yetkazdi. Siyovahsh o'limidan xabar topgach, Shodvas bir qora kiyim kiyib, motam tutdi. Afrosiyob Shodvasdan bu kiyimning odatga xilof ekanini aytsa, Shodvas bugun bizga zulmat va qorong'ulik kunidir dedi. Musibat hangomida qora libos kiyish shundan odat bo'lgan.

Kaykovus vafotidan so'ng Eronda Kayxisrav taxtga o'ltdi. Uning onasi Afrosiyobning qizi Farid edi. Shuftufayli Kayxisrav Afrosiyob taxtiga voris edi. Kayxisrav to'rt tomondan turk yeriga hujum boshladidi. Urushda besh yuz oltmis ming odam o'ldi, o'ttiz ming asir qilindi. Fors lashkarboshisi Gudarz edi. Unga Isfahon va Jurjon

hokimligini berdi. Afrosiyob Shaydo degan o‘g‘lini Kayxisrav jangiga yubordi. Ammo u yengilib qatl etildi. So‘ng Afrosiyob o‘zi askar yig‘ib bordi. Ammo yengilib, Ozarbayjonga ketdi.

Kayxisrav uni ta’qib qilib borib tutdi va qatl etdi. So‘ngra Ozarbayjondan qaytib keldi. Afrosiyobning o‘rniga Kaybavosif degan kishini tayinladi.

Kayxisrav otasi Siyovahsh o‘chini olgach, o‘rniga Luhraspni tayin etib, o‘zi zohidlik ixtiyor etdi va ahli a‘yonini bilan g‘oyib bo‘ldi.

Podsholik muddati oltmis yil bo‘ldi. (Ibn al-Asir. «Tarixi komil»).

*O‘ninchি afsona:*

**Siyovushning tuhmatga uchrashi va Afrosiyob tomonidan o‘ldirilishi.** Siyovushni Kaykovus askarlari Turon chegarasidagi o‘rmonlardan topib olgan go‘zal bir qizdan tug‘ilgan (aftidan, bu qiz qadimgi yunon afsonalaridagi o‘rmon ma’budasining dastlabki obrazi bo‘lsa kerak). Siyovush dunyoga kelishi bilanoq (onasi uni tug‘ishi paytida o‘ladi) hammani o‘zining beqiyos go‘zalligi bilan mastun etadi. O‘gay onasining shahvoni yirsini rad etgani uchun nohaq ayblangan Siyovush o‘t sinovidan o‘tishi, ya’ni oltin dubulg‘a kiyib, qora otda katta alanga ustidan sakrab o‘tishi kerak edi. U o‘tni yengib, o‘z nomusini qaytadan tiklab oladi hamda Turonga yurish qiladi. Urush tamom bo‘lgandan keyin Siyovush Turon podshosi Afrosiyob huzuriga boradi hamda uning qiziga uylanadi. Qaynotasidan sovg‘a sifatida Turon yerlarining bir qismini olib, bu joyda Kangdiz yoki Kangi Siyovahsh nomli hashamatli qasr shahar quradi. Lekin yana tuhmatga uchrab, Afrosiyob yuborgan qotillar tomonidan o‘ldiriladi. Uning o‘g‘li («Avesto» bo‘yicha nabirasi – qizining Afrosiyobning ukasi Agreratdan bo‘lgan o‘g‘li, aftidan bu

variant ancha eski, matriarxat bosqichiga oid bo'lsa kerak) Kayxisrav xiyonatchi bobosini tor-mor keltirib, ariylarning yerlarini birlashtiradi va Xorazm rivoyatlariga ko'ra, birinchi Xorazm sulolasiga asos solgan (S.Tolstov. «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab»).

*O'n birinchi afsona:*

**Afrosiyob qo'rg'onı ustida bayram.** Turon shohi Afrosiyob Rustam va Kayxisravning hujumidan qochib, o'zini saqlash uchun juda katta qo'rg'on qurdiradi. Qo'rg'on qorong'u, unga nur tushmas edi. Kayxisrav Gershaspning qabridan yondirib olgan olov bilan qo'rg'onnei vayron qiladi. Afrosiyob yana qochadi. So'ngra qo'rg'on o'rnidagi katta gulxan yoqiladi. Odamlar to'planishib, Kayxisravni madh etuvchi qo'shiqlar aytishadi. Ushbu qo'shiqlardan birining 10 misralik parchasi yetib kelgan.

*Furuxt bodo ro 'sh,  
Xunida Gershasp hush,  
Hame pur ast az no 'sh,  
No 'sh kun, may no 'sh.  
Do 'st, bidor go 'sh,  
B-ofarin nihoda go 'sh!  
Hamesha neki qo 'sh,  
De guzashtu do 'sh!  
Shoho xudoygono,  
B-cfarin shoh-o! («Tarixi Siiston»).*

Tarjimasi:

*Nurafshon kun boshlandi,  
Gershasp ruhi shodlandi,  
Qalblar to 'la hayajon,  
Sharob ko 'tar, jo 'rajon.*

*Qulq solgin birodar,  
Ta'zim et yerga qadar.  
O'tgan kuning misli tush,  
Hayot keldi yaxshi, xush.  
Ey, jahongir, shahanshoh,  
Senga sharaf, senga shon!*

*O'n ikkinchi afsona:*

**Afrosiyob qal'asi va o'lim ma'budi.** Afrosiyob o'lim ma'budi Estuxxatdan qochib, katta qal'a qurdiradi. Qal'aga kiradigan birorta yo'l yo'q edi. Ustalar jon saqlaydigan bu qo'rg'onne ertaklarda qurishgan edi. U «Afrosiyob qal'asi» deb ataldi. Qal'a devorlarining balandligi 1000 fut (bir fut 30,479 sm ga teng – A.A.) edi. Lekin qo'rg'on ichkarisi mutloq qorong'u bo'lgan. Afrosiyob qal'aning devorlariga billur, tilla, kumush va marvaridlardan sun'iy quyosh, oy va yulduzlar o'rnatib chiqishni buyurgan. Natijada, qal'a juda yorug' bo'lgan. Go'zallik va kuch-qudrat ma'budasi Ardisurnaxid Afrosiyobning bu xizmatini ko'rib, unga boqiy umr berishi mumkin edi. Afrosiyob ma'buda sharafiga eng yaxshi otlardan 100 ta, boqilgan buqalardan 1000 ta, semiz qo'ylardan 10000 ta so'yishni buyurdi. Afrosiyob o'zining ko'ngliga taskin topdi, o'lim ma'budasi endi kelolmasligiga ishondi. Yillar o'tdi. Afrosiyob o'zining sun'iy bog'ida aylanib yurgan edi. Daraxtlar orqasida odam sharpasini ko'rdi, u juda oriq va qahrli edi. Afrosiyob darrov payqadi, u o'lim ma'budasi edi. Unga qarshi bormoqchi ham bo'ldi, lekin behuda ekanligini anglatdi. Afrosiyob jonsiz yiqlidi (Professor X. Ko'ro'g'li tiklagan).

*O'n uchinchi afsona:*

**Afrosiyob shohlikdan voz kechadi.** Eron shohlaridan Kaykovus yoki Jom (Som) Sharqdagi uzoq dengiz ortida Qang'diz degan shahar qurdirgan. Shahar keyinchalik

Turon shohi Afrosiyob qo'liga o'tgan. Afrosiyob podsholikdan voz kechib, tarki dunyo qilib, Kangdiz shahar-qo'rg'onini o'ziga qarorgoh qilib oladi. Kayxisrav Afrosiyobni qo'lga tushirish uchun izidan borar ekan, Qang'diz shahriga qo'shin tortadi.

Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» kitobida bu afsonani quyidagicha bayon etadi: «Hind astronomlari obod joylar geografik uzunligini Lanka vositasida belgilaydilar. Bu joy Yer ekvatorida o'rtalikda bo'lib, Sharqida Jamakuti, G'arbida Rumaka bor. Ammo Jamakuti esa Yaqubning va al-Fozoriyning aytishicha, dengiz ichidagi mavzudadir. Unda Tora shahri bor. Hindlarning kitoblari ichida bunday nomni sira topa olmadim. Kote esa bir qal'a nomi, Joma – ajal farishtasi (demak)dir, undan Kangdiz hidlari tarqalib turadi. Forslarning yozishlariga ko'ra, Kayxisrav turk Afrosiyob izidan borishda bu dengizni kezgan. U mavzuga borganda zohidlar yo'liga o'tib, u mulkdan chiqib ketishlikni qaror qilgan». **Diz** forschada – qal'a demakdir (Beruniy. «Hindiston»).

*O'n to 'rtinchi afsona:*

**Eroniy xalqlar bayramlarining Afrosiyob shaxsiyati bilan bog'lanishi.** Abu Rayhon Beruniy «Qonuni Mas'udiy» kitobining ikkinchi maqolasi «Eroniy larning majusiylikdagi bayram kunlari»da eronliklarning uchta bayramini Afrosiyob shaxsiyati bilan bog'laydi.

**Hurdod.** Hurdod mohning oltinchi kuni – ikki ism (oy va kun ismi) bir-biriga muvofiq kelgani uchun bayram bo'lgan. Tir mohning o'n uchinchi kuni ham shunday. Orishning Manuchehr bilan Afrosiyob orasida sulh qilish uchun o'q otishi ham shu kunga to'g'ri kelgan. Bu sulhga ko'ra o'q borib yetgan joy Manuchehrni bo'lar emish. Aytishlaricha, u Ro'yo tog'idan otgan, uzoqdan otilgan shu o'q Farg'ona va Tabariston orasiga tushgan.

Eronliklar, undan keyingi kunda ham o‘qning borib yetgan xabari shu kuni eshitilgan, deb bayram qiladilar.

**Tirgon.** «Ular (eroniylar – A.A.) Tirgon kuni cho‘miladilar, oshxonalar va o‘choqlarni supuradilar. Ammo o‘choqlarni buzishlariga sabab shuki, odamlar shu kuni Afrosiyob qamalidan xalos bo‘lib, har kishi o‘z ishiga ketgan. Shuningdek, avvalgilar yo‘lidan yurib (yetilmagan) bug‘doyni yetilmagan mevalar bilan qo‘sib qaynatadilar, chunki ularning bug‘doy yanchishga qudratlari yetmagan edi.

Cho‘milish marosimining sababiga kelganda, Kayxisrav Afrosiyob jangidan qaytishida lashkarlardan tashqari yolg‘iz o‘zi bir buloq tepasiga tushgan. Shunda u charchaganligi sababli o‘zidan ketgan, Gudarz o‘g‘li Vayjon yetib kelib, unga suv sepgan va u o‘ziga kelgan. O‘sha vaqt dan beri cho‘milish tabarruk rasm bo‘lib keladi».

**Obogon.** «Obogonda Zav ibn Tahmosp Afrosiyob bekitib tashlagandan keyin qazilgan anhorlarga suv qo‘ygan hamda shu kuni kishvarlarga, bular iqlimlar kabi. Bevorasp davlatining zavol topgan xabari kabi tarqalgan, shundan keyin har bir kishi o‘z uyi va oilasigi ega bo‘lgan. Bundan oldin esa, ustlariga kelgan sarkashlarning zo‘ravonligi sababli u narsalarga ega bo‘la olmaganlar» (Beruniy. «Qonuni Mas’udiy»).

Yuqorida matni keltirilgan afsonalarning syujet o‘zagi bitta: Turon shohi Afrosiyob Eron mamlakati bilan bo‘lgan jangda g‘olib kelishi, Eron xalqiga zulm o‘tkazishi, eroniylardan bo‘lgan kuyovi Siyovushni ig‘vogarlarning so‘ziga kirib o‘ldirishi, natijada Eron shohi va pahlavonlari Siyovush xunini undan talab qilish voqealari asosida qurilgan. Lekin afsonalarning hammasida ham Afrosiyob yovuz, mehr va insoniylikdan begona shoh sifatida ko‘rinmaydi. Afrosiyob tarixdagi juda ko‘plab, aytish mumkinki, hamma shohlarga xos xususiyatni o‘zida

mujassamlashtirgan. Jahon tarixiga nazar tashlanadigan bo'lsa, har bir shoh ma'lum bir mamlakat bilan urishganda g'alabani qo'lga kiritish uchun shafqatsiz bo'lgan. Zotan, Kayxisravning o'zi ham tarixiy va afsonaviy shaxs sifatida Afrosiyobga nisbatan shafqatsiz edi.

Afsonalarda Afrosiyob obrazi qanday xususiyatlar bilan tasvirlanganligini nazardan o'tkazaylik: Afrosiyob pahlavon, ayni paytda o'z raqibi bilan sulh tuzib, tinchlikni istovchi shoh (I afsona), Ollohdan o'z maqsadiga erishish uchun najot so'rovchi, lekin omadi chopmagan jabrdiyda (II); O'z maqsadi yo'lida qarshilik qilgan, raqibiga yon bosganlarni shafqatsiz jazolovchi (III, IX); urushda tinchlik istovchi, pahlavonlarni qadrlovchi, lekin o'z taxti o'zgalar qo'liga o'tib ketishidan qo'rquvchi va o'z sultanatini mustahkamlash uchun qotillikdan ham qaytmaydigan shoh (V); shaharlar qurishga e'tibor bergen, odamlarning ig'vosiga ishonuvchi(VI, VII); mehribon ota (VIII); o'z raqibi ekanligini bilsa-da, pahlavonligini qadrlovchi, hatto qizini ham berishga tayyor mehribon qaynota, lekin o'z taxtini sevuvchi shoh (IX, X); dushmanidan o'zjonini ehtiyoq qilish chorasini izlovchi, shahar va qo'rg'onlar qurgan, lekin dunyoga ustun bo'lolmasligini, inson umri abadiy emasligini tushungan, har qanday shoh ham o'lim oldida ojizligini bilgan shoh (XI, XII); shohlik azobidan zohidlikni afzal bilgan tarki dunyo egasi (XIII) sifatidagi o'z qiyofasiga ega.

**TURKIYLAR OBRAZI QADIMGI GRUZIN,  
GERMAN, RUS VA SLAVYAN XALQLARI  
ADABIYOTLARIDA**

**GRUZIN ADABIYOTI**

Ossuriya tarixiy hujjatlarida Urartu (hozirgi Armaniston va Turkiyaning bir necha sharqiy viloyatlari o‘rniga to‘g‘ri keladi) va Gamirra mamlakatlari o‘rtasida miloddan oldingi VIII asrlarda Guriani (hozirgi Gurjiston) mamlakati joylashganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Gamirra – go‘mirlar, ya’ni kimmerlar davlatidir. Gurjiston, Armaniston, Abxaziyadagi qadimgi shaharlar o‘rnida arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan ashyolar Qofqaz va Qofqazorti mamlakatlarida skif-kimmerlar ham yashaganligidan guvohlik beradi. Gruzin olimi G.A. Melikishvilining ta’kidlashicha, kimmerlar janubiy Gruziya va uning tog‘larini o‘zlarining trer urug‘lari nomi bilan Trialet (qadimgi arman manbalarida trel) deb ataganlar. Sharqi Gruziyada Kvemo-Kartli shahrini Gugark («Bibliya»dagi skiflar ajdodi «Gog» va «Magog» nomi bilan) atashgan. Strabonning ma’lumotiga ko‘ra, Shimoliy Armanistonda skiflarning sak urug‘lari yashaydigan Sakashen shahri bo‘lgan. Qofqaz respublikalaridagi ko‘pchilik xalqlar o‘zlarining tarixini skiflar bilan bog‘laydilar. Dog‘istonning Arqaz (Erqaz) qishlog‘idan topilgan arxeologik yodgorliklar skif-hayvonot uslubida ekanligi e’tirof etilgan. Akademik N.Ya.Marr skif va sak tilini Shimoliy Qofqaz va Abxaziya tillari bilan juda yaqin deb hisoblaydi.

Demak, gruzin xalq og‘zaki va qadimgi yozma adabiyotida skif-kimmerlar badiiy ijodining yodgorliklari saqlanib qolishining tarixiy asoslari mavjud. «Amaran» qahramonlik eposi svan, megrel, abxaz, arman, osetin, cherkas, lak va kabardin tillarida ommalashgan. Lekin

markazlashgan o‘rnı gruzinlardadir. Xususan, «Amiran» mesyetilar o‘rtasida ommaviy tarzda tarqalgan va ashuglar (baxshilar) uni kuga solib aytishgan. Mesyetilar skif-kimmerlarning miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda rivojlangan qabilalaridan biridir. Ular osmon jismlariga, xususan Oyga sig‘inishgan. Turkiy xalqlarning nodir yodgorligi «Qo‘rqt ota kitobi»da Amiran turkiy xalqlarning bahodir yigitlaridan biri sifatida ulug‘lanadi. Bu obraz gurjilar va o‘g‘uzlar o‘rtasidagi janglar tasviriga bag‘ishlangan «Bagilning o‘g‘li Amiran haqida qo‘sish» faslida yaratilgan Amiran g‘ayri dinlar – gurjilar boshlig‘i Takuraga qarshi jangga tushib, uni yengadi. Shu sababli Qofqaz tog‘laridagi ko‘plab yerlar unga in’om etiladi, bahodir Aruz (Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam» kitobida yozishicha, Alburz (Elbrus) tog‘i uning nomiga qo‘yilgan) yonidan joy ko‘rsatiladi.

Gruzin xalq og‘zaki ijodi Sharq xalqlari adabiyotining kuchli ta’siri ostida rivojlangan. Gruzin folklorshunosligi «Amiraniani», «Tarieliani», «Rostommiani» dostonlarini qahramonlik eposlarining eng yaxshi namunalaridan deb hisoblaydi. Bu eposlarning qahramonlari Amiran, Tariel, Rustamdir. Tariel skif-kimmerlarning tarixiy yoki afsonaviy qahramonidir. Shu sababli ham Janubiy Gruziya va uning tog‘lari ushbu nom bilan atalgan. «Amiran»ning 150 dan ortiq variantlari yozib olingan. Uning bir variantida Rustam Amiranning otasi deb ko‘rsatilgan. «Tarieliani» dostonida esa Tariel va Rustam Amirañning ukasidir. Fors-tojik va turkiy og‘zaki adabiyotdagi Bejan va Manija (Afrosiyobning qizi) haqidagi doston syujetlari ham gruzin xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan, uning bir necha variantlari yozib olingan.

G.N.Potanin Sharq adabiyotining Yevropa eposlariga ta’siriga bag‘ishlangan asarida Shimoliy Qofqaz xalqlari o‘rtasida Amiran haqida saqlangan syujetlarning bir necha versiyalarini keltiradi. V.F.Millerning ham «Osetin

etyudlari» tadqiqotida Amiran haqidagi og‘zaki hikoyalar tahlil etilgan. Gruzin adabiyotida ushbu qahramon haqida roman ham yaratilgan. G.N.Potanin bu roman hozirgacha (1899) nashr etilmagan deb ta’kidlaydi. Amiran haqidagi afsonalarda tasvirlangan voqealar o‘zining qadimiy qatlamlariga ega.

## AMIRANNING TUG‘ILISHI

Ishav versiyasiga ko‘ra, Amiran Sulkaymaxa va uning xotini Darijonning kenja o‘g‘lidir. Uning Badra va Usip ismli ikki akasi bo‘lgan. Kartamin versiyasiga ko‘ra, Amiran Usip yoki Usupning o‘g‘lidir. Uch aka-uka Sulkalmax, Badri va Usip yashadilar. Ularni Darijanashvili deyishar edi. Usup ovga chiqib, cho‘qqidagi qal’ada o‘tirar ekan, go‘zal, quyosh nuridan ham ustun bir qizni uchratdi. U o‘sha go‘zal bilan uch kun bo‘ldi va unga qimmatbaho tosh olmosni qoldirar ekan, shart qo‘ydi: «Agar qiz tug‘sang, unga shu olmosni berasan, agar o‘g‘il tug‘sang, u o‘zi uchun o‘zi kurashsin». Usup vafot etdi. Go‘zal ayol o‘g‘il tug‘di. Unga xudoning nazari tushdi va Amiran ismini berdi. Svan versiyasida otasining ismi ko‘rsatilmaydi. U oddiy ovchi. U bir cho‘qqining yonidan o‘tayotganida ayol kishining ovozini eshitadi. Ovchi cho‘qqidan qaytib tushar ekan, o‘sha ayolni topadi va u bilan uch kun birga bo‘ladi. Ovchi ayolning qistovi bilan uning qornini yoradi va o‘g‘il bolani olib, uni buloqqa tashlaydi. Pari kelib, chaqaloqni poklaydi va uni Amiran deb ataydi. Svanlarning boshqa versiyasiga ko‘ra, cho‘qqida kuchli tovush eshitiladi. U yerdan to‘lg‘oq tutayotgan ayol kishining ingragan nidosi kelardi. Odamlar dastlab qo‘rqishadi, so‘ngra xursand bo‘lishadi. Temirchi Darjexan (Darijan) doyalik qilish uchun uning huzuriga boradi. Ayolning qornini yorishga to‘g‘ri keladi. Ayol o‘limi oldidan o‘tinib so‘raydi: «Agar qiz tug‘sam, suvg‘a

tashlanglar, agar o‘g‘il tug‘sam, uch tomonga ketuvchi yo‘l boshiga qo‘yinglar». Bola o‘g‘il tug‘ildi. Yo‘lga tashlangan chaqaloqni ma‘budlar oldilar, pokladilar va yana o‘z joyiga qo‘ydilar. Uni bir ovchi topib oldi va xotiniga keltirib berdi. Ayolning Visibir va Badr ismli ikki o‘g‘li ham bor edi. Osetin versiyasiga ko‘ra, Amiran Rustamning o‘g‘lidir. Rustam cho‘qqida ov qilib yurgan edi, qoziq tishli bir ayol unga o‘z muhabbatini izhor etdi. Rustam uning taklifini qabul qildi va shu yerda jon berdi. U o‘limi oldidan tug‘iladigan farzand o‘g‘il bo‘lsa, unga Amiran ismini qo‘yishni vasiyat qildi.

Amiran haqidagi syujet asosida gruzin yozuvchisi Mose Xoneli (XII) qissa yozgan. Ba’zi gruzin adabiyotshunoslari «Aimiran»ning og‘zaki ijodda saqlanib qolgan variantini juda qadimga olib borib taqaydilar. Masalan, gruzin olimi Sh.Nupubidze «Aimiran»ni jahon eposi taraqqiyotiga hissa qo‘shgan «Bilgamish»dan so‘nggi asar deb hisoblaydi. Amiran Elburs tog‘ida zanjirband qilinganligi to‘g‘risida ham rivoyatlar bor. Shu sababli ham uni Prometeyning muqobili deb atashgan.

Gurji xalq og‘zaki ijodida Alp Er To‘nga va Kayxisrav munosabatlari bilan bog‘langan rivoyatlar ham mavjud. Biroq bu nomlar gruzin xalqi hayoti bilan bog‘lab ko‘rsatiladi. Gruzin shohi Erekle Aragvi hukmdori Kayxusru (Kayxisrav)ni tatar xoniga qarshi urushga chaqiradi. Erekli Alp Erning qahramonligi timsolidir.

«Tarielliani» dostoni Mesxetida yozib olingan. Tariel – Shota Rustavelining «Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon» dostonining ham yetakchi qahramoni hisoblanadi. Doston XII asrda yaratilgan bo‘lib, gruzin malikasi Tamara va uning eri Davidga bag‘ishlangan. Asardagi voqeа qadimgi sharq ertaklari syujeti asosida qurilgan. Doston qahramoni Tariel – pahlavon, bellashishda arslonni yiqitadigan bahodir yigit. Bu dostonda Tariel hindistonlik oshiq tarzida ko‘rsatilgan. Hind shohi o‘z qizi Neston Darijonni Xorazm

shohining o‘g‘liga uzatishi voqeasi orqali Tarielning ishqiy sarguzashtlari rivojlanadi, arab pahlavoni Avtandil, turk shohi Faridunlar bilan uchrashadi. Tariel Nestonning visoliga yetishishida Faridin unga yordam beradi. Shota – mesxeti urug‘idan. Kitobni malika Tamaraga sovg‘a etish uchun yaratgan. Shota Sharq turmush tarzi va adabiyotini yaxshi bilgan. Shu sababli ham N. Ya. Marr Rustavelini musulmon shoiri deb atagan. Turkiy xalqlar o‘rtasida Alp Er To‘nga – yo‘lbarsdan ham kuchli bahodir xoqon to‘g‘risida rivoyat hamda afsonalar saqlangan. Tariel – shunday xususiyatli pahlavondir. Dostonda yo‘lbars terisiga majoziy ma’no berilgan. Tarielning yo‘lbars terisini yopinishi undagi yo‘lbarsga xos dovyuraklik, bahodirlik, jasurlikni bo‘rttirib ko‘rsatadi. Shota dostonida uch asosiy qahramon – Tariel, Avtandil, Faridunni arslondek kuchli sifatlar bilan ulug‘laydi. Lekin Tarielning o‘ziga xosligi shundaki, uning egnida yo‘lbars terisidan libosi, po‘stini bor.

Tarielning yo‘lbars terisini yopinib yurishi timsolida turkiy xoqonlarni ko‘rish uchun asoslar bor. Firdavsiy «Shohnoma» dostonida shunday yozadi:

*Kayumarsga jahon shohlik buyurdi,  
Ilk bora manzilni tog‘ ichra qurdi.  
Taxtu baxtni topib tog‘ dan farovon,  
Yo‘lbars terisidan qilardi chopon.*

Alisher Navoiy «Tarixi müluku Ajam» kitobida Afrosiyob haqida shunday ta’rif keltiradi: «Afrosiyob. Ani debturlarkim, Pushang binni Tur binni Faridin o‘g‘lidur. Va ba’zi aning nisbatin Kayumarsga yetkurubdurlar». Afrosiyob – Alp Er To‘ngani Kayumarsga nisbatan berish uning yo‘lbars terisini yopinib yurishiga ishoradir. Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi» asarida chorva va vahshiy hayvonlar terisidan liboslari kiyish Tung ibn Turk ibn Yofas

davridan boshlangan deb hisoblaniladi. «Tarixi muluku Ajam»da Faridun Afrosiyobning otasidir. «Yo‘lbars terisini yopgan pahlavon» dostonida Faridun Tarielga otaliq yordamini ko‘rsatgan turkiy mamlakatning hukmdori hisoblanadi.

«Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon» asarining asosiy voqealari Xorazm va uning yaqinidagi dengiz qirg‘oqlarida bo‘lib o‘tadi. Ma’lumki, asar yaratilgan davrda Xorazm davlatining chegarasi Eron ko‘rfazidan tortib, Volga daryosigacha yetgan edi. Xorazm davlatini xuddi shu davrlarda turkiylar sulolasidan bo‘lgan qoraxoniylar idora etardilar. Shota dostonida qora ot ustida tasvirlangan va shu qora otni Tarielga in’om etgan odil shoh Faridun obrazida turk xoqonlarining siymosi umumlashadi. Umuman, «Amiran» va «Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon» dostonlarini qadimgi turkiy qahramonlik eposlari bilan qiyosiy o‘rganish adabiy aloqalar tarixida yangi sahifalar ochadi.

**German adabiyoti.** Xunlar Oltoy tog‘laridan boshlab, Tibetgacha, Xitoy, Mo‘g‘uliston, Turkiston va Qirg‘iz sahrolari, Ural tog‘larigacha bo‘lgan kengliklarda yashadilar. Ular Xitoy manbalarida «Xyun-yu» yoki «Xyun-nu» deb yozilgan. «Xyun» yoki «Xun» O‘rxun daryosiga ot qo‘yilganidek, suv nomi bilan bog‘langan bo‘lishi mumkin. Katta hududda ulkan davlatni tiklagan xunlar sekin-asta uch toifaga bo‘lindilar. «Janub xunlari» yoki «oq xunlar» Amudaryodan tortib Eron va Ozarbayjongacha tarqaldilar. Shimol xunlari Mo‘g‘uliston atrosida, G‘arb xunlari esa Buxorodan qirg‘iz sahrolari, Ural tog‘lari kengliklarida yashadilar. So‘ngra ularning bir qismi G‘arb tomonga yurish qildi va Yevropada xun turklari saltanatini o‘rnatishdi.

Tarixiy hujjatlarga ko‘ra Attila 434–453-yillarda G‘arbiy Xun imperatorligiga xoqonlik qilgan hukmdordir. U 39-

40 yoshlarida taxtga o'tirgan. Attila 45 ta qavmni, ular orasida german, slavyan, fors, fin - uyg'ur, turk qavmlarini xun xoqonligiga birlashtira olgan hukmdordir. Xoqonlikning Sharqdagi asosiy joylari Dnepr, g'arbdagi asosiy joylari Tuna (Dunay) sohillari edi. U shu qadar qattiqko'l, dushmanlariga nisbatan berahm ediki, g'arbliklar uni jazo uchun yuborilgan «Tangrining qamchisi» deb aytganlar.

Attila 453-yilda, Italiya yurishidan so'ng, Ildeka ismli malikaga uylangan. Lekin to'y kechasi og'zi-burnidan qon ketib, olamdan o'tgan. Attilaning jasadini ko'rgan kom (shomon)lar shunday degan: suiqasd yuz bergani yo'q, katta akasi Buda ham shunday darddan o'lgan edi. Xunlar Attilaga qayg'urdilar. Marsiyalar bitildi:

*Ko 'zdan quyiladi yosh misoli bulut,  
Mungli nurga burkanib quyosh botadir.  
Oltin, kumush, po 'latdan yasalmish tobut,  
Unda xunlar quyoshi Atli yotadir.*

Rivoyatlarga ko'ra, Attilaning dafn qilish marosimi shunday bo'lgan: uning jasadini bir-birining ichiga kiygilgan uchta tobutga joylashtirishgan. Birinchi tobut oltindan yasalgan va shu sababli u quyoshdek yaltirardi. Buning sababi Attila xunlarning quyoshi edi. Xun nomi ham kun, quyosh demakdir. Ikkinci tobut dumli yulduzdek porlovchi kumushdan qilingandi. Attila nodirlikda dumli yulduzga o'xshardi. Uchinchi tobut ikki bor toblangan temirdan yasalgandi. Chunki Attila temir irodali, po'latday bukilmas hukmdor edi.

Qimmatbaho uch qavatli tobut Attilaga tegishli quroslasha va buyumlar bilan Tissa daryosining orolchalaridan biriga dafn etilgan. So'ngra daryoning o'zani o'zgartirilib, qabrning ustidan o'tkazilgan. Bundan maqsad qabrni

g‘animlar ocholmasligi va Attila bilan ko‘milgan qimmatbaho buyumlarni talab, olib ketolmasligiga qaratilgandi.

Reyn, Dunay, Visla bo‘ylari va Skandinaviyaning janubidagi yerlarda german qabilalari yashagan. XII–XIII asrlardan boshlab german qahramonlik eposlari yozib olishga kirishildi. Bu ertak va qissalarda german qabilalari bilan turkiylarning xun qabilasi o‘rtasida olib borgan janglari tasvirlanadi. Ularda Atli, Etsel, Attila nomli xun hukmdorining obrazi yaratilgan. Mazkur rivoyat afsonalarda, shuningdek, XII–XIII asrlarda nemis tilida yaratilgan «Nibelunglar haqida qo‘sinq» dostonida Attila zolim hukmdor sifatida ko‘rsatiladi. Attila Nibelunglar xazinasini egallah uchun burgundlar qiroli Gunter va uning sipohlarini mehmondorchilikka taklif etib, ularni halok etadi. Boshqa bir rivoyatda esa german asirasi Ildika akalari uchun qasos olib, Attilani o‘ldiradi. Mutaxassislar «Nibelunglar haqida qo‘sinq» bilan o‘zbek xalq dostoni «Alpomish», xususan, bu dostonlarning obrazlari Bryunxild bilan Barchin o‘rtasida yaqin o‘xshashlik mavjudligini ko‘rsatishadi. Nemislarning shu davrda yaratilgan «Ditrix Berskiy haqida qissa» asarida ham Ditrix xunlar qiroli Etsel saroyida xizmat qilib, o‘z dushmanlariga qarshi kurashgani aks etgan. Islandlarning «Velsunglar haqida saga», norveglarning «Tidreklar haqida saga», islandlarning «Atli haqida qo‘sinq» (IX asr), «Atli afsonasi» (XII asr) asarlarida ham Attila obrazi yaratilgan.

Gredlandlarning «Atli haqida qo‘sinq» asarining yaratilish davri «Nibelunglar haqida qo‘sinq»dan ancha qadimiyroqdir. Qo‘sinqdagi tasvirga ko‘ra, Gudrun (tarixiy haqiqatga ko‘ra, Ildika) akalari Gunnar va Xyognini o‘ldirgani uchun o‘z eri Atlidan o‘ch oladi. Avval, uning boshqa xotinlaridan bo‘lgan o‘g‘illari Eytil va Erpni, so‘ngra Atlini fojiali halok etadi. Qo‘sinqda shunday satrlar keltirilgan:

*Qadahlar jaranglardi,  
Maydan og 'ir ohangda,  
Shop mo 'ylovli xunlarning,  
Bazmi, sho 'x davrasida.  
Chodirda to 'plangandi  
Jasur jangchilar.  
Sekin kirdi may bilan,  
Oydin yuzli malika.  
Rangi sarkush Atliga  
Emaklik berdi.  
Va haqoratli so 'zlarni  
Aytdi o 'shqirib:  
«Sen asalga qo 'shib eding  
O'g 'illaring yuragin –  
Qonli go 'shtlarini  
Qilichboz polvonlaring.  
Endi pishirsang bo 'lar,  
Tanidan turli ovqat.  
Pivo bilan totib ko 'r-da,  
Mayli so 'ng bo 'l beshafqat.  
Pivodan kayfing oshsa,  
Endi chaqirolmaysan,  
Tizzangda erkalomaysan,  
Eytif bilan Erpni  
Endi hech ko 'rolmaysan.  
Nayzalar dastada turishini,  
Toychoqlarning yollarin  
Yuksakda o 'ynashini».  
Chodirdagi odamlar  
G 'azab bilan ichdilar.  
Hiylaning zo 'rligidan  
Xunlar ko 'zi yosh bo 'ldi.  
Faqat yolg 'iz Gudrun  
Va aka-ukalari,*

*Atlidan tug 'ilgan  
O'g 'illar, aqlsiz yoshlar,  
Yig 'lamadi – rahmsiz.  
Oltinlarni sochdilar –  
Oqqush paridek to 'zidi.  
Oqsoch – malaylarga  
Chervonlarni berdilar,  
Malika juda saxiy,  
Har kimning ko 'nglini  
Topishni istar.  
Atli sarxush,  
Pivodan mast edi.  
Qo 'lga qilich tutmadi,  
Gudrunga qarshilik qilmadi.  
Bu go 'yo ular uchun oddiy  
Uchrashuvlarning biri edi.  
Atli hammaning huzurida  
Uni suydi, bag 'riga bosdi.  
To 'shak malikaning  
O 'tkir tig 'i birla  
Qonga to 'ldi.  
Atli qarorgohining  
Eshiklari yopildi.  
Itlar quvildi,  
Xizmatkor chiqarildi.  
Akalar o 'chi uchun  
Uy o 'tli o 'qqa tutildi.  
Atrof alanga ichra yondi...*

Attila saroyidagi Vizantiya elchisi Priskning ma'lumotlariga ko'ra, xunlar xoqonining katta xotini Kreka yunon ayoli bo'lgan. Venger tarixchisi Simon Kez yozib qoldirishicha, Atilla vafotidan so'ng uning merosi uchun Krekka va nemis qizi Ildeka o'rtasida kurash ketadi.

Xitoy olimi Yan Syanining kuzatishicha, xunlar mavzusida yaratilgan eposlardagi Aguera va Ashin obrazlarida Atilla qahramonligi umumlashgan. Rus etnografi G.N.Potanin o‘z tadqiqotlarida (Vostochnye motivy v Srednevekovom Evropeyskom epose. – M.: 1899) Atilla obrazi yaratilishiga maxsus fasl bag‘ishlangan. Qadimgi Italiya tasviriy san’atida Atilla it quloqli, ba’zan shoxli hukmdor misolida ko‘rsatilgan. A.N.Veselovskiy (XIX asr)ning talqiniga ko‘ra, bu tasvirdagi ma’no Italiyada tug‘ilgan emas, balki xun afsonalari ta’sirida yuzaga kelgandir. Chunki turkiylar o‘z kelib chiqishlarini it, bo‘ri, tulki, ayiq va boshqa jonivorlar bilan bog‘laydilar. Italyancha tasvirda esa ularning bittasi aks etgan, xolos.

## RUS VA SLAVYAN XALQLARI ADABIYOTI

Qadimgi rus va slavyan xalqlari eposlarida, rivoyat, afsonalarida turkiy xalqlar adabiy yodgorliklari singishib ketganligining tarixiy ildizlari mavjud. Qadimgi turkiy xalqlar o‘tmishda hozirgi Rossiyaning cheksiz hududlarida yashaganlar. Hatto ulkan turk xoqonligi – To‘xtamish sultanati ham XIV asrlargacha Rossiya zaminida edi. Asrlar davomida bu hududda yashagan turkiylarning ko‘pchilik qismi rus-slavyan millatiga qo‘silib ketdi. Endilikda qadimgi turkiylar yashagan hududlardan rivoyat va afsonalarni yozib olgan folklorshunoslar ularni rus va slavyan xalqlari adabiyotiga nisbat bermoqdalar. Qadimgi rus xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy turmushini o‘rganishda rus tarixchisi S.M.Solovevning (1820-1879) 15 kitobdan tashkil topgan «Rossiya tarixi» asari alohida qimmatga ega. Kitobda Gumer eposlari hamda Gerodot asarlarida skif-kimmeriylar to‘g‘risida keltirilgan ma’lumotlar rus xalqi tarixining dastlabki manbalari sisatida taqdim etilgan.

Skif-kimmerlar hukmdorining og‘zaki adabiyotdagi badiiy obrazi Alp Er To‘ngadir. Bu obraz tasviriga oid badiiy asarlar rus xalqi ijodida ham alohida sahifani tashkil etadi. Ingliz olimi K.G.Menges, rus tilshunoslari V.V.Radlov va N.A.Baskakov qadimgi rus yilnomalarida uchraydigan «Olbir Sheroshevich» nomini Alp Erga nisbat berganlar. Olbir – Alp Er Sheroshevich – arslon, To‘nga nomiga nisbatan olingan hurmat belgisi hisoblanadi. O‘rtalasr rus manbalarida Alp Er To‘nga nomi shunday atalgan. Rus folklorshunosi K.Danilov to‘plagan «Aliber xonligi» eposining qahramoni Alp Erdir epos qahramoni Saul Levanidovich bo‘lib, uning mamlakati Aliber – Alp Er deb nomlanadi. «Levanidovich» – «Sheroshevich»ning rus tilidagi tarjimasidir.

Eposdagi voqealar va joy nomlari turkiylarniki bo‘lib, faqat uning mazmuni rus tilida bayon etilgan, deb hisoblash mumkin. Dostonning qisqacha mazmuni shunday:

**«Alp er xonligi».** Aliber mamlakatining xoni Saul Levanidovich uzoqdagi O‘rtalas dengiz ortidagi qipchoqlar yeriga soliq undirishga jo‘naydi. Ketish oldidan homilador xotiniga shunday deydi:

«Men o‘n ikki yilga ketmoqdaman. Agar o‘g‘il ko‘rsang voyaga yetgach uni orqamdan jo‘nat. Agar qiz tug‘sang ham uni erga berib, sevimli kuyovimni yuborasan».

Malika o‘g‘il ko‘rdi. O‘g‘il soat sayin ulg‘ayib, bahodir yigit bo‘ldi. Qo‘liga gurzi, qalqon olib, otga minib, otasining orqasidan qipchoqlar yurtiga jo‘nadi. Uning qarshisidan uchta yo‘l chiqdi. Yo‘l boshiga shunday so‘zlar yozilgan edi:

«O‘ng yo‘l bilan ketgan kishining oti to‘q bo‘ladi, o‘zi o‘ladi. Chap yo‘l bilan ketganning o‘zi to‘q, oti och bo‘ladi. O‘rtalas yo‘ldan ketgan kishini behuda o‘lim kutadi».

Shahzoda o‘rtalas yo‘lni tanladi. U yo‘lda Qo‘ng‘irxon va uning tatarlariga duch keladi. Shahzoda tatarlarni mardlarcha yengib, yo‘lida davom etdi. Yo‘l yurib, Uglig

shahriga yetib keladi. Bu joydagi kishilar ayyor edi. Ular shahzodani ushlab, yerto'laga tashlaydilar.

Shoh Saul soliqlarni yig'ib, Aliber mamlakatiga qaytib keladi. Malika o'g'il ko'rganidan xursand bo'ladi. Shahzoda otasini izlab qipchoqlar yeriga ketganini, lekin xabari yo'qligidan qayg'uga tushadi. Saul o'g'lini axtarib yo'lga chiqadi. So'rab-surishtirib, uning xabarini Uglich shahridan topadi. Shahzodani ozod qiladi va bandi etganlarni esa topib, o'lim jazosini beradi. Saul o'g'li bilan Aliber mamlakatiga qaytib kelgach, bir necha kun to'y-tomosha qiladi.

«Igor jangnomasi» dostonida qadimgi turkiy xalqlarning urf-odatlari, yashash joylari, ularning ismlari bilan bog'langan ko'plab so'zlar mavjud. Jumladan, **olber, tatron, she'lber, revr** kabi. N.A.Baskakov bu mavzuga oid maxsus tadqiqot yaratgan («Tyurskaya leksika v «slove o polku Igoreve»). «Igor jangnomasi»da rus va turkiylarning qipchoq urug'i o'rtaсидаги janglar aks etgan. Jahon adabiyotshunosligida bu asarning yaratuvchisi qaysi xalq ekanligi to'g'risida bahs-munozaralar mavjud. Jumladan, qozoq yozuvchisi O'.Sulaymonov «Igor jangnomasi» turkiy xalqlar adabiy merosi ekanligini asoslovchi ko'plab dalillar keltiradi. Har bir xalq qahramonlik eposlarini yaratganida o'z orzu-maqsadlaridan kelib chiqib, bahodirlarini ulug'laydi. Uning muvaffaqiyatlarini madh etadi. «Igor jangnomasi»da knyaz Igor Svyatoslavovich jangda mag'lubiyatga uchraydi. Dostonda turkiylarning *burgut, bo'ri, ho'kiz, g'oz, bulbul, qaldирг'оч, qarg'a* kabi sevimli obrazlari alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, burgut turkiy adabiyotdag'i ko'pgina eposlarda, jumladan, «Alpomish» dostoni syujetida qahramonning ruhiyatini ochuvchi obrazdir. Alpomish yovvoyi o'rdakni tutish uchun o'zini burgut chog'laydi. Bo'ri barcha turkiy qavmlarning totemidir. Ho'kiz o'g'uz, g'oz esa qipchoq qavmlarining totemi sanalgan.

Dostonning muallifi to'g'risida ham o'ndan ortiq farazlar mavjud. S.Tarasov tadqiqotida (1954) bu asar

Qo'chqor ismli kishi tomonidan yaratilganligi ham taxmin qilinadi.

Turkiylar o'rtasida mavjud syujetlar rus tiliga tarjima qilinganligi bahsli masaladir. Lekin «Igor jangnomasi»ga qadimgi turkiylar o'rtasidagi badiiy syujetlar ham singishib ketganligi haqiqatdir.

Qadimgi rus va janubiy slavyan xalqlari mifologiyasida Arapin, To'garin, Idolish obrazlari yaratilgan. Bu uch qahramon ham turkiy bahodirlardir. To'garin qipchoqlarning Tugarxon, Idolish tatar bahodiri tarzida ko'rsatiladi. Arapin obrazi qaysi millatga mansubligiga munosabat bildirilgan. Rus folklorshunosi B.N.Putilov yozishicha, ba'zi tadqiqotchilar Arapin obrazini janubiy slavyanlarning Arabiston cho'lida qadimda yashagan saratsin xalqiga qarshi kurashi bilan bog'liq deb hisoblaydilar. Lekin Arapin obrazi orqali asosan janubiy slavyan xalqlarining turklar bilan urushi tasvirlanadi. Arapin obrazi ko'p jihatdan fors-tojik adabiyotidagi Afrosiyob obrazini eslatadi.

Arapin – **Ar** (Er), **apin** – bahodir, er so'zining janubiy slavyan og'zaki tiliga moslashtirilgan shakli bo'lishi mumkin. Arapin nomiga ba'zan «qora» laqabi ham qo'shib aytilgan. Qora turkiylarda kuchlilik belgisidir.

Arapin haqidagi rivoyatlar janubiy slavyanlar o'rtasida paydo bo'lishining tarixiy ildizlari mavjud. Qadimgi slavyan xalqi Elba daryosidan Oder daryosigacha bo'lgan yerlarda, Visla havzasi, Dnestr va Dneprning Qora dengizga quyilishi joylarida yashagan. Milodimizning V asriga kelib, xunlarning kuchsizlanishi natijasida slavyanlar janub tomon yurish qilganlar. Shundan so'ng xunlar egallab turgan Dunay daryosi, Qora dengizning g'arbiy sohillari. Vizantianing Bolqon yarim orolidagi joylarni egallab oladilar. Shunday qilib, janubiy slavyanlar davlati yuzaga keladi.

Demak, slavyanlar qadimgi skif-kimmerlar, ularning o'zlaridan keyingi avlodi xunlar mamlakatiga o'rashganlar, ayni paytda ular birgalikda yashagan. Bu esa turkiy afsonalar slavyan xalqlari o'rtasiga tarqalishi, turk shohlari va pahlavonlari salbiy kuch sifatida yaratilgan rivoyat hamda afsonalarning yuzaga kelishiga asos bo'ldi.

Rus eposlari o'rtasida Ilya Muromets haqidagi adabiy syujetlar keng tarqalgan. Bu eposning turli talqinlari Samara, Smolensk, Mogilev guberniyalarida yashovchilar orasidan yozib olingan. G.N.Potanin Ilya Muromets haqidagi rivoyatlar Borman, Burman, Barman kabi qahramonlar bilan bog'langan syujetlarga aloqadorligini ta'kidlaydi. Hatto, mo'g'ul-shomon, tangut-shomon afsonalarida shunday qahramonlar borligini asoslaydi. Borma yoki Burma nomi afsonalarni yozib olish paytida Murom, Muram, Murin, Murov, Murav shakliga o'tgan. Rus eposlarida tasvirlangan bu qahramonni Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobida keltirilgan Borman nomi bilan ham bog'lash mumkin. U Afrosiyobning o'g'li edi.

## **QADIMGI TURKIY ADABIYOTDA BADIY TARJIMA**

«Oltin yoruq» qadimgi sanskrit tilida yaratilgan asar bo'lib, X asrda Beshbaliqda yashagan Singqu Seli Tutung uni xitoycha variantidan turkiy tilga tarjima qilgan. Kitobning sanskritcha nomi «Suvarnanrabhasa» (oltin jilo)dir. Turkiycha tarjimada esa to'liq nomi «Altun o'nglug' yaruq yaltriklig' qonda ko'trulmush nom eligi» (oltin rangli nur toblanadigan hammadan buyuk bo'lgan kitob tojdori)dir. «Oltin yoruq» budda diniga oid sutra – muqaddas kitoblardan biri hisoblanadi.

«Oltin yoruq»ning bir necha qo'lyozma nusxalari ma'lum. Uning 1687-yilda ko'chirilgan nusxasi boshqalariga nisbatan

mukammal bo'lib, u hozirda Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limida saqlanadi. Qo'lyozmani rus olimi S.E.Malov 1909-1911-yillarda Sharqiy Turkiston va Xansu (Gan-Su)da safarda bo'lganida uyg'urlar yashaydigan Vungshigu qishlog'idan qo'lga kiritgan. «Oltin yoruq»ni S.E. Malov 1913-1917-yillarda V.V.Radlov bilan hamkorlikda nashr ettirdi. V.V.Radlov kitobning bir qismini nemis tiliga tarjima qildi. Tarjima 1930-yilda S.E.Malov so'z boshisi bilan chop etilgan. S.E.Malov «Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti» (M., – L.: 1951) kitobida «Oltin yoruq»dan ikki parcha – «Hukmdor Kyu-Tov haqida afsona» hamda «Tegin va Bars haqida afsona»ning transkriptsiya va ruscha tarjimasini beradi. «Tegin va Bars haqida afsona» «Oltin yoruq»ning 604-627-sahifalarida berilgan. O'zbek olimlari G'.Abdurahmonov va A.Rustamovlarning «Qadimgi turkiy til» (1982) qo'llanmasida kitobning 607-617-sahifalaridagi afsona mazmuni bayon etilgan.

«Oltin yoruq» uyg'ur yozuvida bitilgan yirik tarjima asaridir. V-X asrlarda turkiy tilda uyg'ur yozuvi bilan yana bir necha yirik adabiy yodgorliklar yaratilgan. G'.Abdurahmonov va A.Rustamovlar «Qadimgi turkiy til» kitobida «Xuastuanift» («Monaviylarning tavbanomasi»), «Shahzodalar Qalyanamqara va Papamqara haqida qissa», «Sekiz yukmak», «Atavaka devi haqida afsona», «Budda afsonalaridan parchalar» yodgorliklari haqida ham ma'lumotlar berishadi.

Sinqu Seli Tutung tarjimasidagi **«Tegin va bars haqida afsona»** ning hozirgi o'zbek tilidagi to'liq mazmuni shunday:

Undan so'ng Tangri Tangrisi Burhon shunday deb yorlaqadi:

– Ey, Ananta! Qadim o'tgan zamonda Chambudi vin ulusida Mag'aradi ismli davlatmand elig bor edi. U behad ulug', boy-badavlat, omborlari, xazinalari don-dun, molmatoga to'la edi. Qahramon, mergan lashkarlarining

qudrati mukammal darajada bo‘lib, to‘rt tarafdagι mamlakatlarni bosib olgan, o‘ziga qaratgan edi. Shu sababli uni barcha hurmat qilar va e’zozlardи. U mamlakatni va xalqlarini ota-bobolaridan qolgan to‘g‘ri aqida va siyosat bo‘yicha boshqarardi. Unga tobe bo‘lgan xalq va odamlar soni oshib borardi. Uning mamlakati dushman va yovuz kuchlardan xavf-xatarsiz edi. Tadbirkor, nuroniy, otashin, qudratli, shavkatli, davlatmand xonning katta sevikli xotinidan ko‘rkam yuzli uch o‘g‘li bor edi. Eng katta o‘g‘lining oti Mag‘abali edi, o‘rtancha o‘g‘lining oti Mag‘adivi edi, eng kichik o‘g‘lining oti Mag‘astvi edi.

Bir kuni o‘sha Eligxon uch o‘g‘li bilan mamlakat chetidagi toqqa, daryo bo‘yiga sayr qilishga bordi. Elig va uning o‘g‘illari sayr etishib, dam olganlaridan so‘ng uch shahzoda otalaridan gul, meva-cheva terishga ruxsat so‘radilar. Elig ruxsat berdi. Teginlar u yoq-bu yoqqa, nari-beri yurishib, bir katta qamishzor orasidagi berk ariqqa kirib, o‘sha yerda dam olishga o‘tirdilar. Kutilmaganda katta tegin ikki inisiga shunday dedi:

– Ey inilarim! Negadir meni qo‘rqinch va vahima bosyapti. Bu ariq chakalak ichida ekan. Unda yirtqich hayvonlar bo‘lishi mumkin. Tag‘in, biz bir-birimizdan ayrilib qolmaylik.

Ikkinchi tegin shunday debdi:

– Ko‘nglimdagи gapni aytdingiz, ey, akam! Men bu jismimni sira asragim kelmaydi-ya, lekin yorlardin ayrilishdek tashvish bo‘lmasa edi, deb qo‘rqaman. Bu gapni eshitib, uchinchisi, Mag‘astvi tegin ikki akasiga shunday dalda berdi:

– Bu joy azizlar turadigan yerdir. Mening sira qo‘rqinchim, xavfim yo‘q. O‘zga ayrimoqlik tashvishim ham yo‘q. Har holda jismimda shodlik to‘lib, sevinch tug‘ilayotir. Shekilli, yaxshi bir ne’matni topgaymiz.

Uch tegin o‘z dilu ko‘ngillarida o‘ylagan gaplarini aytishib, so‘ngra dadillik bilan ariq ichiga kirdilar. Ancha

yurishgach, yaqinda bolalagan bir ona barsni ko'rdilar. Bars bolalaganiga bir hafta o'tgan bo'lib, u och edi. Bars yettiita bolasini bag'riga bosib, o'rab olgan, lekin ochlik, suvsizlik azobidan qiynalib, zaiflashgan, holdan toygan, jasadlari bo'shashib, kuch-quvvati ketib, o'lim arafasida yotar edi.

Og'a-inilarning kattasi Mag'abali barsning ahvolini ko'rib, shunday dedi:

— Ey, bechora, ona bars bolalaganiga yetti kun bo'libdi. Yumshoq luqmani istaydi. Lekin nasiba qayoqda?! Ochiqish, suvsash azobida qiynalib, hatto o'z bolalarini yeishga harakat qilyapti. Bundan ham ortiq bechora jonivor bo'lgaymi?

Bu gapni eshitib, Mag'astvi tegin akasidan «Bu bars nima yeydi, ma'qul ovqati nimadir», deb so'radi.

Akasi tegin shunday javob berdi:

— Barsning, ilvirs (mushuksimonlar oilasiga mansub hayvon)ning, manul (yovvoyi mushuk)ning, arslonning, bo'rining, tulkinining ovqati doim issiq go'sht, qon erur. Bundan boshqa ovqatu ichimlik yo'qki, holdan toygan och barsni tiriltirsa!

Bu gapni eshitib, inisi Mag'adivi tegin beixtiyor shunday dedi:

— Tug'ib kuchsizlangan, holdan toygan och bars, g'oyatda qiynalib, o'lim changalida turibdi. Bizdan boshqa kim borki, bunga yaroqli ovqat va ichimlik topib beradi, bechora jonivor uchun jasadini qurban qilib, issiq jon krita oladi.

Katta tegin bu gapni eshitib, yana o'rtancha inisiga yuzlandi.

— Ey, inim! Mardona ulashiladigan mol – mardona ish! Lekin issiq jondan kechib bo'lmaydi.

Bu so'zni eshitgan Mag'astvi tegin shunday dedi:

— Ey, jigarlarim! Biz hammamiz issiq jonimizga, jasadimizga g'oyatda bog'langanmiz, yopishganmiz. Boshqacha foyda, manfaat yetkazgali dono, ilmli, yorug'

ko'zimizdan ajralsak nima bo'pti? Holbuki, ba'zi-bir ulug', mehribon, ko'ngli toza odamlar qadim zamonlardan beri o'z jasadlarini qurban qilishib, jonivorlarga foyda, manfaat yetkazib keladilar.

U akalariga shu gaplarni aytar ekan, so'ngra ko'nglidan quyidagi fikrlar kechdi: «Axir, bu mening jasadim yuz ming zamonlardan beri hayotga keraksiz holda necha martalab chiridi, buzildi. Sira etli bo'lmay, foydaga, manfaatga yaramadi. Bu xildagi chirkin, keraksiz jasadim nega kerakli, ishlata digan, foydalanadigan o'rnini topmas ekanman. Nega keraksiz jasadimni manqa tupukday tashlab, fido va qurban qilib, bu bechora, nochor, och barsga xaloskor va panoh bo'lmayman!»

Mag'astvi ko'nglida bir jasorat, bir qo'rqinch uyg'onib, o'zgacha mehribonlik paydo bo'lib, o'sha barsning tepasiga keldi, afsuslandi va achindi. Mag'astvi tegin barsga yaqinlashar ekan, ochligini, ozg'inligini, mashaqqatini, azobini aniq ko'rdi va kipriklarida yosh qalqidi, ko'zlarini undan hech uzolmasdan anchagacha tikilib, qarab turdi. So'ngra aka-ukalar boshqa tomonga qarab yurdilar. O'sha paytda Mag'astvi – budisatv (buddizm tariqatchisi – A.A) yana o'yldi: Aynan hozir jasadimni, issiq jonimni qurban qiladigan vaqt menga yuzlandi, duch keldi. Nega deganda, men almisoqdan beri bu chirik, sassiq qonli, yiringli, mehrsiz, mardud, jirkanch jasadga shunchalik mehr qo'ydim. Osh-suv, kiyim-kechak, o'rin-to'shak, otu fil, aravayu ulov, javohiru dur, molu mulkka sajda qildim. Qadimdan aynimoq, buzilmoq qonuni bor ekan, mening jasadim ham aynidi, buzildi. Bu jasadni asrab, ayab, saqlab, aynitmaslik ilojini qila olmadim. Har qancha qattiq tarbiyalasam ham, u yovuz dushman odatini saqlab qoldi. Aksincha, u meni tark etib, g'am va kulfatga sherik etdi. Mening umrimni u bilan shunday deb bilish kerak: jasad beqaroru foniyligi, titiladi. Jonga befoydaligi ustiga yana yovuz

dushmanday vahimachidir. Jirkanch, iflosligi yetmaganday, nopolik va axlat hosilasini ham ajratadi. Shuning uchun men bugungi kunda bu jasadimni fido qilib, ajoyib, ulug' ish-amalni bajarib, hayot daryosi ichida sol, kema topayin. Tug'ilish, o'lmaqlik taqdiridan tashqariga tortib chiqarayin.

Mag'astvi yana shunday o'yaldi: Agar birgina bu jasadimni qurban qilsam, keyin beqiyos, sonsiz jurm va gunohlarni, shishiniyu bezni, yiringiyu qonni, dardiniyu og'riqni, qo'rquinchni, xavfni – barchasini qurban qilgan, tark etgan bo'laman. Yana bu jasad haqida gapiradigan bo'lsak, u o'ttiz olti xil nopoliklar bilan to'la, suv yuzidagi ko'pikday beqaroru omonat. U barcha qurtlarning, qo'ng'izlarning to'planadigan joyi: qonning, yiringning o'rnashadigan yeri; u pay bilan, tomir bilan chirmalgan suyaklar, bo'g'in orqali tutashgan, g'oyatda palidu jirkanchdir. Endi menga tegishli bu jasadimni fido, qurban qilib, nuqsonziz, oliy ezgu Abamu (buddalardan birining nomi - A.A.)ga abadiy nirvoni (sanskritcha so'z bo'lib, sansar – dunyoga moddiy ravishda qayta-qayta kelishdan qutulgandan keyingi mutloq osoyishtalik)ni tilash, mehnatu tashvishni bir yo'la tarqatishlik; tug'ilish va o'lish qismatini ta'sirsizlantirishlik, nafsoniy aloqani uzishlik; ruhiyatning dono bilimdon kuchini kuchaytirishlik; to'liq, tugal, puxta bo'lmoqlik, ezgulikni nuqsonziz ado etishlik; yuz yorug'lik harakatini qilishlik, to'liq, tugal, dono ilmning tubiga yetishlik; hamma burxonlar qoshida madh etilgan, muqaddas shar'iy jasadni shohid qilishlik; butun besh olam maxluqlarining avlodini, shariat zakoti yemishini yedirishlik.

So'ngra Mag'astvi tegin o'tkir, kuchli hayajonlanib, buyuk orzuga cho'mib, ulug' mehribon ko'ngilni uyg'otib, ko'ngli va ko'ksi bilan ravshan tortib, ikki akasining ko'ngliga ham shu tuyg'ularni solib, har holda ular ham anglasa, deb o'yaldi. So'ngra o'z o'y-xayolidan qo'rqib, xavfsirab, monelik, qarshilik qilib, tilagan orzuimni

qondirmaydi, degan xayolga bordi. Mag‘astvi ikki akasiga charchaganini aytdi, ulardan biroz tin olishga ruxsat so‘radi. U akalarini jo‘natib, o‘zi o‘sha ariqqa kirdi. Och bars oldiga yetib, kiyimlarini shoshilganicha egilgan qamish butog‘iga osib, baland ovozda shunday so‘zлади:

— Men endi sansardagi jonivorlar uchun, oliv ezgu burxon ruhi talabini ikkilanmasdan, parishon bo‘lmasdan, ulug‘ mehribon ko‘ngilni uyg‘otib, bu mening sevar mahbub jasadimni fido qilaman, qurbon etaman. Buzilmas, bekamu ko‘st burxon saodatini tilaymanki, barcha donolarga mahbubu maqbul uch nav dunyodagi, emgak dengizidagi jonivorlarni yuqoriga tortib, qutqarib, osoyishtayu shodmon qilayin.

Tegin shu gapni aytib, o‘sha fursatda och bars oldiga uzala tushib yotdi. Ulug‘ mehribon ko‘nglining nuri alangasi porlab turgan paytda u och bars teginni egali tashlanmadı. Budisatv buni ko‘rib, go‘yo baland toqqa ko‘tarilib, jasadini pastga otdi. Jasad yerga tushdiyu, budisatv yana shunday o‘yladi: demak, bars oriqligi uchun zaif, madorsizzdir. Shu sababli meni yeya olmadi. So‘ngra budisatv tik turib, u yoq bu yoqqa qarab, kesadigan narsa qidirib, uni topolmadi. Shundan so‘ng qurigan qattiq qamish olib, uni o‘zining umgan tomiriga sanchib, qon chiqarib ohista barsning yoniga bordi. U bars oldiga yetganidiyoq, bu og‘ir, ulug‘ kulrang yer olti marta turlichcha tebrandi, silkindi. So‘ngra kuchli shamol kelib, ko‘l suvini urib, to‘lqinlantirgandek, ariq suvi yuqori-quyi chayqaldi. Ko‘k osmon yuzidagi quyosh Tangri Rag‘uga ot solgandek, nursiz, yog‘dusiz, rangsiz xira bo‘ldi. Yon atrof butunlay qoraydi, qora tuman bilan qoplandi. Ko‘k osmondan ilohiy hid, ifor, gul chechaklar tushdi, yog‘di. O‘sha ariq soy ichi gul chechaklar bilan to‘ldi.

Shu payt och bars budisatvning bo‘ynidan qon oqayotganini ko‘rdi. Shunda u qonni so‘rish uchun o‘rnidan turdi va uning jasadini yedi. Faqat teginning quruq suyaklari

oldi. Tegin-badisatvning katta akasi yer qimirlayotganini ko'rib, ukasiga shunday dedi:

– Qo'ng'ir yer, daryolar va tog'lar bilan birgalikda silkinyapti. Quyosh Tangri ham qorayib, atrofni qorong'ulik qopladi. Osmondan uvvos solib gul chechaklar yog'ilmoqda. Buning hammasi kichik ukamiz o'z tanini qurbon qilganligining belgisidir.

Bu so'zni eshitib, kichik inisi shunday dedi:

– Men Mag'astvining sezgirlik bilan aytgan to'g'ri gaplarini eshitdim. Bu shu haqda ediki, u oriq, kuchsiz, ochlikdan o'lim changaliga yaqinlashib, o'z bolalarini ham yeish darajasiga yetgan barsni ko'rdi. Shu sababli, men shubha qilyapmanki, kichik ukamiz bars baxti uchun o'z tanini qurbon qilgani rostga o'xshaydi.

Ikki tegin shunday suhbatlashar ekan, achchiqlanib, xafa bo'ldilar va yig'ladilar. Shundan so'ng ular tezda orqasiga qaytishdi, ko'zlarida yosh bilan och bars yotgan joy tomon yurdilar. Ular bu yerga kelishar ekan, ukalari Mag'astvining qamish shoxchasiga osilgan kiyimlarini, tan suyaklari sochlariiga o'ralib turganini, qoni yerga yoyilib ketganligini ko'rdilar. So'ngra nima bo'ldi deng? Ular bu fojiani ko'rishib, jasadlarini ukalarining suyaklari ustiga tashladilar, qo'rqinch va yo'qotish tuyg'ularidan karaxt holga tushdilar. Ular biroz o'zlariga kelgach, qo'llarini osmonga ko'tarishib, iltijoli ovozda yig'ladilar:

– O, qanday go'zal, ko'r kam va kelishgan yigit eding sen – bizning kichik ukamiz! Sen onamiz va otamiz uchun sevikli eding, o, jigarimiz! Sen yana bu erga qanday qaytadan kelib qolding-a? Qanday ko'rgulikki, sen o'z hayotingdan kechding, biz bilan birga bormading! Onamiz va otamiz bizni ko'rgali peshvoz chiqishsa, sen haqingda so'rashsa, biz ikkimiz nima deb javob beramiz. Biz ikkimiz uchun ham sening yoningda o'lish yaxshi emasmi? Biz uchun tiriklik •nimaga kerak? Bizning jasadimiz sog' qolishi-ya!

Shunday qilib, ikki tegin kuchli alam bilan yig‘ladilar, hayajonli va oromsiz bir holatda orqasiga qaytdilar. Bu paytda tegin Mag‘astvining xizmatchilari kengashdilar, «bizning teginimiz yashirindi yoki yo‘qoldi. Qayerga, qachon ketdi? Noma’lum. Qayerda u ? Izlaylikmi?!» – deb aytdilar.

O‘sha paytda shahzodalarining onasi shaharda saroyning ko‘shkida u xlabelotgan edi. U favqulodda qo‘rqinchi tush ko‘rdi. Uning ko‘ksi mutlaq kesib tashlangan edi. Malikaning oziq tishlari og‘zida qimirladi va tushdi. Uch kaptarga lochin changal soldi. Ulardan biri o‘ljaga aylandi, ikkitasi esa kuchli qo‘rqinch bilan qutulib qoldi.

Malika yer qimirlashidan juda qo‘rqib uyg‘ondi. U qo‘rquv va bezovtalanish bilan shunday dedi:

– Bu tushning asosida qanday hodisalar turibdi. Qo‘ng‘ir yer dahshat bilan silkindi, daryolar, ko‘llar qirg‘oqdan toshayapti. O‘simlik va daraxtlar sollanayapti. Yaratganning yoritg‘uchisi – quyosh nurlari rangsiz tusga kirdi. Guyo bir narsa bilan qoplanganday. Ko‘zim tindi va yuragim aynidi. Ular avval tinch va osoyishta edi. Ajab, yuragimni o‘q teshganday, azobli g‘amga botdim. Butun tanim titraydi, halovatim yo‘qoldi. Ko‘rgan tushlarimning belgilari yomonlikdan xabar berayotganga o‘xshaydi. Agar tushlarim haqiqat bo‘lsa, u men uchun qimmatli odam haqida xabar bermoqda. Bularning hammasi fojiadan nishonadir.

U o‘zini yo‘qotgan holatda siynalarini uqaladi, undan sut oqib, tomdi. Nima bo‘ldi deng. Bu holatni ko‘rib, malika yanada battar karaxtlandi, toshday qotdi. Bu vaqtida malikaning oqsochi saroydan tashqarida edi. U ko‘chadan ushbu shum xabarni eshitdi: teginni izlayaptilar, lekin topa olmayaptilar.

Shundan so‘ng nima bo‘ldi deng? Bu voqyeni eshitib, oqsoch qo‘rqib va titrab ketibdi. So‘ngra u saroyga kirib, o‘zining bekasiga quyidagilarni aytibdi:

– Bekam, eshitdingizmi, tashqarida qanday mish-mishlar yurganligini? Teginni qidirayotgan emishlar, ammo hali topa olmapti. Bu qanday gap?

Bu so‘zlarni eshitib, malika achchiq alam, iztirob, ko‘zida yosh bilan ulug‘ xoqon oldiga bordi.

– Ey, ulug‘ elig! Men har xil mish-mishlar eshitdim. Bu qanday gaplar-a? Balki bular qadrli bolajonimiz, eng kenjamiz Mag‘astvidan ayrilganligimiz belgisidir.

Ulug‘ elig bu so‘zlarni eshitib, qo‘rquv va vasvasa iskanjasida, ko‘zida yosh bilan shunday dedi:

– Iztirobdaman! Juda qattiq iztirobdaman! Bugun sevikli va qadrdon o‘g‘limdan ajraldimmi? Yo‘q, ishonib bo‘lmaydi.

U ko‘z yoshlарини artib, malikani tinchlantirishga urinar ekan, yana shunday dedi:

– O, sadoqatli yorim! Sen o‘ksima va tashvishlanma. Men sevimli bolalarimni qanday bo‘lmасin topaman. Uning tirik yoki o‘limini aniqlayman.

U shu so‘zlarni ayta turib, tezda vaziru ulamolari bilan shahar tashqarisiga chiqdi va tegirlarni izlab, turli tomonga jo‘nab ketdilar.

Tegin haqidagi mish-mishlar hali mamlakat bo‘ylab keng tarqalmagan paytda ayonlardan biri ulug‘ elig huzuriga kelib, shunday dedi:

– Ulug‘ xoqon! Bir qoshiq qonimdan keching. Ikki tegin eson-omon qaytmoqda. Lekin kenja o‘g‘lingiz Mag‘astvi tegindan darak yo‘q. Uni izlashayapti, albatta topishadi.

Bu so‘zlarni eshitib, ulug‘ elig chuqur xo‘rsindi va shunday dedi:

– Qanday ko‘rgulik! Qanday azob! Men sevimli va qimmatli bolamni yo‘qotdim. O‘g‘lim dunyoga kelganida xursandchiligidan ko‘p edi, yo‘qotganda esa qayg‘umning cheki yo‘q. O‘g‘lim tirik bo‘lsa qani edi? U hozir bizning yonimiz-da bo‘lsa bormi? Men judolik kunlarini ko‘rmagan, yig‘lamagan bo‘lur edim.

Malika bu so‘zlarni eshitib, achchiq qayg‘u va faryod chekib, qalbi va ko‘ksi yonib, shunday dedi:

– Uch o‘g‘lim o‘za’yonlari bilan daryo bo‘yiga vaqtichog‘lik uchun borgan edi. Kenjas, sevimli va aziz o‘g‘lim qaytmagan ekan, demak, ayriliqdan xabar bor.

Malika shunday so‘zlarni aytib, ko‘zlarida yosh qalqib turganida, saroy a’yonlardan biri ulug‘ elig huzuriga kelib, tiz cho‘kdi.

– Hoy, a’yon! Sevimli o‘g‘lim Mag‘astvi qayerda? – dedi elig.

Eligning talabini eshitgan a’yonning ko‘zlaridan halqa-halqa yosh keldi, tili so‘z aytishga aylanmay, tomog‘iga nafasi tiqildi. U elig qarshisida gungdek turar edi. A’yonning holatini ko‘rgan elig malika bilan birgalikda uni jon holiga qo‘ymay tergadilar.

– Tezroq gapir, ey ayon, mening kenja o‘g‘lim qayerda? Mening vujudim, o‘y-xayollarim olov ichra yonmoqda, aqlim va o‘zligimni yo‘qotib, hushsiz odamga aylanmoqdam. Bag‘rimni ezib, buncha majaqlamasang-chi?

Shunda ikkinchi a’yon bor gapni oqizmay-tomizmay gapirdi, tegin – badisatv o‘z tanasini qurbon qilganligini so‘zlab berdi.

Bu mudhish xabarni eshitgan ulug‘ elig va malika joylarida toshdek qotdilar, faqat ingradilar, yig‘ladilar. Zurriyotlarining qurbon bo‘lgan joyini ko‘rish istagida tez chopar otlar qo‘shilgan aravalarga minishib, daryo buyiga, qalin qamishzorlar orasiga jo‘nab ketdilar. Ular badisatv o‘z tanini qurbon qilgan yer va joyni topdilar, badisatvning suyaklari har tomonda sochilib yotganini ko‘rishib, hushsiz yiqildilar, ularning aqlu hushi kirarli va chiqarli holatga tushgan edi. Ular go‘yo kuchli va bo‘ronli shamoldan qulagan daraxtga o‘xshardi. Shundan so‘ng, o‘sha ayon sovuq suv olib, ulug‘ elig va malika yuziga sepdi. Ular sekin-asta o‘zlariga kela boshlashdi. Hushini yig‘ib olgach,

qo'llarini osmonga ko'tarishib, yig'lashdi va dod-saryod ko'tarishdi, marsiya o'qishdi.

— Qanday baxtsizlik yuz berdi, bolajonimiz, go'zal kenjamiz?! Qanday qilib, ajal seni o'z domiga tortdi. Faqat, u seni emas hammamizni o'lirdi. Ajal sendan oldin meni topishi kerak edi-ku! Men uchun bundan ortiq g'am va yo'qotish bo'lmaydi, — dedi ulug' elig.

Shundan so'ng ulug' eligning xotini boshini changallab, sochlarini yulib, ikki qo'li bilan ko'kragiga urib, suvdan chiqqan baliqdek, yer uzra tipirchilab marsiya aytdi:

— Suyaklari turli tomonlarga sochilib yotgan bolaginamning tanini nimtalashga kimning qudrati yeta oldi?! Men o'z boyligimdan, sevimli va aziz o'g'limdan ajraldim. O'g'ilginam, seni o'ldirishga kimning haddi sig'di! Mening yuragim bilan nega o'ynashdi? U yorildi, urushdan to'xtadi. Bu ko'rguliklardan so'ng menga yashashning keragi bormi? Men tushimda bu ayanchli voqealarni ko'rgan edim-a! Men bu belgilarni aniq ko'rgan edim-a! Mening ikki ko'ksim chuqur kesilganligini tushimda ko'rgan edim-a! Oziq tishlarim qimirladi va tushdi. Men buni ham tushimda ko'rdim-a! Yangidan o'sha uyqu domiga tushdim. Bu yerda esa boshqacha tushdir. Uchta yoqimli kaptarning uchalasiga ham lochin hujum qildi. Ulardan biriga chang soldi, olib qochdi. Mana mening tushim o'ngidan keldi. Men eng kenja, sevimli va qimmatli o'g'ilchamdan ajraldim. Qani edi, bularning hammasi yolg'on bo'lsa!

Malika shu alamli so'zlarni ayta turib, yig'ladi. So'ng ulug' eliga o'zining ikki o'g'li bilan ko'zlarida yosh va yuzlarida motam iztirobi, badisatvning suyaklarini bir joyga to'pladilar. Ular shu bilan tegin sharafiga ulug' urf-odat va marosimlarni o'tkazishdi. Maqbara qurishib, uning ichiga hurmat va izzat bilan dafn qilishdi.

«Oltin yoruq» turkiy adabiyot tarixidagi nodir tarjima asaridir. U turkiy adabiyotda badiiy tarjima tarixi juda

qadim davrlardan boshlanganligini ko'rsatadi. «Oltin yoruq» asli sanskrit tilida yaratilgan. Ma'lumki, sanskrit qadimgi hind adabiy tili hisoblanadi. U miloddan avvalgi birinchi asrda Shimoliy Hindistonda tarqalgan. Sanskrit tilida ko'plab diniy, falsafiy, badiiy va ilmiy asarlar yaratilgan.

Sanskrit adabiyoti qadimgi hind adabiyotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Jahon adabiyotning «Maxabxarata», «Ramayana», «Panchatandra» («Kalila va Dimna»), «To'tining yetmish hikoyasi» kabi nodir asarlari sanskrit tilida yaratilgan. Sanskrit adabiyotining namunalari X asrdayoq Markaziy Osiyoda sevib o'qilgan va tarjima qilingan. Abu Rayhon Beruniy «Kalila va Dimna»ning tarjimalari haqida fikr yuritgan. «Oltin yoruq» turkiy tilga o'girilishining ikki asosi mavjud. Birinchisi, adabiy hayot talab-taqozosi hisoblansa, ikkinchidan bu asarda budda dinining ta'limoti o'z mantiqiy ifodasini topganligidir. Chunki, «Oltin yoruq» turkiy tilga tarjima qilingunga qadar budda ta'limoti turkiy xalqlar o'rtasiga ham yetib kelgan va unga amal qiluvchilar mavjud edi.

«Oltin yoruq» tarjima asar bo'lsa-da, kuchli his-hayajon, ehtiros bilan o'qiladi. Undagi lirizm ruhining balandligi asar asli she'riy yo'lda yaratilganidan dalolat beradi. «Oltin yoruq» diniy asar hisoblansada, unda real hayot manzaralari inson vujudini larzaga solarli darajada yaratilgan. O'z farzandidan judo bo'lgan ota – ulug' elig va ona-malika kechinmalari asarning estetik kuchini oshirishga xizmat qilgan.

«Oltin yoruq» yig'i va judolik ruhining kuchligi bilan toshbitiklardagi ayrılıq tasvirlariga juda ham ohang turadi.

Xullas, qadimgi turkiy xalqlarga xos adabiy syujetlarning jahondagi turli xalqlar adabiyotiga yaqinligi, badiiy g'oya va obrazlarni yaratishdagi mushtaraklikning o'ziga xos asoslari mavjud.

1. Bunday adabiy hodisa qadimgi turkiylar uzoq asrlar davomida yunon, fors, arab, gruzin, rus-slavyan va boshqa xalqlar bilan turli ijtimoiy-siyosiy aloqada bo‘lganligi natijasidir. Shuningdek, urush va nizolar tufayli turkiylar bu mamlakatlarda hukmronligini o‘rnatishi, tub aholi bilan chatishib, qo‘silib ketishi ham ularning adabiy qahramonlari boshqa xalqlar adabiyotiga singishuviga sabab bo‘lgan. Boshqa xalqlar o‘z dunyoqarashi asosida turkiy adabiy syujetlarni rivojlantirishi va qayta ishlashi katta ilmiy-ma’rifiy ahamiyatga ega. Ular bu bilan qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodini saqlash va uni yaratishga ma’lum darajada hissa qo‘shdilar.

2. Islomgacha bo‘lgan turkiy adabiyotni jahon xalqlari adabiyoti bilan qiyosiy o‘rganishning juda muhim ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, avvalo, turkiy adabiyot o‘z salmoq dorligi bilan antik davriga ega bo‘lgan xalqlar adabiyotidan qolishmaydi. «Odisseya» va «Algomish» dostonlarining g‘oyaviy mazmuni, kompozitsiyasidagi o‘xshashliklar, tepako‘zlar obrazining yunon va qadimgi turkiylar adabiyotida mavjudligi adabiy ta’sir yoki ijodiy fikr lashning bir xilligi, mushtarakligi natijasimi? Adabiyotshunoslikda bu muammolarning hozirgacha yechimi yo‘q.

3. Lekin antik davr tarixchilari, yozuvchilari, xususan, Gerodot skiflar tarixi, adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, ijtimoiy tur mushiga katta qiziqish bilan qarashi Skifiyada yunonlar uchun o‘rganadigan jihatlari yo‘q emasligini asoslaydi. Gerodot skiflar mamlakatida bir ko‘zli odamlar borligiga ishonch bildiradi. Demak, skiflar o‘rtasida yaratilgan adabiy syujetlar yunon adabiyotiga ko‘chib o‘tganligiga hech shubha yo‘q. Prometey obrazi yaratilishi haqida ham shunday xulosalarini bayon etish mumkin.

4. Islomgacha bo‘lgan turkiy adabiyotga xos adabiy syujetlarni tiklash, ularni o‘rganishda qadimgi turkiylar

yashagan hududlardagi og‘zaki ijod namunalariga ham nazar tashlash ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu tamoyil nuqtai nazaridan yondashiladigan bo‘lsak, german, gruzin, rus-slavyan xalqlari og‘zaki ijodida ham qadimgi turkiylar yaratgan rivoyat va afsonalarni ko‘rish mumkin. Bu asarlarda turkiy qahramonlar ulug‘lanishi, madh etilishi yoki taqdiridagi fojialarga rahm-shafqat tuyg‘usi ifodalanishi, eng muhimi, etnografik belgilar saqlanishiga ko‘ra ularni turkiy adabiy yodgorliklarining ko‘chma yorqinlashgan namunasi, deb hisoblash mumkin.

***TURKIY ADABIYOT TARIXIDA YANGI DAVR  
YOKI QABR TOSHLARI DAVRI ADABIYOTI***

**TOSHBITIKLARNING O'RGANILISH TARIXI**

Tosh va yozma badiiy bitiklarning topilishi turkiy adabiyot tarixida yangi davrni boshlab berdi. Markaziy Osiyoga arablarning kelishiga qadar yaratilgan yozma adabiyotni o'rganishda O'rxun va Enasoy daryolari yoqasidan topilgan toshbitiklar alohida ahamiyatga ega. Turkiy halqlarning bu adabiy-tarixiy yodgorliklari VI-VIII asrlarga oid bo'lib, ular turk-runiy yozuvlari deb yuritiladi. Turkiylarda toshbitiklar tarixi uzoq tarixga ega. 1970-yilda Olmaotadan 50 kilometr uzoqlikdagi Esik shaharchasidan topilgan qabrdan O'rxun alifbosidagi harflar bitilgan runiy yozuvdagi toshbitik qo'lga kiritilgan edi. Yozuv qadimgi turk tamg'alarida uchraydigan shakllarga asoslangan bo'lib, unda quyidagi so'zlar bitilgan. «**Xonning o'g'li 23 yoshida o'ldi. Issiq elining boshi omon bo'lsin!**» Qabr qaysi xonga tegishli ekanligi aniqlanmagan bo'lsa-da, yozuv bundan 2500 yil muqaddam yaratilgani isbotlangan. Demak, runiy yozuvlarning tarixi uzoq, bu yozuvda yaratilgan yozma adabiyot ham shunday qadimiylikka egadir. Lekin mukammal darajadagi toshbitiklar topilmaganligi sababli yozma davrni miloddan oldingi davrlardan boshlashga hali vaqt erta.

Runiy yozuvda bitilgan adabiy tarixiy bitiklar Sibir, Mo'g'ulistonning turli joylaridan, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Qofqaz, Volga bo'yli, shuningdek, Yevropadan topilsa-da, u tarixda O'rxun-Enasoy yodgorligi nomi bilan yuritiladi. Bu yodgorliklarning topilish tarixi,

bitiklarning adabiy-tarixiy qimmati darslik va qo'llanmalarda, bir necha ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Jumladan, N. Mallayevning «O'zbek adabiyoti tarixi» (oliy o'quv yurtlarining til va adabiyot fakultetlari uchun darslik), B. To'xliyevning «O'zbek adabiyoti» (9-sinf uchun darslik), «O'zbek adabiyoti tarixi» (Besh tomlik. 1-tom), A. Qayumovning «Qadimiyat obidalari», mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan «Qadimiy hikmatlar» va boshqa asarlarda yoritilgan. O'rxun va Enasoy bitiklari jahon turkiyshunoslari e'tibori qaratilgan nodir yodgorliklardandir. Qadimgi turkiy yozuvlarni o'qigan birinchi kishi daniyalik professor V. Tomsondir. Shundan so'ng R.Radlov, S.Ye. Malov, S.G.Klyashtorniy, I.V.Stebleva, H. O'rxun, T.Tekin, Najib Osim, G.Aydarov, o'zbek olimlaridan A.Rustamov, G'. Abdurahmonov, N. Rahmonovlar o'rganishgan. Bitiklar qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek tiliga ham o'girilgan. Bu jihatdan A.P.Qayumov, G'. Abdurahmonov, A. Rustamovlarning xizmatlari salmoqlidir.

Run yozuvlari qog'ozga, shuningdek, boshqa buyumlarga ham bitilgan. «Irq bitigi» («Ta'birnomा») qog'ozda yozilgandir. Run yozuvi hozirgi Avliyo ota va Taroz shahri yaqinidagi qoyada, Sibir o'lkasida kumush ko'zachalarda bitilgani kuzatilgan. Shuningdek, qadimshunoslar oyna, qayish to'qasi, idish-tovoq, yog'ochga bitilgan runiy yozuvlarni qo'lga kiritishgan.

Toshbitiklar turkiy xalqlar tarixida favquloddagi yozma adabiyot emas. Ular qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining mantiqan davomi, o'zidan avvalgi adabiyotning mazmuni, ruhi, g'oyasini rivojlantirgan yangi shaklidir. Toshbitiklardagi arxaik tasvirlar shundan dalolat beradi. I.V.Stebleva, N.Rahmonov va boshqa olimlar toshbitiklarning bunday xususiyatlarini asoslab bergenlar. Yodnomalarda bayon qilish usuli va bu usulning uch qat'i unsurlari – asarda

boshlanma, voqeа rivoji, tugallanmaning mavjudligi turkiy, umuman, barcha xalqlar og‘zaki ijodiga xos arxaik xususiyatlardir. Toshbitiklar qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodining davomi sifatida yuzaga kelganligining asoslari mavjud. Ungin yodnomasi shunday boshlanadi:

*Achumiz, apamiz Yamы qag ‘an,  
Tort bulungug ‘qismish, yig ‘mish, yamыш, basmish,  
Ol qan yoq boltuqta kasra,  
Al yit mish, ыичхин mish.  
(Achamiz, otamiz Bumin qog ‘an,  
To ‘rt bo ‘lakni qismish, yig ‘mish, yoymish, bosmish.  
Ul xon yo ‘q bo ‘lgandan so ‘ngra,  
El yo ‘q bo ‘lmish, qochishmish).*

Bo‘min dastlabki turk xoqonlaridan hisoblanadi. Uning hayoti to‘g‘risida rivoyat yoki afsonalar yaratilgan bo‘lishi kerak, chunki Kul tegin va Bilga xoqon yodnomalarida Bo‘min haqida ham so‘z borishi shundan dalolat beradi.

Bo‘ri qadimdan barcha turkiy xalqlarning totemidir. Ashin urug‘i o‘zlarini bo‘ridan tarqalgan deb hisoblashlari to‘g‘risida afsonalar mavjud. «Alpomish»da Boybo‘ri, «Qo‘rqt ota kitobi»da Boybo‘rak obrazlarining yaratilishi, «O‘g‘uznama»da bo‘ri turkiy qavmlarni boshlovchi asosiy qahramon darajasiga ko‘tarilishi qadimiye’tiqodlar ifodasidir. Enasoy yodnomalaridagi Chuchuk Bo‘ri Sangun ismi ham totemlik belgisi bo‘lib, u qadimgi turkiy dostonlar bilan yodnomalar o‘rtasidagi yaqinlikni ko‘rsatadi. Yoki turkiy dostonlarda, masalan, «Alpomish», «Manas», «Qo‘rqt ota kitobi»da ot yaxshilik belgisi, qahramonning eng yaqin safdoshi va do‘sti sifatida shakllangan. O‘rxun yodnomasidagi Kul teginning Bo‘z oti ham shunday belgilardan hisoblanadi.

Toshbitiklarning har biri o‘ziga xos mustaqil adabiy-tarixiy asardir. U she’riy yo‘lda bitilgan. O‘z davrining ruhi

singdirilgan. Shu sababli ham I.V. Stebleva ularni «tarixiy qahramonlik poemalari» deb ataydi. O'rxun va Enasoy toshbitiklari barcha turkiy xalqlarning adabiy yodgorligidir. Qadimgi turkiy adabiyotning vorisi hisoblangan bugungi ko'plab milliy adabiyotlar unda o'z tarixini, shakllanish jarayonini, katta hajmli nodir asarlarning tug'ilish ildizlarini ko'radi. XX asr qozoq yozuvchisi M. Avezov shunday yozadi: «har qanday tadqiqotchi yodnomalarini o'qib, «Manas»dagi Manas, Almambet, Kubak, sirnoqlarning qahramonligi bilan yodnomalardagi harbiy yurishlar, janglar, olishuvlar o'rtaсидаги parallelilikni ko'rishi mumkin».

## O'RXUN BITIKLARI

O'rxun Mo'g'ulistonning Komo-Saydam vodiysidagi daryo. Bu guruhga hozirgacha ma'lum bo'lgan To'nyuquq, Kul tegin, Bilga xoqon, Ungin, Moyun Chur kabi bitiklar kiritiladi.

**To'nyuquq bitigi.** Bitik ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi To'nyuquqqa bag'ishlangan. To'nyuquq Qapog'on va Bilga xoqonlarning ham maslahatchisi bo'lgan. Toshbitik 712-716-yillarda To'nyuquq tirikligi paytida yozilgan. Yodgorlikni 1897-yilda Yelizaveta Klemens eri Dmitriy Klemens bilan birgalikda Shimoliy Mo'g'ulistonning Bain-Sokto manzilidan topishgan. Yodgorlik hozirda o'sha joyda saqlanadi. To'nyuquq bitigi – qahramonlik ruhidagi asardir. To'nyuquq turkiylarning dushman qabilalariga qarshi kurashgan, donoligi, tadbirkorligi, jasurligi bilan ko'p g'alabalarni qo'lga kiritgan sarkardadir. Bitikda uning xizmatlari ulug'lanadi, turk xalqiga sodiqligi madh etiladi. Asardagi voqealar To'nyuquq tilidan hikoya qilinadi. Turk xalqi boshboshdoqlik, o'zibo'larchilik, beparvolikka berilib, o'z hukmdori atrofida birlashmasdan erkini qo'lidan bergani qahramonning ruhiy kechinmalari orqali beriladi.

*Bilka To 'nyuquqmen o 'zim  
Tabg 'ach elida o 'sdim.  
Turk budun Tabg 'achga qarar edi,  
Turk budun xoni bo 'lmayin  
Tabg 'achdan ajraldi, xonlandi.  
Xonin qoldirib yana Tabg 'achga bo 'ysundi,  
Tangri ancha demish: xon berdim.  
Xoninga qoldirib (boshqaga) bo 'ysunding,  
Bo 'ysunganing uchun Tangri o 'ldirmish ekan.  
Turk budun o 'ldi, bo 'shashdi, yo 'q bo 'ldi,  
Turk sir budun yerinda kuch qolmadi.*

*O 'tda, toshda qolmishi,  
Birlashib yetti yuz bo 'ldi.  
Ikki bo 'lagi otli erdi,  
Bir bo 'lagi piyoda edi.  
Yetti yuz kishini boshlagan  
Ulug 'i shad edi.*

*Yig 'il, dedi,  
Yig 'ilishi man erdim –  
Bilka To 'nyuquq.  
Qog 'on tusayinmu, dedim.*

*O 'yladim, ariq buqali (dir u)  
Semiz buqali orqada bo 'lsa,  
Semiz buqami, ariq buqami, deyin, .  
Bilmas ermid, deyin.*

*Ancha o 'yladim.  
Unda Tangri bilig berdigi uchun.  
O 'zim o 'q qog 'on (qilmoqni) istadim.  
Bilka To 'nyuquq Buyla Baga Tarqan birla  
Iltarish qog 'on bo 'layin.*

*O'ngda Tabg'achni to 'g'rida qo 'tanni,  
So 'lda o 'g'uzni to 'kis o 'ldirdi.  
Bilikda, dangda (unga) bo 'yinsundim.  
Chugay kuz va qora qumda bo 'lgan edimiz.*

*Kiyik yeb, quyon yeb yashar edimiz,  
Budun bo 'g'zi to 'q erdi.  
Yog 'imiz tegrada qushlardek (ko 'p) erdi,  
Biz yemdek edimiz.  
Shunday edi tirikchilik  
O 'g'uzdan ko 'rik keldi.*

*Ko 'rikning so 'zi mundog :  
To 'quz o 'g'uz budun uza qog 'on bo 'ldi, der  
Tabg'achga Qunu Sanguni yubormish,  
Qo 'tanga To 'ngra Samni yubormish.  
Ancha so 'z aytdi,  
Ozgina turk budun yurar ermish.  
Qog 'oni alp ermish  
Aytg 'uchisi bilka ermish.  
Ul ikki kishi bor ersa,  
Seni tabg 'ach o 'ldirar, derman.  
Oldinda qo 'tan o 'ldirar, derman,  
Meni – o 'g'uzni (ham) ular o 'ldirar, derman.*

*Ular yo 'q qilsam, derman  
Tabg 'ach, o 'ngdan yopishing,  
Qo 'tan, to 'g'ridan yopishing,  
Man so 'ldan yonishayin.  
Turk sir budun yerida edi, yurmasin.  
Ularni yo 'q qilsam, derman.  
Ul so 'zni eshitib  
Tun uxlagum kelmadi,  
Kunduz o 'lturgim kelmadi.*

*Unda qog 'onim qarshisida o 'tindim,  
Bunday o 'tindim: Tabg 'ach, o 'g 'uz qo 'tan,  
Bu uchavi qovushsa, biz ozmiz,  
O 'z ichi-toshin tushmasdekmiz.  
Yupqa, arriqlik to 'plagali oson ermish  
Ingichka arriqlik uzgali oson.  
Yupqa, qalin bo 'lsa to 'plag 'ali alp (kerak) ermish.  
Ingichka yug 'an bo 'lsa uzgali alp (kerak) ermish.*

*To 'g 'rida qo 'janda, o 'ngda tabg 'achda  
Ortda qirdanda, so 'lda o 'g 'uzda*

*Ikki-uch ming qo 'shnimiz har biriga yurishi kerak  
Shunda o 'yladim.  
Qog 'onim man o 'zim – bilka To 'nyuquq,  
O 'ylagan o 'tinchimni eshita bordi.  
Ko 'nglingga kelganini qil, dedi.  
Ko 'ng o 'nguk yugorisi, O 'tukan yushi sari (askar)  
torittim.*

*Tog 'lada shaxli molda o 'g 'uz keldi  
Qo 'shini uch ming ermish.  
Biz iki ming erdimiz,  
Urush qildimiz.*

*Tangri yarlaqadi – yoyib tashladimiz.  
Daryoga tushdi, yo 'lda yoydik, yana o 'ldi, ehtimol  
Unda o 'g 'uz qarshiga bo 'ysunib keldi,  
Turk budunni O 'tukan yerga keltirdim o 'q.*

*Man o 'zim bilka To 'nyuquq  
O 'tukan yerga qo 'nmish deb eshitib.  
Janubiy xalqlar, g 'arbiy, shimoliy,  
Sharqiylar xalqlar kelib (bo 'yin egdi)*

*Ikki ming erdimiz,  
Ikki qo 'shin bo 'ldi.  
Turk budun bo 'lsin deb,  
Turk qog 'on bo 'lsin deb.  
Shantung shahari, daryo, dengiz,  
(Hali) teggan emas edi.*

*Qog 'onimga o 'tinib yo 'l oldim,  
Shantung shahariga daryo dengizga tegib yetdim.  
Yigirma uch shahar olindi,  
O 'sin Bintatu yurtda (kishilarim) yotib qolur edi.  
Tabg 'ach qog 'on yog 'iymiz erdi,  
O 'n o 'q qog 'on yog 'iymiz erdi.  
Ortigi qirg 'iz kuchlik qog 'on yog 'iymiz bo 'ldi.  
Ul uch qog 'on birlashib  
Oltin yush uza boramiz, demish,  
Shunday (deb) birlashmish.  
To 'g 'rida turk qog 'oniga qarshi suramiz, dermish  
Agar surmasak,*

*Bo 'lmasa bizni (surar)  
Qog 'oni alp ermish  
Aytg 'uchisi bilka ermish.  
Bo 'lmasa bizni o 'ldirar,  
Uchchavi qovushib suramiz,  
Uni yo 'q qilamiz, demish.  
Turgesh qog 'on bunday demish:  
Mening budunim unda borur demish,  
Turk budun yana buzilgan ul demish,  
O 'g 'uzi yana to 'zigan, o 'l demish,  
Ul so 'zni eshitib,  
Tun yana uxlagum kelmas erdi.  
Kunduz o 'ltirgim kelmas erdi...  
Unda o 'yladim.*

*Urushamiz... dedim  
Ko 'chman yo 'li bir ermish.  
Qor ko 'chmish deb eshitib,  
Bu yo 'ldan yurish yaramas dedim.*

*Yo 'lchi tiladim.  
Oz cho 'liylaridan bir erni topdim.*

*O 'zim oz yerim,  
Uni bil... ermish.*

*Bir turar joy ermish.  
An (daryosi) bo 'ylab bormish.  
Unda yotib  
Bir otlig 'yo 'l (bormish), deyin.*

*U yo 'lda yurulsa,  
Mumkin, deb o 'yladim,  
Qog 'onimdan o 'tikdim, askar yuritdim.  
Otlan, dedim.*

*Oq Tarmalni kechib to 'xtatdim.  
Ot uza mindirib qorni kechtirdim.  
Otning jilovini tutib piyoda tog ' oshdim,  
Yog 'ochlarni ushlab o 'tdim.*

*To 'g 'ridagi erlar yo 'l qurdilar.  
O 'simliklar to 'la balandlikni oshib  
o 'tdimiz.  
Qiynalib tushdimiz.  
O 'n kunda tog ' yon bag 'riga bordimiz.*

*Yo 'lchi yo 'l yo 'qotib,  
Bo 'g 'izlandi.*

*Qog 'on qiyinchiliklarni ko 'rib,  
Tezroq bosing, demish.*

*Ani bo 'ylab boraylik  
Ul suvdan quyi bordimiz.  
Sanag 'ali tushurdimiz.  
Otni yog 'ochga bog 'lar erdimiz.*

*Kun demay, tun demay tez bordimiz.  
Qirg 'izni uyqusida bosdimiz.  
.....Suyagini ochdimiz  
Xoni, qo 'shini yig 'ildi.  
Urushdimiz, sanchdimiz,  
Xonini o 'ldirdimiz.  
Qog 'onga qirg 'iz buduni  
Bo 'ysundi, egildi, qaytdimiz.  
Ko 'chmen yushini aylanib keldimiz.  
Qirg 'izdan qaytdimiz.  
Turgesh qog 'ondan elchi keldi.  
Uning so 'zi: «o 'ngda qog 'onga  
Qo 'shin tortamiz», demish.  
Yurmasak bizni,  
Qog 'oni alp ermish.  
Maslahatchisi bilka ermish.  
Qanday bo 'lmasin  
Bizni o 'ldiruvchi ko 'k, demish.*

*Turgesh qog 'oni oshiqmish, dedi,  
O 'n o 'q buduni hech qolmay oshiqmishdir.  
Tabqach qo 'shini bor ermish  
Ul so 'zni eshitib,  
Qog 'onim man uy sari tushayin, dedi,  
Xoin yo 'q bo 'lgan erdi.  
Uni ko 'mayin, dedi.*

*Qo'shin bilan sen borgin, dedi.  
Oltin yushda o'ltiring, dedi.  
Qo'shin boshi Ipal qog'on.  
Tardush shodi borsin, dedi.*

*Bilka To'nyuquq manga aytди,  
Bu qo'shinni elt, dedi.  
Ko'ngling tilagini buyur,  
Man sanga na aytardim, dedi.*

*Kelur ersa er ko'payar,  
Kelmas ersa.  
So'z, gap yig'gin, dedi.  
Oltin yushda bo'lamiz  
Ul elchi kishi keldi.  
So'zi bir: qog'oni qo'shin tortdi  
O'n o'q qo'shini hech qolmay oshiqmoqdadir.  
Yorus cho'lida terilamiz.  
Ul so'zni eshitib  
Qog'onga ul so'zini yetkirdim.  
Qanday qilay  
Yana so'z keldi.*

*O'ltiringlar degan emish  
Elma, yaxshi qaragin, turgin.  
Bosdirma, demish.  
Bog'u qog'on menga shuni aytmiss.*

*Ana tarqan ichki so'z etmiss:  
Bilka To'nyuquq  
Yovuz ul, o'zi bilormon ul  
Qo'shin tortaylik... unamang.*

*Ul so'zni eshitib qo'shin yurittim.  
Oltin yushni yo'lsiz oshdim,*

*Ertish suvini kechiksiz kechdimiz.  
Tun qotdimiz, Bolchugka tong otarda  
yettimiz.  
Asir keltirdi, so 'zi bunday:  
Yoruz cho 'lida o 'n tuman qo 'shin terilgandir.*

*Ul so 'zni eshitib  
Beklar qo 'nib, qaytamiz,  
Tozaning nomusi yaxshi, dedi (lar),  
Man bunday dedim:*

*Man bilka To 'nyuquq  
Oltin yushni osha keldi.  
Irtish suvin kecha keldimiz.  
Kelganlar alpdır, dedim  
Tuymadi.  
Tangri, Umay, uduq yer-suv  
Jazolaydi ekan.  
Necha to 'zarmız, ko 'p deyin.  
Nega qo 'rqarbiz, oz deyin,  
Nega yengilamız, bosamız, dedim.  
Bosdik, yeyib tashladımız.  
Ikkinci kun (ular) keldi.  
O 'tdek qizib keldi.  
Urushdimiz  
Bizdan ikki qanoti yarim hissa ortiq edi.  
Tangri yarlıqagani uchun ko 'p, deyin,  
Biz qo 'rqmadımız, urushdimiz,  
Tardush shodi.*

*Eydimiz, qog 'onim tutdimiz,  
Yabg 'usin, shodin unda o 'ldirdi.  
Ellikcha yer tutdimiz.  
O 'sha tunning o 'zidayoq budunga (elchilar)  
yubordimiz.*

*Ul so 'zni eshitib,  
O'n o'q beklari, buduni  
Ko 'p keldi, bo 'ysundi.  
Kelgan beklarni, budunni yig 'ib, joyladik.*

*Ozcha budun qochmish edi...  
O'n o'q qo 'shinini yurishga otlantirdim.  
Biz yana yurdimiz,  
Uni quvdimiz,  
Inju suvini kecha  
Tinasi o 'g 'li yotog 'ida  
Banglachak tog 'ining...  
Temur qopug 'ga quvdimiz.  
Anda qaytardimiz.  
Inel qog 'onga tojik toqrusin,  
Unda yaraku Suq boshliq  
Sug 'doq budun ko 'p keldi.*

*Ul kunda tagdi.  
Turk budun temir qopug 'ga  
Tiynasi o 'g 'li tog 'qa yetdi.  
Egasi yo 'q ermish.*

*Ul yerga men bilka To 'nyuquq (uchun)  
Sariq oltin terdilar  
Yarqiroq kumush, qiz, xotin,  
Gilamlar, so 'ngsiz qimmatbahlo narsalar  
keltirildi.  
Iltarish qog 'on bilimligi uchun, olimligi  
uchun  
Tabg 'achga o 'n yetti marta urushdi.  
Qitanqa yetti urushdi  
O 'g 'uzga besh urushdi  
Unda maslahatchi yana men o 'zim erdim.  
Yo 'ldoschchisi yana men erdim.*

*Iltarish qog 'onga,  
Turk Boxu qog 'onga,  
Turk bilka  
Qopog 'on qog 'on  
Tun uxlamadi  
Kunduz o 'lturmadi,  
Qizil qonin to 'kdi...  
Qora terin oqizdi...  
Ishimni, kuchimni berdim, albat,  
Men o 'zim uzun yurishlar yana etdim, albat.  
Arqug ' qarog 'in ulg 'aytdim.  
Bo 'ysungan yog 'yni kelturar erdim.  
Qog 'onim bilan birga urushdimiz  
Tangri yarlaqasin.*

*Bu turk budunqa  
Yaraqliq yog 'yni keltirmadi.  
Tugunlik otlig 'in yogurtmadim.  
Iltarish qog 'on qozonmasa  
So 'ngra o 'zim qozonmasam  
El ham, budun ham*

*Yo 'q bo 'lar erdim.  
Qozonganı uchun  
Izidan o 'zim qozonganım uchun  
El yana el bo 'ldi.*

*O 'zim qari bo 'ldim, ulug ' bo 'ldim.  
Biror yerdagı qog 'onlik budunga  
Bekorchi bor ersa  
Na baxtsizlik bo 'lar erdi ermish.*

*Turk bilka qog 'on elingga littirdim.  
Man bilka To 'nyuquq*

*Iltarish qog 'on qozonmasa  
Yo 'q erdi ersa  
Man o 'zim bilka To 'nyuquq  
Man yo 'q erdim esam,*

*Qopog 'on qog 'on Turk sir budun yerida  
Birlik bo 'lmay, budun bo 'lmay,  
Kishi yo 'q edi,  
Egasi yo 'q edi.*

*Iltarish qog 'on bilka To 'nyuquq  
Qozongani uchun  
Qopog 'on qog 'on  
Turk sir budun bor bo 'ldi*

*Turk bilka qog 'on  
Turk sir budunni  
O 'g 'uz budunni ulug 'lab o 'lturur.*

To 'nyuquq bitigi xotira-memuar shaklidagi dostondir. Unda asosan hayotiy voqealar hamda mifologik tasavvurlar ifodalangan. To 'nyuquq tarixiy shaxs bo 'lib, Eltarish xoqonning maslahatchisi edi. Uning yoshligi Tabg 'ach-Xitoyda o 'tgan. Bu paytda turk xalqi Tabg 'achga bo 'ysungan. Chunki turk xalqi bosh-boshdoqlikka yo 'l qo 'yib, o 'zini idora etolmagan. Ana shunday tarqoq xalqni To 'nyuquq birlashtirdi, ikki bo 'lagi otli va bir bo 'lagi piyoda bo 'lgan 700 kishilik qo 'shini bilan turk mamlakatini tikladi hamda shad (turk xoqonligining oliv unvonlaridan biri) unvoniga ega bo 'ldi.

To 'nyuquq Bo 'yla Baga Tarxon hamda Eltarish xoqonlar bilan mamlakat farovonligi uchun kurashdi. Natijada, xalq to 'q bo 'ldi. Turklar mamlakatiga yana urush xavfi tug 'ildi. Tabg 'ach, o 'g 'uz, qutan qavmlari birlashib, hujum

qilishga tayyorgarlik ko'rdi. To'nyuquq Eltarish xoqonga maslahat solganida xoqon uning kuchiga, tadbirkorligiga, donoligiga ishondi va «ko'nglingga kelganini qil» deb buyurdi. To'nyuquq o'g'uzlarning uch ming kishilik qo'shiniga qarshi jangga kirdi, ularni yengdi, yigirma uch shaharni ishg'ol qildi. Jang qishda, qor-izg'irinli kunlarda davom etardi. Qattiq sovuq bo'lsa-da, Irtish daryosidan o'tish va urushishga to'g'ri keldi. Jangda To'nyuquq g'alaba qozondi, dushman shadini ham o'ldirdi, dushmanning oz qismi qochdi, ular Temur qopug'gacha quvib borildi va qo'lga olindi. To'nyuquq Eltarish xoqonga maslahatchi bo'lgan davrda yurt dushmanlari bilan tez-tez jang bo'lib turdi. Jumladan, Eltarish xoqon tabg'achga 17, qutanga 7, o'g'uzlarga 5 marta yurish qildi.

Toshbitikda ifodalangan bunday tasvirlar xotiramemuar bo'lib, ular asarda epik bayonni, syujetni hosil qiladi. To'nyuquq bitigining boshqa toshbitiklardan o'ziga xos tomoni shundaki, unda yig'i-yo'qlov ruhi sezilmaydi, aksincha, asarning butun mazmuni qahramonlik tasviri asosida qurilgan. To'nyuquq – jasoratli, o'z xoqoni va mamlakati sharifi uchun kurashgan dono sarkardadir.

Bitikda real hayotiy voqealar bilan mifologik tasavvurlar uyg'un holatda tasvirlanadi. Mifologik tasavvur hayotiy voqealarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tangri xoqonlikka xon berishi, lekin xalq unga itoat etmay, bosh-boshdoq bo'lishi, shu sababli Tangri ularni qarg'ashi, nihoyat To'nyuquq Tangrining g'azabini anglashi, Tangri bilim va madad bergani uchun xalqni birlashtirib, ulkan davlatni qayta tiklashi mifologik tasavvur natijasi hisoblanadi.

To'nyuquq bitigini turkiy yozma adabiyotdagি dastlabki qahramonlik dostonlari namunasi, deb hisoblashga asoslar bor. Unda mavzu, syujet, obrazlar tizimi, tasviriy vositalar mahorat bilan yaratilgan. Shuningdek, asar o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega.

**Kul tegin bitigi.** Bitik turk xoqoni Eltarish xoqonning kichik o‘g‘li Kul tegin qabriga qo‘yilgan. Kul tegin 731-yilda vafot etgan bo‘lib, tosh 732-yilda o‘matilgan. Bitiktoshdagi voqealar **Kul teginning akasi Bilga xoqon** (asli ismi Mo‘g‘iliyon) tilidan hikoya qilingan. Asar Kul teginning jiyani Yo‘llug‘ tegin qalamiga mansub. Asar ikki qismidan iborat, birinchi kichik yozuv – 110, ikkinchi katta yozuv 428 misradan iborat. Kichik yozuvning dastlabki qismida Kul teginning o‘z avlodlariga, beklar va xalqqa murojaati beriladi. Turk davlatining chegaralari ko‘rsatilgan. Kul tegin qo‘smini «**Shantung tekisligigacha**» (Shimoli-sharqiyl Xitoy), «**To‘quz arslon**» – Tibetgacha yetganligi aytildi. Kul tegin qo‘s Shinlari Inju (Sirdaryo)ni kechib, Temir Qopug‘gacha (Bo‘zg‘ala o‘tami), so‘lda esa Bayirqu (Sharqiyl Zabaykal)gacha borgani madh etiladi. Kul tegin turkiy xalqlarni O‘teken yerida muqim qolsa, mung bo‘lmasligini uqtiradi. Asarning ikkinchi qismida esa Bilga xoqon ajdodlarining tarixi bitiladi. Kul teginning harbiy yurishlari, shaxsiy bahodirligi, vafoti, motam marosimi va marsiyalar keltiriladi. Asarning har ikki qismi ham Ko‘k Tangriga e’tiqod ruhi bilan boshlanadi. Turkiylar bilan yonma-yon yashagan tabg‘achlarning bosqinchiligi, hiylakorligi keskin qoralanadi.

### **Turk Kul tegin yodgorligida kichik yozuv**

*Tangri toq. Tangridan bo‘lgan  
Turk bilka qog‘on bu yerga o‘lturdim.  
So‘zimni tugal eshitgil.*

*Og‘ayu inimlar, o‘g‘lonim.  
Birlashgan ulusim, budunim  
O‘ndagi shad apa beglar,  
So‘ldagi tarqat buyruq beglar,  
O‘tuz.*

*To 'quz o 'g 'uz beklari, buduni  
Bu so 'zimni yaxshilab eshit,  
Qattiqla tingla.*

*Ilgari to kun chiqishgacha,  
O 'ngda to kun o 'rtasigacha,  
Orqada kun botishqacha,  
So 'ldan tun o 'rtasigacha.  
Uning ichidagi budun manga bo 'ysunur  
Ancha budun ko 'p ettim,  
Ul buzug 'i yo 'q turk qog 'on  
O 'tukan cho 'lida bo 'lursa elga bung yo 'q.*

*Ilgari Shantung tekisligiga askar  
torttim,  
Dengizga kichik tegmadim.*

*O 'ngda «To 'quz arslan»ga askar torttim,  
Tuputga kichik tegmadim.*

*Orqaga Inju daryosin kecha,  
Temur qopug 'qa askar tortdim.  
So 'lda Yer Biyirqu yerina askar torttim.  
Buncha yerga askar yurittim.  
O 'tukan yerida yaxshi boshliq yo 'q ermish.  
El tutsak O 'tukan yeri soz ermish.  
Bu yerda o 'lturub,  
Tabg 'ach buddi birla tuz tottim.  
Oltin, kumush, g 'alla, ipak  
Qayg 'ulanmay ancha berur.  
Tabg 'ach budun so 'zi chuchuk,  
Og 'izi yumshoq ermish.*

*Suchuk so 'zi, yumshoq qiliq (la)avrab,  
Yiroq budunni ancha yaqinlatar ermish.*

*Yaqinida qo 'ngandan so 'ng, ular  
Yomon bilig unda o 'rganar ermish*

*Ezgu, bilka kishini,  
Ezgu, alp kishini yurutmas ermish.  
Bir kishi yanglishsa, barcha budunni  
Eng yaqinlarigacha quvmas ermish.*

*Suchuk so 'ziga, yumshoq qilig 'iga aldanib  
Ko 'p, turk buduni, o 'lding.  
Turk buduni bir bo 'laging  
O 'ngdagi Chig 'ay yushi emas.  
Tyun tekisligiga qo 'nayin, dedi,  
Turk, budun, bir bo 'laging.  
Unda yomon kishi boshqaruv ermish, (u)  
Yiroq esang yomonroq sovg 'a berur,  
Yaqin esang yaxshi sovg 'a berur, deb,  
Ancha boshqarur ermish.*

*Bilik bilmas kishi u sabaqni olib,  
Yaqin borib, ko 'p kishi, o 'lding  
U yerga borsang,  
Turk budun, o 'lajaksan!*

*O 'tukan yering bo 'lsa,  
Karvon jo 'natib tursang  
Qayg 'u, munging bo 'lmas,  
O 'tukan yushin bo 'lsa,*

*Mangu yo 'l tuta yashajaksan!  
Turk budun, to 'qmi, ochmisan,  
Ochlikda, to 'qlikda emassan  
Bir to 'ysang och bo 'lmaysan.*

*Shundayliging uchun eshitmading,  
Qog 'oningning so 'zin olmading.  
Yer sari bording  
Unda ko 'p urunding, ariqlading,  
Unda qolg 'anlar yer sari  
Ko 'p turub, o 'lib yururlar  
Tangri yarlaqadigi uchun,  
O 'zim (ning) qutim bor uchun,  
Qog 'on bo 'ldim.*

*Qog 'on bo 'lib yo 'q, jig 'ay budunni  
Ko 'p, ko 'paytdim.  
Jig 'ay budunni boy qildim,  
Oz budunni to 'kis qildim.*

*Bu so 'zimda yolg 'on bormu?  
Turk beklari, buduni buni eshiting*

*Turk budunini biriktirib,  
El tutushmoqingizni bunda urdim.  
Yanglishib, parchalanishingizni,  
Yana bunda urdim.*

*Ne-ne so 'zim esa  
Mangu toshga urdim.  
Uni ko 'ra biling  
Endigi Turk buduni, beklar.*

*Butka ishongan beklar,  
Yanglishar sizlar.  
Men mangu tosh tikladim.  
Tabg 'ach qog 'onidan toshg 'a yozuvchi keltirib  
yozdirdim.  
Maning so 'zimni buzmadni.  
Tabg 'ach qog 'oni ichra o 'ikan yozuvchi.*

*Unga atab barq (qasr yarattirdim).*

*Ichin tashin*

*Atab yozuv urdurdim*

*Tosh o 'rnattim.*

*Ko 'nguldagi so 'zimni...*

*(O 'n o 'q) va tot o 'g 'illariga (ayttim).*

*Buni ko 'ra biling,*

*Mangu tosh o 'rnattim.*

*Agar yo 'llar o 'tadigan yerda bo 'lsa,*

*Ancha o 'tish yerda*

*Mangu tosh o 'rnatib bittim.*

*Uni ko 'rib ancha biling*

*Ul toshni... man*

*Bu bitigi bitkan*

*Oti Ulug ' Tegin.*

*Qul tegin yodgorligidagi katta yozuv*

*Yuzada ko 'k Tangri!*

*Ostda qora yer qilindi*

*Ikkisi aro kishi o 'g 'li qilindi.*

*Kishi o 'g 'illari uzra mening bobolarim*

*Bumun qog 'on, Istami qog 'on bo 'ldilar,*

*O 'ltirib, turk buduni elining to 'g 'rilarin*

*Tutaberdiilar, etaberdiilar.*

*To 'rt yoni ko 'p yog 'i ermish,*

*Urush qilib*

*To 'rt yondagi budunni*

*Ko 'p olmish, bo 'yin egdirmish.*

*Boshlig 'in bo 'ysundirmish,*

*Tizligin cho 'kkalat mish  
Ilgarida Qodirqon yushgacha  
Kiruvda Temir qopug 'qa qadar ko 'ndirmish.*

*Ikkisin orasida erdi o 'ksuz ko 'k turk  
Endi o 'ltirar ermish.*

*Bilka qog 'on ermish  
Alp qog 'on ermish.*

*Buyruqchilar ham bilka (bo 'lgan bo 'lsa)  
ermish,  
Alp bo 'lga bo 'lsa ermish.*

*Beklari yana buduni yana to 'g 'ri ermish  
Shuning uchun ancha qo 'l tutgan bo 'lsa ermish,  
Qo 'l tutib to 'g 'riliq etmish.  
O 'zicha (so 'ngra) o 'ldilar.*

*Yig 'ichilar, sig 'tavchilar  
O 'ngdagi kun chiqishda  
Cho 'llig ' Bekli eli, Tabg 'ach, Tunut,  
Avar, Rum, qirg 'iz, uch qiriqan  
O 'g 'uz, tatar, xitoy, tatibi  
Buncha budun kelibon  
Sig 'tamish, yig 'lamish,  
Shunday ko 'hlik qog 'on edi!  
Shunda kichik inisi qog 'on bo 'lmish,  
Kichik o 'g 'lida qog 'on bo 'lmish ekan.  
Shunda kichik inisi kattasidek,  
Qilmadi ekan.  
O 'g 'li otasidek  
Qilmadi ekan.  
Biliksiz qog 'on bo 'lgan mish ekan,*

*Tushunchasiz qog 'on bo 'lgan mish ekan.  
Buyruqchilar ham biligsiz ekan,  
Tushunchasiz ermish ekan,  
Beklari, buduni to 'g 'ri bo 'lmagani uchun,  
Tobg 'on budun qing 'irligi uchun.  
Inilari, og 'olari (o 'zaro) urushganlari uchun,  
Beklari, budunlari urushganlari uchun,  
Turk budun ellashgan elni buzg 'un etmish.  
Qog 'onlangan qog 'onni tuban etmish.  
Tabg 'ach budunga qattiq o 'g 'illari qul bo 'ldi  
Sulu qizlari cho 'ri bo 'ldi.  
Turk beklar turk otini yo 'qotti.  
Tabg 'ach bekclarining tabg 'ach otini tutubdi.  
Tabg 'ach qog 'onga bo 'yin egmish.  
Ellik yil (unga) ishi, kuchini bermish.  
Ilgari kuntug 'ishda  
Bekli qog 'ong 'o qadar urush qilarmish  
Ortda Temir qopug 'ga qadar urush qilarmish  
(Endi) Tabg 'ach qog 'onga elining to 'rini berib  
qo 'ymish  
Turk qora qomug ' budun bunday demish:  
Elli budun erdim.*

*Elim endi qani?  
Kimda el qozonaman, der ermish.  
Qog 'onlig ' budun erdim,  
Qog 'onim qani?  
Ne qog 'onga ishimni, kuchimni berurman, der  
ermish.  
Shunday deb Tabg 'ach qog 'onga yog 'iy bo 'lmish.*

*Yog 'iy bo 'lib,  
(Hech narsa) eta va yarata olmay  
Yana bo 'yin egmish.*

(Ammo) *Buncha ishini, kuchini*  
*Berishni istamadi*  
*Turk budun: «O'layin (bundan ko'ra).*  
*Urug 'imni quritayin», der ermish,*  
*Yo 'qolib borur ermish*  
*Yuqoridagi turk Tangrisi,*  
*Turk idiq (muqaddas) yeri, suvi bunday dermish:*  
*Turk budun yo 'q bo 'lmasin, deydi*  
*Budun bo 'lsin, deydi.*  
*Otam Iltarish yo 'q bo 'lmasin, deyin*  
*Onam Ibilg 'a xotunni*  
*Tengri tepasida tutib*  
*Yuqori ko 'tarmish, ekan*  
*Otam qog 'on o 'n yetti yigit bilan chiqmish*  
*Toshda yurur degan gapni eshitib*  
*Pastdag'i tog 'qa chiqmish, tog 'dan tushmish*  
*Terilib yetmish yigit bo 'lmish.*

*Tangri kuch bergani uchun*  
*Otam qog 'on kuchli bo 'ridek bo 'lmish.*  
*Yog 'isi qo 'ydek bo 'lmish*  
*Ilgari, ortga bosib turmish (elin)*  
*ko 'tarmish.*  
*Barisi yetti yuz bo 'lmish,*  
*Yetti yuz er bo 'lib,*  
*Elsiragan, qog 'onsiragan budunni,*  
*Qul bo 'lgan, cho 'ri bo 'lgan budunning,*

*Turk to 'g 'risining yo 'qotgan budunni,*  
*Acham, bobom to 'g 'risiga yaratmish, o 'qitmish.*  
*To 'lish, tardush*  
*Yobug ' va shodini anda bermish.*  
*O 'ngda Tabg 'ach budun yog 'iy ermish.*  
*So 'lda Boz qog 'on, To 'quz o 'g 'uz budun*

*Yog 'iy ermish.*

*Qirg 'iz, qo 'riqan, o 'g 'uz, tatar*

*Ko 'tan, totabu, ko 'p yog 'iy ermish,*

*Otam qog 'on buncha*

*Qirq yetti marta yurish qilmish*

*Yigirma urush urishmish.*

*Tangri yorlaqagani uchun,*

*Ellini elsiz etmish.*

*Qog 'onligini qog 'onsiz etmish.*

*Yog 'ini yengmish,*

*Tizligin cho 'ktirmish,*

*Boshlig 'in bo 'yin egdirmish.*

*Otam qog 'on shuncha el va yurt qozonib.*

*Ucha ketmish, (ya 'ni, o 'lmish. A.Q.)*

*Otam qog 'onga boshiga Boz qog 'onni.*

*Balbal tiktmish, (ya 'ni, tosh o 'rnatmish. A.Q.)*

*Ul to 'rda esa*

*Tog 'am qog 'on bo 'lipti*

*Tog 'am qog 'on bo 'lib-on,*

*Turk budunning yigitini yig 'ib ko 'tardi:*

*Jig 'ayini boy qildi,*

*Ozini to 'kis qildi.*

*Tog 'am qog 'on bo 'ldiqda*

*O 'zim Tardush budun uzra shad erdim.*

*Tog 'am qog 'on birla ilgari Yashil o 'chyuz*

*Shavtung cho 'ligacha urush qildimiz.*

*Ortda Temir Qovutqacha urush qildimiz,*

*Ko 'chman osha qirg 'iz yerigacha urush qildimiz.*

*Barisi besh o'tuz (ya'ni yigirma besh,  
beshtakam o'ttiz  
A. Q.) yurush qildimiz.  
O'n uch marta urushdimiz.  
Elligini elsiz qildimiz.  
Qog'onligini bo'yin egdirdimiz.*

*Gizligini cho'kdirdimiz,  
Boshlig'ini bo'yin egdirdimiz.  
Turkesh qog'on turkimiz,  
Budinim erdi.  
Bilmadigi uchun,  
Bizdan yengilgani uchun qog'oni o'ldi.  
Buyruqchi beklari yana o'ldi.  
O'n o'q budun qiynov ko'rди.*

*Achamiz, bobomiz tushmish,  
Yer-suv egasiz bo'lmasin deyin,  
Oz buduni etib yaratgan  
Barsbek erdi.*

*Qog'on ot bunda biz berdimiz,  
Kichik singlimni berdimiz,  
O'zi yengildi, qog'oni o'ldi.  
Buduni cho'ri, qul bo'ldi.*

*Ko'chman yer-suv egasiz qolmasin deyin, .  
Oz qirg'iz budunin yaratib,  
Keldimiz, urushdimiz,  
Elni yana berdimiz.  
Ilgari Qodirqon yushun ona xalqini  
Ancha qo'ndirdimiz, ancha etdimiz.  
Ortda Kangu Tarmanga qadar turk budunni  
Ancha ko'ndirdimiz, ancha etdimiz.*

*O'shanda qul qullig ' bo 'lmish erdi,  
Cho 'ri cho 'rili qilmish erdi.  
Inisi og 'asin bilmas erdi,  
O'g 'li otasin bilmas erdi.*

*Ancha qozonmish, etmish  
Elimiz, to 'ramiz edi,  
Turk o 'g 'uz beklari, budun, eshiting,  
Ustdan Tangri bosmasa,  
Ostda yer tilinmasa,  
Turk budun, elingning to 'rini kim buza  
oladi?*

*Turk budun, o 'kin  
KO 'rguliging uchun, bilka qog 'oningga  
Yuqorilagan evgu elingga (yomonliging uchun)  
Yengilding va tubanlashding.*

*Yaraqlig ' qaydan kelib  
Yovga otqi (seni)?  
Nayzalig ' qaydan kelibon  
Suraoldi (seni)?*

*Uluq O'tukan yush budun bording  
Ilgari bormagan bording.  
Ortga bormagan bording,  
Borgan yerda ezgu bul ekan:  
Qoning suvdek yugurdi  
So 'ngaking tog 'dek yotdi,  
Qattiq o 'g 'il bolang qul bo 'ldi,  
Sulu qiz bolang cho 'ri bo 'ldi.  
Bilmaganing uchun, tubanliging uchun,  
Tog 'am qog 'on ucha ketdi.  
Boshiga qirg 'iz qog 'onning balbalin tiktim.*

*Turk budunning oti, dangi  
Yo 'q bo 'lmasin, deyin  
Otam qog 'onni, onam xotunni  
Tangri ko 'tarmish (edi).*

*El beradigan Tangri  
Turk budunning oti, dangi  
Yo 'q bo 'lmasin, deyin,  
Qog 'on etgan ekan.  
Men boy budunqa bosh bo 'lmadim,*

*Ichi oshsiz, tashi to 'nsiz,  
Yovuz, ayanch budun uzra o 'ltirdim.*

*Inim Qul Tegin birla so 'zlashdimiz,  
Otamiz, tog 'amiz qozonmish.  
Budunning oti, dangi yo 'q bo 'lmasin, deyin  
Turk budun uchun tun uxlamadim,  
Kunduz o 'lturmadim.*

*Inim Kul Tegin birla  
Iki shad birla o 'lib-yotib qozondim.  
Ancha qozonib,  
Birikkan budunni o 't-suv qilmadim.*

*Men o 'zim qog 'on bo 'lganimda  
Yer sari bormish budun o 'lib yetib  
Piyoda, yalang (oyoq) (yig 'ilib) keldi.  
Budunni ko 'tarayin, deyin  
So 'lga o 'g 'uz budun sari  
Ilgari qutan, tatabu budun sari  
O 'ngda tabg 'ach sari  
Ulug ' qo 'shin (birla) o 'n ikki marta urushdim.*

*O 'shandan so 'ng Tangri yarlaqagani uchun,  
Qutim bor uchun, ulug 'im bor uchun,  
O 'layotgan budunni tiriklikka ko 'tardim.*

*Yalang 'och budunni to 'nli,  
Jig 'oy budunni boy qildim,  
Oz budunni to 'kis qildim,  
To 'g 'ri elga yaxshilik qildim.*

*To 'rt bo 'limdag i budunni  
Tinch qildim,  
Yog 'iysiz qildim.  
Ular menga bo 'ysundi.*

*Ishini, kuchini berur  
Buncha to 'rni qozonib,  
Inim Qul Tegin*

*O 'zicha o 'ldi.  
Otam qog 'on uchganda  
Inim Qul Tegin yetti yoshda qoldi.  
O 'n yoshda Umaydek onam xotun qutiga.  
Inim Qul Tegin er ot oldi.*

*O 'n olti yoshida  
Tog 'am qog 'on elining to 'rini  
Shunday qozondi.*

*Olti Sug 'd o 'lkasiga qarshi  
Yurish qildimiz, buzdizimiz.  
Tabg 'ach o 'ng Tutuq besh tuman askar tortdi  
Urushdimiz.*

*Qul Tegin piyoda holda dushmanga tashlandi  
O 'ng Tutuqning yaraqli zirhli qo 'lini tutdi.  
Yaraqlig zirhlikda qog 'onga duch keltirdi,  
U qo 'shinni o 'sha yerda yo 'q qildik biz.  
Yigirma bir yoshinda  
Jajo sangunga urush qildimiz.*

*Birinchi bor Todiqon Churuning  
Bo'z otiga minib (yovga) tashlandi.  
Ul ot unda o'ldi.*

*Ikkinci bor Ishbara yamtarning  
Bo'z otiga minib (yovga) tashlandi,  
Ul ot unda o'ldi.  
Uchinchi bor Yagan Silig bekning  
Qadimlig' to'rig' otiga minib (yovga) tashlandi.  
Ul ot anda o'ldi.*

*Yaraqiga, zirhiga  
Yuzdan ortiq o'q urildi.  
Zirq qalpaqlı boshiga birin tog 'dirmadi.*

*Tekkanini turk beklar ko'p bilursiz,  
U qo'shinni unda yo'q qildingiz.*

*Shundan so'ng Yir Bayirqi  
Ulug' Irkin yog 'iy bo'ldi.  
Uni yengib Turk yarg'un qo'lda buzdimiz.  
Ulug' Irkin ozgina yigit bilan to'zib qochti.*

*Qul Tegin yigirma olti yoshida  
Qirg'izlarga yurush qildimiz.*

*Qilich botar (qadar) qorni kechib  
Ko'chman yo'shug jog'iga yurib  
Qirg'iz budunni uyqisida bosdimiz.  
Qog'oni birla so'nga yushda urushdimiz.*

*Qul Tegin Bayirkuning  
Oq ayg'iriga minib (yovga) tashlandi.  
Bir erga o'qin urdi  
Ikki erga nayza sanchdi.*

*Ul olishuvda Bayirquning  
Oq ayg 'irining beli sindi.  
Qirg 'iz qog 'onini o 'ldirdimiz.  
Elin oldimiz.*

*Ul yilda turgeshlarga qarshi  
Oltin yush tog 'iga  
Irtishni kecha yurdimiz.*

*Turgesh budunini unda bosdimiz,  
Turgesh qog 'on qo 'shini Bo 'lchida  
O 'tdek, bo 'rondek keldi  
Urushdimiz.*

*Qul Tegin Boshg 'u bo 'z ot minib urushdi  
Boshg 'u bo 'z...*

.....  
*Ikkisin o 'zi oldirdi.*

*Unda yana kirib  
Turgesh qog 'on, buyruqchisi  
Oz tutukini qo 'lidan tutdi.*

*Qog 'onini unda o 'ldirdimiz.  
Elin oldimiz.*

*Qora turgesh budun to 'la bo 'yin egdi.  
Ul budunni (Tabarda qo 'ndirdimiz).*

*(Yana yurib). Sug 'd budunini etayin, deyin  
Inju daryosin kecha,  
Temir qopug 'qa qadar yurdimiz.*

*U yerda qora turgesh budun  
Yog 'iy bo 'lmish.  
Kangarasga qarshi bordi.*

*Bizning qo'shin oti arriq,  
Ozuqi yo'q erdi  
Yomon kishi, er...*

*Alp er, bizga tashlandi.  
Unday ishga o'kinib,  
Qul Teginni oz erlar bilan jo 'natdimiz.  
Ulug' urush qilmish.*

*Alp Salji oq otini minib urushmish,  
Qora turgesh budunini  
Unda o'lдirmish, olmish.*

*Yana yurib... birla  
Qushu tutuq birla urushmish.  
Erlarni ko'p o'lдirmish,  
Narsalarini qoldirmay ko'p keltirdi.  
Qul Tegin yigirma yetti yoshida  
Qarluq budun erkinligi uchun  
Yog'iy bo'ldi.  
Tomog uduq boshida urushdimiz.*

*Qul Tegin ul urushda  
O'ttiz yashar edi.  
Alp Salju oq otin minib  
(yovga) tashlandi.*

*Ikki erga nayza sanchdi,  
Qarluqni o'lдirdimiz, oldimiz.  
Oz budun yog'iy bo'ldi.  
Qora ko'lда urushdimiz.*

*Qul Tegin o'ttiz bir yashar edi,  
Alp Salju otin minib (yovga) tashlandi.*

*Oz Altabarni tutai.*

*Oz budun yo'q bo'ldi.*

*Tog'am qog'on eli bo'shangan bo'lganda*

*Budun elida qarama-qarshilik yuz berganda*

*Izgil budun birla urushdimiz.*

*Qul Tegin alp Salju otin minib*

*(Yovga) tashladi.*

*Ul ot unda yiqildi*

*Izchil budun o'ldi.*

*To'quz o'g'iz budun*

*O'z budunim erdi.*

*Tangri, yer bulg'angani uchun*

*Yog'iy bo'ldi.*

*Bir yilda besh yla urushdimiz,*

*Eng oldin Togu shaharida urushdimiz.*

*Qul Tegin oq Azmanga minib*

*(Yovga) tashlandi*

*Olti erni sanchdi.*

*Urushda yettinchi erni qilichladi.*

*Ikkinchchi Qishlog'akda*

*Ediz birla urushdimiz.*

*Qul Tegin Oz qora otin minib*

*(Yovga) tashlanib bir erni sanchdi.*

*To'qiz erni chekintirib yiqitdi,*

*Ediz budun unda o'ldi.*

*Uchinchi Bo'l... di o'g'uz urushdimiz*

*Qul Tegin Azman Qora otni minib (yovga)*

*tashlandi,*

*sanchdi.*

*Qo'shinni sanchdimiz, elini oldimiz.  
To'rtinchi Chush boshida urushdimiz.  
Turk budun ayog'i titradi,  
Yomonlik, qo'rqoqliqqa tayyor edi.*

*Oldin kelgan qo'shinni Qul Tegin og'dirib,  
To'nga alplaridan o'n erni,  
To'nga Teginni ko'mishda o'girib o'ldirdimiz.*

*Beshinchı Azgaptı Kadazda  
O'g'uz birla urushdimiz.  
Qul Tegin Oz qora otini minib (yovga) tashlandı.  
Ikki erni sanchdi.  
Shaharga bormadi.  
Ul qo'shin u yerda o'ldi.  
Angi qo'rg'onda qishlab, yozda  
O'g'uzga qo'shin tashladimiz.*

*Qul Tegin beklarnı boshladı.  
O'g'uz yog'iy urduni bosdi.*

*Qul Tegin ochsiz oq otini minib  
To'qız erni sanchdi.  
Urduni bermadi,  
Onam xotin, boshqa onalarım,  
Akalarım, singillarım, ayollarım  
Buncha tirik edilar, qul bo'ldilar.  
O'ligi yurtda, yo'lda yotib qoluvdi erdingiz.*

*Qul Tegin yo'q esa  
Ko'p o'lgan bo'lar edingiz.  
Inim Qul Tegin o'ldi,  
O'zim qayg'irdim.  
Ko'rар ko'zim ko'rmasdek,*

*Bilur biligim bilmasdek bo 'ldi.  
O'zim qayg 'irdim.  
Faqat tanrgi yashar  
Kishi o 'g 'li o 'lgali tug 'ilmish.*

*Ancha qayg 'irdim,  
Ko 'zga yosh keladi.  
Ataganda ko 'nguldan ho 'ngrash keladi.  
Yanada qayg 'irdim.  
Qattiq qayg 'irdim  
Iki shad, iniginam,  
O 'g 'lonlarim, beklarim, budunim  
Ko 'zi, qoshi yomon, asov deb qayg 'irdim.*

*Yig 'lovchi, sig 'tovchi  
Qo 'tan, tatabini boshlovchi  
Udir sangun keldi  
Tabg 'ach qog 'ondan Ishyi Likang keldi.*

*Bir tuman ag 'i, oltin  
Behisob kumush keltirdi.  
Tuput qog 'ondan Bolon keldi,*

*Ortda kun botishdag  
Sug 'd barchakar Buqaraq ulus budundan  
Nang Sangun o 'g 'il tarqan keldi.  
O 'n o 'q o 'g 'lim Turkesh qog 'andan  
Maqrach tamg 'ali  
O 'g 'uz Bilga tamg 'achi keldi  
Qirg 'iz qog 'ondan Targ ush Unanchi jo 'r keldi,*

*Barq (sog 'ona, qabr haykali – A. Q.) etguvchi  
Yozuvli toshni ishlab, o 'ganuvchi  
Tabgach qog 'onning tosh ustasi  
Jang Sangun keldi.*

*Qul Tegin qo'y yiliga  
O'n yettinchi kuni uchdi.  
To'qquzinchi oy yigirma yettiga  
Yerga ko'mdimiz.*

*Barqini, naqshlarini, yozuvda toshini  
Maymun yili, yetinchi oy,  
Yigirma yettinchi kunga  
Alqadimiz.*

*Qul Tegin o'lganda  
Qirq yetti yoshda edi.  
Tash... ...buncha naqshchi  
Tuyg'un Eltabar keltirdi.*

Kul tegin yodgorligidagi kichik va katta bitik janr xususiyatiga ko'ra memuar-xotirani eslatadi. Lekin bu asarlarning To'nyuquq bitigidan farqli tomonlari mavjud. Kichik va katta bitik Tangrining olamni yaratish haqidagi tasavvurlar tasviri bilan boshlangan. Albatta, bunday tasvirlar epik yo'nalishli katta syujetli asarlarning janr xususiyati talabi natijasidir. Dostonlar avvalida Tangri va olamning yaratilishi haqidagi tasvirni berish, so'ngra asosiy voqeaga o'tish qadimiylar adabiy an'ana hisoblanadi.

Kichik bitik ma'lum ma'noda katta bitik uchun muqaddima hisoblanadi. Katta bitikda voqealar hikoyachisi – bilga xoqon, avvalo, o'zining kimligini tanishtiradi, hayotiy tajribalari, saboqlarini bayon etadi, Kul tegin sharafiga o'rnatilgan yodgorlikning sababi va tafsilotini keltiradi.

«So'zimni tugal eshit!» Bilga xoqonning og'a-inilariga, farzandlariga, xalqiga, beklariga murojaati ana shunday. «So'z» – epik voqealar uch qismidan tashkil topgan: 1. Bilga xoqon qayerda va kimlar bilan jang qilgani tasviri. 2. Turli

qavmlar bilan urushish, muloqotda bo‘lish, yarashish jarayoninida to‘plagan hayotiy tajribalar va ularni «so‘z»ni eshituvchilarga bayon etish. Bu qismdagি g‘oyaviy xulosani xalqni birlashishga, o‘z xoqoni atrofida jipslashishga da’vat tashkil etadi. Bilga xoqon xalq ana shu maqsadga erishishsa, u och bo‘lmaydi, farovon yashaydi, deb uqtiradi. 3. Tabg‘ach xoqonidan tosh yo‘nuvchi va toshga yozuvchi usta keltirib, mangu yodgorlik tiklagani tasvirlangan.

Bilga xoqon butparastlar bu yodgorlikni sig‘inish belgisi deb tushunishsa, yanglishadilar, deb ta’kidlaydi. U budda sanami emas, balki turkiylar tarixi bitilgan boqiy yodgorlik ekanligini uqtiradi. Kichik va katta bitikdagi epik voqelik bir-biri bilan mantiqan bog‘lanadi. Kichik yozuvdagи «ne-ne so‘zim esa mangu toshga urdim» kabi satrlardagi «so‘z»ning javobi katta yozuvda o‘z ifodasini topadi.

Kul tegin katta bitigida ifodalangan mazmun yirik eposlar darajasidadir. Kul tegin obrazi qahramonlik ruhiyati bilan Alpomish va Manas kabi obrazlarni esga soladi. Asar muallifi Yo‘llug‘ Tegin Kul teginga xos bahodirlik xususiyatlarini ko‘rsatish uchun uning tarixiy ildizlarini ochadi, ota-bobolari jasoratlarini ko‘rsatib o‘tadi.

Katta yozuv ma’lum ma’noda turkiy alp xoqonlar shajarasi, jasorati madh etilgan qo‘shiqdir. Asarda dastlabki turk xoqonlari Bumun xoqon, Istami xoqonlar ta’riflanadi. Ular shu qadar shuhrat topishgan ediki, vafot etganlaridan so‘ng yig‘isiga tabg‘ach, tunut, avar, rum, qirg‘iz, o‘g‘uz, tatar, xitoy va boshqa mamlakatlardan odamlar kelib yig‘lashgan. Shundan so‘ng bitikda Eltarish xoqon madhiyasi keltiriladi. Uning vafotidan so‘ng xoqonlikni o‘g‘li-asardagi voqealar hikoyatchisi egallaydi. Alp xoqonlarga xos jasorat, turkiy qavmlarni birlashtirish va ularning turmushini yaxshilash uchun kurash Bilga xoqon tomonidan davom ettiriladi.

Katta bitikda ko'plab tarixiy shaxslar obrazi yaratilgan. Asarning bosh qahramoni Kul tegindir. U Bilga xoqonning ukasi, otasi vafot etganida yetti yoshda edi. Qirq yetti yoshida o'zi ham olamdan o'tadi. Asarning kichik bitigi hamda ikkinchi bitikning dastlabki qismlari xotira-memuar usulida bitilgan bo'lsa-da, Kul tegin qahramonligiga oid tasvirlar uning tarixiy qahramonik dostoni janri namunasi ekanligini oydinlashtiradi. Bitikda Kul teginning bo'z, to'ruq, oq qora otlarni minib, yovga tashlanishi tasvirlari bu asar bilan turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi qahramonlik eposlari o'rtasida g'oyaviy yaqinlik borligini ko'rsatadi. Alpomish, Manas, Maaday qora kabi obrazlar yuzaga kelishiga Kul tegin kabi tarixiy shaxslar qahramonligi asos bo'lgan deb hisoblash mumkin.

**Bilga xoqon bitigi.** Bilga xoqon turkiy xoqonlardan biridir. U yigirma yillik hukmronlik davrida turk elini bosqinchilar xurujidan ozod qildi. Bilga xoqon Eltarish xoqonning katta o'g'li – Kul teginning og'asidir. U 734-yilda, ellik yoshida o'z yaqinlaridan biri tomonidan zaharlab o'ldirilgan. Bitik Yo'llug' tegin tomonidan yozilgan. Vaqt o'tishi bilan bitiktosh ag'darilib, yozuvlarning ma'lum bir qismi yetib kelgan.

Bilga xoqon haqidagi ta'riflar Kul tegin yozuvlarida ham berilgan. Bilga xoqon yozuvida esa uning xalqlarni birlashtirish, mamlakatni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash uchun qilgan ishlari bayon etiladi. Bilga xoqon o'n yetti yoshida Tibet (Tuput), so'ngra Tangutga, o'n sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha so'g'd, tabg'ach, o'ng tutuq, basmil, idiqut yurtlariga yigirma ikki yoshida yana Tabg'achga, yigirma olti, yigirma yetti yoshida qirg'iz, turgash yurtlariga yurish qilganligi ifodalanadi. Bitikda ko'ziga faqat mol-mulk ko'ringan davlat boshliqlari qoralanadi, ular gumrohlar deb aytiladi.

## Bilga xoqon otiga yozilgan bitikdan parcha

*Tangrining turki uzra qog 'on bo 'ldim,  
O 'ltirdim, o 'lqidan qayg 'irib.  
Turk beklar, budun qarab sevinib,  
Tinchlanib ko 'zlari yuqoriga boqdi.*

*To 'rga o 'zni o 'ltirib,  
Buncha og 'ir to 'rda,  
To 'rt yondagi budunni boshqardim.  
Ko 'k Tangri ostida o 'n yetti yoshimda,  
Tuput sar yurish qildim.  
Tangut budunni buzdim,  
O 'g 'lin, qizin, barisin anda oldim.*

*O 'n sakkiz yoshimda  
Sug 'dning olti o 'lkasiga yurish qildim,  
Budunini unda buzdim,  
Tabg 'ach, o 'ng tutuq, besh tuman qo 'shin bilan keldi.*

*Uduq boshda urushdim,  
U qo 'shinni unda yo 'q qildim.  
Yigirma yoshimda basmil, idiqut (qo 'shilib)  
O 'g 'uzim budunim ortti.*

*Soliq yubormas deyin yurish qildim.  
.....bo 'ysundirdim,  
Ko 'p o 'lja keltirdim,  
Yigirma ikki yoshimda Tabg 'achqa yurush qildim.*

*Chacha sengunning sakkiz tuman qo 'shini bilan  
urushdim.  
Qo 'shinini unda o 'ldirdim.  
Yigirma olti yoshimda*

*Chin buduni qirg 'iz birla yog 'iy bo 'ldi.*

.....

*Yigirma yoshimda qirg 'iz sari yurush qildim,  
Nayza botar darajadagi (chuqur) qorni kechib,  
Ko 'chman yushga yurib,  
Qirg 'iz budunni uyqusida bosdim.*

*Qog 'oni birla Sunga yushda urushdim,  
Qog 'onini o 'ldirdim, elini unda oldim.  
O 'sha yili Turgesh sari Oltin yushin osha,  
Irtish suvini kecha yurdim.*

*Turgesh budunini uyqusida bosdim,  
Turgesh qog 'on qo 'shini o 'tga bo 'roncha keldi.  
Bo 'lchada urush qildimiz.*

**Ungin bitigi.** Bitik Mo 'g 'uliston dagi Ungin daryosi bo 'yidan topilgan. Eltarish xoqonning yaqinlaridan biri Elet mish yabg 'u va uning o 'g 'li Cho 'ryo 'g 'a sharafiga qo 'yilgan deb taxmin qilinadi. Bitikda Eltarish xoqonning turk xalqini oyoqqa turg 'izib, mamlakatni qayta tiklashi hikoya qilinadi. Bitik so 'ngida xoqonning tarixiy xizmati haqida ham fikr yuritiladi.

*Achamiz, otamiz Bo mun qog 'on  
To 'rt bo 'lakni qismish, yig 'mish, yoymish, bosmish.  
Ul xon yo 'q bo 'lgandan so 'ngra  
El yo 'q bo 'lmish, qochishmish...  
Qog 'onlagan qog 'onni haydamish,  
Turk budun oldinga kun chiqishga  
Ortga kun botishga qadar  
O 'ngga tabg 'achga, so 'lga yushga (chekinmish)*

*Alp erini balbal qisdi,  
Turk budun oti yo 'q bo 'lmasin, deyin,*

*Turk budun yo 'q bo 'lmasin, deyin,  
Emish bo 'lmasin deyin, yuqorida Tangri der emish.  
Qopog 'on Iltarish qog 'on qo 'lida yetildim  
El etmish Yabg 'u o 'g 'li Sabra Tamg 'an tarxan  
Oltmis besh katta – kichik urug 'im*

*Bu tabg 'achdan so 'lda  
O 'g 'uz beklari orasida yetti er yog 'iy bo 'lmish.  
Otamni Tangri bog 'i, deyin,  
Unda yurmish, ishi kuchin bermish,  
Tangriga ishing berding, deyin  
Yarlaqamish, shad otin anda bermish.  
Shundan so 'ng to 'quz o 'g 'uz bek yog 'iy ermish  
Ko 'tarilmish Tangrikan yeri...  
Yolg 'iz, kuchsiz biz  
Ozni, ko 'pni ko 'rdik erdi,  
Yurish qilamiz, der ermish.  
Endigi beklarimga, der ermish,  
Biz ozmiz, deyin qo 'rqmish,  
Otam shad ancha o 'tinmish,  
Tangrimnikin olmasin, deyin,  
Budun anda bermaslikka tashlanmish.  
Ko 'p shaharga bordim, bosib oldim.  
Qo 'shini keldi, qorasini yengdim, begi qochti.*

..... erdi.  
Tabg'ach buduni.....  
..... yengdim, yig'dim, bosdim, yoydim.  
.....  
..... .buzib kelar erdimiz.  
Ikkisi orasida bek yog'i y bo'l mish.  
Tegmasmen deb o'y ladim.  
Tangri bilka qog' onni o'y lab,  
Ishini, kuchini berish istagim bor ermish, ekan.

*Tegdigi uchun.....  
.....yengdim.*

*Uyiga tegib, urush qilib tegib,  
Inimga, o 'g'limga bunday so 'zladim:  
Iltarish qog 'ondan achchig 'lanib,  
Ayrilmadik, chetlanmadik.  
Tangri bilan qog 'onda  
Ayrilmaymiz, uzilmaymiz, deyin.  
Ancha so 'zladim.  
Ortga bordi,  
Bilka qog 'onning buduni bordi.  
O 'ligin otiga ishi kuchini berdi.  
Uza Tangri xon Luy (ajdaho) yili yetganda oy  
Kuchlug ' alp qog 'onimdan ayrilib bordingiz.*

*Bilka Tajam seni ko 'mib,  
Moliningni qozondim.*

**Moyun Chur bitigi.** Bitikni 1909-yilda fin olimi G.I.Ramstedg Shimoliy Mo'g'ulistonning Selenga daryosi bo'yidan topgan. Moyun Chur – uyg'ur xoqoni bo'lib, bitiktosh 759-yilda o'rnatilgan. Yozuvda turkiy qavmlar o'rtasidagi jangovar yurishlarning tafsilotlari Moyun Chur tilidan hikoya qilinadi. Voqealar Selenga daryosi atrofida bo'lib o'tadi. Uyg'urlar davlati obod edi. Unga avval Bilga xoqon, keyin Bo'yla Bag'an Tarxan (hukmdor, qo'mondon) xoqonlik qilishgan. Bo'yla Bag'an Tarxan shad (turkiy xoqonlar sazovor bo'lgan eng oliv harbiy unvon)ga ega edi. Bu paytda Moyun Chur 26 yoshda edi, otasining qo'shinida mingboshi vazifasini bajarardi. Qarluqlarga qarshi jangda ishtirok etardi. Bitikda Bo'yla Bag'a Tarxan vafot etishi, xoqonlik Moyin Chur qo'liga o'tishi, lekin xalqning bir qismi Tay Bilga Tutuqni xoqon deb e'lon qilishi, Moyun Chur esa hokimiyatni qo'lga kiritish uchun unga qarshi

kurashishi voqealari aks etgan. Moyun Chur bitigi ko‘proq tarixiy qimmatga ega. Jang yillari, joy nomlari, qahramonlarning ismi va unvonlari aniq ko‘rsatiladi. Bitikda xalq maqollaridan ham unumli foydalilanilgan. Masalan, «G‘am o‘z uyingda» maqoli bir qavmdan o‘z qavmiga qarshi chiqqanlar tasvirini umumlashtiradi. Moyun Chur qo‘rqmas, adolatli, turkiy xalqlarni ahillikka chaqiruvchi, bo‘ysunmaganlarga nisbatan shafqatsiz xoqon ekanligi ko‘rsatilgan. Uning obodonchilikka, xususan qo‘rg‘onlar, shaharlar qurilishiga rahnamoligi aniq dalillar bilan tasvirlangan.

\* \* \*

*Tangridan bo‘lgan, davlatni barpo qilgan Bilga xoqon Tulus, tardush xalqini ushlab turdi. O‘tukan atrofidagi xalq bu ikki tog‘ oralig‘ida edi. Suvi Selenga daryosi edi. U yerda davlat gullab-yashnagan. Qo‘smini, u yerda qolgan xalqi, o‘n uyg‘ur va to‘qqiz o‘g‘uz xalqini yuz yil boshqargan. Turk qipchoqlar bizning ustimizdan ellik yil hukmronlik qildi. Men yigirma olti yoshda edim. Yigirma olti yoshimda otamga shad unvonini berdi. U yerda Bo‘yla bag‘a tarxan mening otam edi. U turklarni bo‘ysundirib qaytdi. To‘qqiz o‘g‘uz xalqimni birlashtirdim. Otam Kul bilga xoqon o‘z qo‘smini bilan ketdi. Meni esa mingboshi qilib jo‘natdi. Men Qayradan o‘ngga burilishim kerak edi. Turklarni bo‘ysundirib, yana oldinga yurdim. Qayra daryosi boshida uch Birkuda xoqonning qo‘smini bilan to‘qnashdim. U yerda ularni quvdim. Qora qum (hozirgi Gobi)ni oshib o‘tdik. Ko‘gurda, Ko‘mir tog‘ida Yar daryosi bo‘yida bayroqli turk xalqiga O‘zmish tegin xon bo‘lgan ekan. Qo‘y yilida unga yurish qildim. Turklarga qarshi ikkinchi jang birinchi oyning oltinchi kuni bo‘lib o‘tdi. Jangda O‘zmish teginni asir qildim, xotinini ham u yerda asirga oldim.*

*Turk xalqining davlati u yerda tugadi. Undan so'ng kelgusi yilda yana hujum qildim.*

*Uch qarluq xalqi yomon o'yga borib qochib ketdi va g'arbda O'n O'q xalqi bilan birlashdi. To'ng 'iz yilida ularni tor-mor qildim.*

*Ular Tay bilga tutuqqa yabg'u unvonini bergenlar. Shundan keyin otam xoqon vafot etdi. Qora xalq mening hokimiyatimga o'tdi. Ammo ba'zilari Tay bilga tutuq tomonidan turib uni xoqon deb e'lon qildilar. Men qo'shinni to'pladim va ularga qarshi jangga otlandim. Ular ustidan g'alaba qildim va bosib oldim. Bukaguga yetib borib kechasi - quyosh botganda, jangga kirdim. O'sha yerning o'zida tor-mor qildim. Yorug' bo'lganda qochadilar, qorong'i tushishi bilan yana yig'iladilar. Bukaguda birorta ham sakkiz o'g'uz, to'qqiz tatar qolmadi. Ikkinchchi chisloda kun chiqqanda jangga kirishdim. Qullarim, cho'rilarim, xalqimni osmon va yer qo'lladi. Ularni o'sha yerda sanchdim. Aybdor, nomdor yo'lboshchilarni Tangri mening qo'limga berdi. Qora, oddiy xalqni yo'q qilmadim, uyini, binolarini, yilqisini tortib olmadim. Nomdor boshliqlarini jazoladim va ilgarigiday yashayversin, dedim. Siz mening xalqimsiz, dedim. Mening orqamdan yuring dedim. Ularni qo'yib, o'zim ketdim, ular kelmadi. Men yana ularni ta'qib qildim. Burg'u degan joyda yetib oldim. To'rtinchchi oyning to'qqizinchisi kunida jang qildim, sanchdim. Yilqisini, mollarini, qiz va xotinlarini olib keldim. Beshinchchi oyda ular mening orqamdan keldi; sakkiz o'g'uz, to'qqiz tatar ham bitta qolmay keldi. Selengadan g'arb tomonga, Yilun ko'ldan janubga, Ship boshigacha qo'shin tortdim.*

*Kargun, Sakishin, Ship boshidan dushman bizga yurib keldilar, Selengaga qadar qo'shin tortdi. Beshinchchi oyning yigirma to'qqizinchisida jang qildim. O'sha yerning o'zida sanchdim. Selenga daryosigacha siqib borib, ular ustidan g'alaba qildim. Ularning ko'pchiligi Selenga daryosini tark*

*etib, mening orqamdan bordi. Men Selengani kechib o'tib, ularning orqasidan kuzatib bordim. Jangda o'n yigitni asir olib, ularga quyidagi topshiriqni yuklab jo'natdim.*

*Tay bilga tutuq yomon bo'lgani uchun, bir-ikki nomdor kishilari yomon bo'lgani uchun, qora xalqim, o'lding, yotib qolding, yana mening davlatimga qo'shil, o'lmaysan, yotib qolmaysan, dedim. Bor mehnatingni, kuchingni bergin menga, dedim, ikki oy kutdim, kelmadi. Sakkizinch oyning bиринчи kuni qo'shin tortayin, dedim. Bayroq yo'lga chiqqanda, otliq odamlar keldilar: dushman kelayotir, - dedilar. Dushmanning qo'mondoni keldi. Sakkizinch oyning ikkinchi kuni Achchiq Altir qo'lida Kasuyni kechib o'tib, ular bilan to'qnashdim. O'sha yerning o'zida tor-mor qildim va ularni ta'qib qilib bordim. O'sha oyning o'n beshinchisida Qayra boshi va uch Birku daryosi bo'yida tatarlar bilan to'qnashdim. Yarim xalq bizga qo'shildi, yarim xalq esa qitanlarga o'tib ketdi. Men uyga qaytib kelib, O'tukanda qishni o'tkazdim. Dushman dan xavf-xatarsiz edim, ikki o'g'limga Yabg'u, Shad unvonini berdim, tardush, tulis xalqining boshchiligini berdim. Shundan keyin bars yilida chik xalqi tomonga yurish qildim. Ikkinch oyning o'n to'rtinchisida Kam daryosi bo'yida chiklar bilan jang qildim. Shu yili chiklarni bo'ysundirdim.*

*Sip boshida oqish O'rda qurishga buyruq berdim. Qal'a devorlarini qurdirdim. Yozni o'sha yerda o'tkazdim, marosim o'tkazdim. Yozuvimni shu yerda yaratdim. Shunday qilib, o'sha yilning kuzida sharqqa yurdim, tatarlardan javob kutdim, quyon yilining beshinch oydida ularga hujum qildim...*

*O'tukan yishning boshi u yerda, lashkaringizning boshi ham u yerda. Iduq bashning orqasida - men Yabash tukush daryosining quyilishida yozni o'tkazdim. Saroyni o'sha yerga qurishga buyruq berdim, devorini ham barpo qildirdim, ming yillik, tuman kunlik yozuvimni, binomni o'sha yerda yasab, toshga o'yib yozdirdim. To'quz o'g'uz beklari keldi, aytdilarki, qabila boshlig'i bizlarga dushman ekan. Aqlli*

*beklarini va Qora Bulukni o 'sha yerga o 'tqazibdi, qirg 'izlarga odam jo 'natibdi. «Siz qo 'zg 'olon ko 'taring, chiklarni ham qo 'zg 'olon ko 'tartiring, – debdi. – Men ham qo 'zg 'olon qilayin, – debdi. Qarang, mustaqil bo 'lib qoling. O'rmonda siz bilan qo 'shilamiz», – dedi u.*

*To 'quz o 'g 'uz tarafga qo 'shin tortdim. Tutuq bosh rahbarligida chik tarafga mingta qismni jo 'natdim, uning ittifoqchilarini tarafga ozgina odam jo 'natdim. Hushyor bo 'ling, qirg 'iz xoqoni ko 'chman ichida, dedim.*

*G 'am o 'z uyingda, deydilar. U o 'zining otliqlarini ittifoqchilarini tomonga jo 'natdi, uning ittifoqchilariga esa mening odamlarim hujum qildilar, til tutdilar. Ularning ittifoqchilariga odamlar keldi. Qarluqlar esa ittifoqchilariga kelmadilar, asirlar shunday deb aytdilar. Men Kam daryosini kechib o 'tib, oldinga yurdim. O 'n birinchi oyning o 'n sakkkizinchisida ularni Bo 'lchu daryosi bo 'yida uchratdim. Uch qorluqlarni o 'sha yerda tor-mor qildim. Keyin orqaga burildim va o 'sha joyning o 'zida qoldim. Chiklarni esa mening mingta otryadim quvib yetdi. O 'sha joyda yozni o 'tkazib, marosim o 'tkazdim. Chik xalqiga tutuq berdim (ya 'ni boshliq tayinladim). Ishbar va taxxonlarni ham o 'sha paytda tayinladim. Keyin basmil odamlari keldi. Qazluk ko 'lida ularni ko 'rdi, dushmanlar oz deb, ular o 'n beshinchi chisloda Tayg 'an ko 'li bo 'yida qo 'shinni to 'pladim, u yerdan otryadni ularni qaytarish uchun jo 'natdim. Odamlarim Qora yo 'taliq daryosini kechib o 'tib keldilar. Men ularni kutib olishga chiqdim. Bu paytda basmiller lashkarboshisi qarluqlarga dushman bo 'lib qoldi.*

*Menga dushman bo 'lib qolgan basmiller mening uymiga keldi. Men ularni o 'zimga qo 'shmadi.*

*Tashqi dushmanlardan uch qarluq, uch iduq tatar, turgashlarga qarshi O 'tukan o 'rmonlarida hujum qildim. Beshinchi oyning yigirma oltinchisida ular bilan urushdim. Men g 'alaba qildim. So 'ngra turgashlar va qarluqlarni tor-*

*mor qilib, ularning mol-mulkini, uyini talab uyimga olib keldim...*

*Qarluqlarning tirik qolgani hammasi turgash xoqoniga keldi... Xitoy xoqonining qizini va sakkiz o'g'lini asirga oldim. Keyin xoqon keldi, menga hurmat ko'rsatib, ikki qizini berdi. «Sening so 'zingga uchmayin, yana yanglishmayin», – dedi va qaytib ketdi. Shundan keyin sug'd va tabg'achlarga Selenga daryosi bo'yida Bay baliq shahrini qurishga buyruq berdim.*

## **ENASOY BITIKLARI**

Enasoy bitiklari deb nomlangan yozuvlar Enasoy daryosi bo'yalaridan, ya'ni Tuva va Hakas avtonom respublikasi hududidan topilgan. D.G.Messershmidt 1720-1727-yillarda Sibirga kelib, bir necha bitiklarni topgan edi. Shundan beri turli yillarda 250 ga yaqin bitiktoshlar qo'lga kiritildi. Bu bitiklar ham O'rxun bitiklari singari hukmdor tabaqaga mansub kishilarning qabrtoshlariga o'rnatilgan. Bitiktoshda dafn etilgan shaxsning hayotiga oid ma'lumotlar berilgan. Yozuvlardagi kechinmalar olamdan o'tgan kishining tilidan ifodalanib, u yaqin qarindosh va urug'lariga murojaatnomalar tarzida bitilgan. Vatanni sevish va dushmanlardan himoya qilish Enasoy bitiklariga xos muhim xususiyatdir.

**Eletmish Bilga xoqon bitigi.** Yozuv qahramonlik jangnomasi ruhidagi yodnomadir. Unda o'z xalqidan kuch olib, dushmanni egallagan joyidan quvgan Bilga xoqonning kechinmasi berilgan. U o'z eli va davlatini mustahkamlashning sababini yuqorida Ko'k osmon – Ko'k Tangri, pastda qo'ng'ir yer tarbiyalagani va madad bergani, deb tushunadi.

*Tangridan bo'lgan, el etgan Bilga xoqon, el Bilga xotun xoqon deb nom olib va xotun degan nom bilan ataldilar. O'tukanning chekkasida, Tez daryosining yuqori oqimida o'z qarorgohini o'rnatdi. Yo'lbars yilida va ilon yilida bu yerda*

*yozni o 'tkazdim. Ajdar yilida O 'tukanning o 'rtasida Sunguz bashqan muqaddas tepaligining g 'arbida yozni o 'tkazdim. Qarorgohni shu yerda o 'rnatdim, toshni ham shu yerda to 'qitdim. Ming yillik, tuman kunlik yozuvimni va belgimni bu yerda yozib, toshga o 'ydirdim, qalin toshga yozdirdim. Yuqorida ko 'k osmon yorlaqagani uchun, ostda qo 'ng 'ir yer tarbiyalangani uchun elimni va davlatimni vujudga keltirdim. Sharqda – kunchiqardagi xalq, g 'arbda – oy botardagi xalq, to 'rt tarafdagagi xalq menga kuch berar, dushmanim esa o 'zi egallagan joyni qo 'ldan berdi. Sakkiz daryo oralig 'ida mening yerim va yilqim bor. Sakkiz daryo – Selenga, O 'rxun, To 'la meni xursand qiladi. Qarg 'a va Burg 'a daryosi bo 'ylarida, ikki daryo oralig 'ida men o 'zim o 'rnashayapman.*

**Uyuq Tarlaq bitigi.** Bitik Olti bog' xalqiga beg bo 'lgan El Tug 'an Tutuq tilidan hikoya qilinadi. U oltmis yoshida olamdan o 'tadi va xalqidan ajraladi.

*Siz – elidan, malikalarimdan,  
O 'g 'lonlarimdan, xalqimdan,  
Sizlardan oltmis yoshimda ayrildim.  
Otam El Tug 'an tutuq. Men Tangri davlatimning  
elchisi edim, olti bog' xalqiga bek edim.*

**Uyuq Turan bitigi.** Uchun Qulug Tirig nomli hukmdorning o 'z qarindosh-urug 'lari va xalqidan ajralganligining marsiyasi. U 63 yoshida olamdan o 'tgan. Vatandan ajralganligini judolik deb biladi. Oltin kamarini belga bog 'lab, bahodirlik namunasini ko 'rsatganligini eslaydi. Yodnomma toshida ko 'rsatilishicha, u hukmdorlik qilgan hudud Agun Qatun deb atalgan.

*Uydagi xotinlarim, sizdan, o 'g 'lim, ayrilib,  
sizlarning hammangizni yo 'qotib, ayrildim.  
Qarindosh-urug 'larimni yo 'qotib, ulardan ayrildim,*

*Oltinlik ellikta kamarimni belimga bog 'ladim.  
Tangrili davlatimdan qoniqmadim.  
Sizlarni yo 'qotdim.  
Men Uchun Kulug Tirigman.  
Tangrili davlatimdan chetdaman.  
Oltmish uch yoshimda sizlardan ayrildim.  
Menga qaraydigan Aguk Qatun yerimdan ayrildim.  
Tangrili davlatimdan, o 'g 'illarimdan, qizlarimdan,  
olti ming yilqimdan ayrildim.  
Xoqonimning tulpori, qora xalqi, mashhur  
qahramonlarim, sizlardan, yigitlarimdan,  
o 'g 'lonlarim,  
kuyovlarim, qudalarim,  
qiz – kelinlarim, ayrildim.*

Elegeshdan topilgan bitik (*Bitiktosh kimning kechinmasi ekanligi noma'lum*). U xalqi, qarindosh-urug'lari, davlati va xoqonidan ayrilgan. Yodnomada o'z marsiyasini aytayotgan qahramon Tuk Bug'u mamlakatining jangchisi bo'lgan. Unda yuzta dushmanga teng keladigan kuch va iroda bor edi. Ular janubga qo'shin tortadi, sakkiz kishi qahramonlik ko'rsatadi va yo'lbars yilda qahramonlarcha halok bo'ladi.

*Uydagi xotinlarim, malikalarim,  
Sizlarni yo 'qottib,  
O 'zimning o 'g 'illarim,  
Sizlardan judo bo 'ldim.  
Men yuzta qahramon jangchining kuchiga ega  
bo 'lganim uchun,  
Dushmanning yuzta jangchisi bilan daryo bo 'yida  
urushganim uchun,  
Sizlardan ayrildim.  
Ko 'k osmondag'i quyosh va oyni yorita olmadim,*

*Vatanimni yo 'qotib, sizlardan ayrildim.  
Xoqonimni, davlatimni, sizlarni yo 'qotib,  
Sizlarga egalik qila olmadim...  
Xoqonimni, davlatimni yo 'qotib,  
Sizlardan ayrildim.*

*Davlatning chiroyli qizil bayrog 'ini  
Men belimdag'i oltin kamarimga bog 'ladim.  
Mashhur Tuk Bug 'u bayrog 'i ostida,  
Uning ixtiyori bilan, otasi bekning shon-shavkati uchun,  
Men jangchi bo 'ldim.*

*Qora xalqim, mahkam bo 'ling,  
Davlati, qonun-qoidalarini qo 'ldan bermang,  
Yo 'qotmang siz davlatimni, xoqonimni.  
Davlatim hayotida, janglar paytida,  
Yigitlarimdan qahramonlar topilmadi.  
Jangda hammasi bo 'lib biz sakkiz kishi edik.  
Janubga qo 'shin tortib, o 'lib-yitib,  
Yo 'lbars yilida qahramonlik ko 'rsatdim.  
To 'rt oyoqli yilqim, sakkiz oyoqli molim bor edi,  
Hech g 'am-tashvishim yo 'q edi.  
G 'am, tashvish menga tez keldi,  
Kuchdan qoldim.  
G 'am chekkanimda sizlar bilan uchrashgim keladi.  
Qarindosh-urug 'larimdan, ko 'zu qoshlarimdan  
(ya 'ni eng yaqinlarimdan),  
Uchar otlarimdan ayrilib,  
Qora xalqimni yo 'qotdim, yo 'qolib ketdim men.*

**Begra bitigi.** Tur ismli saroy xizmatchisining yig'isi. U o'n besh yoshida xitoylar tarbisida bo'ladi. O'n besh yoshida Tabg'ach xoqoni xizmatiga kiradi. Hayotida ko 'p azoblarni ko 'radi. Uch o 'g'lidan ajraladi. O'z elidan Xitoya qimmatbaho buyumlarni olib boradi. Yetti bo 'ri, bir necha

yo'lbars va kiyiklarni o'ldiradi. 67 yoshida vafot etadi. U o'z xalqini bardoshli bo'lishga chaqiradi.

*Men Tur - apaman,  
Saroy xizmatchisiman,  
O'n besh yoshimda xitoylar tarbiyasiga oldi.  
Malikalarim, xonzodalarimdan g'am bilan ayrildim,  
Kun va Oyni yorita olmadim-a.  
Uch o'g'lonimdan ayrildim,  
Yo'qotib, ularga egalik qila olmadim-a.  
Bardam bo'l!  
Sakkiz oyoqli molim bor,  
Men otimda sayohat qildim.  
Keyin ularni yo'qotib ega bo'lomadim.  
Men azobdaman,  
Yerimni yo'qotib, suvimdan ayrildim,  
G'amdan sizni yo'qotib,  
Xalqimga, quyoshimga, avlodimga egalik qilolmadim,  
Ulardan ayrilib qoldim.  
Davlatimga, xoqonimga boqmadim.  
Yoshim oltmish yetti.  
Mangu tosh o'rnatdim.  
Men hamma uchun yo'qman.  
Sonsiz do'stlarimdan ayrildim,  
Qalbi keng do'stlarimdan ayrildim.  
O'n besh yoshimda Tabg'ach xoqoniga bordim,  
Yigitlik sharafim uchun bordim,  
Oltin, kumushni, qimmatbaho matolarni  
Xitoy elining odamlariga olib bordim-a.  
Yetti bo'rini o'ldirdim,  
Yo'lbars va kiyiklarni o'ldirmadim.*

**Chako'l bitigi.** Xoqon Bilga Chikshan xizmatida bo'lgan Chiksin yig'isi. U o'z eli, xoqoni, mamlakati uchun fidoyi

inson. Lekin hayotdan faqat g‘am-alam ko‘radi. Tirikligida sakkiz o‘g‘lidan ajraladi. Shu sababli o‘z nomini «alamli Chiksin» deb ataydi. Lekin xalqi, xoqoni, do‘stlariga qilgan xizmatini sharaf deb tushunadi.

*Avlodlarim, sizlardan ayrildim.*

*Oh, uydagi xonzodalarimdan ayrildim.*

*Sakkiz o‘g‘limdan ayrildim-ey.*

*Xoqonim, elim xizmatida bo‘ldim.*

*Dono hukmdorimga xizmat qildim,*

*Do‘stlarimga xizmat qildim.*

*Bu men uchun sharafdir.*

*Xoqonim uchun, Bilga Chiqshan xoqoniga xizmat qildim,*

*Ey xalqim,*

*Yigitlik sharafim uchun davlatimga xizmat qildim.*

*Tangriga xizmat qildim.*

*Endi ajoyib do‘stlarimdan ayrildim.*

*Bu mangu toshimdir.*

*Men alamli Chiksinman.*

**Oznachennaya qishlog‘idan topilgan bitik.** Hukmdor Al Inanchuga xizmat qilgan bahodir yig‘isi. U dushman bilan xalqi va do‘satlari uchun jang qiladi. Shahzoda Kuch Kul tutuq jangda halok bo‘lganidan aziyat chekadi. O‘ttiz besh yoshida qahramon nomini oladi.

*Malikalar, do‘stlarimdan ayrildim.*

*Alam chekib dushman orasiga kirdim.*

*Kuch Kul tutuq, sizdan ayrildim.*

*Davlatim, xoqonim, sizdan ayrildim.*

*Men o‘ttiz besh yoshimda qahramon bo‘ldim.*

*Al Inanchu davlatini – bil uni,*

*Xoqoningiz yo‘qlardi,*

*Do 'stlaringiz, bahodirlar, ovozingiz qasamyod qilar.  
Dushmanim ko 'p edi, sizlardan ayrildim.*

**Achur qishlog‘idagi bitik.** Uri bek xoqonga el marsiyasi. Uri o‘z elining hukmdori. U el og‘asi Inanchu bilganing o‘g‘lidir. Uning haqiqiy ismi Kuch, qahramonlik laqabi Uridir. Uning mamlakati boy bo‘lib, «puli ko‘p edi, qora sochidek». Yetti ming sonli qo‘shini bor edi.

*El og‘asi Inanchu bilga marhumlar aro,  
O‘g‘li oti Kuch, o‘g‘lon tug‘ildi.  
Sizni otingiz O‘ri bek.  
Elingiz uchun qozonib, o‘z ayolingizni yo‘qotib,  
Siz ayrildingiz.  
Shavkatli o‘n yetti yoshida shuhrati o‘ldi.  
Yerdagi tamg‘ali yilqi sonsiz edi.  
Puli ko‘p edi qora sochidek.  
Dushmanga yetgan qo‘shini yetti  
Ming o‘g‘lon edi.  
Yuz arning yuzi, beklarning nazari, beklik qoshi,  
Oltmis er do‘stlaringiz, ellik er yaxshi do‘stlaringiz,  
O‘zingizning og‘a-iningiz, sakkiz mis ko‘zungiz,  
O‘nta qora ko‘zungiz,  
O‘kinmadingiz, ko‘rmadingiz, butlamadingiz.  
Sizning qahramonona ismingiz Uri, elingiz O‘z.*

**Oltinko‘ldagi birinchi bitik.** Vatani va eli ozodligi uchun jangda halok bo‘lgan Umay bek yig‘isi. U o‘z elining o‘kinchi uchun tug‘ilganidan g‘ururlanadi. Ular to‘rt aka-uka edilar. Ularni jangdagi o‘lim ajratdi.

*Yerdagi bor narsalarimga, shuhratimga boqmadim.  
Otuvchi alp edingiz, katta boy edingiz,  
Inili bo‘ri ucholmay, bars ajralolmay qoldi.*

*Bu otimiz – Umay bekdir.*

*Biz merosxo'r erlarmiz, o'zingni qiynamading.*

*O'zingning oting, o'zingning uch yigitingni olmading,  
Ajralma odatlarimdan, istaklarimdan, xalqimdan.  
shon-shuhratimdan.*

*Yigitlik sharafim uchun, aka-ukalarim qudrati uchun,  
Mangu toshni tikib bordi.*

*Biz to 'rt uka edik,*

*Bizni o'lim ajratdi, yo 'qotdi.*

*Oltin o'rdak, yosh kiyikni yo 'qot, yig 'lat, qichqirtir.*

*Qudratidan barsim yo 'qolib bordi.*

*O'n oy eltdi onama-a,*

*Tug 'di elimga shuhrat uchun.*

*Men yashadim.*

*Elim o'kinchiga, qalin yoviga.*

*Qarshilashib halok bo 'ldim, yo 'qoldim.*

*Iningiz o'lib, qat 'iyatsizlikda*

*Hayotingizni barbod qildingiz.*

**Oltinko'ldagi ikkinchi bitik.** Jasoratli qahramon Eran Ulug' yig'isi. U o'ttiz sakkiz yoshida vafot etadi. Inanchu alplari orasida kurashadi. Tibet xoqoniga elchi jo'natib, undan sovg'a oladi.

*Jasoratli xalqni, kuchli xalqni ushlab turibman.*

*Jangovar otim Eran Ulug'.*

*Jasoratli qahramonman.*

*Qahramon yigitlarim, sharafli davlatim bor uchun*

*Xalq hayajonda yurmadi.*

*Malikalarimdan, do'starimdan, xotinlarimdan  
ayrilib bordim.*

*Men o'g'limga, xalqimga qaray olmadim.*

*O'ttiz sakkiz yoshimda vafot etdik.*

*O'n oy eltdi onam, o'g'il bo 'lib tug 'ldim,*

*Qahramon bo 'lib ulg 'aydim.*

*Elimda to 'rt marta sayohat qildim.*

*Shavkatim uchun Inanchu alplari orasida kurashdim.*

*Shonu shavkat bo 'lsa, shunday bo 'lar ekan.*

*Asinman. Oltin to 'plashga bordim.*

*Sharaf uchun Tibet xoqoniga elchi jo 'natdim.*

*Undan sovg 'a keltirdim.*

**Ubayt bitigi.** Qahramon jangchi Tarxon Sangun yig'isi.  
olti yoshida otasidan ajralgan. U El Chur elida bahodirligi  
lan shuhrat qozonadi. O'ttiz jangchi bilan dushman  
stirmasiga duch keladi va halok bo 'ladi.

*Qahramonlik jasoratidan akamni yo 'qotib,*

*Xalq g 'am chekdi. Quli taklif qildi*

*Marosimni kuchli uchta akamga.*

*Bek erlardaydir Sabik bosar akamiz.*

*Jangda ko 'p xalqning kuchini bilar edi.*

*Yuqorida Tangri yorlaqadi.*

*Qora xalqimga, uch o 'g 'limga egalik qilolmadim.*

*Men Tarxon Sangunman,*

*El chur elida shuhrat topdim.*

*Er qahramonligim uchun yig 'ladi. Biz yig 'lamaymiz...*

*Ega bo 'lolmadim elda qolgan olti dono bek o 'g 'liga.*

*Turk xonining balbali uchun bezakni el aro*

*to 'qqiz er birin-ketin er o 'g 'illari*

*Qo 'yib, saylab oldi u shavkatli begimga.*

*To 'qqiz marta aylanib, otni to 'xtatdim.*

*O 'ttiz erni boshlab borib, pistirmaga duch keldim.*

*Shunda uch akamdan ayrildim. Tachamdan ayrildim.*

*To 'qqiz bek erdan ayrildim. Bayroqdor edim, ishonchli*

*edim. Olti yoshimda otamdan ayrildim, anglab yetmadim.*

*Uch akamdan ayrildim, onam, uch akamga men  
sharaf otasiman.*

*Elimga, xoqonimga boqmadim.*

*O'g'lonimga, og'a-inimga boshchilik qila olmadim.*

\* \* \*

O'rxun va Enasoy toshbitiklari adabiy janrlar talablariga ko'ra marsiya va madhiyadir. Shaxsning vafot etganligiga achinish hissi bilan bitilgan satrlar marsiya janrining xususiyatini belgilasa, uning tiriklik paytidagi qahramonlik, bahodirlik, vatanparvarlik fazilatlari ulug'langan satrlar madhiya janri talabi asosida yuzaga kelgan. Enasoy bitiklarida bu ruh yanada kuchli.

*Uydagi xotinlarim, malikalarim,*

*Sizlarni yo'qotib,*

*O'zimning o'g'illarim,*

*Sizlardan judo bo'ldim.*

*Men yuzta qahramon jangchini*

*kuchiga ega bo'lganim uchun,*

*Dushmanning yuzta jangchisi*

*bilan daryo bo'yida urushganim uchun,*

*Sizlardan ayrildim.*

*Ko'k osmondagi quyosh va oyni yorita olmadim,*

*Vatanimni yo'qotib, sizlardan ayrildim.*

*Xoqonimni, davlatimni, sizlarni yo'qotib,*

*Sizlarga egalik qila olmadim...*

Toshbitiklar asosan erkak kishilar vafotiga bag'ishlangan. Marsiya ham asosan vafot etgan kishining tilidan berilgan. Marsiya turkiy yozma va og'zaki adabiyotda alohida janrdir. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobida saqlangan Alp Er To'ngra

marsiyasi ham shunday janr namunasidir. U xalq og‘zaki ijodi mahsuli hisoblanadi. Lekin marsiyaning O‘rxun-Enasoy bitiklaridagi marsiyalardan farqi shundaki, u vafot etgan shaxs tilidan bayon etilmaydi, balki xalq yig‘isi hisoblanadi.

O‘rxun-Enasoy toshbitiklari tarixiylik xususiyatiga ega. Ular hayotdagi aniq shaxslarga bag‘ishlangan. Shu bilan birga mifologik tasavvurlar ham ifodalangan. Qadimgi turkiylar mifologiyasiga ko‘ra Tangri yer va osmonni yaratuvchi, u yagonadir. Tangri turkiylar uchun – ota, yer esa onadir. Kul tegin kichik yozuvi shunday boshlanadi:

*Tengri teg. Tengride bolmysh  
Turk Bilga qag ‘an bu  
O‘tga o ‘lurtum.  
Sabyntyn tukati esidgil.*

Mazmuni:

*Tangri toq. Tangridan bo ‘lgan  
Turk Bilga xoqon bu yerga o ‘lturdim.  
So ‘zimni tugal eshitgil.*

Kul tegin yodgorligining katta yozuvi esa quyidagicha boshlanadi:

*Uza Ko ‘k tengri  
Asra yag ‘iz yer qylbintuqda,  
Ikin ara kisi og ‘lbi qylbintyis.*

Mazmuni:

*Yuzada Ko ‘k tengri,  
Ostda qora yer qilindi.  
Ikkisi aro kishi o ‘g ‘li yaratildi.*

O‘rxun bitiklari Enasoy bitiklaridan epik tasvirning kengligi bilan ajralib turadi. Bu yodgorliklarda ham marsiya

va madhiya ruhi yetakchilik qiladi. Lekin voqelikning ifodalanish xususiyatiga ko‘ra boshqa janrlarning ham belgisi mavjud. Kul tegin va Bilga xoqon yodgorligi badiiy tasvirning yetakchiligi hamda epiklik xususiyati bilan qahramonlik dostonlarini eslatadi. Tunyuquq yodgorligida esa voqealarning badiiy tasviri yetarli darajada emas.

Demak, toshbitiklarda adabiy janr talablariga ko‘ra marsiya, madhiya, doston va memuar shakllari mavjud. Toshbitiklarda badiiy tasvir vositalari, xalq tili boyligidan unumli foydalanylган. Kul tegin asarida turk xalqining tabg‘achlar tomonidan ezilishi, zulm o‘tkazilishi shunday tasvirlanadi:

*Turk budun illaduk ilin ichqinu idmis,  
Qag ‘anladuk qag ‘anin jituru idmis.  
Tabg ‘ach budunka barilik o ‘ri og ‘lin kul bolti,  
Silik qiz og ‘lin ko ‘ng bolti.*

Mazmuni:

*Turk budun ellashgan elni buzg ‘un et mish,  
Qog ‘onlangan qog ‘onni tuban et mish.  
Tabg ‘ach budung ‘a qattiq o ‘g ‘illari qul bo ‘ldi,  
Suluv qizlari cho ‘ri bo ‘ldi.*

Parchadagi «Ellashgan el buzg‘un», «Qog‘onlangan qog‘on tuban», «Qattiq o ‘g‘ullar qub», «Sulu qizlar cho‘ri» kabi tasviriy ifodalar ziddiyatni yanada ta’sirchan ko‘rsatadi. Quyidagi parchada esa o‘xshatish orqali turkiy bobolarimizning kuch-qudrati, dushmanlarining ojizligi tasvirlanadi:

*Tengri kuch birtuk uchun  
Kangim qag ‘an so ‘si bo ‘ri tag ermis.*

*Yag'isi koy teg ermis.*

*Mazmuni:*

*Tangri kuch bergani uchun*

*Otam qog'on kuchli bo'ridek bo'l mish.*

*Yog'isi qo'ydek bo'l mish.*

Sifatlashlar ham tabg'ach xalqining o'ziga xos xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi:

*Tabg'ach budun sabi suchuk,*

*Ag'isi yim shak ermis.*

*So'chik sabin yim shak ag'in arin,*

*Irak bo'dunig' ancha yag'u tir ermis.*

*Mazmuni:*

*Tabg'ach budun so'zi chuchuk,*

*Og'izi yumshoq ermish.*

*Suchuk so'zi, yumshoq qiliq (la) avrab,*

*Yiroq budunni ancha yaqinlatar ermish.*

Tunyuquq bitiktoshidan olingan misralarda obrazli tasvir yanada hayotiy chiqqan:

*Yag'umuz tegra ichuq teg erti,*

*Biz shad ertimiz.*

*Mazmuni:*

*Yog'imiz tegrada qushlardek (ko'p) erdi,*

*Biz yemdek edimiz.*

**Qush va yem** kurashadigan ikki qavmning imkoniyat darajasini obrazli tarzda ifodalay olgan o'xshatishdir. Yoki shu bitiktoshda turkiy xalqlarning maqol va matallaridan o'rinli foydalanilgan.

*Yupqa ariklid toplag 'alu uchuz ermisi,  
Yinqa eriklid izdali uchuz,  
Yipqa qalin bolsar, toplag 'aluq alp ermisi,  
Yinchga yog 'on bolsach, izduluk alp ermisi.*

Mazmuni:

*Yupqa arriqlig to 'plagali oson ermishi,  
Ingichka orriqlig uzgali oson.  
Yupqa qalin bo 'lsa to 'plagali alp (kerak) ermishi,  
Ingichka yo 'g 'on bo 'lsa uzgali alp (kerak) ermishi.*

Demak, toshbitiklar o'zining ta'sirchan badiiy qimmatiga ega. Qadimgi turkiylar tilining jozibasi toshbitiklarda aniq ifodasini topgan. Bundan tashqari, toshbitiklar bir necha fanlarning ham qimmatli manbai hisoblanadi. Avvalo, ular adabiy yodgorlikdir. Ifoda usuli va janr (doston, qasida, marsiya va boshqalar) xususiyati bilan badiiy adabiyotning namunasidir. Toshbitiklar qadimgi turkiy tilni o'rghanishda cheksiz ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularda turkiy qavmlarning tarixiga oid voqeа-hodisalar, jug'rofiy nomlar, qavmlarning nomi va urf-odatiga doir etnografik ma'lumotlar, totemizm, ko'k Tangri, moniylik kabi diniy e'tiqodlar ham yorqin aks etgan. Xullas, tosh yodnomalar turkiy xalqlarning adabiyoti, tili, tarixi, dini, jug'rofiyasi, urf-odatlarini o'rghanishda benazir yodgorlikdir. Bu masalaning birlamchi tomoni, ikkinchidan, yodnomalar qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining izchil davomi, janr va g'oyaviy belgilarini o'zida mujassamlashtirgan adabiy merosdir.

Badiiy asarlarni o'tda yonmas, tuproqda chirib, yo'qolmas jismlarga bitib yaratish dunyo xalqlari madaniyati tarixida sinalgan an'anadir. Jahon adabiyotining durdonasi sanalgan «Bilgamish» dostoni ham

sopol lavhalarda bitilgan edi. Turkiy toshbitiklar ham ana shunday an'analar natijasi bo'lib, ularda rang-barang janrlardagi asarlar yaratilgan. Toshbitiklardagi dostonlarning g'oyasi, qahramonlik ruhi turkiy xalqlar og'zaki adabiyotdagi eposlar bilan mantiqan bog'lanadi. Bunday bog'lanish qabr toshlari dostonlarini yaratgan ijodkorlar xalq dostonlari bilan juda yaqin tanish bo'lganligi, undagi g'oyaviy mazmun hamda qahramonlik ruhini chuqr anglaganligida ravshan namoyon bo'ladi.

***QADIMGI TURKIY ADABIYOTNING JANR  
XUSUSIYATLARI***

So‘z san’atining dastlabki janrlari insonning nutq madaniyati rivojlanishi bilan tug‘ilgan. Demak, turkiy xalqlar adabiyotining tarixi juda qadimiy bo‘lganidek, adabiy janrlarining tug‘ilishi va shakllanish jarayoni ham uzoq tarixga ega. Badiiy adabiyotning har bir shakli ma’lum bir janr asosida yuzaga kelishi qonuniyatdir. Bas, shunday ekan, turkiy xalqlarning islomgacha bo‘lgan davrdagi adabiyotida ham rang-barang janr va vazn xususiyatlari mavjud. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodiga islomdan so‘nggi yoki hozirgi davrda adabiyotshunoslikda mavjud atamalar bilan yondashish maqsadga muvofiq emas. Chunki bugungi adabiyotshunoslikdagi mavjud janr, shakl hamda vaznni qadimgi turkiy adabiyotdan izlash yoki hozirgi davr atamalari bilan nomlash masalaning mohiyatini murakkablashtiradi.

O‘zbek adabiyoti tarixining qadimgi davrlari yoki eng qadimgi adabiy yodgorliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan darslik va qo‘llanmalarda, shuningdek, boshqa tadqiqotlarda ham «maqol», «marsiya», «munozara», «afsona», «asotir», «rivoyat» kabi janrlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Aslida bu adabiy atamalar arab tili mahsuli bo‘lib, bu tushunchalar turkiy xalqlarning adabiy-madaniy hayotida islomdan so‘nggi davrlarda yuzaga kelgan. Lekin qadimgi turkiy adabiyotda yuqoridagi atamalarni ifodalaydigan turkiy tildagi so‘z, iboralar mavjud edi. Demak, har bir davrning adabiyotidagi janrlar yoki vaznlari o‘rganilganda shu davrga xos atamalardan foydalanish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodining janr va vazn xususiyatlarini aniqlash hamda adabiy atama sifatida nomlashga asos bo‘ladigan manbalar mavjuddir. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» kitobidagi adabiy atamalar hamda ayrim adabiy janrlarning nomini ifodalashi mumkin bo‘lgan so‘zlar, qadimgi tosh va yozma bitiklar, shuningdek, qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodidagi mazmun, g‘oya hamda obrazlarning tadrijiy takomili natijasi: Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostonidagi ayrim tasvir va atamalar mavzuni yoritishga xizmat qiladi.

Qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodining janr xususiyatlarini o‘rganish mavzusi adabiyotshunosligimizda qisman bo‘lsa-da yoritilgan. Bu sohaning ilk tadqiqotchisi ham Mahmud Qoshg‘ariydir. Bizning zamonomizda bu masalada akademik B.Valixo‘jayev, professor B.To‘xliyev, N.Rahmonov va boshqalarning e’tiborga loyiq qarashlari mavjud. Quyidagi izlanishlar ham bu mavzuni yoritishga ko‘maklashadi, degan fikrdamiz.

## BILIG

«Devonu lug‘otit turk»da bilig so‘ziga «bilim», «hikmat» va «aql» deb izoh berilgan (1., 367-bet). **Bilga** hikmat aytuvchi, hikmatshunos, oqil, dono, aqli, olim kishiga nisbatan qo‘llanadi. Demak, bilig – hikmat ma’lum ma’noda hozirgi o‘zbek tili lug‘at boyligidagi **maqol** janrining mazmunini ifodalaydi. Maqolda xalqning, ijtimoiy tabaqa yoki guruhning dunyoqarashi, hayotda to‘plagan tajribalari, kuzatishlari ifodalanadi. Qadimgi turkiylarning bilgalari aytgan biliglar ham shunday xususiyatga egadir.

«Devonu lug‘otit turk»da biliglardan ko‘plab namunalar keltirilgan.

**Ag‘iz yesa, ko‘z uyazur** – og‘iz esa, ko‘z uyalur.

**Etli, tirinaqli ezirmas** – et tirnoqdan ayrilmas.

**Qarg‘a qazg‘a o‘tko‘nsa buti sinur** – qarg‘a uchishda g‘ozga taqlid qilsa, buti sinar.

**Qo‘sh qilich qinqa sig‘mas** – qo‘sh – ikki qilich bir qing‘a sig‘mas.

**Uma kelsa, qut kelar** – mehmon kelsa, qut kelar.

**Alimchi – arslon, berimchi – sichg‘an** – oluvchi – arslon, qarzni beruvchi – sichqon.

## O‘TLUK

«Devonu lug‘otit turk»da o‘git, nasihat ruhidagi she’rlar o‘tluk deb nomlanadi. Ba’zan bu atama ma’nosini o‘vo‘t so‘zi ham ifodalagan. O‘vo‘t asli o‘gitdir. O‘tluk tarbiya mavzusidagi bir necha bandli o‘git hamda nasihatlardir. Devonda qofiyalanish tizimiga ko‘ra o‘tluk janriga xos ikkita she’r parchalari saqlanib qolgan.

### O‘tluk – 1

*Qo‘shni-qo‘nuq ag‘ishqa,  
Qilg‘il ang‘ar ag‘irlik.  
Artut alib anung‘il,  
Ezgu tavar o‘g‘ruluq.* I.137

*Qo‘lsa qali o‘g‘rayin,  
Bergil taqi azuqluq.  
Qarg‘ish qilur umalar,  
Yunchig‘ ko‘rub qo‘nuqluq.*

I.272

*Qo‘ni – qo‘shni qarindosh,  
Ko‘rsin sendan yaxshilik.  
Ne-ne sovg‘a qilishga,  
Yaxshirog‘in qil ortiq<sup>1</sup>.*

*Kelsa birov yo‘qlashib,  
Bergil yaxshi ozuq non.  
Qarg‘ab ketar mehmonlar,  
Kutar bo‘lsang gar yomon.*

*Kelsa uma tushurgil,  
Tinsin aning aruqluq.  
Arpa saman yag‘utg‘il,  
Bulsin ati yaruqluq.* II. 366

*Mehmon kelsa o‘tqazgil,  
Hordiq olib tinch bo‘lsin.  
Oti ham yorug‘liqda  
Arpa somonga to‘ysin.*

<sup>1</sup> Koshg‘ariy M.Turkiy so‘zlar devoni. «Devonu lug‘otit turk». I tom. – T.: O‘zbekiston FA nashriyoti, 1960, 137-b. Keyingi sahifalarda shu kitobdan olingan she’riy parchalar va ko‘chirmalar yoniga devon tomi va sahifasi ko‘rsatildi.

## O'tluk –2

*Kulsa kishi yuzingga,  
Ko'rkluk yuzin ko'rungil.  
Yavlaq ko'zaz tilingni,  
Ezgu savig' tilangil.* III.50

*Undab ulug' tabaru  
Tavrab kelib yugurgil.  
Qurg'aq yilin buzun ko'r,  
Qanda tushar qudi il.* III.76

*Kelsa qali qatig'liq,  
Ertar teyu seringil.  
O'zluk ishin bilip tur,  
Ancha angar tirangil.* III.252

*Bo'lmish nengir sevarsan,  
Aqrun angar sevingil.  
Bermish nengik saqinma,  
Azraq angar o'kungil.* III.372

*Kulsa kishi yuzungga,  
Ko'rkluk bo'lib ko'ringil.  
Shirin, ochiq so'z so'yala,  
Yoqmoq uchun uringil.*

*Bo'lsa og'ir ishlarling,  
O'zgalarga buyurma.  
O'zingni och qoldirib,  
Boshqaga oziq berma.*

*Kelsa qancha qattiqlik,  
O'tib ketar, sabr etgil.  
Dunyo ishin bilib tur,  
O'zingni beg'am tutgil.*

*Borliq mulking sevarsan,  
Unga kamroq sevingil.  
Ketgan molga achinma,  
Unga ozroq o'kingil.*

Birinchi o'tlukda mehmon kutish odobi, qo'ni-qo'shnilar bilan ahil bo'lish, saxiylik haqida nasihat beriladi. Ikkinchisi o'tlukda esa, insondagi ichki va tashqi go'zallik ulug'langan. Shirin so'zlilik, hayotdagi har qanday qiyinchiliklarga bardoshli bo'lish, boylikka hirs qo'ymaslik insoniy fazilat sifatida ko'rsatilgan.

## TABZUG'

Tabzug' turkiy adabiyotdagi qadimiy janrlardan biridir. Turkiy xalqlar topishmoqni shunday ataganlar. Devonda quyidagi gap keltirilgan: **Tabzu g'uq tabuzdim** – men undan bir topishmoq so'radim (I., 429). Topishmoq jahon xalqlari

o‘rtasida keng tarqalgan janrlardan biridir. Xalq og‘zaki ijodi tarixida topishmoqning ikkita shakli uchraydi: 1. So‘z shakli, ya’ni yashiringan narsa – hodisani so‘z vositasida ifodalash (Qorong‘u uyda beli bog‘liq qul yotur (**supurgi**). Bu topishmoq hozirgi davr og‘zaki ijodida ham keltirilgan bo‘lib, u ijtimoiy sinfiy mohiyatiga ko‘ra o‘zining qadimiy qatlamiga ega. 2. Narsa buyum shakli, ya’ni narsa-buyumni ko‘rsatish bilan yashiringan fikrni topishga da’vat etish.

Qadimgi turkiy xalqlar o‘rtasida tabzug‘ning narsa-buyum shakli ham keng rivojlangan. Gerodotning «Tarix» kitobida berilgan «Doroning Skifiyaga yurishi» qissasida topishmoqning narsa-buyum shakli keltirilgan bo‘lib, bu usul turkiy xalqlar og‘zaki ijodida juda qadim zamonlarda ildiz otganligini ko‘rsatadi. Asarda tasvirlanishicha, skiflar hukmdori Doroga qush, sichqon, qurbaqa va beshta kamon o‘qini sovg‘a qilib jo‘natadi. Bu narsa-buyumlarda ma’no yashiringan bo‘lib, Doro uni topishi kerak edi. Forslar hukmdori topishmoq-buyumning javobini quyidagicha izohlaydi.

«Skiflar menga hokimiyatni, yer hamda suvini topshirmoqchi. Sichqon yerda yashaydi, insondek yerning mahsulotidan oziqlanadi. Qurbaqa suvda yashaydi. Qush chaqqonligi bilan otga o‘xshaydi, kamon o‘qlarini topshirishlari esa skiflarning bizga qarshilik ko‘rsatmasliklarining belgisidir».

Doro Skifiyaga bostirib kirganida uning qo‘shini safida Gobriy ismli dono kishi bor edi. U skiflar jo‘natgan buyum – topishmoqni boshqacha izohladi.

«Agar siz, forslar, qushdek osmonga parvoz etmasalaringiz yoki sichqondek yerostiga yo‘qolmasalaringiz yoki qurbaqadek botqoqqa sakrab tushmasalaringiz ushbu kamon o‘qlaridan halok bo‘lasizlar, vatanlarining qayta olmaysizlar».

Buyum- topishmoqning haqiqiy javobi ham shu edi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida ham buyum-topishmoqlarning yaxshi namunalari keltirilgan.

Kuntug‘di elig bir kuni yolg‘izlikdan siqilib, huzuriga Oyto‘ldini chorladi. Oyto‘ldi kelib, hayratga tushdi. Eligning qovog‘i soliq, yuzi tumshaygan edi. Kuntug‘di uch oyoqli kursida o‘tirardi. Qo‘lida pichoq, so‘l tomonida esa zahar-zaqqum, o‘ng tomonida esa sharbat turardi.

Bu tasvir buyum-topishmoqdir. Oyto‘ldi uning ma’nosini anglab yetmagach, eligdan uning javobini so‘raydi. Buyum-topishmoqning javobi shunday edi.

**1. Uch oyoqli kursi.** Kursidagi uch oyoq uning o‘z o‘rnida to‘g‘ri, og‘masdan turishiga asosdir. To‘g‘ri narsa yiqilmaydi. Kuntug‘di eligning ishlari to‘g‘ri, og‘mas, yaxshi va yomonga nisbatan hukm chiqarishi o‘zgarmasdir.

**2. Pichoq.** Pichoq sanchiluvchi va kesuvchi buyumdir. Kuntug‘di da‘vogar-tuhmatchilarining ishini cho‘zib o‘tirmaydi, barcha ishlarini pichoqdek kesib, qirqib tashlaydi, adolat bilan hal qiladi.

**3. Sharbat.** Kuntug‘di huzuriga kelgan kishi uning adolatlilikidan xursand bo‘ladi, sevinib, go‘yo o‘zini sharbat ichgandek his etadi.

**4. Zahar-zaqqum.** Zo‘ravon, to‘g‘rilikdan qochgan shaxsning nasibasi zahar-zaqqumdir. Bunday kishilarga Kuntug‘di hukm chiqarganda ular zahar ichgandek jonlari azob chekadi.

«Qutadg‘u bilig»da buyum-topishmoqlarning keltirilishi Yusuf Xos Hojib qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodi shakl-uslublaridan ham unumli foydalanganligini ko‘rsatadi.

## SANDRUSH

Sandrush qadimgi turkiy tilda «tortishuv» ma’nosini beradi. «Devonu lug‘otit turk»da sandrushga misol bo‘la oladigan she’rlar keltirilgan. Bu she‘r hozirgi

adabiyotshunosligimizda «Qish va yoz» munozarasi nomi bilan yuritilgan. Ushbu sandrushda tortishishga kirishgan ikki predmet o‘z xususiyatlarini maqtaydilar, o‘zgasining qiliqlarini fosh etadilar. Ikki faslning majoziylik xususiyati hayotdagi ma’lum tabaqa yoki shaxslarning qiyofasini umumlashtiradi. Qish – yomonlik, Yoz – yaxshilik timsoliga aylanadi.

### «Qish va yoz» sandrushi

*Qish yay bila tuqushdi,  
Qing ‘ir ko ‘zin baqishdi.  
Tutushqali yaqishti,  
O’tg‘alimat o‘g‘rashur.* I. 182

*Tumlig‘ kelib qapsadi,  
Qutlug‘ yayig‘ tepsadi.  
Qarlab ajun yapsadi,  
Et yin ushub emrishur.* I. 430

*Yay qish bila qarishti,  
Erdam yasin qurishti.  
Chyerig tutub ko‘rushti,  
O‘qtag‘ali o‘trushur.* II. 104

*Qish yoz bilan topishdi,  
Qing ‘ir ko ‘zla boqishdi.  
Bir-biriga yopishdi,  
G‘alabani istashur.*

*Sovuq kelib turadi,  
Qutlug‘ yozni suradi.  
Qor dunyoni o‘radi,  
Tan uvushib zirillar.*

*Yoz qish bilan ko‘rishi,  
Hunar yoyin qurishdi.  
Saf tortishib turishdi,  
O‘q otgali hog‘lashur.*

### Qish maqtanadi:

*Ul qar, qamug‘ qishin inar,  
Ashliq tarig‘ anin o‘nar.  
Yavlaq yag‘i menda tinar,  
Sen kelibon tebrashur.* II. 237

*Qoru yomg‘ir menda inar,  
Oziq-ovqat shunda unar.  
Yovuz dushman menda tinar,  
Sen kelibon qo‘zg‘alur.*

*Senda qo 'par chazanlar,  
Quzg 'u singak yilanlar.  
Do 'k ming quyu tumanlar,  
Quzruq tikib yugrushur.*

*III. 378*

*Qish yayg 'aru suvlanur,  
Er at menin yavrulur.  
Iqlar yema savriyur,  
Et yen taqi bekrisshur.*

*III. 294*

*Senda qachar sundalach,  
Menda tinar qarg 'ilach.  
Tatlig 'o 'tar sunduvach,  
Erkak tishi uchrashur. I. 481*

*Yilqi yazin atlanur,  
O 'tlab anin etlanur.  
Beglar semiz atlanur,  
Sevnub o 'gur isrishur. I. 282*

*Balchiq baliq yug 'rulur,  
Chig 'ay yavuz yig 'rilur.  
Eringaklari o 'g 'rilur,  
O 'zg 'uch bila evrishur.*

*I. 249*

*Senda barcha yomonlar,  
Chibin, pashsha, ilonlar.  
Dumi gajak chayonlar,  
Hamla qilib yugurar.*

*Qish yoz bilan tortishur,  
Er, ot menda ortishur.  
Kasalliklar qaytishur,  
Kuch-quvvatga to 'lurlar.*

**Yoz unga javob beradi:**

*Sendan sa 'valar ketar,  
Menda qaldirg 'och yashar.  
Bulbullar sayrab qo 'nar,  
Naru moda uchrashur.*

*Yilqi yozda etlanur,  
Yaylovlarda o 'tlanur.  
Beklar unga otlanur,  
Sevinishib o 'ynashur.*

*Loy, balchiqlar tizilur,  
Kambag 'allar ezilur.  
Sovuq qattiq sezilur,  
Barmoqlarin huhlashur.*

## YIG‘I-YO‘QLOV

Qadimgi turkiylarda biror shaxsning o‘limi munosabati bilan odamlar to‘planib, ko‘z yosh to‘kishi yig‘i-yo‘qlov, vafot etgan kishining sifatlarini aytib yig‘lagan, o‘z g‘am-anduhini to‘kib, ko‘z yoshi qilganlar yig‘ichidir. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi adabiyotshunosligimizda qadimgi turkiy adabiyotga nisbatan qo‘llaniladigan marsiya janri (masalan, «Alp Er To‘nga» marsiyasi)ni yig‘i-yo‘qlov atamasi bilan umumlashtirish xato hisoblanmaydi.

«Devonu lug‘otit turk»da Alp Er To‘ngaga bag‘ishlangan yig‘i-yo‘qlovdan tashqari, yana shu janrga mansub to‘rtta she‘rning parchalari saqlangan. Ulardan uchtasida sevikli yoridan judo bo‘lgan ma’shuqaning ayriliq iztiroblari ifodalangan.

### Birinchi parcha:

*O‘zik meni kuchayur,  
Tun-kun turup yig‘layu.  
Ko‘rdi ko‘zum tavraqin,  
Yurti qalip ag‘layu. III. 275*

*Elkin bo‘lup barduqi,  
Ko‘nglum angar bag‘layu.  
Qaldim erinch qadg‘uqa,  
Ishim uzu yig‘layu. III. 324*

*Sevgim mening kuchayur,  
Kecha-kuriduz yig‘layman.  
Ko‘rdi ko‘zim ketganin,  
Yurtda yolg‘iz qolgayman.*

*Seviklim ketdi uzoq,  
Ko‘nglim unga bog‘layman.  
Qoldim chuqur qayg‘uda,  
Uzzu kunlar yig‘layman.*

### Ikkinchi parcha:

*Bardi ko‘zum yaruqi,  
Aldi o‘zum qo‘nuqi.  
Qanda erinch qaniqi  
Emdi o‘zin uzg‘urur. I. 81*

*Ketdi ko‘zimning nuri,  
U bilan tanam ruhi.  
Qayda ekan sevganim,  
Kechalari yo‘q uyqu.*

*O'zik meni qumitti  
Saqinch menga yumitti.  
Ko'nglum angar emitti,  
Yuzum mening sarg 'arur.*

I. 99

*Ko'nglum angar qaynayu,  
Ichtin angar o'ynayu.  
Keldi menga bo'ynayu.  
Uynab meni arg 'arur. I. 230*

*Ko'rди meni emlayu,  
Baqti menga imlayu.  
Qaldim ko'ngul to'mliyu,  
Qadg'u meni turg'urur.*

III. 310

*Sevgi dardi qo'y maydi,  
Sog'inch yana qiyaydi.  
Ko'nglim unga to'y maydi,  
Yuzim mening sarg'ayur.*

*Ko'nglim unga qaynaydi.  
Yuraklarim o'ynaydi,  
Endi kelib bag'rimga,  
Hordirmayin qo'y maydi.*

*Ko'rди meni, emladi,  
Boqdi menga, imladi.  
Qoldi ko'nglim, to'ngladi,  
Qayg'u meni yaralar.*

O'rxun-Enasoy toshbitiklarida ham yig'i-yo'qlovlar ruhi yetakchi o'rinda turadi. Bitiklardagi yig'i-yo'qlovlarini ifoda usuliga ko'ra ikkiga ajratish mumkin:

1. Yig'i-yo'qlov vafot etgan shaxsning o'zi tilida bayon etiladi (Enasoy bitiklari asosan shunday xususiyatga ega).
2. Yig'i-yo'qlov yig'ichi, ya'ni vafot etgan shaxsning qarindosh-urug'lari tomonidan bayon etiladi («Kul tegin bitigi»).

Quyida Enasoy bitiklaridan keltirilayotgan Chiksin yig'isi vafot etgan shaxsning alamli faryodidir. O'lган shaxs ham, yig'ichi ham Chiksin bo'lib, yig'i-yo'qlov ham uning tilidan bayon etilgan.

*Avlodlarim, sizlardan ayrıldım,  
Oh, uydagı xonzodalarımdan ayrıldım.  
Sakkız o'g'limdan ayrıldım- ey,  
Xoqonim, elim xizmatida bo'ldım,*

*Dono hukmdorimga xizmat qildim,  
Do'stlarimga xizmat qildim,  
Bu men uchun sharafdir.  
Xoqonim uchun  
Bilga Chiqshan xoqoniga xizmat qildim.  
Ey xalqim,  
Yigitlik sharafim uchun  
Davlatimga xizmat qildim.  
Endi ajoyib do'stlarimdan ayrildim.  
Bu mangu toshimdir.  
Men alamli Chiksinman.*

Yig'iyo'qloving bu shaklida hayotdan ko'z yumgan kishining tarjimai holi bayon etiladi. Hayotdan, qarindoshurug'laridan, orzu-umidlaridan ajralish o'lgan shaxsning alamli iztiroblariga aylangan.

## TO'RTLIK

«Devonu lug'otit turk» orqali bizgacha yetib kelgan qadimgi she'riy asarlarning bandlanishi to'rt misralikdir. Turkiy adabiyotdagi to'rt misralik she'r va bandi to'rt misralik bo'lgan she'rlar o'rtasida o'ziga xos tafovut bor, albatta. Tugal mazmunni ifodalagan to'rt misrali she'rlar Sharq adabiyotida ruboiy deb ataladi. Devonda pand-nasihat ruhidagi quyidagi to'rtlik keltirilgan:

*Qarduni yenyu saqinmang,  
Muzni javohir deb bilmang,  
Tuzg'uni manyu sezinmang.  
Hadya oshni yeb qo'y mang.  
Bulmadiq nenga sevinmang,  
Behudaga sevinmang,*

Albatta, bu she'rni ruboiy deb bo'lmaydi. Chunki she'rning axloqiy-ta'limiy ruhi ruboiyni eslatsa-da, qofiya, vazn xususiyati bu janr talabiga javob bermaydi. Ruboiyning qofiyalanish tizimi a-a-b-a, a-a-a-a shaklida bo'ladi. Bu to'rtlikda qofiya a-a-a-b tarzida kelgan. Aruz vazni talabiga ko'ra ruboilar hazaj bahrining axram va axrab vaznida yozilishi kerak. Yuqoridagi she'r shakl jihatidan to'rt misra, ya'ni ruboiy shaklida bo'lsa-da, vazn jihatidan barmoq vaznida yozilgandir. Har bir misradagi o'juk (bo'g'in)lar soni 8 ta, turoqlanish tartibi  $3+2+3=8$  dir.

Demak, to'rtlik turkiy she'riyatda alohida mustaqil janr sifatida shakllangan. Shu jihatdan qaraganda, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostoni tarkibiga kiritilgan to'rt misralik she'rlarning ham ruboiy yoki to'rtlik deb atash muammosi mavjuddir. Chunki bu she'rlar ham ruboiy shaklida, to'rt misralik qilib yozilishidan qat'i nazar, ularning vazni hazaj bahrida emas, balki barmoq vaznida bitilgandir. Shu sababli ham «Qutadg'u bilig»dan o'rin olgan to'rt misralik she'rlarning qadimgi turkiy adabiyotdagi to'rtlik janrining namunalari, deb qarash haqiqatga yaqindir. Lekin e'tiborli tomoni shundaki, «Qutadg'u bilig»dagi to'rtliklarning qofiya tizimi ruboiynikiga mos keladi. Demak, bu shakl barmoqdagi to'rtlik hamda aruzdagagi ruboiy an'anasing birlashgan natijasi ham bo'lishi mumkin.

*Kishi yilqi birla adirti bilig,  
Bilig birla yangluq ko'turdi alig.  
Yuri yilqi bo'lsa bilig bil, uqush,  
Bilik birla so'zla, yo'ruq tut tilig.*

(Odamni vanashdaan bilim jarqida,  
Bilim birla inson qadrin tikladi.  
Bo 'lib qolma yilqi, bilim ol, hunar,  
Bilim so 'zla, tilni bilim saqladi).

## TUYUQ

Shaklan ko‘p ma’noli so‘zlar qadimgi turkiy til lug‘at boyligining alohida qismini tashkil etadi. Masalan, **yash** (ko‘z yoshi, ko‘kat, yangi, sof), **qaraqush** (qirg‘iy, Mushtariy yulduzi, tuya oyog‘ining tag atroflari), **yig‘ach** (yog‘och, bir farsax, daraxt), **til** (til, lug‘at, so‘z, josus), **ko‘g** (she‘r vazni, kuy, maqom, kulgili voqeа, boshvog‘i olinib, qo‘yib yuborilgan hayvon, echki va boshqa hayvonlarning juftlashadigan vaqtি, oyna yuzidagi dog‘, zang, xotinlar yuzidagi dog‘), **ko‘k** (osmon, ko‘k rangi, yashil daraxtlar) va boshqa so‘zlar shunday ko‘p ma’nolilik xususiyatlariga ega. «Devonu lug‘otit turk»da bunday so‘zlarning ko‘plab namunalari keltirilgan.

Ma’lumki, ko‘p ma’noli so‘zlar Sharq adabiyotida tajnis san’ati yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. Turkiy adabiyotda esa boshqa xalqlar adabiyotidan farqli o‘larоq, tuyuq janri shakllangan bo‘lib, uning asosini qosiyalarning tajnisli – shakl bir xil, ammo ma’nolarning har xilligi tashkil etadi. Alisher Navoiy «Mezon ul avzon» asarida tuyuqni bejizga turkiy xalqlar she‘riyatiga mansub janr deb hisoblamagan. «Devoni lug‘ot it-turk»da garchi tuyuq she‘rlarning namunasi keltirilmagan bo‘lsa-da, lug‘at tarkibida ko‘plab omonim so‘zlarning berilishi turkiy til tuyuq janri tug‘ilishi va shakllanishi uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lganidan dalolat beradi.

«Qutadg‘u bilig» dostonida keltirilgan to‘rtliklar tarkibida tuyuq namunalarining uchrashi ham bu janr turkiy adabiyotda avvaldan shakllanganligini ko‘rsatadi.

*Qayu erda bo 'lsa uqush birla o'g,  
Ani er, atag 'il, necha o 'gsa o'g.  
Uqush, o 'g, bilig kimda bo 'lsa tugal,  
Yavuz ersa kaz te, kichig ersa o'g.*

*(Agar kimda bo 'lsa aql, ilm, zehn,  
Uni madh etib sen, tugal er degin.  
Ziyod bo 'lsa kimda uquv, aql, bilim,  
Yomon va kichik bo 'lsa ham maqtagain).*

Bu tuyuqda o'g – aql, maqtamoq, ulug'lamoq ma'nolarida qo'llanilgan.

## ALQISH

**Alqish** (DLT., I., 123) – olqish, maqtash, duo qilmoq, madhiya aytmoq, tabriklamoq ma'nolarida qo'llaniladi. Devonda olqishga berilgan ta'rif nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, bizgacha yetib kelgan qadimgi she'riy asarlar orasida bu janrga mansublarini aniqlash mumkin.

1. **Tangriga maqtovlar (arabcha «hamd»).** Qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodida yaratilgan asarlar, shu jumladan, ayrim toshbitiklar Tangriga olqish va maqtovlar bilan boshlangan. Masalan, «Devonu lug'otit turk»da saqlangan bir qahramonlik dostonining muqaddimasida quyidagi olqish berilgan.

*Tangri ajun turutti,  
Chig 'ri izi tezgino 'r.  
Yulduzları yurkashib,  
Tun kun uza burkanur. II. 350*

*Tangri olamni yaratdi,  
Falak doim aylanur.  
Kun o 'rnini tun olur.  
Yulduzları shaylanur.*

*Yaratti yashil yash,  
Savurdi o'rung qash.  
Tizildi qara qush,  
Tun kun uza yurkanur.* I. 318

*Yashil ko 'kni yaratdi,  
Yulduzlar sochildi.  
Mezon yulduz tizildi,  
Tun kun uza qoplanur.*  
(A.A.)

*Izimni ukarman,  
Bilikni yugarman.  
Ko 'ngulni tugарman,  
Erdam uza turlunur.* II. 283

*Egamni maqtayman,  
Bilimni taxlayman.  
Ko 'ngilni jahdlayman,  
Hunar butun to 'planur.*

**2. Biror qahramon yoki hukmron nomiga olqishlar** (arabcha madhiya). Devonda shunday to'rtlik keltiriladi.

*Qachan ko 'rsa ani turk,  
Buzun ang 'a aning aydachi.  
Mungar tagir ulug 'luq,  
Munda qaru keslanur.* I. 335

*Qachon ko 'rsa uni turk,  
Shodlikka to 'lar to 'liq.  
Unda bordir ulug 'lik,  
Sira bundan ortiq yo 'q.*  
(A.A.)

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida Tangriga, Tavg'ach ulug' Bug'ra Qoraxonga, osmon jismlariga, bahorga bag'ishlangan olqishlarning yozma adabiyotdagi yetuk namunalari mavjud.

## QARG'AQ

**Qarg'aq** (arabcha mazammat) (DLT, II., 333) – qarg'ish, la 'nat ma 'nosini beradi. **Tengri qarg'ishi** aning uza – xudoning la 'nati unga bo 'lsin (I., 428); **Tengri qarg'ag'inga ilinma** – xudo qarg'ishiga yo 'liqma (II., 333). Demak, qarg'ish olqishga nisbatan zid ma 'no hosil qiluvchi tushunchadir. «Devonu lug'otit turk»dagi quyidagi she'riy parchalar qarg'aq namunasi hisoblanadi.

*Ko 'rklik tunug o 'zunga,  
Tatlig ashing azinqa.  
Tutg 'il qo 'nuq ag 'irlig  
Yazsun yaving buzunqa.* I. 80

*Ko 'rklik to 'ning o 'zingga,  
Totliq oshing o 'zgaga.  
Qo 'noqqa ko 'rgiz izzat,  
Yoysin sha 'ning uzoqqa.*

*Baqmas budun sovuq so 'z,  
Yudqi yuzi saranqa.  
Qazg 'an ulich tuzunluk,  
Qalsun chaving yarinqa.* II. 291

*Boqmas jahon sovuq so 'z,  
Sendek yuzsiz baxilga.  
Yoqimli bo 'l, xushxulq bo 'l,  
Qolsin noming ko 'p yilga.*

*Bermish sening bil  
Yalinchuq tapar qarinqa.  
Qalmish tavar azinning,  
Kirsqa qara o 'runqa.* II. 241

*Sengadir faqat bilgil,  
Neki kirsa qoringa.  
Qolgay mulking vorisi,  
Kirsang qora o 'ringa.*

Ushbu parchalarda mehmonga izzat-ikrom ko 'rsatmagan, aksincha sovuq so 'zi, baxilligi bilan uni ranjitgan shaxsga nisbatan la 'nat aytimoqda va unga o 'lim jazosi ravo ko 'rilyapti.

Olqish va qarg 'ish xalq og 'zaki ijodining qadimgi janrlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ham bu janrlarning o 'ziga xos shakl va xususiyatlari folklorshunoslikda alohida mavzu sifatida o 'rganiladi.

## QOSHUG'

**Qoshug'** (DLT., I., 357) – she'r, qasida, qo 'shiq janrlarining ma 'nosini umumlashtirgan. Devonda **qo 'shildi** (II., 156) so 'ziga izoh berilar ekan, **ir qo 'shildi** iborasi keltiriladi. Buning ma 'nosи she'r aytildi, qo 'shiq to 'qildi iboralariga to 'g 'ri keladi. Professor S. Mutallibov shu o 'rinda qoshug' haqida fikr yuritar ekan, «**Qoshug'** so 'zining asl ma 'nosи bir so 'zning boshqa so 'zlarga qo 'shilishi, ma 'lum bir vazn talab qilgan miqdordagi so 'zlar

qo'shilmasi – tizmasi» deb yozadi. Demak, she'riy yo'lda yozilgan asarlarga nisbatan qo'shiq atamasining qo'llanishi shu ta'rifga mos tushadi. Quyidagi to'rtlikda shunday ma'no, ya'ni qo'shiq atamasi she'riy usulda bitilgan xabar mazmunini ifodalagan.

*Turkan qatun qutinga,  
Tegur mendin qo'shig'.  
Ayg 'il sizning tabug 'chi,  
O'tnur yangi tabug'. I. 357*

*Turkan xotin qoshiga,  
Mendan yetkur she'r.  
Xizmatga xodimингиз,  
Rost, deb payom ber.*

Qadimgi turkiy adabiyotshunoslikda she'riy asarlarni qo'shiq deb nomlash natijasidirki, professor B.To'xliyev ham «O'zbek adabiyoti» (9-sinf) darsligida «Devonu lug'otit turk»dagi barcha she'riy parchalarni «Qadimgi qo'shiqlar» nomi bilan umumlashtiradi. Albatta, qadimgi adabiyotshunoslikdagi qarashlar nuqtai nazaridan bu ta'rif to'g'ridir. Shu bilan birga she'riy asarning kuyga solib ijro etilishi ham qadimgi turkiylarda qo'shiq nomi bilan yuritilgan. Devondagi quyidagi parchalar odamlarning quvnoq o'tirishlari, o'yin-kulgisi, kuy va she'rning vobastaligi ifodasi bo'lib, u ijro etishga, ya'ni qo'shiqqa ino'ljallanganligi aniqdir.

*Ko'glar qamug 'tuzuldi,  
Ivriq izish tizildi.  
Sensiz uzum uzaldi,  
Kelgil, amul o'ynalim.*

*III. 145*

*Ivriq bashi qazlayu,  
Sag'raq tulu ko'zlayu.  
Saqinch ko'zi kezlayu,  
Tun kun bila sevnalim.*

*I. 126*

*Kuylar ajab tuzildi,  
May idishi tizildi.  
Sensiz ko'nglim ezildi,  
Kel, shodlanib o'ynaylik.*

*May idishi g'oz bo'lsin,  
Tubi ko'z kabi to'lsin.  
G'amni ko'maylik, o'lsin.  
Tun-kun o'ynab kulaylik.*

*O'ttuz ichib qigralim,  
Yugor qubub sekralim.  
Arslanlayu ko 'kralim,  
Qachti saqinch sevnalim.*

I. 160

*Uch bor ichib quvnaylik,  
Sakrab-sakrab o'ynaylik.  
Arslon kabi uvlaylik,  
Ketdi qayg 'u yayraylik.*

Bundan tashqari, o'quv darsliklarimizda qadimgi xalqlarimizning mehnat va marosimlari bilan bog'langan ko'plab she'rlar keltirilganki, ular ham qadimgi qo'shiqlarning nodir namunasi hisoblanadi.

## YIR

**YIR** – kuy, maqom. Ko'pincha bu so'z she'rga nisbatan qo'llanadi. Bu so'z **ir** tarzida ham ta'laffuz qilinadi (III., 9). Bu atama boshqa sahifada «g'azal, maqom, kuy» (III., 159) shaklida izohlangan. Demak, yir qadimgi musiqaga ham tegishli atama bo'lib, lekin ko'proq she'rga nisbatan ishlataligan.

Yir adabiy atama sifatida ko'pgina turkiy xalqlarda hozirgacha ham saqlangan. Yir Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydigan so'z bo'lib, u ashula, qo'shiq, jir ma'nolarini ifodalaydi. **Jir** – yirning turkiylar «j»lashgan shevalariga xos o'zgargan shaklidir. Yirlamoq deyilganda ham jirlamoq – ashula qilmoq tushunilgan. Hozirgi davrda tatarlarda, umuman, xalq qo'shiqlari, qozoq va qoraqalpoqlarda esa syujet asosida qurilgan xalq she'riyati, ko'proq dostonlar jir deb ataladi.

Jir aytgan ijodkor **jirov** deb nomlangan. Qadimdan hozirgacha o'zbek, qozoq va qoraqalpoqlarda xalq dostonlari hamda tarixiy qo'shiqlarni kuylagan xalq shoirlari jirovlar deb yuritilgan. O'zbeklarda xalq dostonlarini kuylagan shoirlar asosan baxshi deyiladi. Lekin qoraqalpoqlarda jirov va baxshi farqlanadi. Xalq

qahramonlik dostonlari va tarixiy qo'shiqlarni qo'biz bilan kuylovchi shoir jirovdir. Romanik dostonlarni do'mbira yoki dutor bilan aytuvchilar baxshi hisoblanadi.

Demak, **yir – jir** turkiy adabiyotdag'i qadimiy janrlardan biri bo'lib, ularga xos xususiyat she'r va kuyning uzviy tarzda ijro etilishidadir.

## KO'G

Mahmud Koshg'ariy ko'g so'zini uch xil ma'noda qo'llaydi (DLT., III., 144-145 betlar).

1. **Ko'g** – she'rning vazni, o'lchovi. **Bu jir ne ko'g o'za o'l** – bu she'r qaysi vaznda.

2. **Ko'g** – kuy, maqom, ashulada maxsus qoidaga muvofiq baland-past qilish. **Er ko'glandi** – odam ovozini baland-past qilib, ma'lum maqomda ashula aytdi.

Devonda ko'g atamasiga berilgan ikki ta'rif mantiqan bir-biriga bog'lanadi. Birinchisi she'r, ikkinchisi musiqaga oiddir. Ikkinchi ta'rifda adabiy matn – qo'shiq qilib ijro etiladigan she'rning musiqaga moslashtirilishi, ijrochining musiqaga mos tovush chiqarishiga urg'u berilgan. Demak, ko'g – she'r va musiqa mujassamligidagi janr hisoblangan.

Ko'g she'rning vazni va o'lchovi deyilganda misralardagi tovushlarning musiqa ohangiga mos kelishi nazarda tutilgan. Birinchi ta'rifda «Bu she'r qaysi vaznda?» gapi keltirilgan. Qadimgi turkiy she'riyatda yetakchi vazn barmoq hisoblangan bo'lishi mumkin. Shu sababli bu tushunchani she'r qaysi vazn (barmoq, aruz, erkin, sarbast kabilar)da yozilganligini aniqlash ma'nosida emas, balki she'r musiqaning qaysi ohangi, o'lchoviga to'g'ri kelishini belgilash maqsadida anglash haqiqatga yaqindir. «Devonu lug'otit turk» noshiri S.Mutallibov Alisher Navoiy ijodida ham ko'g so'zi musiqaga tegishli atama sifatida uchrashini eslatadi.

- 1. Soqyo, may to'lakim arbada istar ko'ngil,  
Ey qalandar, chala boshla o'kurur ko'kta qo'buz.*
- 2. Dedim, taronayi jonbaxsh mutribo, sen xud,  
Firoq sori tuzub o'lturur ko'ki cholding.*

Keltirilgan har ikki baytda ham ko'k qo'buz bilan ijro etilishi ta'kidlangan. Baytlardagi tasvir mohiyatiga ko'ra, ko'k qo'buz vositasida ijro etiladigan, insonga jo'shqinlik, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydigan she'r va kuydir. «Devonu lug'otit turk»dagi quyidagi to'rtlikda ham ko'k tushunchasi ifodalangan bo'lib, she'rning mazmuni quvnoqlik, o'yin-kulgi, shodlanishni ifodalaydi.

Ko'glar qamug' tuzuldi,	Kuylar ajab tuzildi,
Ivriq izish tizildi.	May idishi tiziłdi.
Sensiz uzum uzaldi,	Sensiz ko'nglim ezildi,
Kelgil, amul o'ynalim. III. 145	Kel, shodlanib o'ynaylik.

### 3. Ko'g. Mahmud Koshg'ariy ko'gning uchinchi ma'nosini shunday izohlaydi:

«Bir xil kulgiki, har shahar xalqi orasida mashhur bo'lib, aytib yuriladi. **Bu yil bu ko'g keldi** – bu yil bu kulgi chiqdi, deyilishi kabi». Demak, ko'g quvnoq she'riyatni, sho'x musiqani ifodalagani kabi kulgili voqealar, hangomalar ham shu atama bilan yuritilgan.

«Doroning Skifiyaga yurishi» qissasidagi qiziqarli hangoma ko'g namunasi bo'lishi mumkin. Qissada shunday bayon etiladi: «Forsiyalar va skiflarning janggi paytida kulgili hodisalar ham yuz berib turdi. Doro suvoriyari eshak va xachirlarini ham urushga jalb etgan edi. Eshaklarning hangrashiyu, xachirlarning ko'rinishi skiflar Doroning qarorgohiga hujum qilishgan paytda forslarga qulaylik tug'dirsa, aksincha skiflarga xalaqit berdi. Skiflar

mamlakati sovuq bo‘lganligi sababli eshak va xachirlar bu yurtda bo‘lmas edi. Eshak nima ekanligini bilmagan skiflar ularning baqiroqli ovozlarini eshitib, esankirab qoldilar. Otlar esa eshakning ovozidan qo‘rqib, orqaga tislanishi ham aqlga sig‘mas hodisadir.

Otlar eshaklarning hangrashidan quloqlarini dikkaytirishdi. Ehtimol, ular avval bu xil hayvonning tovushini biror marta eshitishmagan yoki uni ko‘rishmagan edi. Shunday qilib, eshak va xachirlar hangomasi forsylarga jangda qisqa muddat yordam berdi».

## SAV

Bu adabiy atama turkiy xalqlar o‘rtasida bir necha janr va tushunchalarining nomini ifodalagan. «Devonu lug‘otit turk»da savga shunday izoh beriladi.

**Sav** – otalar so‘zi.

**Sav** – qissa. Qadimgi voqealardan xabar berish.

**Sav** – hikoya. Biror voqeani aytib berish.

**Sav** – risola, xat, kichik kitobcha.

**Sav** – so‘z, nutq.

**Sav** – ilgarigi xabarlar, yangiliklarni yetkazuvchi nabi – payg‘ambarga ham savchi deyiladi. Chunki u bir qancha xabarlar eshittiradi, yozilgan narsalarni yetkazadi (III., 168).

Savning **qissa** turi syujetli she’riy hamda nasriy asarlarga nisbatan qo‘llangan. Miloddan oldingi davrlarda yaratilgan «Ko‘ tai», «Olamning yaratilishi», «Doroning Skifiyaga yurishi», «Tomir qissasi», «Eorpata (erlardan kuchli ayol)lar» kabi asarlar, shuningdek, keyingi davr turkiy adabiyotning mahsuli bo‘lgan «O‘g‘uznama», «Qo‘rqit ota kitobi» kabi yirik hajmli dostonlar sav-qissaning namunalaridir. Shuningdek, «Devonu lug‘otit turk» kitobida turk xoqoni Shu haqidagi nasriy asar ham keltirilganki, u ham bu janrning namunasi bo‘la oladi.

Yuqorida sav **hikoya** janrining nomi sifatida keltiriladi. Devonning boshqa o‘rnida esa, hikoya **o‘tkunch** (I., 175) atamasi bilan ifodalangan. Qadimda og‘zaki adabiyot va uning janrlari yetakchi mavqe egallaganligi sababli devonda janrlar ta’rifiga ham shu nuqtai nazardan yondashilganligi ahamiyatlidir. Shu sababli ham sav-biror voqeani aytib berish yoki hikoya qilish hisoblansa, **o‘tkunch** – hikoya, **o‘tundi** – hikoya qildi mazmunini beradi. Sav hamda **o‘tkunch** hikoya qilish, bayon etish, xabar berish usuli hayotiy voqealarga, turmush haqiqatiga mos keladigan hodisalarga daxldordir. Chunki qadimgi turkiy adabiyotda **etuk** – ertak janri ham mavjuddir. Devondagi ta’rifga ko‘ra, etuk ham janr xususiyati bilan **o‘tkunch** va savga yaqin turadi. Mahmud Koshg‘ariy yozadi: «**Etuk** – hikoya, ertak. Biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llaniladi. Aslida bir narsani hikoya qilishdan olingan» (I., 98).

Demak, sav, **o‘tkunch**, **etuk** janrlaridagi yaqinlikka ko‘ra qadimgi turkiy adabiyotda skiflar hayoti bilan bog‘langan ko‘plab kichik hajmlı, biror voqeа aks etgan, jumladan, «**Targ‘itoy**», «**Sherak**», «**Malika Zarina**», «**Malika Sparetra**» kabi kichik syujetli asarlarni shu janrlar tarkibiga kiritish mumkin. Albatta, keyingi davr adabiyotida alohida janr sifatida shakllangan qissani sav, hikoyani **o‘tkunch**, ertakni etuk bilan teng ma’noda tushunib bo‘lmaydi. Qadimgi davrda badiiy ijoddagi adabiy shakllarni ma’lum bir atamalar bilan nomlashning o‘zi ham ijobiy hodisa bo‘lib, adabiyotshunoslik fani tug‘ilib kelayotganidan nishona edi.

Qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodida risola yoki xat (arabcha munshoot)ning asl nusxalari saqlanmagan, lekin xatlarning tarix kitoblari orqali ifodalangan yoki qissalar tarkibida keltirilgan shakllari mavjud. Masalan, «**Doroning Skifiyaga yurishi**», «**Tomir qissasi**» tarkibida turkiy

hukmdorlarning fors shohlariga yo'llagan xatlari keltiriladi. Demak, xatlarda ma'lum bir voqeа-hodisa bayon etilganligi sababli ular ham sav deb nomlanishiga asos bor. «Ta'birnomा» kitobcha holida topilgan asardir. U mustaqil mazmun, g'oya, kompozitsion qurilishga ega. Shu sababli «Ta'birnomा» sav namunasi hisoblanadi.

Adabiyot – so'z san'ati. Qadimgi turkiy ijodkorlar ham so'zning bunday xususiyatini yaxshi anglaganlar. Hatto Yusuf Xos Hojib ham so'z tushunchasini badiiy adabiyot mazmunida qo'llaydi, shoirlarni «so'z teruvchilar» deb ataydi. «Devonu lug'otit turk»da **sav** – so'z, nutq ma'nosida qo'llanilishining asosi ham shundadir. Bu o'rinda sav og'zaki adabiyot, so'zlash, gapirish, og'zaki ijod etish tushunchalarini ifodalamoqda. Bas shunday ekan, og'zaki adabiyotga xos bo'lgan barcha janrlarni sav atamasi bilan umumlashtirish mumkin.

## SAV – OTALAR SO'ZI

«Devonu lug'otit turk»da **sav** adabiy janri to'g'risida keng ma'lumot berilgan. Sav voqeiy tasvirga xos bir necha janrning umumlashma nomi, ya'ni hozirgi adabiyotshunoslikdagi epik tur atamasiga yaqin turadi. Devonda «Otalar so'zi» iborasi sav atamasi bilan ham ifodalangan. **«Savda shundag' kelir»** – otalar so'zi shundoq keladi (III., 168 bet). «Otalar so'zi» ham bilig ma'nosiga yaqin turadi, ammo bu ikki atamaning farq qiluvchi xususiyatlari ham mavjud. Biligda dono fikrlar va hikmatli so'zlarning qisqalik, lo'ndalik, ayni paytda ko'chma ma'nolik xususiyatlari mujassamlashadi. Biligning ijodkori zamondosh bilga bo'lishi ham mumkin. «Otalar so'zi»ning janr xususiyati o'tmishdan meros bo'lib qolgan pandasihat, axloq, odob ifodalangan asarlarni qamrab oldi. Quyidagi to'rtlikda ana shunday kishilar nazarda tutilgan.

*Erdi uza eranlar  
Erdam begi bilig tag':  
Aydi o'kush o'gutlar,  
Ko'nglim bo'lur angar, sag'.*  
I. 116

*Bordi qadim donolar,  
Tog'day yuksak bilmida.  
Eslab o'gitlarini  
Quvonch ortar dilimda.*

Qadimgi donolarning o'gitlari otalar so'zidir. Bu janrga xos namunalar Yusuf xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida ko'plab keltirilgan. Janr talabiga ko'ra, o'git va biligni qadimda kim aytganligi eslatiladi, so'ngra matni keltiriladi. Masalan quyidagi parcha shunday xususiyatga ega.

*Neku ter eshitgil ko'r elchi bo'gu  
Bo'gu so'zları bulsa ash-teg yegu.  
(Nima der eshitgil, dono el boshi,  
Dono so'zi go'yo egulik oshi).*

*Qilich birla aldi ko'r el alg 'uchi,  
Qalam birla basti ul el basg 'uchi.  
(Qilich birla oldi, ko'r el olg 'uchi,  
Qalam birla oldi el boshqaruvchi).*

*Qilich birla alsa bo'lur terk elig,  
Qalam bo'lmag 'incha basumas alig.  
(Qilich bilan olsa bo'lar el bosib,  
Qalamsiz qo'l bilan bo'lmas boshqarib).*

*Qilich birla alsa qayu el kuchun,  
Ani sursa bo'lmas o'kush yil o'chun.  
(Qilich so'ndirsa gar qaysi el kuchun,  
So'ndirib bo'lmaydi adovat o'chin).*

*Qalam birla tutsa qayu kend ulush,  
Tilak tegrur anda tuzuka ulush.  
(Qalam-la tutilsa qaysi el, qishloq,  
Orzu umidlarga yetishar uzoq).*

Ushbu ta’rifdan ayon bo‘ladiki, sav bir necha tushunchalar ifodasi bo‘lib, uning bosh ma’nosи xabar, voqeiylik, yangilikdir. Demak, biror voqeiylik aks etgan adabiy janr, kitob yoki og‘zaki nutq sav deb yuritiladi. Devonda sav nomi bilan atalgan adabiy tushunchalar qadimgi turkiy adabiyotda o‘z ildizlariga ega. Biz yuqorida sav – otalar so‘zining o‘ziga xos xususiyati hamda namunalari haqida fikr yuritdik. Yana qo‘srimcha tarzda shuni bayon etish mumkinki, «Qutadg‘u bilig»dagi shaklga ko‘ra, qadimgi ajdodlardan qolgan hikmatlar, pand-nasihatlar «neku der» – «nima der» kirish birikmasi bilan boshlanadi. Demak, «otalarimiz, ajdodlarimiz nima degan, eshit, ularning dono fikrlariga amal qil» tarzidagi bayondan so‘ng sav beriladi. «Qutadg‘u bilig»da keltirilgan savning bu shakli Alp Er To‘nga, Alp Er, To‘nga Alp Er, Jahongir kishi, Dono elbegi, Elchi boshi, Beklar begi, Botir kishi nomi bilan bog‘langandir. Demak, dostondagи savlar yuqorida nomlari zikr etilgan shaxslar aytgan dono fikrlar hisoblanadi.

## SAVLASHDI

Mahmud Koshg‘ariy qadimgi adabiy janrlar haqida ma’lumot berar ekan, **sav o‘zagiga lashdi** qo‘srimchasini qo‘sish orqali turkiy xalqlar og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan yana bir janr to‘g‘risida ma’lumot beradi. «**Savlashdi** – masal aytishdi. **Ul mening birla savlashdi** – ul men bilan masal aytishdi, u menga masal aytidi. Shuningdek, xabarlar, so‘zlar, hikoyalar aytishga ham bu so‘z qo‘llaniladi» (II., 250). Demak, sav – keyingi davr adabiyotida masal (arabcha) nomi bilan ifodalangan janr mazmunini ham qamrab oladi. Devonda berilgan bitik – maqollar orasida ixcham masallar ham uchraydi. Shu sababli ham bitiklar tarkibidagi sav – masallarni ajratib

o'rganish o'ziga xos ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Quyidagi bitikni sav-masal deb atash uchun masal janri talabi taqozo etadi.

*Ashich ayur: tubum altun,  
Qamich ayur: men qaydaman?  
(Qozon aytur: tubim oltun,  
Cho'mich aytur: men qaydaman?) (A.A.)*

Mahmud Koshg'ariy bu misralarni sharhlar ekan, u maqtanuvchi kishiga nisbatan qo'llanishini aytadi. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etiladigan bo'lsa, bu mo'jaz she'rda ikki obraz – Qozon va Cho'mich obrazi berilgan. Qozon maqtanchoq kishi, Cho'mich esa o'sha odamning kimligini yaxshi biladigan shaxsning timsolidir. Qozonning mehnatini cho'michsiz tasavvur etib bo'lmaydi, xalqimizda «Qozonda bo'lsa, cho'michga chiqadi» degan maqol ham mavjud. Sav – masalda Cho'mich obrazi ijobiliylik xususiyatiga ega. U haqiqat oldida ko'z yummaydi, jim o'tirmaydi. Maqtanchoq qozonga qarab, «men qaydaman?» deb murojaat etish orqali «men sen bilan bиргаман, бирга ишлайман, сиру асрорингни, башарангни яхши биламан, сен тилло эмассан» degan haqiqatni aytish darajasiga ko'tarilgan. Demak, sav-masalning g'oyasi maqtanchoqlikni qoralash, to'g'rilik, haqiqatni ulug'lashga qaratilgan.

*Ikki bug'ra ikashur,  
O'tra ko'gako'n yanchilur. II. 332  
(Ikki ayg'ir olishar,  
O'rtada so'na o'lar). (A.A.)*

Ushbu mitti she'rda ham sav-masal janri talabiga javob beradigan obraz va syujet mavjud. Ayg'ir-zo'ravonlik,

So‘na – ojizlik timsolidir. Bir-biriga qasdashgan hukmdorlar, bahodirlar urushadilar, jang qiladilar, ammo o‘rtada begunoh kishilar qirilib ketadi. Sav-masalning mantiqiy hukmi ojizlikni himoya qilish, zo‘ravonlikni qoralash g‘oyasi asosida qurilgan.

## **IRQ BITIGI**

**Irq** – bashorat qilish, aytib berish, topish. **Bitik** – yozuv, kitob. Demak, irq bitigi – bashorat qilish, kelajakni aytib berish haqidagi kitob, ya’ni folnomadir (qarang: Drevnetyurkskiy slovar, 676-bet). Qam irqladi – qomshomon bashorat qildi (DLT, III, 443-bet). Qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodida bu xil mavzudagi asarlar yaratilgan bo‘lib, ular «*Irq bitigi*», islom davri atamashunosligida esa «*Ta’birnomा*» deb yuritilgan. Bashoratgo‘ylik butun jahon xalqlari o‘rtasida mavjud an’anadir. Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan shaxslar osmon jismlari orqali inson taqdirini belgilashga harakat qilganlar. Kelajakda bo‘ladigan voqeahodisalarni oldindan aytib bergenlar.

Qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodida ikkita irq bitigi yaratilgani ma’lum. Ularning yaratilish davri VIII asrning oxiri va IX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Har ikki asar ham tush ko‘rish va shu orqali kelajakdagi voqealarni bayon etish asosida qurilgan. Irq bitigining birinchisi moniy yozuvida bitilgan va unda 13 ta hodisa hamda buyumning ta’biri berilgan. Professor N.Rahmonov bu asardagi ta’binci mazmuniga ko‘ra ikki guruhga bo‘ladi:

1. Inson faoliyati va ruhiy holatiga aloqador ta’bir. Bu guruhga uchrashmoq, jang qilmoq, kamaymoq, yuz o‘girmoq, sevinmoq, qarshi kelmoq, huzur-halovat topmoq, bola tarbiyalamoq kabi tush ta’birlari kiradi.

2. Biror jism, joy, tabiat hodisalarining tushdagi ta'biri. Bu guruhga **quyosh, tog‘, chuqur quduq, quyosh nuri, insonlarning uchrashuvi** ta'biri kiradi.

Moniy yozuvidagi «Irq bitigi»ni o‘zbek olimlaridan birinchi bo‘lib N.Rahmonov tarjima qilgan va bu asarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida bat afsil ma’lumot bergen. Kitobdagagi sol – tush ta'birlaridan biri shunday:

*Agar tog‘ degan tush kelsa,  
Ta'biri shunday bo‘lar:  
Tog‘liq yerdan tog‘ yuksalar, bo‘rtiq paydo bo‘lur,  
Tuproq ustida tuproq paydo bo‘lar,  
Bir tepalik o‘rtaga chiqar.  
Tirmashmoq istarsan, to‘g‘ridir,  
Oshmoq istarsan, yuksakdir.  
Teng – tushing orasida sarasi bo‘lasan,  
G‘avg‘odan, shovqindan uzoq tur.  
Ahmoq kimsalarga, janjalga yaqinlashma.  
Xastalik darddan xalos bo‘lasan.  
Mol-mulking ko‘payadi.  
Senga qarshi bo‘lgan kimsalar  
Qum ustiga quyi tortib,  
Ishi bitmagan insonlar kabi bo‘lur.  
Yeru ko‘kka sevinchingni soch,  
Ko‘p xayrli ishlar qil,  
Yana huzur-halovatga yetishasan.*

Ikkinci «Irq bitigi» O‘rxun-Enasoy yozuvlari guruhiga mansub asardir. U runiy yozuvda bitilgandir. Toshga emas, qog‘ozga yozilgan. Asar qo‘lyozmasini XIX asrning oxirida arxeolog A.Steyn Sharqiy Turkistonning Dunxuan degan joyidan topgan. Qo‘lyozmani V. Tomson ingliz, S.E.Malov esa rus tiliga tarjima qilgan.

«Irq bitigi» eramizning IX asri boshlarida moniy jamoasidagi Isig Sangun va Itechuq nomli ikki bolaga bag'ishlab yozilgan. Unda tush ko'rish va uning ta'biri bayon etiladi. «Irq bitigi»da turkiy xalqlarning o'ziga xos turmush tarzi, axloqiy munosabatlari aks etgan. Asarning asosiy g'oyasi yaxshilik va yomonlik munosabatlarini anglab yetishga qaratilgan. «Irq bitigi» 65 ta mustaqil she'rlardan tashkil topgan turkum bo'lib, ular bir g'oyaga asoslanadi.

«Irq bitigi»da nima yaxshiyu nima yomonligi haqidagi axloqiy qarashlar turkiylar uchun muqaddas sanalgan ilon, bo'ri, burgut, yo'lbars, ot va boshqa hayvonlar, jonivorlar orqali gavdalantiriladi. «Irq bitigi»ga ikki nuqtai nazardan – tush ta'biri va, eng qimmatlisi, badiiy asar sifatida yondashish kerak. Inson shunday tush ko'radi:

*Katta uy yondi,  
Uning tubigacha hech narsa qolmadi.  
Devorlarigacha qolmadi.*

Xo'sh, bu nimaning belgisi? Tushning ta'biri – yomonlik, inson boshiga keladigan musibat belgisi.

«Irq bitigi» qadimgi turkiy adabiyotdagi ilk ramziy-majoziy xususiyatli asardir. Unda inson hayotidagi yaxshilik va yomonlik ramziy obrazlar misolida beriladi. Bo'ri va qo'y haqidagi masallar jahon adabiyotida ko'p uchraydi. Qo'y – ojizlik, bo'ri – zo'ravonlik timsolidir. «Irq bitigi»dagi quyidagi she'r bunday xususiyatli masallarning qadimgi namunalaridan hisoblanadi:

*Boy kishining qo'ylari hurkib ketibdi,  
Ular bo'riga duch kelibdi.  
Bo'ri uning suti bilan og'izlanibdi*

(yoki bo 'rining og 'zi kasallanibdi, – ya 'ni og 'ribdi)  
Qo 'ylar salomat va tugal qolibdi, deyishdi,  
Bilib qo 'ying: bu – yaxshi.

Xalqimiz urush va halokatlardan cho'chib yashagan. Har qanday urushning bir bahonasi bor. Ikki zo'ravon kuchlarning to'qnashuvi katta falokatlarga asos bo'ladi. Ayiq va To'ng'iz to'qnashuvi ifodalangan she'rda shunday ma'no ifodalanadi:

*Ayiq bilan To'ng'iz  
Dovon ustida to'qnashibdi.  
Ayiqning qorni yorilibdi,  
To'ng'izning oziq (tish)i sinibdi, deyishdi.  
Bilib qo 'ying: bu – yomon.*

«Irq bitigi»da allegorik xususiyatga ega bo'lgan she'rlar anchagina. Shu sababli ham bu asarga tush ta'biri nuqtai nazaridan emas, ko'proq badiiy ijod namunasi sifatida yondashish kerak.

## TANGRIKLA

Tangri – Ollohdır. Qadimgi turkiy tilda **Tangri** so'ziga **k+la** qo'shimchasini qo'shish bilan yangi so'z yuzaga keldi. Tangri – ot, la harakatni bildiruvchi so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, Tangriga yolvor, Tangriga tavba qilma'nosini beradi. Turkiy xalqlar adabiyotida insonning Tangriga tavba-tazarrusi ifolangan she'rler va katta hajmli asarlar ham yaratilgan. Bunday mazmundagi asarlar **Tangrikla** – tavbanoma janri namunasi hisoblanadi.

Moniylik oqimidagi turkiy adabiyotda tavbanoma janri talabiga mos keladigan she'riy hamda nasriy asarlar uchraydi. Quyidagi she'r shunday xususiyatga ega:

*Tangri – porloq, kuchli, donoga yolvoramiz,  
O'tinarmiz Kun, Oy Tangriga.  
Yashin Tangri, no 'm quti  
Sodiq Moniy va payg 'ambarlarga  
Qut baxsh eting, ey Tangrim  
Vujudimizni saqlang!  
Ruhimizni ozod qiling.  
Qut iltijo etarmiz nurli Tangrilardan,  
Qo'rquvsiz turaylik,  
Sevinch-la yashaylik.*

Moniylik adabiyotining mahsuli hisoblangan «Xuastuanift» to'lig'icha tavbanoma matnlaridan tashkil topgan. Bu asar garchi moniylik oqimini targ'ib etishga qaratilgan bo'lsa-da, unda «Avesto» kitobidagi mifologik obrazlar ham keltirilgan. Demak, «Xuastuanift» va «Avesto» o'rtasida g'oyaviy yaqinliklar bor. Eng muhimi, tavbanomalarining namunalari «Avesto»da ham keltirilgan. Quyida keltirilgan parcha «Xuastuanift» («Moniylar tavbanomasi»)ning birinchi fasli hisoblanadi.

*Xo 'rmuzd xudo beshta xudo bilan birga hamma xudolarning pokligi uchun iblislarga qarshi kurashga otlanib, (osmondan) tushdi. Qilmishi yovuz iblis Shmmu bilan turli xil beshta iblis bilan jangga kirdi. Xudolar bilan iblislar, nur bilan zulmat vaqt kelib qo 'shilib ketdi. Xo 'rmuzd xudoning jangchilari – beshta xudo va bizning ruhimiz gunohga iblislar bilan jang qilib, boshidan yaralandi. Yana hamma iblislar, ulug 'lar ochofat, uyatsiz, suq iblis bilan birga bir yuz qirq ming iblisning yovuz ta 'limotiga qo 'shilib telba, ruhsiz bo 'lib qoldi. O 'zini paydo qilgan, yaratgan boqiy xudoning yerini unutdi, nur xudolaridan ayrildi. Undan keyin, ey xudoyim, yovuz qiliqli Shmmu borib, ongimizni, niyatimizni iblisning qilmishi tomon burdi. Telba, ruhsiz bo 'lib qolganimiz uchun, barcha yorug 'ruhlarning hammasiga, ularning ildiziga, pok,*

*yorug‘ Azrua xudoga qarshi gunoh qildik, xato qildik. Nur bilan zulmatning, xudolar bilan iblisning tub ildizi (Azruadir) dedik. Kimdir birovni tiriltirsa, xudoni tiriltirgan bo‘ladi. Kimdir birovni o‘ldirsa, xudoni o‘ldirgan bo‘ladi, dedik. Yaxshi va yomon narsalarning hammasini xudo yaratgan, dedik. Abadiy xudolarni u yaratgan, dedik. Xo‘rmuzd xudo bilan Shmnu – aka-ukadir, degan edik. Ey, xudoym! Gunoh bilan yurib, (bularni) bilmasdan, xudoga yolg‘on so‘zlab, yomon, uyatlari gap gapirgan edik. Kechirilmas gunoh qilgan edik. Ey xudoym! Endi men, Raymast shoh, tavba qilayapman, gunohdan ozod bo‘laylik, iltijo qilyapman. Gunohlarimni kechirgil!»*

Xullas, islomdan avvalgi asrlarda turkiy xalqlar og‘zaki ijodi boy adabiy janrlar vositasida shakllanganligini e’tirof etish uchun asoslar yetarli.

1. Adabiyotning barkamolligini, birinchidan, g‘oyaviybadiiy yetukligi belgilasa, ikkinchidan, shak-shubhasiz, janrlar ko‘lamining rang-barangligi ham asos bo‘la oladi. Bu masalada Mahmud Koshg‘ariyning ulug‘ xizmati shundaki, u «Devonu lug‘otit turk»da qadimgi adabiy janrlarning barchasiga to‘la-to‘kis namuna bera olmagan bo‘lsa-da, shu janrlarning adabiy jarayonda mavjudligini aniqlashga erishdi. Devonda izohini topgan janrlar qadimgi turkiy xalqlar xalq og‘zaki ijodida nasr va nazm o‘ziga xos shakllarda rivojlanganligi hamda salmoqli darajadagi asarlar yaratilganligidan dalolat beradi. Devonda keltirilgan janrlar asosan qadimgi turkiy adabiyotning og‘zaki ijodiga mansubdir. Adabiy janrlar haqidagi ma’lumotlar ikki jihat bilan ahamiyatlidir. Birinchidan, qadimgi turkiy adabiyotning janrlar ko‘لامи boyligini, ikkinchidan, adabiyotshunosligimiz tarixi ham juda qadimgi davrlardan boshlanganligini ko‘rsatadi.

2. Badiiy adabiyot yaratilar ekan, u ma’lum bir janr asosida yuzaga keladi va bu janr adabiyotshunoslikda aniq

bir nom bilan ataladi. Masalaga shu nuqtai nazardan yondashar ekanmiz, islomgacha bo‘lgan turkiy adabiyotda yaratilgan asarlarning ham o‘ziga xos janr xususiyati va nomlanishi mavjudligi, bu nomlanish turkiy til bilan ifodalanganini ko‘ramiz. Islomdan oldingi adabiy janr nomini islomdan keyingi arabcha nomlar bilan atash ilmiy-amaliy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Ma’lum bir davrda yuzaga kelgan atamani shu davr tushunchasiga bog‘lash ilm-fanda isbotlangan tajribadir.

3. Islomgacha bo‘lgan turkiy adabiyotni o‘rganish shundan dalolat beradiki, lirik, epik, liro-epik adabiy turlar rivojlangan va bu turlar bir necha janrlardan tarkib topgan. Adabiy janrlarning har biri turkiycha o‘z nomlanishiga ega bo‘lgan. Turkiy adabiyotshunoslikda adabiy turlarni ham nomlash tamoyillari mavjud. Sav hozirgi adabiy jarayondagi epik va liro-epik atamalar ma’nosini ifodalay oladi.

4. Turkiy adabiyotdagи janrlar nomlanishiga ularning shakl (to‘rtlik, tuyuq), mazmun (bilib, qarg‘aq), ifodaning ruhiy (sandrush, yig‘i-yo‘qlov) xususiyatlari asos bo‘lgan.

5. Turkiy janrlarning har biri alohida tadqiqot mavzusidir. Yuqorida janrlarning turkiycha nomlanishini aniqlash va ularning ayrim namunalarini keltirish bilan cheklanildi. Aslida turkiy adabiyotga xos janrlarning paydo bo‘lishi, shakllanish jarayonini maxsus tadqiqotlarda o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

## XULOSA

1. *Turkiy xalqlar adabiyoti o'zining qadimiy ildizlariga ega. Bu adabiyot uch ming yillik tarixni o'z ichiga oladi. Turkiy adabiyotning ilk davrini «Islomgacha bo'lgan adabiyot» nomi bilan o'rghanish joizdir. Adabiyotimizning qadimgi davri nodir yodgorliklarga ega bo'lib, ular asosan xalq og'zaki ijodi mahsulidir. Shu sababli ham bu asarlarning mualliflari aniq bir ijodkor yoki bir millat bo'lmay, ular barcha turkiy xalqlarning madaniy merosidir.*

2. *Turkiy xalqlar islomdan oldin totemizm, animizm, shomonizm, ko'k Tangri, buddaviylik, moniylik, zardushtiylik, xristianlik kabi dinlar va diniy aqidalarga amal qilishgan. Ko'k Tangri ularning muqaddas dinidir. Lekin Ko'k Tangri dinining muqaddas ta'limotini ifodalagan maxsus kitob tarixda bo'lgan yoki bo'lmanligi hozircha ma'lum emas. Turkiy xalqlar amal qilgan dinlar va ularning o'ziga xos xususiyati, avvalo, turkiy xalqlarning bizgacha yetib kelgan badiiy asarlarida, shuningdek, muqaddas kitoblar «Bibliya» va «Avesto»da o'z ifodasini topgan.*

3. *Qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodi o'zining rangbarang mavzu yo'nalishiga ega. Eng avvalo, turkiy urug'larning shakllanish, birlashish va turli bosqinchiliklarga qarshi kurashishi bu davr og'zaki adabiyotining yetakchi mavzusidir. Doston va eposlarda qahramonlik hamda bahodirlik ruhi ustun turadi.*

4. *Qadimgi turkiy adabiyot mavzu yo'nalishi, obrazlar tizimi, xususan, diniy e'tiqodlar ifodasi hamda qahramonlik ruhi bilan jahonda o'zining qadimiy adabiyotiga ega bo'lgan xalqlar madaniyati bilan mushtaraklik xususiyatlari mavjud.* Turkiy adabiyotni antik yunon, shumer va boshqa xalqlar adabiyotlari bilan qiyosiy o'rghanish shunday xulosaga kelish imkonini beradi. «Alpomish» va «Odisseyya» dostonlaridagi qahramonlar taqdiri, syujet voqealar o'rtasida yaqinliklar bor. Qadimgi yunon tarixchilari hamda adiblari turkiylarning ajdodlari hayotiga qiziqishi, ularning turmush tarzi to'g'risida adabiy-tarixiy asarlar yaratishi bunday yaqinlikning yana bir ko'rinishidir. Gerodotning «Tarix» kitobida turkiy qavmlarning yetakchisi skiflar va ularning qavmiga mansub qabilalarning og'zaki ijodiga oid rang-barang janrdagi kichik hamda katta asarlarning keltirilishi adabiyotimiz tarixi miloddan oldingi asrlardan boshlanishidan dalolat beradi.

5. Turkiy xalqlarning qadimgi bobolari skif, kimmer, sak, massaget kabi nomlar bilan shuhrat qozongan. Gerodot «Tarix»ida bu qavmlarga mansub eposlarning siqiq shakllari, ya ni mazmuni yetib kelgan, xolos. Skif-kimmerlarning bahodirligi, turli xalqlar bilan olib borgan janglari tarixiy hodisadir. Bu voqealar asrlar davomida o'zining badiiy ifodasini ham topa bordi. Turkiy va fors-tojik adabiyotida Turon (Skifiya) va Eron (Midiya) mavzusining yuzaga kelishiga shu tarixiy voqealari-hodisalar asos bo'lgan. Turkiy va forsiy adabiyotdagagi Alp Er To'nga hamda Afrosiyob turkumiga mansub rivoyat, afsona, qissa va dostonlar shunday mazmunga ega.

6. *Qadimgi turkiy xalqlar yaratgan adabiy asarlarning syujeti miloddan avvalgi asrlarda turkiy xalqlar yashagan, harbiy yurishlarda bo'lgan hududlarda endilikda istiqomat qila, utgan xalqlarning adabiyotiga ham singib ketgan.* Promet y haqidagi asotir va afsonalar, nemislarning «Nehulengular haqida qo'shiq», gruzinlarning «Amiran»,

«Yo'lbars terisini yopingan pahlavon», fors va arab tillarida yaratilgan tarixiy va badiiy asarlarda Afrosiyob haqida mavjud adabiy syujetlar, rus-slavyan xalqlari o'rtaasidagi Alber (Alp Er) nomiga mansub afsonalar shunday xususiyatga ega.

7. O'rxun va Enasoy toshbitiklarining topilishi turkiy adabiyot tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu guruhga mansub asarlar marsiya yoki madhiya nomi bilan e'tirof e'ilсада, ularning har biri tarixiy-badiiy asarlardir. Qabr toshlariga bitilgan «To'nyuquq», «Kul tegin», «Moyu chur» yodnomalarini janr xususiyatlariga ko'ra doston, doston-memuar deb hisoblash mumkin. O'rxun-Enasoy bitiklar: runiy yozuvda yozilgan. Shu yozuvga mansub toshbitikning Olmaota yaqinidan topilishi turkiy yozma adabiyotning tarixi 2500-yildan oldinroq paydo bo'lganligiga ishonch, ayni paytda bu yozuvda bitilgan badiiy asarlar topilishiga h... umid uyg'otadi.

8. Turkiy xalqlar hayotiga islomning kirib kelishi uning adabiyoti tarixidagi an'analar va e'tiqodlarni inkor etmaydi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qadimgi turkiy xalqlar ijodiga mansub janrlarning yuksak namunalari berilgan. Devonda Alp Er To'nga (Afrosiyob) sharafiga bitilgan she'riy, turk xoqoni Shu haqidagi nasriy doston parchalarining saqlanishi adabiyotimiz tarixida yirik hajmli asarlar yaratilganini tasdiqlaydi.

9. Islom dini joriylashganidan so'ng yaratilgan asarlarda, jumladan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida turkiy xalqlarning o'ziga xos qadimiy belgilari va e'tiqodlari ifodasini topdi. Asar qahramonlarining nomlanishi, osmon jismalariga sig'inish yoki Alp Er To'nga davridan qolgan hikmatlarga qayta-qayta murojaat etilishi buning vorqin dalilidir.

10. Islomgacha bo'lgan turkiy xalqlar adabiyoti o'z janr rang-barangligiga ega. Bu davr adabiyotining ko'lami,

*salmoqdorligi, g'oyaviy-badiiy qimmatini belgilash, ko'p jihatdan uning janrlarini aniqlashga bog'liqdir. Lekin hozirgacha adabiyotshunosligimizda qadimgi davr adabiyoti janrlarini islom adabiyotida mayjud janrlar bilan, ya'ni keyingi davr adabiyotshunosligi atamalari bilan nomlash tamoyillari mavjudki, u maqsadga muvofiq emas. «Devonu lug 'otit turk»dagi adabiyotshunoslikka oid qarashlar, shuningdek, adabiy parchalar va qadimgi turkiy til bilan nomlangan atamalar islomgacha bo'lgan adabiyotda yigirmaga yaqin janr mayjud bo'lgan, degan xulosani beradi.*

**11. Turkiy xalqlar adabiyotining qadimiyligi davri «O'zbek adabiyoti tarixi»ning bosh qismi hisoblanadi. Adabiyotimizning bu davriga xos g'oya va badiiylikni, turli janrlarda yaratilgan asarlarning obrazlar tizimi, qahramonlarning orzu-intilishi, maqsad-e'tiqodlari, to'plangan adabiy tajribalarni o'rghanmasdan turib, keyingi asrlarda yaratilgan adabiyotning ham badiiy qiyofasini yorqin tasavvur etish mumkin emas.**

# **QO'LLANMADAGI ADABIY MATNLARGA AYRIM IZOHLAR**

## **Birinchi qism**

1. Ushbu qismga kiritilgan «Targ‘itoy», «Anoxors va Skilning jazolanishi» afsonalarini Gerodotning «Tarix» («История в девяти книгах». – Л.: Наука, 1972) kitobidan tarjima qildik. «Skifning tug‘ilishi» afsonasi F.Boynazarovning «O‘rta Osiyoning antik davri» (T.: «O‘qituvchi», 1991) darsligidan olindi.

2. «Tabiatdagi ulkan narsa», «Qo‘rqmas sigir» afsonalarini rus etnografi G.N. Potaninning «Казак-киргизская и алтайская приданья, легенды и сказки» (Петроград, 1917) kitobidan tarjima qildik.

3. «Odamning yaratilishi», «To‘fon» (turkiycha varianti) N. Rahmonov va H.Boltaboyevlar tomonidan tuzilgan «O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari». 1-jild (T.: Fan, 2003) kitobidan olindi.

4. Turk olimi A. Qabqolining «Turk adabiyoti» (İstanbul, 1994) kitobidan olingan she’riy parchalar (moniylik haqidagi she’rlar, Aprunchur Tegin she’ri, «Tong Tangrisi»)ni biz tarjima qildik.

5. «Avesto»dan olingan she’riy parchalarni Dushanbeda nashr etilgan «Избранные гимны» («Adib», 1990) kitobidan olib tarjima qildik.

6. «Moniylar tavbanomasi»ni S.Ye.Malovning «Памятники древнетюрской письменности» (М., Л.: 1951) kitobida keltirilgan qadimgi turkiy matndan tabdil etdik.

## **Ikkinchchi qism**

1. Ushbu qismda berilgan «Ko‘r qullar», «Doroning Skifiyaga yurishi», «Shohga bo‘ysunmagan kimmerlar», «Skiflar «ov»i», «Massagetlar va ularning malikasi Tomir haqida qissa» kabi asarlarni Gerodotning «Tarix» kitobidan tarjima qilib oldik.

2. «Alp Er To‘nga» dostonining nasriy matni turk olimi R.O‘zdekning «Turklerin altın kitabı». 1 jild (İstanbul, 1990)da berilgan. Matnni o‘zbek tiliga samarqandlik olim Poshali Usimon o‘g‘li tarjima qildi.

3. «Alp Er To‘nga» marsiyasi akademik A.Qayumovning «Devonu lug‘otit turk»dagi she’rlarning hozirgi o‘zbek tiliga tabdili asosida tayyorlandi. Qarang: A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. – T.: 1972.

4. «Malika Sparetra», «Malika Zarina», «Zarina qissasi» I.V. Pyankovning «Средняя Азия в известиях античного историка Ктезия» kitobi asosida tayyorlandi. (Dushanbe, «Donish», 1975).

5. «Zariadr va Odatida», «Sherak qissasi» afsonalari «O‘zbek adabiyoti tarixi», besh tomlik, birinchi tom (T.: «Fan», 1978) kitobidagi matndan olindi.

### **Uchinchi qism**

1. «O‘g‘uznama» dostonini professor N.Rahmonov qadimgi uyg‘ur tilidan hozirgi o‘zbek tiliga tarjima qilgan. (Qarang: «Sharq yulduzi», 1989, 4-son). Doston matni ushbu manbadan olindi.

2. «Turk xoqoni Shu va Iskandar dostoni»ni Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» kitobida saqlangan adabiy syujetlar asosida tikladik.

3. «Erguna kun» afsonasi N.Rahmonov va H.Boltaboyev tomonidan tuzilgan «O‘zbek mumtoz adabiyoti namunaları» (I jild)dan olindi.

4. «Qo‘rqt ota kitobi» akademik V.B.Bartold tomonidan rus tiliga tarjima qilingan (Qarang: «Книга моего деда Коркута». Огузский героический эпос. — М., Л.: 1962). «Boybo‘rabeq o‘g‘li Bamsi Bayrak haqida qo‘sinq»ni ushbu kitobdan tarjima qildik.

5. «Olamning yaratilishi», «Ku tay» afsonalari N.Rahmonovning «Ruhiyatdagi nur» (T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002) kitobidan olindi.

### **To‘rtinchi qism**

1. «Bilgamish» dostonidan olingen she’riy parchalarni «Эпос о Гилгамише» (О всём выдавшим) kitobi (M., L.: 1961)dagи matndan tarjima qildik.

2. «Eorpat (erlardan kuchli)lar qissasi»ni Gerodotning «Tarix» kitobidan tarjima qilib oldik.

3. Qozoq etnografi va tarixchisi Ch. Valixonov, rus olimi P.V. Ostroumovlarning Tepako'zlar haqida yozib olgan afsonalari «Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада» (М.: Наука, 1974) kitobida keltirilgan. Biz matnni ushbu kitobdan tarjima qildik.

4. Fors-tojik va arab tilida bitilgan asarlarda Afrosiyob obrazi yoritilgan rivoyat, qissa va she'rlar ko'plab uchraydi. Keltirilgan matnlarning manbalari sahifalarda ko'rsatilgan. «Tarixi Siiston»dan olingan she'riy parchani tojik hamda X. Ko'ro'g'li tiklagan «Afrosiyob qal'asi va o'lim ma'budi» afsonasini rus tilidan tarjima qildik.

5. «Amiranning tug'ilishi» afsonasi rus olimi G.N.Potaninining «Восточные мотивы в средневековом европейском эпосе» (М.: 1899) kitobidan tarjima qilib olindi.

6. «Atli haqida qo'shiq» larning rus tilidagi matnlari «Biblioteka vsemirnoy literatury» turkumida bositgan kitoblarning 9-tomi (М.: «Художественная литература», 1975)da berilgan. Atli haqidagi she'riy parchani ushbu kitobdan tarjima qildik.

7. «Oltun yoruq» asaridan keltirilgan «Tegin va bars afsonasi»ni S.Ye. Malovning «Памятники древнетюркской письменности» (М., Л.: 1951) kitobida berilgan qadimgi turkcha matndan hozirgi o'zbekchaga tabdil qildik.

### Beshinchi qism

Ushbu qismda keltirilgan «To'nyuquq bitigi», «Kul tegin bitigidagi kichik va katta yozuv», «Bilga xoqon bitigi», «O'ngin bitigi»ning tarjimalari akademik A.Qayumovning «Qadimiyat obidalari» kitobidan olindi. Boshqa toshbitiklarning tarjimalari «Qadimiy hikmatlar» (T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987) kitobi asosida tayyorlandi.

### Oltinchi qism

1. Ushbu qismda keltirilgan adabiy matnlarning manbasi sahifa yonida ko'rsatilgan. «Devonu lug'otit turk» kitobidan olingan she'riy parchalarning o'zbekcha tabdili akademik A.Qayumovning

qalamiga mansub. Ushbu qo'llanma muallifi tabdiliga tegishli satrlar yoniga A.A. belgisi qo'yildi.

2. «Xuastuanist»dan olingen tavbanoma, shu janrga mansub she'r, shuningdek, moniy yozuvidagi «Irq bitigi»dan keltirilgan she'riy parcha N.Rahmonov hamda H.Boltaboyevlar tuzgan «O'zbek mumtoz adabiyoti naimunalari» (I jild) kitobidan olindi.

3. O'rxun-Enasoy yozuviga mansub «Irq bitigi»dagi she'rlarni tahlil etishda S.E.Malovning «Памятники древнетюркской письменности» hamda «Qadimgi hikmatlar» kitoblaridagi matnlardan foydalanildi.

### Siyosiy adabiyotlar

**Karimov I.** Istiqlol va ma'naviyat. – T.: «O'zbekiston», 1994, 160-bet.

Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: «O'zbekiston», 2000, 50-bet.

**Karimov I.** Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: «Sharq» nashriyoti matbaa-konserni bosh tahririysi. 1998, 32-bet.

**Karimov I.** Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. Asarlar 7 tom. – T.: «O'zbekiston», 1999, 140-bet.

### Adabiy manbalar

**Авеста.** Избранные гимны. (пер. с авест. коммент. проф. И.М. Стеблин – Каменского; предисл. Пров. В.А. Левшица). – Душанбе: Адид, 1990, стр.176.

**Avesto.** A.Mahkam tarjiması. «San'at», 1991, № 3- 12.

**Alpomish.** O'zbek xalq dostonlari. (Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi M.Zarifov). – T.: «O'zbekiston», 1992, 189-bet.

**Alpomish.** O'zbek xalq dostonlari. (Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi M.Zarifov) – T.: «O'zbekiston», 1993, 224-bet.

Библиотека всемирной литературы. Серия первая. Том 9. Беовулф. Старшая эдда. Песнь о Нibelунгах. – Изд-во. «Худож. литературы», 1975, стр.752 .

**Гомер.** Илиада. – Пер. с древнгреч. Я. Гнедича; Послесловие В. Ярхо: Примеч. С. Ошерова. – М.: Моск. рабочий, 1982, стр.448.

**Гомер.** Одиссея. – (Пер. В.А. Жуковского). – М. Сов. Россия, 1983, стр.320.

Древние Российские стихотворения, собранные К. Даниловым.- Свердловский: Средне – Уральское кн. изд –во, 1980, стр.320.

Книга моего деда Коркута. Огузский героический эпос. – Перевод академика В. В. Бартольда. Издание подготовили В.М.Жирмунский, А.Н.Кононов. – М., – Л.: Изд. АН 1962, стр.300.

**Koshg'ariy M.** Turkiy so'zlar devoni. «Devonu lug'otit turk». Uch tomlik. I tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. – T.: O'zbekiston FA nashriyoti, 1960, 500-bet.

**Koshg'ariy M.** Turkiy so'zlar devoni. «Devonu lug'otit turk». II tom. – T.: O'zbekiston FA nashriyoti, 1961, 428-bet.

**Koshg'ariy M.** Turkiy so'zlar devoni. «Devonu lug'otit turk». III tom. – T.: O'zbekiston FA nashriyoti, 1963, 463-bet.

**Маадай – кара.** Алтайский героический эпос. – Сказатель А.Калкин. – Горно – Алтайское отделение Алтайского книжного издательства, 1979, стр.272.

**Manas.** Qirg'iz xalq eposi. 1-kitob. Mirtemir tarjimasi. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1964, 424-bet. 19.

**Мифологический словарь.** Гл. ред. Е. М. Мелитинский. – М.: Сов. энцикл. 1991, стр.736.

**Мифы народов мира: Энциклопедия.** В 2-х. т. второе издание .Т. 1. А. К. (Гл. ред. С. А. Токеров. – М.: Сов. Энциклопедия, 1987. стр.671.)

**Мифы народов мира: Энциклопедия.** В 2-х. т. второе издание. Т. 2. К.А. (Гл. ред. С. А. Токеров). – М.: Сов. Энциклопедия, 1988., стр.719.)

**Rustaveli Sh.** Yo'lbars terisini yopingan pahlavon. – Mirtemir va M. Shayxzoda tarjimasi. – T.: O'zbekiston FA nashriyoti, 1959, 270-bet.

**Слово о полку Игореве.** – Сборник. Сост. А. Е. Тархов. Вступит. Статья Д. С. Лихачева. М.: Мол. Гвардия, 1981, стр.207.

**Ellada qahramonlari.** Ikkinci nashri. Tarj. M. Mirzoidov. – T.: «Yosh gvardiya», 1976, 144-bet.

**Esxil. Zanjirband Prometey.** – A. Qosimov tarjimasi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978, 94-bet.

**Эпос о Гильгамише. (О всём видавшем).** – Перевод с аккадского И. М. Дьяконов. М., Л.: изд. АН, 1961, стр.215.

**Yusuf Xos Hojib.** Qutadg'u bilig (Saodatga yo'llovchi bilim). Transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi filol. fan. nom. K. Karimov. 2-nashri. – T.: «Fan», 1972, 964-bet.

**Firdavsiy A. Shohnoma.** Forsiydan Sh. Shomuhamedov tarjimasi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975, 1- kitob, 736-bet.

**Firdavsiy A. Shohnoma.** Forsiydan Nazarmat, Hamid G'ulom, Jumaniyoz Jabborov tarjimasi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976, 616-bet.

**Fitrat.** Eng eski turk adabiyotining namunalari. –Toshkent, Samarqand: 1927.

**O'zbek adabiyoti namunalari.** I jild. – Tuzgan Fitrat. – Toshkent, Samarqand: 1928, 318-bet.

O'g'uznama. – O'zbek tiliga ag'daruvchi. N.Rahmonov. – Sharq yulduzi, 1989, № 4, 165-171-bet.

O'zdek R. Turklerin altın kitabı. Jild I. – Terjuman tesislerinde dizilip basılmıştır. – İstanbul, 1990, 128-bet.

Qadimiy hikmatlar. – Tuzuvchi N. Rahmonov. Mas'ul muharrir: A.Qayumov. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 432-bet.

Qo'rquq ota kitobi. – «Yoshlik», 1988, № 5, 6, 7, 8.

Homer. Iliada. Ruschadan Q.Mirmuhammedov tarjimasi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988, 456-bet.

**Щербак А.М.** Uguz-name. Muxabbat – name. – Памятники древнеуйгурской и древнеузбекской письменности. – М.: 1959, стр.171.

**Qayumov A.** Qadimiy obidalar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972, 184-bet.

### Tarixiy manbalar

Abushiy Hasan A to. Turkiy qavmlar tarixi. – T.: «Cho'lpon», 1998, 240-bet.

**Bahodirxon A.** Shajarai turk. Mas'ul muharrir va so'z boshi muallifi: B.A.Ahmedov. – T.: «Cho'lpon», 1990, 192-bet.

**Beruniy A.R.** Tanlangan asarlar. T.P. – T.: «Fan», 1965, 538-bet.

**Beruniy A.R.** Tanlangan asarlar. T.U. Birinchi kitob. – T.: «Fan», 1973, 592-bet.

**Бируни А.Р.** Избранные произведения. Т. I. – Т.: изд. АН 1957, стр.488.

**Бичурин Н.Я. (Ианкинф).** Собрание сведений с народах, обитавших в Средней Азии в древнее времена. Т. I. М., Л.: изд – во АН, 1950, 384 с.

**Бичурин Н.Я.. (Ианкинф).** Юқоридаги номли асар. Т.П. – М., Л.: Izd. vo. AN, 1953, 328-б.

**Геродот.** История в девяти книгах. – Л.: изд-во «Наука» Ленинградское отделение, 1972, стр.600.

**Древнетюркский словарь,** Л.: Наука, Ленинград. отд. 1969, стр.676.

**Джувойни Мунтаджаб ад-дин Бади Атабек.** Ступени совершенствования катибоб (Атабат ал- катиба). –Перевод с персидского, введение и комментарий Г. М. Курпалидиса. – М.: «Наука», 1985, стр.159.

- Bibliya. Bibliyani tarjiima qilish instituti. – Stokgolm, 1992.
- Navoiy A.** Tarixi muluki Ajam. Asarlar. O'n besh tomlik. O'n to'rtinchchi tom. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1968, 272-bet.
- Narshaxiy Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far.** Buxoro tarixi. – T.: «Fan», 1966, 120-bet.
- Наршахи Абу Бакр Мұхаммад ибн Жаъфар.** Таърихи Бухоро, Душанбе: Дониш, 1979, стр.118.
- Потанин Г. Н.** Восточные мотивы в средневековом европейском эпосе. – М.: Изд-е географич. отд. имп. общества любителей естествознания, антропологии и этнографии. – М.: 1899, стр.893.
- Потанин Г.Н.** Казак-киргизская и алтайская придания, легенды и сказки, Петроград, 1917, стр.198.
- Пьянков И. В.** Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. (текст, перевод, примеч.) – Душанбе: «Дониш», 1975, стр.191.
- Rabg'uziy N. B.** Qissai Rabg'uziy: Mas'ul muharrir: D. A. Asilov. So'z boshi E. Fozilovniki. K. 1. T.: «Yozuvchi», 1990, 240-bet.
- Рашид-ад-дин.** Сборник летописей. Том. 1. Книга первая. Изд-во АН, М.: 1952, стр.222.
- Соловьев С.М.** История России с древнейших времен. В пятнадцати книгах. Книга 1 (тома 1-2). Изд-во социално-экономической литературы, 1959, стр.811.
- Temurnoma.** Amir Temur Ko'ragoniy jangnomasi: (So'z boshi muallifi va lug'atlar asosida nashrga tayyorlovchi P. Ravshanov). – T.: «Cho'lpon», 1990, 352-bet.
- Temur tuzuklari.** Forschadan A. Sog'uniy va X. Karomatov tarjimasi. B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 144-bet.
- Turon Usmon.** Turkiy xalqlar maslikurasi. Risola (tarjimon U.Abduvahob). – T.: «Cho'lpon», 1995, 104-bet.
- Ulug'bek M.** To'rt ulus tarixi. (B. Ahmedovning kirish so'zi, izohlari va tahririda. Fors tilidan B. Ahmedov va boshq. tarj.) – T.: «Cho'lpon», 1993, 352-bet.
- Фиёсиддин Мұхаммад.** Фиёс – ул – лугот. Аз 3 жилд. Жилд 1. Душанбе: Ирфон, 1987, стр.480.

- Abdurahmonov G'.** Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T.: «O'qituvchi», 1982, 168-bet.
- Агрба В. Б.** Абхазская поэзия и устное народное творчество. – Тбилиси. Изд-во «Муецниереба», 1971, стр.160.
- Аджи Мурад.** Полын половуецкого поля. М.: ТОО «Пик – контекст», 1994, стр.352.
- Alimuhamedov A.** Antik dunyo tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1969, 400-bet.
- Ассириология и Египтология. Сборник статей. Изд-во. Ленинградского университета. 1964, стр.128.
- Баскаков Н. А.** Тюркская лексика в «Слове о полку Игореве». - Отв. Ред. А. Н. Кононова. – М.: «Наука», 1985, стр.207.
- Баскаков Н.А.** Русские фамилии тюркского происхождения. – М.: «Наука», 1979, стр.279.
- Boynazarov F.** O'rta Osiyorning antik davri. Dorilfunun va dorilmuallimlar uchun darslik. – T.: «O'qituvchi», 1991, 472-bet.
- Брагинский И. С.** Из истории персидской и таджикской литературы. Избр. работы. – М.: «Наука», 1972, стр.524.
- Valixo'jayev B.** O'zbek epik poeziyasi tarixidan. – T.: «Fan», 1974, 151-bet.
- Valixo'jayev B.** Alisher Navoiy she'riyati. – Samarqand, 2001, 100-bet.
- Гордезиани Р. В.** Проблемы Гомерского эпоса. – Тбилиси.: изд-во. Тбил. Ун-та, 1973, стр.394.
- Гринцер П. А.** Древнеиндийский эпос. – Генезис и типология . – М.: «Наука», 1974, стр.419.
- Дьяконов. И.М.** История Мидии.: От древнейших времён до конца IV века до н.о. – М., Л.: Изд-во АН, 1956, стр.487.
- Jabborov I., Jabborov S.** Jahon dinlari tarixi. – T.: «O'zbekiston», 2002, 224-bet.
- Жирмунский В. М.** Сказание об Алпомише и богатырская сказка. – М.: Изд-во вост. Лит. – 1960, стр.385.
- Жирмунский В. М.** Огузский героический эпос и «Книга коркута». – Приложения «Книга моего деда Коркута – М., Л.: Изд-во АН, 1962, стр.131-258.
- Жуковская Н. Л.** Бурятская мифология и её монголские параллели. В кн.: Символика культов и ритуалов народов зарубежной Азии. – М.: «Наука», 1980.

**Jo‘rayev M.** Govomard obrazining o‘zbek folkloridagi talqinlari.  
«O‘zbek tili va adabiyoti», 2001, 5-son, 48-55-betlar.

История греческой литературы. Под. Ред. С. И. Соболевского и др. Т. 1-2. – М.: 1960, стр.439.

**Kabaklı A.** Turk edebiyati. II jild, Istanbul, 1994, 904-bet.

**Корогли X.** Алп Эр Тонга и Афрасияб по Юсуфу Баласогуни, Махмуд Кошгари и других автором. «Советская тюркология», 1970, № 4. стр. 108-115.

**Корогли X.** Огузский эпос (сравнительный анализ). – В кн.: Типология народного эпоса. – М.: «Наука», 1975, стр. 64-81.

**Корогли X.** Из Восточно – западных фольклорных связей. Тепяглаз (Депегез) и Полифем. – В сб.: Типология и взаимосвязи литературы Востока и Запада. М.: 1974, стр.275-288.

**Кляшторный С. Г.** Древнетюркский рунические памятники как источник по истории Средней Азии.: – М.: «Наука», 1964, стр.215.

**Костюхин Е. А.** Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции. – М.: Главная редакция восточной литературы изд-во «Наука», 1972, стр.190.

**Лихачев Д.С.** Слово о походе Игоревом. – В кн.: «Слово о польке Игореве». – М.: Мол. Гвардия, 1981, стр.207.

**Лосов А.В.** Гомер. – М.: Учпедгиз. 1960, стр.350.

**Mallayev N.** O‘zbek adabiyoti tarixi. – Т.: «O‘qituvchi», 1976, 664-bet.

**Малов. С.Е.** Памятники древнетюркской письменности. – М., Л.: изд-во АН, 1951, стр.452.

**Меликишвили Г.А.** К истории древней Грузии. – Тбилиси: 1959, стр.507.

**Мелетинский Е.М.** Поэтика мифа. – М.: «Наука», 1976, стр.407.

**Менгес К.Г.** Восточные элементы в «Слове о полку Игореве». – Перевод с английского А.А. Алексеева. – Л.: «Наука», Ленинградское отделение, стр.266.

**Mirzayev T.** «Alpomish» dostoni nashrlari va ushbu ikki jildlik haqida . – «Alpomish», Q.P. – Т.: «O‘zbekiston», 1993, 219-224-betlar.

**Mirzayev T.** «Alpomish» dostonining o‘zbek variantlari. – Т.: «Fan», 1968, 172-bet.

**Mirzozoda X.** Ta'rixi adabiyoti tochik. Az davri qadim to asri XIII. Kitobi I. – Dushanbe: «Maorif», 1987, 400-bet.

**Неклюдов С.М.** Исторические взаимосвязи Восточных влияний в Европейском эпосе. – В сб.: Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада. – М.: «Наука», 1974, стр. 192-274.

**Нейхард А.А.** Скифский рассказ Геродота в отечественной историографии. Под ред. И.А. Шишовой. – Л.: «Наука», Ленинградское отделение, 1982, стр.240.

**Путилов Б.Н.** Русский и южнославянский героический эпос.: Сравнительно-типологическое исследование. – М.: «Наука», 1971, стр.316.

**Путилов Б. Н.** Героический эпос и действительность. – Л.: «Наука», Ленинградское отделение. 1988, стр.225.

**Раевский Д.С.** Очерки идеологии скифо – сакских племен. – М.: «Наука», 1977, стр.216.

**Rahmonov N.** Ko'hna bitiktoshlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991, 111-bet.

**Rahmonov N.** Turk xoqonligi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993, 144-bet.

**Rahmonov N.** Ruhiyatdagil nur murodi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002, 128-bet.

**Сагалаев А.М.** Мифология и верования алтайцев. Центрально Азиатские влияния. – Новосибирск, 1984, стр.121.

**Суразаков С.С.** Алтайский героический эпос. – М.: «Наука», 1985, стр.256.

**Суразаков С.** Алтайский героический эпос и сказание «Маадай кара». В кн. «Маадай кара». Алтайский героический эпос., Горно – Алтайское отделение Алтайского книжного издательства, 1979, стр.227-260.

**Стеблева И.В.** Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в ранне-классический период. – М.: Главная редакция восточной литературы изд-во «Наука», 1976, стр.215.

**Стеблева И.В.** Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – М.: 1971, стр.299.

**Сулейменов О.** Аз и я. – Алма-ата, «Жалынь», 1990, стр.592.

**Sulaymonova F.** Sharq va G'arb. – T.: «Fan», 1991, 160-bet.

**Tolstov S.** Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – T.: O'zFan, 1964, 440-bet.

**To‘xliyev B.** Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari. – T.: «O‘zbekiston», 1991, 64-bet.

**Чиковани М.Н.** Народный грузинский эпос о прикованном Амирани. – М.: «Наука», 1966, стр.328.

**Yunusaliyev B.** «Manas» eposi haqida. («Manas» kitobiga so‘z boshi). – T.: 1964.

**Shoniyozov K.** Qang‘ davlati va qang‘lilar. – T.: «Fan», 1990, 168-bet.

O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 томлик. I том. Eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha. Mas’ul muharrir: A.Qayumov. – T.: «Fan», 1978, 328-bet.

O‘zbekiston xalqlari tarixi. – T.: «Fan», 1992, 188-bet.

O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. Tuzuvchilar N.Rahmonov, H.Boltaboyev. – T.: «Fan», 2003. 332-bet.

**Qayumov A.** Beruniy va adabiyot. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974, 141-bet.

## MUNDARIJA

<i>B. VALIXO'JAYEV. Turkiy adabiyotning</i>	
<i>qadimiy qatlamlari .....</i>	3
Kirish .....	6

## BIRINCHI QISM

<b>Qadimgi turkiylarning diniy marosimlari</b>	
<b>va ularning badiiy adabiyotdagi ifodasi .....</b>	13
Totemizm .....	14
Targ'itoy afsonasi .....	14
Skifning tug'ilishi afsonasi .....	15
Bo'ri urug'lari afsonasi .....	18
Tabiatdag'i ulkan narsa .....	20
Qo'rqlas sigir .....	20
Animizm .....	21
Odamning yaratilishi .....	22
Barhategin afsonasi .....	22
Ko'k Tangri dini .....	23
Gelios va Mitra .....	28
Shomoniylilik .....	30
Magiya .....	34
Buddizm yoki burhoniylilik .....	36
Monylik .....	38
Monyilar tavbano'masi .....	39
Zardushtiylik .....	42
«Avesto» .....	42
Gaya Marta .....	44
Fishtar .....	46

Xristianlik .....	48
«Bibliya» .....	49
To‘fon .....	52
Anoxors va Skilning jazolanishi .....	55

## IKKINCHI QISM

<b>Turkiy qavmlarning shakllanish davri adabiyoti .....</b>	<b>60</b>
Skiflar tarixi va ularning ijtimoiy hayoti bilan bog‘langan rivoyatlar .....	60
Ko‘r qullar rivoyati .....	63
Doroning Skifiyaga yurishi .....	64
Shohga bo‘ysunmagan kimmerlar afsonasi .....	74
Skiflar «ov»i afsonasi .....	76
Alp Er To‘nga shaxsiyati va u haqda yaratilgan asarlar .....	76
«Alp Er To‘nga» dostoni .....	80
«Alp Er To‘nga» marsiyasi .....	87
Massagetlar va ular to‘g‘risida yaratilgan afsonalar .....	88
Malika Tomir haqida qissa .....	89
Qadimgi turkiy qahramonlik afsona va rivoyatlari .....	96
Malika Zarina .....	96
Zarina qissasi .....	97
Striangey va Zarina qissasi .....	98
«Oysuluv» dostonining bayoni .....	99
Malika Sparetra .....	102
Zariadr va Odatida .....	103
Sherak qissasi .....	104

## UCHINCHI QISM

<b>Turkiy adabiyotning dostonlar davri .....</b>	<b>109</b>
O‘g‘uzxon shaxsiyati va u haqda yaratilgan asarlar .....	109
O‘g‘uzxon rivoyati .....	110
«O‘g‘uznama» dostoni .....	113
Turk xoqoni Shu va Iskandar dostoni .....	129
Erguna kun .....	134
Qadimgi qirg‘izlar va «Manas» dostoni .....	136

«Qo'rqt ota kitobi» va uning turkiy adabiyotda tutgan o'rni .....	141
Boybo'rabek o'g'li Bamsi Bayrak haqida	
qo'shiq (Parcha).....	144
Oltoy turkiylari adabiyoti .....	153
Olamning yaratilishi .....	155
Ku tay afsonasi .....	162
Maaday qora .....	166

## TO'RTINCHI QISM

### **Turkiy adabiyotning jahon xalqari adabiyoti bilan**

mushtaraklik davri .....	171
Shumer adabiyoti .....	171
Bilgamish dostoni .....	173
Qadimgi turkiylar va yunon adabiyoti .....	183
Eor pata (Erlardan kuchli)lar qissasi .....	189
«Algomish» dostonida .....	194
«Odisseya» dostonida .....	195
Yunon va turkiylar adabiyotida tepako'zlar obrazi .....	198
Prometey obrazi yaratilishining turkiy manbalari .....	209
Fors-tojik adabiyotida Afrosiyob haqida	
yaratilgan afsonalar turkumi .....	214
Turkiylar obrazi qadimgi gruzin, german, rus va slavyan xalqlari adabiyotlarida .....	234
Gruzin adabiyoti .....	234
Amiranning tug'ilishi .....	236
Rus va slavyan xalqlari adabiyoti .....	244
Qadimgi turkiy adabiyotda badiiy tarjima .....	248

## BESHINCHI QISM

### **Turkiy adabiyot tarixida yangi davr yoki qabr**

toshlari davri adabiyoti .....	263
Toshbitiklarning o'rganilish tarixi .....	263
O'rxun bitiklari .....	266
Enasoy bitiklari .....	309

<b>Qadimgi turkiy adabiyotning janr xususiyatlari .....</b>	<b>324</b>
Bilik .....	325
O‘tluk .....	326
Tabzug‘ .....	327
Sandrush .....	329
Yig‘i-yo‘qlov .....	332
To‘rtlik .....	334
Tuyuq .....	336
Alqish .....	337
Qarg‘aq .....	338
Qoshug‘ .....	339
Yir .....	341
Ko‘g .....	342
Sav .....	344
Sav – otalar so‘zi .....	346
Savlashdi .....	348
Irq bitigi .....	350
Tangrikla .....	353
Xulosa .....	357
Qo‘llanmadagi adabiy matnlarga ayrim izohlar .....	361
Tavsiya etiladigan adabiyotlar ( <i>Адабиётлар</i> ) .....	365

*O'quv-uslubiy nashr*

**ABDURASHID ABDURAHMONOV**

**TURKIY ADABIYOTNING QADIMGI DAVRI**  
*(O'quv qo'llanma)*

Muharrirlar A.QUTBIDDIN,  
Z.HASANOVA

Badiiy muharrir B. BOZOROV  
Tex. muharrir YE. DEMCHENKO  
Musahhih N.MINAHMEDOVA

Kompyuterda sahifalovchi F.BOTIROVA

**IB № 4120**

**Bosishga 21.12.2005 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32.**

**Bosma tobog'i 11,875. Shartli bosma tobog'i 19,95.**

**Adadi 1000 nusxa. Bahosi kelishgan narxda.**

**Buyurtma № 254.**

**«Yangi asr avlod» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.**

**«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.**

**700113 Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.**

## **IZOHLAR UCHUN**

---

## **IZOHLAR UCHUN**

---



### ABDURASHID ABDURAHMONOV

1947-yilda Samarqand viloyatida tug'ilgan. Samarqand Davlat universitetining o'zbek adabiyoti tarixi kafedrasida dotsent. Mumtoz va hozirgi davr adabiyoti muammolariga bag'ishlangan «O'zbek adabiyoti tarixining qadimgi davri», «Alp Er To'nga (Afrosiyob) abadiyati», «Qadimgi turkiy adabiyot», «Turkiy xalqlar og'zaki ijodi» kabi kitoblar, 30 dan ortiq ilmiy va uslubiy qo'llanmalarini chop etilgan.

